



ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC JOURNAL

2021-yil, 2-son (126) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Filologiya, Pedagogika

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro'yxatdan o'tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro'yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR
BOSH MUHARRIR O'RINBOSARLARI:

R. I. XALMURADOV, t.f.d. professor
H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.n., dotsent
A. M. NASIMOV, t.f.d., professor

TAHRIRIYAT KENGASHI:

S. S. G'ULOMOV	- O'zFA akademigi
A. SAGDULLAEV	- O'zFA akademigi
B. E. ERGASHEV	- t.f.d., professor (SamDU)
B. S. G'OYIBOV	- t.f.d., professor (SamDU)
S. K. KARIMOV	- fals.f.d., professor (SamDU)
J. Ya. YAXSHILIKOV	- fals.f.d., professor (SamDU)
N. U. ARABOV	- i.f.d., professor (SamDU)
Sh. A. HASANOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
S. A. KARIMOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
M. MUXIDDINOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
N. Sh. SHODIEV	- ped.f.d., professor (SamDU)
M.M. MAXMUDOVA	- ped.f.d., professor (SamDU)
NAZIF SHAHRANY	- Indiana universiteti professori (AQSh)
KIM SUNGHAE	- Daeju universiteti professori (Koreya)
BYLAPPA MANJUNATH	- Don Bosko boshqaruv maktabi professori (Hindiston)
TAMIR KLEIN	- Veysman ilmiy tadqiqot instituti professori (Isroil)
HIROAKI HUZIE	- Osaka universiteti professori (Yaponiya)

Obuna indeksi – yakka tartbidagi obunachilar uchun - 5583,
tashkilot, korxonalar uchun - 5584

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

FILOLOGIYA / PHILOLOGY

Umurov H.I.	
Abdulla Oripovning she'r haqidagi ilmiy qarashlari	5
Pardayev A. B.	
O'zbek tili yordamchi so'zlarida farqlash va zidlanish	9
Sobirov A. Q.	
Gapning aktual bo'linishi va so'z tartibi masalasi	13
Ubaydullayeva M.	
O'zbek va Qirg'iz adabiyotshunoslik terminlarining mavzuiy guruhlar tahlili	18
Xo'jamurodova O.	
Gulchilik terminlarining kompozitsiya usuli bilan yasalihi	21
Qarshiyev K. A.	
Jamol Kamol ruboiylarida mumtoz an'anaviylik tasviri	25
Maxammadiyev X.L.	
Alisher Navoiy asarlarida kiyim-kechak nomlari tahlili haqida	29
Hamidova M.A.	
Ingliz va O'zbek tillarida o'timli fe'llar tasnifi muammosi	33
Kambarova M. M.	
Terminology and the translation issues	38
Narziyeva M. N.	
Abdulla Oripov ijodida tabiat manzaralari talqini (<i>yil fasllari misolida</i>)	41
Ulugova Sh.Sh.	
Badiiy matnda konseptual metafora tuzilmalarining faollashuvi	48
Shamaxmudova A.F.	
Hurmat tamoyillarini til tizimida voqelantiruvchi lisoniy harakatlar	55
Turniyazov B. N.	
Kauzativlikning makromatnda ifodalanishi	58
Sharipov F.G.	
O'zbek tilining so'z yasalihi A.G'ulomov o'rni	68
Mardiyev T.K.	
"Do'stlik" konsepti metaforik ifodalanishi va qiyosiy tahlili	71
Babayeva S. B.	
"Genetik" romanining badiiy tilida poetik tafakkur ifodasi	75
Abduraxmanov S. M.	
Nemis tilidagi fe'l boshqaruvini talabalarga derivativ ifodalar orqali tushuntirish	78
Yunusova D. A.	
She'riy matnlarda metaforaning uslubiy imkoniyatlari	81
Shodmonova S.B.	
"Boburnoma" matnidagi vaqt o'lchov birliklari tarjimalarining lingvokulturologik xususiyatlari	85
Negova F. Sh.	
Challenges in Designing ESP Courses	88
Aslanova H.	
Gadoiy ijodi Alisher Navoiy nigohida	91
Toshpo'latov A.	
Hikmatlarga ko'chgan mo'jizakor kimyo	94

Muxitdinova N.

Muhammad G'oziy ijodida salaflar uslubiga izdoshlik ko'rinishlari

96

PEDAGOGIKA / PEDAGOGICS**Baysarieva Ch.U., Alikulov B.S.**

Elektron ta'lim sharoitida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish - pedagogik muammo sifatida

101

Xusamboeva X. G.

Maktab ta'limini rivojlantirish uchun ustozlarga yuksak-hurmat, ehtirom ko'rsatish - jamiyatimizda oliy qadriyat darajasiga ko'tarilishi zarur

104

Imomkulova O.N.

Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini matematik tayyorgarligini takomillashtirish

109

Bobomurodova L.E.

O'quvchilar kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni

113

Igamov S.S.

Xalq hunarmandchiligining tarixiy taraqqiyotini o'rganish va o'rgatish pedagogik muammo sifatida

117

Nalibayeva Z. O., Nazirova D.R.

Oliy ta'lim tizimi o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishning ayrim jihatlari

120

Mustafayev Sh.N.

Artpedagogika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiyani modernizatsiyalashning badiiy-estetik omili sifatida

124

Xodjayorova B.A.

O'smir yoshidagi bolalar ijtimoiylashuvining nazariy- metodologik asoslari

128

Kholboyeva G. Kh.

Mechanisms for improving primary gymnastics in increasing the physical activity of children in preschool education

131

Xasanova X. N.

Kimyo darslarining sifat va samaradorligini oshirishda didaktik o'yinlardan foydalanishning o'rni

135

Yuldasheva S. T.

Talabalarni badiiy qadriyatlarga bo'lgan estetik ehtiyoj omili sifatida faollashtirishning pedagogik asoslari

138

Yadgarova O.I.

Kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish asosida o'qituvchilarni professional faoliyatga tayyorlash tizimi

141

Turg'unov A. A.

Maktabgacha yoshdagi bolalar xotirasini rivojlantirishda psixologning vazifalari

145

Karakhonova O. Yu.

Methodology for the development of logical thinking in primary schoolchildren

150

Parmonov A. A.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar va ularni ta'lim jarayoniga joriy etishning zarurati

155

Taylakov U.K.

Umumta'lim maktablarida «Informatika va axborot texnologiyalari» fanidan elektron darsliklarni yaratishga qo'yiladigan talablar

159

Kadirov T.B.

Malaka oshirish ta'limi jarayonida o'qituvchi mediakompetentligini shaxsiy va kasbiy rivojlanishning muhim omili

162

Husanov F. O.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi monitoringini tizimli tashkil etishni takomillashtirish

166

Ismoilov T.I.

Avtonom ta'lim muassasalari ta'limni rivojlantirish uchun katalizatorlar sifatida 169

Лутфиллаев У.М.

Технология разработка и использования в учебном процессе виртуальных лабораторий в веб-приложениях 174

Suyunov O. J.

Ta'lim jarayonini tashkil etishda innovatsion texnologiyalar va pedagogik mahorat asoslaridan foydalanish 179

Xasanov A.A.

Muloqot kompetensiyasining mohiyati 183

Jumaniyozova M.T.

O'qituvchining kasbiy kryeativligi va uni rivojlantirishning ilmiy- nazariy asoslari 188

O'tanov O'.Q.

Yosh avlod ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda oila, mahalla va ta'lim muassasasi uzluksizligini ta'minlashning ijtimoiy pedagogik masalalari 193

Nazarova Z.T.

Malaka oshirish jarayonida "Tarbiya" fani o'qituvchilarining ijtimoiy kompetentsiyalarini rivojlantirish 197

Qodirov A. X.

Jamiyatda sog'lom muhit yaratishda rahbar kadrlarning o'rni: ilmiy muammo va amaliy tavsiyalar 200

Mualliflarga

UDK: 494.3

ABDULLA ORIPOVNING SHE'R HAQIDAGI ILMIY QARASHLARI

H.I.Umurov

Samarqand davlat universiteti

Annotasiya. Shoir Abdulla Oripovning "Ehtiyoj farzandi" asari misolida she'riyatning sirlari tadqiq va tahlil qilinadi. She'riyatning qismatga aylanish jarayoni o'rganiladi.

Kalit so'zlar: She'r va she'riyat. A.Oripovning "Ehtiyoj farzandi" asari. Samimiy soddalik. Yuksalishning murakkab davri. Buyuk soddalik.

Научный взгляд Абдулла Арипова о стихе

Аннотация. На примере стихотворения А.Арипова «Этиж фарзанди» производится анализ и синтез лирики. Изучается процесс перехода лирики в участь (судьбу).

Ключевые слова: лирика и стихотворение. Произведение А.Орипова «Дитя нужды». Искренняя простота. Сложный период возвышенности (восхождения). Великая простота.

Abdulla Aripovs scientific views on poetry

Abstract. The secrets of poetry are studied and analyzed in the example of the poet Abdulla Aripov's work "Child of demand". The process by which poetry is studied.

Keywords: A. Aripov's work "Child of demand". Sincere simplicity. A complex period of ascension. Great simplicity.

She'ning nima uchun yozilishini, uning qanday tug'ilishini, tabiatini, ruhiyatini, haqiqiy she'ning soxta she'rdan, san'atkorning o'rtamiyona shoirdan farqlarini anglash yo'lida she'riyat qismatiga aylangan mashhur shoirning saboqlarini, talablarini, amallarini o'rganish g'oyatda bebahodir. Chunki bugungi kunda yaratilayotgan she'rga o'xshash minglab sayoz asarlar, to'plamlar, saylanmalar urchiyotgan davrda chinakam she'r qanday bo'lishi lozimligini eslatish zaruratga aylanganligi hech kimga sir emas. 1980 yillarda "Bizda shunday shoirlar borki, nomini hamma biladi-yu, chinakam bir satrini kimsa bilmaydi," deb Erkin Vohidov yozgandi.

Bu haqiqatga 40 yil o'tganiga qaramay, bugungi ahvolimiz undan ham battardir.

Shunday shoirlar borki, hatto o'zlari chiqargan o'nlab kitoblarining nomlarini ham to'liq eslay olmaydilar, kitobxonlarni esa gapirmasak ham bo'ladi.

Xo'sh, Abdulla Oripov kuzatishlariga e'tibor qilaylik-chi?

Uning yozishicha, "Umuman she'riyat kishi qalbiga, eng avvalo, ruhiy tashnalik, cheksiz ehtiyoj, ajib bir sehr tariqasida kirib keladi, shekilli. Shuning uchun men she'riyatni ehtiyoj farzandi, deb atayman...she'r inson ruhining birinchi g'ayritabiiy, ayrica holatida tug'iladiki... faqat ijod dardiga chalingan odamda bu tuyg'u cheksiz armonga, go'zal iztirobga, qondirilishi nihoyatda zarur bo'lgan ehtiyojga aylanadi. Bu ehtiyoj chinakam shoirni umr bo'yi ta'qib etadi" (Ehtiyoj farzandi- Tanlangan asarlar, 4-jild, 29-bet. Bundan keyin faqat sahifalar ko'rsatiladi.) U davom etadi:

"She'r yozib turgan shoir o'sha daqiqada faqat she'r zavqi bilan yashaydi... zavqli mehnat quyunida o'zini nihoyatda baxtiyor his etadi.. uning zavqidan daho san'atkor ham, g'o'r havaskor ham bebahra qolmaydi".

Dastavval, "ehtiyoj" so'zining "Biron narsaga bo'lgan talab, hojat, zarurat" kabi ma'nolari ham borligini nazarda tutsak, shoir nazarda tutgan zaruriyatni ham, talabni ham, muhtojlikni va shularga mos tarzda she'riy farzandni ham anglaymiz.

Yana shuni ham bilmog'imiz kerakki, she'r mukammal go'zalligi bilan umriboqiylikka daxldordir. Har qanday qalbni insoniylikka, kamolotga chorlovchi nurdir. "Ko'z ilg'amas mayda bir dona kabi, san'atkorning ko'ngliga bir nur tushadi-yu ana shu barakatli va serhosil zaminda gurkirab chiqib, barq urib o'saboshlaydi-da, go'zalligi va hayoti mukammal bir shakl va obrazlarga kiradi: so'ngra butunlay aloqada, yaxlit va o'ziga biqiq bir olam bo'lib maydonga chiqadi, bu olamda ayrim-ayrim qismlarning hammasi bir butunga mos bo'lib tushadi hamda har bir qism o'ziga mustaqil bo'lgan o'z-o'zida biqingan bir obraz bo'lgani holda, ayni zamonda bir butun narsaning zaruriy qismi bo'lib ham yashaydi va to'liq taassurot hosil qilishga yordam beradi. Huddi shuningdek tirik inson ham o'ziga alohida va o'z-o'zida biqingan bir olamdur: uning organizmi son-sanoqsiz juda ko'p organlardan tarkib topgan bo'lib, bu organlarning har qaysisi ajoyib ravishda bir butun, tugal va alohida bo'lgani holda, jonli organizmning jonli bir bo'lagidir va bu organlarning hammasi bir organizmni, bitta yaxlit vujudni, individualni tashkil etadi. Tabiat yaratgan

har bir narsada uning eng quyi jismi bo'lgan ma'dandan tortib to eng yuqori jismi bo'lgan insongacha, hammasi mukammal bo'lib, yetishmaydigan va ortiqchalik qiladigan hech bir narsa yo'qdir; balki har bir mucha, har bir tomir, hatto oddiy ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan qildek narsa ham zarur bo'lib, joy-joyida turadi. Demak, san'at ijodiyotida ham mukammal bo'lmagan, yetishmaydigan va ortiqchalik qiladigan hech narsa bo'lmasligi kerak: balki har bir xususiyat, har bir obraz zaruriy bo'lmog'i kerak va o'z joyida turmog'i kerak! (V.G. Belinskiy. Tanlangan asarlar, T.: O'z SSR davlat nashriyoti 1955, 16-17-betlar).

Va ayni paytda, "Sof lirik asar go'yo bir kartinaga o'xshaydi, lekin unda, muhim narsa kartinaning o'zi emas, u bizda uyg'otgan sezgidir." (Yuqoridagi asar, 142-bet).

Ana shu xulosalarga tayangan holda ("Adabiy ijod asoslari", 40-41-betlar) ana endi "Ehtiyoj farzandi" degan nomning ildizini, mohiyatini to'g'ri anglaymiz va A.Oripovning topqirligiga tan beramiz. Adabiy ijod jarayonini ko'pincha ayolning boshqorong'i bo'lishi, homila ko'rishi va tug'ilishiga o'xshatishadi. Buning asosi bor. Obraz ham amalga keladi, oy-kuni, vaqti-soati yetiladi va oxiri tug'iladi.

Shuning uchun ham Mirmuhsin "Yozuvchi uchun hamma asari ham farzandidek aziz... shaxsan men uchun "Degrez o'g'li"... hayotimning yaxlit bir bo'lagi" [2], - deb yozadi. S. Ahmad "Mening jiddiy hikoya yozishim xuddi ayol kishining ko'z yorishidek azobli bo'ladi" [2, 82], - deb ta'kidlaydi va ikkinchi bir o'rinda "Oy-kuni yaqin ayolni ikki yo'l o'rtasida turibdi, deyishadi. Ayol yo bola tug'adi, yo halok bo'ladi. Ana shunday azoblar bilan bola tuqqan xotinlar bor... Yozuvchi ham xuddi shu onaga o'xshaydi" [2, 101], - deya o'z "daxlsiz" dunyosi bilan tanishtiradi.

V.G.Belinskiy ham o'zining "Yevgeniy Onegin" tahliliga bag'ishlangan 5-maqolasida: "Ona chaqaloqni qornida paydo bo'lishidan to oy-kuni yetguncha saqlaganidek, san'atkor ham o'zida poetik fikrning urug'i (homilasi)ni paydo qiladi, oy-kuni to'lguncha saqlaydi; ijod jarayoni bola tug'ish jarayoniga monandir va bu jismoniy hodisaning ma'naviy azoblari san'atkor uchun begona emas", [3] - deb adabiy ijod yakuni bilan bola tug'ilishi o'rtasidagi moslikni alohida qayd etadi.

A.Oripov maqolada Gyotening ijod jarayonini soddalik, murakkablik va yana soddalikka bo'lib izohlashiga tayanib, ijod jarayonini uch bosqichga bo'lib o'rganadi.

1. Samimiy soddalik

Birinchii bosqichda bo'z bola shoir faqatgina samimiyat bilan ish ko'radi uning hayot haqidagi fikrlari nechog'li ibtidoiy bo'lmasin, she'riy texnikasi nechog'li g'o'r ko'rinmasin - uning orqasida toza, pokiza, samimiy yurak urib turadi. Hatto uning tuqigan yolg'onlari ham samimiy bo'ladi" (29-bet).

"Shoirning tarbiyasi, agar bu zarur bo'lsa, xuddi mana shu joydan boshlanmog'i zarur. She'r texnikasini egallash mavsumi ham, adabiyotning cheksiz chamaniga parda kutarib mo'ralaydigan chog'lar ham mana shu o'smirlik yillariga to'g'ri keladi" (29-bet).

Darhaqiqat, adabiy ijodning qobiliyat, talant, ilhom, mahorat, ilk reja va uning tug'ilishi, rivojini, hayot va adabiyotning o'zaro aloqasini, asar texnikasini badiiyat sirlarini o'rganish zaruratga aylanadi.

Bu zaruriyatni qondirishga xizmat qiluvchi "Adabiy ijod asoslari", "Adabiyotshunoslikka kirish" darsliklari yaratilganligi ham bejiz emas. Undagi saboqlar barcha ijodkorlarga daxldordir, ularni uzluksiz o'rganish harakatida bo'lish-haqiqiy ijodkor bo'lish uchun asosdir.

2. Yuksalishning murakkab davri

Iste'dod talant bo'lguniga qadar hali uzoq mashaqqatlar, tinimsiz izlanishlar, shu paytgacha yaratilgan badiiyat namunalarini o'qish va ukish, go'zallik sirlarini ochish kabi uzluksiz mehnat qilish shart bo'ladi. Fidoiylik talab qilinadi. Og'ir tuyulmasa, devonalar, avliyolar birgina Allohni izlaganlaridek, butun hayotlarini shu yo'lga tikkanlaridek, badiiyat sirlarini o'rganishni qismatga aylantirish lozim. O'qimaslik, tinimsiz mehnat qilmaslik, nomigagina yashash va ijod etish, bu aslida, xarakatsizlik, to'xtab qolishdir. Xarakatdan to'xtagan suv - tez buzilganiday, "bola" - shoir yigit, er, chol bo'lganiga qaramay, faqat maqtovlarni kutib yashaydi, to'rdagi joyga talabgor bo'ladi, orden va unvonlarni undirishga intiladi (unga ba'zan erishadi ham), to'lib-toshib, maishat qilib yashashni - umrning mazmuniga aylantiradi. Shirin hayot qand kasalligiday o'limni tezlashtiradi, umrning mazmunini "ofarinchilik" kasaliga muhtalo qiladi. Iste'dod esa "bola"ligicha qoladi, shoir esa kosib degan nom oladi, uni insoniyat tez unutadi, tarix hatto nomini ham o'z kitobiga yozmaydi. Shu sababdan minglab shoir (yozuvchi)lari bo'lgan asr sarhisob qilinganda, sanoqli talantlarga borligi va ular yashashda, yaratishda davom (Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Oybek, Mirtemir, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Pirmqul Qodirov, Odil Yoqubov, Muhammad Yusuf kabi) etayotganlari aniq bo'ladi. Chunki ularning asarlarida hayotning umuminsoniy mazmuni chuqur va ta'sirchan, maftun etadigan darajada ochilgan bo'ladi, u barchaga - arabga ham, olmonga ham, inglizga ham...darslikka aylanadi.

Demak, **gap yashashning, yaratishning uzluksizligida, kashfning sifat darajasi va miqyosida. Bolalik dunyosining kashfini o'stirishda, unga sayqal berishda, uning boyligini xazinaga**

aylantirishda, xazinani jahon xalqlari bilan baham ko'rishda, ularning tuyg'ularini poklab, odamiylik bilan boyitishda, jahonni komillikka yetaklashdadir!

Shuning uchun Siz ijodkor - boshlovchilar dastlabki bosqichda to'xtab qolmang... Birinchi va dastlabki yutuqlardan esankiramang... Abdulla Qahhor aytganidek, "Talant kun sayin mehnat bilan jilo berib turilmasa, zanglab, butkul yaroqsiz holga kelib qoladigan asbob ekanidan bexabar kishilar" toifasidan bo'lmang...

Irodangizni ishga solib ilgarilang, izlaning. Siz uchun hayot xarakatdadir, faoliyatdadir, tinimsiz mehnatu mashaqqatdadir. Po'lat olovda toblanganidek, charhlanganda o'tkirlashganidek, Siz badiiyat ichida toblanasiz, rahmoniy insoniylik bilangina, uning betakror kashfi ila ulug'lanasiz. Ana shunda tug'ma iste'dodingizni talantga aylantira olasiz. Talant esa, ijod etishni qismatingizga tenglashtiradi. Yaratganingizda huzur topasiz, huzur topish uchun yaratasiz. Bu holat charchashga yo'l qo'ymaydi, to'xtashga imkon bermaydi, aksincha, tinimsiz izlanishga yetarli quvvat beradi, umrning mazmunini insoniylikning jahoniy mohiyatini kashfi tomon beto'xtov yetaklayveradi.

"Yuksak did va saviyaga ega bo'lgan ulkan mehnat zahmatlaridan chuchimaydigan, bilimdon, iste'dodli ijodkorga bunday intilish, buyuk ne'matlar keltirishi aniqdir! (32-bet). Uningcha, bu "intilishni amalga oshirishning birdan-bir chorasi esa MEHNATDIR... Did va saviya bilan ma'lum maqsadga yo'naltirilgan, bilim va iste'dod rahnomalik qilgan ongli, ijodiy mehnatgina san'atkorni pog'onama-pog'ona ko'tarishi mumkin" (33-bet) ligini a'lohida o'qtiradi.

Ijodkorlarga uchta nozik, zarur va kerakli maslahatni beradi. **Birinchisida** iste'dod uchun didning birlamchiligini uqtiradi: "Masalan, ikki sevishgan yigit va qiz maysazorda uchrashib, g'aroyib his-tuyg'ularini bir-birlariga izhor etayotganda ma'shuqaning oyoqlari daf'atan toshbaqaga tegib ketishi mumkin. Ammo o'zi g'aroyib his-tuyg'ularni tasvirlaydigan she'rga toshbaqaning kirishga haqqi yo'q" (33-bet).

To'g'ri, adabiyot hayotdagi barcha voqea-hodisalarni aks ettiradi. Ayni paytda, aytmoqchi, ko'rsatmoqchi bo'lgan g'oya talabiga mos tarzda voqealarni saralab keragini oladi. Demak, yigit va qizning sevgi tuyg'ulari tasviriga toshbaqaning ahamiyati, hosiyati yo'q, u ortiqcha, keraksizdir. Xuddi shunday adabiy saviyasi bo'lmagan ijodkorlarda toshbaqa ham tasvirlanaverishi mumkin.

Ikkinchisi. "... Ma'lum did va saviyaga ega bo'lmagan ijodkor adabiyotning birinchi elimenti bo'lmish tilning o'zidayoq kimligini bildirib qo'yadi". Didsiz shoir biror so'zni biror o'rinda eplab ishlatishi gumon. Gap shundaki, tizmalar emas, balki anchayin jiddiy she'riyat ustida ketayotibdi. Fikrimni isbotlash uchun ba'zi misollarga murojaat etaman. "Muhokamatul ul-lug'atayn"da Alisher Navoiy yig'lamoq so'zining bir necha sinonimlarini keltiradi (ular holatlar hamdir). Xususan, bo'zlamoq, o'kramoq, bo'kramoq, siqtamoq va hokazo. Bizning shoirlarimizning qahramoni yig'layapti deylik. Ammo, u qaysi sababga ko'ra va qanday holatda ko'zyosh to'kmoqda? Uzoqroq izlanishga toqati qolmagan yoki didi nomukammal shoir qahramonini umuman yig'layapti, deb qo'ya qoladi. Holbuki, haligacha o'xshash sinonimlar shoirga bunday o'rinda juda qo'l kelishi mumkin. Masalan, tasavvurimcha, bolasi o'lgan ona bo'zlaydi, ota o'kraydi. Yoki ma'lum bir satrda unli va undoshlarning uyg'un kelishi uchun tuproqni tufroq deyishga to'g'ri keladi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Afsuski, yosh shoirlarimiz ijodning mana shu kabi nozik jihatlariga ko'pincha beparvo qaraydilar" (32-bet).

Darhaqiqat, inson yuragi qanday urib tursa, qanday tovlansa, yonsa, adabiyotdagi so'z ham shunday jonli bo'lishi, tovlanishi, yonishi lozim.

O'shandagina qalb tiriklikni bildirganidek, so'z poetiklashadi, ya'ni u adabiyotga daxldor bo'ladi. Yuraksiz inson mavjud bo'lmagani kabi, so'zsiz adabiyot, so'zshunosliksiz adabiyotshunoslik ham yuzaga kelmaydi.

Shu sababdan so'z adabiyotning universal va ayni paytda, asar taqdirini hal qiluvchi muhim (birlamchi) o'rinni egallaydi.

Uchinchisi. "She'r oson yozila boshlansa, shoir xavotirga tushmog'i, orqa-oldini yig'ishtirib olmog'i lozim. Bir sham yorug'ida falon misra she'r yozdim, deb maqtangan bir shoirga, she'ringning qiymati ham bir shamga barobar ekan, deya Navoiyning bergan javobi hoynahoy, asrlardan buyon og'izdan og'izga ko'chib kelayapti. To'g'ri, bir o'tirishda yozilishi mumkin, yoziladi ham. Potrab turgan ixcham fikr, nozik, oniy chizgilar o'zining tezroq namoyon bo'lishini tilab qiladi.

Yo'qsa shoir sal o'tmay sovib qolishi mumkin. Ammo ilhomning quyilib kelishi bilan she'r ustida olib boriladigan keyingi zahmatli mehnatni bir-biridan ajratib tashlamaslik kerak. Men Pushkin, Mayakovskiy, Yesenin singari shoirlarning qulyozmalarini ko'rganman. Ular ba'zan she'rni bir o'tirishda qoralashgan. Ammo undan keyingi mehnat... aql bovar qilmaydi! She'r tuzatilaverib-tuzatilaverib, so'nggi nusxada dastlabki yozilgan so'zlardan ba'zan birontasi ham saqlanib qolmagan. **Ammo she'rning qon**

guruhi o'zgarib ketgan emas. Shoirga tashrif buyurgan dastlabki ilhom va olov kuchaysa-kuchayganki, biroq pasaymagan. Shoir she'r ustida ishlash jarayonida uni so'z san'atining mumtoz namunasiga aylantira olgan" (34-bet. Ta'kidlar bizniki – H.U.).

Hurmatli o'quvchim! Ushbu noyob maslahatni chuqurroq va dalilli anglashingiz uchun A.Muxtorning bitta to'rtligiga murojaat qilamiz. Asarni jonli vujudga o'xshatsak, shu vujudning mohiyatini ifodalovchi badiiy til ruh(jon), har bir so'z esa ana shu ruh(jon)ning rishta (tomir)laridir. Ruh va vujud (shu sabab badiiy til bir vaqtning o'zida ham mazmun, ham shakl hodisasi) shunchalik uyg'unlashganki, vobastalikda tiriladilar, ajralganlarida o'ladilar. Vobastalik, uyg'unlik doimo samimiylik va zarurlik asosida zuhur bo'lishi lozimligi badiiy asar yaratishning universal talabidir.

"Maktab o'qituvchisining So'zi o'ttiz bolaga yetib boradi.

Dorilfunun domlasining So'zi yuz talabaga yetib boradi.

Notiqning So'zi ming tinglovchiga yetib boradi.

Qalamkashning So'zi bir yo'la o'n ming, yuz ming kitobxonga yetib boradi.

Demak, uning so'z mas'uliyati ham boshqalarnikidan ming hissa ortiqroqdir", - deydi nasrdagi shoir O'tkir Hoshimov "Daftar hoshiyasidagi bitiklar"ida. Bu haq gap... Xo'sh, so'zning poetik dunyosi (ifoda – tasvir qudrati, yorqinligi, tirikligi) qanday voqe bo'ladi?

Adabiyot – so'z san'ati ekan, demak, har bir so'z, dastavval, obrazlilik xususiyati bilan namoyon bo'ladi. Bunga san'atkor tasvirlayotgan voqea-hodisaning, narsa-predmetning, tug'yon-kechinmaning yaqqol qiyofasi, holatini kitobxon ko'z o'ngida jonli qilib gavdalandiradi. Oddiy kitobxon ham uni ko'radi, his etadi va shu orqali tirik tuyg'ularni qalban va aqlan sezadi, anglaydi.

Ikki narsa og'irdir ko'nglimga asli,

Ikki narsa uchun yo'q menda bardosh:

Biri – dushmanimning shodon qahqahasi,

Biri – do'st ko'zida miltillagan yosh [4].

Asqad Muxtorning ushbu to'rtligini tahlil qilishdan ko'ra, uni yana bir o'qib, uqib yod olish va qalbingizdan chiqarib aytganingiz – o'zingizga ham, menga ham, ko'pga ham ma'qul bo'ladi. Chunki uning asosida har bir inson qalbidagi tuyg'u manaman deb turibdi, ma'nosining chuqurligi, aforizm xislati bilan – qalbdagi insoniy qudratning kuchini salmoqli, qisqa ("Yurak qoni bilan yozgan odam uzun yozolmaydi", deydi A.Muxtor) qilib, qabariqli (mubolag'ali), ta'sirdor (estetik ta'sirchan) shaklda jonlantirmoqda. Bularning barchasini asardagi so'zlar voqe qilmoqda.

Bunday dilbar to'rtlik osongina yuzaga kelmagan. Uning anchayin tarixi bor. Saydi Umirov "Da'vatkor so'z" kitobida G'afur G'ulomning so'z qiymati, salmog'i qadriga yetuvchi san'atkor ekanligini, yosh qalamkashlar uchun katta ibrat va saboq maktabi yaratganini asosli tadqiq etadi. Bu fikrlarni misollar bilan isbotlashga harakat qilib yozadi: "Bir yig'inda Asqad Muxtor xarakterli bir faktni aytib bergan edi. G'afur G'ulom ishtirok etgan mushoiralardan birida yosh shoir Asqad Muxtor tortinib – qimtinib quyidagi to'rtligini o'qiydi:

Ikki narsa og'irdir ko'nglimga asti,

Ikki narsa uchun yo'q menda toqat:

Biri – dushmanimning shodon qahqahasi,

Biri – do'st ko'zida yaltillagan yosh.

She'rdan ta'sirlangan G'afur G'ulom o'rnidan turib ketib: "Mo'ltillagan" de, joyiga tushadi", deydi. Chindan ham "Yaltillagan" so'zining "Mo'ltillagan" degan so'z bilan almashinuvi to'rtlikning ta'sir quvvatini oshirib yuborgan. Bu fakt G'afur G'ulomning so'zning potensial imkoniyatlari, nozik tovlanishini naqadar teran his etganligidan dalolat berib turibdi".

Shu o'rinda "mo'ltillagan" so'zini G'afur G'ulom taklif etmaganga o'xshaydi. Chunki har bir "so'zning nozik tovlanishini teran his etgan" shoir "mo'ltillamoq", "mo'ltaymoq"ning ma'nosi "ayanchli qaramoq, ma'yuslanib, ezilib qaramoq, javdiramoq, xayol parishonlik bilan qaramoq" ekanligini, bu holat to'rtlikdagi mazmunga yopishmasligini tushunmasligi mumkin emasdek tuyuladi. Bizningcha, G'afur G'ulom "Miltillagan" de, joyiga tushadi", degan bo'lsalar kerak, chunki shu so'zning ma'nosi – "pirpirab, kuchsiz yonib yoki yorug' berib turmoq, ko'zga arang tashlanmoq, zo'rg'a ko'rinmoq" asardagi bosh mazmun (g'oya)ga, uzukka ko'z qo'ygandek, mos keladi; ana shundagina u nozik jilolanadi, samimiyligi va shu o'ringa zarurligi bilan tiriladi. Shu sabab Asqad Muxtor "Uyqu qochganda" asarida yozadi: "Yolg'on o'zi xavfli emas, uning haqiqatga o'xshab ketishi xavfli". Bu eng zarur saboq.

Darvoqye, do'st ko'zidagi "yosh yaltillaganda" - uning ahvoli nochorligini, og'irligini bildirmaydi, balki, uning ahvoli yaxshiligini, nur taratayotganligini bildiradi. "Yosh mo'ltillaganida" esa, yolvorish, nimadandir umidvorlik, javdiramoq holati – bosh tuyg'uga aylanadi. "Yosh miltillaganda" - uning ahvoli chatoqligini, og'ir ahvolda ekanligini, pirpirab, arang yonib turganini bildiradi. Ana shu uchinchi holatdagina ma'no va mantiq o'zaro bog'lanadi, "do'stning yoshi" poetiklashadi.

Lekin hali she'rdagi so'zlarning barchasi ham poetiklashmagan, hammasi ham muayyan "yuk"ni tashimayapti. San'atkor doimo minglab so'zlar ichidan eng keraklisini tanlaydi; zargarona tanlangan ana shu so'z qahramon va sharoitning mazmuni (g'oyasi), holati bilan chambarchas bog'lanishi, u aniq estetik maqsad (mazmun)ni voqe qilishi shart. Bundan har qanday so'z badiiy asarda o'z "yuk"iga ega bo'lishi kerak, degan qoida kelib chiqadi. Shu nuqtai nazardan she'rga e'tibor qilsak, asarning birinchi variantidagi "toqat" so'zi keyingi variantda "bardosh" so'ziga almashtirilgan, bu ham bejiz emas. Agar o'zbek tilining izohli lug'atini varaqlasak, "Toqat" - "arabcha so'z bo'lib, chidam, bardosh berish qobiliyati; sabr - bardosh, to'zim"; "Bardosh" - "fors-tojikcha so'z bo'lib, chidam, sabr, toqat, matonat, to'zim" ma'nolarini berishini, ikkalasi ham deyarli bir xil mazmunni tashishini bilib olamiz. Biroq "toqat" bilan "yosh" qofiyadosh emas, "bardosh" bilan "yosh" qofiyadoshdir. She'rdagi qofiya, qofiyadagi nutq tovushlarining evfoniya (ohangdorligi) aynan shu so'zni talab qilgan, buni Asqad Muxtor tushungan va ustalik bilan topgan. O'z o'rniga tushgan so'z asarning musiqiylikini, ta'sirdorligini, bir-ikki o'qishdanoq yod olish imkoniyatini yuzaga chiqargan.

Xuddi shuningdek, to'rtlikdagi "asti" so'zi (arabcha, "aslo" ma'nosini beradi) "asli" (arabcha, "yaxshisi, to'g'risi; zotan, haqiqatda" ma'nolarini beradi) bilan almashtirilgach, hamma so'zlar poetiklashib bosh ma'noni yorqin va ta'sirchan voqe qilib, asarni, ana endi, go'zalligini, bus-butunligini ta'minlagan.

3. Buyuk soddalik

Bu bosqich "buyuk soddalikdir va unga yuksak did rahnamolik qilgan mashaqqatli mehnat tufayligina erishish mumkin" (34-bet). Shunga asoslanib, shoir qayd qiladi: "Dunyoda eng oliy baxt abadiyatdir, dunyoda eng mashaqqatli mehnat esa unga erishmoq".

Buyuk san'atkorning "Men nechun sevaman O'zbekistonni", "O'zbekiston", "Tilla baliqcha", "Sen bahorni sog'inmadingmi", "Birinchi muhabbatim" kabi o'nlab she'rlari yuqoridagi fikrlarga asosli, zalvorli, o'chmaydigan, teran isbotdir.

Abdulla Oripov birgina "Ehtiyoj farzandi" maqolasida she'riyatning dunyosini kengroq tahlil qilgan. Boshqa maqola xotira va suhbatlarida esa she'riyatning mohiyatini ochuvchi qaydlar qilgan. Ularni sizlarga kiyinroq havola qilishga kirishamiz.

Adabiyotlar

1. А.Орипов. Танланган асарлар, 7 томлик, Т., Ф. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001-2013. Sahifalari ko'rsatilmagan.
2. У. Норматов. Талант тарбияси, Т., "Ёш гвардия", 1980. Sahifalari ko'rsatilmagan.
3. В.Г.Белинский. ПСС в 15 томах, М., 1953-1974. Sahifalari ko'rsatilmagan.
4. Асқад Мухтор, Асарлар, Т., Ф. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. Sahifalari ko'rsatilmagan.
5. Х. Умунов. Бадий ижод асослари, СамДУ нашри, 2019. Sahifalari ko'rsatilmagan.

UDK 494.3

O'ZBEK TILI YORDAMCHI SO'ZLARIDA FARQLASH VA ZIDLANISH

A. B. Pardayev

Samarqand davlat universiteti
a_pardayev@mail.ru

Annotatsiya. Tilshunoslikdagi qarama-qarshilik – bu tilni o'zaro qarama-qarshi bo'lgan elementlar tizimi deb hisoblaydigan tarkibiy va funksional konsepsiyaning asosiy tushunchalaridan biridir. Qarama-qarshilik tushunchasi, ya'ni qarama-qarshi bo'linmalarning umumiy qismlarga ("taqqoslash asoslari"), qisman har xil elementlarga bo'linishini nazarda tutadi. Ushbu maqolada o'zbek tilidagi rasmiy so'zlarning qarama-qarshi munosabatlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: til tizimi, lug'at, yordamchi so'zlar, qarama-qarshilik, farqlash.

Различия и конфликты в узбекских вспомогательных словах

Аннотация. Оппозиция в лингвистике, одно из основных понятий структурно-функциональной концепции, рассматривающей язык как систему взаимоотнопротивопоставленных элементов. Понятие оппозиции предполагает, т. о., разложимость противопоставленных единиц на общие («основания для сравнения») и различные элементы, т. н. дифференциальные признаки. В данной статье рассматриваются оппозитивные отношения служебных слов в узбекском языке.

Ключевые слова: языковая система, лексика, вспомогательные слова, противопоставление, дифференциация.

Differences and contradictions in uzbek auxiliary words

Abstract. The opposition in linguistics is one of the basic concepts of structural-functional concept, which considers language as a system of mutually opposed elements. The concept of opposition suggests expandability opposing units on part of the general ("a basis for comparison"), part of the various elements called as distinctive features. This article discusses opposed relationships of function words in the Uzbek language.

Keywords: language system, vocabulary, auxiliary words, opposition, differentiation

Borliqda, tabiatda, ongda, tafakkurda zidlanishsiz hodisa bo'lmaydi va bo'lolmaydi [1]. Shu sababli lisoniy tahlilda ham istagan grammatik shakl boshqa bir – unga zidlangan shakl bilan qiyosda olinadi va sistemaviy tahlilning asosini tashkil etadi. O'zaro o'xshashlik (paradigmatik) munosabatlarda bo'lgan birliklarning (yoki birlik guruhlarining) o'xshashlik asosida ayrim farqlar bilan bir-biriga qarama-qarshi qo'yilishi ziddiyat (oppozitsiya), ziddiyatda ishtirok etayotgan birliklar (birliklar guruhi) esa ziddiyat a'zolari deb ataladi. Har bir ziddiyatda ushbu a'zolar muayyan belgi-xususiyatlariga ko'ra bir-biriga qarama-qarshi qo'yiladi [2].

Ziddiyat xususida so'z yuritganda til birliklarini dialektik o'rganishda falsafaning qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuniga ahamiyat qaratish lozim. Til tizimidagi barcha hodisalarning mohiyati ularni qarama-qarshiliklar asosida ko'rib chiqqanda ochiladi. Sh.Shahobiddinova qarama-qarshiliklar munosabati ziddiyatni tashkil qilishini aytib unga shunday ta'rif beradi: "Ziddiyat narsalarni harakatga keltiradi, ularning yashashini ta'minlaydi. Ziddiyat jamiyat va tabiatning hamma sohalarida ham hayotning – rivojlanish va o'zgarishning asosiy shartidir. Qiyosiyot hamma narsani qarama-qarshiliklar yig'indisi va birligi deb biladi. Qiyosiyot dunyoni, borliqni tinimsiz rivojlanish va o'zgarishda tasvirlaydi. Ziddiyat shu o'zgarish va rivojlanishni ta'minlaydi. Har bir narsa, u jamiyat va tabiatda mavjud ekan, o'z mohiyati bilan ziddiyatdir. Qarama-qarshiliklarni yaqinlashtirish, ularning birligini, aloqa va bir-biriga o'tishlarini ko'ra bilish – dialektik tafakkurning xususiyati. Qarama-qarshiliklar nafaqat kurashadilar, balki birlashadilar ham. Ular istisnogagina emas, taqozoga ham asoslangan" [3]

Yordamchi so'zlarning til tizimida paydo bo'lishining o'ziyiq ziddiyat natijasi bo'lib, ularning maqomi mustaqil so'zlarga zidlantirish orqali (mustaqil lug'aviy ma'noli - lug'aviy ma'nosizlikka ko'ra) belgilanadi. Bir so'z bilan aytganda, ular mustaqil so'zlar bilan, birinchi navbatda, nomlash, atash (denotativ) xususiyatiga ega-ega emasligiga ko'ra, ikkinchi navbatda shakl o'zgarish-o'zgarishligiga ko'ra, uchinchi navbatda, gap tarkibida sintaktik bo'lak bo'lish-bo'lmasligiga ko'ra zidlanadi. Aslida ko'makchi, bog'lovchi, yuklamaning bajaradigan vazifasi va mazmun-mohiyatiga ko'ra bir kategoriyaga birlashtirishning o'zi nisbiydir. Chunki bu turkum so'zlar tabiati xilma-xil bo'lib, ular uch xil pozitsiyada baholanadi. Ularni birlashtirib turgan narsa yoki birlashishga «majburlagan» holat ularning mustaqil lug'aviy ma'noga emasligi. Ular ana shu xususiyatlariga ko'ra, ya'ni nomustaqilliklariga ko'ra birlashadi va mustaqil so'zlarga nisbatan qarama-qarshi qo'yiladi. Va bu so'zlar bir-birini taqazo etishlariga va turkumlik nazariyasiga ko'ra mustaqil so'zlar bilan umumiylikda qaralib, bir paradigmaga birlashadi.

Yordamchi so'zlar kategoriyasida turli paradigmatic munosabatda bo'lgan birliklarni muayyan birlashtiruvchi semalar bilan birga, ularni o'zaro differentsial farqlovchi semalari ham mavjud. Ana shu differentsial semalar yordamchi so'zlar paradigmasidagi birliklarni o'zaro zidlanishini ta'minlaydi. Masalan, *bilan* – *va*, *va* – *hamda*, *va* – *ham*, *va* – *-u*, *va* – *-yu*, *va* – *-a*, *ham* – *bilan*, *-da* – *-yu*, *-u* – *-yu* kabi birliklar o'rtasidagi turli differentsial farqlanishlar zidlanish orqali ochiladi. Chunki paradigma a'zolarining o'zaro farqlanish xususiyatlarini zidlanish asosida yoritish sistem tilshunoslikning asosiy tamoyillaridan biri sanaladi. Zidlanishni I.Qo'chqortoyev shunday ta'riflagan: "Oppoziitsiya usuli tilning sistemali tabiatidan kelib chiqadi. Til birliklari ma'lum oppoziitsiyalar yordamida sistemalarga birlashadi. Bundan oppoziitsiya va sistema tushunchalari o'zaro bog'liq bo'lgan, biri ikkinchisini taqozo etadigan tushunchalar ekanligi ma'lum bo'ladi.

Oppoziitsiya tushunchasi dastlab munosabat, aloqa tushunchasini o'z ichiga oladi. Lekin munosabatning o'zinigina oppoziitsiya deyish til sistemasini adekvat tasvirlashga olib kelolmasligi so'nggi yillarda ma'lum bo'lib qoldi. Oppoziitsiya tushunchasi bir-biri bilan munosabatga kirishuvchi elementlarni ham o'z ichiga oladi. Frantsuz tilshunosi A.Martinening yozishicha, bir paradigmatic klass (gruppa, to'da)ga kiruvchi ikki elementning o'zaro munosabati oppoziitsiya hisoblanadi. Demak, tarkibida o'zaro teng (umumiy) va farqli (xususiy) elementlari bo'lgan ikkita lingvistik birlikning bir-biriga munosabati oppoziitsiya deyiladi [4].

Darhaqiqat, lingvistik birliklarni ma'lum turkumlarga birlashtirishda birlashtiruvchi semalar qanchalik xizmat qilsa, bu turkum a'zolarini bir-biridan ajratishda farqlovchi semalar muhim vazifa bajaradi.

Farqlash tushunchasi zidlanish tushunchasini taqozo etadi. Ikki narsa bir-biridan faqat o'zaro zid qo'yilgandagina farqlanadi. Zidlanishlar zidlanuvchi a'zolari farqlash uchun xizmat qiladigan belgilarnigina emas, balki har ikki zidlanayotgan a'zolar uchun umumiy bo'lgan belgini ham taqozo etadi. Bunday belgilar qiyoslash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Qiyoslash uchun asos belgiga ega bo'lmagan ikki narsa o'zaro zidlanishi mumkin emas. Qiyoslash uchun asos bo'lgan belgiga ko'ra zidlanishlar ikki turli bo'ladi: 1) bir o'lchovli; 2) ko'p o'lchovli. Bir o'lchovli zidlanishlarda zidlanuvchi a'zolarining zidlanishlari uchun asos bo'lgan belgi faqat shu zidlanish uchungina xos bo'lib, zidlanish sistemasining boshqa a'zolarida uchramaydi. Bir o'lchovli va ko'p o'lchovli zidlanishlarning ajratilishi tilshunoslikda juda katta ahamiyatga ega. Bunday zidlanishlar tilning barcha sathlarida uchraydi [5]. Jumladan, til tizimida yordamchi so'zlardan foydalanish jarayonida ham turli zidlanishlarga asoslaniladi. Misol tariqasida bilan-va yordamchilarini umumlashtiruvchi (o'xshash) va farqlanuvchi (zidlanuvchi) tomonlarini ko'rib o'tamiz. Bu ikki yordamchi so'z tenglashish aloqasi markeri sifatida tenglik munosabatini hosil qiluvchi uyushiq bo'laklarni, qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'lashi xususiyatiga ko'ra birlashadi. Ammo funktsional uslublarda qo'llanishiga ko'ra (bilan –so'zlashuv uslubiga xos bo'lsa, va - kitobiy uslubga xos), nutqning tabiiyligini ta'minlashga, uslubiy buyoqdorlikka hamda biror harakat bajarilishining tezligini anglatishiga ko'ra bular zidlashadi. Bu holatni A.Hojiev shunday ifodalaydi: "...bilan so'zi ...o'ziga mos ma'no ottenkasi, qo'llanishi va boshqa xususiyatlari bilan va bog'lovchisidan farqlanadi. Masalan, va bog'lovchisi tenglik (birgalik), ketma-ketlik kabi bir necha xil munosabatlarni ifodalagan holda, bilan faqat birgalik (birlik) ma'nosini bildiradi; va bog'lovchisi oddiy so'zlashuvda deyarli qo'llanmaydi, bilan esa keng qo'llanadi va hokazo. Ana shu o'ziga xos xususiyatlari bilan va, bilan bog'lovchilari, bir turga oid (teng bog'lovchi) bo'lsa-da, lekin o'zaro farqli bog'lovchilar sifatida hozirgi o'zbek tilida (o'z o'rnida) keng qo'llanadi" [6]. Bu birliklar ifodalanayotgan jumladagi uslubiy farqlanish, nutqiy qisqalikni ifodalash, stilistik ma'no buyoqdorligining ko'p-kamliligi, kuchli-kuchsizligi bo'yicha ham o'zaro zidlashadi.

Bilan-va xususida "Zamonaviy o'zbek tili" mualliflari ham o'z munosabatlarini bildirishgan: "...bog'lovchi vazifasidagi bilanning va, ham biriktiruv bog'lovchilaridan farqlanadigan o'ziga xos xususiyati bor:

- "birgalik" ma'nosi bilan yordamchisi uchun xos: Chodir sahnasidan bir qiz bilan yigit chiqib o'yin qildi. (M.Ism.) Misoldagi bilan o'rnida va ni qo'llasak, yuqoridagi ma'no kelib chiqmaydi, balki qiz bilan yigitning alohida-alohida o'ynagani ma'nosi ifodalanadi;

- va, ham bog'lovchisi uyushib kelgan fe'l kesimni bog'laydi, ammo bilanda bu imkoniyat chegaralangan. Qiyoslang: Lola ishlaydi va o'qiydi. Lola ishlaydi ham o'qiydi. Ammo Lola ishlaydi bilan o'qiydi tarzidagi gap nutqda ishlatilmaydi. Bilan ning grammatik vazifasi bog'lovchi va ko'makchi vazifasida kela olishi; shunga ko'ra, bilan boshqa ko'makchidan farqlanadi. Shuning uchun bilan ko'makchisi ko'makchi-bog'lovchi termini bilan atalganda, barcha xususiyati namoyon bo'ladi. Bu ko'makchi turi gapda vosita ma'nosini bildirganda, to'ldiruvchi; sabab, payt, harakatning bajarilish tarzini bildirganda hol vazifasida keladi [7].

Bu xususda T.Turdiyev bildirgan mulohaza ham diqqatga sazavor: "Bilan yordamchisi tenglashish aloqasini ifoda etganda, sodda gaplar tarkibida, aniqrog'i, material jihati ot, otlashgan so'z va olmoshlarga teng keluvchi uyushiq bo'laklarni bog'laydi, biriktiruv bog'lovchisi va ning ma'no va vazifasiga moyil ma'no va vazifa bajaradi – tenglashish aloqasiga asoslangan sintagmatik butunlik hosil qiladi: Ota bilan onaning xizmatini ado etish ham farz, ham qarz. Aslini olganda, bilan yordamchisi tenglanish aloqasiga asoslangan sintagmatik butunlik hosil qilganda va bog'lovchisi bilan chin ma'noda vazifadosh, ma'nodosh bo'la olmaydi. Bilan ko'makchisining "va"ga xos ma'no va vazifada qo'llanishi o'ziga xos pragmatik qiymat kasb etadi. Mazkur lug'aviy-grammatik (leksik-grammatik) birlikning va bog'lovchisiga xos sintaktik tavsifda bo'lib, unda va bog'lovchisining ma'no va vazifa qamrovida ko'zga tashlanmaydigan "qirra" mavjud. Bilan teng bog'lovchiga moyillashganda har xil yordamchi so'z turkumlarga xos ikki xil pragmatik qiymat ifodalaydi; bir vaqtning o'zida ham, va bog'lovchisining grammatik xususiyatiga talluqli jihat bilan ta'kid, bo'rttirish-kuchaytirish yuklamalariga xos pragmatik qiymat sinxron tavsifda qo'shib ketadi, qorishadi. Shuning uchun "Ota bilan onaning xizmatini ado etish ham farz, ham qarz" – "Ota-onaning xizmatini ado etish ham farz, ham qarz" gaplari biri boshqasidan mazmuni, grammatik jihati, kommunikativ vazifasi, nominativ qamrovi kabi xususiyatlariga ko'ra farq qilmaydi. Lekin ularning har biri o'ziga xos pragmatik xarakteristikaga ega. Ayniqsa, bog'lovchilashgan bilan ko'makchili qurilma ana shu jihatiga ko'ra muqobillashayotgan barcha "eshdosh" – "yo'ldosh"laridan sezilarli farq qiladi. Negaki, "bilan" ishtirok etgan qurilmada ta'kidlash-kuchaytirish semantikasidagi yuklamaning ma'nosi ham borki, bu ma'no, shubhasiz, bilan yordamchisi tufayli vujudga kelgan. Yana qiyoslang: Men bilan Mehrining tortgan azoblarini asti qo'yavering (G'.G'ulom). Shu gapdagi mazmunni

“Men va Mehrining...”, “Mening, Mehrining...” sintagmasi ishtirok etgan qurilmalar orqali berish mumkin edi. Lekin soʻnggi qurilmalarda shaxsiy-ruhiy kechinmalari murakkab sharoitlarda oʻtgan ikki shaxsning pragmatik qiymat bilan boʻrttirilishi maʼnosi anglashilmaydi. Ularda ana shu pragmatik hissani ifodalovchi formal-grammatik marker (bilan) ishtirok etmagan”[8]. Demak, bilan yordamchisi matnda shunchaki bogʻlashdan tashqari qoʻshimcha modal maʼno – taʼkidni ham bildirishi kuzatilmoqda.

Bu shuni anglatadiki, yordamchi soʻzlarning har bir kategoriyasiga oid belgi-xususiyatlar har doim ham mutlaq (abadiy) boʻlmaydi. Bu turkumlarni oʻzaro farqlovchi belgilar baʼzan inkor etilib, boshqa belgi-xususiyatlar bilan birlashadi. Yordamchi soʻz turkumlari transpozitsiyasi, uni yuzaga kelishiga sabab boʻluvchi omillar alohida tadqiqotni talab qiladi.

Yordamchi soʻzlarning ichki guruhlanishi ham oʻzaro zidlanish asosida qurilgan. Fizik jism tarkibidagi molekulalar bir-birini ham itarib, ham tortib turganidek, yordamchi soʻzlar ham ichki guruhlarida ana shunday holatda, yaʼni bir-biri bilan itarishib (zidlashib), bir-biri bilan tortishib (umumiy maʼnoga birlashib) turadi. Masalan, yordamchilarning har uchovida ham dastlabki oppozitsiya belgisi bajaradigan vazifasiga koʻra sof va funktsional yordamchilarga ajraladi (sof koʻmakchilar ↔ funktsional koʻmakchilar, sof bogʻlovchilar ↔ funktsional bogʻlovchilar, sof yuklamalar ↔ funktsional yuklamalar). Koʻmakchilarning grammatik tabiati sof koʻmakchilar ↔ funktsional koʻmakchilar zidlanishida yoritilsa, bogʻlovchilardagi oppozitsiya holati davom ettiriladi. Dastlab tenglashish ↔ ergashish boʻyicha zidlashtiriladi. Keyin tenglashishdagi biriktiruvchi ↔ zidlovchi, biriktiruvchi ↔ ayiruvchi, zidlovchi ↔ ayiruvchi qarama-qarshiliklari koʻrilsa, ergashishdagi aniqlov ↔ sabab, aniqlov ↔ shart, aniqlov ↔ chogʻishtiruv, sabab ↔ shart, sabab-chogʻishtiruv, shart ↔ chogʻishtiruv zidlikda boʻladi. Yuklamalar dastlab tuzilishiga koʻra zidlanadi: qoʻshimcha shaklidagi yuklamalar ↔ soʻz shaklidagi yuklamalar. Keyin oʻzaro zidlanishda davom etadi: soʻroq-taajjub yuklamalari ↔ kuchaytiruv-taʼkid yuklamalari, soʻroq-taajjub yuklamalari ↔ ayiruv-chegaralov yuklamalari, soʻroq-taajjub yuklamalari ↔ aniqlov yuklamalari, soʻroq-taajjub yuklamalari ↔ gumon yuklamasi, soʻroq-taajjub yuklamalari ↔ inkor yuklamasi; kuchaytiruv-taʼkid yuklamalari ↔ ayiruv-chegaralov yuklamalari, kuchaytiruv-taʼkid yuklamalari ↔ aniqlov yuklamalari, kuchaytiruv-taʼkid yuklamalari ↔ gumon yuklamasi, kuchaytiruv-taʼkid yuklamalari ↔ inkor yuklamasi; ayiruv-chegaralov yuklamalari ↔ aniqlov yuklamalari, ayiruv-chegaralov yuklamalari ↔ gumon yuklamasi, ayiruv-chegaralov yuklamalari ↔ inkor yuklamasi; aniqlov yuklamalari ↔ gumon yuklamasi, aniqlov yuklamalari ↔ inkor yuklamasi; gumon yuklamasi ↔ inkor yuklamasi.

Bu zidlanish yana ichki guruhlanishlarda toki har bir aʼzoning guruhdagi oʻrni aniqlanmaguncha davom etadi. Masalan, bogʻlovchilarda oʻzaro biriktiruvchi bogʻlovchilar va ↔ hamda; zidlovchi bogʻlovchilar ammo ↔ lekin, ammo ↔ biroq, lekin ↔ biroq; ayiruvchi bogʻlovchilar: yo ↔ yoki ↔ yohud ↔ yoinki, goh..., goh..., ↔ dam..., dam..., ↔ bir..., bir..., ↔ baʼzan..., baʼzan..., ↔ xoh..., xoh... zidlanishlarini tashkil etadi. Yuklamalarda soʻroq-taajjub yuklamalari -mi ↔ -chi, -mi ↔ -a, -mi ↔ -ya, -chi ↔ -a, -chi ↔ -ya, -a ↔ -ya; kuchaytiruv-taʼkid yuklamalari -ku ↔ -u ↔ -yu, -ku ↔ -da ↔ -oq(-yoq), -ki ↔ -kim, axir ↔ hatto ↔ hattoki, nahot ↔ nahotki, tim ↔ shir ↔ gʻirt ↔ liq ↔ lim ↔ gʻraq ↔ jiqqa; ayiruv-chegaralov yuklamalari -gina (-kina, -qina) ↔ faqat ↔ faqatgina, faqat ↔ yolgʻiz, -gina ↔ yolgʻiz; aniqlov yuklamalari xuddi ↔ naq kabi zidlanishlarda bu vositalarning tabiati yanada oydinlashadi. Bundan tashqari ushbu grammatik vositalar transpozitsiyalashgan birliklar bilan ham zidlikni tashkil qiladi. Chunki har bir transpondent (koʻchkin soʻz) muayyan maqsad uchun koʻchiriladi. Demak u koʻchishga majbur etildimi uning ushbu birliklar bajarolmagan biror jihatni bajarish xususiyati bor, qaysibir qirrasini bilan farqlanadi. Masalan, tenglik munosabatini ifodalashda va bogʻlovchisidan bogʻlovchiga koʻchgan bilan koʻmakchisining qanchalik qulaylik tomonlari bor ekanligini yuqorida koʻrdik.

Soʻzimiz xulosasida aytishimiz mumkinki, ziddiyat har qanday harakatning negizi boʻlganidek, u soʻz boʻladimi, narsa boʻladimi oʻzida zidlikka moyillik bor boʻlsagina, harakatda va faoliyatda boʻladi. Tilimizdagi yordamchi soʻzlarning umumiylik-xususiylik dialektikasiga koʻra farqlashda zidlanish tushunchasi qanchalik muhim ekanligini yuqoridagi tahlillarimiz orqali koʻrdik. Demak, tilning barcha sathlarida amalda boʻluvchi zidlanish yordamchi soʻzlar tizimi uchun ham alohida ahamiyatga ega ekan.

Adabiyotlar

1. Хайруллаев М., Ҳақбердиев М. Мантиқ – Т.: 88-92-б.
2. Нейматов Ҳ. Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1995. 16-б.
3. Шахобиддинова Ш. Грамматик маъно талқини хусусида: филол.фан.номз. дисс. – Самарқанд, 1992. 27-б.
4. Кўчқортюев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги - Т.: Фан, 1977. 57-б; А.Мартине. Структурные вариации в языке, в сб. «Новое в лингвистике», т. 4. М., 1965, стр.455.

5. Нурмонов А., Шахобиддинова Ш. Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология - Тошкент, «Янги аср авлоди» 2001. 14-б.
6. Ҳожиёв А. Ҳозирги ўзбек адабий тили боғловчилари ҳақида мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1988. 52-б.
7. Замонавий ўзбек тили. I жилд. Морфология. – Т. MUMTOZ SO‘Z, 2008. 436-б.
8. Турдубоев Т.Х. Ўзбек тилида ёрдамчи сўзлар конверсияси филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 1996. 67-68-б.

UDK:494.3

GAPNING AKTUAL BO‘LINISHI VA SO‘Z TARTIBI MASALASI

A. Q. Sobirov

*Samarqand davlat universiteti
sobirovanvar52@gmail.com*

Annatatsiya. Ushbu maqolada rus va o‘zbek tilshunosligidagi gapning aktual bo‘linishi va so‘z tartibiga doir ishlar o‘rganildi. Ishda gapning aktual bo‘linishi va so‘z tartibi masalasi e‘tiborga olinib, gapning aktual bo‘linishi muhim kommunikativ-sintaktik hodisa sifatida so‘zlar tartibiga bog‘lab o‘rganildi. Gapning aktual bo‘linishi mantiqiy birlik bo‘lgan hukmning bo‘laklanishi (sub‘ekt va predikatga bo‘linish)ga o‘xshaydi, degan ayrim tilshunoslarning mulohazalariga qo‘shimcha qilinib, aktual bo‘linish *mantiqiy-grammatik bo‘linish* deb nomlanishi aytiladi. Muhim aktuallashtiruvchilar qatorida: prosodik aktuallashtiruvchi vosita (mantiqiy urg‘u va u bilan bog‘liq bo‘lgan nutq tempi hamda pauza), emfatik-emotsional urg‘u (emfatik urg‘uda hissiylik kuchli bo‘ladi, unli yoki undosh cho‘ziladi), leksik va grammatik aktuallashtiruvchi vosita (*faqat, yolg‘iz, hatto, o‘zi* so‘zlari va *-gina, -oq, -yoq* qo‘shimchasi kabilar) o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: tema va rema, so‘z tartibi, aktual bulinish, sintaktik joylashuv, mantiqiy-grammatik bo‘linish, prosodik aktuallashtiruvchi vosita, emfatik-emotsional urg‘u, aktual tuzilish.

О фактическом делении предложения и порядке слов

Аннотация. В этой статье исследуются актуальность и словарный запас предложений в русской и узбекской лингвистике. В работе рассматривается фактическое разделение предложения и порядок слов, а фактическое разделение предложения изучается в связи с порядком слов как важным коммуникативно-синтаксическим феноменом. Добавляя к аргументам некоторых лингвистов, что фактическое разделение предложения похоже на разделение предложения (разделение подлежащего и сказуемого) на логическую единицу, фактическое разделение называется логико-грамматическим разделением. Важные темы: просодический актуатор (логический акцент и связанный с ним темп речи и пауза), эмфатико-эмоциональный акцент (эмоционально напряженный, гласный или согласный), лексическая и грамматическая актуализация (только, отдельно, даже; сами слова и только, - с, -с дополнением).

Ключевые слова: тема и рема, порядок слов, тематическое деление, синтаксическая организация, логико-грамматическое деление, просодический актуарный, эмфатико-эмоциональный акцент, актуальная структура.

About the actual division of the sentence and word order

Abstract. This article explores the relevance and vocabulary of sentences in Russian and Uzbek linguistics. In the work, the actual division of the sentence and the order of the word are considered, and the actual division of the sentence has been studied in relation to the order of words as an important communicative-syntactic phenomenon. Adding to some linguists' arguments that the actual division of a sentence is like a division of a sentence (a division of a subject and a predicate) into a logical unit, the actual division is called a logical-grammatical division. Important topicals: prosodic actuator (logical accent and related speech pace and pause), emphatic-emotional emphasis (emotionally intense, vowel or consonant), lexical and grammatical actualization (only, alone, even; the words themselves, and only, - with, -with the addition).

Keywords: theme and rema, word order, topical division, syntactic arrangement, logical-grammatical division, prosodic actuarial, emphatic-emotional emphasis, actual structure.

Nutq individual tabiatga ega bo'lganligi bois gapda ishtirok etayotgan so'zlar tartibi ham erkin. Biroq bu "erkinlik" hech qachon umumiy lisoniy qonuniyat doirasidan tashqarida bo'lmaydi. So'zlovchining maqsadi, uslub talabi asosida so'zlar umumiy tartibga ega bo'ladi. [R. Sayfullaeva va boshq., 2010: 361.].

1844-yil fransuz filologi A.Veyl «Qadimgi tillardagi gap tartibining zamonaviy tillardagi talqini» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini havola etdi. Mazkur ishning tezisi shundan iborat ediki, so'zlarning sintaktik joylashuv tartibi doim ham fikr g'oyasi va maqsadi bilan muvofiq kelavermaydi, biroq fikr bayoni barcha tillarda, albatta, ma'lum gap tartibi orqali ifodalanadi. Gapning odatdagi tartibida eganing yetakchi markaziy bo'lak sifatida kelishi muhim emas. Bundan kelib chiqadiki, bir fikrni turlicha sintaktik vositalar yordamida berish mumkin, biroq ana shu sintaktik vositalarni boshqa tilda muqobil tarjimasini berish yo'llarida qiyinchiliklar yuzaga kelishi shubhasiz. [Tumpyanskiy, 1974: 23] Bizningcha, hozirgi o'zbek tilida Veyl ta'kidlaganidek, ega emas, gapning markazi kesim hisoblanadi. Shu nuqtai nazaridan odatdagi tartibda so'zlarning sintaktik joylashuvini ko'p hollarda kesim belgilaydi.

Har qanday gap, o'zida ma'lum voqelikni ifodalash bilan birga, so'zlovchining axborot berishdan ko'zlagan maqsadini ham namoyon qiladi. Masalan, *O'qituvchi ishga keldi* gapida, o'qituvchining ishga kelishi voqeligi qayd qilinishi bilan birga, so'zlovchining tinglovchiga o'qituvchining qayerga kelganligi haqidagi ma'lumotni yetkazish niyati ham o'z aksini topgan. Shu boisdan gap *O'qituvchi qayerga keldi?* so'rog'iga javob bo'ladi. O'zbek tilida mantiqiy urg'u talabiga ko'ra urg'u tushgan so'z kesimdan oldinda joylashadi. Demak, ushbu gapdagi voqelik o'qituvchining qayerga kelganligi emas, balki kimning qayerga kelganligi, so'zlovchining axborot maqsadi esa o'qituvchining qayerga ketganligi haqidagi ma'lumotni tinglovchiga yetkazish. Gapni *Ishga o'qituvchi keldi* shaklida o'zgartirsak, voqelik oldingi gapdagi bilan bir xil, biroq so'zlovchining axborot maqsadi *Ishga kim keldi?* so'rog'i orqali muayyanlashadi. Birinchi gapda harakatning yo'nalishi, ikkinchi gapda harakatning bajaruvchisi – axborot mo'ljali. Gapning axborot vazifasi nuqtai nazaridan tuzilishi **aktual tuzilish** deyiladi. Aktual tuzilmaning tarkibiy qismlari aktual bo'lak deyiladi.

Rus tilshunosligida gapning aktual bo'linishi masalasini birinchilardan bo'lib maxsus o'rgangan olim I.P.Raspopovdir. U gap qurilishida aktual bo'linishning ifodalanishini, gapning aktual bo'linishini kontekst munosabatini monografik planda tadqiq etgan. Uningcha, gapning aktual bo'linishi tavsifiy sintaksisning muhim muammolaridan biri, lekin gapning sintaktik qurilishi haqida mavjud ta'limotlar bir yoqlama. Tashqi tomonlari hisobga olingan-u mohiyat xilma-xilliklari e'tibordan chetda qolgan. Va nihoyat I.P.Raspopov shu muammolar yuzasidan jiddiy tadqiqot olib borgan [Raspopov, 39-b.].

I.I. Koftunova o'zining "Zamonaviy rus tili. So'z tartibi va gapning aktual bo'laklari" asaridagi konsepsiyada bir-biriga yaqin, biri-ikkinchisini taqozo qiluvchi muammo – gapning aktual bo'linishi va so'z tartibi masalasi olinib, gapning aktual bo'linishi muhim kommunikativ-sintaktik hodisa sifatida so'zlar tartibiga bog'lab o'rganilgan.

Aktual vazifa nuqtai nazaridan gapni tashkil etuvchi unsurlar tema (ma'lum) va rema (yangi) qismlarga bo'linadi. Gapning rema qismi kommunikativ (axborot) nuqtai nazaridan ahamiyatli bo'ladi. Savol ana shu remani aniqlash uchun beriladi. Gapning tema qismi ma'lum bo'lganligi so'roq gapda aynan takrorlanadi. Yuqoridagi gaplarda tema-rematik (aktual) bo'linish quyidagicha (1-jadval):

1-jadval

Tema	Rema
<i>O'qituvchi</i>	<i>maktabga ketdi</i>
<i>Maktabga</i>	<i>o'qituvchi ketdi</i>

Gapning aktual bo'linishi mantiqiy birlik bo'lgan hukmning bo'laklanishi (sub'ekt va predikatga bo'linish)ga o'xshaydi. Shu boisdan ayrim tilshunoslar aktual bo'linishni *mantiqiy-grammatik bo'linish* deb ham nomlaydi.

Abdurauf Fitratning sintaktik qarashlari "O'zbek tili qoidalariga to'g'risida bir tajriba. Nahv" asarida o'z ifodasini topgan, asar butundan qisimga tamoyiliga amal qiladi. XX asrning 20-yillarida Fitrat Praga tilshunoslik maktabi g'oyalariga ergashib, g'apning mantiqiy bo'laklari haqida quyidagilarni bayon qiladi: "Gapdan anglashilg'on o'y mantiqchilar aytganda hukm yoki tasdiqdir. Uning-da bo'laklarga bo'linadi, ya'ni birinchisi "mavzu", ikkinchisi "mahmul"dir. Mavzu egaga, mahmul esa ko'proq kesimga to'g'ri keladi", deganda aktual bo'linishning tarkibiy asosi hisoblangan tema va remani nazarda tutadi.

Aktual bo'linish – sof nutqiy hodisa. Lekin aktuallashish lisoniy strukturadan mutlaqo uzilgan deyish noto'g'ri. Har qanday hodisa muayyan mohiyatning namoyandasi bo'lganligi kabi aktuallashish ham konstruktiv-sintaktik sathdan butunlay uzilmagan. Aktuallashishda gapning lisoniy strukturasi

unsurlari bo'lgan kesim, ega, hol, to'ldiruvchilari yoki ularning kengaytiruvchilari kommunikativ ahamiyati aktual bo'linishni keltirib chiqaradi. Shu boisdan aktuallashtirishning lisoniy asosi konstruktiv-sintaktik lisoniy sath, aktuallashtirish jarayoni esa kommunikativ-sintaktik sath deb yuritiladi.

Aktual bo'linish talabi bilan gapda so'z tartibi har xil bo'ladi. Poeziyada aktual bo'linish butun she'r tuzilishini o'ziga bo'ysundirgan vazn, ritm, qofiya va so'z tartibiga qaraganda ikkinchi darajali ekanligi bilan izohlanadi, deb ta'kidlaydi I.Mirzaev [Mirzaev, 35-b.]. Nasriy matnda o'zbek tilida gapning aktual bo'linishi va pozitsion masalalarini tadqiq qilgan K.Hayitmetovning fikricha, gapning aktual bo'linishi uni mazmun planida o'rganish, degan xulosaga keladi. Ko'rinadiki, she'riy va nasriy matnda aktual bo'linish masalasi bahsli. Nasriy matnda birlamchi bo'lsa, poeziyada qofiya, vazn va so'z tartibidan keyin turadi.

Gapning konstruktiv va nokonstruktiv bo'laklari turlicha joylashadi. Buning sintaktik qurilishga daxli yo'q. Tartib o'zgarishi bilan gap sintaktik qurilishiga putur yetmaydi. Gapda so'z tartibi aktual bo'linish bilan bog'liq. Gapdagi so'zlar o'zlarining tema yoki remaga kirishiga ko'ra joylashadi.

Axborotning tinglovchiga ma'lum parchalarini ifodalovchi so'zlar gap boshida keladi. Tema (ma'lum) haqida axborot beradi, rema esa gap oxirida, temadan so'ng keladi. Bu izchillikning buzilishi yo uslubiy bo'yoqdorlik uchun xizmat qiladi, yoki mantiqiy buzilishni keltirib chiqaradi. Agar ega guruhi tema, kesim guruhi rema bo'lsa, aktual bo'linish sintaktik bo'linish bilan muvofiq keladi: *Tomoshabinlar shodlanishdi* (ega-kesim, tema-rem).

Quyidagi gaplarning tema-rematik bo'linishini qiyoslang (2-jadval):

2-jadval

Tema	Rema
<i>Tadbirkorlar</i>	<i>kelgusi yil loyihadan ko'proq foyda ko'radilar</i>
<i>Kelgusi yil</i>	<i>tadbirkorlar loyihadan ko'proq foyda ko'radilar</i>
<i>Loyihadan</i>	<i>tadbirkorlar kelgusi yil ko'proq foyda ko'radilar</i>

Birinchi jumlada tema gapning egasi bilan muvofiq keladi. Keyingi gaplarda aktual va sintaktik bo'linish nomuvofiqligi yuz bergan. Demak, ma'lum bo'ladiki, gapdagi so'zlar o'rni o'zgargani bilan sintaktik strukturada o'zgarish yuz bermaydi. Aktual bo'linishda esa u muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

R.Sayfullaeva aktuallashtiruvchilar qatorida tartibdan tashqari boshqa vositalar ham bo'lishi mumkinligi ta'kidlaydi. Ular ustuvor qiymat kasb etganda, tartibning roli susayadi. Muhim aktuallashtiruvchilar qatoriga olima fonetik, leksik va grammatik aktuallashtiruvchilarni kiritadi:

1) **prosodik aktuallashtiruvchi vosita.** Bunday aktuallashtiruvchi vosita sirasiga mantiqiy urg'u va u bilan bog'liq bo'lgan nutq tempi hamda pauza kiradi.

Gapda nechta mustaqil so'z bo'lsa, shuncha miqdorda so'z urg'usi bo'ladi. Biroq gap qanchalik darajada yoyiq yoki yig'iq bo'lishidan qat'i nazar, unda mantiqiy urg'u bitta bo'ladi. Qaysi so'z mantiqiy urg'u olsa, shu so'z rema, gapning qolgan qismi esa tema hisoblanadi. Faqat ega va kesimdan iborat gaplarda qaysi bo'lak mantiqiy urg'u olsa, u rema maqomini oladi: 1. *Guli keldi:* *Guli* – tema, *keldi* – rema. 2. *Guli keldi:* *Guli* – rema, *keldi* – tema.

Emfatik emotsional urg'u. Emfatik urg'u ham gapdagi ma'lum bir so'zni ajratib ko'rsatadi. Bu bilan u mantiqiy urg'uga o'xshab ketadi. Biroq, mantiqiy urg'udan farqli o'laroq, emfatik urg'uda hissiylik kuchli bo'ladi. O'zbek tilida emfatik urg'u ostidagi so'z tarkibidagi unli yoki undosh cho'ziladi. Masalan: *Havo t-o-za ekan. Ch-i-royli qiz keldi.* So'zlarni takrorlash natijasida ham emfatiklik ifodalanadi: *Men borsam, men.*

Mantiqiy va emfatik urg'u ostidagi so'zda pauza ham ko'maklashuvchi vosita sifatida qatnashadi. Urg'uni olgan so'zdan oldin ko'p holda pauza paydo bo'ladi.

2) **leksik va grammatik aktuallashtiruvchi vosita.** Ma'lum bir so'zning aktuallashtirishida o'zbek tilidagi turli lug'aviy va grammatik shakl ham ishtirok etadi. Bu vositalar mantiqiy urg'uli so'z bilan kelib, yordamchi aktuallashtiruvchi vosita hisoblanadi. Bularga *faqat, yolg'iz, hatto, o'zi* so'zlari va *[-gina], [-oq], [-yoq]* qo'shimchaci kabilar kiradi:

- 1) *Hatto* Javohir o'qidi.
- 2) Sarvar *ham* keldi.
- 3) Asliddin *ham* o'qidi, *ham* yozdi.
- 4) Men *o'zim* aytaman.
- 5) Sherzodning *o'zigina* tushunadi.

Bu lug'aviy-grammatik vosita bilan kelgan bo'lak mantiqiy urg'u olib aktuallashtirish – remaga aylanadi.

Kommunikativ bo‘linmas gap. Har qanday gap ham tema – rematik bo‘linishga ega bo‘larmaydi. Shunday ko‘rinishdagi gaplar ham borki, ularni kommunikativ bo‘linmas gap deyish mumkin. Bunday gaplarda tema (ma‘lum axborot) bo‘lmaydi. Gap butunicha remadangina iborat bo‘ladi. Bunday gaplarning axborot vazifasi biror voqea-hodisaning mavjudligi yoki vujudga kelganligini ifodalashdan iborat bo‘ladi: 1. *Bugun stadionga boriladi.* 2. *Bahor.* 3. *Issiq boshlandi.* 4. *Tez tong otdi.* 5. *Rahmat.* Kommunikativ yaxlitlik gaplarning ko‘proq bir tarkiblilik bilan aloqador bo‘ladi. Ikki tarkibli fe‘l kesimli gaplarda bu gap semantikasi bilan bog‘langan bo‘ladi: 1. *Tong otdi.* 2. *Shom tushdi.* Bunday gaplarning semantik strukturasi deyarli bir tarkibli gaplarga yaqinlashib qoladi.

N.A.Baskakov ta‘kidlashicha, o‘z davrida gapning sintaktik strukturasi, ya‘ni aktual bo‘linishga bag‘ishlangan ishlar ko‘pchilikning e‘tiborini tortgan. Gapning bosh bo‘laklari – ega va kesimning gapda ifodalanayotgan fikrning bo‘laklari – sub‘ekt va predikat bilan har doim mos kelmasligidir.

A.Veyl nazariyasi tilshunoslar va olimlar tomonidan rivojlantirildi. Belgiyalik filolog J. Ginnekn fikrning boshlang‘ich nuqtasi va yakuniy maqsadi to‘g‘risidagi g‘oyani ilgari surdi. Uning fikricha, gap birligini tadqiq qilishda so‘zlarning joylashuv shaklinigina emas, balki gap bo‘laklari tartibining faollik darajasini ham inobatga olish zarur. Veylning chinakam yorqin izdoshlaridan biri - chex tilshunosi va «Praga lingvistik to‘garagi» (XX asr o‘rtalari) asoschisi V. Matezius o‘zining «Gapning aktual bo‘linishi tushunchasi to‘g‘risida»gi maqolasida gapda so‘zlarning joylashuv tartibi ma‘lum bir fikrni yuzaga keltirishi, ya‘ni gapning mazmuniy qurilishi uning sintaktik qurilishida namoyon bo‘lishini ta‘kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, gap bo‘laklarini o‘z o‘rnida qo‘llamaslik natijasida tilning o‘zaro aloqa vositasi sifatidagi asosiy maqsadi ham bo‘lmaydi [Matezius, 1967: 243].

«Praga lingvistik to‘garagi» gapning aktual bo‘linishi nazariyasining rivojiga juda katta hissa qo‘shdi. Shuni aytib o‘tish kerakki, mazkur qarashlarda ayrim xatoliklar ham mavjud. Masalan, V.Matezius chex va ingliz tillarini solishtirib, chex tilida so‘zlarning grammatik tartibi erkin qo‘llanishi mumkinligi, ingliz tilida esa fikr mantiqiy mazmuni bilan gapning grammatik shakllanishi orasida ziddiyat borligini taxmin qiladi.

Muammoning tadqiq qilinishida V. Z. Panfilovning «Grammatika va mantiq» nomli ilmiy ishi muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur ishda, avvalo, «Praga lingvistik to‘garagi» tomonidan ilgari surilgan qarashlar tahlil qilindi. V.Z.Panfilov « *kommunikativ yuklama gapning istalgan bo‘lagiga tushishi mumkinligi, bunda gapning sintaktik qurilishi sifati buzilmasligi* » haqida fikr yuritadi [Panfilov, 1963: 137]. Shu tariqa olim o‘z xulosasini bayon etadi: har bir gapda ikki xil qurilma mavjud bo‘lib, birinchisi - sintaktik (gap til me‘yorlariga mos ravishda tuziladi), ikkinchisi – mantiqiy-grammatik (gap bo‘laklarining tartibi orqali so‘zlovchi o‘zi istagan mazmunni keltirib chiqaradi). Mantiqiy-grammatik qurilma sintaktik qurilmaga qaraganda universal xarakterga ega, chunki u insoniyatga xos bo‘lgan tafakkurning jumalalarda mantiqan aks etgan ifodasidir [Panfilov, 1963: 229]. Muallif tomonidan fikrning sintaktik qurilish emas, balki mantiqiy grammatik vositalar orqali berilishi to‘g‘risidagi qarashlar, ayniqsa, tarjimachilik nazariyasini yanada boyitdi. Tarjimon ishga kirishar ekan, doimo fikr mantig‘ini aniqlab olmog‘i va uni boshqa tilning vositalari orqali asliga xos bermog‘i lozim bo‘ladi (bunda tillarning sintaktik qurilishi mos tushmasa ham). Izdoshlar qatorida XX asrning ko‘zga ko‘ringan tilshunoslari: N.A.Slyusareva, L.A.Chernyaxovskaya, N.L.Samoylova, M.E.Sipisheva, E.S.Troyanskaya, Z.D.Lvovskaya, I.V.Neshumayev, T.V.Shmelyev kabilarni ham aytib o‘tish lozim. Barcha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar bugungi kunda ham dolzarbligicha qolmoqda hamda tarjima jarayonida asliyadagi gap tarkibidagi so‘zlarning sintaktik qiymatini emas, balki bildirilayotgan fikrning mantiqiy ifoda ruhini saqlab qolish muhimligi masalasi o‘z isbotini topmoqda.

«Praga lingvistik to‘garagi» asoschisi V.Matezius gapning aktual bo‘linishida nutqqa xos bo‘lgan «asos» va «yadro» tushunchalari ustida to‘xtaladi. Fikr asosi – gapning ma‘lum va tanish manzarasi, fikr yadrosi esa gapning qanday maqsadda bayonqilinishidir [Mathesius, 1947]. Bu ikkitomonlama qarashda tema (T) va rema (R) farqlanadi. K. Boost, G. Amman «tema» va «rema» juftligini shunday izohlaydilar: tema- fikr (nutq) predmeti, gap-xabarning mavzusi, rema esa fikr (nutq)ning hukmidir [Boost, 1955, 88].

I.P. Raspopov gapning aktual bo‘linishini til tabiatining muhim qirrasini deb hisoblaydi. «*Gap – tilning kommunikativ birligi bo‘lib, u grammatik belgi kabi aktual bo‘linishni ham o‘z ichiga oladi*» [Raspopov, 1961, 48]. I.P. Raspopov V.Matezius tomonidan ilgari surilgan fikr asosi va yadrosi tushunchalarini yoqlar ekan, boshqa atamalar: **berilgan** va **yangi** (K. G. Krushelnitskaya), **tema** va **rema** (K. Boost), **leksik ega** va **leksik kesim** (A. I. Smirnitkiy)ni tanqid qiladi. Mazkur atamalar orqali «*gap bo‘laklari faqat tanishtiriladi, ammo gap tarkibining aktual bo‘linishidagi konstruktiv-sintaktik ahamiyati namoyon bo‘lmaydi*». (O‘sha manba)

Gap formasidagi o‘zgarish gapning mazmun o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Fikrni bayon etish tuzilmasi uzoq tarixga ega. Dastlab nutq faqat remadan tashkil topgan va ibtidoiy qisqa jumalardan iborat

bo'lgan. Umumslavyan flektiv-qo'shimchali usulda gap qurilishi usullarini meros qilib olgan rus tilida gap tartibi semantik funksiyaga ega bo'ldi: zamonaviy rus tilida gap tartibi gapning aktual bo'linish vositasi hisoblanadi. O'rta asr bosqichida ingliz fleksiyasiga putur etgach, bugungi ingliz tili gap tartibi mantiqiy-grammatik funksiyani qabul qilib oldi.

O. B. Sirotina «Rus tili sintaksisi bo'yicha ma'ruzalar»ida gapning aktual bo'linishi hamda fikrning tema va remaga ajratilishi yuzasidan o'z fikrlarini bildiradi. Gapning aktuallashuvi (fikrning hosil qilinishi) so'z birikmasi komponentlarining joylashuv o'rnini o'zgartirishi mumkin, bunda gap tartibi orqali nafaqat tarkib (tema va remaga ajratish), balki har bir so'zning kommunikativ qiymati ham aks etadi. Gapning odatdagi tartibining o'zgarishi so'zning kommunikativ qiymatini yo kuchaytirishi, yo susaytirishi mumkin. So'zning gap boshida kelishi (tema) yoki gap oxiridan o'rin olishi (rema) jarayonida ekspressivlik (bo'yoqdorlik) mexanizmi yuzaga keladi: so'zning gap boshida kelishi uni yanada ahamiyatli qiladi. Shuningdek, Sirotina og'zaki nutq shaklida aktual bo'linishning asosiy vositasi ohang, yozma nutqda esa gap tartibi ekanligiga diqqat qaratadi [Sirotina, 2006: 24]. Kommunikativ funksiya gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari joylashuvini nazorat qiladi, ya'ni istalgan gap bo'lagi kommunikativ komponentga aylanishi mumkin. Odatda, ega - «tema» kesimdan oldin keladi, ega - «rema» gap oxiridan o'rin oladi. Rema gapning bosh kommunikativ komponenti sanaladi, shuning uchun remani qo'llash shart. Ayni vaqtda esa kontekst talabi bilan tema gapda tushib qolgan bo'lishi mumkin. So'zlarning joylashish tartibida temadan remaga o'tish to'g'ri tartib (Matezius fikricha, ob'ektiv), remadan temaga o'tish esa o'zgargan (Matezius fikricha, sub'ektiv) hisoblanadi. Ingliz tilida gap tarkibidagi so'zlar o'zni o'zgarishsiz qolar ekan, uning grammatik qurilishi ustida to'xtalish lozim. Odatdagi gap tartibida ega kesimdan oldin, kesim to'ldiruvchidan keyin keladi. Biroq hol bo'lagi o'zining maxsus o'rniga ega emas (ma'no turi va nutq vaziyatiga ko'ra joylashadi).

Masalan:

Xristofor Kolumb Hindistonga sharqiy tomondan suzib borar ekan, yangi (notanish) erni aniqladi.

Hindistonga sharq tomondan suzib borar ekan, Kolumb yangi erni kashf qildi. Kolumb Hindistonga sharqiy tomondan suzib borayotib yangi erni kashf qildi.

Shu o'rinda gapning sintaktik va grammatik qurilishi orasidagi munosabat, aniqrog'i, berilgan tezisning ziddiyatli ekanligi yuzasidan savol tug'iladi. Tema va rema sintaksis doirasida turli gap bo'laklari bilan ifodalanishi mumkin va bu holatda mazmuniy tizim tema → rema qolipiga mos kelishi hamda fikrning mantiqiy rivojini o'zida aks ettirishi lozim. Mazkur muammo tilshunoslar tomonidan bir necha marta tadqiq etilgan. Demak, hind-evropa tillarida gap tartibi ham bo'laklarni sintaktik jihatdan ifodalash vositasi, ham mantiqiy fikrni bayon qilib berish shakli bo'lishi mumkin va bu holatlarda elementlarning ham to'g'ri, ham o'zgargan tartibi ko'zga tashlanadi: to'g'ri tartibda $t \rightarrow r$, o'zgargan tartibda $r \rightarrow t$.

O'zbek tilida esa barcha mustaqil so'z turkumi kesim vazifasida kela oladi. o'zbek tilida tartib haqida gap ketar ekan, kesimning gapning oxirida kelishini ta'kidlash lozim, turkiy tillarda kesimning gap oxirida kelishi gap sintaktik strukturasining shakllanishida katta rol o'ynaydi.

Gapning kesimida morfologik vosita bo'lmagan hollarda so'zning kesimlik funksiyasini ko'rsatuvchi grammatik vosita tartibdir. [Baskakov, 93-b.].

Agar rus tilida sintaktik birliklarni ifodalashda logik urg'u va tartib asosiy rol o'ynasa, o'zbek tilida esa bunday hollarda turkiy tillarga xos bo'lgan o'rin almashtirish qo'llaniladi. Gap bo'laklarining o'zaro o'rin almashishi so'z tartibining turlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Баскаков Н.А. ва бошқ. Умумий тилшунослик. –Тошкент, Ўқитувчи, 1979, –186 б.
2. Мирзаев И.К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 1991. – 52 с.
3. Распопов И.И. Актуальное членение и коммуникативно-синтаксические типы повествовательных предложений в русском языке. АДД, М., –Б.1964.
4. Матеиус, В. О так называемом актуальном членении предложения [Текст] I В. Матеиус // Пражский лингвистический кружок : сб. статей. - М.: Прогресс, 1967. –497 с.
5. Ковтунова И.И. Современный русский язык. Порядок слов и актуальное членение предложения. –М., 1976.
6. Панфилов В.З., Грамматика и логика, 1963. – 137 с.
7. Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Бокиева Г., Курбонова М., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2010. – 414 б.
8. Сиротина О. Б. Лекции по синтаксису русского языка. - М., 1980. – 126 с.

9. Тумпянский А.Л., Чтение и перевод английской научной и технической литературы, М., 1974. – 23 с.

10. Хайитметов К. Ҳозирги замон ўзбек тилида инверсия: филол. фан. докт. ...дисс. – Тошкент, 1967. –156 б.

UDK: 494.3

O'ZBEK VA QIRG'IZ ADABIYOTSHUNOSLIK TERMINLARINING MAVZUIY GURUHLARI TAHLILI

M. Ubaydullayeva

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada qardosh xalqlar bo'lgan o'zbek va qirg'iz adabiyotshunoslik terminlarining qiyosiy tahliliga e'tibor qaratilgan. Terminlar mavzu guruhlariga bo'yicha tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: folklor, doston, dostonchi, baxshi, topishmoq, maqol, ertak.

Анализ тематических групп узбекской и киргизской литературной терминологии

Аннотация. В статье внимание уделяется сравнительному анализу литературоведческих терминов в родственном Узбекском и Киргизском языках.

Ключевые слова: фольклор, дастан, дастанописец, сказитель, загадка, пословица, сказка.

Analysis of uzbek and kirghiz literature thematical groups

Abstract. The article is devoted to the comparative analysis of Uzbek and Kirghiz literary studies thematical groups. The terms are analysed according to theme groups.

Keywords: folklore, dastan, dastan writer, bakhshi, puzzle, proverb, fairytale.

Markaziy Osiyo hududida qadimdan asrlar davomida yashash tarzi, urf-odatlar, milliy-ma'naviy qadriyatlar, e'tiqodi bir-biriga yaqin bo'lgan turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlar yonma-yon yashab kelmoqda. Shu bois ularning hayotidagi bu uyg'unlik madaniy - ma'naviy qarashlarida, badiiy adabiyoti va san'atida ham o'z aksini topishi tabiiy, albatta. Turkiy xalqlar, xususan, o'zbek va qirg'iz xalqlari orasidagi o'zaro yaqinlik ayniqsa, ularning folklor asarlari tilida yaqqol bo'rtib turadi. Bu esa xalqlar etnogenetik tarixi aslida olis davrlarga borib taqalishi, ularning O'rxun-Enasoy yozma bitiklari, Mahmud Koshg'ariy qayd etgan manbalardan oziqlanishidan dalolat beradi. Xususan, asrlar davomida saqlanib qolgan xalq ijodi asarlariga nisbatan ilmiy qarashlar Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asaridan o'rin olgan turli folklor asarlari, mumtoz adabiyotimiz asarlaridagi folklor namunalari xalq og'zaki ijodi to'g'risida tasavvurlarni yangi ma'lumotlar bilan boyitadi. Asarda turkiy xalqlar tarixi to'g'risida ma'lumot beruvchi qadimiy afsona va rivoyatlar, 300 ga yaqin maqol va matallar, hikmatli so'zlar, 700 satrdan oshiq she'riy parchalar keltirilgan. Mazkur parchalarning asosiy qismi turkiy xalqlar og'zaki ijodiga mansub bo'lgan to'rtliklardan iborat. "Devonu lug'atit turk" asarida turkiy tillar oilasiga kiruvchi xalqlarning adabiyotshunoslikka oid terminlaridan keng foydalanilgan. Bu haqda M.Kashg'ariyning o'zi shunday yozadi: "Men bu kitobni maxsus alifbe tartibida hikmatli so'zlar, sa'jlar, maqollar, qo'shiqlar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim"[1, B.44-45].

Folklorshunos olim M.Jo'rayevning ko'rsatishicha, Alisher Navoiy asarlarida XV asr o'zbek folklorining janrlar tizimiga doir afsona, qissa, rivoyat, ertak, hikoyat, doston, ulug'ir, ayolg'u, qo'shiq, surud, o'zmog', chang, changa terminlari ko'p qo'llanilgan[2, B.32].

Jamiyat hayotida yuz bergan har bir o'zgarish ma'lum hududda yashovchi xalqlar hayotiga birday ta'sir qilishi, bu esa o'z navbatida xalqlarning turmush tarziga, ularning rivojlanishiga, voqelik faktlariga munosabatiga, tafakkuri mahsuli bo'lgan badiiy ijodiga ham o'z ta'sirini o'tkazishi shubhasiz. Tarixiy sharoitning o'zgarishi jarayonida bu ta'sir turlicha shaklda namoyon bo'ladi va ma'lum farqlarni, tafovutlarni yuzaga keltiradi. Bu holat o'zbek va qirg'iz xalqlari adabiyotida, xususan, xalq og'zaki ijodi namunalari ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Shunday ekan, o'zbek va qirg'iz xalqlari adabiyotlari o'rtasidagi mushtaraklikni, badiiy ijod sohasidagi azaldan amalda bo'lib kelgan adabiy an'analarni aniqlashda dastlab adabiyotshunoslik terminlarini aniqlashni bu xalqlarga tegishli folklor asarlari tilini o'rganishdan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Turkiy xalqlarning o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan bugungi kunda o'zbek va qirg'iz xalqlari tomonidan yaratilgan og'zaki ijod asarlarini qiyosiy jihatdan tadqiq etish bu xalqlar o'rtasidagi madaniy munosabatlar genezisini aniqlashga hamda adabiy aloqalari bardavomligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois mazkur maqolamizda o'zbek va qirg'iz xalqlari

og'zaki ijodida qo'llanilgan adabiyotshunoslik terminlarining mavzuiy guruhlari to'g'risida fikr yuritamiz.

Xalq og'zaki ijodi terminlarining qiyosiy tipologiyasi. "O'zbek tili tarixini qiyosiy-tarixiy metod asosida o'rganish natijasida qo'shni qardosh turkiy tillarning leksik-grammatik va fonetik jihatdan umumiyliklari aniqlanadi. Tarixiy lingvistik ma'lumotlar, ya'ni tillardagi ba'zi umumiyliklar o'zbeklarning bir qismi bilan uyg'ur, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq va turkmanlar orasida genetik yaqinliklar bo'lganidan dalolat beradi. Shu xalqlar tillaridagi umumiy hodisalarning paydo bo'lishiga olib kelgan eng muhim sabablardan biri xalqlar tarkibidagi ayrim qabila va urug'lar orasida qardoshlik munosabatlarining mavjudligidir. Tillarni chog'ishtirib o'rganish tilning leksik va grammatik xususiyatlarini yoritish uchun, uning taraqqiyot manbalarini aniqlash uchun keng imkon yaratadi"[3,B.15]. Tilshunoslikda bir tillar oilasiga mansub bo'lgan tillarni qiyoslash, chog'ishtirish masalasi doimo dolzarb bo'lib kelgan. Bu borada o'zbek va qirg'iz tilshunosligi va adabiyotshunosligida muayyan ishlar qilingan bo'lsa-da, ammo tadqiq etilishi lozim bo'lgan jihatlari talaygina. Shu bois, qardosh xalqlar tilshunosligi va adabiyotshunosligida qiyosiy-tipologik kuzatishlar olib borish taqozo etilmoqda.

Asrlar davomida adabiyotning o'ziga xos mustaqil ko'rinishi sifatida takomillashib kelgan og'zaki ijod turkiy xalqlar ma'naviy hayotining ajralmas qismi sifatida muhim o'rin tutadi. Chunki xalqlar ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlar, voqelikni idrok etish tamoyillarining har bir davrga moslashib o'zgarib turishi badiiy adabiyot rivojlanishi barobarida og'zaki ijodning ham taraqqiy etishiga, uning janrlari puxtalanishiga, badiiy-estetik qirralarining namoyon bo'lishiga zamin yaratdi. Xalq badiiy ijodi mahsuli bo'lgan badiiy adabiyot og'zaki va yozma ko'rinishda xalq ma'naviy-estetik ehtiyojini qoplashga xizmat qildi. Dastlab og'zaki ko'rinishda keyinchalik yozma adabiyot ko'rinishida badiiy ijodning rivojlanishi, turkiy xalqlar hayot tarzi, ijtimoiy muhit va ijodiy jarayonlarning xilma xil kechishi folklor asarlarining ham o'ziga xos xususiyatlar kasb etishiga olib keldi.

Folklor asarlari hisoblanuvchi afsona va rivoyatlar, lof, latifa, maqol, topishmoq, ertak, doston, qo'shiq, askiyalar xalq og'zaki badiiy ijodining asosiy janrlari sifatida badiiy ijoddan mustahkam o'rin egalladi. Barcha sohalarida bo'lgani kabi insonning badiiy tafakkuri, ijodiy qobiliyati bilan bog'liq bo'lgan adabiyotshunoslikning ham o'zi tadqiq etadigan obyektlari, o'rganadigan muhim nazariy masalalari mavjud. Adabiyotshunoslik alohida fan sifatida inson ijodiy mahsuli bo'lgan adabiyotni o'rganadi. Adabiyot doirasida xalqimizning asrlar davomida shakllangan og'zaki poetik ijodini o'rganish sohasi folklorshunoslik deb yuritiladi. Folklorshunoslik adabiyotshunoslik tarkibidagi mustaqil fan hisoblanadi. Uning ham tadqiq obyekti badiiy adabiyot. Shu bois keng ma'noda u adabiyotshunoslik fani bilan umumiy tomonlarga ega. Faqat adabiyotshunoslikda yozma adabiyot vakillari qalamiga mansub g'azal, ruboiy, doston, noma kabi (mumtoz adabiyot); she'r, hikoya, roman, drama kabilar (zamonaviy adabiyot)ning janr xususiyatlari o'rganiladi. Folklorshunoslikda esa xalq og'zaki adabiyotidagi **maqol, qo'shiq, ertak, doston** kabi janrlarning o'ziga xoslik tomonlari tadqiq etiladi [4,http:]. Folklor janrlari xalq tarixiy taraqqiyotiga bog'liq holda rivojlanadi va davrga bog'liq holda yangi janrlar paydo bo'ladi, ayrimlari eskirib tarixiy qatlamdan joy oladi. Masalan, miflar va afsonalar o'z tabiatiga ko'ra urug'-qabilachilik davriga borib taqalsa, mavsum-marosim qo'shiqlari ijtimoiy yashash tarzi, kasb-kori bilan aloqadordir. Asrlar o'tishi bilan esa lirik va tarixiy qo'shiqlar, latifa va loflar yuzaga kelgan. Folklorshunoslikda xalq og'zaki adabiyoti namunalari hisoblanuvchi turli maqol, qo'shiq, ertak, doston, afsona, naql, rivoyat, ayrim termalar, latifa, loflar o'rganiladi. Turkiyshunoslikda bu borada ancha ishlar amalga oshirilgan.

Xalq og'zaki ijodi terminlarini tipologik jihatdan ma'lum turlarga ajratish mumkin. Biz quyida o'zbek va qirg'iz adabiyotshunoslik terminlari misolida ularni ko'rib o'tamiz. Keyingi yillarda qirg'iz folklorshunosligida epik asarlarni madaniy-falsafiy jihatdan keng miqyosda tadqiq etishga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada kuchaydi. Xalq eposlari qirg'iz ma'naviy hayotida muhim o'rin tutadi. Qahramonlik eposlari qirg'iz folklorining eng qadimgi janrlaridan biri bo'lib, o'zida qirg'iz baxshichilik an'analarini mujassamlashtirgan noyob va qimmatli hodisa hisoblanadi. Manaschilik san'ati tafakkuri va madaniyatining yorqin namunasidir. Mahorat bilan ijro etilgan manaschilik qirg'iz xalqining ruhi, o'tmishini chuqur his qilishga imkon beradi. Manaschi o'tmish va kelajakni bog'lovchi zanjir halqasi bo'lib, hozirgi davrda epik madaniyatning o'z badiiy-estetik qimmatini yo'qotmasligini ta'minlaydi. Qirg'iz eposi – xalq og'zaki poetik ijodining o'ziga xos noyob namunasidir. Eposda xalq og'zaki ijodining boshqa janrlariga qaraganda xalqning boy ma'naviy dunyoqarashi, atrofni o'rab turgan voqelikning badiiy tasviri yorqinroq aks etadi. Eposda jamiyat hayoti va tafakkurining global kategoriyalari: tarix, din, moddiy va badiiy madaniyat, qirg'iz mentaliteti asrlar davomida muhrlanib qolgan. Epos xalqning badiiy yilnomasi sifatida mohir baxshilar ijodida namoyon bo'ladi. Eposni ijro etish san'atida baxshi qirg'iz folklorida eng murakkab va mas'uliyatli hisoblangan ishi – janr qoidalariga

asoslangan holda o'z qoidalarini yaratadi. Eposning ahamiyati nihoyatda katta. Bu xalq hayoti va san'atining o'ziga xos "qomusi", xalq ma'naviy o'zligining muhim vositasi, millatni anglash manbaidir. Epos so'zi qirg'iz adabiyotshunosligida 1920-1930-yillarda xalq og'zaki ijodini tadqiq etishga qiziqish tufayli yuzaga keldi. U asta-sekinlik bilan jomok (ertak, afsona)ni siqib chiqardi. Bu termin keng ma'noda Qirg'izistondagi barcha epik ijodiyotni - ertakdan tortib dunyodagi eng katta epopeya deb tan olingan Manasgacha qamrab oladi. Tilshunoslikda bir tillar oilasiga mansub bo'lgan tillarni qiyoslash, chog'ishtirish masalasi doimo dolzarb bo'lib kelgan. Bu borada o'zbek va qirg'iz tilshunosligi va adabiyotshunosligida muayyan ishlar qilingan bo'lsa-da, ammo tadqiq etilishi lozim bo'lgan jihatlari talaygina. Shu bois, qardosh xalqlar tilshunosligi va adabiyotshunosligida qiyosiy-tipologik kuzatishlar olib borish taqozo etilmoqda.

O'zbek adabiyotshunosligida xalq og'zaki ijodining maqol, qo'shiq, ertak, doston, afsona, naql, rivoyat, ayrim termalar, latifa, loflar kabi turlari mavjudligi qayd etiladi. O'zbek lug'atlarida qayd etilgan afsona, naql, rivoyat kabi janrlar qirg'iz adabiyotshunosligiga oid lug'atlarda ulamish, nakyl legenda, tarzida berilgan. Har ikki xalq adabiyotshunosligi materiallariga asoslangan holda ularning ayrimlarini ko'rib o'tamiz. Xalq og'zaki ijodining eng yirik namunasi bo'lgan doston termini "Folklor asarlari qisqacha lug'ati"da quyidagicha beriladi:

"Doston xalq ijodining keng tarqalgan, yirik va murakkab janrlaridan biridir. Ularda xalq tarixining muhim qirralari aks etib, ozodlik, adolat va vatanparvarlik, sevgi-sadoqat, qahramonlik kabi xalkling eng ezgu orzu-umidlari, ijtimoiy-siyosiy qarashlari aks etadi. Binobarin, dostonlarda ijtimoiy-tarixiy voqslik xalq fantaziyasiga yo'g'rilgan holda umumlashgan obrazlar orqali o'z ifodasini topadi. Ko'proq ularda voqea-hodisa xalq orasidan chiqqan buyuk bahodir obrazida mujassamlashgan holda namoyon bo'ladi. Xalqimiz dostonchiligi uzoq tarixga ega bulib, u o'z ichiga ming yillarni qamrab oladi. Dostonlar folklorning boshqa janrlaridan professional ijroga aloqadorligi bilan ajralib turadi. Bu ijro esa baxshi zimmasiga tushadi" [5,B.15]. Doston deyilganda o'zbek adabiyotshunosligida dastlab asosan "Alpomish" tipidagi dostonlar tushunilsa, qirg'iz adabiyotshunosligida bu tushuncha ko'lami birmuncha kengroq tushuniladi: **Дастан** - Жакынкы жана Орто Чыгыш, ошондой эле Түштүк Чыгыш Азиядагы элдердин оозеки, жазма адабиятында кенири тараган эпикалык жанр. Көбүнчө жомоктук, уламыштык сюжеттерден куралат да, ыр менен арасында жорго сөз кошулуп, музыкалык аспаптын коштоосунда, айрым учурда эч кандай аспаптын коштоосуз аткарылат. Фарсы жана турк тилдеринин классикалык адабиятында айрым романтикалык поэмалар (Низаминин "Хосров менен Ширин", "Лайли менен Мажнун" дастандары), Мухаммед пайгамбар жана анын жанжөкөрлөрү тууралуу чыгармалар да дастан деп аталган. Фарсы адабиятында фантастикалык повесттер да ушундайча наам менен колдонулат, биринчиден, элдик эпосторду, анын ичинде "Манасты" да, кенже эпосторду да, чакан поэмаларды да түшүндүрөт. (*Doston – Yaqin va O'rta Sharq, Janubiy-Sharqiy Osiyo xalqlarining og'zaki, yozma adabiyotida keng tarqalgan epik janr. Asosan, ertak, rivoyat kabi syujetdan tashkil topib, sher bilan birga qora so'z qo'shib, musikiy asbob orqali, bazi hollarda xech qanday asbobsiz ijro etiladi. Fors va turk xalqlarining klassik adabiyotida bazi romantik poemalar (Nizomiyning "Xisrov va Shirin", "Layli va Majnun" dostonlari), Muhammad paygambar va uning navkarlari haqidagi asarlar ham doston deb atalgan. Fors adabiyotida xikoyalar ham shu nom bilan atalgan. Xalq dostonlari, shu bilan birga "Manas", kichik dostonlar, ixcham poemalarga ham shu termin qo'llanadi.*)[6,B.35]. Ko'rinadiki, qirg'iz adabiyotshunosligida doston deyilganda xalq tomonidan yaratilgan badiiy ijod namunalaridan tashqari Nizomiy dostonlari, payg'ambar faoliyati bilan bog'liq matnlar ham doston tushunchasi doirasida qaraladi.

Tilimizda "doston" tushunchasi bilan bog'liq **baxshi** termini ham bor. Bu termin D.Quronov va boshqalar tomonidan yaratilgan adabiyotshunoslik lug'atiga kiritilmagan. O'zbek xalq baxshichilik an'analari bo'yicha kuzatishlar olib borgan A.Nafasov baxshilik san'ati asosan sharq, xususan, turkiy etnoslar ma'naviy madaniyatiga xos bo'lib, uning ma'nosi sanskritchadagi "bhikshu" (qalandar, darvesh) so'ziga yaqin ma'no kasb etishi, keyinchalik, bu so'z "bhishu", "baxishu" "baxsha", "baxshi" va boshqa shakllarda sharq xalqlarida ustoz, ma'rifatchi degan ma'nolarda qo'llanilganligi haqida ma'lumot beradi. Olimning ko'rsatishicha, ayrim joylarda ushbu so'z *professional dostonchi, afsungarlik, folbinlik, shamanlik qiluvchi* shaxslarga nisbatan qo'llanilib, ba'zi turkiy etnoslar, masalan, turkmanlarda *baxshi bu – professional dostonchi*, qozoq va qirg'izlarda *afsungar, duoxon* yoki *folbindir*[7,B.41].

Qirg'iz adabiyoti terminlari bo'yicha yaratilgan tushuntirma so'zlikda bu terminga berilgan izoh yuqoridagi fikrlar to'g'ri ekanligini isbotlaydi: **Бакшы** - 1. Өзбек, каракалпак, түркмен элинде дутар менен өз ырларын жана элдик чыгармаларды аткарган ырчы. Өзбектердеги Фазыл Юлдашев, каракалпактардагы Акымбет, Бердак, түркмөндөрдөгү Байрам сыяктуу бакшылар эл чыгармаларын кайра элге жеткирүүдө чоң эмгек кылган. Алар музыка өнөрүн өнүктүрүүгө да

салым кошкон. 2. Турк элдеринде бакшы түшүнүгүнүн экинчи мааниси сөз жана кыймыл-аракет менен оорулуудан ар кандай жин-шайтандарды кууп чыга турган өңдөнүп, эм-дом жасоочу киши. Алардын речинде да калыптанган атайын адабий текст болот. (*Baxshi – 1. O‘zbek, qoraqolpoq, turkman xalqlarida dutor orqali o‘z qo‘shiq-lari va xalq asarlarini ijro etgan shaxs. O‘zbeklarda Fozil Yuldashev, qoraqolpoqlarda Aximbet, Berdak, turkmanlardagi Bayram kabi baxshilar xalq asarlarini yana xalqqa yetkazishda ulkan mehnat qilganlar. Ular musika sanatini rivojlantirishga ham katta hissa qo‘shishgan. 2. Turkiy xalqlarda baxshi atamasining ikkinchi manosi so‘z va ish-xarakat orqali bemorlardan har qanday jin-shaytonlarni quvadigan, afsun qiladigan kishiga nisbatan ishlatiladi. Ularning nutqida ham ataylab shaqllangan adabiy tekst bo‘ladi*)[8,B.27].

Yuqoridagi ta’riflardan ma’lum bo’ladiki, o’zbek va qirg’iz adabiyotshunosligida baxshi terminiga berilgan ta’riflar bir-biriga yaqin. Qirg’iz adabiyotshunosligida xalq dostonlarini ijro etuvchi kishi ma’nosini anglatuvchi “dostonchi” termini mavjud. Lug’atlarda berilishicha, bu termin quyidagi ma’noni anglatadi: **Дастанчы** — дастан айткан киши. Көбүнчө дастандар комуздун коштоосунда ыр менен жорго сөздү аралаштырып же жалаң эле ыр түрүндө айтылган. Айрымдар өздөрү чыгарып, төгүп айтса, көбү жаттап алып аткарып берген. Дастанчылар эл арасында чоң сыйга ээ болгон. Булардын чыгармачылыгы азыр да өнүгүүдө, бирок азыркылар көбүнчө жаттап алып айтышат. (*Dostonchi – doston aytgan kishi. Asosan dostonlar qo‘miz orqali qo‘shiq bilan qora so‘zni aralashtirib yoqi faqat qo‘shiq qilib aytilgan. Bazilari o‘zlari improvizatsiya qilib, to‘qib aytasa, bazilari esa oldindan yod olib ijro qilishgan. Dostonchilar el orasida qatta hurmatga sazovor bo‘lganlar. Bularning ijodlari hozir ham rivojlanib bormoqda, lekin hozirgi baxshilarning aksariyati oldindan yod olib ijro etadi.*) [9,B.34]. Bu termin o’zbek tilida yo’q.

Xullas, o’zbek va qirg’iz xalq og’zaki ijodi terminlari rang-barang bo’lib, xalqning ijtimoiy hayot tarzi, madaniyati va ma’naviyati, tafakkuri, dunyoqarashini o’zida aks ettiradi. Ulardan ko’pchiligi og’zaki shaklga ega bo’lsa, boshqalari liro-epik ko’rinishda yetib kelgan. Lekin ular qanday bo’lishidan qat’i nazar, turkiy xalqlar adabiyotiga xos bo’lgan umumiy xususiyatlar, mushtaraklikni saqlab qolgan.

Adabiyotlar

1. Махмуд Кошгарий. Девону лугатит турк, I том ЎзФА нашриёти, –Тошкент, 1960 йил, -Б.44-45.
2. Жўраев М.Фольклоршунослик асослари. –Тошкент: «Фан» нашриёти, 2009.-Б.32.
3. Турсунов У.,Ўринбоев Б. Ўзбек адабий тили тарихи. –Тошкент: Ўқитувчи, 1982.-Б.15.
4. <http://e-adabiyot.uz/kitoblar/qollanmalar/867-uzbek-xalq-ogzaki-ijodi.html?start=5>
5. Рўзимбоев С., Рўзметов Ҳ.Фольклор атамалари қисқача лугати. Ўзбек филологияси факультети талабалари учун услубий қўлланма.– Урганч, 2007. -Б.15.
6. Шериев Ж., Муратов А. Адабият: Терминдердин тушундурмо создугу. –Бишкек: Кэнин Башкы ред., 1994. -Б.35.
7. Нафасов А.Ўзбек халқ дostonчилигида бахшичилик анъаналари. Барқарор ривожланишда узлуксиз таълим: муаммо ва ечимлар. Халқаро илмий-амалий анжуман илмий ишлар тўплами. –Чирчик, 2019. -Б.41.
8. Шериев Ж., Муратов А. Адабият: Терминдердин тушундурмо создугу. –Бишкек:Кэнин Башкы ред., 1994. -Б.27.
9. Шериев Ж., Муратов А. Адабият: Терминдердин тушундурмо создугу. –Бишкек:Кэнин Башкы ред., 1994. -Б.34.

UDK: 81’366.581; 02 (038)

GULCHILIK TERMINLARINING KOMPOZITSIYA USULI BILAN YASALISHI

O.Xo’jamurodova

Qarshi davlat universiteti
oydinxojamurodova@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada o’zbek tilida so’z yasashining kompozitsiya usuli, bu usul bilan gulchilik terminlarining yasalishi, gulchilik terminologiyasida bu usulning mahsuldorligi, gul leksemasi ishtirokida yasalgan qo’shma so’zlar va qo’shma atoqli otlar, ya’ni kishi ismlari misolida atroflicha tahlil etilgan va o’rganilgan.

Kalit so’zlar: so’z yasalishi, kompozitsiya usuli, gul, gulchilik, gulchilik terminlari, gulchilik terminologiyasi, so’z birikmasi, termin, ot yasalishi, sifat yasalishi, fe’l yasalishi, faol, mahsuldor, minimal element, so’z yasash asosi

Создание цветоводческих терминов методом композиции

Аннотация. В статье широко анализируется и изучена на примерах образование сложного слова и сложное имя существительное имени человека с участием лексемы цветок, продуктивность композиционного способа словообразования терминология цветоводства, словообразование терминов цветоводства композиционным способом, композиционный способ словообразования узбекского языка.

Ключевые слова: словообразование, способ композиция, цветок, цветоводства, цветоводческая терминология, словосочетание, термин, образование имя существительное, образование прилагательное, образование глагол, актив, продуктивный, минимал элемент, словообразовательный анализ,

Creation of floricultural terms using the composition method

Abstract. In the article, an analysis is widely studied and the formation of a complex word and a complex noun of a person's name with the participation of the lexeme flower, the productivity of the compositional method of word formation of floriculture terminology, the formation of floriculture terms by compositional methods, the compositional method of word formation of the Uzbek language are studied by example.

Keywords: word formation, composition method, flower, floriculture, floriculture terminology, collocation, term, noun formation, adjective formation, verb formation, active, productive, minimal element, derivational analysis

Soʻz yasashning kompozitsiya usuli haqida soʻz yuritganda, birikmali va qoʻshma soʻz tarzidagi soʻz yasashlar tushuniladi. Koʻplab soʻz yasashiga oid adabiyotlarda bu usul bilan soʻz yasash hozirgi oʻzbek adabiy tilida yetakchilik qilishi aytiladi va uning quyidagi taʼriflari keltiriladi: “Ikki yoki undan ortiq soʻzning qoʻshilishi orqali yangi soʻz yasashga kompozitsiya usuli bilan soʻz yasash deyiladi. Bu usul bilan asosan qoʻshma soʻzlar yasaladi” [1.203]. Kompozitsiya usuli bilan soʻz yasash deganda, - deb yozadi akademik A. Hojiyev: “hozirgi oʻzbek tilida mustaqil soʻz sifatida qoʻllana oladigan birdan ortiq birlikni qoʻshish bilan soʻz yasash tushuniladi” hamda “kompozitsiya usuli bilan soʻz yasash deyilganda umuman qoʻshma soʻzlar, qoʻshma soʻzlar deganda kompozitsiya usuli bilan soʻz yasash nazarda tutiladi” [2.97-98]. Barcha taʼriflarda kompozitsiya usuli “ikki yoki undan ortiq soʻzning qoʻshilishi, birdan ortiq birlikni qoʻshish” tarzida qoʻshma soʻzlar yasash anglatiladi.

Rus va oʻzbek tili soʻz yasashiga oid tadqiqotlarda bu usul bilan yasalgan birikma terminlar ancha salmoqdor oʻrinni egallashi alohida qayd etiladi: “Terminologiyada kompozitsiya usuli bilan koʻp miqdorda birikma shaklidagi terminlar yasaladi” [3.104]. Hozirgi oʻzbek tilidagi soʻz yasash usullari haqida gap borganida kompozitsiya usuli soʻz yasashining faol, mahsuldor usuli sifatida taʼriflanadi” [2.98]. Shu sababli ham har qanday soha terminologiyasida birikma shaklidagi terminlar boshqalariga nisbatan salmogʻi jihatida birinchi oʻrinda turadi. Xususan, oʻzbek tili gulchilik terminologiyasida ham, dehqonchilik, ximiya, kitobatshunoslik va boshqa terminologiyalardagi kabi yakka, tub, yasama soʻzli terminlarga nisbatan kompozitsiya usuli bilan yasalgan terminlar ancha miqdorni tashkil etadi [4, 5, 6].

Gulchilik bilan aloqador boʻlgan birikmali terminlarni xalq soʻzlashuv nutqidan va mavjud lugʻatlardan toʻplash natijasida 2300 dan ortiq terminlar mavjudligi aniqlandi. Hisob-kitoblarimizga koʻra maʼlum boʻldiki, 2300 dan ortiq birikmali terminlarning 1600 ga yaqini, yaʼni 60 foizini ikki va undan ortiq komponentdan iborat birikmalar tashkil qiladi.

Terminologiyaga oid baʼzi manbalarda bir soʻzga teng terminlar sistemaning minimal elementlari, ikki yoki undan ortiq soʻzlardan tuzilgan birikma shaklidagi terminlar esa maksimal elementlari sifatida talqin qilinadi. Ular minimal elementlarga ayni sohaning tayanch yoki asos tushunchalarini ifodalovchi asosiy terminlar sifatida ham qaraydilar [7.23]. Bu fikrlar koʻp jihatdan oʻzbek tilining gulchilik leksikasiga ham toʻliq mos keladi. Shu bois, ayni soha leksikasida ana shunday minimal elementlar mavjudki, haqiqatan ham ular shu sohaga oid koʻplab birikma shakldagi terminlarning yaratilishi uchun asos (manba) vazifasini bajarib, turli-tuman tushunchalarni ifodalaydi.

Oʻzbek tili gulchilik leksikasida birikma shaklidagi terminlarning yasashida, barcha leksik sistemalardagi kabi, sistemalashtiruvchi minimal elementlarning oʻrni katta. Ayniqsa, ikki komponentli birikmal terminlarni yasashida bunday sistemalashtiruvchi minimal elementlardan keng foydalaniladi. Masalan, oʻzbek tilida birgina *gul* minimal elementi ishtirokida 500dan ortiq sodda (tub) gul, yasama: *gulchi*, *gulzor*; qoʻshma: apellyativ (turdosh otlar) holatda: *gulbahor*, *gulsevar*, *gulsara*; hamda atoqli ot maqomida gul leksemasi, ayniqsa, xotin-qizlar ismlarida: *Gulbahor*, *Gulsevar*, *Gulsara* kabi koʻplab nomlar yasashda ishtirok etishi aniqlab chiqildi.

Gulchilik leksikasida kompozitsiya usuli bilan soʻz yasalgan qoʻshma soʻzlarni aniqlash, uning oʻziga xos yasash xususiyatlarini belgilash bu soha lugʻaviy fondining boyish manbalarini bilish uchun muhimdir. Gulchilik leksikasida qoʻshma soʻzlar va birikmali terminlar quyidagi koʻrinishlarga ega:

1. Qoʻshma soʻzlarning har ikki qismi ot+ot modeliga ega: *ajdargul, atirgul, boʻrigul (bot.), gulband, gulbarg, gulgogʻ, guldasta, gulkaram, gulyor, gulkosa, gulkoʻrpa, gulpoya, gulraʼno, gultojxoʻroz, gulqogʻoz, gulchambar, gulqaychi, gulqand, gulgʻuncha, kapalakgul, karnay-gul, lolaqizgʻaldoq, chin-barg, chinnigul, qoqigul, qoʻqongul kaʼbu.*

a) birinchi qismi tub, ikkinchi qismi yasama otdan tuzilgan qoʻshma soʻzlar: *gul keskich, suv oʻlchagich, gul qirgʻish;*

b) birinchi qismi yasama, ikkinchi qismi tub otdan tuzilgan qoʻshma soʻzlar: *aylanma joʻyak, saqich yer, gul suv, chiroyli gul;*

2. Yasovchi qoʻshimchalarsiz shakllangan sifat+ot tipidagi gulchilikka doir birikmalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

a) gulsuv, shoʻrsuv, nafis gul, sariqgul, qizilgul, barginozik, gulsapsar, gulbeor kabi.

b) yasama sifat va tub otdan shakllangan qoʻshma soʻzlar: *gulli koʻylak, chiroyli gul, guldor gilam;*

v) sifat+otdan: *qizil gul, oq gul kaʼbu.*

4. Ravish+ot: *koʻpgul, namozshomgul*

4. Feʼl turkumiga mansub quyidagi modellar mavjud:

a) birinchi qismi sifat+feʼl tarzida shakllangan birikmalar: *ilitma sugʻorish, koʻndalang sugʻorish.*

b) birinchi qismi ot+feʼl tarzida shakllangan birikmalar: *suviyigʻar, suv chiqarish, guldasta yasash.*

Ot+ot, ot+sifat, ot+feʼl, modelida yasalgan qoʻshma soʻzlar, ayniqsa, oʻzbek xalq qoʻshiqlari va aytishuvlarida koʻp qoʻllanishi kuzatildi:

Yorim boqqa boraylik,
Gulgʻunchalar teraylik.
Qizil gul ochilibdir,
Bulbul boʻlib sayraylik.
Dasta gulni dast koʻtardim,
Shoxi bilan, bargi bilan.
Sen hali nordon ekansan,
Men Lolaxon yorim bilan.
Har kimning yori boʻlsa muxtasar,
Koʻksini koʻksiga qoʻysa *gulkesar.*
Yaxshini yorim desang koʻngling oʻsar,
Yomon bilan roʻzgʻor qilsang dardisar [8,26-36-90].

Shuni taʼkidlash lozimki, gullarni sugʻorish usullari va texnikasini ifodalovchi birikmalar gulchilik terminologiyasida ancha miqdorni tashkil etadi. Bunday kompozitsiya usuli bilan yasalgan birikma terminlar gulchilarning jonli soʻzlashuv nutqida koʻplab uchraydi: jildirاتب sugʻorish, namlatib sugʻorish. tomchilatib sugʻorish/yomgʻirlatib sugʻorish va b.

Gulchilik terminologiyasida qoʻshma soʻzlarning birikishi oʻzak+oʻzak hamda yasovchi qoʻshimchalar holida kelishi koʻp uchraydi. Bu lisoniy hodisa tilning ichki morfologik tuzilishi, grammatik qonun-qoidalar asosida roʻy beradi. Ayniqsa, qoʻshma soʻz holida ikki yoki undan ortiq tub soʻzlarning qoʻshimchasiz qoʻshma soʻzlar hosil qilishi oʻziga xos xususiyatlarga ega.

Endi biz gul soʻzi ishtirokida yasalgan qoʻshma soʻzlar (apellyativ- turdosh otlar) dan yasalgan kishi ismlari, yaʼni qoʻshma ot tipidagi xotin-qizlar ismlari xususida fikr yuritishga harakat qilamiz.

Professor E. Begmatovning 2016-yilda nashr etilgan “Oʻzbek ismlari izohi” [9] kitobida 400 ga yaqin ismlarda gul soʻzi mavjud. 200 dan ortiq ism boshida, 175 dan ortiq ism oxirida gul soʻzi ishtirok etgan. Gul soʻzining ism oxirida kelishi miqdoran ancha koʻpdir. Gul soʻzining ism soʻngida kelishi oʻzbek ismlari majmuida keng tarqalgan hodisa emas. Garchi, E. Begmatov 175 ta ism soʻngida gul soʻzi kelishini aniqlagan va bunday ismlarni oʻzining lugʻatida kiritgan boʻlsa ham bu tur ismlar xalq oʻrtasida unchalik mashhur emas, yaʼni unchalik ommalashmagan: *Joʻragul, Kattagul, Kenjaqul, Kumushgul, Maydagul, Marjongul, Koʻrkamgul va boshqalar. Xonimgul, Yaxshigul, Chamangul, Chinnigul, Shiringul, Shamsigul, Tozagul, Mohigul, Oygul, Norgul, Anorgul, Oynagul, Nozigul, Onagul, Orazgul, Zebogul* singari ismlar kengroq tarqalgan.

Shu o'rinda aytish lozimki, gul so'zi tojik tilidan o'zlashgan. Bu hodisa tilning ancha uzoq o'tmishida yuz bergan. Shuning uchun gul so'zli ismlar eski o'zbek tili yodgorliklari ko'proq uchraydi. Gul so'zi ishtirokida kompozitsiya usuli bilan yasalgan ismlarning bosh qismida kelganida unga o'zbekcha, fors-tojikcha, arabcha so'zlar qo'shilib birikma shaklidagi shaxs nomlari yasaladi. Ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Gul so'ziga qo'shilib o'zbekcha ism yasashga xizmat qiladigan o'zbekcha so'zlar: *beka, buvi, bibi, oy, xon, momo, sevar, chiroy, xonim, chechak, begim, oyim, yuz, qiz, buvish* kabi.

2. Gul so'zi bilan boshlanuvchi va bu so'zga qo'shilib ism yasashda ishtirok etadigan fors-tojikcha so'zlar quyidagicha: *andoz, andom, afshon, banot, badan, bar, barg, bahor, bodom, dasta, dono, diyor, yora, jamol, jura, jahon, jon, zamon, zamin, zebo, zod, zoda, niso, nora, nor, anor, rayhon, xol, shaydo, mehr, lola, poshsho, rang, safsar, toji, toj, chaman, chinor, shod, shoda* va boshqalar.

3. Gul so'ziga qo'shilib keluvchi arabcha so'zlar: *sanam, shahnoza, asal, zaynab, xumor, ra'no, rux, shahnoz* va boshqalar.

Gul so'zidan keyin qo'shilib ism yasash uchun xizmat qiladigan so'zlar ancha cheklangan. Ular tarkib jihatdan, ma'no jihatidan gul so'zi ism oxirida keladigan ismlar majmuining bosh qismidagi so'zlar bilan teng emas. Shuni aytish kerakki, shunday so'zlar ham borki, bemalol o'rin almashaveradi. *Oygul – Guloy, Guloyim – Oyimgul, Norgul – Gulnor, Mehrgul – Gulumehri*. Bunday ismlar ancha kam. Ismning boshida va oxirida kelishi ismning tanlanishidagi qator lisoniy va nolisoniy omillar bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, Tozagul deyish mumkin, lekin Gultoza deb bo'lmaydi. Chinnigul degan ismlar bor, Gulchinni ismi yo'q. Shodigul ismi bor, Gulshodi ismi yo'q, Onagul ismi Xorazmda uchraydi, Gulena ismi O'zbekistonda topilmaydi.

Gul so'zli ismlar o'zbek, tojik va umuman, O'rta Osiyo xalqlarida eng ko'p tarqalgan, takrorlanadigan ismlar sirasiga kiradi. Gul o'zbek ismlarining ham bosh qismida, ham so'zning oxirgi qismida uchraydi. Bu hodisaning, albatta, o'ziga lisoniy va etnografik, ruhiy-psixik omillari bor. Boshqa bironta so'z gul so'zi singari ko'p takrorlanmaydi. Ayniqsa, gul so'zi tugallanma qismda miqdoran cheksiz tarzda bo'lishi mumkin, ammo so'z boshida gul so'zining qo'shilishida ma'lum bir cheklanishlar bor. Masalan, o'zbeklarda Bo'rigul, Qo'zigul ismlari bor. Chorvador va qishloq aholisi o'rtasida bu xil ismlar uchraydi. Bu ismlarning Gulbo'ri, Gulqo'zi nusxalari yo'q. Bunday ism qo'yish kulgili, albatta, lekin Gulnor, Norgul, Poshshogul, Gulposhsho ismlari bor. Bunday ismlarda so'zning boshida va oxirida o'zgarishlar ham erish tuyulmaydi. Bu tur ismlarning nom sifatida yaratilishida ko'zda tutiladigan tamoyillar nomlovchilarga tanish, shuning uchun gul so'zini ism boshida, ism oxirida ham qo'yadilar. Norgul, Gulnor yohud Gulnora ismlari bola tug'ilganda qizil nori bo'lganligi sababidandir. Poshshogul va Gulposhsho ismlarining yaratilishida ota-ona yoki qarindoshlari ko'pincha (bobosi va momosi), ya'ni ism quyuvchilari xohishi, istagi ko'zda tutiladi. Ya'ni qizimiz ulug', martabali, buyuk bo'lsin degan niyatda shunday ismlarni tanlashadi.

Umuman olganda, gul so'zi ishtirokida kompozitsiya usuli bilan yasalgan qo'shma otlardan tashkil topgan ismlar aslida apellyativ leksikaga mansub: *gulandoz, gulandom, gulafshon, gulbadan, gulbarg, gulbahor, gulbodom, guldona* tarzida bo'lib, so'ng atoqli ot sifatida kishilarga ism sifatida qo'yilgan. Bunday ismlarning yasaliishi, lug'aviy tarkibini tahlil qilish va dastlabki kuzatish shuni ko'rsatadiki, gul so'zidan keyin keladigan tushunchalarning, belgilarning, nomning tanlanishida o'ziga xos qonuniyatlar, qoidalar borki, ularni faqat lisoniy tadqiqotlar bilan aniqlab va ma'lum xulosaga kelib bo'lmaydi. Bu haqda aniq tasavvurga kelish uchun xalqning urf-odatlarini gul so'zi anglatgan murakkab tushunchalarni to'la aniqlab olish lozim. Ya'ni etnografik tekshirishlardan so'ng ma'lum xulosaga kelish mumkin. Masalan, gul singari go'zal nafis bo'lsin degan istak uchun nomlash: *Gullola, Gulnora, Gulsin, Guloyim, Gulandon* kabi.

Qisqasi, gulchilik leksikasida bunday qo'shma otlar aslida kompozitsiya usuli bilan yasalgan birikmali terminlardan tanlangan va ular asosida xotin-qizlarga ismlar qo'yilgan. Ism qo'yish an'analari, tamoyillari nihoyatda rang-barang va ko'p qirralidir. Ularning hammasini sanab o'tish, tasnif qilish ancha murakkab va katta mehnat talab qiladigan ishdir. Har bir ism bir tamoyil asosida beriladi. Ism asnosida, albatta biror sabab mavjud bo'ladi. Ana shu sababni o'ylab topish va tanlash nozik va qiyin ma'suliyatli ishlardan hisoblanadi. Oilada vafot etgan momolarning bir yoki ikki avlod ilgari o'tgan kishisi ismini takrorlash va ularning qo'yish urfi, odati mavjud. Gul, bonu, jon, xon, niso, bibi, buvi, oy va shu kabi so'zlarni ism oxirida takrorlab ham an'anaviy ismlar yaraladi: *Shahribonu, Asalbonu, Mehribonu; Gulandon, Gulbahor, Gulasal, Gulbarchin, Gulnora* kabi ismlar an'anaviy ismlar sanalishi mumkin. Bunday ismlar bir oila misolida emas, aka-uka, opa-singil, qarindoshlar oilasida qo'yilishi mumkin. Ko'pincha nomlovchi kishilarga nisbatan aytadigan bo'lsak, ular bir manbaga mansub bo'lsa shunday ismlar paydo bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 1992. – B.203.
2. Даниленко В.П. Русская терминология: опыт лингвистического описания. М. : Наука, 1977. – С.104.
3. Hojiyev A. O'zbek tili so'z yasalishi. – Toshkent: O'qituvchi, 1989. – B.97-98
4. Jabborov X. O'zbek tilining dehqonchilik leksikasi. Filol.fan. doktori. ... diss.avtoref. –Toshkent, 2017. -84 b.
5. Madvaliyev A. Uzbekskaya ximicheskaya terminologiya i voprosi yeye normalizatsiya: Avtoref. diss.kand.filol. nauk. –Tashkent, 1986. 23 s
6. Yo'ldoshev I. O'zbek kitobatchilik terminologiyasi. –Toshkent: Fan, 2004. – 211b.
7. Суслова И. Терминология библиотековедения как системное образование // Терминология библиотечного дела: Сб.науч.тр. Москва: Наука, 1975. – С.23.
8. Oq olma, qizil olma. O'zbek xalq qo'shiqlari. To'plovchi: Muzayyana Alaviya. –Toshkent: Adabiyot va san'at, 1972. –B. 26-36-90.
9. Begmatov E. O'zbek ismlari izohi. Tuzatilgan uchinchi nashri. . –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2016. – 605 b.

UDK: 891.709**JAMOL KAMOL RUBOIYLARIDA MUMTOZ AN'ANAVIYLIK TASVIRI****K.A.Qarshiyev***Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Maqolada ruboiy janrining poetik qonuniyatlari, didaktik va falsafiy xususiyatlari, mumtoz siymolarimiz ijodida tutgan o'rni o'rganilib, Jamol Kamol she'riyatidagi janriy rang-baranglikni yuzaga keltirishi va badiiy mohiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: ruboiy, lirika, janr, vazn, fikr, qolip, g'oya, mazmun, an'ana.

Классический традиционный образ в рубаи Джамал Камала

Аннотация. В статье исследуются дидактические и философские особенности поэтических законов жанра рубаи, их роль в творчестве наших классиков, разнообразие жанров в поэзии Джамала Камала и философские пороки.

Ключевые слова: рубайят, тексты песен, жанр, стопы, мысль, шаблон, идея, содержание, традиция.

Classic traditional image in Jamal Kamal's rubai

Abstract. The article explores the didactic and philosophical features of the poetic laws of the rubai genre, their role in the work of our classical figures, the genre diversity and artistic significance of Jamal Kamal's poetry.

Keywords: rubaiyat, lyrics, genre, feet, thought, pattern, idea, content, tradition.

Ko'hna Sharqning mumtoz badiiy me'rosi bo'lgan ruboiy janri o'zining aruziy ohangi, poetik ko'lami, falsafiy umumlashma xulosaviyligi va estetik jozibadorligi bilan asrlar osha xalq qalbida hassos shoirlarning qalami orqali aks-sado berib kelmoqda. Alisher Navoiy ta'kidlaganidek, "ruboiy vaznikim, ani dubaytiy va tarona ham derlar, hazaj bahrining axram va axrabidin iztixroj qilibdurlar va ul vaznedur asru xush oyanda va bag'oyat raboyandda..." Ruboiy g'azal kabi ko'p asrlik tarixiy taraqqiyoti davomida Sharq xalqlari adabiyotida sayyor janr sifatida shakllangan. "Ruboiy – Sharq lirikasining traditsion, shuhratli janrlaridan biri, hatto uning "vohid quyoshi" davrug'iga ega. Falsafiy-dunyoviy, ijtimoiy-siyosiy, ishqiy-axloqiy mavzulardagi tugal bir g'oya to'rt misraga quyiladi. Umar Xayyom, Navoiy, Bobur, Bedil Sharqda ruboiy ustozlari sifatida nom qozonganlar. Ruboiy hazaj bahriga mansub "axram" va "axrab" vaznlarida yoziladi. Sababi: bu vaznlarning ruboiyga mos va qulayligi, tugal, lo'nda fikrlarni ifodalashga "libosi mavzun"ligidir. Ruboiy o'ziga shakldosh "du bayt" va "tarona" kabi she'riy shakllardan, avvalo, ana shu vazn e'tibori bilan farqlanadi. Shunga ko'ra hozirgi she'riyatimizda barmoq vaznida yozilgan to'rtliklarni ruboiy deb atash to'g'ri emas" [3.148].

Mumtoz va zamonaviy lirikaning kesishgan nuqtasida poydo bo'lgan Jamol Kamol she'riyatida ruboiy janri ma'naviy qadriyat o'laroq janriy rang-baranglikni ta'minlagan. Jamol Kamol ruboiylari Umar Xayyom, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk irfon va ijod dengizlaridan to'yingan bulutlarning yomg'ir tomchilariga o'xshaydi. Jamol Kamol ruboiylarida vazn, ohang, qofiya, badiiy qolip kabi janriy qonuniyatlar va hasbi hollik an'anaviy, lekin mavzu, tuyg'u, fikr va dard tamomila yangi. Ularda shoir yashagan davr ruhi va ma'naviy komillikka intilayotgan shaxs qiyofasi o'ziga xos badiiy kategoriya vazifasini bajargan. Shoir ruboiylarining tasvir obyektida ijtimoiy-siyosiy va badiiy-falsafiy qarashlari aks ettirilib, o'zi yashagan va yashayotgan davrda sodir bo'lgan voqea-hodisalar ta'sirida qalbida kechgan oniy tuyg'ulari-yu chiqargan xulosalari ifodalangan. Buning natijasida mavzu xilma-xilligi vujudga kelgan. "Sharq klassik she'riyatida har bir janr muayyan mavzular doirasini qamrab oladi va u o'sha belgilangan adabiy tur uchun muvofiqlashtirilgan. Chunonchi, masnaviy – epik tasvirni, g'azal – lirik kechinmalarni, qit'a – pand-nasihatni ifodash uchun xizmat qilgan. Ruboiy-chi? Ruboiyda ham g'azal va qit'a ma'nosi ifodalanadi. Lekin ohang va intonatsiya boshqacha bo'ladi" [8.7]. Atoqli shoir Jamol Kamolning mavjud 113 ta ruboiysidan 42 tasida "Yo Rab", "Ey ahli qalam", "Ey gushna", "Ey jon", "Ey banda", "Ey yor", "Ey baxt", "Ey gul", "Ey pir", "Ey do'sti habib", "Ey odam", "Ey Buxorayi sharif" kabi undalmali hayqiriq asosiga qurilgan nido san'ati qo'llangan bo'lib, shoir ularning takrori vositasida ohang ustivorligini ta'minlaydi va jumbushga kelgan tuyg'ularini ifodalaydi. Shu orqali ruboiy janriga xos bo'lgan an'anaviy ohang va intonatsiya badiiy belgi o'laroq aruziy me'zon va badiiy san'atlar bilan namoyon bo'ladi. Jamol Kamolning "Yonayotgan dala" to'plami (tanlangan asarlar, II jild)da 113 ta ruboiy va 11 ta tarona jamlangan bo'lib, ularda Xayyom, Rumiy, Navoiy va Bobur ijodi tarovati yaqqol sezilib turadi. Qofiyalanishiga ko'ra jami 113 ruboiyning 102 tasi xos ruboiy, 8 tasi taronai ruboiy, qolgan uch tasi yangicha a - a, b - b tarzida, ya'ni masnaviy tizimida qofiyalangan bo'lib, bunda shoir ijodi to'la-to'kis nazariy qoliplarga bo'ysinmasligi ko'zga tashlanadi. Ruboiy o'zining quyidagi shakliy poetik qonuniyatlariga ega: "a) she'r hajm jihatdan to'rt misralik bo'ladi; b) kompozitsiyasi tesiz, antitezis, moddai ruboiyya va sintezdan tashkil topadi; d) hazaj bahrining axram va axrab vaznlarida yoziladi; e) falsafiy, ijtimoiy, axloqiy va intim-ishqiy mavzularida yoziladi; f) qofiyalanish tartibi ikki xil: a – a – b – a hamda a – a – a – a ko'rinishida bo'ladi; g) qofiyalari ko'pincha radifli bo'ladi"[9;487]. Jamol Kamol ruboiylarida janrning nazariy qonuniyatlaridan qisman chetga chiqish kuzatiladi. Masalan, qofiyalanishning a – a, b – b shakli, ko'p hollarda dastlabki ikki misraning birdaniga tezis vazifasida kelishi, mavzu kengayishi kabilar fikrimizga dalildir. Bu esa mumtoz janrning talablarini chetlab o'tish emas, balki yuksak iqtidor sohiblarining ijodiy quvvati va monerasi nazariy qoliplarga butunlay bo'ysunmasligini anglatadi. Haq va haqsizlik, haqiqat va yolg'on, diyonat va xiyonat, visol va hajr, imon va nafs, ma'rifat va jaholat, yaxshilik va yomonlik, tong va shom, hurlik va mustabit zulmi singari kontrast fikrlar silsilasi shoir ruboiylarining tezis va antitesiz qismida qarama-qarshi tasvirlanib, yakunlovchi sintezda ma'naviy barkamollikka eltuvchi fikriy umumlashmalar xulosa tarzida berilgan. Ruboiy va taronalardagi samimiy ishq otashi esa imon, e'tiqod, sabot va vafo kabi oliy insoniy burchlarni shaxs mehvarida kamol toptiradi. Shoir ruboiylari ma'naviy komillikka intilayotgan shaxs yo'lini yorituvchi badiiy-ma'rifiy fonus yanglig' qalb javharida umuminsoniy va milliy qadriyatlarni bunyod etadi. Jamol Kamol qalamidan to'kilgan:

Sen tilni sharafla, el uchun nomus bil,
Tarixni tavof ayla, buyuk qomus bil.
Bu ko'hna kitobni sen kitob bilma faqat,
Yo'llarni yorituvchi go'zal fonus bil [2;260].

kabi quyma satrlar yuksak peshtoqlarga bitilgan qadimiy kitoblarning shoh baytidek aruziy ohangda jaranglab, yarqirab yashayveradi. Ruboiyning tezis qismida "Til – millatning nomusi, tarix – xalqning qomusi" degan purhikmat g'oya o'rta tashlangan bo'lsa, antitezis qismida "Ummul kitob", ya'ni kitoblar onasi bo'lgan Qur'oni Karim haqida fikr yuritilib, xulosalovchi sintezda til, din va tarixning ongda mujassamligi dilni yorituvchi g'o'zal fonusga mengzalgan. Qolaversa, ruboiyning sintez qismidan ikkinchi bir yashirin ma'no ham borki, unda shoir "ko'hna kitob" birikmasi orqali xalqimiz tarixini nazarda tutib, Abdulla Qodiriy iborasi bilan aytganda "Moziyga qaytib ish ko'rmoq xayrli" ekanligini badiiy ifoda etgan. Tilni sharaflash, uni nomus bilish, tarixni tavof aylash, uni qomus bilish kerakligi hozirgi globallashuv jarayonida yoshlarning ongi va qalbini turli yot g'oyalardan saqlashga olib keladi va ma'naviy xazinamizni, ya'ni til, din va millat o'tmishini avloddan avlodga o'tuvchi bebaho qadriyat sifatida saqlashga undaydi. Ushbu ruboiydagi g'oya va mazmun shoirning publitsistik maqolalarida ham o'z ifodasini topgan. Milliy-ma'naviy qadriyatlarni avaylab-asrashga qaratilgan "Til – millatning nomusi, tarix – xalqning qomusi" nomli maqolasi fikrimizga misol bo'la oladi. Mazkur maqolada Jamol Kamol til, tarix va din kabi xalqning azaliy qadriyatlarini ma'naviy meros ekanligini publitsistik ruhda bayon qilgan.

Shoir bolalik xotiralarini eslar ekan: “Maktabda avval Bobur ruboiylarini yod oldim, keyin Navoiy g‘azallarini. Hamid Olimjon sevimli shoirim edi”, - deya she‘rlarini ilk yod olgan shoirilarini xotirlaydi [3;58]. Anglashiladiki, shoir qalbida adabiyotga bo‘lgan oshuftalikning uyg‘onishida Zahiriddin Muhammad Bobur ruboiylarining o‘z o‘rni bo‘lgan. Buni shoirning quyidagi ruboiysidagi ohang, ritm, musiqiylik, tasvir usuli, badiiy joziba, sharhi hol va g‘oyaviy mushtaraklikda ko‘rish mumkin:

Yillarcha zabunlik menga taqdir bo‘ldi,
Ruhimda kishan, oyoqda zanjir bo‘ldi.
Mustamlaka yurtda shu parishon ko‘nglim
Har lahza kuyib, hamisha ranjir bo‘ldi [2;261].

Ushbu she‘rdagi “mustamlaka” so‘zi o‘rniga “begona” so‘zi qo‘yilsa, Bobur ruboiylaridan farqi qolmaydi. Bu esa har ikki ijodkorning ruboiylaridagi poetik mushtaraklikni ko‘rsatadi. Ruboiydagi lirik qahramon - shoirning o‘zi, ya‘ni Jamol Kamol, Bobur ruboiylaridagi lirik qahramonlar ham ko‘p hollarda shoirning o‘zi, ya‘ni Bobur. Bu lirik qahramonlar umummilliy mushtarakligini ta‘minlagan. Badiiy uyg‘unlik har ikki shoir asarlari biografik tahlil qilinganda yanada oydinlashadi va “parishon ko‘ngil” obrazi mumtoz uslub va janr orqali zamonaviy dard va fikrni o‘zida mujassam etadi hamda tasvirlaydi. Bu esa inson o‘tkinchi, lekin uning qalb mayllari, tuyg‘u va kechinmalari badiiy so‘z vositasida tasvirlansa, yashovchan ekanligini anglatadi va har-xil davrda yashagan ijodkorlarning asarlarida fikr va tuyg‘u tasvirida umumiy mushtaraklik bo‘lishi mumkin, ammo o‘zi yashagan davr jamiyatining muammo va dardi alohidalikni kasb etadi. Yillar davomida lirik qahramon (Mazkur ruboiyda shoirning o‘zi – K.Q.)ga “zabunlik”ning hayotida taqdir, ruhiga kishan, oyog‘iga zanjir bo‘lishi ona mehridan, ota diydoridan judolikda hamda sobiq ittifoq davrida so‘z, e‘tiqod va fikr erkinligidan bebahra ulg‘ayib-o‘sganligini anglatadi. Ijodkorning quyidagi ruboiysida Bobur lirikasining ta‘siri yanada yorqinroq aks etgan:

Hay, bo‘l, - desa yurt, qatorda bo‘lmasmi kishi?
Shu yurti jahon dardiga to‘lmasmi kishi?
Shu yurti jahon baxtini hech o‘ylamasa,
Bir chetga chiqib kanorda o‘lmasmi kishi? [3;248].

Mazkur ruboiy misralari mazmunan Boburning hayotdagi shiorlaridan birini o‘zida ifoda etgan “Ko‘ngli tilagan murodiga yetsa kishi” satri bilan boshlanuvchi ruboiysini yodga soladi. Bu esa Jamol Kamol she‘riyatining ruboiy janri bilan ziynatlanishida Bobur lirikasining ilhomlantiruvchi traditsion manba vazifasini bajarganligini yana bir bor ko‘rsatadi. Demak, Jamol Kamol g‘azal janridagi she‘rlarida hazrat Alisher Navoiydan munosib ilhomlansa, ruboiy janrida Zahiriddin Muhammad Boburning falsafiy lirikasidan ko‘proq ijodiy bahra olgan. Boburning falsafiy ruboiylarida intim tuyg‘uni o‘zida aks ettirgan fikrlar silsilasi yetakchilik qilsa, Jamol Kamol ruboiylarida ijtimoiy va intim fikr va dard qorishiq ifoda etilgan. Bu o‘z navbatida shoirning davr va jamiyat hodisalariga bo‘lgan faol munosabatini anglatadi. Yuqoridagi ruboiyda fikr tadrijiy ravishda rivojlantirilgan. Dastlabki misradagi fikr keyingilarida bosqichma-bosqich to‘ldirilgan. Uchinchi misradagi antitezis vazifasida o‘rtaga tashlangan fikr yanada yuqoriroq pafosdagi va jiddiy fikrni aytishga zamin hozirlaydi, ya‘ni u keyingi bosqichga o‘tish uchun o‘ziga xos badiiy nuqta vazifasini o‘taydi. Bu xususiyatlar shoir Jamol Kamolning barcha ruboiy va taronalarida poetik qonuniyat o‘laroq takrorlangan, chunki adabiyotshunos Ibrohim Haqqulov ta‘kidlaganidek, “ruboiyda har bir misra o‘zicha alohida ma‘noli bo‘lib, ular umumg‘oya nuqtayi nazaridan poetik uyg‘unlikka ega. Kompozitsion jihatdan esa misralar nisbatan mustaqillikka ega bo‘ladi”.

Shoirning intim sharxi holi aks ettirilgan quyidagi ruboiysi diqqatga sazovor:

Evohki, men ajab alamlar chekdim,
Chekkan alamim-la so‘ng qalamlar chekdim.
Umrimga alam bilan qalam bo‘ldi aso,
Umrimga aso tutib, qadamlar chekdim [2;254].

Ruboiy tahlilini shoirning tarjimayi holidan kelib chiqib amalga oshirsak, ma‘lum bo‘ladiki, shoir otasini tanib-tanimagan mahalda, ya‘ni uch oylik chaqaloqligidayoq otasi - Kamol Husanxo‘jani “Fayzulla Xo‘jayev va Akmal Ikromov xalq dushmani emas, xalq do‘sti edi”, - degan gapi uchun otuvga hukm qilishgan. Otasi – Kamol Husanxo‘janing hajrida kuygan shoirning onasi – Hojalbegim ham o‘ttiz besh yoshida vafot etadi. Taqdirning bunday beshafqat qismati murg‘ak qalb egasining hayotida “ajab alamlar” bo‘lib iz qoldirgan. Nobel mukofoti sovrindori Ernest Xemingueyning shunday fikri bor: “Ijodkor bo‘lish uchun kuch, bilim, iste‘dod va, albatta, baxtsiz bolalikni boshdan kechirish kerak”. Darvoqe, shoir Jamol Kamolga undagi kuch, bilim, iste‘dod va bolaligidagi “ajab alamlar”i qalam tutqazgan bo‘lsa, ajabmas. Zero, bo‘lg‘usi shoir judoliklar sabab juda yoshligidan hayot va jamiyat hodisalarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, individ qobig‘ini yorib, shaxs bo‘lishga intigan.

Adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul shoir Jamol Kamolning quyidagi biografik chizgilarga ega satrlarini shunday izohlaydi:

“Otam diydorini ko‘rolmadim men,
Onasiz o‘ssam-da, bo‘lmadim yetim ...

Bu tasallining ortida o‘rkach-o‘rkach qayg‘u va alam bekinib yotibdi. Shular qatra-qatra, to‘lqin-to‘lqin bo‘lib, Jamol Kamol she‘rlariga singib ketgan. Uning so‘z va ifodalarida dard, hasrat, armonning olovlanishi shundan. Xullas, yetim bola buvisi - Mohtobbibining qo‘lida qolib, uning tarbiyasida o‘sadi” [1;6].

Anglashiladiki, yuqoridagi ruboiyda shoir o‘zining hayot qismatini lakonizm asosida lo‘nda qilib ifoda etgan. Bunda metonimik – qayta nomlash ifodalari: hayot iztiroblarini “alam”, butun ijodiy faoliyatini “qalam” deya nomlashlar muhim lingvopoetik funksiyalarni bajargan. Shoir ruboiyning antitezis qismida alam va qalamning birini ikkinchisiga sabab-oqibat munosabatida kontrast uyg‘unlashtirib, alamidan tug‘ilgan qalami, ya‘ni ijodi umriga tayanch – aso bo‘lganligiga logik urg‘u beradi va sintezda shu “aso”ga tayanib, “qadamlar chekdim”, ya‘ni “hayot kechirdim”, degan xulosani beradi. Demak, ijodkorning tug‘ilib o‘sgan joyi, muhiti, tarjimai holi uning ijodiga bevosita ta‘sir qilishini yuqoridagi misralar misolida ko‘rish mumkin. Jamol Kamol ruboiylaridagi falsafiy fikr va ma‘nolarni uqib olishimizda janr qonuniyatlari etolon qolip vazifasini bajaradi. Quyidagi ruboiyda shoir Ko‘hna Sharqning didaktik g‘oyalaridan uslub qirralarini badiiy jilolarda namoyon qilish maqsadida san‘atkorona foydalangan:

Nokas bilan yurma, oshnolik etma,
Nomardga qayishma, jonfidolik etma.
Har ne tilaging bo‘lsa, Yaratgandan so‘r,
Lek bandasidan so‘rma, gadolik etma ...[2;258].

She‘r mazmunan Ahmad Yassaviy hikmatlari, Pahlavon Mahmud, Zahiriddin Muhammad Bobur ruboiylariga hamohang. Buni II shaxs “sen” olmoshiga, ya‘ni she‘rxon yoki kitobxonga bo‘lgan to‘g‘ridan to‘g‘ri da‘vat, chaqiriq, o‘git mazmunidagi II shaxs buyruq mayli bilan grammatik shakllangan gaplardan tuzilgan misralar orqali anglash mumkin. Bunda lirik qahramon yoki shoir hikmatomuz nasihatlarini so‘ylovchi voiz qiyofasida gavdalanadi. Janr tabiati, misralar mazmuni va aruziy ohang tarovati orqali bu she‘r XV-XVI asrlar qo‘lidan yangragandek taassurot qoldiradi. Bu esa Jamol Kamol nafaqat ruboiy janri qonuniyatlari, balki mumtoz siymolarimiz asarlarini ong va qalb sintezidan o‘tkaza oladigan quvvayi hofiza qudratiga ega ekanligidan dalolatdir. Ruboiyning tezis qismida “Qozonga yaqinlashsang, qorasi yuqar” naqliga monand g‘oya o‘rtaga tashlangan bo‘lsa, antitezis va sintezda har qanday holatda inson bolasi bid‘at odatlardan qochib, Alloh taologa tayanmog‘i, faqat va faqat Xudodan tilaklari ijobatini so‘rashi kerakligi haqidagi sof islomiy e‘tiqod tushunchasi badiiy aks ettirilgan.

Xullas, Jamol Kamol ruboiylarida janrning hajm, vazn, bahr, ohang, ritm, qofiya va radif kabi unsurlaridagi traditsiya bilan birga izofali birikmalar konstruksiyasidagi misralar, mumtoz poetik san‘atlar, klassik jozibadorlikka ega aruziy ohangdagi so‘zlar, poetik sintaksis elementlarini o‘zida mujassam etgan jumlar ham mumtoz an‘analari tasvirini to‘laqonli, shakl va mazmun mutanosibligida aks etishga xizmat qilgan. Bu xususiyatlar shoirning mumtoz qolipdagi zamonaviy o‘z “ovoz”ini tarannum etishga xizmat qilib, ijodidagi lirik janrlar rang-barangligini ta‘minlagan.

Adabiyotlar

1. Камол Ж. Аср билан видолашув. I жилд – Тошкент, Янги аср авлоди. 2018. 492 б.
2. Камол Ж. Ёнаётган дала. II жилд – Тошкент, Янги аср авлоди. 2018. 441 б.
3. Камол Ж. Шеър санъати. IV жилд – Тошкент, Янги аср авлоди. 2018. 441 б.
4. Хасанов Ш. Истедоднинг рангин жилolari. Шарқ юлдузи. 2019 йил 1-сон 9 б.
5. Йўлдошев Қ, Йўлдошева М. Бадий таҳлил асослари. – Тошкент, Камалак. 2016. 461 б.
6. Орзибеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. -Тошкент. Фан. 1976. 213 б.
7. Хаккулов И.Ч. Рубаи в узбекской литературе. АҚД. –Тошкент. 1975. 176 б.
8. Саломов Ғ., Комилов Н. Жаҳонгашта рубоийлар. Таржима санъати (Мақолалар тўплами). 3-китоб. – Тошкент, 1976. 322 б.
9. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари.-Тошкент. Ўзбекистон. 2002. 559 б.
10. Мухаббат тароналари. Очилов Эргаш таржималари. Рубоийлар. – Тошкент. Шарқ. 2005. 430 б.

UDK: 494.3

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA KIYIM-KECHAK NOMLARI TAHLILI HAQIDA

X.L.Maxammadiyev

Jizzax davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarida davrga xos ayrim kiyim-kechak leksemalari tadqiq etildi, misollar orqali izohlandi. Navoiy asarlari lug‘at tarkibidagi *kiyim-kechak leksikasi* (KKL)ni aniqlash tilimiz tarixi, o‘zgarishlari, leksik boyligi, XV asrda o‘zbek xalqining turmush-tarzi, madaniyati haqida tasavvurga ega bo‘lish imkonini beradi. Alisher Navoiy asarlarida uchraydigan o‘z qatlam kiyim-kechak nomlari tarixi ko‘hna yozma manbalarga borib taqaladi. Masalan, *to‘n*, *bo‘rk*, *ko‘ylak*, *burunchak*, *o‘tuk* (*etuk*) singari KKL qadimgi va eski turkiy til yodgorliklarida uchraydi. Bu leksemalarning ko‘pchiligi hozirgi turkiy tillarda, jumladan, o‘zbek tilida biroz fonetik va ma‘no o‘zgarishi bilan qo‘llanib kelamogda.

Maqolada Navoiy qo‘llagan ayrim kiyim-kechak nomlari qadimgi va eski turkiy tilga, shuningdek, zamonaviy turkiy tillarga, jumladan, hozirgi o‘zbek tiliga qiyoslab, leksik-semantik va etimologik jihatdan tadqiq etildi.

Kalit so‘zlar: Navoiy, kiyim-kechak, turkiy, bo‘rk, to‘n.

Об анализе названий одежды в работах Алишера Навои

Аннотация: В этой статье были изучены и объяснены на примерах некоторые лексемы одежды того периода в творчестве Навои. Определение лексики одежды (ЛО) в словаре произведений Навои позволяет составить представление об истории, изменениях, лексическом богатстве нашего языка, быте и культуре узбекского народа в XV веке. История названий собственных слоев одежды, встречающихся в произведениях Навои, восходит к древним письменным источникам. Например, ЛО, такие как халат, шапка, рубаха, бурунчак, утук (эдук), встречается в древних и древнетюркских языковых памятниках. Многие из этих лексем используются в современных тюркских языках, включая узбекский, с некоторыми фонетическими и семантическими изменениями.

В статье рассматриваются некоторые названия одежды, употребляемые Навои, в лексико-семантическом и этимологическом плане, сравниваются их с древними и старотюркскими языками, а также с современными тюркскими языками, в том числе современным узбекским.

Ключевые слова: Навои, одежда, турецкий, шапка, халат.

On analysis of clothing names in the works of Alisher Navoi

Abstract. In this article, some clothing lexemes of the period in Navoi's works have been studied and explained with examples. Defining the vocabulary of clothes in the dictionary of Navoi's works allows us get an idea of the history, changes, lexical richness of our language, the way of life and culture of the Uzbek people in the XV century. The history of the names of their own layers of clothing found in Navoi's works goes back to ancient written sources. Such as coat, burka, shirt, nose, otuk (boots), is found in ancient and old Turkic language monuments. Many of these lexemes are used in modern Turkic languages, including Uzbek, with some phonetic and semantic changes.

The article examines some of the clothing names used by Navoi in lexical-semantic and etymological terms, comparing them with the ancient and old Turkic languages, as well as modern Turkic languages, including modern Uzbek.

Keywords: Navoi, clothes, turkish, burka, coat.

Alisher Navoiy asarlarida qo‘llangan turli sohalarga oid leksik birliklar qatorida maishiy sohaga oid so‘zlarni, xususan, kiyim-kechak leksemalarini tadqiq etish xalqimizning o‘sha davrdagi turmush tarzi, madaniyat, urf-odati, an‘analari, jamiyat va til tarixi hamda o‘zbek tilining lug‘at boyligidan boxabar bo‘lishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali o‘zbek adabiy tilining ma‘lum rivojlanish boskichida leksemalar va ularning ma‘no taraqqiyotini aniqlash, tarixiy-maishiy terminologiya va leksikologiyada kechgan so‘z o‘zlashtirish, umuman, leksik-semantik jarayonlarni kuzatish mumkin bo‘ladi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi kiyim-kechakka oid so‘zlar uzoq tarixga ega. Ular jamiyat taraqqiyoti va turmushdagi o‘zgarishlarga mos ravishda tilning o‘z ichki imkoniyatlari va chetdan so‘z o‘zlashtirish orqali boyib borgan. Ularning ko‘pchiligi hozirgi o‘zbek adabiy tilida mavjud bo‘lsa, muayyan qismi o‘zbek shevalarida uchraydi. Tabiiyki, davr o‘tishi bilan kiyim-kechakni ifodalagan bir qator

leksemalar arxaiklashgan. Umumturkiy bo'lgan ko'pgina kiyim nomlari bugungi kunda ham turkiy tillarda qo'llanib kelmoqda.

Ma'lumki, Navoiy asarlarida qo'llangan kiyim-kechak leksemalari (KKL) o'z qatlam va o'zlashgan qatlamdan iborat. Ilmiy tadqiqotlarda shoir ijodida erkak va ayollar kiyadigan 60 dan ortiq libos turlari tilga olingani qayd etiladi [1: 99]. Ushbu maqolada shoirning «Xamsa» dostonlari tilida qo'llangan turkiy-o'zbek tilga xos kiyim-kechak nomlari to'g'risida bahs yuritimiz.

Navoiy dostonlari tilida iste'molda bo'lgan tub va yasalgan turkiy so'zlarning tarixi ko'hna yozma manbalarga borib taqaladi. Masalan, *to'n*, *qaftan* (*qapton*), *ishton*, *bo'rk*, *ko'ylak* (*ko'nglak*), *burunchak*, *o'tuk* (*etuk*), *turqu*, *qur*, *kish* singari KKL qadimgi turkiy va eski turkiy til yodgorliklarida uchraydi [2: 479]. Bu kiyim-kechak nomlari Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida qayd etilgan [3: 212, 217, 230, 281, 285, 328].

Alisher Navoiy asarlarida yuqorida keltirilgan KKL bilan birga *chopon*, *qalpog'*, *to'ppi*, *chakman*, *to'rqa*, *oltoy*, *terlik*, *yelak* (*jelak*), *belbog'*, *qur*, *qurchuq*, *shirdog'*, *dakla* (*deklay*), *lachak*, *yog'lig'* singari eski o'zbek tili atamallari ham qo'llanganini ko'ramiz. Fikrimizga misollari ko'pligi jihatdan hazrat Navoiyning «Hayrat ul-abror» dostonidan bir parcha keltirishni lozim topdik:

Orqag'a **dastori** uchi tekkani,

Tebranuri birla urub gardani.

Bo'rki uchin ichkari bukkani ayon,

Hirsu havo qushlarig'a oshyon.

To'ni ipak bo'lmasa, ko'ngli hazin,

Jinsi xitoy bo'lmasa qoshida chin.

Yuzida zarbaftdin istab nishon,

Hajv bitarga varaqi zarfishon.

Balki libosini parand etmayin,

Bistar etib to'ng'a pisand etmayin.

Ko'nglok etib nozu havasdin **katon**,

Qaysi havas, parri magasdin katon.

Parri magas ham dema, shabnam degil,

Terlik aning ustiga bayram degil.

Beliga zarrishta **qurin** band etib,

Balki zarofat bila **takband** etib.

Yog'lig'i ul hullai zarrishtakash,

Kim anga jonlar chekibon rishtakash.

To'n yuzi oltun bila jadval anga,

Balki **o'tuk** taqqasi zarhal anga [4: 287-288].

"Xudnamo muxannasvashlarning dunyo ziynati iktisobida hiylasozliqlari" ta'rifida keltirilgan ushbu parchada fors-tojik tilidan o'zlashgan *dastor* (*salla*) va *takband* (*kamar*, *belbog'*)dan boshqa o'zbek tilidagi beshta kiyim-kechak va ikkita kiyimlarga yordamchi buyum nomini ko'rishimiz mumkin. Ulardan *bo'rk* – bosh kiyim, *to'n*, *ko'nglak*, *terlik* – ust kiyim, *o'tuk* – oyoq kiyim, *qur* (*belbog'*) va *tebranur* (*jig'a*) – kiyimga yordamchi buyumni anglatadi.

Alisher Navoiy asarlarida qayd etilgan o'z qatlamga xos *bo'rk*, *to'n* kabi kiyim nomlarining leksik-semantik xususiyatlari, ularning hozirgi o'zbek tili, shuningdek, qadimgi va zamonaviy turkiy tillarga munosabatini ko'rib chiqamiz.

Bo'rk. Bosh kiyim turlaridan *bo'rk* turkiy so'z ekani aniq. Qadimgi yozma manbalarda "qalpoq, bosh kiyimi" ma'nosi shu so'z bilan ifodalangan. "Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati"da *bo'rk* so'zi «bosh kiyim, qalpoq, telpak, *bo'rk*» deb izohlangan [5: 346].

Yuqorida dostonidan keltirilgan parchada tanqid tig'i qaratilgan salbiy qahramonning *bo'rki* oliftanamo shaklda kiyilganligi, ya'ni uning uchi ichkariga bukilgan holati xuddi "hirsu havo qushlari"ga in qilinganiga o'xshatiladi:

Bo'rki uchin ichkari bukkani ayon,

Hirsu havo qushlarig'a oshyon.

Sh.Rahmatullaev o'z lug'at kitobida *bo'rk* to'g'risida shunday yozadi: "*bo'rk*" bosh kiyimning bir turi, "qalpoq". Bu ot qadimgi turkiy tildagi "qopla", "yop" ma'nosini anglatgan *böry-* fe'lidan (Devon, II, 164) -k qo'shimchasi bilan yasalgan (ESTYa, II, 222), keyinchalik ikkinchi bo'g'indagi tor unli talaffuz qilinmay qo'ygan (PDP, 373; Devon, I, 333; DS, 118); o'zbek tilida ö unlisining yumshoqlik belgisi yo'qolgan: *böry-* + *k*= *böryk* > *börk* > *bork*". [6: 77-78].

Darhaqiqat, E. Sevortyan o'zining mashhur "Turkiy tillarning etimologik lug'ati (ESTYa)da bo'rk so'zi etimologiyasi to'g'risida turkiy tillarda qo'llanish misollari bilan keng ma'lumot bergan. S. Malov bu so'zni mo'g'ulcha "bokig" - (покрывало) so'zidan olingan "bosh kiyim" atamasi sifatida keltirgan [7: 373].

Ta'kidlash kerakki, "bosh kiyim" – dastlabki umumlashtiruvchi sema keyingi asrlar manbalari tilida ham yetakchilik qilgan. Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida "qalpoq, bosh kiyimi" ma'nosi beri=, byry= "berkitmoq, yopmoq, o'ramoq" fe'lidan yasalgan berk so'zi bilan ifodalangan. Lug'atda bu so'z ishtirokida maqol ham uchraydi: "Tatsyz tyrk bolmas, bashsyz berk bolmas". [8: I, 333].

Umumturkiy xarakterdagi bu leksemaning paydo bo'lishi XI asr ilk eski turkiy til davriga to'g'ri keladi. Bu so'z dastlab "Qutadg'u bilig", "Devonu lug'atit turk"da, keyinroq "Hibatul-haqoyiq"da uchraydi. Mahmud Koshg'ariy lug'atda *berk*nning bir nechta turlarini keltiradi. Jumladan, "uzun, mayin, oq echki yungidan qilingan oq qalpoq" semasi *qymach berk* so'z birikmasi bilan ifodalangan. Qalpoqning o'ziga xos turini bildiruvchi bu so'z birikmasi chigillar tiliga xos bo'lgan (III, 190). "Qaytarma qalpoq" *kotyrmā berk* (I, 452), "uzun (uchli) qalpoq" esa *syqarloch berk* (I, 454) so'z birikmalari yordamida ifodalangan. Qalpoq va uning boshqa xillarini tikuvchi qalpoqchi lug'atda *berkchi* (I, 62) yasamasi bilan atalgan [9: 18-21].

Eski o'zbek tilida **bo'rk** kiyim nomining ishlatilishi faol bo'lgan. Navoiyning boshqa she'riy va nasriy asarlarida ham bu so'z ko'p uchraydi. Xususan, "Vaqfiya" asarida buning guvohi bo'lishimiz mumkin: "...avval shart andoq qilildikim, mutavalli har yil **yuz po'stin, yuz kapanak, yuz bo'rk, yuz kafsh, yuz ko'nglak, yuz tunbon** sotqun olg'ay, dag'i har qaysini munosib mavsimda ikki mudarris ittifoqi bil mustahiq'larga har qaysig' istihqoqig'a ko'ra ulashgay. [10: 274]. Yoki «Majolis un-nafois» tazkirasida xamsanavis shoir Ashraf haqida shunday ma'lumotlar berilgan: «*Mavlono Ashraf - darveshvash va nomurodsheva kishi erdi. Va kiyiz bo'rk ustiga qurchuq chirmar erdi.* [11: 13].

Shoirning bir g'azalidagi "**Bo'rk o'rnida bosh eltur, naqd o'rnida olur jon...**" misrasida ham bunga misol ko'rishimiz mumkin.

Navoiy asarlari leksik boyligidan, umuman bu davr yozma manbalaridan ma'lum bo'ladiki, bo'rkning turi ko'p bo'lgan. Ularni turli materiallardan, turfa rangda tayyorlangan, asosan, os, qunduz, tulki, qo'zi va boshqa mo'ynali hayvonlar terisidan tikilgan. Buni quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin:

Lola kibi zohir aylabon ko'rk,

Egri qo'yubon qizil teri bo'rk. [12: 42].

Yoki:

Qaro bo'rkin egri qo'yub boshig'a,

Yetib bir qirog'i qaro qoshig'a. [13: 251].

Alisher Navoiy bo'rkni ma'lum bir bosh kiyimi hamda umuman bosh kiyimi ma'nolarida ham qo'llagan.

Navoiyning zamondoshi Boburning "Boburnoma" asarida bosh kiyim nomi sifatida **bo'rk** ko'p bor uchraydi. Ushbu me'muar asarda muallif o'z otasi Umarshayx mirzo haqida: "Yozlar g'ayri devonda aksar **mug'uli bo'rk** kiyar edi», deb ma'lumot beradi [14: 10]. Bu o'rinda bo'rkning sifati bo'lib kelgan *mug'ili* bosh kiyimning etnik mansubligini bildirsa, quyidagi misollarda turli ash'yodan tayyorlangani bo'rk turlarini ko'rishimiz mumkin: "*Qosimbek mubolag'alar bila arzg'a yetkurdikim, chun bu kishi boradur, Jahongir mirzog'a maxsusona o'z kiyganingizni yiboring. Bir os bo'rkumni yibordim.* [14: 87]. Anglashiladiki, bo'rk os deb atalmish juni oq va mayin hayvon mo'ynasidan tikilgan.

Bo'rk bilan **qalpoq** ayri-ayri bosh kiyim ekanligi, ayniqsa, «Boburnoma»da tilga olingan mana bu parchada yaqqol ko'rinadi. Bobir o'z asarida Husayn Boyqaroning portretini chizar ekan shunday yozadi: «*Xushrang, qizil, yashil abrishimni kiyar edi, qora qo'zi bo'rk kiyar edi yo qalpoq.* [14: 147].

Muhammad Solihning XVI asrda yaratilgan "Shayboniynoma" dostonida **bo'rk** umuman "bosh kiyim" ma'nosida qo'llangan [15: 11].

Hozirgi turkiy tillarda berk leksemasi turli fonetik shikllarda va ma'nolarda uchraydi. Xususan, o'zbek tilida bo'rk "qishlik qalpoq, telpak" [16: 164], qozoq tili va dialektlarida berik "yupqa yungdan qilingan qalpoq", turk tilida vörük "bosh kiyimi", "ro'mol", uyg'ur tilida "qalpoq, shapka" ma'nosini ifodalashda davom etmoqda [17: 221-222]. O'zbek tilining Forish shevasida berk "qalpoq", Xorazm shevasida esa "yopinchiq" ma'nosida qo'llanishini qayd etish lozim. Ko'rinadiki, "ro'mol" va "yopinchiq" ikkilamchi ma'nolar ko'rilayotgan leksemaning birlamchi ma'nosi negizida shakllangan va ularni "bosh va tana uchun yopinchiq" semasi birlashtiradi.

Bo'rk so'zi hozirgi turkiy tillarda keng qo'llanilishi ilmiy adabiyotlarda qayd etiladi. Masalan, qoraqalpoq tilida - bōrik; oltoy tilida - bōrük, oltoy dialektlarida - pōrik, turk tili dialektlarida - pörk va b. Ko'proq mo'ynali shapka, shuningdek, yopinchiq, ro'mol ma'nosida ishlatiladi [18: 104].

E.Teneshev, G.Blagovala va b. tomonidan yaratilgan rus tilidagi “Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi”da **bo‘rk** so‘zi qadimgi turkiy tilda va hozirgi o‘nlab turkiy tillar va ularning dialektlarida asosan ma’lum turdagi erkaklar bosh kiyimi, qisman ayollar yopinchig‘i va ro‘moli ma’nolarida biroz fonetik tafovutlar bilan qo‘llanishi haqida turkolog olimlarning manbalari asosida ma’lumot berilgan. [19: 482-483].

To‘n. Bu kiyim nomi Navoiy asarlarida boshqalariga qaraganda eng ko‘p uchraydi. “Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”da To‘n – 1 kiyim; sirtqi kiyim; chopon; po‘stin ekanligi qayd etilgan [20: 268].

Yuqorida “Hayrat ul-abror” dostonidan keltirilgan parchada *ipak to‘n* haqida ma’lumot olamiz:

To‘ni ipak bo‘lmasa, ko‘ngli hazin,

Jinsi xitoy bo‘lmasa qoshida chin.

Navoiy asarlarida *to‘n* umuman kiyim va ma’lum bir kiyim turi ma’nolarida qo‘llangan. Shuningdek, *to‘n* materiali, tikilish usuli va kiyish o‘rniga ko‘ra ham farq qilgan. “Saddi Iskandariy” dostonidan olingan mana misolda *to‘n* va *yalang to‘n* kabi kiyimning ikki xil turi qalamga olingan:

Yana uch to‘quz davlat arkonig‘a,

To‘nu jubba birla aning yonig‘a –

Iki yuzga ham deklayu to‘n berib,

Yalang to‘n alarga yana o‘n berib. [21: 313].

O‘zbek tilidagi kiyim nomlar bo‘yicha maxsus ilmiy tadqiqot yaratgan M.Asamuddinova to‘nning bir turi Navoiy va Bobur asarlarida *yalang to‘n*, *yalak* tarzida uchrashini va u *tash to‘n* bo‘lgani uchun chopon ustidan kiyiladigan avra-astar yoki avradan iborat yengil kiyim ekanini qayd etadi [22: 66]. Yuqoridagi parchada **to‘n** bilan juftlik hosil qilgan **jubba** arabchadan o‘zlashma bo‘lib, «hashamatli keng, uzun va yengli to‘n»ni, **dekla** esa «yengi kalta ustki kiyim»ni anglatadi.

Quyidagi misolda, bizningcha, *to‘n* so‘zi kiyim ma’nosida kelgan. Pahlavon jangchilar kiygan bu urush libosi yo‘lbars terisidan tikilgan:

Palangina bargustvon otig‘a,

Kiyib babr to‘n xalq ofotig‘a. [23: 201].

M.Asamuddinova tekshirishicha, qadimiy yozma manbalar tilida **to‘n** so‘zi umuman ust kiyim, chopon, chakmon, po‘stin ma’nolarini anglatgan. Chunonchi, VI-VIII asrlarga oid Kultegin yodnomasida chopon ma’nosini ifodalagan quyidagi jumla uchraydi: *ichra ashshyz, tashra tonsyz jabyz jablak budunta jzä olurtym* [24:19]. Olimaning fikricha, *to‘n* so‘zining etimologiyasi aniq emas.

“Devonu lug‘atit turk”da *ton* leksemasi «kiyim» umumlashtiruvchi semasini: opraq ton “suzilgan, eskirgan kiyim” [25: 140], shuningdek, “to‘n” ma’nosini ham anglatgan [26:151]. Har holda, XI asrdan *ton* leksemasining farqlovchi semasi shakllana boshlagani ayonlashadi.

Tadqiq etilayotgan so‘z hozirgi turkiy tillarda kiyimga xos turli ma’nolarda qo‘llanib kelmoqda. Masalan, ozarbayjon tilida *don* «kaftan, ko‘ylak», turk tilida *don* «kiyim», turkman tilida *don* «xalat», no‘g‘ay tilida *ton*, tatar tilida *tun*, yoqut tilida *son* «po‘stin», xakas tilida *ton* “po‘stin”, qirg‘iz tilida *ton* «mo‘ynasi ichiga tikilgan po‘stin». Turk tili dialektlarida *don* “yengil mato, yopinchiq” ma’nolariga ega. Turkiy tillarda *don/ton* so‘zining ma’nolaridan biri “ichki kiyim, ishton”ni anglatgan bo‘lib, bu hozirgi gagauz va turk tillarida saqlanib qolgan[27:33-34].

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida *to‘n* asosan quyidagi ma’noni anglatadi: To‘n 1 Oldi ochiq, paxtali yoki paxtasiz uzun ustki milliy kiyim; chopon [28: 238].

Demak, qadimiy turkiy so‘z – *to‘n* o‘zbek tilida ham umuman kiyim va kiyim turlari (ustki, ichki kiyim)ni ifodalab, keng ma’noda qo‘llangan. Zamonlar osha moddiy madaniyatning yuksalishi bilan ust kiyim turlari ham ko‘paydi, ularni ifodalovchi nomlar o‘zbek tili lug‘at tarkibini boyitdi. Natijada *to‘n* so‘zining ma’no ko‘lami ancha torayib, hozirda turli matolardan tikilgan avra-astarli, erkaklar kiyadigan ustki milliy kiyim turini ifodalaydigan bo‘lib qoldi.

Xulosa qilib aytganda Alisher Navoiy asarlarida qo‘llangan *bo‘rk*, *to‘n*, *ko‘nglak*, *qaftan*, *dekla*, *o‘tuk* kabi ko‘pgina asl turkiy kiyim nomlari qadimgi va eski turkiy tilda mavjud bo‘lib, hozirda bir qator zamonaviy turkiy tillarda, jumladan, o‘zbek tilida ham biroz ma’no va fonetik o‘zgarishlari bilan qo‘llanib kelmoqda.

Adabiyotlar

1. Ўтанова С. Навоий ижодидаги либос номлари умумтуркий халқларнинг этнографик-маданий бойлиги./Алишер Навоий ижодий меросининг умумбашарият маънавий-маърифий тараққиётидаги ўрни” халқаро илмий анжуман материаллари. Навоий ш., 2017 йил 11 февраль.

2. Тенешев Э., Благова Г. и др. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Лексика. Москва: Наука, 2001.
3. Махмуд ибн Хусайн Кошғарий. Туркий сўзлар девони. Девону луғотит турк. 3 жилдик. 1-жилд. Тошкент: Мумтоз сўз, 2013.
4. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами.
5. Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати.
6. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 1 ж. –Т.: Университет, 2000. –Б. 518.
7. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. М-Л, 1951, стр. 373.
8. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Уч томлик. I том. –Т.: ЎзФА нашриёти, 1960.
9. Шукурова Г. “Девону луғотит турк”да устки кийимни ифодаловчи лексемалар парадигмаси./ Тилшуносликнинг долзарб масалалари (Илмий мақолалар тўплами) - IV. -Т.: 2008.
10. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдли. 14-жилд. -Т.: Фан, 1998.
11. Навоий. Мажолис ун-нафоис. Илмий танқидий матн. -Т.: 1961.
12. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдли. 12-жилд. –Т.: Фан, 1996.
13. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдли. 11-жилд. -Т.: Фан, 1993.
14. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. -Т.: Юлдузча, 1989.
15. Холманова З. "Шайбонийхон" дostonи лексикаси. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати, Тошкент, 1998.
16. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I жилд. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006.
17. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. Общeturкские и междурекские основы на букву «Б». Москва: Наука, 1978.
18. Хазиева А. Лексика словаря Махмуда Кашгари «Дивану лугат ит-тюрк» в сравнении с современным башкирским языком. Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Уфа, 2008.
19. Тенешев Э., Благова Г. и др. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Лексика. Москва: Наука, 2001.
20. Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. II жилд.. –Т.: Фан, 1983.
21. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдли. 11-жилд. -Т.: Фан, 1993.
22. Асомиддинова М. Кийим-кечак номлари. -Т.: Фан, 1981.
23. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдли. 11-жилд. -Т.: Фан, 1993.
24. Асомиддинова М. Кийим-кечак номлари. -Т.: Фан, 1981.
- 25.. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Уч томлик. I том. –Т.: ЎзФА нашриёти, 1960.
26. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Уч томлик. III том. –Т.: ЎзФА нашриёти, 1963.
27. Каранфил. Г. Гагаузская лексикология. Книга 1. Комарат, 2009.
28. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. IV жилд. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007.

UDK: 81

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA O‘TIMLI FE‘LLAR TASNIFI MUAMMOSI

M.A. Hamidova

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif ingliz va o‘zbek tillarida o‘timli va o‘timsiz fe‘llarning tasnifi muammosini, xususan o‘zbek va ingliz tillarida fe‘llarning leksik-semantik jihatdan o‘xshashlik va farqli tomonlarini ilmiy asoslab o‘rgangan. Chunki, chog‘ishtirma tilshunoslik chet tili o‘qitish metodikasining lingvodidaktik asosi hisoblanib, bir-biriga qardosh bo‘lmagan tillardagi farq va o‘xshashliklarning metodik jihatdan ahamiyatining o‘rganilishi xorijiy tilni o‘zlashtirayotganlar nutqida ro‘y beradigan tillararo interferensiya va fasilitatsiyalarni aniqlash, o‘rganilayotgan tilning qulay va samarali jihatlarini aniq ko‘rsatish imkonini beradi. Shuningdek, turli tillarning o‘ziga xos tendensiya va qonuniyatlarini ochib berish, tillararo muqobillarni aniqlash, doimiy aloqada bo‘lgan tillarning o‘zaro boyishi hamda bir-biriga ta’sirini oydinlashtirish kabi masalalar o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: fe‘l, o‘timli fe‘l, leksik-semantik xususiyat, tasnif, farq va o‘xshashlik

Проблемы классификации английских и узбекских переходных глаголов

Аннотация. В данной статье автор проанализировал и классифицировал английские и узбекские типы глаголов в соответствии с отношением между грамматикой и лексикой. И она изучила дополнение к переходным и непереходным глаголам, в английском языке были идентифицированы бифункциональные глаголы, грамматически значимая классификация глаголов в соответствии с их лексико-грамматическим значением, образованием, отношением к объекту, обязательной отвагой, требуют ли они предлоги. объект или нет, предел действия во времени, непереходные глаголы, которые могут использоваться в пассивном голосе, и глаголы, которые используются с формальным субъектом, были разработаны.

Также новый подход к глагольным категориям голоса, настроения и аспекта в узбекском языке, такой как точка зрения категории голоса, которая состоит из тройной оппозиции - активной, пассивной и рефлексивной, транспозиции настроения в узбекском языке как в английском и наблюдение категории аспекта было доказано.

Ключевые слова: глагол, переходный глагол, лексико-грамматическое значение, формирование, классификация, сходства и различия.

Problems of classification of english and uzbek transitional verbs

Abstract. In this given article the author analyzed and classified the English and Uzbek verb types in accordance with the relation between grammar and vocabulary. And she learned addition to the transitive and intransitive verbs, bifunctional verbs have been identified in the English language, the grammatically significant classification of the verbs according to their lexico-grammatical meaning, formation, relation to the object, obligatory valiancy, whether they require prepositional object or not, the limit of the action in the time, the intransitive verbs which can be used in the passive voice and the verbs which are used with a formal subject have been worked out.

Also a new approach to the verb categories of voice, mood and aspect in the Uzbek language, such as a viewpoint of the category of voice which consists of triple opposition – active, passive and reflexive, transposition of mood in the Uzbek language as in English and the observation of the category of aspect have been proved.

Keywords: verb, transitional verb, lexico-grammatical meaning, formation, classification, similarities and differences.

Kirish.

Jahon tilshunosligida so'nggi yillarda qiyosiy va chog'ishtirma tilshunoslik doirasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zotan, chog'ishtirma tilshunoslik chet tili o'qitish metodikasining lingvodidaktik asosi hisoblanib, bir-biriga qardosh bo'lmagan tillardagi farq va o'xshashliklarning metodik jihatdan ahamiyatining o'rganilishi xorijiy tilni o'zlashtirayotganlar nutqida ro'y beradigan tillararo interferensiya va fasilitasiyalarni aniqlash, o'rganilayotgan tilning qulay va samarali jihatlarini aniq ko'rsatish imkonini beradi. Shu bois, turli tizimli tillarni chog'ishtirish, ularning o'rganilmagan qirralari yuzasidan izlanishlar olib borish zamonaviy tilshunoslikda tobora dolzarblashmoqda. Shuningdek, turli tillarning o'ziga xos tendensiya va qonuniyatlarini ochib berish, tillararo muqobillarni aniqlash, doimiy aloqada bo'lgan tillarning o'zaro boyishi hamda bir-biriga ta'sirini oydinlashtirish kabi masalalar chog'ishtirma tilshunoslikning nazariy vazifalari sirasiga kiradi.

Dunyo tilshunosligida fe'l so'z turkumi va uni tasniflash masalasiga bag'ishlangan izlanishlar ko'lamli kengaymoqda, qardosh bo'lmagan tillardagi fe'lning so'z turkumlari orasidagi o'rni, xususiyatlari, ifodalanishi, fe'l turlarining shakllari, ma'nolari, morfologik kategoriyalari, qo'llanilishi va uning o'ziga xos jihatlarini tadqiq etishda yangicha yondashuvlar ko'plab tilshunoslarning e'tiborini o'ziga jalb etib, ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuni ham ta'kidlash joizki, olib borilgan izlanishlarning aksariyati faqat bir til uchun xos bo'lib, fe'l turlari chog'ishtirma aspektda chuqur o'rganilmagan va fe'l turlarining grammatik jihatdan ilmiy tasnifi ishlab chiqilmagan. Bu esa fe'l turlarini aniqlashda grammatik hodisalarning leksik birliklar va ularning turlari bilan bevosita aloqadorligini tadqiq etishni taqozo etadi.

Asosiy qism.

Fe'l so'z turkumi, uning turlari, yasalishi va grammatik kategoriyalari haqidagi muhim ma'lumotlar dastavval A.N.Kononov [1], A.M.Sherbak, A.G'.G'ulomov, A.P.Hojiyev kabi taniqli olimlarning [2] ilmiy asoslangan asarlarida o'z ifodasini topgan va o'zbek tilshunosligida fe'l nazariyasi yuzasidan izlanishlarning rivojlanishiga turtki bo'lgan. Shuningdek, fe'llarning ayrim semantik turlari (nutq, holat, yumush, sezish, yo'nalma, ob'ektli va ob'ektsiz harakat fe'llari), valentlik ko'rinishlari

hamda ularning semantik xususiyatlari I.K.Qo'chqortoyev, R.Rasulov, S.H.Muhamedova, M.K.Abuzalovalarning doktorlik [3] va O'.Sharipova, D.Abdullayeva, Z.U.Siddiqov, T.T.Musayev, G.A.Narimova, V.A.Karimjonova va boshqalarning nomzodlik ishlarida [4] tadqiq etilgan. Ingliz tilshunosligiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, fe'lining ayrim jihatlari va uni tasniflash masalasi M.Aronoff, J.L.Bybee, W.Pagliuca, R.D.Perkins, A.M.Clark, R.A.Close, Sh.Fries, P.Hill, R.Huddleston, J.K.Pullum, O.Jespersen, M.Joos, S.Kemmer, M.Newings, F.R.Palmer, D.Osten, H.A.Poustma, John E.Warriner, M.Swan, K.Walter, M.Haspelmath, Richard Nordquist, Kenneth Beare va boshqalarning [5] ishlarida ko'rib chiqilgan.

Fe'l barcha tillarda ham faol bo'lgan so'z turkumlaridan biridir.

Fe'l semantik doirasi keng, lekin, asosan, ish-harakat hamda ish-harakat tasavvurini beradigan holatni anglatadi, ya'ni barmaq, kelmO'k kabi fe'llar ish-harakatni, k'rmO'k, yeshitmO'k oylamaq fe'llari esa holatni bildiradi.

Fe'l turkumiga bir necha morfologik kategoriyalar xosdir: funksional formalar, bo'lishli-bo'lishsizlik, nisbat, tuslanish, mayl va zamon.

Fe'l aspektlari. Ayrim adabiyotlarda fe'l aspektlariga mumkinlik va nomumkinlik shakllarini ham kiritadilar. Aslida mumkinlik-nomumkinlikni hosil qiladigan grammatik shakllar (formalar) yo'q, balki bunday semantika qo'shma fe'llar orqali hosil qilinadi. Masalan, tarta alar – tarta almas.

Fe'lining bo'lishli va bo'lishsiz shakllari fe'l aspektlari kategoriyasini hosil qiladi, chunki bo'lishsizlik –ma//–mO' affiksi orqali hosil qilinadi va bu affiksni olmagan so'z bilan oppozitsiyaga kirishadi: barma, kelt'rmO' va boshqalar.

O'timli va o'timsiz fe'llar haqida. O'zbek tilida uning tarixiy taraqqiyotidan qat'i nazar bunday morfologik kategoriya mavjud bo'lmagan, balki fe'lining tushum kelishigidagi so'z bilan bog'lana olishi qobiliyati uning semantik xususiyatidir. Demak, o'timlilik va o'timsizlik fe'l shakliga emas, balki u fe'lining semantik xususiyati bilan bog'lanadi.

Fe'llarning yasalishi. Fe'ldan boshqa turkumlardan so'z yasovchi affikslar orqali fe'l yasalishi mumkin.

So'z turkumlariga ayrim tilshunolar so'zlarning grammatik tasnifi deb qaraydilar va ularda grammatik kategoriyalarni ko'radilar. Boshqa guruh tilshunolari esa ularni so'zlarning leksik-grammatik tasnifi deb ataydilar. Bizningcha, ikkinchi fikr haqiqatga yaqin, chunki grammatik ma'no so'z asosidan tashqarida ifodalanadi, so'z negizi esa leksik ma'no anglatadi. Birinchi fikr tarafdorlarining nuqtai nazarlariga munosabat bildirilganda, so'z turkumlariga grammatik kategoriyalar deb qaralsa, ulardagi leksik mavhum ma'no (predmetlik, harakat va boshqa ma'nolar) mavjud emas degan mantiqiy mulohaza vujudga keladi. So'z turkumlarida leksik ma'no mavjud bo'lar ekan, lug'at tarkibidagi so'zlarning barchasi grammatik kategoriyalar hisoblanmaydi.

Leksik va grammatik belgilarning ishtirokiga ko'ra fe'llarning tasnifi, asosan, uch xil bo'ladi: leksik-semantik, leksik-grammatik va grammatik tasniflar. Leksik-semantik tasnif leksikologiyada qo'llaniladi, ularga semantik maydonlar, tushuncha maydonlari, leksik-semantik guruhlar, tematik guruhlar, leksik maydonlar kabilar kiradi. Lug'at tarkibidagi so'zlarni bunday tasnif qilishga bag'ishlangan bir qancha ishlarning [4] mavjudligi bu tasnifga alohida to'xtalishni taqozo etmaydi.

Til birliklarini guruhlashtirishda leksika va grammatikani e'tiborga olgan holda tasnif qilish leksik-grammatik tasnif sanaladi. Tildagi eng katta va keng qamrovli leksik-grammatik tasnif – so'zlarni turkumlarga ajratib tasnif qilish hisoblanadi. So'z turkumlarining leksik jihati ularning negizida ifodalangan mavhum kategorial ma'nolar hisoblanadi (harakat, predmet, belgi va hokazolar). Grammatik jihati ularning morfologik kategoriyalari ifodalagan grammatik ma'nolardir (zamon, modallik, nisbat, shaxs, son va hokazolar). Grammatik tasnifda grammatik belgi muhim asos sanaladi. Bunday tasnifga misol tariqasida fe'llarning standart va nostandart turlarga ajratishni keltirish mumkin.

Fe'l mavzusiga bag'ishlangan qator asar va grammatikaga doir ishlarni (grammatik nazariyalar) tahlil qilish natijasida bir qancha munozarali fikrlar aniqlandi. Xususan, AQSH va ingliz tilshunos olimlari R.Quirk, R.A.Close, J.E.Warriner, R.Nordquist kabilarning ingliz tilida fe'l turlari bo'yicha keltirilgan tasniflarini tahlil qilish natijasida turlar o'rtasidagi son jihatdan mavjud bo'lgan keskin farqni kuzatish mumkin. Shuningdek, rus tilshunolari [5] ham ingliz hamda o'zbek tillarida mavjud fe'l turlarini atroflicha tahlil qilishga harakat qilganlar, lekin ularni tasnif qilishda grammatika va leksika o'rtasidagi bog'liqlik e'tiborga olinmagan. Ayniqsa, tilshunos olimlar orasida M.Blox [7] tomonidan ishlab chiqilgan tasnifda fe'l turlari juda ko'p miqdorga ajratilganligini alohida ta'kidlash joiz. Uning tasnifida fe'lining

30 taga yaqin turlari sanab o'tilgan bo'lib, keltirilgan turlarning xilma-xilligi M.Ya.Blox ularni yuqorida sanab o'tilgan belgilarni inobatga olmagan holda tasniflaganidan dalolat beradi

Grammatika bilan leksika o'rtasidagi bog'liqlikni hisobga olgan holda, ingliz va o'zbek tillaridagi fe'l turlarining yangicha ilmiy tasnifi ishlab chiqildi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqotda ingliz va o'zbek tillarida quyidagi grammatik jihatdan ahamiyatli bo'lgan fe'l turlari aniqlandi: mustaqil ma'no anglatishi; shakl yasashi; ob'ektga munosabati; valentligi; fe'llarning predlogli to'ldiruvchi olishi; o'timsiz fe'llarning passiv nisbat formasida kela olishi; harakatning vaqtda chegaralanganligiga ko'ra tasniflari hamda formal egani talab qiluvchi va yarim predikativ sintaktik qurilmalar bilan ishlatiladigan fe'llar.

Shunga muvofiq, ingliz va o'zbek tillarida fe'llarning mustaqil ma'no anglatishiga ko'ra mustaqil va nomustaqil fe'l turlari belgilandi.

I. Mustaqil fe'llarning leksik ma'nolari to'liq bo'ladi va ular mustaqil ravishda ifodalanadi. Mustaqil ma'noli fe'llar, odatda, gap bo'lagi vazifasida keladi, ular ikkala tildagi lug'atlarda markersiz (ajratib ko'rsatmasdan, belgisiz) beriladi. Mustaqil ma'noli fe'llar ochiq sistemani hosil qiladi va ob'ektiv borliqdagi konkret harakatlar, holatlar, jarayonlarni atab gap nominasiyasining (ifodalangan voqeani) eng kerakli qismini hosil qiladi. Misollar: The order was done before expiry date. – Buyurtma muddatidan oldin bajarildi.

II. Nomustaqil fe'llar mustaqil ma'no anglatmaydi, gap bo'lagi vazifasida kela olmaydi hamda mustaqil fe'llarga xizmat qiladi. Ular turli grammatik ma'no ifodalash uchun qo'llanadi, ko'pincha asosiy fe'lga modal, tus davomiylik, zamon, nisbat, bo'lishli-bo'lishsizlik, taksis va boshqa grammatik ma'nolarni qo'shishga xizmat qiladi. Nomustaqil fe'llarning muhim grammatik ahamiyati ham shunda bo'lib, ularning soni juda ozchilikni tashkil qiladi, shuning uchun fe'llarning ushbu turi yopiq sistema sanaladi.

Nomustaqil fe'llarni qiyoslab o'rganish orqali ular har ikkala tilda o'ziga xos tarzda bir-biridan butunlay farq qilishi aniqlandi. Ingliz tilida: bog'lama, yordamchi va modal fe'llar; O'zbek tilida: bog'lama, yordamchi (to'liqsiz) va ko'makchi fe'llar.

1. Bog'lama fe'llar asosan ot (I am a teacher), sifat (She is beautiful), son (It is 9 o'clock), olmosh (It is me) so'z turkumlari va holat ma'nosini ifodalaydigan so'zlar (statives, adlinks) bilan birgalikda ot kesimni hosil qiladi. Bog'lama fe'llarning tahlili natijalariga ko'ra quyidagi turlari belgilandi: sof (to be); maxsus (sezgini ifodalaydigan: look, seem, appear, feel, taste; sezgini ifodalamaydigan: become, get, grow, remain, keep, turn, go, run). Shuningdek, bog'lama fe'llar mustaqil ma'no ham ifodalay oladi, bunday bog'lama fe'llar hozirgi vaqtgacha iste'molda bo'lib, ular mustaqil fe'llardan hosil bo'lgan. Masalan: To be or not to be, that's the question. (Shakespeare) – To be mustaqil fe'l sifatida qo'llanilgan.

1. O'zbek tilida ayrim tilshunoslar tomonidan bu ikki terminni (bog'lama va yordamchi fe'llar) bir atamaga birlashtirib, «to'liqsiz fe'l» deb ham qo'llaydilar. Shunga muvofiq o'zbek tilida to'liqsiz fe'llarni edi, emish, ekan tashkil qiladi. Shuningdek, o'zbek tilida bir nomustaqil fe'l kontekstga qarab bog'lama va yordamchi fe'l bo'lib kelishi mumkinligi ham kuzatildi. Masalan, edi nomustaqil fe'li quyidagi gaplarning birinchisida bog'lama fe'l vazifasida, ikkinchisida yordamchi fe'l vazifasida kelgan [9]: U yosh edi (bog'lama fe'l); 2. U biznikiga kelib turar edi (yordamchi fe'l).

2. Yordamchi fe'llar mustaqil fe'llarga qo'shilib, ularning kategorial formalarini yasaydi. Bunday formalar analitik formalar hisoblanib, ularda bitta mustaqil va birdan to'rttagacha (ingliz tilida) yordamchi fe'llar bo'ladi. Yordamchi fe'llar leksik ma'nosini yo'qotib, grammatik ma'no ifodalaydi va ular asosan fe'lning grammatik formalarini yasash uchun xizmat qiladi. Ingliz tilida ular quyidagilarni tashkil etadi: to do, to have, to be, shall, will, should, would. O'zbek tilshunosligida yordamchi fe'llarni ba'zan to'liqsiz fe'l deb ham ataydilar.

3. Modal fe'llar hozirgi o'zbek adabiy tilida mavjud emas, ingliz tilida esa mavjud. Modal fe'llar shakllari, grammatik belgilari, ma'nolari, ishlatilishi va yana qator xususiyatlari bilan boshqa nomustaqil fe'llardan ajralib turadi. Ular kerak, imkoniyat, ehtimollik, mumkinlik, noreallik, gumon, ishonchsizlik, xohish-istak, ruxsat, taqiq kabi modal ma'nolar, shuningdek emosiya, ajablanish, ikkilanish kabi qator ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. «San va may»dan tashqari hamma modal fe'llar hech qanday grammatik kategoriyalar, ya'ni zamon, mayl, nisbat, tarz, shaxs-son morfologik kategoriyalariga ega emas. Ularning hech biri infinitiv, sifatdosh va gerundiy shakllarida kela olmaydi, bo'lishsiz formasini yasashda yordamchi fe'llar qatnashmaydi, aksincha, not inkor yuklamasi qo'shiladi. Shu boisdan ular defektiv (kamchiligi bor) fe'llar sanaladi. Modal fe'llarning mavjudligi barcha grammatika mutaxassislari tomonidan tan olinadi, ammo ularning soni va ayrim ma'nolari haqida turli fikrlar mavjud. O'.Q.Yusupov modal fe'llar ifodalaydigan ma'nolar murakkab ekanligini hisobga olib, ularni o'zbek tiliga tarjimalari orqali tushuntirishga harakat qilgan va modal fe'llarning o'zbek tilidagi muqobillarini keltirib o'tgan. Tadqiqot ishining ushbu qismida O'.Q.Yusupovning modal fe'llar semantikasi haqidagi

fikrlaridan foydalanildi. Modal fe'llarning quyidagi turlari ajratildi: (can (sould) may (might), must, ought to, shall (should), will (would)). Tahlil natijalari o'zbek tilida modal fe'llar mavjud emasligini ko'rsatdi. Ko'p hollarda o'zbek tilida ular o'rniga modal so'zlar (shart, zarur, mumkin, ehtimol, kerak) to'g'ri kelib, xuddi ingliz tilidagi modal fe'llar bajargan vazifada qo'llanilishi kuzatildi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi o'timli va o'timsiz fe'llarni chog'ishtirish natijasida umumiy o'xshashlik va farqlar aniqlandi, ya'ni o'zbek tilida fe'llar o'timli va o'timsiz, ingliz tilida esa o'timli, o'timsiz va qorishiq (fe'llarning ushbu turini biz qorishiq 'llar – double function verbs deb nomladik) fe'l turlariga ajratildi. Ingliz tili uchun xos bo'lgan qorishiq fe'llar konteksga (distribusiyaga) ko'ra o'timli yoki o'timsiz bo'la olishi mumkin. Masalan: to sell fe'li qo'yidagi gaplarning birinchisida o'timli, ikkinchisida o'timsiz tarzda qo'llanilgan: 1. We sell books. (o'timli) – Biz kitob sotamiz; 2. The books sell well. (o'timsiz) – Kitoblar yaxshi sotilyapti. Qorishiq fe'llarning ro'yxati xuddi noto'g'ri fe'llar jadvali kabi grammatikaga oid darslik va qo'llanmalarda berilishi tavsiya etildi.

Fe'llarning valentlikka ko'ra tasnifi tahlili, fe'llarni bir valentli (bir aktantli), ikki valentli (ikki aktantli) va uch valentli (uch aktantli) fe'l turlariga ajratish imkonini berdi. Bunda gapdagi ega va to'ldiruvchilarning mavjud bo'lishi kesimni ifodalab keluvchi fe'lga bog'liq. Fe'l o'zining valentligi (birikishi) bilan ega va to'ldiruvchilarga o'rin beradi.

Tilshunoslikda fe'lning ega va to'ldiruvchilarni talab qilishi uning zaruriy (obligator) valentligi deb ataladi. Mana shu o'rin ochishi, ya'ni zaruriy valentligiga ko'ra fe'llar yuqoridagi turlarga taqsimlandi.

Tildagi valentlik bilan nutqdagi valentlikni farqlash lozim. Tilda fe'l valentligi ega va to'ldiruvchilarga potensial o'rin ochishi bilan birga, bu o'rinlarni otning qanday semantik turlari to'ldirishi mumkinligi haqida ham ma'lumot bildiradi. Nutqda esa bu valentlik reallashadi, ya'ni aktantlar konkret so'zlar (otlar) bilan to'ldiriladi, bunda kesim ega vazifasidagi agens bilan shaxs-sonda moslashadi, to'ldiruvchi vazifasida kelgan pasiens va adresatlarni ma'lum kelishikda kelishini yoki ma'lum predloglar bilan ishlatilishini talab qiladi. Demak, tilda fe'l valentligi asosida leksik semantika yotsa, nutqda uning asosida ham leksik semantika, ham grammatik semantika yotadi.

Fe'llarning predlogli to'ldiruvchi olishiga ko'ra turlari, formal egani talab qiluvchi va yarimpredikativ sintaktik qurilmalar bilan ishlatiladigan fe'llarni o'rganish natijasida bu tasniflar faqat ingliz tilida mavjudligi aniqlandi.

Yarimpredikativ sintaktik qurilmalar bilan qo'llaniladigan fe'llarning tahlili ko'rsatishicha, fe'lning ayrim semantik turlari ingliz tilida grammatik jihatdan ahamiyat kasb etishi kuzatildi. Masalan, The Objective – with – the – Infinitive Construction, The Objective Participial Construction, The Subjective Infinitive Construction, The Subjective Participial Construction deb atalmish yarimpredikativ sintaktik qurilmalar ko'rish, sezish, eshitish va aqliy fe'llar bilan qo'llanilishi aniqlandi. To get, to have, to make kabi kauzativ fe'llar ham ma'lum yarimpredikativ sintaktik qurilmalarni talab qilishini ham ta'kidlash joizdir.

O'timsiz fe'llarning passiv nisbat formasida kela olishiga ko'ra turlarini tadqiq qilinishi, bu borada ham farqlar mavjudligini ko'rsatdi. O'zbek tilida o'timsiz fe'llar ingliz tilidagi o'timsiz fe'llardan farqli ravishda passiv nisbatda kela olmaydigan (yiqilmoq) va passiv nisbatda kela oladigan (bormoq-borilmoq) turlarga bo'linadi.

Harakatning vaqtda chegaralanganligiga ko'ra fe'l turlarining tahlili natijasi, bu belgiga ko'ra fe'llar terminativ va noterminativ turlarga bo'linishidan dalolat beradi. Terminativ fe'llar ifodalagan harakat qisqa vaqt ichida tugaydi: to break – sinmoq, to close – yopmoq va hokazo. Noterminativ fe'llar ifodalagan harakat vaqt jihatdan chegaralanmagan bo'ladi: to think – o'ylamoq, to know – bilmoq, to play – o'ynamoq. Shunga muvofiq, har ikkala tilda ushbu fe'llarning qo'llanilishi va yaslashida bir qancha farqlar ko'zga tashlandi. Ingliz tilida fe'lning bu turlari o'zbek tilidagilardan farqli ravishda grammatik jihatdan ahamiyatga ega, chunki noterminativ fe'llarning ayrimlari (to know, to consist, to love, to live) «The Present Continuous Tense»da deyarli qo'llanilmaydi. Lekin bu fe'llarning grammatik ahamiyati alohida tadqiqotni talab qiladi. O'zbek tilida esa ular grammatik jihatdan ahamiyatli hisoblanmaydi, chunki bu tilda ushbu fe'llar grammatikaning ma'lum formalarini talab qilmaydi.

Xulosa

1. O'zbek tilida fe'llar o'timli va o'timsiz, ingliz tilida esa o'timli, o'timsiz va qorishiq (ikki vazifali) fe'llarga ajratiladi. Qorishiq fe'llar shunday fe'llarki, ular kontekstga (distribusiyaga) bog'liq holda o'timli yoki o'timsiz bo'la olish xususiyatiga ega. Tadqiqotlar natijasida 1600 ga yaqin qorishiq fe'llarni aniqlashga muvaffaq bo'lindi. Qorishiq fe'llarning ro'yxati hech bir grammatikaga oid ishlar, darslik va qo'llanmalarda ko'rsatilmagan. Ushbu fe'llarning shakllantirilgan ro'yxatini ingliz tili grammatikasiga doir manbalarga kiritilishi tavsiya etiladi.

2. Ingliz va o'zbek tillarida fe'l o'zining individual ma'nosidan tashqari mavhum kategorial harakat ma'nosiga ega bo'lib, inson ongi bir- biridan semantik jihatdan farqli bo'lgan leksemalarni harakat ifodalovchi so'zlar, ya'ni 'llar deb qabul qiladi.

3. Leksik va grammatik ma'noning ishtirokiga ko'ra fe'llarning tasnifi uch xil bo'ladi: leksik-semantik, leksik-grammatik va grammatik. Leksik-semantik tasnif sinonimik qator, antonomik juftlik, semantik maydon, leksik maydon, tematik guruh, leksik-semantik guruh, tushuncha maydonlari kabi guruhlashtirishlardan iborat bo'lib, asosan leksikologiyada qo'llaniladi. Leksika va grammatikani e'tiborga olgan holda tilning ma'noli birliklarini guruhlashtirish leksik-grammatik tasnif sanaladi. So'z turkumlari tildagi eng katta va keng qamrovli leksik-grammatik tasnif hisoblanadi. Grammatik tasnif asosida faqat grammatik belgi yotadi.

4. Ingliz va o'zbek grammatikasiga oid qator adabiyotlarning chog'ishtirma tahlili natijasida fe'l turlarining tasnifi haqidagi fikr-mulohazalar bir-biridan keskin farq qilishi kuzatildi. Mazkur nazariy qarashlar o'rtasidagi tafovutlarning asosiy sababi quyidagilar bilan izohlanadi: fe'l turlarini tasniflashda leksika va grammatika o'rtasidagi bog'liqlik e'tiborga olinmagan; ilmiy tasnif asosida fe'l turlari belgilanmagan; ingliz va o'zbek tillarida fe'l turlari chog'ishtirma planda o'rganilmagan; o'zbek tiliga doir grammatik manbalarning deyarli barchasi faqat ona tilini o'rganuvchilar uchun mo'ljallangan. Bu jihatlar fe'l turlarining grammatik jihatdan ahamiyatli bo'lgan ilmiy tasnifini ishlab chiqishga asos bo'ldi. Fe'l tasnifiga leksik-grammatik tasnif nuqtai nazaridan yondashish taklif qilindi.

Adabiyotlar

1. Kononov A.N. Grammatika sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazika. – M. – L.: Izd-vo AN SSSR, 1960. – S. 187;
2. Sherbak A.M. Grammatika starouzbekskogo yazika. – M. – L.: Izd-vo AN SSSR, 1962. – S. 151–180; G'ulomov A.G'. Fe'l. – T.: Fan, 1954. – 88 b.; Hojiev A.P. Fe'l. – T.: Fan, 1973. – 192 b.
3. Kuchkartaev I.K. Semantika glagolov rechi v uzbekskom yazike (komponentniy i valentniy analiz). Diss. ... d-ra. filol. nauk. – T.: Fan, 1977. – 168 s.; Rasulov R. Glagoli sostoyaniya v uzbekskom yazike i ix valentnost'. Avtoref. diss. ...d-ra. filol. nauk. – T., 1989. – 34 s.; Muhamedova S.X. O'zbek tilida harakat fe'llarining semantikasi va valentligi. Filol. fan. dok. ...diss. – T., 2007. – 325 b.; Abuzalova M.K. Substansial morfologiya, valentlik va sintaktik qurilma. Filol. fan. dok. avtoref. – Samarqand, 2018. – 32 b.
4. Karaulov Yu.N. Obshaya i russkaya ideografiya. – M., 1976. – 354 s.; Shur O. Teoriya polya v lingvistike. – M., 1974. – 256 c.; Trier J. Der deutsche Wortschatz im Sinnbezirk des Verstandes. Heidelberg, 1931; Ipsen G. Der Alte Orient und die Indogermanen «Festschrift für W. Streitberg». Haidelberg, 1924 va boshqalar.
5. Ganshina M.A., Vasilevskaya N.M. English Grammar. – M.: Foreign Languages Publishing House, 1953. – 465 p.; Смирницкий А.И. Морфология английского языка. – М.: Изд. Литературы на иностранных языках. 1959. – 440 с.
6. B.I. A Course of English Grammar. – M.: Visshaya shkola, 1967. – 298 p.
7. Ilysh B.A. The Structure of Modern English. Leningrad: Prosvesheniye, 1971. – 366 p.; Бархударов Л.С., Штелинг Д.А. Грамматика английского языка. – М.: Высшая школа, 1973. – 423 с.; Gordon E.M. Krilova I.P. A Grammar of Present-day English. – M.: Higher School Publishing House, 1974. – 333 p.; Ivanova I.P. i dr. Teoreticheskaya grammatika sovremennogo angliyskogo yazika. – M.: Visshaya shkola, 1981. – 285 s.;
8. Blokh M.Y. A Course in Theoretical English Grammar. – M.: Visshaya shkola, 1983. – 383 p.
9. Nurmonov A. va boshqalar. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. – T.: Fan, 1992. – 294 b.
10. Hojiyev A.P. To'liqsiz fe'l. – T.: Fan, 1970. – B. 8.

UDK: 801.8

TERMINOLOGY AND THE TRANSLATION ISSUES

M. M. Kambarova

Tashkent Institute of Architecture and Civil Engineering
mukhayyo.kambarova@gmail.com

Abstract. This article describes how structural changes in terminology and linguistics are reflected in lexical units in the field of building structures. It is revealed that the translation of terms related to the field of architectural construction differs in terms of application, and that this is a problem that needs to be studied in linguistics.

Keywords: terminology, lexical unit, linguistics, translation process, innovative technologies, methodology

Terminologiya va tarjima masalalari

Annotasiya. Mazkur maqolada terminologiya va lingvistikaning tarkibiy o'zgarishlari qurilish konstruksiyalari sohasidagi leksik birliklarda qanday aks etgani yoritilgan. Arxitektura qurilish sohasiga oid terminlarning tarjimasi qo'llanilish nuqtai nazaridan farq qilishi va bu lingvistikada o'rganilishi zarur bo'lgan muammo ekanligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: terminologiya, leksik birlik, lingvistika, tarjima jarayoni, innovatsion texnologiyalar, metodologiya.

Вопросы терминологии и перевода

Аннотация. В данной статье описывается, как структурные изменения терминологии и лингвистики отражаются на лексических единицах в области строительных конструкций. Выявлено, что перевод терминов, относящихся к области архитектурного строительства, различается с точки зрения применения, и что это проблема, которую необходимо изучить в лингвистике.

Ключевые слова: терминология, лексическая единица, лингвистика, переводческий процесс, инновационные технологии, методология

Introduction

Every field has a distinction and features which differentiate one from another. Moreover, the field of Structural Engineering has its own uniqueness and terminologies in the world. English for Structural engineers is perhaps the most neglected kind of ESP (English for Specific Purposes). Structural engineers need English for all kinds of reasons, and your first job as a teacher and/or course designer will be to work out what they are and which are priorities. The relationships between Structural Engineering and terminology are moving in two directions— Structural Engineering assists and changes terminological activities and its methodology, and terminology helps research in computational linguistics. It has become a key factor in knowledge modelling and is used to transfer knowledge and technology, since it is by means of terminology that structured thought is transmitted. Terminology is at the basis of knowledge, and as such it is necessary for its representation. Cognitive science and knowledge engineering need terminology in order to advance.

Structural Engineering terminologies are not used only for describing structural elements, but it plays key roles in describing profound meaning the structural systems' load and strength were considered in a deterministic manner by engineers and design codes. Terminology has benefited from advances in text-based structural engineering because it concentrates on the processing of written texts. As we have seen, terminology doubly depends on these texts: texts are used extensively because only a variety of specialized texts can yield the conceptual structures for special subject fields and the designations of the concepts therein; and texts are used intensively in order to extract the units that are the object of numerologically oriented research.

Structural engineering dates back to 2700 B.C.E. when the step pyramid for Pharaoh Djoser was built by Imhotep, the first engineer in history known by name. Pyramids were the most common major structures built by ancient civilizations because the structural form of a pyramid is inherently stable and can be almost infinitely scaled. Throughout ancient and medieval history most architectural design and construction were carried out by artisans, such as stonemasons and carpenters, rising to the role of master builder. No theory of structures existed, and understanding of how structures stood up was extremely limited, and based almost entirely on empirical evidence of 'what had worked before'. Knowledge was retained by guilds and seldom supplanted by advances. Structures were repetitive, and increases in scale were incremental. No record exists of the first calculations of the strength of structural members or the behavior of structural material, but the profession of a structural engineer only really took shape with the Industrial Revolution and the re-invention of concrete. There are specific difficulties in learning foreign languages, as is every other field.

Aim of the research work

The research work consists of analyzing some conceptual aspects of terminology in architecture and civil engineering field. Moreover, searching optimal methods of translation process.

Object and method of research work

Due to in every specialty has its own history, its present and future. Without knowing the history of the subject or science that is being studied, it is difficult to understand the current day or to develop ideas for its further development. Moreover, the student who is studying this field must know the same terminologies or specific words according to this subject as foreign languages. Today's development in the

highly developed century is not limited that every one of us perfectly well in his sphere, but also should speak in several foreign languages exactly.

Results and discussion of research work

Terminology as a domain of study is concerned with the study and compilation of terms. That is, it deals with the process of compiling, describing, processing and presenting the terms of special subject fields in one or more languages.

For example: **Structural engineering** - is a sub-discipline of civil engineers in which structural engineers are trained to design the 'bones and muscles' that create the form and shape of man-made structures. Structural engineers need to understand and calculate the stability, strength and rigidity and earthquake of built structures for buildings and nonbuilding structures. Structural engineers depend upon a detailed knowledge of loads, physics and materials to understand and predict how structures support and resist self-weight and imposed loads. To apply the knowledge successfully structural engineers will need a detailed knowledge of mathematics and of relevant empirical and theoretical design codes. They will also need to know about the corrosion resistance of the materials and structures, especially when those structures are exposed to the external environment.

Structural elements - Any structure is essentially made up of only a small number of different types of elements: columns, beams, plates, arches, shells, catenaries.

Many of these elements can be classified according to form (straight, plane / curve) and dimensionality (one-dimensional / two-dimensional):

	One-dimensional		Two-dimensional	
	straight	curve	plane	curve
(predominantly) bending	beam	continuous arch	plate, concrete slab	lamina, dome
(predominant) tensile stress	rope, tie	Catenary	shell	
(predominant) compression	pier, column		Load-bearing wall	

Safety factors - the safe design of structures requires a design approach which takes account of the statistical likelihood of the failure of the structure. Structural design codes are based upon the assumption that both the loads and the material strengths vary with a normal distribution. The job of the structural engineer is to ensure that the chance of overlap between the distribution of loads on a structure and the distribution of material strength of a structure is acceptably small (it is impossible to reduce that chance to zero).

Deflection - The change in shape resulting from the application of a force or load. Beams deflect due to bending, even when made of steel or concrete. Limiting deflection to an appropriate value is often the governing consideration in design of buildings, to ensure serviceability in use. Bouncy floors, sticking doors, leaky roofs and cracked finishes are symptoms of excessive deflection.

Moreover, thinking about how you can use all the information above, in a rather idealized ESP approach you would design a needs analysis to find out what their priorities are (probably along with a placement testing system to test their level and strengths and weaknesses). You would then use that to design a syllabus based on those needs [1]. If all those needs were in the future this could be a graded step-by-step syllabus similar to textbooks, but if they were already using English every day it would probably be based much more on doing the most important things first. In any case, the syllabus would change as the course progressed, based on feedback from the students, changing job roles, emerging weaknesses, etc. The two main approaches that help cope with these more realistic situations are:

- Add one or more structural engineering-themed stages to a more general lesson
- Base a lesson around suitable and interesting materials you can find, words used in English in specialist software such kind of Auto CAD, StaadPro, ETABS, Revit Structure, and try to bring relevant language into it.

Interesting topics related to Structural engineering include:

- Historical achievements of structural engineering
- Earthquake engineering structures
- The tallest building in the world
- Seismic Bearing Capacity of Foundations and Seismic Earth Pressures
- The influence of one country on another or on the world
- Theoretical study on High frequency fatigue behavior of concrete
- Design of Reinforced Concrete Block Masonry Basement

- Hybrid Structural Systems and Innovation Design Method
- Explanations for why buildings are a certain way, e.g. why certain traditional features originally came about

Conclusion

In general, the peculiarities of Structural Engineering are many, and as we can see from the above-mentioned terms, we can know how ancient structural engineering is.

I feel the development of new construction material with low cost is always welcome issue in civil engineering construction. In terms of structural research, the post peak response of the structure is very important. As, today any natural and man-made disturbance is very common. The stability of the structure due to these causes are important in today scenario. Manufacturing of modern raw materials in developed countries in the field of Structural engineering and building premises is becoming one of the reasons of apparition of new terminologies [2].

It must be emphasized that country that is producing new or modern raw materials is tend to name new good in their own language. Although this product is used for the same purpose, as its mentioned above, different cultures and nations are likely to change reform it in order to make it easy use and pronounce. If we take in to consideration new innovative technologies, new structural terminologies are not difficult to gather and make one.

A major goal of the terminology is to standardize usage of structural engineering terms while reflecting the diversity of current usage. It is expected that more consistency of use in terminology will be achieved as the structural engineering profession becomes accustomed to this standard and that a profession which is so committed to standards will itself submit to standard terminology. The terminology herein presented is an attempt to capture the current best usage of the terms.

Literatura

1. Baker, M. (1998). Sub-technical vocabulary and the ESP teacher: An analysis of some rhetorical items in engineer journal articles. *Reading in a Foreign Language*, 4(2), 91-105.
2. Chung, T.M. (2003). Identifying technical vocabulary. Unpublished Ph.D. thesis, Victoria University of Wellington.

UDK: 891.709

ABDULLA ORIPOV IJODIDA TABIAT MANZARALARI TALQINI (*yil fasllari misolida*)

M.N.Narziyeva

Samarqand davlat universiteti,
mamuranarziyeva 164@mail.com

Annotatsiya. XX asr o'zbek adabiyotining zabardast namoyandalaridan biri Abdulla Oripovning sehrli va yuksak g'oyaviy she'riyati chinakam badiiyat mahsuli, an'anaviy she'riyat qoliplariga sig'mas betakror hodisadir. Bu mo'jizakor she'riyatda suvratlangan dardlar, iztiroblar, ko'ngil holatlari, xalq ruhiyati, olam va odam o'rtasidagi munosabatlar, xalq, millat, Vatan mavzusi shu kunga qadar she'riyatga ixlosmand ko'ngillarni o'ziga rom etib, hissiyotlarini bezovta qilib kelmoqda. Ayniqsa, shoirning tabiat obrazlari, u bilan bog'liq hodisalarni poetik jonlantirish mahorati aks etgan she'rlari diqqatga sazovordir.

Kalit so'zlar: tabiat, kuz, bahor, saraton, qish, tasvir ob'ekti, she'riyat, apastrofa, jonlantirish, tashbeh, manzara, ruhiy holat.

Интерпретация природных сцен в работах Абдуллы Орипова (на примере сезонов)

Аннотация. Волшебная и возвышенная идейная поэзия Абдуллы Орипова, одного из великих представителей узбекской литературы XX века, - настоящее произведение искусства, уникальное явление, не укладывающееся в образцы традиционной поэзии. Боли, страдания, настроения, психика людей, взаимосвязь мира и человека, народа, нации, Родины, изображенные в этой чудесной поэзии, до сих пор преследуют и тревожат сердца увлеченных поэзией людей. Особого внимания заслуживают стихи поэта, отражающие образы природы, мастерство поэтического оживления связанных с ней событий.

Ключевые слова: природа, осень, весна, рак, зима, имиджевый объект, поэзия, апостроф, анимация, аллегория, пейзаж, настроение.

Interpretation of natural scenes in the works of Abdulla Oripov (in the example of the seasons)

Abstract. The magic and lofty ideological poetry of Abdulla Oripov, one of the great representatives of the Uzbek literature of the XX century, is a true work of art, a unique phenomenon that does not fit into the traditional poetic patterns. The pains, sufferings, moods, the psyche of the people, the relationship between the world and man, the people, the nation, the Motherland, depicted in this miraculous poetry, still haunt and disturb the hearts of those who are passionate about poetry. Especially noteworthy are the poems of the poet, which reflect the images of nature, the skill of poetic animation of the events associated with it.

Keywords: nature, autumn, spring, cancer, winter, image object, poetry, apostrophe, animation, allegory, landscape, mood.

Bugungi o'zbek she'riyatida tabiatni – bizni qurshab turgan olamni badiiy chizgilar orqali tadqiq etish, uning mislsiz manzaralarini she'riy satrlarga muhrlash har bir ijod ahlining asosiy vazifalaridan bo'lib kelmoqda. Nega insoniyat tabiatga buncha ehtirom ko'rsatmog'i, nega bashariyat bu rangin dunyoning ajoyibotlari oldida bosh egmog'i lozim dersiz? Axir yaratganning erka bandalarini o'z bag'rida opichlab yurgan ham, onamiz kabi barcha injiqliklarimizga ko'nikib o'zining mo'jizakor olamida bizni hayratlantirib kelayotgan ham shu ona tabiat emasmi?! Tabiat rizqu nasibamiz, noz-ne'matlarimizning asosi bo'lib qolmasdan, balki u o'zining cheksiz tarovati, go'zalligi bilan ijodkorni ruhlandıradi, o'ziga xos badiiy qarashlar paydo bo'lishiga turtki bo'ladi. Ijod ahli borki, ular tabiat manzarasining betakror lavhalarini teran his etib, bu mo'jizakor lavhalardan san'at asarlari yaratishga harakat qilishadi. Chunki tabiat manzaralari olib kirlmagan she'riyat oq va qora rangdagi tasvirning aynan o'zi bo'lib qoladi. Shuning uchun ham she'riyatimizning ko'hna darg'alari Mahmud Qoshg'ariy, Nosiriddin Rabg'uziy, Alisher Navoiy hamda qozoq adabiyotining asoschisi Abay, o'zbek adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillari Zulfiya, Mirtemir, Asqad Muxtor, Abdulla Oripov, Shavkat Rahmon, Usmon Azim she'rlarida tabiat tasviriga, yil fasllarining poetik talqiniga alohida e'tibor qaratilgan.

Insoniyat azal-azaldan o'zi uchun ko'z qorachig'idek ardoqli bo'lgan kishilari, narsalari, go'shalari bilan yonma-yon ona so'zini qo'llab kelgan. Misol uchun: ona qizim, ona diyorim, ona maskanim, ONA VATAN, ona sayyora, ONA TABIAT. Tabiat bilan qardoshlikni his etish, uni hayotimizning bir bo'lagi ekanligini tan olishimizning o'zi ham unga onamizdek munosabatda bo'lishni talab qiladi.

Tabiat obrazlari va unda ro'y beradigan hodisalarni badiiy tasvir vositalari orqali jonlantirish Abdulla Oripov ijodida o'ziga xos yo'nalishni tashkil qiladi. Buyuk so'z san'atkori tabiatni ilohiy maskan deb ataydi:

*Faqat tabiat bor - ilohiy makon
Faqat o'shanga sen bepisand boqma.
Loaqqal uni sen tanigin, Inson,
Yolg'iz boshpanangni o't qo'yib yoqma.*

Tabiatning ilohiy maskan ekanligiga shubha yo'q. Chunki Buyuk Yaratuvchining qudrati-yu cheksiz go'zalligi tabiatda o'z aksini topgan. Shoirnlarni ijod maydoniga chorlagan bir tup o'rik daraxtining gullari-yu, viqorli qoya labida nafis chayqalayotgan na'matak yoki to'zg'in sochlari bilan cho'milayotgan oy, shamolning qo'ynida barglarini to'kmay uxlayotgan rayhonlar aynan mana shu ilohiy maskanning mo'jizaviy timsollaridir.

Tabiatdagi har bir o'zgarishda, hattoki kuz o'rnini qish, bahor o'rnini yoz egallashida ilhom egalari o'zgacha bir hikmat ko'ra bilishadi. Bahor, kuz, qish, yoz manzaralari insonga butun umri davomida yo'ldosh bo'lgani uchun ham ijodkor bu mo'jizaviy hodisalarni o'zgacha zavq bilan o'z she'rlariga olib kiradi. Ijodkor yil fasllarining manzarasini shunchaki ko'chirib qo'ymaydi, balki bu manzaralarga o'zining hissiyotlarini, yuragining tubida jo'sh urayotgan g'alayonlarini ham qorishtirib yuboradi.

Firoq, hijron, yolg'izlik, g'urbat, ayriliqdan so'ng paydo bo'ladigan ruhiy azobni tasvirlash azal-azaldan kuz faslining chekiga tushgan. Ammo Abdulla Oripovning «O'zbekistonda kuz» nomli she'rida vaziyat butunlay boshqacha. Lirik qahramon jo'shqin, bir pari fasl – kuzning og'ushida mast:

*Yurgil, dalalarga ketaylik, do'stim,
Diqqinafas uyda yotmoq paytimas.
Oltin O'zbekiston tuprog'i bu kun
Bir pari faslning og'ushida mast. [1, B.21]*

Kuz kimlar uchun mungli va o'ychan fasl. Kimlardir bu faslni so'nib, tugab borayotgan umrga qiyoslashadi. Shoir Abdulla Oripov kuzni pariga o'xshatib, uni to'kinlik, xayr-barokat fasli ekanligini uqtirib o'tadi:

Quyoshning erinchak yog'dularida

Nafis yaltiraydi bargi xazonlar.

Har yonda to'kinlik...

Kuzdan nishona... [2,B.21]

Shoirning bu she'rida nafaqat kuzning quvnoq nafasi, balki mehnatkash xalqini, bebaho yurtining ona tuprog'ini e'zozlaydigan, ertasi uchun qayg'uradigan jonkuyar farzand timsoli jonlanadi:

Mening ona xalqim...

Ey qadim, halol,

Rizqi ona yerga sepilgan xalqim

Ushoq chigitni ham etmay deb uvol

Million egatlarga egilgan xalqim! [3,B.21]

Abdulla Oripov kuzdan mahzunlikni, ruhiy iztirobni, qalb tubiga harsangtosh misoli cho'kkan armonlarni –xazonlarni izlamaydi. U kuzni boshqa shoirlar singari iztirob fasli deb ham atamaydi. Aksincha, kuzni mehnatkash, saxovatpesha, gardanini hayotning zabardast yuklari ezib tursa ham mudom jilmayib turadigan xalqiga qiyoslab quvnoq va o'ychan deb ataydi:

Sening o'zing kabi o'ychan va quvnoq,

Xushfe'l bo'lib kelmish tuprog'ingga kuz. [4,B.21]

Shoirning yutug'i shundaki, u boshqa ijodkorlar yurgan yo'ldan yurmagan, ular qo'llagan tashbehlar, ta'riflardan foydalanmagan. Ular singari kuzni mungli chizgilar bilan tasvirlamagan. Balki o'zining yuksak so'z qo'llash mahorati orqali o'quvchi ko'z o'ngida kuzni ko'plab hayot sinovlariga dosh bera olgan, turmushning jon olguvchi bo'ronlaridan omon qololgan g'amxo'r otaga – donishmand faylasufga o'xshata olgan:

Ulug' Alisherning soch oqin ko'rib,

Og'ir xayollarga cho'mgan bu fasl

Qayrag'och yonida g'amgin o'tirib,

Chollarga hassalar yo'ngan bu fasl,

Azaliy ko'rkini qiladi ko'z-ko'z... [5,B.21].

Ijodkor she'rning keyingi satrlarida kuzga mas'uliyatli vazifalarni yuklaydi. Kuzni baxtli keksalikni yodga soluvchi fasl deb ta'riflaydi-yu, ammo o'quvchini sokin, xazon bosgan bog'larni, xilvatlarni sayr aylashga chorlamaydi. Aksincha, lirik qahramon yig'im-terim, barokat faslida mehnatkash, bobodehqon elining hosili haqida qayg'uradi. Kuz sokin xilvatlarda, xazonlar bag'rida sayribog' aylash fursati emas, balki, asrlar davomida ko'z nurini, qalb qo'rini ona yerga qadagan zahmatkash xalqining hosili haqida jon kuydirish onlari ekanligini uqtirib o'tadi:

Baxtli keksalikni yodga solar kuz,

Sokin xilvatlarga chorlaydi, ammo,

Do'stginam, paytimas, aylab sayribog',

Xilvatda o'y surish yarashmas bugun.

Zahmatkash o'zbekning hosili qandoq?!

Kuzning falsafasi shudir biz uchun [6,B.22].

Tabiat va inson– bu ikki tushuncha doim bir-birini to'ldirib turgan.Tabiat hodisalari, undagi jarayonlar o'zgarib turganidek, inson qalbi, ruhiy dunyosi ham mudom o'zgarishda, o'sishda... «O'zbekistonda kuz» she'rida shoir o'zgacha jo'shqinlik, o'zgacha ko'tarikilik bilan kuz falsafasini tarannum etar ekan, «Kuz xayollari» she'rida esa lirik qahramon batamom o'zgacha, kuzning ma'yus va bezovta xayollariga g'arq bo'ladi.

Nimani xohlayman? Istagim nima?

Changalzor shovqinin tinglab turaman.

Yaproqlar bandida kezgan jimgina

Ma'yus va bezovta kuzni ko'raman.

Uning qo'shig'ida,uningohida

Sezaman odamzod qalbin gohida [7,B.17].

Bu borada O'zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubovning quyidagi fikrlari juda o'rinli: «Abdulla Oripov she'riyatiga nisbatan tashbeh qo'llaydigan bo'lsak, u dutor navosiga o'xshaydi: birida cheksiz mung bilan dillarni larzaga keltirsa, birida sho'xchan tus oladi, mayin va o'ziga xos taronasi tag'in kishini maftun etadi.Uning asarlari qon-tomirida o't bilan suvdek bir-biriga zid tuyg'ular tinimsiz oqib turadi. Shuning uchun ham bir she'ri hayotning yetuk falsafiy idroki hosilasi bilan to'yingan, boshqa biri esa dardu g'amga to'liq, nolali va ruhsiz, bir she'ri sho'xchan, qochirimli va yumorga boy, boshqa she'ri esa saxovatli qalb mehriiga to'liq, shuning uchun ham u betakror, hayotning o'ziday so'lim va jozibali, yuraklarga yaqin».

Tabiatning o'z oltin qoidalari bo'lganidek, she'riyatning ham o'z qonun va shartlari mavjud. Tabiat bag'ridagi har bir zarra, xoh u ulkan mavjudot, xoh ko'zga ko'rinmas kichik zarra bo'lsin o'z vazifasiga ega. Nimanidir amalga oshiradi. She'riyatda ham shunday. Shoir she'rga qaysi bir so'zni yetaklab kirdimi, u bir badiiylilik kasb etishi kerak. Abdulla Oripovning qalamiga mansub «Kuz xayollari», «O'zbekistonda kuz» she'rlarida ham yaproq, xazon, qamishzor, soy, keksa chol, hassa, xilvat, hosil kabi so'zlar kuzning butun tarovatini ifoda etib berolgan.

Bahor toshqinlari, saratonning zerikarli, jimjit kunlari, kuzning izg'irinli oqshomlari, qishning olis kechalari qop-qora osmonda charaqlagan sonsiz yulduzlar og'ushida rahmatlik Mahkam momoning turfa rivoyatlari, Ismoil cho'loqning oldi-qochdi ertaklari ta'sirida ulg'aygan Abdulla Oripov yoshlik damlarini xotirlab shunday deydi: «...Xuddi kechagidek esimda. Nimalarnidir yozgim kelardi. Qanday bo'lmasin hislarimni qog'ozga to'kib solmoqchi bo'lardim. Tabiiyki, men she'r yoza boshlagan edim. Bora-bora shu mashg'ulot umrimga yuk bo'lishini o'ylabmidim... [8, B.15]» Darhaqiqat, bu mashg'ulot – bu «yuk» shoirning so'nggi nafasiga qadar ta'qib etdi, o'z holiga qo'ymadi. Natijada Qozoqboy Yo'ldosh ta'biri bilan aytganda, o'zbek she'riyatining buyuk so'z ustasi ozod va pokiza ko'ngilning goh mayin, goh nolakor, goh o'tli, goh mungli manzaralarini, ba'zan bu holatlarning barchasini birvarakayiga ohangdor va musiqiy o'zbek so'zi orqali ifodalash natijasi o'laroq dunyoga kelgan she'rlar, dostonlar bilan boyidi, yanada mukammallashdi.

Insonni tabiat go'zalliklariga oshufta etadigan, uning ko'ngil torlarini chertib ijod maydoniga chorlaydigan fasl – bahordir. Bahorni kuylamagan, uning rohatbaxsh manzaralarini o'z she'rlarida tarannum etmagan ijodkor bo'lmasa kerak, nazarimda. Abdulla Oripovning «Bahor», «Sen bahorni sog'inmadingmi?», «Bahor senikidir», «Bahor kunlarida kuzning havosi» she'rlari ham millionlab ko'ngillarni zabt eta olgan eng sara she'rlardandir. O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid «Yashasin yomg'irlar» kitobida shunday degan: «Bizni – yurtning turli go'shalari, tog'u toshlaridan poytaxtga oqib kelgan jilg'alarni shu she'riyat birlashtirdi, unga qo'shilib biz ham sel bo'ldik, toshqin bo'ldik, «Abdulla Oripov» deyilganda yong'inga aylanadigan ham bizlar edik, dorilfunun bilimlari o'z yo'liga, dunyoning mushkulroq bilimlari – kuymoq, yonmoq ilmini, qayg'urmoq, dard chekmoq ta'limini, dunyoning mangu savollari – tiriklik va o'lim haqida o'ylamoq ilmini biz shu she'riyatdan o'rgandik, bu she'riyat bizni shu'lalar ilmiga oshno etdi. Biz undan ismsiz hayratlarimiz, nomsiz quvonchlarimizni shaklsiz dardu sog'inchlarimizga ismlar topdik. ...Eng yaxshi ko'rgan she'rimiz «Bahor» edi. Bu she'rni ko'zda yosh bilan aytib bergan paytlarimiz ko'p bo'lgan. Bunday she'rlar yurakni qurbonlikka berish evaziga yoziladi» [9, B.87-89]. Darhaqiqat, bu she'r jiddiy fikr, chinakam hissiyot, samimiyat, yuksak mahorat bilan yozilgan. Abdulla Oripov «Bahor» she'rida nafaqat yasharish va yangilanish faslining tarannumi, balki bir o'rinda «buyuk shoir, faylasuf, hakam», «adib, notiq va sohib surur», «xalq timsoli, o'zbek timsoli», «kamalakdek necha rangli daryolarni o'zida jam qilgan dengiz» deya nom qozongan G'afur G'ulom hamda Abdulla Oripovga: «Shoir, sizga bitta gapim bor. Ehtiyot bo'lgaysiz, ishqilib, qarsaklardan taltayib ketmasangiz bo'lgani» [9, B.293-294], – deya bir umrlik saboq berib ketgan Maqsud Shayxzoda, boshqa bir o'rinda esa shoir uchun doim ilhom va iymon manbai bo'lgan onasiga murojaatlar, xotirotlar joy olgan. Shuning uchun bu she'rni marsiyaning go'zal namunasi sifatida tan olsa bo'ladi:

*Iqbolli sajdagoh bo'lganlar, hayot,
O'zlari tuproqqa qo'yidilar boshin.
O'n oykim, so'nmishdir u tanish na'ra,
Hamon firog'ida fig'on chekar Shosh.
Bu qanday muloqot? Ne hol? Yoningda
Joy olmish o'zga bir suyukli daho.
Beqiyos edi u she'r lochini!
Xayoli bamisli Ko'ragoniydek.
Faryod chekkanim yo'q el ichra taqir,
O'ch ham olmadim men o'z qalamimdan.
Onajon, onajon, kechirgil axir,
Shodlanmasin dedim birov g'amimdan* [9, B.88].

Ijodkor tabiat bilan bog'liq hodisalarni o'z ijod namunasi «yetaklab» kirar ekan, bu o'rinlarda u ko'proq badiiy tasvir usullarining eng qadimiysi bo'lgan jonlantirishdan unumli foydalanadi. Badiiy adabiyotdagi bu usul ajdodlarimizning ibtidoiy qarashlari (animizm, totemizm) zamirida paydo bo'lgan, desak yangilishmagan bo'lamiz. Ayni paytda bu badiiy tasvir usuliga murojaat qilmaydigan ijodkorning o'zi bo'lmasa kerak. Abdulla Oripov ham «Bahor» she'rida jonlantirishning quyidagi go'zal namunalarini yarata olgan: «Yellar ham uyg'ondi ishqalab kaftin», «Tog'lar ham yuk tashlab ko'tardi kiftin», «Bezavol maysa ham silkitadi bosh», «Hovliqma jilg'alar chopar beega», «Necha bor samo ham ko'mdi quyoshin»,

«Bu sokin elda ham ivirsir bahor, O'chgan xotiralar chirog'in yoqib», «Qarayman, qabrlar yastanmish qator, Ma'sum binafshadan sirg'alar taqib», «Kimningdir ko'ksiga engashgancha gul, Marmar sag'anadan o'qib turar bayt», «Yuksak arg'uvonning uchida hilol Paxmoq bulutlarni etadi nimta», «Qaydadir yurtini eslab ingrar nay» kabi. Shoirning «Bahor» she'ridan tabiat bilan bog'liq mukammal o'xshatishlar ham joy olgan: «Ko'nglim ham bu kecha oydek yarimta», «Uvada kamzulda billur tugmaday, Bulutlar ortidan boqadi yulduz», «Qizg'aldoq bargidek uchar dildan g'am».

«Tabiat badiiy ijodning, jumladan, she'riyatning boy manbai sifatida goh «sof» peyzaj, goh maxsus tabiat obrazi, gohida boshqa biror fikr –g'oya uchun badiiy fon sifatida keladi. Ya'ni, birinchidan, an'anaviy manzara lavhalari chiziladi. Bunday she'rlarda tabiatning go'zal ko'rinishlari, turli jarayonlari taassuroti bevosita ifodalanadi. Shoir to'g'ridan-to'g'ri «manzara» deb atagan bunday poetik lavhalarda biror ijtimoiy fikr, falsafa uchun unchalik zarurat sezilmaydi. Ikkinchi holda tabiat bevosita tasvir predmetiga aylanadi, o'z «shaxsi, qiyofasi, asl ma'nosi bilan namoyon bo'ladi, endi u faqat manzara sifatida emas, balki o'ziga xos bir olam – azal va abadiyatning turli me'yorlari, sirlar va mo'jizalar maskani, tiriklik uchun cheksiz manba, zamin, ulug' stixiya, ulug' ijodkor, «saqov daho» (A.Oripov) sifatida falsafiy talqin qilinadi», deydi Botirxon Akramov o'zining «She'riyat gavhari» kitobida [9, B.120].

*Nahotki eng ulug' farzanding ketib,
Boshin ko'tarolmay yotsa manguga?
Onamni so'rayman sendan erta- kech,
Qaytar deb so'rayman chok etib yaqo.
Lekin mening dardli savolimga hyech
Javob berolmassan, o, soqov daho [9, B.90]!*

Shoir «Bahor» she'rida tabiatni qattolga, bedilga, soqov dahoga o'xshatsa-da, ammo tabiatning erka fasli – bahorga nisbatan «Bahor ham baxt kabi axir yagona», «Bahor tetapoya go'dakday shirin» tashbehlarini qo'llash orqali hayotning naqadar shirinligi-yu umrning bebaho ne'matligini eslatib o'tadi.

«...Darhaqiqat, ma'lum did va saviyaga ega bo'lmagan ijodkor adabiyotning birinchi elementi bo'lmish tilning o'zidayoq kimligini bildirib qo'yadi. Didsiz shoir biror so'zni biror o'rinda eplab ishlatishi gumon», – deydi Abdulla Oripov [9, B.21]. Bir fransuz olimi: «Iste'dod – bu did», – degan ekan. Iste'dodli shoir Abdulla Oripovning quyidagi satrlarini ko'zdan kechirar ekanmiz, uning so'z qo'llash mahoratiga lol qolmaslikning iloji yo'q. Bahor faslining inoyati bo'lgan g'o'r dovuchchalar orqali hayotning davomiyliigi hamda o'zbek kelinchagiga xos andisha va hayo o'zgacha did bilan satrlarda suratlangan:

*Dilbar kelinchakning ko'ksida g'ulu,
Zardolu shoxiga tashlar ko'z qirin.
Barg aro shu'lalar kafilarmikan u...
Bahor tetapoya go'dakday shirin [9, B.90].*

Ijodkor tabiatga qalb nigohi bilan nazar soladi. Bu esa tabiat hodisalari zamiridagi she'riyatni, yashirin go'zalliklarni tadqiq qilishga yordam beradi. Prishvin: «Men tabiat haqida yozsam ham faqat odamlar haqida o'ylayman», – deydi [9, B.123]. Buyuk so'z san'atkori Abdulla Oripovning «Saraton» she'rida ham garchi o'zbek dalalarining tabiati, saraton chog'ida ro'y beradigan o'zgarishlar tasvirlansa-da, she'ring mavzu mundarijasini zahmatkash bobodehqonning mislsiz mehnati, uning sharafiga aytilgan olqishlar egallaydi:

*Mening dehqon bobom, andak orom ol,
Quyosh buroviga olgan palla bu.
Saraton o'zi ham mudraydi behol,
Ohangsiz yalla bu, so'zsiz alla bu [9, B.30]!*

Shoir saratonning issiq nafasini, dalalardagi qaynoq onlarni quyidagicha tasvirlaydi: «Osmon lov-lov yonar oftob qo'ridan», «Chinqirib yuborar kunning zo'ridan, Qaygadir berkinib olgan chirildoq», «Go'dak uhicha ham shamol topilmas». Abdulla Oripov she'rida saraton manzarasini chizar ekan, tutlar kavagidagi g'urraklar, bo'ychan teraklar, saraton, tong g'unchasi, oftob, shu'lalar, namozshomgullar, chug'urchuqlar, tol va to'rg'aylarga insonning ruhiy holatini ulashadi: «Tutlar kavagida mudrar g'urraklar», «So'zsiz qotib turar bo'ychan teraklar», «Saraton o'zi ham mudraydi behol», «Hali tong g'unchasi ochmasidan lab», «Hayratdan lol qotib qolganin oftob», «Shu'lalar o'ynaydi supa ichida», «Birovdan xijolat bo'lgan kabi tol, Yer chizib turadi– dami ichida», «Yana bosh ko'tarar namozshomgullar», «Yana chug'urchuqlar uyg'onar bog'da». Iste'dodli shoir tabiat hodisalarini «insoniylashtirar» ekan, o'quvchida saraton haqida o'zgacha, jonli bir taassurot uyg'otadigan she'r yarata olgan.

Har bir hassos shoir ijodida turli xarakterdagi manzara – obrazlar, tabiat obrazlari o'rin olishi mumkin. She'riy asarlarda tabiat manzaralarini tasvirlab berishda turli narsalar, hodisalar, geografik

obyektlar, jonzotlar o'ziga xos original vazifalarni bajaribgina qolmay, insonning turli his-tuyg'ulari, ruhiy holatlari timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Abdulla Oripov «Yanvar» she'rida qish fasli manzaralarini yoritib berishda dala, ayvon, ko'l, deraza, ummon, oq jujun, zamin, ro'mol kabi detallarga suyan.

*Yana dalalarning shovqini tindi
Yana raqqosadek tindi momiq qor.
Yana oqshomlari ayvonda endi
Xayol surmaklikni etding ixtiyor [9,B.73].*

She'rdan boshdan-oyoq sokinlik, qish faslining noyob tuhfasini – qor yog'ib bo'lgandan so'ng borliqni – tabiatni chulg'ab oladigan o'zgacha bir sukunat, xotirjamlik hukmron. Shoir nazdida borliqdagi hamma narsa bir-biriga mehribon, jonkuyar sirdosh, qayg'udosh. Quyoshni zamin bilan ishi yo'q. U ummonlar tubida bahor orzusi bilan band. Hatto tushlarida ham bahor bilan ovora. Zamin – kelinchak. Kelinchak o'z uyidan o'zga uyga oydek orzulari bilan yaqinlarining mehribon bag'rini tashlab kelgani kabi zaminni ham o'z yaqinlari: maysalar, giyohlar, yaproqlar, qushlar, jonzotlar tark etdi. Zaminni taqdirning beshafqat sinovlariga dosh berolgan yoshi ulug' momo qishdan o'zga sirdoshi, darddoshi yo'q. Hali g'o'r, hayot sinovlari oldidi o'z bo'lgan kelinchak zaminga momo qish sokingina o'tirib oq jujun to'qiydi:

*Zangori bahorni yotar tush ko'rib,
Qaydadir – ummonlar tubida quyosh.
Momo qish oq jujun to'qir o'tirib,
Kelinchak zaminga yagona sirdosh [9,B.73].*

Abdulla Oripovning «Yanvar» she'ridan ham tabiat bilan bog'liq go'zal tashbehnlarni uchratsa bo'ladi: «Raqqosadek tindi momiq qor», «Qish – bu zamharir», «Borliq ham misoli o'ychan musavvir», «Momo qish», «Kelinchak zamin» kabi. «Yanvar» she'rining satrlaridan go'yo «jimlik suroni», «sukunat qo'shig'i» taralayotgandek bo'lsa, shoirning «Qish» sarlavhali she'rini o'qir ekansiz undan do'stlar, eski jo'ralar- qadrdonlarning sho'x qahqahasi jaranglab turgandek tuyuladi:

*Shundoq davom etar hayot baribir,
Topilar biz uchun xilvat go'sha ham.
Ko'pdan sog'intirgan davramiz qizir,
Axir eski do'stlar yana bo'lmish jam [9,B.89].*

Qirchillama qish tufayli choyxonalar gashtli, shukuhli. Ko'pdan beri bir-biriga intiq bo'lgan ko'ngillar qish tufayli yana bir davraga yig'ilgan, jam bo'lgan:

*Bunday payt gashtlidirchoyxona ko'proq,
Chollarga o'sha joy bo'ladi shafye.
Choyxona tomonga tortsa-da oyoq
Duch kelaveradi negadir kafe [9,B.89].*

Ijodkor ba'zida jamiyatdan topgan og'riqlariga tabiatdan malham izladi, undan onasidek mehr, e'tibor, shafqat kutadi. To'satdan u tabiat bilan so'zlasha boshlaydi. Tabiatdagi unsurlar bilan yaqindan muloqotga kirishadi. Bunga badiiy adabiyotimizda apastrofa deb qaraladi. Jonlantirishning bir turi sanalgan apastrofa jonsiz narsalarga odam kabi murojaat qilishdir. Abdulla Oripov ijodida apastrofa juda ko'p o'rinlarda ko'zga tashlanadi:

*Kuz ham ketdi, mana,
Qish keldi qayta,
Eski ashulamni yana aytaman.
Seni qarshi oldim nechanchi marta,
Qish, senga nechanchi bora qaytaman [10,B.89].*

Dante: «She'riyatga eng avvalo, hislar samimiyligi va tuyg'ular tarangligi kerak», – degan edi. Abdulla Oripovning betakror she'riyatida har ikkisini: hislar samimiyligi-yu tuyg'ular tarangligini topsa bo'ladi.

«Ha, Abdulla Oripov o'z so'zi, o'z tuyg'usi bilan she'riyatga kirib keldi. Shuning uchun ham u «birovlardan olmadim tuyg'u» deb faxr bilan aytishga haqli. U sertuyg'u qalb egasi. Uning asarlarini o'qigan yoki eshitgan she'rxonda shunday taassurot tug'iladiki, shoirning his va tuyg'ularining cheki yo'q. U tuyg'ular bilan to'lib toshgan, toshqin daryodek jo'shqin qalb egasi», – degan fikrlarga duch kelasiz Matyoqub Qo'shjonov va Suvon Meli tomonidan yozilgan «Abdulla Oripov» kitobida [10,B.20].

*Men shoirman,
Istasangiz shu.
O'zimniki erur shu sozim.
Birovlardan olmadim tuyg'u,
O'zgaga ham bermam ovozim [10,B.19].*

Ozoqboy Yo'ldoshev ta'kidlaganidek: «Obrazlarning teran xalqchil tomirlarga egaligi Abdulla Orif she'riyatini millat ruhining suvratlariga aylantirdi. Eng chigal ruhiy holatlarni ham g'oyat ulkan nazokat va yuksak joziba bilan aniq va ta'sirli ifodalay bilish shoir she'rlariga o'zgacha tarovat baxsh etadi. San'atkor uchqunda alanga, qatim nurda quyosh, tomchida ummonni ko'ra biladigan qudratli ijodiy tasavvurga ega edi» [11, B.247]. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, shoirning kuz manzaralari original tasviri o'rin olgan satrlarida inson yuragidan to'kilgan dard suvrati yonma-yon:

*Yana dalalarga boshlaydi havas,
Bog'larda xazonlar yonadi lov- lov.
Do'stlarim, bu kuzning barglari emas,
Mening yuragimdan to'kilgan olov* [9, B.72].

She'riyat bir o'rinda muhabbat bo'lsa, boshqa o'rinda hasrat, bir o'rinda og'riq bo'lsa, yana boshqa o'rinda halovat. Shoir Abdulla Oripovning ushbu satrlarida esa u hikmatdir:

*Unga bari birday hayot va o'lim,
Go'yoki keksa chol so'ngini o'ylar.
Va sekin silkitib kahrabo qo'lin
Ko'rganin-bilganin birma-bir so'ylar.
Bir hikmat o'qiyman xazonlarda men:
«Yashaginu, biroq yaproq bo'lma sen»* [9, B.17].

Saraton behol mudragan dalalar tasviri muhrlangan misralardan azmu shijoati kuchli, berahm otashga ham dosh beradigan, ko'zlarida charchoq birkulgi bilan qo'llarida bir umrlik hamrohi – ketmonini ko'tarib o'zbek bobo dehqoni chiqib kelayotgandek go'yo:

*Azmu shijoating men axir ko'rdim,
Ko'rdim ko'zlarimga charchoq bir kulgu.
Mayli, orom olgin, ey bobo yurtim,
Saraton junbushga kelgan payt-ku bu* [9, B.31].

Abdulla Oripovning «Bahor» she'ri tahlilga tortilgan chog'da so'zning naqadar qudratli qurol ekanligining guvohi bo'ldik. Ijodkor xuddiki kino ustasi-yu, aktyor va aktrisalari esa poetik so'zlar. Ko'z o'ngingizda sehrli tayog'chasi – qalami bilan bahorning go'zal olamini ham, manguga ko'z yumgan aziz insonlarning siymosi-yu (G'afur G'ulom, Maqsud Shayxzoda, shoirning onasi) ularning mangu makoni – Chig'atoy qabristonini ham, onasidan ayrilgan ondan boshlab kunlarni sarhisob qilib yurgan («Bugun ketganiga to'libdi besh oy») shikastaqalb farzand ruhiyatini ham tasvirlab beradi. Eng hayratlanarlisi shundaki, she'rning so'nggi misralariga ko'z yugurtirar ekansiz birdan qalbingizni egallagan g'am qizg'aldoq bargidek ucha boshlaydi-yu, qalbingizga shoir she'r satriga jo aylagan ona diyoriga bo'lgan mehr, vatanparvarlik hissi toma boshlaydi.

*Bahoring muborak bo'lsin ushbu dam,
Mening O'zbekiston – dilbar Vatanim.
Faqat sen qalbimga cho'ktirmay malol,
Charchagan ruhimga ilhom solursan.
Bahor ham, umr ham o'tar ehtimol,
Faqat sen dunyoda mangu qolursan* [9, B.91].

Shoirilar – sehrarlardir. Darhaqiqat, Abdulla Oripov sehrli, jozibali she'riyati hali hanuz qanchadan-qancha she'riyatga oshufta ko'ngillarni o'ziga sehrlab kelmoqda. Mehr-oqibat, Vatan mehri, chin insoniy fazilatlar, pokiza tuyg'ular qat-qatiga singib ketgan ijodkorning betakror merosi – takrorlanmas she'rlari tafakkuri va tasavvuri bebaho avlodlarni tarbiya etishda dasturilamal vazifasini o'taydi. Bunday she'riyatning bahosi, mukofoti esa abadiyatdir.

Adabiyotlar

1. Oripov A. Ehtiyoj farzandi // O'zbek tili v adabiyoti, 1977, 9 son. – B.15.
2. Sayyid S. Yashasin yomg'irlar. Maqolalar, badialar, xotira va suhbatlar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2007. – 87-89 b.
3. Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – T.: Sharq, 2014. – 293-294-368 b.
4. Akramov B. She'riyat gavhari: Lirikada obraz muammosi. – T.: Adabiyot va san'at, 1979. – 120-168 b.
5. Oripov A. Ehtiyoj farzandi // O'zbek tili v adabiyoti, 1977, 3 son. – B.21.
6. Akramov B. She'riyat gavhari: Lirikada obraz muammosi. – T.: Adabiyot va san'at, 1979. – 123-168 b.

7. Qo'shjonov M. Meli Suvon. Abdulla Oripov. – T.:Ma'naviyat, 2000. – 20- 136 b.
8. Yo'ldoshev Q. So'z yolqini. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2018. – 247-504 b.
9. Oripov A. Saylanma. –T.:Tafakkur qanoti, 2018. – 91 b.
10. Oripov A. Ezgulik: She'rlar va doston. –T.:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2012. –89 b.
11. Qo'shjonov M., Meli S., Oripov A. –T.:Ma'naviyat, 2000.–19 b.

UDK: 81'362

BADIIY MATNDA KONSEPTUAL METAFORA TUZILMALARINING FAOLLASHUVI

Sh.Sh. Ulugova

*Samarqand davlat chet tillar instituti
firuzahalimova@mail.ru*

Annotatsiya. Maqolada badiiy matn makro-strukturasining kognitiv xususiyatlarini tahlil qilish, tasviriy sxema va badiiy matn o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash masalalari ko'rib chiqildi. Badiiy matnning alohida qismlarga ajralib ketmasligini ta'minlovchi asosiy omil – uning konseptualligidir. Konseptual axborotsiz matn yaxlitlik xususiyatiga ega bo'la olmaydi. Yaxlitlikni, ayni paytda, metindek jipslashish ramzida qaramaslik kerak, chunki har qanday matn turli konseptual strukturalar ishtirokida tarkib topadi. Olimlar metaforalarning badiiy matnda namoyon bo'ladigan kreativlik xususiyatiga alohida e'tibor berib, bu xususiyatni ajratish uchun konseptual va lisoniy qatlamlari bir xilda e'tiborga olinishi lozimligini alohida ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: makrostruktura, konseptual metafora, tasviriy sxema, kognitiv xususiyat, kontekstual model, mikrostruktura.

Активация концептуальных метафорических структур в художественном тексте

Аннотация. В статье были рассмотрены вопросы анализа познавательных особенностей макроструктуры художественного текста, выявления связи образной схемы с художественным текстом. Основным фактором, обеспечивающим неразрывность художественного текста на отдельные части, является его концептуальность. Без концептуальной информации текст не может обладать целостным характером. Целостность, в то же время, не следует рассматривать в символе метаиндексации, так как любой текст содержит в себе наличие различных понятийных структур. Особое внимание ученые уделяют характеристике образности метафор, проявляющейся в художественном тексте, особо подчеркивая, что концептуальный и языковой слои должны рассматриваться одинаково, чтобы различать это свойство.

Ключевые слова: макроструктура, концептуальная метафора, образная схема, когнитивная характеристика, контекстуальная модель, микроструктура.

Activation of conceptual metaphorical structures in artistic texts

Abstract. The article deals with the analysis of cognitive features of the macro-structure of literary text, identifying the relationship between figurative scheme and artistic text. The main factor that ensures the continuity of a literary text into separate parts is its conceptuality. Without conceptual information, a text cannot have a holistic character. Integrity, at the same time, the meta-indexing symbol should not be considered in, as each text contains the presence of various conceptual structures. Scientists pay special attention to the characteristic of metaphor imagery, which manifests itself in a literary text, emphasizing that the conceptual and linguistic layers must be considered equally in order to distinguish this property.

Keywords: macrostructure, conceptual metaphor, figurative scheme, cognitive characteristic, contextual model, microstructure.

Badiiy matnning mazmunini to'liq anglash uchun uning umumiy ma'nosi yoki mavzusini, mohiyatini, gavdasining makro-strukturadagi voqelanishini tahlil qilish lozim bo'ladi [27]. Aniqroq aytadigan bo'lsak, makrostrukturalar ma'no va referensiyaning matnning "global" sathida ifodalanishini modellashtirish an'anasi T. Van Deykning ishlaridan boshlangan edi [8]. Lekin, olim ushbu turdagi tuzilmalarni aniqlashda propozisiyalar tahliliga amal qilgan edi. Keyinchalik kognitiv tilshunoslik vakillari boshqacha yo'nalishni tanlab, tasviriy sxemaga ega bo'lgan Gestaltlar badiiy asarlarning umumiy strukturasini kognitiv xususiyatlarini aniqlashda muhim rolni bajarishi mumkinligini qayd etdilar.

Jumladan, M. Jonson, L. Talmi, M. Terner kabilar tasviriy sxema va badiiy matn mikrostrukturasi o'rtasidagi bog'liqlikni alohida ta'kidlab kelmoqdalar.

Mark Jonson "The Body in The Mind" (1987) – nomidagi kitobida an'anaviy semasiologik tadqiqotlarning kamchiliklari haqida gapirayotib, quyidagi fikrni bayon qilgan edi: "obyektivistik yondashuvda ma'no juda ham tor ko'lamda qaralib, obyektiv borliq va timsoliy tasavvur munosabati sifatida talqin qilinadi. Ular obraz, sxematik qolip, metaforik tasvir kabi propositsiyaga aloqador bo'lmagan tuzilmalarni inkor etadilar" [18, 18]. Olim taklif qilgan "tasviriy sxema" (image schema) nazariyasi mental strukturalarning mazmun tuzilishida va uni idrok etishda yetakchilik qilishini tasdiqlashga xizmat qildi.

M. Jonson "Moral imagination: Implications of cognitive science for ethics" nomli boshqa bir kitobida ayrim "tasvir sxema"larining qanday va nima uchun asar tarkibida strukturalar hosil qilishini o'rganadi. Uning aniqlashicha asosiy yoki prototip strukturalardan tashqari, majburiy kuch, jalb qilish, yoqtirmaslik, markaz-sarhad, aylanma harakat kabilar bilan bog'liq sxemalar metafora va metanomik ko'chmalar uchun muhim ekanligini hamda ularning ishtiroki natijasida matnda variantlashuv holatlari yuzaga kelishini qayd etadi [17].

Yana bir amerikalik olim Mark Terner konseptual metaforalar sxemalarni badiiy matnda faollashuvi holatlarini badiiy bayon, hikoyaning konseptual aksini anglatuvchi "parable" ("hikoyat") tushunchasini iste'molga kiritadi. Olimning qaydicha, "hikoyat ongning asosiy tamoyili bo'lib, bizning tajribalarimiz, bilimimiz va uy-hayollarimiz asosan hikoya tarzida tuzilish oladi" [25, 11]. Kundalik turmushda kechadigan suv quyish, suvga borish, suv ichish va idishni stolga qaytarib qo'yish kabi harakatlar bir-biri bilan alohida tasviriy sxemalar vositasida bog'lanadi.

M. Terner sxemalarning badiiy matnda faollashuvini izohlash uchun yunon mumtoz adabiyoti namunasi bo'lgan "Odissey"dan misollar keltiradi. Troya jangidan qaytayotgan dengizchilar Itaka tomon suzib boradilar, ammo yo'ldagi sarson-sargardonchilik paytida ular turli vaqtda birma-bir turlicha o'lim topadilar. M. Terner fikricha bu murakkab sayohat to'g'risidagi hikoya bo'lib, u yo'l (Troya) va mo'ljal (Itaka) tugunlaridan iborat freym yoki tasvir sxemasi asosida shakllangan. Olim ushbu qaydini quyidagicha izohlaydi:

"We appear to understand an event as having its own "internal" structure... this internal structure is image schematic: it is rooted in our understanding of small spatial stories. I'll refer to this internal structure loosely as its "events shape". We think of a season as coming around again, time as progressing along a line, a sale as closed. None of these events has the literal spatial or bodily form we associate with it, but we use image schemas to structure and reorganize these events" [25, 27].

M. Terner aytayotgan "voqealar shakli"dan tashqari, sxemalar ularning sabablarini aniqlashga ham qo'l keldi. Zero, sabablar konseptuallashuvning manbasi bo'lib, ularning tuzilishi ham sxematik ko'rinish oladi. Hatto, ba'zi sabab sxemalari oldin eslatilgan "ma'lum yo'nalish bo'ylab harakat" sxemasini takrorlaydi [25, 29].

Bundan tashqari, olim "qobiliyat", "majburiyat", "ehtiyoj", "imkoniyat" munosabatlarini ifodalovchi modal strukturalarini ajratish kerakligini qayd etadi. Elementlarning o'zaro munosabatini aks ettiruvchi ushbu strukturalarni sxemalar tasvirida anglash mumkin bo'ladi [25, 30].

Kognitiv semantika sohasining yirik mutaxassislaridan bo'lgan Leonard Talmi matnlar kognitiv tuzilishi tahlilining umumlashgan modelini taklif qilgan. Ushbu model uch qismdan iborat:

a) asosiy maydonlar; b) qatlamlar; v) parametrlar.

Birinchi qism ma'lum makon va zamondagi olam parchasini uning barcha xususiyatlari bilan birgalikda qamrab oladi. Shuningdek, L. Talmi bu qismga ma'lum madaniyat va jamoada amalda bo'lgan presuppozitsiya bilimlari, qadriyatlar, normalarni hamda matnni yaratuvchi va qabul qiluvchilarni, matnning o'zini ham kiritadi [24, 422]. Parametrlar esa tashkil qilishning umumiy tamoyillari bo'lib, ular strukturalarning munosabatini, farqlanishini, strukturalar birikishini va baho me'yorlarini belgilaydi.

Matn tuzilishi uchun muhim qism qatlamlar bo'lib, u zamon, makon va sabab strukturalaridan tarkib topadi. L. Talmining nazdida, zamon strukturasi davomiylik xususiyatiga ega, makon strukturasi esa "makonlashuvga ishora qiluvchi matriqa" hamda "unga oid konseptlar joylashuv yoki egalik qilish mazmuniga ega. Dinamik konseptlar, o'z navbatida, yo'nalish va mo'ljalni ifoda etadi" [24, 436-438]. Sabab strukturalari faollashuvida harakatlar ta'siri inobatga olinadi.

L. Talmi o'z ishlarida "image schema" yoki "conceptual structure" atamalarini qo'llamagan bo'lsa-da, lekin uning qarashlari konseptual metaforaning yaxlit matn doirasida shakllanishi va tarqalishi holatlarining tahlilida muhim rol o'ynashishi hech qanday gumon tug'dirmaydi. Tadqiqotchining matnning kognitiv tahlilga nisbatan munosabati uning quyidagi so'zlarida yaqqol ko'rinadi: "narrative is something that by necessity is cognitively produced or experienced, rather than as anything that could exist autonomously in its own right" [24, 420].

Matnning turli sathlariga oid birliklar uyushishidan tashkil topadigan tuzilma ekanini tilshunoslar allaqachonlar e'tirof etishgan. Ammo ushbu tuzilma qandaydir tartibsiz, o'z-o'zidan hosil bo'ladigan hodisa emas, aksincha, undagi har bir bo'lak o'zaro aloqada va bir-birini taqozo etadi. (Kuxarenko 1988: 70; Galperin 1981; Boymirzayeva 2009; Ashurova, Galeyeva 2016 va boshq.).

Matnda voqealar, faktlar, voqea kechayotgan makon va zamon, muallifning fikr-mulohazalari kabilar bayon qilinadi. Bularning barchasi matndagi faktual axborotni tarkib topdiradi. Mazkur turdagi axborot qo'shaloq rolni bajaradi: u, bir tomondan, matnni "tiriltiradi", ya'ni uni harakatga tushirib, mazmunni voqelantirsa, ikkinchi tomondan, ushbu mazmunni, ifoda qilinayotgan fikrni niqoblar yashiradi va buning bilan mazmunni anglashni qiyinlashtiradi. Badiiy matnda faktual axborot, boshqa janrdagilardan farqli o'laroq, alohida yoki sof holda ifodalanmaydi. Ushbu axborot muallif maqsadiga mos ravishda uzatiladi. Shuning uchun ham badiiy matnning alohida qismlarga ajralib ketmasligini ta'minlovchi asosiy omil – uning konseptualligidir. Konseptual axborotsiz matn yaxlitlik xususiyatga ega bo'la olmaydi. Yaxlitlikni, ayni paytda, metindek jipslashish ramzida qaramaslik kerak, chunki yuqorida aytilgandek, har qanday matn turli konseptual strukturalar ishtirokida tarkib topadi.

Har qanday yozma matn lisoniy shaxslar kommunikativ hamkorligining qoldirgan "axborot izi"dir. Bunday hamkorlik natijasida bilim, tajriba, malaka, hissiyot kabilar doirasidagi axborot almashinuvi kechadi. Tadqiqotchilar badiiy matnni muallifning o'ziga xos ichki kechinmalarining aks etishi oqibatida voqelikni tasvirlashi sifatida talqin qiladilar [1, 120]. Shunga nisbatan, matnning diskursiv tavsifida muallifning "voqelikni ko'rishi" bilan bir qatorda, pragmatik, sotsiomadaniy va kognitiv omillarni ham inobatga olish talab qilinadi.

Aytish joizki, "olamning manzarasi" tushunchasi voqelikni idrok etishning barcha bosqich va jarayonlarini qamrab ololmaydi. U olam haqidagi tasavvurlarning umumlashmasidir. "Olamni ko'rish" tushunchasi esa, aksincha, voqelikni ma'lum zamon va makonda idrok etilishini anglatadi. Bunda olamning lisoniy manzarasi voqelikning ko'zgudagi aksi bo'lmay, balki subyektning bilimi, shaxsiy tajribasi, kontekstga bog'liq holda "ishlov berilgan" tasvirdir. Matn xuddi shunday alohida olamni ko'rish manzarasidan iborat tuzilma qiyofasini olishini faraz qilish mumkin [2].

O'ylaymizki, badiiy matnning tahliliga lisoniy-tafakkur jarayoni sifatida qarash olamning mental o'zlashtirish muammosi tadqiqiga yo'l ochib beradi. O'zbek matnshunosi D. Xudoyberganova fikriga ko'ra, "matn yaratilishining kognitiv talqiniga binoan, matn – mental tuzilmaning tilga ko'chirilishidir". Bundan ko'rinadiki, matn botiniy nutqdagi bo'lajak matnga ketma-ket joylashuvchi proposisiyalar emas, balki butundan qismlarga qarab harakatlanuvchi yaxlit shakl sifatida qaraladi [26, 14]. Shu bois, asosiy yoki yadroviy mazmunga asos bo'ladigan mental tuzilmalarni aniqlash kognitiv tilshunoslikning muhim vazifasi hisoblanadi.

Bazi matnning konseptual tuzilishini o'rganish jarayoni konseptual strukturalar tahliliga murojaat ehtiyoj tug'dirishi tabiiydir. Shu yo'nalishda bajarilgan ilk tadqiqotlar qatoriga, albatta, o'tgan asrning oxirlarida yaratilgan J. Stinning "Understanding Metaphor in Literature" (1994) hamda M. Ternerning "The Literature Mind" nomli ishlari kiradi. Ikkala tadqiqotda badiiy adabiyotda faollashayotgan konseptual metaforalarni tushunish mexanizmlari bayon qilingan. Asrimizning boshlanishida yozilgan Yelena Seminoning "Metaphor in discourse" nomli kitobi masalaga oid ma'lumotlarga boydir [21].

Kognitiv metafora nazariyasining rivoji jurnallarda qator maqolalar e'lon qilinishiga sabab bo'ldi. Jumladan, "Journal of Pragmatics" va "Poetics Today" jurnallari 1999 yilda konseptual metaforaning badiiy asarlarda bajaradigan vazifasi masalasi muhokamasiga maxsus sonlarni bag'ishladilar.

J. Lakoff va M. Turner hammualifligida bitilgan "More than cool reason: a field guide to poetic Metaphor" (1989) asari metafora hodisasining konseptual tavsifiga oid dastlabki tadqiqotlardan ekanligi va uning soha rivojiga katta hissa qo'shganligi oldinroq ham aytilgan edi [20]. To'rt bobdan iborat ushbu kitobning birinchi bobi "Life, time, death" deb atalib, unda ushbu mazmundagi metaforik tushunchalarning poetik matnlarda konseptlashuvi masalasi yoritilgan. Kitobning "The power of poetic metaphor" deb nomlangan ikkinchi bobida poetik metafora nazariyasi asoslanib, boshqa yo'nalishlar bilan qiyoslangan. So'nggi boblarda konseptual strukturalarnig badiiy metaforalar shakllanishidagi roli o'rganilgan. Ushbu asarda badiiy metafora kundalik (lisoniy) metaforaning maxsus kognitiv mexanizmlar ishtirokida mazmunan kengaytirilishi natijasida hosil bo'lishi badiiy adabiyotlardan keltirilgan misollar asosida dalillangan. Ammo, afsuski, ushbu tadqiqot kamchiliklardan xoli emas va ulardan ba'zilarini qayd etib o'tishni lozim topdik:

Birinchidan, muallif sanab o'tishayotgan takomillashtirish, kengaytirish, savol qo'yish va tashkillashtirish kognitiv amallari poeziyadan ko'ra nasrda, publisistikada ko'proq faollashadi.

Ikkinchidan, kitobda poetik metaforaning asosan kognitiv jihatlarini yoritib, uning estetik tabiati e'tibordan chetda qolmoqda. Bu esa metaforaning poetik mazmun shakllanishidagi ahamiyatini qorong'ilashtiradi.

Mark Ternerning 1996-yilda nashr qildirgan "The Literary Mind" nomli kitobi to'lig'icha badiiy tafakkur muammosiga oid bo'lib, unda hikoya inson tafakkur faoliyatida muhim rolni o'ynashi falsafaviy jihatdan asoslab berilgan. Muallifning fikricha, har bir voqeaning mohiyatini tushunishda konseptual strukturalar harakatini aniqlash muhim ekanligini ta'kidlagan. Homer, Dante, Shekspir, Prust kabi mashxurlar asarlari tahlili misolida mental tuzilmalarning tafakkur jarayonida yetakchi o'rinni egallashi ko'rsatib o'tilgan. Jumladan, hikoyatlar makon va zamonda joylashishni anglash, o'zimiz va boshqalar hayoti va nuqtai-nazarlarini fahmlashimizga turtki beradi [25].

Qisqasi, M. Ternerning tadqiqotlari badiiy adabiyot hamda inson ongida kechadigan jarayonlar o'rtasidagi bog'liqlikni anglashga qaratilgan. Ularda tafakkur, konseptual faoliyat hamda tilning tabiati va paydo bo'lishi borasidagi qarashlar yangicha talqin olgan.

Sohaga oid eng ahamiyatli qarashlar Ye. Seminoning "Metaphor in Discourse" nomli kitobida bayon qilingan. Bu ishda metaforaning badiiy va siyosiy adabiyotlarda, ilmiy matnlarda va reklamalar kabi turli janrlardagi shakli va vazifasi tahlil qilingan. Muallif metaforalarning badiiy matnda namoyon bo'ladigan kreativlik xususiyatiga alohida e'tibor berib, bu xususiyatni ajratish uchun konseptual va lisoniy qatlamlari bir xilda e'tiborga olinishi lozimligini alohida ta'kidlaydi. Elizabet Hyen va boshqa shoirlar ijodidan keltirilgan namunalar tahlili metaforaning mazmun-mundariyasi makrokontekstda ma'lum bo'lish isbotlab berilgan. Olimaning e'tiroficha, metaforalar zanjiri matn qismlarining o'zaro birikishini ta'minlab, "o'quvchining ifodalanayotgan mazmun idrokini yengillashtiradi va badiiy asar uslubini baholashga imkon beradi" [21, 41].

Jurnallarda poyma-poy nashr qilinayotgan maqolalarda konseptual metaforaning til va olam munosabatini tasvirlovchi vosita va olamning badiiy manzarasini shakllantirishning eng mahsuldor usuli ekanligi ta'kidlanmoqda. Keyingi paytda bu yo'nalishdagi tadqiqotlarda metaforaning matnni o'qiyotgan shaxsga ta'sir kuchiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bundan tashqari, kognitiv stilistika yo'nalishida faoliyat ko'rsatishayotgan tadqiqotchilarning e'tiboriga badiiy asar personajlarining "tafakkur usuli" (mind style)ni kognitiv metafora tahlili doirasida o'rganish muammosi tushgan. Ingliz adabiyotshunosi Rojer Fauler taklif qilgan "mind style" termini ma'lum shaxslar (muallif, personajlar) dunyo-qarashining matndagi lisoniy tuzilmalarda aks topishini anglatadi [11]. E. Blekning "Metaphor, simile and cognition in Golding's "The Inheritors" nomli maqolasida konseptual metaforaning "tafakkur usuli"ga ta'siri masalasi birinchilardan bo'lib o'rganilib, ushbu ta'sirning lisoniy voqelanishini ta'minlovchi vositalar haqida so'z yuritildi. Olima "The Inheritors" asari tahlili misolida metaforik iboralarning asar personajlari kognitiv va lisoniy qobiliyati rivojlanib borishidagi rolini yoritishga harakat qiladi [4].

Shuningdek konseptual metaforalarning turli janr va mavzudagi asarlarda faollashuvi hamda bajaradigan vazifalari tadqiqi ham nazardan chetda qolgani yo'q. Masalan, Kristina Gredoriu kriminal mavzudagi badiiy matnlar tahlili asosida metaforalarning jinoyatchilar tafakkur stilidagi aksini aniqlash yo'lini izlayotgan bo'lsa [16], D. Frimann kognitiv strukturalarning fojia mavzusidagi asarlar matnidagi rolini o'rgandi [12]. "Qirol Lir" dramasi birinchi sahnasi tahlili orqali olim ushbu dramaning metaforik tili BALANCE va LINKS sxemalari orqali voqelanishini hamda bu sxemalar oilaviy munosabatlar va o'g'illik burchi tushunchalari mavhumlashuvi shakllanishini dalillab beradi. Zotan, ota va qiz munosabatlarini "nasiya va qarz" moliyaviy mezonlari ko'zgusida ko'radilar [12]. Frimanning maqolasida "mind style" atamasi uchramasa-da, biroq uni hech tortinmasdan ushbu nazariya rivojiga qo'shilgan hissa deb hisoblash mumkin.

Boshqa bir tadqiqotchi Katirin Emmot "o'z-o'zini oshkora qiluvchi" ("split selves") turkumidagi metaforalarning badiiy va tabiiy mavzusida adabiyotlarda bajaradigan vazifasi tadqiqi bilan shug'ullanadi. U ushbu guruhdagi metaforalarning CONTAINER va PRISON konseptual sxemalari vositasida shakllanishi va anglanilishini izohlaydi hamda ularning adabiy personajlar tafakkuri faoliyatida qanday o'rin egallashi mumkinligini aniqlashga intiladi [10].

Ilmiy tadqiqotlarda metaforaning yozuvchi uslubi va dunyoqarashiga ta'siri masalasiga oid izlanishlar ham kuzatilmoqda. Biz bir necha bor ismu-sharifini eslatgan Margaret Frimanning "Metaphor making meaning" (1995) nomli maqolasida Dikonson poeziyasi amalda bo'lgan metaforik strukturalarning shoir dunyoqarashi shakllantirishidagi o'rni o'rganilgan. Olimaning kuzatishicha, poeziyada olamning o'ziga xos manzarasi yaraladi va shoirlar voqelikni o'zlaricha idrok etadilar. Masalan, Dikonson ko'proq tanish bo'lgan LIFE IS A JOURNEY THROUGH TIME konseptual sxemadan voz kechib, uning o'rniga zamonamiz kashfiyotlariga mos keladigan LIFE IS A VOYAGE IN SPACE sxemasi bilan almashtirishni

ma'qul ko'radi [13]. Darhaqiqat, hozirgi paytda sayohat vaqt bilan emas, balki makon va masofa bilan o'lchanadi. Shuningdek, AIR IS SEA konseptual sxemasi shoirga o'z tafakkur olamini tasvirlashdan ko'ra, uni yaratishga ko'mak beradi.

M. Frimanning boshqa bir maqolasi konseptual birikuv yoki blending nazariyasining poeziyani yaratish va tushunishdagi rolini ko'rsatishga yo'naltirilgan [14]. Silviya Platning "The Applicant" sarlavhali she'ri matnida konseptual strukturalarning zanjirsimon birikuvi jamiyatda mavjud bo'lgan nohisliklar, yolg'on va dalarning insonlarni qanday holatga solib qo'yishi mumkinligi tasvirlashda konseptual metaforalarning yuqori darajada faollashuv extimoli haqida fikr bildirilgan.

Kognitiv metafora va muallif dunyoqarashi o'rtasidagi aloqa masalasi yana bir qator ishlarda tadqiqot obyekti sifatida tanlangan. Pol Dinning maqolasi asosan markaziy va sarhaddagi metaforalarni farqlash va ularning funksional xususiyatlarini belgilashga bag'ishlangan bo'lsa-da, lekin unda konseptual metafora va muallif dunyoqarashi o'rtasida bog'liqlik masalasi birmuncha batafsil yoritilgan. Maqolada she'riy mazmun konseptual strukturalar harakatiga asoslanishi izohlangan. Natijada, tahlil qilingan she'rda jamiyatning avval beqaror, xaos vaziyatida betartib holatga kelishi, keyin barqaror vaziyat yuzaga kelishi bilan tartibotli tizimga aylanishini tasvirlash uchun metaforik iboralardan keng miqyosda foydalanilganligi ko'rsatib berilgan [6].

Barbara Dansigirning "Blending and narrative viewpoint: Jonathan Raban's travels through mental spaces" (2005) sarlavhali maqolasida "blending nazariyasi" sayohat janridagi badiiy ijod namunalari tahliliga tatbiq etish masalasi muhokama qilingan. Semantik ko'chim strategiyasidan foydalanish davomida muallifning xususiy uslubi namoyon bo'ladi. Jonatan Raban yaratgan matnlar tahlili semantik ko'chim strategiyasi tanlovi badiiy tafakkur ifodasi strategiyasi bilan mos tushishi kerakligi haqida fikrni tasdiqlaydi [7].

Xullas, "tasvir sxemasi" tushunchasidan badiiy adabiyotni ikki yo'nalishda tushunishda foydalanilmoqda: 1) mavzuni tushunishda va 2) kompozitsiyani tuzishda. Masalan, J. Veber, Dorris Lessingning "The Room Nineteen" lavhali kichik hikoyasini tahlil qilayotib, konseptual struktura bo'lgan, "tasvir sxemasi"ning aniqlanishi hikoya qahramonning ichki dunyosini anglashga hamda uning qanday hayot kechirgani va o'z joniga qasd qilishgacha borib yetganing sabablarini bilishga imkon berishini izohlab beradi. Mutaxassislar e'tirof etayotganidek, bu sxemalar ijodkor poetikasini aniqlash va shu yo'sinda birining uslubini boshqasidan farqlashga yordam beradi [15, 74]. Olima ikkita shoir (Robert Frost va Emili Dikinson) ijodini qiyoslab o'rganib, birinchisining asarlarida yetakchi tasvir sxemalar "yo'l" va "tenglik" bo'lsa, ikkinchisining ijodiga esa "konteyne" va "o'zgarish" konseptual sxemalari yetakchilik qilishini aniqlagan. Demak, ularning har birining poetikasi o'ziga xosdir.

Konseptual sxemalarning poetik asarlarda faollashuviga oid yana bir maqola European Journal of English Studies jurnalida chop qilingan [5]. M. Burke bu maqolasida konseptual nazariyaning stilistik tahlilga jalb qilinishi ushbu turdagi tahlildan "yashirinib" qolgan qator holatlarni kuzatish orqali uslubshunoslikni amaliy jihatdan boyitishi mumkinligini ko'rsatib berdi. Filip Lerkinning "Going" nomli she'ri tahliliga kognitiv metafora nazariyasi nuqtai nazaridan yondashgan olim ushbu she'rning an'anaviy yo'nalishdagi uslubshunoslar sezishmagan jihatlarini aks ettiruvchi yangi poetik tasvir manzarasini chizib beradi.

Konseptual strukturalar nazariyasini badiiy asarlar stilistik tahliliga tatbiq etishning tarafdorlaridan biri bo'lgan P. Stokvellning fikricha, badiyatni o'qish va tushunish faoliyati makrostrukturalarni ajratib olish bilan bog'liqdir:

"Since human memory is faulty, and we view certain aspects of a text as being more important than others,... we, preserve a representation of those texts, comprising the gist of the meaning, some generalized sense of the poetic texture and structure of the work, and a sense of the book's significance together with a sense of what the literary work means for us...Such representations are the outcome of a process of reading and social negotiation. An early approach with the field of cognition and literary study proposed the principle of macrostructures as part of the reading process. A macrostructure is a hierarchical representation of interrelated propositions, which together represent the gist of a literary work for a particular reader" [23, 123].

Agar keltirilgan iqtibosning oxirgi qatorlariga e'tibor beradigan bo'lsak, P.Stokvell "makrostruktura" tushunchasini o'zaro bog'liq propozitsiyalarning bosqichma-bosqich voqelanishi sifatida talqin qilib, shu propozitsiyalar bog'liqligida badiiy asarning o'quvchiga mo'ljallangan mazmuni shakllanishini ta'kidlayotganini ko'ramiz. Muallif tamonidan matnni o'qish jarayoni uning mundarijasi bilan tanishishdan boshlanishi ko'rsatadi va bunda mikrostrukturalar jamlanib, matnda nima haqida so'z ketayotganini bildiruvchi faktlarga aylanadi. Nihoyat, boshqa matnga murojaat qilish, chiqarib tashlash, umumlashtirish, qurish kabi kognitiv strategiyalardan foydalanish asosida umumiy makrostruktura ajraladi.

Shuning uchun ham badiiy asarning kognitiv modeli, eng avvalo, matnni o'qish jarayonida namoyon bo'ladi, lekin ushbu modelning ba'zi xususiyatlari o'quvchi yoki u vakili bo'lgan jamoaga tanish [23, 125]. P. Stokvell "image schema" tushunchasini bevosita ishlatmagan bo'lsa-da, biroq implisit tarzda uning makrostrukturalar umumlashuvida yetakchilik qilishiga ishoralar mavjudligini sezish mumkin.

M.Kimmel "makrostruktura hosil bo'lishining dastlabki sharti badiiy mazmunning konseptual siqilashuvi va sxemalashuvida" deb biladi. Uning fikricha, makrostruktura nazariyasi "o'quvchilarning hikoyaning ongda qanday tasavvur qilishi hamda mazmun siqiliga va sxemalashuviga bir xilda murojaat qilishga undaydi" [19, 201].

Shu o'rinda matnning konseptual propozitsiyalarning zanjirli bog'lanishi asosida yuzaga kelishi haqidagi fikr diskursologlar tomonidan ham qayd etilganini eslatmoqchimiz [8]. Lekin M.Kimmel konseptual propozitsiyalar zanjiri o'rniga tasvir sxemalarini ajratishni afzal ko'radi.

Olim siqilashgan tasvir sxemalaridan iborat to'plamni "uyushgan, umumiy axborot" (plot-gene) deb atab, uning to'rtta xususiyatini farqlaydi: a) hikoya qilingan voqealarning umumlashtirilishi; b) sxemalarning o'quvchi tomonidan tanlanishi; v) hikoya qismlarining ahamiyatsiz tomonlarini sarhadga o'tkazish vazifasini bajarish; g) hikoya tuzilishi turli jarayonlari kechishiga ko'mak berish [19, 202].

Makrostrukturaning umumiy axborot shakllanishi natijasida yuzaga keladigan hodisa sifatida talqin qilinishi uning turg'unlikdan ko'ra harakatchanlik, o'zgaruvchanlikka moyilligi bilan bog'liq, chunki M. Kimmelning o'yicha, "hikoyalar qismlarga ajralishi va turli usullarda tuzilishi mumkin bo'lgan voqealar haqidagi bilimning dinamik tartibotidik" [19, 202].

Qayd etish joizki, biz yuqorida asosan AQSH va Buyuk Britaniya ilmiy maktablarida faoliyat ko'rsatayotgan olimlarning mavzuga oid ishlariga to'xtalib, ular bildirgan fikr-mulohazalarni sharhlashga harakat qildik. Mamlakatimizda konseptual metafora va boshqa turdagi mental strukturalarning tahliliga bag'ishlangan ishlarning soni hozircha unchalik ko'p emas. Kognitiv stilistika fani endigina tetapoya qilishni o'rganmoqda. Ammo D.U. Ashurova, Sh.S. Safarov, G'. Hoshimov, M.I. Rasulova va ularning izdoshlari Konseptuallashish bilan bog'liq hodisalar tabiatini o'rganish muammosi, xususan, kognitiv sxemalar tadqiqi bilan shug'ullanib kelmoqdalar. Jumladan, "Badiiy matn stilistikasi" darsligida konseptual blending hodisasining kognitiv metaforani hosil qilish imkoniyatlari qayd etiladi [3, 106-115].

Ayniqsa, N.M.Jusunovning qator ishlarida matnda ifodalanayotgan axborotning ilgari surish (foregrounding) hodisasi o'rganilib, ushbu hodisaning badiiy matnlarda majmuaviy mexanizm sifatida yuzaga kelishining asosida bilim strukturalari, turli kognitiv jarayonlar turishi dalillanmoqda [9].


Shunday qilib, konseptual metafora va tasvir sxemasi hodisalarining badiiy adabiyotda faollashuvi masalasi oxirgi o'n yilliklar davomida muazamli ravishda tadqiqodchilar diqqatini jalb qilib kelmoqda. Ushbu hodisalarga murojaat qilish orqali biz ham "Jeyn Eyr" romani personajlarining dunyoqarashi va tafakkur usulining metaforalar vositasida lisoniy voqelanishi bilan bog'liq xususiyatlarini o'rganishga harakat qilamiz.

Yuqorida izohlangan kognitiv nazariyalar tatbiqida "Jeyn Eyr" romani matnining metaforik tarkibini uch jihatdan tahlil qilish mo'ljallanmoqda. Ushbu ko'rinishdagi tahlilni quyidagicha tasvirlash mumkin (Chizma – 1):

Keltirilgan chizmadan ko'rinadiki, "Jeyn Eyr" romani matnidagi metaforik ijodkorlik, eng avvalo, ikki o'lchamda, ya'ni kontekstual va estetik ko'lamda tahlil qilinadi. Bunda kontekstning bevosita tabiiy muhitni aks ettiruvchi, ijtimoiy, madaniy va diskurs ko'rinishlarda bo'lishi inobatga olinadi. Ayni paytda, romanda konseptual metaforalari bajaradigan estetik vazifa ham qayd etilmasdan qolmaydi. Tadqiqotning asosiy vazifalaridan biri voqea-hodisalar kechayotgan ijtimoiy-tarixiy va madaniy muhitlarni tavsiflashdan iboratdir.

Bundan tashqari, lisoniy vositalarning muallif va personajlar dunyoqarashi shakllanishidagi ishtiroki masalasi ham muhokama qilinadi. Zotan, personajlar tafakkur stilining turli-tuman bo'lishi turli metaforik iboralar qo'llanishi bilan belgilanishi taxlil qilinmoqda. Feministik badiiy asarlarning dastlabki namunasi bo'lgan "Jeyn Eyr" romanida bosh qahramonning yoshligidan boshlab shaxs sifatida shakllanish jarayoni, uning psixologik va axloqiy barkamollikka erishish davri batafsil tasvirlangan. Shu davr va jarayon bosqichlarini tavsiflash uchun hayot, o'zlik, insonlar orasida munosabatlarni ifodalovchi metaforalar bilan bir qatorda, qahramonlarning jinsiy farqlar va diniy ishonchini aks ettiruvchi metaforalar ham tahlil qilindi.

Chizma 1. Asar metaforik tarkibining tahlil yo'nalishlari.



Adabiyotlar

1. Адмони В.Г. Система форм речевого языкознания. – СПб.: Наука, 1994. – 160 с.
2. Марова Н.Д. Парадигма интерпретации текста. Ч.1. – Екатеринбург: Изд-во УрГПУ, 2006. – 209 с.
3. Ashurova D.Y., Galieva M.R. Stylistics of literary text. – T.: Alisher Navoiy nomida Milliy Kutubxona, 2013. – 204 b.
4. Black E. Metaphor simile and cognition in Golding's "The Inheritors"// Language and Literature, 1993. Vol.2 (1). – 115 p.
5. Burke M. How cognition can augment stylistic analysis// European Journal of English Studies, 2005. Vol. 9. – 105 p.
6. Dean P.D. Metaphors of center and periphery in Yeats "The Second Coming"// Journal of Pragmatics, 1995. Vol. 23-24. – 716 p.
7. Daneygier B. Blending and narrative viewpoint: Johnatan Raban's travels through mental spaces//Language and Literature, 2005. Vol. 14 (2). – 338 p.
8. Dijk van T. A., Kintch W. Strategies of Discourse Comprehension. – NY.: Academic, 1983. – 423 p.
9. Dzhushupov N. Foregrounding of Concept in the Literary Text (Cognitive Stylistic analysis of D.H. Lawrence "England, my England"// Филологические науки, 2013. №1. – 120 с.
10. Emmott C. "Split selves" in fiction and in medical "life stories"//Cognitive stylistics: language and cognition in text analysis. – Amsterdam: Benjamins, 2002. – 333 p.
11. Fowler R. Linguistic Criticism. – Oxford: Oxford University Press, 1986. – 190 p.
12. Freeman D. "According to my bond": King Lear and recognition//Language and Literature, 1993. Vol. 2 (1). – 920 p.
13. Freeman M. H. Metaphor making meaning: Dickinson's conceptual universe// Journal of Pragmatics, 1995. Vol. 24. – 708 p.
14. Freeman M. The poem as complex blend: Conceptual mappings of metaphor in Sylvia Plath's "The applicant"// Language and literature, 2005. Vol.14 (1). – 338 p.
15. Freeman D.C. Afterword// Cognitive Stylistics: Language and cognition in text analysis. – Amsterdam: Benjamins, 2002. – 420 p.
16. Gregorin C. Criminally minded: The stylistics of justification in contemporary American crime fiction// Stile, 2003. Vol. 37 (2). – 163 p.
17. Johnson, M. Moral imagination. Chicago: University of Chicago Press, 1993. – 287 p.
18. Johnson M. The body in the mind: The bodily basis of meaning, imagination and reaction. – Chicago: University of Chicago Press, 1987. – 233 p.

19. Kimmel M. From metaphor to the "Mental sketchpad". Literary macrostructure and compound image schemas in "Heart of darkness"// Metaphor and Symbol, 2005. Vol. 20 (3). – 238 p.
20. Lakoff G. Turner M. More than cool reason: A field guide to poetic metaphor. – Chicago: Chicago University Press, 1989. – 338 p.
21. Semino E. Metaphor in discourse. – Cambridge: CUP, 2008. – 244 p.
22. Steen G. Analyzing metaphor in literature: an empirical approach// Poetics Today, 1999. Vol. 20 (3). – 544 p.
23. Stockwell P. Miltonic texture and the feeling of reading. UK; University of Nottingham, 2002. – 215 p.
24. Talmy L. Toward a cognitive semantics. Vol.2. – Cambridge: CUP, 2002. – 495 p.
25. Turner M. The Literary Mind. – Oxford: Oxford University Press, 1996. – 208 p.
26. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – T.: Fan, 2013. – 135 b.
27. Zwoan R., Radvansky G., Whitten S. Situation models and themes// Thematics: Interdisciplinary studies. – Amsterdam: Benjamins, 2002. – 448 p.

UDK: 81'362

HURMAT TAMOYILLARINI TIL TIZIMIDA VOQELANTIRUVCHI LISONIY HARAKATLAR

A.F.Shamaxmudova

*Samarqand davlat chet tillar instituti
firuzahalimova@mail.ru*

Annotatsiya. Maqolada nutqiy aktlar nazariyasining eng munozarali mavzularidan biri hurmat tamoyillarining til tizimida aks etish usullari ispan badiiy asarlaridan olingan misollar orqali yoritib berilgan. Badiiy asarlar tahlili natijasida olingan xulosalarga asoslanib, shuni ta'kidlash mumkinki, hurmat shakllari implitsit ravishda ifodalangan nutqiy aktlarning shakl va mazmuni orasida ma'lum darajadagi nomutanosiblikning mavjudligi bois, ilokutiv maqsad (so'zlovchining kommunikativ maqsadi) til tizimida yaqqol aks ettirilmaydi va muloqot intensiyasi (maqsadi) matnga tayangan holda talqin etiladi.

Kalit so'zlar: hurmat tamoyillari, nutqiy faoliyat, bilvosita nutqiy akt, implitsit, eksplitsit, nutqiy tuzilma, monointensional, poliintensional, muloqot matni.

Стратегия отражения принципов вежливости в структуре языка

Аннотация. В статье рассматривается проблема отражения вежливых форм в структуре языка на материале испанского художественного текста. Анализ художественной литературы показывает, что интенция в имплицитно выраженных речевых актах реализованных по принципу вежливости не отражается прямым способом и коммуникативную интенцию высказывания следует интерпретировать согласно дискурсу.

Ключевые слова: принцип вежливости, речевой акт, косвенный речевой акт, имплицитность, эксплицитность, высказывание, моноинтенциональность, полиинтенциональность, дискурс.

Realization of politeness strategy in language structure

Abstract. This article describes the problem of realization of politeness strategy in language structure in examples of Spanish literary discourse. The analyses show, that in implicit speech acts the intension isn't realize directly and the communicative intension of utterance should be interpreted according to the discourse.

Keywords: politeness strategy, speech act, indirect speech acts, implicit, explicit, utterance, mono-intentional, poly-intentional, discourse.

Zamonaviy tilshunoslik asoslaridan ma'lumki, nutqning shakllanishi avvalambor kognitiv faoliyat bosqichidan boshlanadi, ya'ni botiniy nutq jarayonida ifodalanayotgan nutqiy tuzilmaning namunaviy qoliplari turli ko'rinishlarda shakllantiriladi. Suhbatdoshlarning vazifasi ushbu lisoniy shakllardan birini tanlash bo'lib, ushbu harakat shaxslararo munosabatlar doirasida voqelanuvchi qonunlar zimmasiga yuklatilgan bo'ladi. "So'zlovchi ongida mavjud bo'lgan va ko'zlangan kommunikativ maqsadga erishish imkonini beradigan nutqiy tuzilmalar majmuasi ushbu shaxsning pragmatik zahirasi va imkoniyatidir [10].

Nutqiy tuzilmaning xushmuomala yangrashi, tinglovchining shaxsiy obraziga tahdidni oldini olish asosan bilvosita nutqiy aktlar vositasida amalga oshiriladi. Nutqiy aktlarni bilvosita va bevosita guruhlariga

ajratish imkoniyati aynan nutqiy aktlar nazariyasi doirasida vujudga keldi. Agarda D.Gordon va J.Lakoff bu guruhlarga ajratishni faqatgina nutqiy aktlar nazariyasiga tayanib amalga oshirgan bo'lsalar[5], J. Serl bu muammoni yanada kengroq yoritib berdi va bu o'z o'rnida bilvosita nutqiy aktlarni to'g'ridan-to'g'ri muloqot nazariyasi bilan bog'liq bo'lgan muhitga olib kirish imkonini berdi[10].

Semantikasi uning illokutiv kuchiga mos keladigan nutqiy aktlarni bevosita nutqiy aktlar, deb qabul qilish tan olingan. Boshqacha aytganda, lisoniy tuzilishida ifodalangan ma'nosi kommunikativ mazmuniga mos keluvchi nutqiy tuzilmalar bevosita nutqiy aktlar hisoblanadi[2].

Bilvosita nutqiy aktlarning shakl va pragmatik mazmuni orasida ma'lum darajadagi nomutanosiblik kuzatiladi. Bilvosita nutqiy aktlarning illokutiv maqsadi til tizimida yaqqol aks ettirilmagan nutqiy aktlardir. Kommunikativ maqsad botiniy aks ettirilgan nutqiy tuzilmalar bilvosita nutqiy aktlar qatoriga kiradi. J. Serlning bu turdagi nutqiy aktlar to'g'risidagi "Bilvosita nutqiy aktlar" deb nomlangan maxsus tadqiqot ishi mavjud bo'lib, unda barcha nutqiy aktlar konvensional, ya'ni namunali tuzilmalar va nokonvensional nutqiy tuzilmalarga, boshqa nutqiy akt o'rnida aniq muloqot sharoitida qo'llaniladigan, lug'aviy ma'no qomusiy mazmun bilan bog'lanmagan ifodalarga ajratilgan[10]. Muallif o'rganilayotgan hodisaga nisbatan etarlicha chuqur yondashuvni "umumiy semantika" doirasida o'rganishni taklif etadi.

Shu yondashuvga nisbatan ixtilofli fikrlar mavjud bo'lib kelmoqda. Masalan, ispan tilidagi harakatga undovchi omillarni o'rganuvchi X. Xaverkate barcha konvensional nutqiy aktlarni bilvosita iboralar qatoridan olib tashlashni taklif etadi. Uning fikricha, konvensional iboralarining propozitsional qismi adresatdan kutilayotgan harakatgaishora qiladi va shu bilan birgalikda, ushbu ifoda va unga mos keluvchi imperativ shakl orasida yaqqol o'xshashlik vujudga keladi[4].

Lisoniy birliklarni o'zlarining pragmatik vazifalariga xos bo'lmagan tarzda ishlatish, ya'ni pragmatik transpozitsiya tushunchasini qo'llaydigan, til hodisalarining kommunikativ pragmatik yo'nalishini o'rganuvchi tadqiqotchilar bilvosita nutqiy tuzilmalar tarkibidan barcha konvensional iboralar yoki ularning bir qismini (*Vas a...?* turdagi iltimos namunalarini) olib tashlashni ma'qul ko'radilar.

Van ustedes á hacermeun favor[13].

Shunga aynan teskari nuqtai nazarni olg'a surgan J.Grin bilvosita nutqiy aktlar tarkibidan voqelanishida maxsus muloqot sharoitini taqozo etadigan luqmalarni olib tashlashni taklif etadi. Bu kabi tuzilmalar ba'zi holatlarda ular boshqa illokutiv maqsadni ro'yobga chiqarishga mo'jallangan ta'sirni o'tkazishi mumkin. "Nace mucho frio aqui" kabi luqmalar ba'zi paytlarda oddiy buyruqning ta'sir kuchiga ega bo'lganligi tufayli, ularni "buyruq" deb atashimiz, xuddi kechasi uyqu bermaganligi tufayli "koka kola"ni "qahva" deb nomlashimiz bilan tengdir. Bular shunchaki har xil narsalardir ..."[5].

Boshqa bir ingliz tilshunos olimi G.Lich esa bilvosita nutqiy aktlarni luqmalar strategiyasi deb nomlangan maxsus nutqiy strategiya sifatida qarab chiqish fikrini olg'a suradi [7]. Bu strategiya shundan iboratki, ifoda topgan illokutiv akt boshqa bir illokutiv aktning ro'yobga chiqarishda yordamchilik vazifasini bajaradi. Bunday bilvosita nutqiy aktlarning samaradorligi relevantlik prinsipi ta'siriga asoslangan. Bunda tinglovchi mavjud nutqiy aktning keyingi nutqiy illokutiv aktga "zamin yasaydigan" birlamchi ilokutsiya sifatida qabul qiladi. Bilvosita nutqiy aktlarni konvensional va nokonvensional guruhlarga ajratilishini yanada rivojlantirish maqsadida Pospelova batafsil tasnifni taklif etdi va bu ikki nutqiy akt guruhlari orasida monointensional (bir maqsadli) qoliplar va ikki turdagi poliintensional (ko'p maqsadli) bilvosita nutqiy tuzilmalarni: modellashgan, tarkibiy va implikativlarga ajratdi[1]. Sanab o'tilgan turlardan faqat oxirgisi namunaviy yoki konvensional hisoblanmaydi.

Monointensionallarga shakliy jihatdan to'g'ri keladigan nutqiy akt bilan asl aloqani yuqotgan namunali tuzilmalar, ya'ni ma'lum bir sharoitda o'zining asl kommunikativ maqsadiga to'g'ri kelishi bilan ajralib turadigan "dolzarb" nutqiy aktlar [9] shaklida pragmatik omil yaqqol aks etgan, "so'zma so'z" nutqiy aktlarning [10] pragmatik shakli va mazmuni, ya'ni talaffuz etilgan ibora shakl jihatdan nutqiy akt bilan mos kelishi kuzatilmaydi.

¿No vas a comer tu cereal?

¿Quieres alcanzarme ese martillo que está encima de mesa?[11]

Ushbu nutqiy tuzilmalar strategik hisoblanadi, chunki bu shakllar iltimos bilan uzviy bog'langan. Bunday hollarda faqatgina dolzarb nutqiy akt amalga oshiriladi.

Poliintensional nutqiy aktlarga keladigan bo'lsak, ular o'z ichiga bir necha turlarni qamrab oladi:

1. Modellashirilgan, ularda aktual nutqiy aktlar xususiyatlari to'lig'icha aks etgan, so'zma-so'z nutqiy aktlarniki esa qisman:

¿Por qué notrata V. de convencer á D. Simplicio, á que deje esa dieta que se haimpuesto?[8]

Hombre, ¿por qué note vas hacia el correo á ver si encuentras al cartero en elcamino? [3]

((so'roq shaklidagi maslahat)

Ushbu misolda aktual nutqiy aktning pragmatik shakli mavjud, chunki maslahat ma'nosidagi iboralar ko'pincha shu qolipda yasaladi.

2. Tarkibiynutqiy aktlarda tub pragmatik shakl bilan birgalikda aktual pragmatik shakl ham namoyon bo'ladi, pragmatik mazmun esa faqat – birlamchi ma'noda aks etadi.

¿Puedo decirle que estas equivocado (no estas de acuerdo)?[3]

(haqiqatni tasdiqlash eksplitsit ifodalangan performativ fe'l bilan so'roq shaklidagi nutqiy tuzilma orqali berilgan).

SHunisi qiziqki, tarkibiy bilvosita nutqiy tuzilma va unga shaklan mos keluvchi bevosita ifodalangan nutqiy aktlarningprosodikasida (talaffuzida) farqlanish kuzatiladi; modal fe'llar yordamida ifodalanganbilvosita nutqiy tuzilma kuchsiz urg'u olsa, illokutiv intensiya bevosita aks ettirilgan nutqiytuzilmalarda kuchli urg'u kuzatiladi.

Nokonvensional iboralarni muallif poliintensionallar guruhiga qo'shadi va ularni implikativ bilvosita nutqiy tuzilmalar deb nomlaydi. Ular ko'p jihatdan kontekstga bog'langan bo'ladi. Bu nutqiy aktlarda tub pragmatik shakl, aktual pragmatik mazmunni aks ettirgan bo'ladi. Biroq ushbu kontekstda tub shakl ikkinchi darajali bo'lib kelayotgandek go'yo.

Lo que quiero saber, hijo – alzó la voz -, es qué hace esta señorita en mi casa – el viejo quedó mirando al suelo[12].

Que hace esta señorita en mi casa? – ketish to'g'risidagi qo'pol tusli buyruqning bilvosita ifodalanishi bo'lib, ushbu nutqiy tuzilmani o'zbek tiliga qayta yaratish jarayonida uning illokutiv kuchini saqlab qolish niyatida quyidagicha tarjima qilamiz:

Bu xonim mening uyimda nimasini yo'qotib qo'yibti?

Adresat ushbu nutqiy tuzilmaning intensiyasi uning nimani yuqotganini bilish emas, yoki balki ketish tug'risida buyruq yoki haydash ekanligini fahmlashi uchun ushbu imlikatura (muloqot maqsadining yashirin ifodalanishi) faqatgina quyidagi hollarda qo'llanilishga haqli:

1. so'zlovchi hamkorlik prinsiplariga amal qilganda;

2. so'zlovchi tomonidan yaratilgan implikat mavzuga oidlik tamoyiliga asoslanganda;

3. so'zlovchi tinglovchining aytilgan fikrini to'g'ri fahmlay olish qobiliyatiga ishongan tarzda, bildirilgan fikrda

Yuqoridagi keltirilgan nutqiy tuzilmaning birlamchi intensiyasini to'g'ri tushungan Antonioning javobi ham bilvosita yangradi:

-¡Claro, viejo! Esos no son modos de tratar a una invitada[12].

Agarda u otasining fe'l atvorini bilmaganda, yoki mehmonning oldida uni nimaga kelganligini so'rash odobsizlik ekanligidan xabardor bo'lmaganda yoki nutqiy akt bevosita deb qabul qilinganda, javob ham boshqacha bo'lgan bo'lar edi, ya'ni Annaning tashrifidan ko'zlangan maqsad bayon etilgan bo'lar edi. Zero, Antonio otasining bu haqda bilishini va bu tashrif uning g'ashini keltirishini biladi va otasiga o'z maslahatini implikativ ravishda ifodalaydi. Bu turdagi implikativ nutqiy aktlar ko'pincha iboraning tejamkorligi va ixchamligini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan tasnif konvensional nutqiy aktlarni ishlatilishda maxsus sharoitni taqozo etadigan nokonvensional nutqiy aktlarga qarama qarshi qo'yishga asoslangan.

Bilvosita nutqiy aktlarning farqlanishi, shuningdek, bir xil turdagi va har xil turdagi bilvosita iboralarni chegaralash orqali bajarilishi mumkin. A. G. Pospelova ham nutqiy aktlarni shu ikki turga ajratadi[1]. Bir xil turdagilarga nutqiy aktlar qatoriga ikkita quyi sinfnig shakli va pragmatik mazmunini birlashtirganlar kiradi:

Has visto Susana? – Ella esta en su dormitorio [14].

Ushbu nutqiy tuzilmada aniqlashtiruvchi savol dolzarb hisoblanadi, chunki u javob replikasi bilan tasdiqlangan. Demak, so'zlovchi tinglovchidan Suzanani ko'rgan yoki ko'rmaganligini emas, balki uning qaerdaligi bilmoqchi ekanligi javob replikasidan ko'rinib turibdi. Agar ushbu nutqiy tuzilma bevosita ifodalanganda: "*¿Dónde esta Susana?*" tarzida ifodalangan bo'lar edi yoki tinglovchi tomonidan bevosita nutqiy akt deb tushunilganda javob: "*No he visto*" yoki "*¡Sí, la he visto por la mañana*" tarzida yangragan bo'lar edi.

Murakkab bilvosita nutqiy tuzilmalarga ikkita har xil turdagi nutqiy aktlarning pragmatik shakl va mazmuni birlashadigan nutqiy aktlar kiradi. Masalan quyidagi nutqiy tuzilmada ekspressivning shaklan so'roqqa ko'chishini kuzatishimiz mumkin.

¿Puedo agradecerle para influir algo con sus amigos políticos? Se lo agradeceré mucho[13].

Ko'rinib turganidek, hurmat tamoyillariga asoslangan nutqiy aktlarning til tizimida aks topishi turli tilshunos olimlar tomonidan turlicha tavsiflangan. Bu fikrlarning ba'zilari bir biriga teskari bo'lsa, boshqalari o'zaro mos keladi va mulohazalarning turli tumanligi, o'z navbatida, nutqiy aktlar nazariyasining yanada rivojlanib, har tomonlama tahlil etilishi ehtiyojini keltirib chiqaradi. Tadqiqot davomida murojaat etilgan

ob'ektlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xushmuomala ifodalangan bilvosita nutqiy aktlarni matndan yoki kontekstdan uzgan holda to'g'ri talqin qilishning iloji bo'lmaganidek, implitsit ifodalanishda ham bir qator ko'rsatilgan qoida va tamoyillarga amal qilishga to'g'ri keladi.

Adabiyotlar

1. Пospelova A.Г. Косвенные высказывания// Спорные вопросы английской грамматики. – Л., 1988. – 187p.
2. Safarov Sh.S. Pragmalingvistika. – T.: "O'zbekiston milliy enciklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 285 b.
3. Escamilla P.Se suplica el coche.– Madrid: Enrique Arregui, 2006. – 298 p.
4. Haverkate H.La cortesía verbal. Estudio pragmalingüístico. – Madrid: Gredos, 1994. – 266 b.
5. Gordon D., Lakoff G. Conversational postulates. // Syntax and semantics. Vol. 3. Speech Acts. – N.Y., 1975.– 158 p.
6. Green G. How to get people to do things with words: the imperative question. In: Syntax and Semantics. Speech Acts. –New York: Academic Press, 1975. – 211 p.
7. Leech G. Politeness: Is there an East-West Divide? In: Journal of Foreign Languages, Shanghai, 2005. . –311 p.
8. Licenciado V.El tutor y la pupila: juguete cómico-lírico en un acto y en prosa.–Sevilla: F. Alvarez, 2006. – 138 p.
9. Lyons J. Semantics, vol. 1 and 2. –Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – 897 p.
- 10.Searle J. P. Expression and meaning. Studies in the theory of Speech Acts. – Cambridge: Cambridge Univ. Press, 1979. –158 p.
- 11.Searle J.R. Indirect speech acts // Syntax and semantics.Vol. 3: Speech acts.– New York, 1975. – 265 p.
- 12.Ulloa E.E. El viaje sacrilego. – Spain: Universidad de Alcalá, 2001. –179 p.
13. Valera J.Juanita la Larga. –Madrid: Librería de Fernando Fé, 2006. – 283 p.
14. Vital A.La marquesita. – Madrid: R. Velasco, 2006. – 145 p.

UDK 81.362:811.112.1

KAUZATIVLIKNING MAKROMATNDA IFODALANISHI

B. N. Turniyazov

*Samarqand davlat chet tillar instituti
behzod@samdchti.uz*

Annotatsiya. Mazkur maqolada kauzativlikning makromatnda ifodalanishi yoritiladi. Kauzal matnlar bir komponentli va ko'p komponentli kabi turlarga bo'lib tahlil qilinadi. Ammo bir komponentlilikni nisbiy tushunmoq darkor. Masalan, kauzal matn bir komponentli bo'lib shakllangandek ko'rinsa-da, aslida vaziyat buni taqozo etmaydi. Zotan, kauzativ jarayon X (kauzator) – Y (kauzant) – Z (konsekvent – semantik xulosa) tarzida voqelanar ekan, unda doim ko'pkomponentlilik alomati kuzatiladi. Jumladan, buyruq ko'rinishidagi bir so'zli kauzativ matnlar tuslangan formada qo'llangani uchun, kauzativ vaziyatda binarlik alomatlari borligi izoh talab qilmaydi. O'z navbatida, kauzativ jarayonda ishtirok etayotgan shaxs kausatsiya kauzatori tomonidan kausatsiyalanayotganini ham inkor etib bo'lmaydi. Shuning uchun bunday ko'rinishdagi matnlarni shartli ravishda bir komponentli deb izohlaymiz. Katta hajmli kauzativ matnlarda kauzatorning qo'zg'ash faoliyati mazmunan butun matnni qamrab olganligi uchun bunday vaziyatni makrokausatsiya deb ataymiz.

Kalit so'zlar: mikromatn, makromatn, kauzator, kauzant, konsekvent, kauzal bo'g'im, kauzativ kompleks.

Выражение кавзативности в макротексте

Аннотация. В данной статье описывается выражение кавзативности в макротексте. Кавзативные тексты анализируются путем деления на однокомпонентные и многокомпонентные типы. Но однокомпонентный кавзативный текст надо понимать относительно. Например, хотя кавзативный текст может показаться однокомпонентным, на самом деле выступает иная ситуация. Так как, кавзативация выражается в форме X (каузатор)–Y (каузант)–Z (консеквент-семантический вывод), в ней всегда присутствует признак многокомпонентности. Например, в кавзативных текстах, сформированных из одного слова в повелительном наклонении, всегда бывают бинарные качество. Однако нельзя отрицать, что лицо, участвующий в кавзативном процессе, в свою очередь, кавзируется кавзатором. Поэтому мы интерпретируем этот тип текста как однокомпонентный текст. В больших кавзальных текстах такая ситуация называется макрокаузативностью, потому что кавзативное действие охватывает весь текст.

Ключевые слова: микротекст, макротекст, кавзатор, кавзант, konsekvent, кавзальная связка, кавзативный комплекс.

Expression of causativity in macrotext

Abstract. This article highlights the expression of causality in macrotext. Causal texts are analyzed by dividing into one-component and multi-component types. But a one-component causal text needs a relative understanding. For example, while causal text may seem to be one-component, in real there is another situation. Because of the causative process forms with X(causer) – Y (causae) – Z (consequent - semantic conclusion), there is always a sign of multicomponent. For instance, in causative texts form from only one word in an imperative mood, there is always binary feature. However, it can't be denied that the person participating in the causative process, in turn, is being caused by causator. Therefore, we interpret this type of text as one-component text. In large causal texts, this situation is called macro-causation, because the causative action of the causator covers the whole text.

Keywords: microtext, macrotext, causer, causae, consequent, causal link, causative complex.

Kauzativlikning makromatnda voqelanishi to'g'risida mulohaza yuritishdan avval tilshunoslikda matn muammosining o'rganilishi holati xususida qisqacha to'xtalmoqchimiz. Kauzativlik tushunchasi avvalgi ishimizda yoritib o'tilgan edi (Turniyazov B.N. Morfologik kauzatsiya haqida//SamDU Ilmiy axborotnomasi, 2019, №4 (116), 13-20-betlar).

«Tekst» termini lotincha «textus» so'zidan olingan bo'lib, «tutashish», «birikuv» kabi ma'nolarni anglatadi. Tekstda biror bir moddiy manbada qayd etilgan inson fikri o'z ifodasini topadi [4//elektron manba]. O'zbek tilida biz bu o'rinda «matn» terminidan foydalanamiz. Arab tilidan o'zlashgan mazkur so'z (متن) aslida «taxta (doska)» ma'nosini beradi. Ushbu so'z dastlab muqaddas hadislarda qo'llangan bo'lib, u muborak payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning so'zlari hamda amallarini ifodalashda ishlatilgan [3//elektron manba]. A.Hojiyevning «Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati» da matn yonma-yon harflar, yozuv orqali aks ettirilgan nutq, umuman, nutq parchasi, deb izohlangan [2,61]. Keltirib o'tilgan fikrlarga va F.de Sossyurning «til va nutq dixotomiyasi» ta'limotiga tayangan holda, biz matnga quyidagicha ta'rif beramiz: «Semiotik belgilarining nutqda faollashuvidan tarkib topib, insonning o'zaro bog'lanishli fikrlarini ifodalashga hamda ma'lum xabarni berishga xizmat qiluvchi sintaktik va semantik rejada shakllangan tarkibiy qismlar majmuyi yoki ayrim bir tarkibiy qism matn deyiladi».

Bu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish kerakki, semiotik belgilarining nutqda faollashuvi deganda, biz tildan tashqari aloqa vositalari belgilarining aktuallashuvini ham nazarda tutmoqdamiz. Masalan, qadimgi piktografik yozuvlar va zamonaviy yo'l harakati qoidalari kabilarning belgilari ham matn hisoblanib, ularning ba'zilar fikr ifodalashga, ba'zilar axborot yetkazishga xizmat qiladi. Ular elementlar majmuyidan yoki ayrim elementdan iborat bo'lishi mumkin. Elementlar majmuyi deganda, ko'p tarkibli, ayrim element deganda, bir tarkibli matnlarni tushunamiz. Shunga ko'ra, ularni mikro- va makromatnlarga bo'lib tadqiq etamiz. Shu bois, matnni faqat til belgilarini taqozo etuvchi morfema va so'zlarga tayangan yozuvlar orqali aks etadi, deb tushunmaslik kerak. Zero, mazkur yozuvlar ixtiro etilguniga qadar ham matn mavjud bo'lgan. Davrlar o'tib, yozuv takomillashgandan sari, u orqali ifodalangan fikrlar matn deb talqin qilina boshlandi. Aslida, matn doim yozuv bilan emas, balki og'zaki nutq tarzida ham namoyon bo'lishi mumkin. Jumladan, muqaddas kitoblar matni payg'ambarlarga yozilgan holda tushmagan. Yoki yirik hajmli doston matnlarini baxshilarimiz o'qib berishmagan. Ushbu matnlar yoddan aytilgan. Ana shularga asoslanib, matnning og'zaki hamda yozma turlari mavjudligi haqida xulosa chiqara olamiz va bu xususda quyidagi mulohazaning keltirilishi o'rinli deb bilamiz: «Tilshunoslikda, - deb yozadi D.S.Pavlova o'zining «Зависимость ядра семантической структуры устного спонтанного текста от гендера говорящего» nomli maqolasida, - og'zaki nutq matnmi yoki matn emasmi, degan munozaralarga ko'p duch kelamiz. Biz esa muayyan holatda o'z-o'zidan paydo bo'lgan og'zaki monologik nutqni ham matn deb hisoblanishi tarafdorimiz»[25,34-37]. Demak, og'zaki matnlar avval aytilib, keyin qog'ozga tushirilar ekan. M.V.Lyapon ta'biri bilan aytganda, matn – bu so'zlovchining faol nutqiy faoliyati mahsulidir[20,5].

Fonografik yozuvlar asosidagi matnlar ham bir tarkibli va ko'p tarkibli turlarga bo'linishi mumkin. Masalan, matn bir so'zdan iborat bo'lsa, bir komponentli, so'z birikmasi, gap yoki murakkab sintaktik qurilmadan tashkil topsa, ko'p komponentli bo'ladi. Jumladan, bir so'zdan tashkil topgan maxsus qo'llanishli «Sohil», «O'qituvchi», «Ona» kabi san'at asarlarining nomlari bir komponentli matn hisoblanadi. «Bizning qishloq», «Chimyon tog'i bag'rida», «Seni Vatan kutadi» kabi so'z birikmasi va gap ko'rinishidagi matnlar ham asar nomlarini taqozo etib, ikki va uch tarkibiy qismni tashkil etadi[7,21]. Ammo maxsus qo'llanishli so'zlar matn bo'la olmaydi, degan e'tirozli fikrlar ham uchraydi. Masalan, M.Yo'ldoshevning «Badiiy matn lingvopoetikasi» nomli monografiyasida quyidagi jumalarni o'qiymiz: «Bularni matn deb atash qay darajada o'zini oqlaydi? Ular, shunchaki, bir asarning nomi, xolos, matn o'z nomi bilan gapdan yirik bo'lgan hodisa. Matnni bir so'zdan yoki so'z birikmasidan iborat bo'ladi deb

o'ylash nazariy jihatdan to'g'ri emas, chunki mazkur holatdagi so'z yoki so'z birikmasining maqomi atov gapdir. *Bahor* atov gapi undan keyin keladigan asosiy gap, masalan, *Hamma yoqda gullar ochilgan* tarzidagi gapsiz ma'noga ega bo'lolmaydi. Zotan, atov gap asosiy gapning ta'kidlangan temasidir. Binobarin, atov gap minimal matn tushunchasidan tashqaridir»[12,80].

Darhaqiqat, M.Yo'ldoshev to'g'ri ta'kidlaganidek, atov gap minimal matn tushunchasidan tashqaridir, chunki atov gap hech qachon matn maqomida bo'lmaydi. Negaki, atov gap o'zining izohlovchi qismi bilan birgalikdagina muayyan matn parchasining muchasi hisoblanadi. Ammo M.Yo'ldoshev bir komponentli matnlarga keltirilgan misollarni atov gap sifatida talqin etib, yanglish xulosalarga keladi. «Matnni bir so'zdan yoki so'z birikmasidan iborat bo'ladi deb o'ylash nazariy jihatdan to'g'ri emas», - degan fikrga kelishdan avval, tilshunoslikda bu xususda amalga oshirilgan ilmiy ishlar natijalarini chuqurroq mushohada qilib ko'rishga to'g'ri keladi. Nazarimizda, M.Yo'ldoshev so'zlovchining voqelikka bo'lgan munosabatini anglatuvchi predikativlik tushunchasini e'tiborga olmagan ko'rinadi. Zero, bir komponentli matn maqomidagi mustaqil so'zning qo'llanish o'rni ham muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqacha aytganda, matn mavqeyiga erishgan so'z nominativ-kommunikativ birlik ma'nosida qo'llanmog'i lozim. Masalan, badiiy asarda jamiyatning «bemorligi» nazarda tutilib, «Bemor» deb nomlangan bo'lsa, mazkur so'zning real voqelikka munosabat bildirayotganini hamda uning mazmunini salmog'i matnga tenglashganini inkor etish qiyin[11,12]. Jumladan, bu xususda bildirilgan Y.S.Maslovning mulohazasi diqqatga sazovordir: «*«Tekst» termini nafaqat yozma manbani, balki biror kishi tomonidan yaratilgan turli shakldagi og'zaki ijod namunasini ham anglatadi. U bir so'zdan, hikoyadan, poemadan, yirik hajmli kitobdan iborat bo'lishi mumkin»*[21,11].

Yuqoridagilardan tashqari, matn maqomiga alohida ma'no kasb etuvchi yolg'iz fonema ham ega bo'lishi mumkin. Bunga avtobus bekatlarida, metroga kirishda qo'llaniladigan «A», «M» belgilari misol bo'la oladi, zotan, mazkur belgilarning bunday vaziyatda yaxlit mazmuniy ifodaga ega bo'lishi izoh talab qilmaydi[8,35]. Bu xususda aytilgan akademik Y.M.Lotmanning fikrini o'rinli deb bilamiz: «...simvol ifoda jihatidan ham, mazmun jihatidan ham biror bir matnni anglatib keladi»[19,44-52].

Ta'kidlash kerakki, oddiy bir grafema matn maqomida kelganda, u o'zini-o'zi tashkil eta oladi va bunga loyiq energiyaga ega bo'ladi[23,14]. Shunday ekan, matnni faqat gap hamda MSQlarning (murakkab sintaktik qurilmalarning) sintaktik munosabatidan tashkil topgan butunlik (gapdan yirik bo'lgan hodisa) deb tushunish nuqsonli xulosadir.

Biz tilshunoslikda math xususida bildirilgan ayrim mulohazalar to'g'risida to'xtaldik, xolos. Zero, bizning maqsadimiz matnning o'rganilishi holatini to'liq tahlil qilishdan iborat emas. Tadqiqotimizda kauzativlikning makromatnda ifodalanishini yoritib o'tmoqchimiz.

Yuqorida eslatib o'tganimiz singari, kauzal matnlar ham bir komponentli va ko'p komponentli kabi turlarga bo'lib tahlil qilinadi. Ammo bir komponentlilikni nisbiy tushunmoq darkor. Masalan, kauzal matn bir komponentli bo'lib shakllangandek ko'rinsa-da, aslida vaziyat buni taqozo etmaydi. Zotan, kauzativ jarayon X (kauzator) – Y (kauzant) – Z (konsekvant – semantik xulosa) tarzida voqelanar ekan, unda doim ko'pkomponentlilik alomati kuzatiladi. Jumladan, Hamza Niyoziy she'rlaridan birining nomi «Uyg'on» bo'lib, u shaklan bir komponentli matnga teng. Ammo unda direktiv kauzatsiya amalga oshayotganligi bois, «Sen uyg'on» tarzidagi kauzativatsiyani tushunamiz. Bundan tashqari, fe'ldan iborat bo'lgan buyruq ko'rinishidagi bir so'zli kauzativ matnlar tushangan formada qo'llangani uchun, kauzativ vaziyatda binarlik alomatlar mavjudligi izoh talab qilmaydi. O'z navbatida, kauzativ vaziyatda ishtirok etayotgan shaxs kauzativ vaziyat kauzatori tomonidan kauzatsiyalanayotganini ham inkor etib bo'lmaydi. Shuning uchun bunday ko'rinishdagi matnlarni shartli ravishda bir komponentli deb izohlaymiz. Ikki yoki uch komponentli kauzativ matnlar jumlasiga «Yig'la, Turkiston», «Qalbingga quloq sol» kabi asar nomlarini kiritishimiz mumkin.

Ta'kidlash joizki, asar nomlarini ifodalab kelayotgan kauzativ matnlar avval tahlil qilingan MSQ tarzidagi mikromatnlardan hajman kichik bo'lsa-da, ularning nufuzi, yaxlit mustaqil matnni ifodalashiga ko'ra, komponentlari bir necha so'zdan iborat bo'lgan MSQ tarzidagi matnlardan baland bo'ladi. Shunga ko'ra, ular semantik planda makromatn maqomida turadi. MSQlar shaklan katta bo'lishiga qaramay, muayyan matn muchasi hisoblanadi. Shuning uchun ham ularni matn ichidagi mikromatn sifatida tahlil qilamiz:

Oллоh ko'ngilga joylag'on niyatlarni ado etmak lozim. Niyatni ham O'zi ardoqlag'on bandalariga ravo ko'radur... Necha yildirki, Xitoyga safar qilmak niyatidasen. Valiahd shahzoda Muhammad Sultonni atay Mo'g'uliston sarhadiga yubordingki, toki qal'ani mustahkamlasun, deb (M.Ali. Ulug' saltanat. To'rtinchi kitob).

Berilgan abzas shaklidagi makromatn tarkibiy qimlari uchta sodda gapni (dekauzativli qurilmalarni) va bitta tobe komponentli murakkab sintaktik kauzativli qurilmani tashkil etadi. Ushbu kauzativ

qurilmaning tub strukturasi yaqin o'tgan zamon II shaxs birlikda tushlangan analitik kauzatemalar formasidan iborat. Bunda kauzator tomonidan amalga oshirilayotgan kauzatsiyada kauzantning ma'lum bir obyektga yo'naltirilishi o'z ifodasini topmoqda. O'z navbatida, MSQning tobe qismida derivatemaga asoslangan kauzatemalar (*mustahkam+la+sun*) yo'naltirish harakatining nima maqsadda amalga oshayotganini izohlab kelmoqda. Kauzal harakatning nima maqsadda amalga oshayotgani faqatgina kauzatemalar orqali yuzaga chiqmaydi, albatta. Ushbu ma'noning ifodasida sintaktik operatorlarning ham (*toki, deb*) ahamiyati katta.

Mavjud tobe komponentli kauzativli MSQning o'zi alohida olinganda mikromatnlik maqomini yo'qotmaydi. Biroq u o'zi birikib kelayotgan butun matnga kauzativlik tusini bera olmaydi. She'riy asar sarlavhasi bo'lib shakllangan bir tarkibli kauzal matnlar esa o'zi nomlab kelayotgan asarning (makromatnning) bayon qismini ham kauzativ bo'lishini ta'minlay oladi. Masalan, yuqorida tilga olingan «Uyg'on» sheridan parcha keltiramiz:

*Uyg'on, uyg'onmoq davrida Turkiston,
Yasha Turkiston, omon, omon, omon!
Yashasun maktab, shogirdlar o'qisun,
Eski turmushlar, vahshatlar yo'qolsun!
Er-u qizlardan yetishib xodimlar,
Elga haqiqiy maorif tarqatsun!*

Bu maxsus qo'llanayotgan bir so'zdan iborat bo'lgan kauzal matnning mavqeyi kauzativ MSQdan baland ekanligidan dalolat beradi. Nasriy asar nomi kauzal matn bo'lib kelganda («Shoshma, quyosh»), u asarning bayon qismiga kauzal tus bera olmaydi, biroq uning ma'nosi orqali asarning mantiqiy xulosasi kauzativ ekanligi anglashiladi.

Bir so'zdan, gapdan yoki murakkab sintaktik qurilmadan iborat bo'lgan kauzal matnlar mikroxarakterli bo'ladi. Abzas, paragraf va undan-da katta nutq birliklari makromatn hisoblanadi[9,129]. Mazkur matnlar shakllanishi pog'onali munosabat qonuniyatiga amal qilgani bois, abzas o'zidan kattalariga nisbatan mikromatn mavqeyida turadi. Abzas sintaktik hodisani taqozo etadi. Buning dalilini birdan ortiq mustaqil gaplarning yoki murakkab sintaktik qurilmalarning o'zaro sintaktik munosabati abzas shakllanishiga olib kelishida bevosita kuzatish mumkin[9,136]. Ushbu sanab o'tilgan makromatnlardan faqat abzasgina to'lig'icha kauzativ xarakterli bo'lib voqelanishi mumkin:

*Qalq, ey mardlar o'lkasi, Bobo Turon! Yuksal, ey Turon yeri, tog'lari! To'lqinlan, ey Sayhun va Jayhun! Yasha va yashna ona yer bo'z qirlari! Yovqur arslonlarning tulporlari dupuridan larzaga kel, Alp Er To'nga ot surib o'tgan ona yurt kengliklari!
Qayna va jo'sh Vatanning turnako'z buloqlari, billur chashmalari!
Yaproq yoz, chechakka burkan ota yurt bog'lari, gulzorlari!
Ulug' xoqonlarning davridagi shon-shavkatingni tiklaguvchi,*

alpqomat qaddingni rostlaguvchi asl farzanding – Buyuk Amir Temurung – kelayotir! (N.Qobul. Buyuk Turon amiri yoxud aql va qilich)

Darhaqiqat, keltirilgan matndan butun bir abzasning kauzativ rejada shakllana olishining guvohi bo'lamiz. Bu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, mazkur abzas nasriy she'rni taqozo etadi. Demak, kichik hajmli asarlar ham kauzativ ma'noda voqelanishi mumkin, degan xulosaga kelamiz. Zero, havola qilayotgan matnimiz kauzativ abzaslar yig'indisidan tashkil topgan saj' san'ati asosidagi asar namunasi hisoblanadi. Ushbu kauzativ strukturali makromatnning tarkibiy qismi yettita sodda gap ko'rinishidagi kauzativ va bitta dekauzativ qurilmadan iborat.

Kauzativ abzasdan iborat makromatn ham derivativ jihatdan ma'lum bir tayanch strukturaga tayangan holda shakllanadi. Abzasning tayanch strukturasi vazifasini uning tarkibiy qimlaridan biri o'taydi. Jumladan, yuqorida keltirilgan kauzativ abzasning tayanch strukturasi uning birinchi komponenti hisoblanadi. Chunki ma'lum bir obyektga qaratilgan kauzativ harakat ifodasi shu operand asosida voqelana boradi. O'z navbatida, derivatsiya operatsiyasi operatorsiz amalga oshmaydi. Mazkur kauzativ abzasning operatori sifatida *Turon* so'zi faoliyat ko'rsatmoqda. Zero, uning vositasida abzas operandlarining barchasi faollasha boradi. Fikrimizni shu so'z sinonimlarining abzas komponentlarida ketma-ket qo'llangani bilan dalillay olamiz va ushbu matn tarkibiy qismlarining sintaktik munosabati sinonimik vositalarga tayanganini ko'ramiz.

Shuni aytish kerakki, kauzativ abzasning sintaktik derivatsiyasi operatori sifatida *Turon, Vatan, ota yurt, ona yer, o'lka* kabi vositalarning kelishini uning tarkibiy qismlarining turli xil operatorlar yordamida derivativ faollik olishi, deb tushunmaslik kerak. Negaki, sinonimik qator tashkil etayotgan ushbu so'zlar bir tushunchani ifodalashga xizmat qilmoqda. Ammo mazkur makromatnning kauzativ derivatsiyasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, operandlarning *qalq, yuksal, to'lqinlan, yasha, yashna, larzaga kel, qayna, jo'sh, yaproq yoz, burkan* kabi turli xil kauzaoperatorlar yordamida kauzativ ma'no kasb

etayotganini kuzatamiz. Ushbu kauzaoperatorlar kauzator va kauzant munosabatida turli xil kauzativ ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Bunda implitsit belgiga ega bo'lgan kauzatorning bir necha kauzantni faollashtirayotganini va umumiy planda mazkur abzasning faktivlikka tayanayotganini ko'ramiz. Abzasning dekauzativ komponenti esa uning kauzativ komponentlarining sababi sifatida gavdalanmoqda.

Katta hajmli kauzativ matnlarda kauzatorning qo'zg'ash faoliyati mazmunan butun matnni qamrab oladi. Shu bois, mazkur vaziyatni makrokauzatsiya deb ataymiz. Jumladan, yuqoridagi holatda yuz berayotgan kauzatsiyada obyekt tasarrufidagi obyektlar ham bosqichma-bosqich faollashtirilmoqda. Bu, o'z navbatida, I.A.Melchuk asos solgan «mazmun↔matn» modelida ro'yobga chiqadi[22]. Aytaylik, so'zlovchi, ayni paytda kauzator, fikrini tinglovchiga yetkazish yoki kauzal amalni yuzaga chiqarish maqsadida, dastavval, ongida shakllanayotgan freymlar majmuyidan foydalanadi. Bu esa shakllanishi kerak bo'lgan xabar ifodasi komponentlarining o'zaro semantik bog'lanishini taqozo etadi. Zero, har bir shaxs ongida «freymlar» to'plami mavjuddir, ushbu to'plam bilim va idrok faoliyatini ma'lum ko'rinishdagi «andozalar» asosida amalga oshirishni ta'minlaydi[6,41]. Mazkur holatda, ta'kidlanganidek, «mazmundan matnga» qoidasi asosida ish ko'riladi. Boshqacha aytganda, til ma'nolarni mos keladigan matnlarga, berilgan matnlarni esa tegishli ma'nolarga muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

Biz tahlil qilayotgan abzats ko'rinishidagi matn *diktema* bo'lib, u orqali ifodalanayotgan situativ tematika kauzal mazmunni taqozo etadi. Zotan, diktema (*diktema* – lotincha *dico, dixi, dictum* – «gapiryapman, ifoda etyapman») matnning ma'lum situativ mavzusini yoritish uchun xizmat qiladigan elementlar yig'indisidir[16,94]. Ushbu tushuncha tilshunoslikda matnning kommunikativ muchasi sifatida dastlab M.Y.Blox tomonidan talqin etildi hamda matnning elementar birligi tarzida o'rganildi[15,56-67].

Abzas ko'rinishidagi diktema ifodalovchi xususiyatiga ko'ra, birgina gapdan (bir elementdan) yoki bir necha komponentdan (elementlarning semantik va sintaktik birikuvidan) tashkil topishi mumkin. Diktemaning ifodalanuvchi xususiyati esa uning ma'lum bir mavzuni yoritishida ko'rinadi. O'z navbatida, kauzativ diktemalarda sababiyat mavzusi o'z ifodasini topadi. Boshqacha aytganda, kauzallik ma'nosidagi har qanday morfema, so'z, gap yoki sintaktik qurilma ifodalanuvchi tomonini diktemada namoyon qiladi, diktema esa ularni uyushtirgan holda mavzuni ochib beradi[13,19]. Zero, diktema makrosituatsiyani ifodalashga xizmat qiladi. Shunday ekan, har qanday matnni abzaslarga ajratish kichik mavzu asosidagi yangi xabarlarining boshlanishidan darak beradi[1,4].

Shuni aytish kerakki, kauzal matnlarda kauzaoperatorlar kauzativ bo'g'imlarni semantik hamda sintaktik rejada bog'lab turuvchi unsurlar hisoblanadi. Aniqliq, ular kauzativ elementlar o'rtasidagi mantiqiy-sintaktik aloqani ta'minlab beruvchi vositalar vazifasini bajaradi. Kauzativ komponentlar o'rtasidagi ana shunday munosabat jarayonini kauzaderivatsiya deb ataymiz. Buni yuqoridagi misol asosida ko'rib o'tamiz. Qulaylik tug'dirish maqsadida, keltirilgan matnning semantik hamda sintaktik derivatsiyasi tarixini berishni lozim topdik.

Mazmun	Kauzativ					
Matn	Abzas shaklidagi makromatn					
Diktema	Emotsional-pafosli undash					
Nutqiy shakl	Bevosita (to‘g‘ridan to‘g‘ri) voqelanayotgan tashqi kauzativli monolog					
Kauzatsiya	Tashqi					
Kauzal jarayon	Distantli emotiv kauzativ					
Kauzator	Implitsit belgili					
Matn sintaktik operatori	Turon					
Tayanch struktura	Matnning birinchi komponenti					
Kauzaoperatorlar						
qalq	yuksal	to‘lqinlan	asha, yashna	larzaga kel	qayna, jo‘sh	yaproq yoz, burkan
Kauzaoperatorlar bilan semantik va sintaktik valentlik hosil qiluvchi so‘zlar (kauzantlar)						
Turon	yer, tog‘lar	Sayhun va Jayhun	qirlar	kengliklar	buloqlar, chashmalar	bog‘lar, gulzorlar
Sabab	Matnning dekauzativ komponenti					
Oqibat	Matnning kauzaoperatorlari bilan semantik hamda sintaktik valentlik hosil qilayotgan so‘zlardan tashkil topgan kauzal bo‘g‘imlar					

Mazkur matn bevosita (to'g'ridan to'g'ri) voqelanayotgan tashqi kauzativli monologik nutqni ifodalaydi. Ammo bunda lirik hamda agitatsion monologning belgilari uyg'unlashib ketgani ham kuzatiladi. Bevosita (to'g'ridan to'g'ri) voqelanuvchi tashqi kauzativli monolog (*monolog* – grekcha μῶνος «bir» va λόγος «nutq» –so'zlovchining o'ziga – o'zi so'zlagan nutqi bo'lib, ba'zan tinglovchilarga ham murojaat etiladi: *suggestive monologue* – agitatsion monolog) [14,239] o'ziga xos emotsional intensivliklarga ega bo'lgan sintaktik qurilmalar, his-hayajonli bo'yoqdor leksika, qisqa jumlarlar, takrorlarning qo'llanishi bilan monologik nutqning boshqa ko'rinishlaridan keskin ajralib turadi. S.V.Shustova to'g'ri ta'kidlaganidek, hissiy-informativ jihatdan modifikatsiyalangan kauzativlar kauzativlik mazmunini yo to'g'ridan to'g'ri qo'zg'ash orqali, yo qo'zg'ash ta'siri haqida xabar berish orqali namoyon etadi. Kauzativ ma'noning bu tarzda yuzaga chiqishi tilning turli xil vositalari yordamida amalga oshadi[31,107]. Bu kabi matnlarning morfologik xususiyati fe'lning buyruq-istak mayli shaklining II shaxs birlikda qo'llanishi bilan belgilanadi.

Monologik nutqning boshqa ko'rinishlari yoritilayotgan mavzuga daxldor bo'lmaganligi sababli, biz bunda ular haqida to'xtalishni lozim deb topmadik. Bu haqda Y.M.Sergeyevaning «Внутренняя речь: психологический и лингвистические аспекты» nomli monografiyasidan yetarlicha ma'lumot olishimiz mumkin[28,36-47].

Berilayotgan nutq parchasini tashqi kauzativli monolog deb izohlashimizning boisi shundaki, unda kauzatorning mavjud (tashqi) referentlarga nisbatan to'g'ridan to'g'ri qo'zg'ash mazmunidagi murojaati (ta'siri) aks etgan. Agar kauzator ichki kechinmalari og'ushida o'ziga murojaat etib, qo'zg'ash amalini ichki referentga nisbatan qo'llagan bo'lsa, u holda bunday nutqni ichki kauzativli monolog sifatida baholaymiz:

*Gunohingga tavba qilib yig'lab yurg'il,
Ketarman deb, yo'l boshiga borib turg'il,
Ketganlarni ko'rib san ham ibrat olg'il,
Ibrat olsang, yotmish yering bo'lar gulzor...*

(Ahmad Yassaviy. Hikmatlar)

Ushbu kauzal matnda muallifning o'ziga nisbatan amalga oshirayotgan kauzativatsiyasini ko'ramiz. Bunda kauzal bo'g'imlar *yig'lab yurg'il, borib turg'il, ibrat olg'il* tarzidagi analitik kauzatemalarga asoslangan kauzaoperatorlar vositasida hosil bo'lib, sababiyat mazmunini yuzaga chiqarmoqda. Matnning keyingi tarkibiy qismi esa oqibat sifatida voqelanmoqda.

Shuni aytish kerakki, kauzal bo'g'imlar deganda, kauzativ matnlarda o'zidan keyin kelayotgan matn komponenti bilan mantiqiy va sintaktik jihatdan yaxlitlanib, butun matnning kauzativ zanjir ostida birlashishini ta'minlovchi sintaktik jihatdan shakllangan kauzativ butunlikni tushunamiz. O'z navbatida, kauzal bo'g'imlarning shakllanishi kauzaoperatorlarga bog'liq bo'ladi. Keltirilgan matnda -g'il qo'shimchasi shu vazifani o'tamoqda. Shunday ekan, muayyan matn mazmun-mohiyatiga ko'ra, kauzal bo'g'imlarning inkremental munosabatiga tayangan holda kauzativ matn darajasiga erishadi. Jumladan, yuqorida keltirilgan kauzativ matn namunalari ham aynan kauzal bo'g'imlar munosabati ostida makrokauzatsiyani taqozo etmoqda. Buni yanada aniqroq tasavvur qilish uchun makromatn muchalarini qisqartirib ko'ramiz:

Qalq, ey mardlar o'lkasi, Bobo Turon!


Ulug' xoqonlarning davridagi shon-shavkatingni tiklaguvchi,

alpqomat qaddingni rostlaguvchi asl farzanding – Buyuk Amir Temuruing – kelayotir!

Mazkur vaziyatda abzas shaklidagi makromatn voqelanayotgani shubhasiz. Bunda ham kauzativ qurilma bilan dekauzativ qurilma sababiyat mazmunida munosabatga kirishmoqda. Ammo unda makrokauzativ situatsiyani kuzatmaymiz. Bundan tashqari, yolg'iz kelgan kauzativ qurilmaning o'zi kauzativ bo'g'im mavqeyida bo'la olmaydi. Kauzativ qurilmaning kauzal bo'g'im darajasiga erishishi uchun, u katta hajmli kauzal matn muchasi sifatida funksiya bajarishi shart. G.A.Zolotova ta'kidlaganidek, har bir til birligi, shakl va ma'no tushunchalari bilan bir qatorda, funksiya deb atalmish aloqa-munosabat o'rnatuvchi immanent xususiyatga ham egadir[17,108]. Shunday ekan, til birliklarining xarakteristikasi ularning shakli, ma'nosi va funksiyasining o'zaro bog'liqligi bilan belgilanadi.

Ta'kidlash joizki, muayyan kauzal matn his-hayajon va ichki kechinmalarning ifodasi asosida voqelansa, ekstralingvistik jihatdan bunday matnlarni emotiv kauzal matnlar sirasiga kiritamiz. Emotiv kauzal matnlarda kauzal bo'g'imlarning har biri o'z shaxsiy emotsiyasiga ega bo'lib, so'ngra yaxlit intensiya (*intensiya* – lotincha *intentio* – «maqsad, intilish»)[16,122] asosida ish ko'ra boshlaydi. Zotan, intensionallik kauzativ situatsiyani tashkil etuvchi tushuncha sifatida qaraladi. Boshqacha aytganda, mavjud vaziyatda kauzatorning xohish-istagiga qarab ish ko'riladi. Bunda kauzal bo'g'imlar funksional

jihatdan qo'zg'ash amalini bajaribgina qolmay, emotiv matnni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Natijada, «mazmun↔matn» modeliga tayanilgan emotiv kauzativ kompleks tarkib topadi.



Katta hajmli emotiv kauzal matnlarda kauzator kauzantni ma'lum harakatni bajarishga undashi davomida uning o'zi emotiv qurshov doirasida voqe topsa-da, kauzatsiyalanuvchiga emotsiya yuklay olmaydi. Yuklagan taqdirda ham, bu matnning barcha komponentlarida ifoda etmaydi. Buning dalilini yuqorida tahlil qilingan matnlarda ko'rish mumkin. Kauzatorning kauzantni emotiv vaziyatga olib kirishi kichik hajmli kauzativ qurilmalarda kuzatiladi:

–*Sen aqlsiz o'lgur, Kumushni uyaltingansan* (A.Qodiriy. O'tkan kunlar).

Ko'rib turganimizdek, kauzator referentga psixologik jihatdan kauzativ ta'sirni o'tkazishi asnosida, unda uyalish hissin qo'zg'atmoqda.

Ana shu tarzda, makromatnda emotiv kauzallikning voqelanishini ko'ramiz. Emotiv kauzativatsiya xususida rus tilshunosi S.N.Pavlovaning «Функционирование ЭМОТИВНЫХ КАУЗАТИВОВ» nomli nomzodlik dissertatsiyasidan keng ma'lumot olishimiz mumkin[25,34-37].

Ko'rib o'tilgan materiallardan tashqari, matnning kauzativ rejada shakllanishida kauzativlikning direktiv ifodasi ham o'z aksini topadi. Bu farmoyish hujjatlari yoki oddiy so'zlashuv nutqida ham yuzaga chiqishi mumkin:

So'zimni muxtasar etib, muhtaram xonimiz ila imzo chekkanimiz saltanatning ilk farmonlarini o'qurmen. Ma'lumingizdek, amir Murod Barlos Samarqand hokimi etib tayinlansun! Sari Bug'a, Husayn Barlos, Oq Bug'a, Hoji Mahmudshoh, Elchi Bahodir va Davlatshoh baxshilar devonbegi etib tayinlansunlar! ...Barcha o'lka-yu muzofotlarda, qabasa va qishloqlarda masjid-u madrasalar va xonaqolar bo'lishi ta'minlansun! G'arib-u g'urabolar uchun maxsus langarxonalar, bemorlar uchun shifo maskanlari barpo etilsun! Hech bir yerda yangi soliqlar joriy etilmasun! Hokimlik, amirlik, mingboshilik va qozilik lavozimlariga faqat el imtihonidan o'tib, yurt mehrini qozongan qobiliyatli, yuksak insoniylik fazilatiga ega bo'lgan kishilar qo'yulsin! (N.Qobul. Buyuk Turon amiri yoxud aql va qilich)

Berilgan kauzal matnda yuzaga chiqayotgan diktema buyruq ohangidagi undash mazmunini taqozo etadi. Kauzal matnning mazkur mazmunni kasb etishi uni sintaktik hamda semantik planda shakllantiruvchi kauzal bo'g'imlarga asoslanadi. Bunda kauzal bo'g'imlarni bir xil kauzal formadagi grammatik ko'rsatkichga ega bo'lgan kauzatemalar shakllantirmoqda. Shunday ekan, ushbu kauzatemalarni matn sintaktik derivatsiyasining operatori sifatida belgilay olamiz. Buyruq-istak mayli ko'rsatkichi *-sun (-sin)* kauzaoperator sifatida faoliyat yuritmoqda. Umuman, sintaktik butunlikni taqozo etuvchi kauzal bo'g'imlar tartibi matn komponentlarini sintagmatik qatorda voqelanishida asosiy sintaktik vazifani o'taydi. Prof. I.P.Susov ta'kidlaganidek, murakkab sintaktik konstruksiyalarda gaplar tartibi komponentlarning sintaktik munosabatini ta'minlashga xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, gaplar tartibi *konstituent* (iyerarxik sistema uzvlari) maqomida keladi[30, <http://homepages.tversu.ru>].

Tahlilga tortilayotgan kauzal matn passiv kauzativ ko'rinishida bo'lib, kauzativ vaziyatda kauzator to'g'ridan to'g'ri ishtirok etmagan. Aniqrog'i, uning faoliyati distantli faktivni taqozo etadi. Bundan tashqari, kauzatorning birdan ortiq individni kauzatsiyalashini e'tiborga olib, mazkur kauzal jarayonni komitativ deb belgilaymiz. Matnning tayanch strukturasi vazifasini uning birinchi komponenti bajarmoqda. Chunki kauzallikni ifoda etayotgan farmoyish matni abzasning birinchi komponenti zamidida yuzaga chiqmoqda. Mazkur kauzal matnning oxirgi komponenti makrokauzativ situatsiyaning sababi sifatida faoliyat yuritmoqda:

...Hech bir yerda yangi soliqlar joriy etilmasun!→Shu sababli→ Hokimlik, amirlik, mingboshilik va qozilik lavozimlariga faqat el imtihonidan o'tib, yurt mehrini qozongan qobiliyatli, yuksak insoniylik fazilatiga ega bo'lgan kishilar qo'yulsin!

Oddiy soʻzlashuv nutqini taqozo etuvchi direktiv kauzal matnlar maslahat, nasihat berish kabi maʼnolarni ham qurshab olishi mumkin:

–*Ma, bolam, oʻynab kel, barvaqt qayt. Boqqolning maymunidek kim koʻringanda ajuva boʻlib yurma, pochtachining otidek har bir doʻkonning oldida toʻxtab, agʻrayma, qassoblikka kirib qolgan begona itdek koʻringan bilan yoqalashma. Hayitda qandolat bozoriga tushgan qishloqidek badnafs boʻlma, koʻringan narsani olib yeya berma. Ha, shunday boʻlsin, bolam, shunday boʻlsin* (Gʻ.Gʻulom. Shum bola).

Bu kabi direktiv kauzal matnlarda undashning ifoda etilishida *performativ* xususiyatga ega boʻlgan kauzativ feʼllarning qoʻllanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, bunday feʼllar modallik alomatiga ega boʻlib, kauzatorning kauzatsiyalash jarayonidagi fikriga munosabatini bildiradi. Oʻzbek tilida kauzativ feʼllar orqali modallikning yuzaga chiqishi koʻmakchi feʼlli soʻz qoʻshilmalari (analitik kauzatemalar) bilan ifodalanadi. Zero, analitik shakllar feʼlning asosiy modal maʼno hosil qiluvchi shakli boʻlib, ularning koʻpchilik qismini koʻmakchi va toʻliqsiz feʼllar vositasida hosil boʻluvchi shakllar tashkil qiladi [10,152]. Masalan, keltirilgan misolda *oʻynab kel, badnafs boʻlma, yeya berma* kabi analitik kauzatemalar ishtirok etgan boʻlib, ular orqali nasihat berish maʼnosi anglashilib turadi. Bunda, oʻz navbatida, subyektning reaksiyasiga koʻra nasihat maʼnosini ifodalovchi [5, <https://hozir.org/ozbek-tilida-modallik.html>] «*oʻynab kelish yaxshi*», «*ochkoʻzlik qilish yomon*», «*kishi oʻzini tiyishi kerak*» kabi modal maʼnolar yuzaga chiqayotgani koʻrinib turibdi. Bu esa *performativ* (*performativ* – lotincha *performo* – «faoliyat yurgizmoq») [16,261] kauzatemalar yordamida amalga oshmoqda. *Performativ* feʼllar ogʻzaki muloqot davomida qoʻllanib, nasihat berish, iltimos qilish, ruxsat etish kabi maʼnolarni anglatib keladi.

«*Performativ feʼl*» tushunchasini 1962-yilda taniqli olim Jon Ostin isteʼmolga kiritadi [24,22-129]. Aslida, mazkur tushuncha 1934-yilda E.Koshmider tomonidan «*koinsidensiya*» termini ostida oʻrganilgan edi [18,163].

Umuman, tahlil qilinayotgan matn toʻligʻicha *performativ* distributsiyasi asosida shakllangan boʻlib, unda faqat analitik kauzatemalar emas, balki barcha kauzatemalar ham nasihat berish mazmunini anglatib kelmoqda. Mazkur matnning tayanch strukturasi mavqeyida uning *Ma, bolam, oʻynab kel* shaklidagi kauzativ komponenti kelmoqda, kauzal matn sintaktik derivatsiyasi operatori maqomini esa *bolam* soʻzi bajarmoqda. Ushbu matnda nasihat berish mazmuni bilan aloqador boʻlgan kauzal boʻgʻimlar umumiy situatsiyaning sababi boʻlib kelmoqda. Zero, pragmatik nuqtayi nazardan, nasihat oqibatda yomon hodisalar boʻlishining oldini olish maqsadida, yoshi katta kauzator tomonidan beriladi.

Yuqorida keltirilgan matnlarda kauzativ harakatning distantli ekanligi kuzatilmoqda. Chunki bu vaziyatda kauzatorning kauzantga taʼsir oʻtkazishida, birinchidan, hali kauzatsiya natijasi yuzaga chiqqanicha yoʻq, ikkinchidan, kauzativ amal bajarilgan taqdirda ham, imperativ kauzatsiya sodir boʻladi. Aniqlirogʻi, kauzator individga biror bir amalni bajarishini aytgan, xolos. Agar kauzatorning bevosita taʼsiri oqibatida oʻzgarish sodir boʻlishi kuzatilsa, u holda bunday kauzatsiyani kontaktli deb belgilaymiz:

*Davlatidan adras-kimxob kiydirdi
Kimki gʻanim, xonumonin kuydirdi,
Haqdan kelgan ishga boʻynin iydirdi,
Oʻn ming uyli elatini jiydirdi.
Xabar bordi shunday otlar choptirib,
Namoyishga oq oʻtovlar yoytirib* (Alpomish).

Ushbu matnda kauzativlikning kontaktli koʻrinishi oʻz ifodasini topmoqda. Zero, bunda kauzator kauzantlarga bevosita taʼsir etib, kauzasituatsiyaga olib kirmoqda. Kauzal matn kauzativ uzvlarining derivatsiyasiga asos boʻlayotgan kauzatemalar feʼlning orttirma nisbati *-tir*, *-dir* shakllari koʻrinishidagi kauzaoperatorlar yordamida voqe topmoqda. Shunday ekan, orttirma nisbati qoʻshimchalari kauzaoperator sifatida, doim kontaktli kauzaderivatsiyani voqelantirishga xizmat qiladi hamda referentni kauzasituatsiyada faollashtirishdagi mavqeyi baland boʻladi. Boshqacha aytganda, bunday jarayonda kauzatsiyalangan kauzant albatta rezonatsiyaga uchragan hisoblanadi. Bu kauzal matnda sabab va oqibat tushunchalari uning har bir komponentida oʻz ifodasini topmoqda.

Biz tahlil qilayotgan kauzativ matnlarda faktiv situatsiyalar yoritilayotgan boʻlib, ularda faol kauzatorning funksiyasi kuzatilmoqda. Kauzativ matnlar kauzatsiyaning permissiv turida ham shakllangan boʻlishi mumkin:

*Aka, bugun biz bu jerda turayik,
Erta bilan bir maslahat qilayik,
Toʻqson otga toʻqsonimiz minayik,
Toʻqson sovut yarashiqqa kiyayik,
Erta bilan Boysariga borayik,
Boysarini borib gapga solayik,*

*Barchin qizin o'rtamizg'a ob chiqib,
Saylov bilan birovimiz olayiq! (Alpomish)*


Ko'rib turganimizdek, kauzativlikning mazkur turida kauzant kauzatoridan vaziyatni faollashtirishga, ya'ni o'zini kauzatsiyalashga ruxsat so'ramoqda. Bunda kauzativatsiyaning amalga oshishiga kauzator yo ruxsat berishi, yoki to'sqinlik qilishi kerak bo'ladi. Boshqacha aytganda, permissivlikda kauzal amalning ro'yobga chiqishining asosiy sababchisi kauzatsiyalanishi kerak bo'lgan individ hisoblanadi. Bu vaziyat ham distantli holatda namoyon bo'lmoqda. Matn kauzaderivatsiyasining kauzal bo'g'imlari fe'lining buyruq-istak mayli I shaxs ko'plikdagi formasi bilan ifodalanayotgan kauzaoperatorlarga tayangan holda voqelanmoqda. Matn sintaktik derivatsiyasining tayanch strukturasi bo'lib uning ikkinchi komponenti kelmoqda. *Boysari* so'zi esa sintaktik operator sifatida vazifa bajarmoqda.

Ba'zan nutq vaziyatida kauzativatsiyaning faktiv hamda permissiv turlarining bir matnda voqelanishini kuzatamiz:

*Mard Alpomish og'a, munda kelsang-chi,
Qaldirg'ochning bir so'zi bor ko'rsang-chi,
Erkakman, deb yuribsan jurtingda,
Boshingdagi to'pping menga bersang-chi!
O'z yoringdan qo'rqib yursang Qo'ng'irotda,
Sovutingni men ustima kiyayin,
Chovkar oting men ustiga minayin,
Jonboshima oltin qilich boylayin,
Jigit bo'lib men ham o'tdek jaynayin,
Olqor elga otdi minib jo'nayin,
Oltoychalik Olqor elga borayin,
To'qson alpga men qirg'inni solayin,
Barchin jengam ajratib olayin,
Sen yoringdan qo'rqib yursang bu yerda,
Barchinoydi opkeb sag'an berayin,
Olsang olding Barchindayin jengamdi,
Ayol bo'lsang, seni erga berayin,
Qo'ng'irotda elda podsho bo'lib yotayin (Alpomish).*

Ushbu kauzal matnning kauzaderivativ shakllanishi ikki qismdan iborat bo'lib, uning boshlanish qismida kauzatorning faolligi kuzatiladi. Matnning oltinchi tarkibiy qismidan boshlab, kauzator kauzatsiyalanishi kerak bo'lgan referentga aylanadi. Ayni paytda, kauzaderivativ vaziyatning boshlanish qismidagi faktivlik o'z o'rnini permissivlikka bo'shatib berganligi bois, kauzator va kauzantlarning ham roli almashadi. Bu esa mazkur jarayonda *substitutiv* kauzativatsiya amalga oshganligidan dalolat beradi. Bunda faktivlik fe'lining buyruq-istak mayli II shaxs birlikdagi qo'shimchasi *-gin* vazifasini o'tovchi II shaxsda tuslanayotgan shart mayli formasi *-sa* hamda unga birikib lelayotgan *-chi* yuklamasi ko'rinishidagi kauzaoperatorlar yordamida ifodalanmoqda. Permissivlik esa fe'lining buyruq-istak mayli I shaxs birlik formasidagi kauzaoperator bilan aks etmoqda. Shu bois, kauzaderivatsiyaning mazkur shakli murakkab makrokauzasituatsiyani taqozo etadi. Semantik planda, obyektiv hodisalar ifoda etilayotgan voqelikning ma'lum bir qismi situatsiya deb yuritiladi[29,13]. Makrosituatsiyada esa o'zaro yaxlitlikni tashkil etayotgan kamida ikki propozitsiyaning xarakteristikasi yoritiladi[27,15].

Kauzativlik semantik hodisa bo'lganligi bois, mazkur matnlarda signifikativ situatsiya ustuvor xarakter kasb etadi. Shunday ekan, bu kabi matnlarning mazmuniy mohiyatini semantik uchburchak asosida ko'rishimiz mumkin bo'ladi.



Yuqorida keltirilgan substitutiv makrokauzativatsiyada kauzativlikning ikki xil shaklining yuzaga kelishi, o'z navbatida, matn sintaktik operatorlari vazifasidagi so'zlarning ham o'zgarishiga olib keladi. Masalan, matnning faktivlikka tayangan qismida *Alpomish* so'zi sintaktik operator maqomida kelayotgan

bo'lsa, permissivlik ifodalayotgan komponentida *men* so'zi shu vazifani o'tamoqda. Ammo uning sintaktik jihatdan shakllanishi yagona tayanch struktura zamirida amalga oshmoqda. Bu funktsiyani *Qaldirg'ochning bir so'zi bor ko'rsang-chi* shaklidagi kauzativ qurilma bajarmoqda.

Ana shu tarzda makromatnda kauzativlikning voqelanishini kuzatamiz. Umuman, obyektiv ravishda mavjud bo'lgan sabab va oqibat munosabatlari inson tafakkurida mantiqiylikning sababiyat formasi asosida aks etadi so'ngra tilda lingvistik kauzatsiya vositasi orqali yuzaga chiqadi.

Adabiyotlar

1. Hakimov M.X. O'zbek ilmiy matnining sintagmatik va paradigmatic xususiyatlari//Nomzodlik dis. avtoref.-Toshkent, 1993.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. -Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.
3. https://ru.wikipedia.org/wiki/Исламские_термины (Sahifaga 15.11.2020 da murojlat etildi).
4. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Текст> (Sahifaga 15.11.2020 da murojlat etildi).
5. Qurbonova M., Omonov A. O'zbek tilida modallik. <https://hozir.org/uzbek-tilida-modallik.html> (Sahifaga 29.11.2020 da murojlat etildi).
6. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik.-Jizzax: Sangzor, 2006.
7. Turniyozov N.Q. Matn lingvistikasi.-Samarqand: SamDCHTI, 2004.
8. Turniyozova Sh.N. Hozirgi o'zbek tilida matn shakllanishining derivatsion xususiyatlari. -Toshkent: Extremum-press, 2016.
9. Turniyozova Sh.N. Matn derivatsiyasi//O'zbek tili derivatsion sintaksisi.-Toshkent: Navro'z, 2011.
10. Turniyozov N., Rahimov A. O'zbek tili. I qism.-Samarqand: SamDCHTI, 2006.
11. Xayrullayev X.Z. So'z, so'z birikmasi va gapning predikativlikka munosabati// Nomzodlik diss.avtoref. -Toshkent, 2011.
12. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi.-Toshkent: Fan, 2008.
13. Амагов А.М. Причинно-следственные связи на уровнях языка//Автореф. дис. док. филол. наук. -М.: МПГУ, 2005.
14. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. -М.: Советская энциклопедия, 1969.
15. Блох М.Я. Диктема в уровневой структуре языка//Вопросы языкознания, №4,2000.
16. Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов.-Назрань: Пилигрим, 2010.
17. Золотова Г.А. Грамматика как наука о человеке//Русский язык в научном освещении. №1, 2001.
18. Кошмидер Э. Очерк науки о видах польского глагола. Опыт синтеза//Вопросы глагольного вида/Ред.Ю.С.Маслов.-М.: Изд-во иностр. лит-ры, 1962.
19. Лотман Ю.М. О разграничении лингвистического и литературоведческого понятия структуры// Вопросы языкознания, №3, 1963.
20. Ляпон М.В. Смысловая структура сложного предложения и текст.-М.: Наука,1986.
21. Маслов Ю.С. Введение в языкознание. -М.: Высшая школа, 1998.
22. Мельчук И.А. Опыт теории лингвистических моделей «Смысл↔текст».-М.: Наука, 1974.
23. Мышкина Н.Л. Внутренняя жизнь текста.-Пермь: Изд-во Перм. ун-та, 1998.
24. Остин Дж. Л. Слово как действие//Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVII. -М.,1986.
25. Павлова Д.С. Зависимость ядра семантической структуры устного спонтанного текста от гендера говорящего//Филология в XXI веке: методы, проблемы, идеи. Материалы III Всероссийской научной конференции 19 апреля 2016 года.-Пермь, 2016.
26. Павлова С.Н. Функционирование эмотивных каузативов//Дис. на соискание уч. степени канд. филол. наук. -Пермь, 2019.
27. Прокабв А.В. Семантическая структура предложений с осложнённым предикативностью в современном немецком языке//Автореф. дис. канд. филол. наук.-Самара, 2004.
28. Сергеева Ю.М. Внутренняя речь: психологический и лингвистический аспекты. -М.: Флинта, 2016.
29. Сильницкий Г.Г. Семантические типы ситуаций и семантические классы глаголов//Проблемы структурной лингвистики, 1972. -М.: Наука, 1973.
30. Сусов И.П. Введение в теоретическое языкознание. Модуль 5. Основы общего синтаксиса. Средства выражения синтаксических связей и функций. http://homepages.tversu.ru/~ips/5_02.htm (Sahifaga 25.11.2020 da murojlat etildi).
31. Шустова С.В. Каузативная ситуация//Фундаментальные исследования. Филологические науки, №3, 2000.

УДК 811.512.133

O'ZBEK TILINING SO'Z YASALISHIDA A.G'ULOMOV O'RNI

F.G.Sharipov

Guliston davlat universiteti

sharipovdpr@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada A.G'ulomovning so'z yasashi bilan bog'liq ilmiy qarashlari keltirilgan bo'lib, bu borada boshqa tilshunos olimlar A.N.Kononov, A.Xojiyev Y.Tojiyev, S.F.Anorboyev, Z.Ma'rufov, T.Xo'jaxonovlarning ham fikrlari o'rganilgan. Shuningdek, o'zbek tilidagi so'z yasovchi qo'shimchalarning asosli tahlil etilganligi chet el olimlaridan G.I.Ramstedt, M.Ryasyan, J.Denu, S.Brokelmann, N.Kotvich, A.Zayonchkovskiylar tomonidan ham tasdiqlanganligi masalasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: so'z turkumi, o'zak, negiz, qo'shimcha, ot, sifat, sodda, qo'shma va qisqartma so'zlar.

Роль А. Гулямова в словообразовании узбекского языка

Аннотация. В этой статье приведены научные взгляды А.Гулямова по словообразованию, так же были изучены взгляды учёных-лингвистов А.Н.Кононова, А.Ходжиева, Ё.Тожиева, С.Ф.Анарбоева, З.Маъруфова и Т.Худжанова и их обоснованный анализ словообразовательных суффиксов узбекского языка, так же были подтверждены и зарубежными учёными как Г.И.Рамстедт, М.Рясянен, Ж.Дену, С.Брокелманн, Н.Котвич, А.Зайнчковскими.

Ключевые слова: части речи, корень, основа, окончание, существительное, прилагательное, простые, сложные и краткие слова.

The role of A. Gulyamov in word formation of the uzbek language

Abstract. The article presents the scientific views of A. Gulyamov on word formation, the views of linguists as A. N. Kononov, A. Khodjiev, Y. Todjiev, S. F. Anarboyev, Z. Ma'rufov and T. Khudjanov about the reasonable analysis of Uzbek word forming suffixes have also been studied, and have been confirmed by foreign scientists such as G.I. Ramstedt, M. Ryasyan, J. Denoux, S. Brockelmann, N. Kotvich, A. Zayonchkovsky.

Keywords: word group, stem, base, suffix, noun, adjective, simple, compound and shortened words.

So'z yasashiga oid asosiy ilmiy qarashlarning yuzaga kelishida XX asrning 60-yillarida yaratilgan "Грамматика современного узбекского литературного языка" fundamental asarining yaratilishi ham muhim rol o'ynaganligi ma'lum[7]. Mazkur asarda so'z yasashi tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida ajratilmagan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'zbek tilshunosligida 1955-yildayoq A.G'ulomov so'z yasashi sohasi tilshunoslikning alohida predmeti, bo'limi ekanligini qayd etib o'tganligi kuzatiladi. "Tilning tarixiy grammatikasini yaratishda, ma'lumki, tarixiy so'z yasashini o'rganish katta rol o'ynaydi. Bu mustaqil lingvistik predmet tarixiy leksikologiya uchun ham muhim ahamiyatga ega"[4,5] degan fikrni aytgan va so'z yasashining alohida sath sifatida mavjud ekanligini ta'kidlagan. Biroq 60-yillarda A.N.Kononov so'z yasashini alohida sath sifatida belgilab, unga yondashgan emas. Uning ushbu ishida har bir so'z turkumi tadqiq etilgan o'rinda shu turkum so'zlarining yasashi haqida batafsil ma'lumot berilgan. Bu ishda so'z yasashiga (asosan, turkiy tillarda so'z yasashiga) aloqador adabiyotlar va qarashlarga munosabat bildirilgan. Olim bu tadqiqotida, asosan, XX asrning 40-yillaridan boshlab so'z yasashi muammolari bilan shug'ullangan tilshunoslar: Ozarbayjon tili so'z yasashi bo'yicha M.I.Odilov[9], Turkman tilshunosi P.Azimovning "Turkman tili"[2] ishlariga murojaat qilgan.

N.A.Baskakovning "Qoraqalpoq tili"[4] kabi asarlar bilan birga boshqa chet el olimlaridan G.I.Ramstedt[10], M.Ryasyan, J.Denu, S.Brokelmann, N.Kotvich, A.Zayonchkovskiylarning so'z yasashiga oid ishlariga e'tibor qaratadiki, bu holat 50-yillar atrofida so'z yasashiga doir qarashlarning vujudga kelganligini ko'rsatadi. So'z yasashiga oid yuqoridagi kabi asarlarga to'xtalib o'tishdan maqsad o'zbek tilshunosligida ham bu borada fundamental tadqiqotlar yaratish muhiti shakllanganligini asoslashdan ham iboratdir. Bizning kuzatishlarimiz ko'rsatadiki, XX asrning 20-yillarida A.Fitrat o'zbek tili so'z yasash tizimiga doir o'z fikrlarini aytib o'tgan bo'lsa, o'zbek tilshunosligida, 50-yillar o'rtalariga qadar bu borada jiddiy tadqiqotlar yaratilmagan. Masalan, 1930-yili U.Tursunovning "O'zbek tilida fe'llarning yasashi" (2009) tadqiqoti nashr etilganligi, A.G'ulomovning "-ka affiksi haqida" (1946), "O'zbek tilidagi -la affiksi haqida" (1947), "O'zbek tilida so'z yasash usullari" (1949), "O'zbek tilida

affiksatsiyaning ba'zi masalalari" (1953) nomli ishlarining yaratilganligi, S.A.Akbarovning 1950-yilda himoya qilingan "O'zbek tilida qo'shma fe'llar" nomzodlik dissertatsiyasining yuzaga kelishi[3]; Z.Ma'rufov tomonidan 1940-yilda "Ot yasovchi affikslar" (1940) maqolasining e'lon qilinishi kabi holatni hisobga olmaganda, 30-40-yillar davomida o'zbek tilshunosligida so'z yasalishi borasida, haqiqatan ham, yirik tadqiqotlar yaratilmagan. XX asrning 50-yillaridan boshlab esa, o'zbek tilshunosligida, so'z yasalishi muammolari bilan maxsus shug'ullanishga kirishilgan. Bunga sabab: a) boshqa tilshunosliklarda (turkiy tilshunoslikda ham) so'z yasalishi muammolariga e'tibor kuchayganligi; b) o'zbek tilshunosligida boshqa tilshunosliklarda bu borada qilingan ishlarni o'rganib, ularga munosabat bildira oladigan, mavjud qarashlarni boyitish imkoniyatiga ega bo'lgan iste'dodlar-kadrlarning yetishib chiqqanligi; v) mavzuning o'zbek tilshunosligi uchun ham o'ta dolzarb xarakter kasb etganligidir.

Ana shunday vaziyatda, o'zbek tilshunosligida, XX asrning 50-yillarida so'z yasalishi muammolarini jiddiy tadqiq etishga kirishildi. Bu jarayonni iste'dodli olim A.G'ulomov boshlab berdi, deyish mumkin. So'z yasalishi, so'z yasash usullari masalalari o'ta oddiy tarzda minginchi yillar atrofida ham qayd etilgan, unga umumiy tarzda e'tibor qaratilgan (M.Qoshg'ariy, Beruniy tadqiqotlarida, "Noyob tuhfa" asari kabilar ko'zda tutilyapti). XX asrning 40-yillarigacha bo'lgan davrdagi ishlarda ham aynan, chinakam ilmiy talqinlar kuzatilmaydi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotning o'zi shuni ko'rsatadiki, "So'z yasalishi" juda keng ko'lamda o'rganilgan rus tilshunosligida ham, unga jiddiy ilmiy yondashuv XX asrning 20-30-yillarida yuqori darajada bo'lgan emas. Shunga qaramay, ko'rsatib o'tilgan ayrim tadqiqotlar rus tilshunosligida, boshqa tilshunosliklarda ham bu muammoni ilmiy o'rganishga kirishish muhiti yetilganligini ochiq ko'rsatdi va haqiqatan ham, 50-yillardan boshlab so'z yasalishi borasida yangi-yangi fundamental tadqiqotlar yaratilishiga turtki bo'ldi – manba bo'lib xizmat qildi.

Nihoyat, o'zbek tilshunosligida 1955-yilga kelib "O'zbek tilida tarixiy so'z yasalishi muammolar" fundamental tadqiqoti yuzaga keldi. Shu mavzuda A.G'ulomov Moskvada doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Himoyaga tadqiqotning birinchi affiksatsiya bo'limigina tavsiya etilgan bo'lib, shu qism yuzasidan bajarilgan ish hajmi 700 sahifa atrofida edi. Olimning dissertatsiyasi aslida ikki bo'limdan iborat bo'lgan: 1.Affiksatsiya. 2.So'z qo'shish (slovo-slojenie). Har bir bo'limning o'zi ham ikki qismdan tashkil topgan: 1)affiksatsiya: birinchi qism – otlarni yasovchi affikslar, ikkinchi qism – fe'l yasovchi affikslar; 2) so'z qo'shish: birinchi qism – qo'shma so'zlar; ikkinchi qism - juft so'zlar. Doktorlik dissertatsiyasi sifatida birinchi bo'limning birinchi qismigina tavsiya etilgan bo'lib, unda ot yasovchi affikslar haqida batafsil ma'lumot berilgan. Ishda shuningdek, affiksatsiya vaqtida sodir bo'ladigan fonetik o'zgarishlarga keng to'xtalib o'tilgan. O'zbek tili so'z yasalishi borasidagi ilk ishlarga (U.Tursunov va Z.Ma'rufov ishlari) tanqidiy munosabat bildirib o'tilgan. Afsuski, bu ish kitob sifatida shu kungacha nashr etilmadi. Dissertatsiya esa Moskvada "Lenin" nomidagi kutubxonada mavjud. A.G'ulomov ixtiyoridagi nusxa yo'qolgan bo'lib, hozirgi kunda ayrim olimlar shaxsiy kutubxonalarida (juda kam kishilarda) ishning 50 sahifadan iborat avtoreferatigina saqlangan. Holat shunday bo'lgani sababli, keyingi davr o'zbek tilshunoslarining ko'pchiligi, bu tadqiqotdan bexabar qolmoqda. Hatto, avtoreferat bilan ham tanishish juda mushkuldir. Vaholanki, o'z vaqtida Ilmiy Kengashda (Moskvada) bu tadqiqot haqida dunyoga mashhur yirik olimlar o'zlarining ijobiy fikrlarini bildirib, uni darhol nashr qilishga tavsiya etishgani ma'lum. Bu haqda prof.A.A.Abduazizov "Ayyub G'ulom va o'zbek tilshunosligi" risolasida, shunday fikrni aytadi: "Moskvada Fanlar Akademiyasining tilshunoslik instituti ilmiy kengashida "O'zbek tilida tarixiy so'z yasalish masalalari" mavzusida yoqlangan bu dissertatsiya turkiyshunoslikda, xususan, o'zbek tilshunosligida juda yuksak baho oldi. Bu ishga Fanlar Akademiyasining muxbir a'zosi mashhur turkiyshunos N.K.Dmitriyev ilmiy maslahatchilik qildi. Bundan tashqari ulkan turkiyshunos olimlar – akademiklar A.N.Kononov, V.M.Jirmunskiy, K.K.Yudaxin, muxbir a'zo A.K.Borovkov va boshqalar ham yuksak baho berdilar"[1,1]. Ushbu dissertatsiya tafsilotiga qo'yiroqda alohida e'tibor beriladi, shuning uchun bu o'rinda aytilganlar bilan cheklanamiz. Faqat shuni ta'kidlash joizki, XX asrning 60-yillari arafasida o'zbek olimi tomonidan himoya qilingan birinchi doktorlik dissertatsiyasi o'zbek tilshunosligida so'z yasalishi borasida keng ko'lamli tadqiqotlar boshlab bergan bo'lib, bu yangi tadqiqotlar yaratilishi uchun ilmiy manba bo'lib xizmat qildi.

1957-yili nashr etilgan (F.Kamolov tahririda) "Hozirgi zamon o'zbek tili" kitobida har bir so'z turkumi doirasida so'z yasalishi alohida-alohida holda bayon qilindi. Bu ishda affikslar vositasida yasalgan otlar, qo'shma va qisqartma otlarning yasalishiga, shu tarzda sifat va fe'llarning shunday tuzilishli yasama so'zlari chuqur tahlilga tortilganligi kuzatiladi. 1956-yili Z.Ma'rufov tomonidan nashr etilgan "So'z sostavi. Ot va sifat" monografiyasida bu turkumga oid yangi so'zlarning yasalishi batafsil bayon etildi. O'zbek tilidagi ot va sifat yasovchi barcha affikslarning so'z yasash imkoniyatlariga to'xtalib o'tilgan.

50-yillarning oxirida F.Ubayeva hamda R.Sayfullayeva tomonidan “O‘zbek tilida so‘z yasash usullari” risolasi e‘lon qilindi(1958). Bu ishda ilk bor so‘z yasash usullarini yanada to‘liqroq belgilashga harakat qilinganligi kuzatiladi.

1959-yili S.F.Anorboyev, Z.Ma‘rufov, T.Xo‘jaxonovlar umumiy tahriri bilan A.K.Borovkov muharrirligida “O‘zbekcha-ruscha lug‘at” tuzilgan(1959). Mazkur lug‘at ko‘rinishida eski lug‘atchilik an‘analari asosida tuzilganga o‘xshaydi. Uning ikkinchi qismida “Grammatik ocherk” berilgan va unda ot, sifat, fe‘l turkumlarining yasalishi alohida qayd etilgan. Bu turkum so‘zlarning affiksatsiya hamda kompozitsiya usullarida yasalishiga e‘tibor qaratilgan. Qismning alohida bo‘limida Z.M.Ma‘rufov tomonidan o‘zbek tilidagi deyarli barcha so‘z yasovchi va so‘z o‘zgartiruvchi affikslar va ularning izohli lug‘ati berilgan. Jami 350 taga yaqin, o‘zbek tilida keng qo‘llanayotgan so‘z yasovchi hamda so‘z o‘zgartiruvchi affikslar (fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘z yasovchi affikslar I.A.Kissen tomonidan tuzilishi ta‘minlagan)[6] haqida ma‘lumot berilgan. Bundan tashqari o‘zbek tili bo‘yicha 60-yillardan keyin nashr etilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsliklari (M.Mirzayev va boshqalar; J.Muxtorov va boshqalar tomonidan tuzilgan) hamda 1966-yili nashr etilgan shu nomdagi 2 jildlik darslik va ilmiy grammatikalar yaratilishiga va nihoyat, 70-yillarda yaratilgan va so‘z yasalishi alohida bo‘lim (tilshunoslik sathi) tarzida berilgan o‘zbek tili ilmiy grammatikasi vujudga kelishiga nazariy asos bo‘lgan. O‘zbek tilshunosligida deyarli barcha so‘z yasovchi affikslarning so‘z yasash imkoniyatlari va ma‘no munosabatlari imkon darajasida to‘liq yoritib berilgan “Affikslar ma‘nodoshligi” tadqiqoti[11,12,13] ham bevosita yuqorida qayd etilgan manbalarning davomi tarzida vujudga keldi.

Biroq shuni ham qayd etish kerakki, o‘zbek tilshunosligida 80-yillar oxiriga qadar so‘z yasalishi muammolarini to‘la yoritishga bag‘ishlangan maxsus asar yaratilmadi. Faqat 1989-yili akademik A.Xojiyev tomonidan shunday bir qo‘llanma nashr etildi, xolos[14]. Keyinchalik shu muallif tomonidan 2007-yili “O‘zbek tili so‘z yasalishi tizimi” qo‘llanmasi qayta ishlangan holda nashr etildi(2007). O‘zbek tilshunosligida bu borada boshqa maxsus asar yoki qo‘llanma nashr etilmadi. Shunga qaramay, “O‘zbek tili grammatikasi”(1975) hamda qayd etilgan qo‘llanma, affikslar ma‘nodoshligi borasida yaratilgan monografiyalar (Y.Tojiyev monografiyalari) o‘zbek tilshunosligida so‘z yasalishiga oid asosiy ilmiy qarashlarning shakllanishi uchun muhim ilmiy manba bo‘ldi. Bu esa, ayniqsa, o‘zbek tilshunosligida “So‘z yasalishi” alohida sath sifatida ajratilishida, so‘z yasash usullari borasidagi, ichki va tashqi yasash, so‘z yasalishiga sinxron-diachron yondashish, so‘z yasash to‘plari, modellari, qoliplari, so‘z yasalishi tizimiga oid tayanch tushunchalar (yasovchi asos, yasovchi vosita, yasalma, yasalma so‘z ma‘nosi) so‘z yasovchi va shakl hosil qiluvchilar munosabati (affiks va yordamchi so‘z ko‘rinishidagi yasovchi vositalar munosabati), so‘z yasovchilarning semantik-stilistik xususiyatlari (o‘zaro ma‘no munosabatlari, so‘z yasash imkoniyatlari) kabi holatlarni baholash borasidagi ishlarda namoyon bo‘ldi, deyish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilshunosligida: so‘z yasalishi muammolarini tadqiq etish ancha qadimdan boshlangan bo‘lsa-da, umumiy tadqiqotlar ichida bu masalaga har tomonlama chuqur to‘xtalib o‘tilmaganligi kuzatiladi (M.Qoshg‘ariy, Beruniy ishlarida ham, “At-tuhfa” asarida ham, Fitratning “Sarfi” kitobida ham shu tarzda to‘xtalib o‘tilgan). XX asrning 30-yillaridan boshlab, bu borada U.Tursunov va A.G‘ulomov, Z.Ma‘rufovlarning maxsus ilmiy maqolalari, tadqiqotlari paydo bo‘la boshladi. O‘zbek tilshunosligida so‘z yasalishiga bevosita bag‘ishlangan ish sifatida, XX asrning 50-yillarida, A.G‘ulomovning “O‘zbek tilida tarixiy so‘z yasalishi masalalari” fundamental tadqiqoti yuzaga keldi va olimning bu boradagi izchil tadqiqotlari natijasi sifatida so‘z yasalishi, hatto, rus tilshunosligidan avvalroq alohida soha tarzida ajratildi, biroq 70-yillarga qadar so‘z yasalishiga oid maxsus kitob tarzidagi nashrlar kuzatilmadi (R.Sayfullayeva va F.Ubayeva risolasi, mustasno); 70-yillardan boshlab so‘z yasalishi va so‘z yasalishiga aloqador maxsus kitob shaklidagi alohida qo‘llanma va monografiyalar yaratila boshladi (A.Hojiyev “O‘zbek tili so‘z yasalishi”, “O‘zbek tili so‘z yasalishi tizimi” va Y.Tojiyevning “So‘z yasalishi” hamda “So‘z yasovchi affikslar ma‘nodoshligi” borasidagi kitoblari nazarda tutiladi). Bundan tashqari, Respublika bo‘yicha bir qancha oliy ta‘lim muassasalarida A.G‘ulomov xotirasiga bag‘ishlangan maxsus to‘plamlar nashr etilgan va ular, asosan, o‘zbek tili so‘z yasalishi muammolariga bag‘ishlangan. Jumladan, “O‘zbek tilida so‘z yasalishi” (ToshDU ilmiy asarlari. 1979.), “O‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari” (“An‘anaviy Ayyub G‘ulomxonlik materiallari”. Andijon. 1994,1995,1996.) ilmiy to‘plamlarini alohida qayd etish mumkin; qayd etilgan ishlarning o‘zi ham o‘zbek tilshunosligining so‘z yasalishi borasidagi yutuqlarini belgilay oladi. XX asr o‘zbek tilshunosligida so‘z yasalishi muammolari bo‘yicha eng yirik va mukammal tadqiqotlar sifatida prof.A.G‘ulomovning maxsus ishlarini hamda “O‘zbek tili grammatikasi” (1975) asarida bayon etilgan ilmiy qarashlarini ko‘rsatish mumkin.

Adabiyotlar

1. Abduazizov A A. Ayyub G‘ulom va o‘zbek tilshunosligi. – Toshkent, 2004. –163 b.

2. Azimov P. Turkman tili // So'z yasovchi affikslar kitobi. – Ashxobod, 1950. – 83 b.
3. Akbarov S.A. O'zbek tilida qo'shma fe'llar. 1950.
4. Baskakov N.A. Qoraqalpoq tili. Fonetika va morfologiya. 1-qism. –Moskva.1952. – 154 b.
5. Гулямов А.Г. Слобообразование путем внутренних изменений слова в узбекском языке. DDAR. – Тошкент. 1955. –с.145-146.
6. Киссен М.А. Краткий грамматический справочник узбекского языка. – Ташкент. 1962.
7. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – Москва-Ленинград. 1960. – 450 с.
8. Ma'rufov Z. So'z sostavi. Ot va sifat. – Toshkent: Fan, 1956. – B.5.
9. Odilov M.I. Hozirgi zamon Ozarbayjon tilida qo'shma so'zlar. – Baku: Ozarbayjon davlat universiteti ilmiy ishlari, 11.1956.
10. Рамстедт Г.И. Введение в алтайское языкознание. – Москва. 1957. –240 с.
11. Tojiyev Y. Affiksal sinonimiya. – Toshkent. 1992. – 73 b.
12. Tojiyev Y. O'zbek tilida shaxs otlari yasovchi affikslar sinonimiyasi. –Toshkent. 1987. – 96 b.
13. Tojiyev Y. O'zbek tilida ega ekanlik-ega emaslik ma'nolarini ifodalovchi affikslar sinonimiyasi. – Toshkent: Universitet, 1981. – 110 b.
14. Hojiyev A. O'zbek tili so'z yasalishi. – Toshkent: O'qituvchi. 1989. – 35-49 bb.

UDK: 494.3

“DO'STLIK” KONSEPTI METAFORIK IFODALANISHI VA QIYOSIY TAHLILI

Mardiyev T.K.

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
mardiyevtulkin@umail.uz*

Anotatsiya. Ushbu maqolada inson tuyg'ulari ichida emotsionallikka ega bo'lgan, o'zida samimiylik, sofdillik xususiyatlarini anglatgan do'stlik konseptining metoforik tahlili amalga oshiriladi. Maqolada qardosh bo'lmagan ikki til va xalqlar olamning lisoniy manzarasi qiyosiy tahlili amalga oshiriladi. Shuningdek, maqolada ingliz va o'zbek badiiy adabiyotlari, maqollari, aforizimlarida do'stlik konseptining metoforik talqini, o'xshash va farqli tomonlari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: olamning lisoniy manzarasi, verbal, metaforik, sodiqlik, samimiylik, muqaddas, mental, madaniy, milliy, qadriyatlar, antropomorf, emotsional, lingvomental, muqaddas, samimiy.

Сравнительный анализ концепта «Дружба» и его метафорическом выражении

Аннотация. В данной статье осуществляется метафорический анализ концепта дружбы, выражающие эмоциональные человеческие свойства, как искренность и чистосердечность. Также в статье переводится сопоставительный анализ языковой картины двух неродственных языков. Анализируется общие и непохожие стороны метафорического толкования концепта дружбы в пословицах, поговорках и в афоризмах в узбекской и английской художественной литературе.

Ключевые слова: Языковая картина мира, вербальный, метафорический, верность, искренность, святой, ментальный, культурный, национальный, ценности, антропоморфный, эмоциональный, лингвоментальный, искренный

Comparative analysis of the concept "Friendship" and its metaphorical expression

Abstract. In this article, a metaphorical analysis of the concept of friendship is carried out, expressing emotional human properties, such as sincerity and genuine. The article also translates a comparative analysis of the linguistic picture of two unrelated languages. The general and dissimilar sides of the metaphorical interpretation of the concept of friendship in proverbs, sayings and aphorisms in Uzbek and English fiction are analyzed.

Keywords: Linguistic picture of the world, verbal, metaphoric, fidelity, sincerity, holy, mental, cultural, national, values, anthropomorphic, emotional, linguomental, sincere.

Turli xalqlar olamning lisoniy manzarasini tadqiq qila turib, ularning lisoniy qobiliyatlari semantik tuzilishiga, leksik informatsiyani saqlash mexanizmiga duch kelamiz. Ko'pchilik tilshunos olimlar, jumladan, Rus tilshunoslaridan V.Karasik, V.Vorkachevlar individning konseptual tafakkuri, ushbu jarayon lisoniy realizatsiyasi ko'rinishidagi uning monitoringi bir necha tarkibiy qismlardan tashkil topishini ta'kidlaydilar[9,158].

O'zbek tilshunos olimlaridan A.E.Mamatovning ta'kidlashicha, "Olam manzarasining ko'p variantligi kishining ijtimoiy tajribasiga bog'liq, boshqacha qilib aytganda, kuzatuvchi qarab turgan his qilish (tushunish, anglash, idrok etish) dunyosi qancha bo'lsa, shuncha olam manzarasi mavjuddir [10,94].

Lisoniy shaxsning dunyoni verbal obyektivlashtirish orqasida nima yotganini chuqurroq anglashi uchun shubhasiz his-tuyg'u obrazlarining dunyosini tadqiq qilish lozim bo'ladi. U konseptning "obrazli", metaforik komponentini tashkil etadi. Buning uchun biz maqolamizda XVI-XX asrlar ingliz va o'zbek mualliflarining poetik matnlari, mashhur mutafakkirlarning hikmatli so'zlari (aforizmlar), shuningdek, kombinator lug'atlaridan foydalanildik.

Shunday qilib, "do'stlik" o'zining metaforik ifodalanishida qanday ko'rinishga ega bo'lishini aniqlashga harakat qilamiz, do'stlik abstrakt tushunchasi hissiyotli dunyo predmetlariga qiyos qilinadi. Eng avvalo, ta'kidlash kerakki, bu konsept ko'p hollarda o'zbek matnida, ingliz tilida ham bunday munosabatlar subyekti orqali taqdim etiladi, metaforistik ko'chirish nisbatan past chastotali bo'ladi. Aniqrog'i, ko'pchilik shunday hollarda aynan "do'st" / "friend" leksemasi yangi konseptlarga erishishga yordam beradigan universal tushunchalar sifatida qo'llanadi.

Lekin tadqiqot materiallarining nisbiy "tanqisligi" sharoitida ham ishonch bilan aytish mumkinki, buyum konnotatsiyasi – material predmetlar yoki ushbu otlarning leksik mutanosibligidan kelib chiqadigan mavhum otlar obrazlari ham ingliz va o'zbek tillarida ba'zi farqlarga ega bo'ladi.

"Do'stlik" konseptining obrazli komponentlari tahlili bir qancha parametrlarda amalga oshiriladi: Chunonchi, qiyoslanayotgan tillar metaforizatsiyasi konkret usullarining o'ziga xos universallik, (ularning chastotaliligi, obraz turi leksemaning to'g'ri ma'nosi bo'yicha, uni yordamchi subyekt ifoda etadi, unga do'stlik tenglashtiriladi) o'xshashlikni aniqlash belgisi hamda ushbu obraz atalish darajasi bo'yicha amalga oshiriladi.

Do'stlik o'zbek lisoniy tafakkuri sohibi uchun muqaddas unsur sifatida tasavvur qilinadi. Unga sodiqlik, samimiylik kabi munosabatlarida bo'lishi mumkin. Masalan, Hajr iztiroblari – tanholik, sog'inch qiynoqlarini kechi-rayotgan oshiq ko'zlariga yorug' va keng dunyo tor zimistonga aylanganda yaqin do'stlar, munislar uni yolg'izlatib qo'ymaydilar, samimiy mehribonliklar ko'rsatib, ko'nglini olishga intiladilar [5,172]; Sadoqatli do'stga hech vaqt ortiqcha xizmat qilib yurish zarur emas [1,285]; Bir hakimdan so'radilar: "Qanday safar uzoq safar?" javob berdi: "Sadoqatli do'stni qidirish safari"; Qidirgan narsani topish mumkindir, biroq sodiq do'stni topmoq muammo [17,78].

Ma'lumki, o'zbek matnlarida sodiq va sadoqatlilik do'stlikning oliy xususiyati deb ifodalanadi. Bu muqaddas xususiyatga ega bo'lgan do'stni barcha halqlar hamisha eslaydilar, uni hurmat qiladilar, uning sharafiga va xotirasiga bag'ishlab yaxshi amallar qiladilar / *do smth for friendships sake*. Ingliz poetik kontekstida bunday misollar ham kuzatiladi, lug'atda uchraydigan so'z birikmalari "*holly / sacred friendship*", "*to swear eternal friendship*" kabilar ham ungamisolbo'ladi.

U yoki bu holatda ham do'stlik shunday qadriyatki, uni asraydilar / *value*, uni saqlaydilar, avaylaydilar qadrlaydilar, yo'qotishdan qo'rqadilar / *value, cherish*, afraid to lose it, agar yo'qotsalar, achchiq qayg'uradilar va ko'pincha boshqalarni ayblaydilar. Bu qimmatbaho unurni hamma joydan izlaydilar / *look for, seek* agar uni senga taklif etsalar / *offer, exland*, buni bemalol topsa bo'ladi / *find* – topmoq, *gain* – olmoq. Ba'zan do'stlikka kurashib erishadilar / *win*. Har qanday qimmatbaho narsada bo'lgani kabi do'stlikning ham baxti bor, lekin uni amalda aniqlab bo'lmaydi: "U do'st o'zining sadoqatligi bilan bahosini oshirdi, / Butun dunyo oldida uning qadr-qiymatini rad etmaslik uchun" *to set a valuation on friendship*. Oldindan aytish mumkinki do'stlik qimmatbaho tuyg'u, haqiqiy, chin / *true*, lekin u qalbaki / *false* ham bo'lishi mumkin. Shubhasiz, har ikkala holatda ham subyekt qandaydir qimmatbaho hisoblanadi. Ingliz lisoniy tafakkuri uchun esa uning kelib chiqishini ta'kidlab o'tish xarakterlidir. U vaqt o'tishi bilan yaqqolroq bo'ladi: *to make / form / knit / cement / strike up / cultivate friendship* kabilar [6,88].

Do'stlikni jonlashtirish hollari ham tez-tez uchrab turadi. Ana o'shanda u subyekt til sohibiga xos bo'lgan xususiyatlarga ega bo'ladi. Leksikografik tahlil, shuningdek, poetik matnlar tahlili ko'rsatadiki, do'stlik tug'ilishi, o'sishi, voyaga yetishi, yashashi va nihoyat, o'lishi mumkin. Masalan, Do'stlik ipini uzma, ulasang tuguni qolar [14,245]; Quyosh havoni isitsa do'stlik qalbni isitadi; Daraxtni tomiri saqlaydi. Odamni do'sti saqlaydi [15,86]; Bir-birlarining arzimas kamchiliklarini kechira olgan kishilargina chinakam do'stlik iplari bilan bog'lana oladilar; Qayerda tenglikka putur yetsa u yerda do'stlik ham bo'lmaydi; Yoshlikda tug'ilgan do'stlik ajralmas va lazzatlidir, u ham hech qachon o'lmaydi" Do'stdan ajralmaslikning yagona yo'li uni sotmaslikdir [1,283].

Umuman, haqiqiy do'stlik subyekti til sohiblarining verballashgan yaxshilik qilish sifatleri bilan tavsiflanadi. Bu sifatlar do'stni sotmaslik, do'stga munosib, samimiy, matonatli, sadoqatli, sinalgan, sodiqlik va hokazo ma'nolarining ifodalanishida ko'rinadi. Bu fikr yuqorida qayd etilgan misollarda o'z aksini topadi. Shu kabi yana quyidagi misollarni keltirish mumkin: Do'stim qolsin desang mangu do'st,

So'zlagil sen tabu odatin bilib; Do'st-do'stga jonin qiladi qalqon, Do'stdan ham yaxshiroq bormi hech inson? [15, 95-98].

Ma'lum vaqt o'tgach, ular o'rtasidagi dastlabki yaqinlik, samimiy munosabatlar buzilmas do'stlikka aylana boshladi. Bu masala ularning o'z sirlarini bir-birlariga ochishlarida namoyon bo'ldi [7,38].

Ingliz tilida ham antropomorf metaforalar oz miqdorni tashkil etadi: friendship tug'iladi (*be born*), o'sadi (*grow*), rivojlanadi (*develop*), o'ladi (*die*); shunday bo'lsa ham u ishlaydi (*work*), azob chekadi (*suffer*), u mahkum etilgan bo'lishi mumkin (*be doomed*) va uni oldinga surish, oshirish mumkin (*promote*). Ingliz tilida do'stlikni inson tanasi bilan ifodalanadigan biron – bir o'xshatma yo'q. Kamdan kam hollarda do'stlik subyektning jismoniy qismi ekanligini aytib o'tiladi: "When on by one der friends have gone, / And loft our bosoms bleeding" [2,214]. Bu narsa ko'proq o'zbek matnlariga ham taalluqlidir:

Do'stlik kuchli (*strong*), samimiy (*cordial*), ehtirosli (*passionate*), vijdonli (*honest*), sog'lom (*healthy*) bo'lishi mumkin. Ba'zan uning kasalliklari haqida eslatishni ham uchratish mumkin.

Antropomorf metaforik realizatsiyalardan tashqari jonsiz subyektlarga o'xshatish holatlari tez-tez uchrab turadi, ular jismoniy gavda xususiyatlarga ega bo'ladi. Masalan, ko'pincha sinestezik metaforalar uchrab turadi. Bunda bu yerda til sohiblarining ta'm bilish sezgilari o'rtasidagi farq ham kuzatiladi. O'zbek badiiy matnlarida do'stlikka xuddi shirin – lazziyatli substansiyadagi kabi ko'proq refrensiya mavjud bo'ladi: "Do'stdan bir olma ham sovg'a"; "Do'st – jon ozig'i, Do'stsiz boshim – tuzsiz oshim [4,85]; Oqsa ham ming turli meva nozu-ne'mat sharbati, foydada afzaldir undan do'stlarning suhbat; Birov so'z, ko'katdan olar xush nafas, Bizga do'st diydori nasib etsa bas; Gavhar erur do'st og'zidan chiqqan har bir so'z; Achchiq gapirgan do'stning shirini bo'laver! Do'stlikning lazziyatini bilmagan – yashamagan hisobida [11,63]. Bunday xususiyatlar ingliz tilida o'ziga xos ko'rinishlarga ega. Chunonchi, g'azab va ehtirosli damda ham do'stlik saqlanish va buzilmasligini ingliz badiiyotida ifodalaydigan to'g'ridanto'g'ri qarama-qarshi qo'yiladigan misollar uchraydi: "There's the silence of a great hatred, And the silence of a great love, And the silence of a deep peace of mind, And the silence of an embittered friendship" [8,14]. Ushbu misolda yomon ko'rishda, qattiq sevishda, chuqur damlarda bo'lganidek do'stlikning qahrli damida ham sukunat hukmron bo'ladi degan mental ma'no ifodalangan.

Bundan tashqari, bu yerda do'stlikni jismoniy parametrlar bilan yonma-yon material substansiyaga yo'naltiradigan qator metaforalarning uchrashini ta'kidlash mumkin. Fizik parametrlarga zichlik, qattqlik, noziklik, ba'zan temperatura ham kiradi. "Then if my friendships break and bend, there's no need to cry"; "Friendship is the only trustworthy fabric of the affections Friendship is warmth in cold, firm ground in a bog". "I clear my throat. Darling! Thanks, darling, he says, with a loving smile, and I smile back, trying to ignore the tiny protests inside my head" [19,41]. "I hope. I haven't disturbed you, madam. You weren't asleep – were you? But I've just given my lady her tea, and there was such a nice cup over, I thought, perhaps..." [20,248]. "Laughter is not at all a bad beginning for a friendship, and it is for the best ending for one, said the young lord, plucking another daisy" [18,14].

Shuningdek, do'stlikni qattiq yer bilan, poydevor bilan qiyoslash holatlaridamkuzatiladi: "All love that has not friendship for its base; Is like a mansion built upon the sand".

Ingliz tafakkurida o'zbek tilidan farqli o'laroq, o'simliklarga nisbatan do'stlikni ifodalovchi biomorf metaforalar bor: "A sound and healthy friendship is the growth of time and circumstance, it will spring up and thrive like a wildflower when these favor, and when they do not, it is in vain to look for it" "True friendship is a plant of slow growth"; "Friendship like holly-tree" [2,87]. Ushbu keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, do'stlikka xos mental ma'nolari tabiat mavjudotlari (o'simlik, daraxt, gul va hokazolar)ga bog'lab verballashtiradi.

Ko'rinib turibdiki, "do'stlik" konseptida metafora orqali dunyo haqidagi (inson faoliyatidagi) tafakkurning shunday usuli aks etadiki, u avvalgi mavjud bilimlarni yangilari bilan to'ldirib boriladi. Aniqrog'i, ma'lum bir so'zning yoki tushunchaning dastlabki ma'nosi asosida uning ko'p sonli assotsiyalari bilan yangi konsept shakllantiriladi. Metaforik ifoda yana shunisi bilan qiziqki, yangi bilimlarni yarata turib, u turli mavjudliklarni o'ldiradi, uni inson orqali yuzaga chiqaradi. Bilimlar va tasavvurlarni inson tafakkuri darajasi bilan o'ldiradi. Madaniy milliy qadriyatlar bilan tenglashtiriladi; Inson bu yerda barcha narsalarning o'ldirishi sanaladi [12,91]. Demak do'stlik- "friendship" leksemalari tayanch konsept prizmagga aylanadi, u orqali inson dunyoni ko'radi. "Good thoughts his only friends"; "Season of mists and mellow fruitfulness, / Close bosom – friend of the maturing Sun" ; "The Soul unto itself / Is an imperial friend / Or the most agonizing Spy / An Enemy could send" [3,269]. Shunisi xarakterliki, bir qancha xalqlarning tillarida ayni bir xil yoki ma'nosi bir-biriga juda yaqin bo'lgan paremiyalarni uchratamiz go'yo ularni xalqlar bir-birlari bilan "Til biriktirib" yaratganga o'xshaydi. Masalan, qadimgi hind tilida "Do'st-kulfatda", "Botir-jangda", "Sofdillik-qarz olganda sinaladi" deyilsa,

o'zbeklar do'st-do'stni kulfatda sinar deyishadi. Biroq katta-kichikligidan qat'i nazar, har bir xalq o'ziga xos maqol va matallariga ham ega bo'ladi. Turklarda "Do'sting otgan tosh bosh yormaydi" degan maqol mashhur. Ammo o'zbeklarda aksincha, Begonalar otgan toshdan do'st otgan paxta qattiq tegadi! Malaya xalqining tilida. "Agar do'sting durust bo'lsa, ko'zoynak chikora" degan maqol bor. Yuzaki qaraganda, do'st bilan ko'zoynakning bir-biriga hech qanday aloqasi yo'qday tuyuladi. Amalda esa uning zahirida do'st kishi uchun ko'zoynak emas, balki ko'zning o'zidir, degan ma'no yotadi. Tojik, turkman va boshqa xalqlarda esa do'st oynaga o'xshatiladi: Do'st – do'stning oynasi; Suvni kesib bo'lmaganday, yaxshi do'stlarni ham bir-biridan ajratib bo'lmaydi; Xalqning kuchi do'stlikda va birlikdadir; Birlashgan, do'stlashgan xalqni yenga oladigan kuch yo'q [13,10-11].

Har holda bunday ta'sir natijasida xalqlar tilida paremiyalarning o'xshash turlari ko'payib boradi. Chunonchi, o'zbek xalq maqollarida "Do'sting bilan dildosh bo'l, qilar ishga qoldosh bo'l", degan hikmatli so'z bor. Uning mazmunida do'stlarga hamma vaqt sodiq bo'lish, ularni izzat-hurmat qilish, yaxshi-yomon kunlarda ko'makdosh bo'lish g'oyasi singdiriladi. Bu maqolning quyidagi variantlari ham mavjudligini ko'ramiz. "Do'stingning ko'zida bo'lguncha, ko'nglida bo'l", "Do'stingga qo'shiq ayt, mehningni qo'shib ayt"; "Do'sting uchun zahar yut"; "Do'stingga otlangan kesakning changi sening ko'zingga tushadi"; "Do'stingning yoviga yov bo'l, dushmaniga g'ov bo'l"; "Do'stlarning ittifoqi – dushmanning ixtiloflari"; "Jonga kuygan – jonday do'st, jonga kuymas qanday do'st?" [15,84].

Xullas, abstraksiyaning oliy darajadagi universal lingvomentall tuzilma hisoblangan "do'stlik" konsepti o'z yadroviy tuzilmasida o'zbek va ingliz tili adabiy matnlari qisman o'xshash, asosan antropomorf, chizmalarga ega bo'ladi. Lekin, ularda periferiya farqlarining ham borligi seziladi. Bu farqlar u yoki bu belgining bor- yo'qligiga, ularning sifat va miqdor ko'rsatkichlariga taalluqlidir. Asosiy farq qiluvchi semantik belgi – muqaddaslikdir, bu narsa o'zbek tafakkurida kuchlidir.

Adabiyotlar

1. Абдуроззокова Ш. Тафаккур гулшани. –Т.: Фафур Фулом, 1989.-462 б.
2. Apperson G.L. The Wordsworth Dictionary of Proverbs. Wordsworth Reference. 1993.–644 p .
3. АППП. – Американская поэзия в русских переводах. 19 – 20 вв. / Сост. Сб. Д. Жимбинов. – М.: Радуга, 1983.- 672 с.
4. Бердиёров Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремнологик луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984.- 288 б.
5. Ботирхон Акрам. Фасоҳат мулкининг соҳибқирони. – Т.: Ўзбекистон, 1986.- 172 б.
6. Вежбицкая А. Понимание культур через посредство ключевых слов. – М.: Языки славянской культуры, 2001. - 288 с.
7. Зоҳидов В. Навоий ва ижод сабоқлари. – Т.: Фан, 1981.-96 б.
8. Караматова К., Караматов Х.С. Proverbs, Мақоллар, Пословицы. – Т.: Меҳнат, 2000.- 398 б.
9. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс.– Волгоград.:Перемена, 2002. - 477 с.
10. Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika.– Т.: Noshir, 2019.-164б.
11. Матлаббека Улуғбек қизи. Ҳикматлар гулдастаси. – Т.: Ўқитувчи, 1994.- 284 б
12. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. уч. заведений . – М.: Издат. Центр “Академия”, 2001. - 208 с.
13. Саломов Ф. Мақол ва идиомалар таржимаси. – Т.: Фан, 1961.- 162 б.
14. Содиқова М. Ўзбекча – русча мақол ва маталлар луғати. – Т.: Фан, 2005.- 410 б.
15. Шомухаммедов Ш. Донолар бисотидан. – Т.: Фафур Фулом, 1976.- 316 б.
16. Шомасудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. – Т.: Шарқ, 1990.- 524 б.
17. Хамиджон Хомидий., Маҳмуд Хусаний. Машиқзамин ҳикмат бўстони. – Т.: Шарқ, 1997.- 440 б.
18. Oscar Wilde. The picture of Dorian Gray.–М.: foreign Languages publishing house, 1958. - 230 p.
19. Jane Austen. English Prose: 19 th cen. Leningrad. 1967. P. 336.
20. George Bernard Shaw. English Prose: 20th cen. Leningrad, 1967. P. 336.

UDK: 82-9

“GENETIK” ROMANINING BADIY TILIDA POETIK TAFAKKUR IFODASI

S. B. Babayeva

Guliston davlat universiteti

abrorbabaev01@gmail.com

Annotasiya. Ushbu maqola zamonaviy o'zbek yozuvchisi Isajon Sultonning “Genetik” romani tahliliga bag'ishlangan. Maqolada asarning badiiy tili va muallif badiiy tafakkuriga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, roman tilini tahlil etishda turli kompozitsion unsurlar va badiiy-tasviriy vositalar haqida ham izoh va ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Asarning tarixiy jihatlari va bugungi kundagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: perifraz(a), antifrazis, ramz, majoz, badiiy tafakkur, badiiy til, poetik nutq, resipient, peyzaj, portret, va h.k.

Выражение поэтического мысли на художественном языке романа «Генетик»

Аннотации. Статья посвящена анализу романа современного узбекского писателя Исаджона Султана “Генетик”. В статье сделан акцент на художественном языке произведения и художественном мышлении автора. Также есть комментарии и информация о различных композиционных элементах и художественных средствах при анализе языка романа. Обсуждаются исторические аспекты произведения и его значения сегодня.

Ключевые слова: перифраз, антифразис, ирония, образ, художественное мышление, художественный язык, поэтическая речь, реципиент, пейзаж, портрет, садж и др.

Expression of poetic thinking in the artistic language of the novel "Genetic"

Abstract. This article is devoted to the analysis of the novel “Genetic” by the modern Uzbek writer Isajon Sultan. The article focuses on the artistic language of the work and the author's artistic thinking. There also comments and information on various compositional elements and artistic means in the analysis of the language of the novel. The historical aspects of the work and its significance today are discussed.

Keywords: periphrasis, antiphrasis, artistic thinking, artistic language, poetic speech, recipient, landscape, portrait, etc.

Badiiy asarning estetik qiymatini belgilovchi muhim omillardan biri bu, albatta, badiiy asar tilidir. Poetik til yoki poetik nutqning qay darajada obrazli, emotsional va ritmik jihatdan mukammallikka erishishi muallif badiiy tafakkurining qanchalik teran va o'tkir ekanligiga bog'liq sanaladi. Isajon Sultonning “Genetik” romani tiliga nazar tashlar ekanmiz, birinchi navbatda, yozuvchining muallif nutqi sifatida personaj nutqidan foydalanganligiga guvoh bo'lamiz. Ya'ni, asarni hikoya qiluvchi bosh qahramonning o'zi ekanligi roman mohiyatini ochishda va resipientni asar konsepsiyasini idrok qilishida ko'mak beradi. “Genetik” romani bir millatning, elning farzandi qay tarzda voyaga yetishi, uning ongida chaqnagan chaqmoqlar qaysi ildizlarga borib taqalishi-yu, bu ildizlarning nechog'lik baquvvat, qadimiy, noyob ekanligi haqida hikoya qiladi. Asardagi irsiyat masalasi romanning bosh g'oyasini ochuvchi kalit vazifasini o'taydi. Ya'niki, bosh qahramon Omonning olib borgan genetik tadqiqotlari ong ostida paydo bo'lgan, bolalik va o'smirlik davri xayoloti, tafakkur olamidagi evrilishlar hosilasi ekanligi yaqqol anglashiladi. Omon vatanini, millatini, oilasini sevadigan, ulardan faxrlana biladigan, tarixi va kelajagining buyuk ekanligiga imon keltirib, ayni vaqtda buni isbotlashga qodir bo'lgan, elning suyak farzandidir. Muallif uning bolalik olamini tasvirlar ekan, qahramon ruhiyati va tafakkuridagi juda nafis va ko'z ilg'amas jihatlarni ham ko'zdan qochirmaydi. Kitobxon ko'z o'ngida voqealar ketma-ketligi suratga olingan kadrlar kabi aniq va jozibali tarzda namoyon bo'la boshlaydi.

“Insonlarning qiyofalari ham ma'lum voqea-hodisalar bilan birlashib ketgan, kimni eslamay, qaysidir voqega bog'liq holda jonlanadi. Ubay akani shamollar bilan birgalikda tasavvur qilaman, Sofiya xolam oy manzarasi bilan uyqash, Dashti Qipchoqdan kelgan suluv qiz bol va asal hosil qiladi, onamni yalpiz, rayxon hamda gul ochgan chechaklar yonida, otamni qo'lida bolta yoki arra, kesilgan daraxt shoxlari yoki yaxshilab ag'darib chiqilgan maydon o'rtasida ko'raman. O'zimni mana shu manzaralar ichida uchib yurgan bolariday tasavvur qilaman, qay manzaraga yaqinlashsam, o'sha kattalashib, mayda-chuydalarigacha namoyon bo'ladi”[2, 2018].

Yuqoridagi manzaraning nutqiy semantikasiga e'tibor berib qarasak, har bir metaforada ramziylik bor ekanligiga guvoh bo'lamiz:

1. Ubay aka(qo'shni) - shamolday tez, o'zgaruvchan, shiddatli, biroq ruhan yolg'iz kimsaning timsoli.
2. Sofiya xola - oyday go'zal, beg'ubor ayol. Soflik va go'zallik timsoli.
3. Dashti Qipchoqlik qiz (Intizor) - bolday shirin hislarni uyg'ota olgan, suyumli qiz ramzi.
4. Ona - oilani gullatib, mayin ifor bag'ishlovchi kuyunchak va g'amxo'r ayol siymosi.
5. Ota - o'z yaqinlarining saodati uchun umrini mehnatu mashaqqatlar girdobiga otgan, biroq bundan sira o'kinmaydigan tanti, oqko'ngil inson.
6. Men (Omon) - fikr va xayol qilishda bolariday tinimi yo'q, atrofdagilarga shunchaki razm solmay, balki ularning hech kim ko'ra olmaydigan, hech bir elning farzandida kuzatilmaydigan jihatlarini ilg'ay oladigan, zehni o'tkir, fikri teran millat farzandi timsoli.

Yuqoridagi barcha timsollarda, shuningdek, milliylik va soddadillik, bag'rikenglik kabi xususiyatlar ham mavjud. Bu insonlar qanchalar ulug' va qadim ajdodlarning avlodlari bo'lishiga qaramasdan, kamtar va kamsuqum, sabr-bardoshning ham ramzi sifatida talqin etiladi. O'zbek xalqining o'ziga xos jihatlarini o'zida ifoda etgan mazkur roman tasavvur va tafakkurning imkoniyatlari va uning hosilasi haqida ham hikoya qiladi. Omonning butun dunyoni larzaga solgan qadim ajdodlar genidagi ma'lumotlarning har bir avlod qonida saqlanib qolishini kashf etishi insoniyat tarixida olamshumul voqea bo'lib, buning natijasi o'laroq, o'zbek millatining qanchalar boy va uzoq o'tmishga ega ekanligi isbotlandi. Alpomish-u Go'ro'g'lidan tortib, Kul tigin-u Bilga xoqongacha, Ibn Sino-yu Beruniydan to Navoiygacha, Behbudiy, Qodiriy, Cho'lpon kabi ulug', ruhi uyg'oq, qalbi jo'shqin va vatan muhabbatiga limmo-lim insonlarning vorisi bo'lish hissi nafaqat Omonning yoki romandagi boshqa qahramonlarning, balki har bir kitobxonning ham qalbini larzaga keltirmay qo'ymaydi. Filologiya fanlari doktori, Professor Baxtiyor Nazarov o'zining "Irsiyat muammolarining badiiy talqini" maqolasida roman haqida quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi: "Genetik" romani irsiyatning, bir jihatdan, alohida inson taqdirida, qolaversa, ayrim xalq taqdirida va, umuman olganda, muayyan ma'noda, bashariyat qismatida o'ynagan, o'ynayotgan, o'ynashi mumkin bo'lgan o'rni, ahamiyati haqida yozilgan. Asarga chuqurroq e'tibor bersangiz, o'zbek degan millat irsiyatdagi, u bilan hamkor va hamnafas tomlarning insoniyat shakllanishi va qaror topishidagi ahamiyati xususida, bu muammolarning Yaratgan qudrati bilan aloqadorliklari haqida. Shu ma'noda "Genetik"ni teran millatparvarlik va ayni vaqtda, insonparvarlik ruhida yaratilgan asar, desak xato bo'lmaydi" [3, 2017].

Adabiyotshunos olimning yuqoridagi fikrlaridan kelib chiqadiki, muallif romanda inson naslining bashariyat taqdiridagi o'rni va bunda Yaratganning ham qudrati akslanganligini ifoda etishiga urg'u bergan bo'lsa, Professor G'ayrat Murodov "Genetik" asarini quyidagicha talqin etadi:

"Romanda insonning jonli mavjudot sifatida mohiyati, koinot va zamindagi o'rni, vazifalari, dahoni yuzaga keltiruvchi madaniy-ma'naviy hamda jug'rofiy muhit, aksincha o'nlab daholar iste'dodining g'unchaligidayoq bosib-yanchib, toptab tashlagan mustabid - mustamlakachi tuzum qabohati, qadim moziy va zamonamiz orasidagi mustahkam ro'italarning mavjudligi, inson, millat genlarida tarixiy xotiraning saqlanishi, mana shu genlar vaqti-soati kelib, qulay shart-sharoit yuzaga kelgach, o'zini namoyon etishi, o'tmishi buyuk bo'lgan elning istiqboli ham ulug'vor bo'lishiga ishonch ideali badiiy tajassum topgan"[4, 2019].

Demak, olimning firkriga ko'ra bu asar orqali yozuvchi o'tmish, bugun va kelajak rishtalarining bir-biriga bog'liq ekanligi, buyuk moziy buyuk kelajakka ishora qilishi haqida aytib o'tiladi. Aslida har ikkala fikrda ham umumiylik bo'lib, romanda irsiyat va inson taqdiri masalalari badiiy jihatdan o'ziga xos tarzda ifodalangan.

Isajon Sulton deyarli har bir asarida ramziylik qatiga quyuq ma'nolarni joylab, poetik so'zning qudrati, imkoniyatlaridan juda o'rinli foydalanadi. "Genetik" romani ham muallifning boshqa romanlari singari falsafiy xususiyatlarga boy bo'lib, yozuvchi asarda o'z badiiy tafakkurini barcha detallarda, ramzlarda, peyzaj va portret o'rinlarida sinchkovlik bilan ifoda etadi. Asar tili muallif badiiy tafakkurining yorqin aksi bo'lib xizmat qiladi.

"So'zning tasvir imkoniyatlari juda keng, faqat ularning ro'yobga chiqish darajasi bevosita ijodkor mahoratiga, aniqrog'i, undagi estetik nigohning nechog'lik o'tkirligiga bog'liq. Ya'ni, olamni musavvirona nigoh bilan ko'rish iqtidoriga ega shoir yo adibgina ko'rganlarini so'z vositasida tasvirlashga imkon qidiradi, o'z navbatida, uning ijodiy izlanishlari so'zning tasvir imkoniyatlarini kengaytiradi"[5,2018].

Bu romanda ham "shamol" obraz darajasiga ko'tarilgan. Ya'ni, shamol yozuvchi tafakkuri, xayolot va ruhiy dunyosining, u asarda ifodalamoqchi bo'lgan g'oyaviy mazmunning majoz bo'lib xizmat qiladi. "Boqiy darbadar" romanida shamol bo'ron darajasiga ko'tarilib, Yaratganning kuch-qudrati ramzini ifodalasa, "Ozod" romanida shamol bosh qahramon Ozod uchun akslar falsafasini anglashga yordam

beruvchi do'st sifatida ko'zga tashlanadi. "Genetik" romanida ham "shamol" obraziga qayta-qayta duch kelamiz. U goh epkin, goh shabada, gohida mitti girdob yasagan quyun, goh esa olislardan keladigan qudratli shamol ko'rinishida tasvirlanadi:

"Olislardan keladigan qudratli shamol esa tevarakni kulrangga o'zgartirib yuboradi. Balki chang ko'targani uchun samo kul tusiga kirar? Avvaliga ko'klarda eladi, keyin pastga tushganida benihoya ko'p tovushlar hosil qiladi. Devor boshidagi guvalaklar bo'g'iq guvillaydi. Bo'g'otlardan ham shunaqa sas chiqadi. Darvoza yoruqlaridan kirib, hushtak chaladi..."[2, 2018]

Yuqoridagi peyzaj manzarasi tasviri avvaliga kitobxon ko'z o'ngida kulrang tusdagi esayotgan shamol suratini aks ettirsa, sekin-asta quloq ostida shamolning turli ohanglari yangraydi. Poetik nutqning so'zlashuv yoki adabiy nutqidan farqi ham shu erda oydinlashadi. Ya'ni, nutqning vazifasi axborot almashish bo'lsa, badiiy nutqning vazifasi esa obrazli va emosional axborotni yetkazish va o'qirmanda hissiy ko'nikmani shakllantirishdan iboratdir. "Genetik" romani badiiy tili ham o'ziga xos obrazli va emotsional bo'yoqlarga boy til sanaladi. Asarda, shuningdek, perifr(a) va antifrazis kabi nutqiy semantik birliklardan ham mohirona foydalanilgan. Perifr(a) - bu nutqiy semantik birliklar tarkibiga kiruvchi, ko'chim turlaridan biridir. Bunda narsa yoki hodisa, joy yoki shaxs nomlari ularga tegishli bo'lgan xususiy xarakterlarni ifodalovchi belgisi so'zlar yoki so'z birikmalari orqali ataladi[5, 2018]. "Genetik" romani stilistikasini kuzatar ekanmiz, turli perifrazlarning ko'rinishlariga duch kelamiz:

"Turli-tuman manzillardagi qiyiq yoki qo'y ko'zli, yumaloq yoki uzunchoq yuzli, qoramag'iz yoki oq, yapasqi yoki qirraburun, tor yoki keng peshanali, keng yoki ingichka o'mrovli, mayda oq yoki katta sarg'ish tishli, qalin qisqa yoki uzun ingichka qoshli, qora yoki sarg'ish sochli, ko'k yoki yashil ko'zli... bir tilda so'zlashadiganlar insonlar!..."[2, 2018].

Yozuvchi bu yerda bir millatning, bir elning nomini shunchaki keltirib qo'ya qolmasdan, balki uning o'ziga xos jihatlari (asosan, tashqi ko'rinishdagi) sanab o'tganki, bu asar tilining va uslubining badiiyatini yana bir qadar oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, romanda antifrazis, ya'ni kinoya yoki teskari ma'noda qo'llangan satirik matnlarga ham guvoh bo'lish mumkin:

"- Qani, bolalar, dalaga!

To'rtinchi sinfdan boshlab to kap-katta yuqori sinf bolalarigacha birin-ketin traktor aravalariga chiqishadi. Traktorda odam tashish anchagacha davom etadi, qachonki bir kuni kanalga ag'darilib ketib, qiz-juvonlar halok bo'lgunga qadar. Shundan keyin odamlarni yuk mashinalarida tashiydigan bo'lishadi, traktor aravalariga esa katta qilib "Odam tashish taqiqlanadi!" deb yozib qo'yishadi"[2, 2018].

Bolalik xotiralari bilan bog'liq bo'lgan kichikkina shu matn orqali juda og'ir va alamli iztiroblar, xalqning dard-u mashaqqatlari yashirin tarzda kinoyaga olingan. Mustabid tuzum davrining jarohatlari, ayollarning ayanchli taqdirini yozuvchi birgina odam tashish mashinasining almashinishi misolida satirik xajv ostida tasvirlaydi. Yozuvchi bu usul orqali o'zining tanqidiy fikr va mushohadalarini o'quvchiga yanada obrazli va emotsional tarzda etkazishga urinadi va buning uddasidan chiqadi ham.

Roman badiiy tilining jozibali bo'lishida yana bir muhim jihatlardan biri, asardagi peyzaj manzaralarining jonli va ta'sirli chiqqanligi bilan belgilanadi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, muallif tasvirlagan manzaralarni o'qiganda retsipyent ko'z o'ngida go'yo kinofilm kadrlari ketma-ket aylanayotgandek bo'ladi. Ya'ni o'qirman bu manzarani juda yaqqol va jonli tarzda ko'ra oladi, buning boisi Isajon Sulton tasvirga olayotgan har bir obraz, detal yoki tabiat manzarasini juda sinchkovlik bilan ifodalashga, tasvir ob'ektining har bir qirralarini, o'ziga xos jihatlari va muallifning tafakkurida paydo bo'lgan obrazli manzaraning har bir mayda bo'laklarigacha nazardan chetda qoldirmagan tarzda yaratadi. Shu sababdan o'quvchi bu manzarani yaxlit va butun tarzda ko'radi :

"Sap-sariq quyosh samoga ko'tarilganida osmon bag'ridagi bir nechta bulut yer betida asta siljuvchi soylarni va har yer har yerda osmondan yergacha ingan yorqin nur dastalarini hosil qiladi. Nurlar dov-daraxt va buta shoxlariga zar libosini kiydirsa, bulut ko'lankalari ularni birpasda kulrangga bo'yaydi. Oftob ko'tarilgani sayin butalar, kichik qirlar, og'ochlarning uzun soylari qisqarib, o'ziga o'xshamay qoladi, kichraya-kichraya, egalari poyida yotgan xufiya askarlarga aylanishadi. U askarlar yer betida har yer har yerda, xuddi dala-tuz tinchini qo'riqlagan kabi har do'ng, har tepa, har buta ostida turishadi, birining miltig'i, birining kamoni, yana birining qalqoni ko'lanka bo'lib ko'zga tashlanadi. Tevarakda esa asta-sekin ulug' bir siljish ro'y beradi..."[2, 2018].

Kontekst davomida yana ko'plab badiiy-tasviriy vositalarga ham duch kelish mumkin. Epitet(sap-sariq quyosh, siljuvchi soylar, nurli zar libos, ulug' siljish), metafora(osmon bag'ri, yerning beti, bulut ko'lankalari, xufiya askarlar, miltiq, kamon, qalqon), jonlantirish(quyoshning samoga ko'tarilishi, nurning daraxtga libos kiydirishi, bulutning bo'yashi, butalarning qo'riqlashi...) kabilar shular jumlasidandir. Shu o'rinda yozuvchi Sobir O'narning quyidagi fikrlarini keltirib o'tish ahamiyatlidir:

“Isajonning har bir asarida manzaralar, holatlar, gap-soʻzlar tabiiy bir yoʻsinda, ayniqsa, meʼyorida, quyushqondan chiqilmay tugatiladi. Chumoli, asarlari, qushlar, otquloq, terak, shamolni taʼriflay ketsa, ularning ikir-chikirlari ichiga kirib boradi va sizni ham yetaklab ketadi. Gʻoʻza, dehqon, kundalik yumush haqida ham erinmay, bir-bir, xuddi odamning ish kuni jadvalini uqtirayotganday ketaveradi va birdan... shoʻx bolalarning bir-biriga kesatishi, ilmoq tashlashi qiziq bayon etiladi. Juda jonli, beixtiyor kulasiz”[9, 2017].

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy oʻzbek nasrining yetuk vakillaridan biri Isajon Sulton qalamiga mansub “Genetik” romani oʻziga xos badiiy til va poetik tafakkurga ega asarlardan biri sanaladi. Romandagi yozuvchining yuksak badiiy tafakkuri asarning har bir oʻrnida, poetik nutqning har bir semantik birliklarida yaqqol koʻzga tashlanadi va shu jihati bilan oʻzbek xalqining boy maʼnaviy merosiga aylanadi, desak mubolagʻa boʻlmaydi.

Adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Adabiyot, sanʼat va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi. www.xabar.uz
2. Isajon Sulton. Genetik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – B 21,4,102,63.
3. Baxtiyor Nazarov. Irsiyat muammolarining badiiy talqini. Isajon Sulton nasri badiiyati. – Toshkent: Turon zamin Ziyi, 2017 yil. – B 26.
4. Gʻayrat Murodov. Oʻzbek romanlari yoki yangilanayotgan umid. Sharq yulduzi. 2019/06/23. <https://sharqyulduzi.uz>
5. Dilmurod Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti. 2018. – 285 b.
6. P.Qodirov. Adabiy asarning tili. – Toshkent: Fan, 1978. – 102 b.
7. A.Makarenko. Badiiy ijod haqida. – Toshkent: Fan, 1960. – 63 b.
8. Q.Yoʻldosh, M.Yoʻldosh. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016. – 78 b.
9. Sobir Oʻnar. Yilning eng sara romanlari haqida. Isajon Sulton nasri badiiyati. – Toshkent: Turon zamin ziyi, 2017. – 176 b.
10. Istiqlo. Adabiyot. Tanqid... (Yozuvchi va adabiyotshunos Ulugʻbek Hamdam savollari asosida qurilgan suhbatlar). – Toshkent: Turon zamin ziyi, 2015. – 58 b.

UDK: 43:371.3

NEMIS TILIDAGI FEʼL BOSHQARUVINI TALABALARGA DERIVATIV IFODALAR ORQALI TUSHUNTIRISH

S.M.Abduraxmanov

Samarqand davlat universiteti

s_abduraxmanov@mail.ru

Annotatsiya. Har bir tilning gap qurilmasi bir-biridan farqlanadi. Shu boisdan biror bir xorijiy tilda nutqiy koʻnikmalarni toʻgʻri shakllantirish uchun eng avvalo oʻsha til doirasida sintaktik jihatdan soʻzlarning oʻzaro birikishini bilish kerak boʻladi.

Mazkur maqolani yozishdan maqsad nemis tilidagi feʼl boshqaruvi asosida soʻz birikmasi tashkil qilish va undan nutqda samarali foydalanish usullari bilan talabalarni tanishtirishdir. Maqolada oʻzaro muqobil boʻlgan sodda va yasama feʼllarning oʻziga tobe soʻz bilan boshqaruv munosabatida qanday birikishi qiyosiy jihatdan tahlil qilingan va bu sintaktik aloqa turi qoidalarini tez va oson oʻzlashtirib olish usullari koʻrsatilgan.

Kalit soʻzlar: derivativ ifodalar, sintaktik aloqa turlari, feʼl boshqaruvi, sodda soʻzlar, yasama soʻzlar, soʻz birikmalari, feʼl boshqaruvidan nutqda samarali foydalanish usullari.

Объяснение студентам на немецком управлении глагола с деривативные явления

Аннотация. Каждый язык имеет своеобразный речевой аппарат. И поэтому для формирования речевых навыков в иностранном языке требуется знать внутренние синтаксические отношения слов в рамках того или иного языка.

Цель написания статьи: образование словосочетаний на основе управления глагола в немецком языке и ознакомление студентов со способами эффективного использования речи. В статье анализируется агрегирование простых и производных немецких глаголов в управленческих отношениях и показаны пути быстрого и легкого освоения правил таких синтаксических соединений.

Ключевые слова: деривативные явления, типы синтаксических взаимосвязей, управление глагола, простые слова, производные слова, словосочетания, способы эффективного использования управления глагола в речи.

Explaining german requiring of verbs students though derivative expressions

Abstract. Each language has a peculiar speech forms and therefore, in order to form speech skills in a foreign language, it is required to know the internal syntactic relations of words of a particular language.

The theme of writing this article is to form of word combinations based on requiring of verbs in German and to acquaint students with the ways of effectively use of speech forms. It has been analyzed the aggregation of simple and derived words with their required objects there. It has been shown the ways of quickly and easily mastering rules of such syntactic expressions there too.

Keywords: derivative expressions, types of syntactic relationships, requiring of the verb, simple words, derived words, word combinations, ways of effectively use of requiring of verbs in the speech.

O'zbekiston Respublikasining dunyo hamjamiyatida tutgan o'rni yildan yilga yuksalib bormoqda. XXI asrda mamlakatimiz siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalari shu darajada yuksalib ketdiki, endilikda istalgan sohada yetuk mutaxassis bo'lib yetishish uchun har bir kishi dunyo miqyosida tan olingan xorijiy tillarni yoki ulardan birini chuqur bilishi zarur va shart deb hisoblanilmoqda. Shu boisdan ham xorijiy tillarni o'qitish mazmunini yanada takomillashtirish, chet tili o'qitish metodikasiga innovatsion yondashish ta'lim sohasidagi siyosatimizning eng ustuvor masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev sa'yi-harakatlari bilan yurtimizda yetuk, yuqori malakali, zamonaviy fikrlaydigan yosh avlod – soha mutaxassislarini shakllantirish jarayonida chet tillarni kompleks tarzda o'qitish tizimini yaratilishiga alohida urg'u berila boshlandi. Jumladan yurtboshimizning 2019-yil 3-maydagi PQ – 4306 sonli "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorida [1] hamda 2020-yil yakunlari bo'yicha Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi deputatlariga murojaatnomasida [2] chet tillarni o'qitishga alohida e'tibor qaratish lozimligi ta'kidlanib o'tildi.

Ma'lumki, har qanday tilni o'rganishda tilning ichki qonuniyatlarini bilish va bu qonuniyatlar orqali o'rganilayotgan til doirasidagi nutqiy ko'nikma va malakalarni to'g'ri shakllantirish masalasi muhim o'rin tutadi. Ta'limning turli bosqichlarida xorijiy tillarni o'rganishda so'zlararo va birikmalararo yuzaga keladigan sintagmatik va paradigmatic munosabatlarga alohida e'tibor qaratish, so'z birikmalaridagi so'zlararo uzviy bog'lanishharni to'g'ri mushohada qila olish va o'rganilayotgan til orqali nutqiy muloqotga kirishish jarayonida ulardan samarali foydalana bilish talab etiladi.

Tilshunoslik fani tadqiqotlaridan kelib chiqqan holda shunga aminmizki, har qanday so'z birikmasidagi hokim va tobe so'zlar o'rtasidagi sintaktik aloqa moslashuv, bitishuv va boshqaruv kabi munosabatlar natijasida vujudga keladi. So'z birikmalari hosil qilishda bu sintaktik aloqalardan to'g'ri foydalanish esa, tabiiyki, gaplarni grammatik shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Bitishuvda tobe so'z hokim so'z bilan hech qanday grammatik aloqasiz, to'g'ridan to'g'ri munosabatga kirishadi. Moslashuvda tobe so'z hokim so'z bilan tegishli grammatik aloqada so'z birikmasi tashkil etadi. Boshqaruv sintaktik aloqa turida esa hokim so'z talabiga ko'ra tobe so'z tegishli tarzda predlog yoki ko'makchilar yordamida, shuningdek tegishli kelishikda kelishi talab etiladi.

Albatta, har bir til o'z ichki qonun-qoidalaridan kelib chiqqan holda so'z birikmalarini hosil qilishda aynan shu uch turdagi sintaktik aloqa turlaridan u yoki bu darajada foydalaniladi. Masalan, grammatik qoidalarga ko'ra o'zbek tilida sifat va ot (**katta ko'cha, chiroyli uy...**), ravish va fe'l (**tez gapirmoq, sekin yurmoq...**), ravish va sifat (**o'ta qiyin, juda oson...**) o'zaro bitishuv yoli bilan aloqaga kirishsa, nemis tilida aynan shu birikmalardan ravish va fe'l (**schnell sprechen, langsam gehen**), ravish va sifat (**sehr schwer...**) bitishuv yo'li bilan, sifat va ot esa o'zaro moslashuv (**eine grosse Straße, das schöne Haus...**) yo'li bilan so'z birikmasini yuzaga keltiradi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, nemis tilini chet tili sifatida o'rganayotgan talabalar ayniqsa boshqaruv (**die Rektion**) sintaktik aloqasi orqali so'z birikmalari hosil qilishda va bunday ifodalardan o'z nutqlarida amaliy foydalanishda ko'proq xatoga yo'l qo'yishadi. Bizning fikrimizcha, aynan nemis tiliga xos bo'lgan boshqaruvning asosiy qoidalarini o'zlashtirmasdan turib, bu tilni, xususan bu tildagi og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini egallab olishning iloji yo'q. Buning boisi shundaki, nemis tilidagi hokim so'z vazifasida keluvchi fe'l yoki predikativ sifatlar o'ziga tobe to'ldiruvchini nafaqat tegishli kelishikda bo'lishini talab qiladi, balki ular yana aksariyat hollarda o'ziga xos predlogni ham so'z birikmasi tarkibida kelishini shart qilib qo'yadi.

O'zbek talabalariga nemis tilidagi fe'l boshqaruvini o'zlashtirish ancha og'ir bo'lganligi bois, ko'p hollarda nemis tilidagi boshqaruv sintaktik aloqa turi ularga ko'r-ko'rona yodlatish orqali yetkaziladi. Biroq fe'l boshqaruvidagi hokim so'zning talabi bilan tobe so'zning tegishli kelishikda, predlogli va predlogsiz qo'llanilishini yod olish bilan talabalar qimmatli vaqtlarini yo'qotishadi. Talabalar nemis tilidagi fe'l

boshqaruvi mavzusini tez va oson o'zlashtirib olishlari uchun mazkur sintaktik aloqa turi bo'yicha talabalarda tegishli ko'nikma va malakalarni shakllantirishga o'zaro muloqotga asoslangan zamonaviy chet tili o'qitish metodlari asosida yondashish talab etiladi.

Bizning fikrimizcha, nemis tilida hokim so'z sifatida keluvchi sodda so'zning o'ziga tobe so'zni qanday grammatik ko'rinishda kelishini talab qilishini yaxshi o'zlashtirish uchun talabalar bunday so'zlarning derivativ muqobilidagi boshqaruv unsurlariga ham e'tibor qaratishlari kerak bo'ladi. Jumladan, nemis tilidagi derivatsiyaga uchramagan fe'llarda predlogli boshqaruv hamda **“be-, er-, ver-“** kabi ajralmovchi old qo'shimchali fe'l boshqaruvida esa aksariyat hollarda to'g'ridan-to'g'ri **“Akkusativ”** kelishigidagi boshqaruv talab etilishini talabalarga tushuntirish orqali nemis tilidagi bir qator fe'llarning boshqaruvlari borasida ko'nikma va malakalarni shakllantirsa bo'ladi. Masalan:

antworten + **auf Akkusativ**; beanworten + **Akkusativ** – javob bermoq

Ich antworte auf deine Frage. = Ich beantworte deine Frage.

arbeiten + **an Dativ**; bearbeiten + **Akkusativ** – ishlamoq, ishlov bermoq

Er arbeitet an seiner Forschung. = Er bearbeitet seine Forschung.

warten + **auf Akkusativ** – kutmoq; erwarten + **Akkusativ** – orziqib kutmoq

Er wartet auf seine Freunde = Er erwartet seine Freunde.

siegen + **über Akkusativ**; besiegen + **Akkusativ** – yutmoq, g'alaba qozonmoq, g'olib bo'lmoq

Der junge Boxer besiegte alle seine Gegner = Der junge Boxer siegte über alle seine Gegner.

[4, 50]

kämpfen + **gegen Akkusativ**; bekämpfen + **Akkusativ** – ... qarshi kurashmoq

Die progressive Jugend aller Länder kämpft gegen den Grieg = Die progressive Jugend aller Länder bekämpft den Krieg.

Biroq, derivatsiya unsuri yordamida nemis tilidagi fe'l boshqaruvlari haqida talabalarga ma'lumot berishda shuni ham unutmaslik lozimki, nemis tilida ajralmovchi old qo'shimchali fe'llardan farqli ravishda ajraluvchi old qo'shimchali fe'llardan ayrimlari predlogli boshqaruvni, ayrimlari predlogsiz boshqaruvni talab etadi. Masalan **“bekämpfen”** fe'lining muqobili **“ankämpfen”** ham so'z birikmasi tashkil qilish uchun **“gegen Akkusativ”** kelishigidagi tobe so'z bilan o'zaro bog'lanadi. [3, 80]

Er kämpfte gegen diese Unsitte an.

Bu o'rinda shuni qayd etib o'tishimiz lozimki, ayrim hollarda ajralmovchi old qo'shimchali fe'llardan ayrimlari o'ziga tobe to'ldiruvchini predlog bilan qo'llanishini ham talab etishi mumkin. Biroq bunda fe'l boshqaruvidagi ishtirok etgan predloglar ko'pincha sodda fe'l talab qiladigan predloglardan farq qilishiga nemis tili o'qituvchisi o'z talabalarining e'tiborini qaratishi kerak bo'ladi. Masalan:

helfen + **Dativ + bei Dativ**, sich behelfen **Dativ + mit Dativ** – yordam bermoq.

Talabalarga nemis tilidagi fe'l boshqaruvi haqida ma'lumot berishda shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, nemis tilidagi ba'zi bir sodda fe'llar derivativ hosila ko'rinishidagi o'z ma'nodoshlaridek to'g'ridan-to'g'ri **“Akkusativ”** kelishigidagi vositasiz to'ldiruvchini talab qiladi. Biroq bunday hollarda sodda fe'llar va yasama fe'llarning semantik ma'nolarida biroz farq kuzatiladi yoki ularda boshqaruv talab etadigan tobe so'z tarkibida yana bir to'ldiruvchi gapda kelishi kerak bo'ladi. Masalan, **“verwechseln”** fe'li **“Akkusativ”** kelishigidan tashqari yana **“mit Dativ”** ko'rinishdagi boshqa bir tobe so'zni ham talab etadi. O'z navbatida **“wechseln”** **“almashtirmoq”**, **“verwechseln”** esa **“adashtirib yubormoq”** degan ma'noni anglatadi.

Ich habe ihn mit seinem Bruder verwechselt – Men uni akasi bilan adashtirib yubordim. [4, 13]

Dieses Hemd ist schmutzig, ich muss es wechseln. [4, 18]

Bunday fe'llar qatoriga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

wechseln + **Akkusativ** [2, 18] / verwechseln + **Akkusativ + mit Dativ** [4, 13]

laden + **Akkusativ + auf Akkusativ** / beladen + **Akkusativ + mit Dativ** [4, 118-119]

grüssen + **Akkusativ + von Dativ** [4, 128] / begrüßen + **Akkusativ** [3, 224]

hören + **Akkusativ + von D.** [4, 208]; **Akkusativ + in Dativ** [4, 209] (tinglamoq) / abhören + **Akkusativ** (quloq solib tinglamoq) [4, 246]

ändern + **Akkusativ** (o'zgartirmoq) [4, 219] / abändern + **Akkusativ** (o'zgarish kiritmoq) [4, 218]

tauschen + **Akkusativ + gegen Akkusativ** (almashtirmoq) [4, 19] / austauschen + **Akkusativ** (alishtirmoq, chalkashtirmoq) [4, 218]

Hokim so'zi sodda va yasama so'zlardan iborat bo'lgan fe'l boshqaruvlarini nafaqat semantik jihatdan ikki muqobil so'z doirasida, balki bir qator so'zlarning sinonimik qatorida ham kuzatish mumkin. Jumladan, nemis tilida **“kimningdir ustidan kulmoq”** ma'nosida quyidagi fe'l boshqaruvlari o'zaro ma'nodoshlik hosil qilish hodisasini talabalarga quyidagi misollar yordamida tushuntirib berish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

lachen + **über Akkusativ**, spotten + **über Akkusativ**, bespötteln + **Akkusativ**, verspotten + **Akkusativ**, auslachen + **Akkusativ**, belächeln + **Akkusativ**, verlachen + **Akkusativ** [3, 267]

Das Mädchen lachte über ihn. = Das Mädchen spottete über ihn. = Das Mädchen bespöttelte ihn. = Das Mädchen verspöttete ihn. = Das Mädchen lachte ihn aus. = Das Mädchen belächelte ihn. = Das Mädchen verlachte ihn. (Qiz uning ustidan kuldi/Qiz uni masxara qilib kuldi)

Yuqorida keltirilgan gaplardan koʻrinib turibdiki, sodda feʼllar boʻlmish “lachen” va “spotten” predlogli boshqaruvdagi tobe soʻzni, ularning derivativ invariantlari esa toʻgʻridan toʻgʻri Akkusativ kelishigidagi tobe soʻzni talab qilmoqda.

Xulosa sifatida shuni qayd etib oʻtishimiz muhimki, oʻzbek va nemis tillari morfologik jihatdan turli til oilalariga mansub boʻlgani bois nemis tilidagi feʼl boshqaruvlarini oʻzbek talabalar yaxshi oʻzlashtirib olishlarida ularni shunchaki yodlab olish emas, balki sodda feʼllarni oʻzaro muqobili boʻlgan yasama feʼllar bilan gap doirasida qanday toʻldiruvchini talab qilishiga eʼtibor qaratgan holda oʻrganish nemis tili oʻqitish metodikasida ancha samarali uslub hisoblanar ekan. Shuningdek ajralmovchi old qoʻshimchali aksariyat feʼllarning, xususan “be-, er-, ver-” kabi old qoʻshimchasi bor boʻlgan feʼllarning “toʻgʻridan toʻgʻri “Akkusativ” kelishigidagi tobe soʻz bilan bogʻlanishini talabalar tomonidan oʻzlashtirilib olinishi ham boshqaruv mavzusini oson tushunishlariga yordam berar ekan.

Yuqorida qayd etilgan fikrlarga tayangan holda nemis tilidagi feʼl boshqaruvini oʻrganishga yangicha uslubda yondashish asosida oʻzbek talabalarining nemis tilidagi nutqiy vaziyatlarda til unsurlaridan toʻgʻri foydalanish imkoniyatlari yanada kuchayishini kuzatish mumkin boʻladi.

Adabiyotlar

1. «Иқтидорли ёшларни аниқлаш ва юқори малакали кадрлар тайёрлашнинг узлуксиз тизимини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ – 4306 қарори. –Тошкент. «Халқ сўзи» газетаси, 2020 йил, 4-май.
2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi deputatlariga murojaatnomasi. 29-dekabr 2020 yil. m.oz.putniknews-uz.com.
3. Рахманов И.В. и др. Немецко-русский синонимический словарь. –Москва: Русский язык, 1983. 704 с.
4. Ўзбек-рус-инглиз-немис тиллари бошқарувида доир луғат-справочник. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. 288 б.
5. Степанова М.Д. Словообразование современного немецкого языка. Москва: КомКнига, 2007. 378 с.
6. Donalies. E. Die Wortbildung des Deutschen. Tübingen, 2005 192 S.
7. Erben, J. Einführung in die deutsche Wortbildungslehre. Berlin, 1975. -337 S
8. Fleischer. W. Wortbildung der deutschen Gegenwartssprache. Berlin. 2012. 448 S.

UDK: 417

SHE'RIY MATNLARDA METAFORANING USLUBIY IMKONIYATLARI

D. A. Yunusova

*Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarining qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazi
durdonayunusova3@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada she'riy matnlarda soʻzning estetik hayotini ta'minlab beruvchi asosiy omil metafora ekanligi, metaforaning uslubiy qoʻllanilishi, imkoniyati haqida soʻz yuritilgan.

Kalit soʻzlar: metafora, poeziya, mnemonika, badiiy nutq, leksik ma'no, termin, metaforizatsiya, leksema, poetik obraz, istiora.

Methodological possibilities of metaphor in poetic texts

Abstract. The article discusses the metaphor as the main factor that ensures the aesthetic life of the word in poetic texts, the methodological application of the metaphor and its possibility.

Keywords: metaphor, poetry, mnemonics, artistic speech, lexical meaning, term, metaphORIZATION, lexeme, poetic image, allegory.

Методологические возможности метафоры в поэтических текстах

Аннотация. В статье обсуждается метафора как основной фактор, обеспечивающий эстетическую жизнь слова в поэтических текстах, методологическое применение метафоры и ее возможности.

Ключевые слова: метафора, поэзия, мнемоника, художественная речь, лексическое значение, термин, метафоризация, лексема, поэтический образ, аллегория.

Yunon mutafakkiri Arastu o'zining "Poetika" asarida shoirga tavsiyalar berarkan, metafora qo'llashda ijodiy mahorat kerakligini alohida uqtiradi va ta'kidlaydiki: "... faqat shunigina o'zgalardan o'zlashtirib bo'lmaydi, bu qobiliyati iste'dodning belgisi bo'lib xizmat qiladi. Axir, yaxshi metaforalar yaratish – o'xshashlikni ko'ra olish demakdir" [1:173-b.]. Anglashiladiki, Arastu metafora yaratish qobiliyatini tug'ma iste'dod bilan bog'liq holda tushunadi, shuning uchun ham buni boshqalardan o'zlashtirib bo'lmaydi deydi. Albatta, faylasufning "o'xshashlikni ko'ra olish"ga urg'u berishi ham bejiz emas. Sababi buning uchun san'atkorona nigoh kerak, o'xshashlikni ko'ra olish obrazli tafakkur etishning eng muhim shartidir. Ya'ni, garchi Arastu ta'kidlab aytmagan bo'lsa ham, bu yerda poeziyaga xos obrazli tafakkur nazarda tutilayotganini bilish mumkin. Metafora she'riyatda obrazli tafakkur natijasi bo'lib yaraladi. Metafora til hodisasi bo'lsa ham, o'zining bu xususiyatini poetik nutqdagina to'la namoyon etadi. Boshqacha aytanda, metafora poetik nutqdagina badiiyat hodisasi, ya'ni badiiy obraz sifatida qabul qilinadi. Zero, metafora narsa-hodisani shunchaki atabgina qo'ymaydi, balki uni boshqa narsa-hodisaga qiyosan tavsiflaydi, ongimizda atalayotgan narsa haqida jonli tasavvur – obraz yaratadi. Ta'kidlash kerakki, bu obraz poetik nutqdagina asl holicha, ya'ni obraz sifatida qabul qilinadi, nutqning boshqa ko'rinishlari doirasida esa uning pirovard maqsadi nominatsiya bo'lib qolaveradi va tushuncha sifatida qabul qilinadi.

Mazkur qiyosdan metaforaning poeziyadagi o'rni va ahamiyati nechog'li katta ekanligini bilib olish mumkin. Zero, yaxshi ma'lumki, san'at, xususan, poeziya obrazli tafakkur qilish va obrazli ifodadir. Metaforani tafakkur jarayoni bilan uzviy bog'liq holda o'rganish o'tgan asrning 20-yillaridan boshlab kuchaydi. Nemis faylasufi Y.Kassirer mif, til va san'atning genezisini bitta ibtidoaga – ruhga bog'laydi, ular azalda bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan va shu sabab ularning genezisini bir butunlikda o'rganish lozim deb uqtiradi. Keyin esa, insonda mavhum tafakkur qilish imkonining ortishi barobarida, ularning orasidagi bog'liqlik susayib borgan. Natijada, so'z o'zining obrazli tabiatini yo'qotib, narsa-hodisaning abstrakt nomiga aylangan. Biroq, olimning fikricha, ruhning bir sohasi borki, unda so'zning obrazlilik (tasviriyligi) saqlanadigina emas, balki muttasil yangilanib turadi va bu soha poeziyadir. Sababi poeziya qadim ildizi – mif bilan aloqani uzmagan, aksincha, uning eng sara namunalari mif bilan mudom aloqada, unda olamga mifologik nazar tashlash qayta tug'iladi. Faqat endi poeziyada yashovchi ruh so'z va mifologik obrazni boshqaradi, endi ular ilohlar yo iblislarining mifologik olamini ham, abstrakt tushuncha yo munosabatlarning mantiqiy haqiqatini ham ifodalamaydi. Aksincha, poeziya ulardan forig' bo'lib, xayol olamiga aylanadi, bu olamda esa ruh erkin parvoz qiladi va shuning uchun ham konkretlashgan sof hislar o'z ifodasini topadi. Zero, badiiy ifoda uchun qo'llanuvchi so'z poeziyada o'zining yangi, estetik hayotini boshlaydi [2:41-42-b.]. Ko'ryapmizki, Y.Kassirer poeziyani ruh bilan bog'larkan, unda so'zning obrazli tabiati va olamga mifologik nazar qayta tug'ilishini, shular tufayli so'zning estetik hayoti boshlanishini ta'kidlamogda.

Aslida, Y.Kassirerning poeziyada olamga metaforik nazar qayta tug'iladi deyishida ham asos bor, chunki bu o'rinda mifologik tafakkur o'rnini egallagan poetik tafakkur nazarda tutiladi. Y.Kassirerning fikrlarini boshqa olimlar fikri bilan chog'ishtiradigan bo'lsak, rus olimi A.Potebnya metaforiklik – "tilning doimiy xususiyati" deganida har qanday so'zni obraz deb tushunishni taklif qiladi. Shu bilan birga, olim obraz va u ifodalayotgan ma'no boshqa-boshqa narsalar ekanligining idrok etilishi bilan yuzaga keluvchi metaforani ham farqlaydi hamda buning natijasida mifologik tafakkur yo'qola boshlaganini ta'kidlaydi [3:341-b.]. Mifologik tafakkurning yo'qola borishi bilan metaforaning paydo bo'lishi orasida aloqadorlik mavjudligiga O.Freydenberg ham e'tibor qaratadi. Faqat olima buni mifga ishonch-e'tiqodning yo'qolishiga emas, balki obrazli tafakkurdagi struktur o'zgarishga bog'lab tushuntiradi: obraz aniq o'xshatib berishdan o'quvchi diqqat markaziga talqin qilinayotgan ma'noni qo'yish yo'nalishida rivojlandi, natijada metafora yuzaga keldi [4:64-66-b.]. Xullas, mifologik tafakkur o'rnini metaforik tafakkur egallashi inson ongining o'sishi bilan bog'liq hodisaga aylanib bordi. Poeziyaning metaforaga moyilligi esa unda obyektiv olam – real voqelik bilan subyektiv olam – inson shaxsining to'qnash kelishi tufayli bo'lib, ularni oradagi o'xshashlik orqali anglashga intilish metaforani taqozo etadi. Shuning uchun ham metaforaning keng tarqalgan asosiy ko'rinishlari jonlantirish yoki predmetlashtirish asosida amalga oshadi. Yuqoridagilardan poeziyada so'zning estetik hayotini ta'minlayotgan asosiy omil metaforiklik ekani ma'lum bo'ladi. Shuning uchun ham poeziyada metaforaning o'rni haqida juda ko'p fikr bildirilgan. Jumladan, strukturalizmning taniqli namoyandalardan biri R.Yakobson fikriga ko'ra, "poeziya asosida o'xshashlik prinsipi yotadi" va shu jihati bilan u "aloqadorlik"ka asoslanuvchi nasr bilan qarama-qarshilik hosil qiladi [5:110-132-b.]. Akademik V.M.Jirmunskiy esa butun boshli adabiy yo'nalish – romantizmning asosiy xususiyatini metaforiklikda ko'radi, chunki romantizm uchun "metafora voqelikni romantik qayta yaratish usulidir" [6:332-b.]. Shuningdek, ko'p hollarda metafora, metaforiklik alohida shoir uslubining asosiy belgisi sifatida ham ko'rsatiladi. Masalan, V.M.Jirmunskiy A.Blokni, R.Yakobson esa

V. Mayakovskiyning “metafora shoiri” deb ataydi [7:426-432-b.]. Bu esa metaforaning uslub belgilovchi xususiyati haqida gapirishga asos beradi. Shuning uchun ham V.M. Jirmunskiy metaforaga har doim bajarayotgan funksiyasi nuqtayi nazaridan qarash kerak, chunki metaforaning qanday ishlatilayotgani shoir uslubi va dunyoqarashining o‘ziga xos xususiyati bilan bog‘liq deb yozadi [7:441-b.]. X.O. Gasset metaforaning fan va poeziyadagi o‘rni haqida to‘xtalib, metafora ilmda yordamchi maqomida bo‘lsa, poeziyada mohiyatni tashkil qilishini aytadi. Biroq, uning yozishicha, estetika metaforada faqat “go‘zallikning joziba jilvasinigina ko‘radi”, shu sababli unga haqiqat kategoriyasini tatbiq etmay, bilish quroli deb hisoblamay kelinadi. Bu esa poeziyaga tadqiqotchilik maqsadlari yot emasligini, uning ham fan kabi pozitiv faktlarni ochib berishga qodirligini sezishga xalaqit beradi. Holbuki, poeziyaning olamni bilishda o‘rni juda katta, biroq uning bu boradagi ahamiyatini juda kam odam tasavvur qila oladi [8:72-b.]. Darhaqiqat, avvaliga poeziyaga xos hodisa, shunda ham nutq bezagi sifatida tushunilgan metafora endilikda fikriy faoliyatning barcha ko‘rinishlariga ham birdek xos ekanligi e‘tirof etilishi ayon bo‘lib bormoqda.

Gassetning fikridan shunday xulosa kelib chiqadiki, metaforani poeziyada ham faqat nutq bezagi emas, balki badiiy tafakkur asosi sifatida tushunilsa, to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki metafora shoirga o‘zining ichki olamini (tashqi olamga qiyosan) va o‘zidan tashqaridagi olamni (ichki olamga qiyosan) anglashga yordam beruvchi tengi yo‘q vositadir. Yaxshi ma‘lumki, hozirgi vaqtda metafora atamasi nafaqat nutq vositasida amalga oshuvchi badiiy kommunikatsiyaga, balki badiiy informatsiya yetkazishning boshqa turlari (masalan, raqs, kino, rassomlik)ga nisbatan ham qo‘llanadi. Shuning uchun ham Gasset yuqorida tilga olingan maqolasida agar masalaga chuqurroq yondashilsa, ehtimol, “metafora” atamasidan voz kechishimizga to‘g‘ri kelgan bo‘lur edi, chunki u bizni chalg‘itib qo‘yishi mumkin, degan fikrni bildiradi [8:73-b.]. Albatta, faylasufning bu fikrida jon bor. Birinchidan, yunoncha “metafora” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi “ko‘chirish” bo‘lib, u dastlab umuman ko‘chma ma‘noli so‘z (trop) sifatida ishlatilgan. Hozirda bu termin bilan faqat o‘xshashlik asosidagi ko‘chim yuritilishi ma‘no torayishi natijasidir. Ikkinchi tomondan esa, ushbu atamaning qo‘llanilish doirasi, ma‘no ko‘lami hozirda juda keng: metafora ma‘noni bilvosita va obrazli ifodalashning har qanday ko‘rinishini anglatmoqda (masalan, rassomlik san‘atidagi tasviriy obraz ham, agar ko‘chma ma‘nosi bo‘lsa, metafora deb yuritilaveradi). Bundan tashqari, metafora ma‘no ko‘lamini badiiy adabiyotda ham benihoya kengaytirgan. Natijada hozir biz o‘xshashlikka asoslanib ko‘chma ma‘noda qo‘llangan birgina so‘zni ham, matnning bir bo‘lagi (misra, band; jumla, abzats;) da ifodalanuvchi obrazni ham, ba‘zan esa butun boshli asarni to‘laligicha ham metafora deb atayveramiz. To‘g‘ri, keyingi ikki holni ba‘zan “yoyiq metafora” yoki “metaforik obraz” deb aniqlashtirib ham ataymiz, lekin qisqa qilib “metafora” deyish ko‘proq uchraydi. Demak, poeziyada metafora terminining qo‘llanilish doirasi kengaydi, bu esa uning ma‘no doirasi ham kengayganini bildiradi. Ya‘ni, agar avvaliga metafora terminida ma‘no torayishi (umuman ko‘chma ma‘nodagi so‘z – o‘xshashlik asosidagi ko‘chma ma‘noli so‘z) yuz bergan bo‘lsa, yangi davrdan boshlab unda ma‘no kengayishi jarayoni kuzatiladi. Natijada endi metaforani juda keng, ya‘ni poeziyada (umuman san‘atda)gi bir narsa-hodisa mohiyatini ikkinchi bir narsa-hodisa orqali ochish deb tushunila boshlandi.

Afsuski, metafora ontologiyasi yangi ma‘nolar yaratish usuli sifatida kam o‘rganilgan. Shuning uchun metaforizatsiya metodlarini ishlab chiqmoq lozim. Metafora muammosi uzoq tarixga ega bo‘lsa-da, bu hodisaning ontologiyasi va metaforizatsiya mexanizmlari, ya‘ni so‘zlarning ma‘nolarini yangi nominativ vazifa ifodasiga moslashtirish jarayonida qayta ko‘rib chiqish yo‘llari tilshunoslikda asosan semasiologik aspektida tilning tayyor til ma‘nolarini qiyoslash va tahlil qilish asosida o‘rganilgan. Ko‘rinib turibdiki, metaforaning bu bir o‘lchovli tadqiqi tilshunoslikning “qanday amalga oshiriladi” degan savolga javob bera oladigan rivojlangan metafora nazariyasiga ega emasligining sababidir. Istiora tarixshunosligi bunga ancha ishonarli dalillar keltira olardi. Tilshunoslik va adabiyotshunoslik, ular uzoq vaqt davomida bo‘lgan yaqin aloqadan kelib chiqib, metafora hodisasini o‘rganish va tasvirlashda turli vazifalarni bajardi.

Metafora til birligi sifatida nutqda qo‘llanganda o‘z til yuklamasini tashiydi. Shuning uchun metaforaning tildagi rolini aniqlash uchun asosiy vazifalarini ta‘kidlash maqsadga muvofiqdir. Xarchenko V. K. quyidagi funksiyalarni aniqlaydi:

1) Nomlash vazifasi. So‘zda majoziy ma‘nolarni rivojlantirish imkoniyati ko‘p yangi cheksiz so‘zlarning shakllanishiga kuchli ta‘sir ko‘rsatadi. “Metafora so‘z yasashga yordam beradi: metaforasiz so‘z yasash tobora ko‘proq yangi so‘zlarni uzluksiz ishlab chiqarishga mahkum bo‘lar va inson xotirasini aql bovar qilmas darajada yo‘qotardi” [9:241-b.]. Nominatsiya tizimlarida metaforaning noyob roli metafora tufayli tushunarsiz yoki deyarli tushunarsiz, oddiy nom va ochiq, shaffof, kristalli nom o‘rtasida muvozanat tiklanadi. Metaforalarning nominativ xususiyatlari nafaqat muayyan til doirasida, balki tillararo darajasida ham porlaydi. Rasm, qarz so‘zma-so‘z tarjima qilganda va aksincha, ona tilidagi so‘zlarni boshqa tillarga tarjima qilganda paydo bo‘lishi mumkin.

Metaforik nominatsiya jarayonlarida ko'p narsa milliy an'analarga, masalan, nom madaniyati kabi sohaga bog'liq. Bolaga ism berishda Markaziy Osiyo an'anaviy tarzda metaforadan foydalanadi: Azizxon — "Shodiyonaoy", Oltinoy — "Oltin oy", Gulbahor — "bahor guli". Metafora nomi boshqa tillarda ham mavjud Haqiqatan, to'g'ri ta'kidlanmoqda. Keltirilgan ismlar metaforik xususiyatga ega. Sharqda shaxs nomlari, xususan xotin-qizlarga qo'yiladigan ismlar ko'chma ma'noga asoslanadi, ya'ni ko'proq metafora shaklida bo'ladi [10:173-b.].

2) Axborot vazifasi. Metafora vositasida uzatiladigan axborotning birinchi xususiyati tasvirning yaxlitligi va panoramikligidir. Panoramizm tasvirning ko'rgazmaliligiga asoslangan bo'lib, har qanday metaforaning asosi, xom-ashyosi, asosi bo'lmish o'ziga xos so'z birikmalarining mohiyatiga yangicha nazar tashlaydi. Istiora ro'y berishi, tug'ilishi, mehnat qilishi uchun kishida so'z-belgilarning saxiy ta'minoti bo'lishi kerak.

3) Mnemonik vazifasi. Metafora ma'lumotni yaxshiroq eslab qolishga yordam beradi. Haqiqatan ham, qo'ziqorinlarni tabiiy changyutkichlar deb atashga arziydi va biz uzoq vaqt davomida tuproqdan toksinlarni eng yaxshi qabul qiladigan qo'ziqorin ekanligini eslaymiz. Tasvirning ortib borishi, ehtimol, uning hissiy va baholovchi tabiati bilan bog'liqdir. Uning sof shaklida mnemonik funksiyasi va boshqalar kamdan-kam uchraydi. U xalq topishmoqlari, maqollari va adabiy aforizmlarda janr hosil qiluvchi funksiya, falsafiy tushunchalar, ilmiy nazariyalar va farazlarda esa evristik funksiya bilan mashhur fan adabiyotidagi tushuntirish funksiyasi bilan birlashtirilgan.

4) Matn hosil qiluvchi funksiya. Metaforaning matn hosil qiluvchi xususiyatlari uning motivlash, kengaytirish, ya'ni tushuntirish va davom ettirish qobiliyatidir. Matn hosil qilishning ta'siri metaforik axborotning panoramik tasvir, uning tuzilishida ongsizning katta ulushi va tasvir akslarining pluralizmi kabi xususiyatlarining natijasidir.

5) Janrni shakllantirish funksiyasi. Metaforaning janr hosil qiluvchi xususiyatlarini ma'lum bir janrni yaratishda ishtirok etadigan deb atash mumkin. Polshalik tadqiqotchi S. Gaida janr va uslub o'rtasida bevosita aloqalar mavjud deb hisoblaydi. Darhaqiqat, topishmoq va maqollar, odalar va madrigallar, lirik she'rlar va aforistik miniaturalar uchun metafora deyarli shart. Aristotel topishmoqni yaxshi topilgan metafora deb atagan.

6) Davlat funksiyasi. O'quv va ommabop fan adabiyotlarida metaforalar juda katta rol o'ynaydi, murakkab ilmiy ma'lumot va terminlarni o'zlashtirishga yordam beradi. Darsliklar haqida gapirilsa, ularning tushuntirish funksiyasidagi metaforalar hozirgi darsliklarga qaraganda ancha keng qo'llanilgan. Metaforalarning tushuntirish funksiyasi fizika, musiqa, biologiya, astronomiya, rasm va har qanday hunarni o'rganishda til yordam beradi [11:223-6.].

7) Hissiy-ta'sir funksiyasi. Metafora nutq qabul qiluvchiga ta'sir ko'rsatish uchun ajoyib vositadir. Matndagi yangi metafora allaqachon nutqni qabul qiluvchining hissiy va baholovchi reaksiyasiga olib keladi. Yangi, kutilmagan kontekstda so'z nafaqat hissiy baho oladi, balki ba'zan uning bahosini teskari tomonga o'zgartiradi. Shunday qilib, metaforik tarzda ishlatilganda, "qul" so'zi deyarli ijobiy ayblovi olishi mumkin: "u bir marta omon qolgan va g'alaba qozongan, kimnidir qutqara olgan yoki o'zini qutqara olgan har bir kishi, hamma va har bir kishi, aslida, baxtli tajriba qullari edi [12:196-b.].

8) Qaltis funksiya – ma'noni tasniflash uchun ishlatiladigan metafora emas, balki har bir metaforik shifr, ma'no bir fitnadan ogoh qiladi. Asopiy tilini yaratishda metaforaning roli katta, ammo adabiy asarda ma'no fitnasidan ko'ra metaforik kodlash haqida gapirish o'rinli bo'ladi. Albatta, "Akademiya" qamoqxona degan ma'noni anglatishini bilganingizda, metaforaning qaltis xususiyatlari shubhali, ayniqsa, bunday obrazli va asl metaforalar xotiraga mustahkam o'rnanishgan va takroriy tushuntirishlarni talab qilmaydi.

9) O'yin vazifasi. Metafora ba'zan hajviy vosita sifatida, til o'yin shakli sifatida ishlatiladi. O'yin xulqidagi har bir inson eng chuqur, ehtimol, so'zsiz ehtiyojni anglaydi. Til o'yin shakli sifatida metafora badiiy asarlarda keng qo'llaniladi. Folklorda metaforaning yetakchi vazifasi o'yin funksiyasi bo'lgan shakl mavjud edi. Biz odatda maqollar bilan birgalikda o'rganiladigan va bunday tadqiqotlarda tilining o'ziga xosligini yo'qotadigan janr-hikmatlarni nazarda tutaymiz. Maqollarning metaforasi asosan axloqiy, tarbiyaviy bo'lsa, hikmatli so'zlar metaforasi ta'limdan ko'ra o'yin-kulgi uchun ko'proq yaratilgan o'yindir.

10) Marosim vazifasi. Metafora an'anaviy tarzda salomlashish, bayram tabriklarida, shuningdek ta'ziya va hamdardlik bildirishda qo'llaniladi. Bu vazifani marosim deb atash mumkin. Metaforaning marosim funksiyasining rivojlanishi milliy an'analarga ham bog'liq. Shunday qilib, Sharqda kengaytirilgan, uzoq tabriklar ko'plab taqqoslashlar, epitet va metafora bilan qabul qilindi. Bunday salomlarning muhim tomoni xushomadga tushmasligi kerak. Bu oldindan maqtov, oldingizda donolik va halollik modelini ko'rish istagidir.

Funksiyalarning o'zaro ta'siri muammosini o'rganishda nutqning turli gipostazlari shakllaridan ham, funksiyalarning o'zidan ham borish mumkin. Metaforaning yuqori axborotlilik xususiyatlarni keltirib chiqaradi. Marosim harakatlari va spektakllarda metaforalardan foydalanish katta samara beradi. Metaforaning mnemonik vazifasi, esda olib qolishni osonlashtiradi, shuningdek, ta'lim va ommabop fan adabiyotlarida metaforalarning tushuntirish potentsialiga ta'sir qiladi. Metaforaning kodlash xususiyatlari axloqiy vosita sifatida keng tarqalishiga olib keldi, chunki axloqiy ta'sir ko'pincha yopiq, yashirin axloqiy ta'sirga bog'liq.

Xullas, metaforaning nutqda ishlatilish qoidalari anglab olindi, metafora tushunchasi til birligi sifatida o'rganildi, shuningdek, uning asosiy vazifalari olimlarning tasnifi doirasida ko'rib chiqildi. Metaforalar o'zaro muloqotning tushunarli bo'lishiga katta hissa qo'shadi. Doim noma'lumni ma'lum qilishda ishtirok etadi. Shuni ta'kidlash joizki, badiiy matnlarda, xususan, she'riy matnda lisoniy birliklarning leksik va grammatik imkoniyatlari, ma'no tovlanishlari, lug'aviy va uslubiy ma'no taraqqiyoti, tadrijiy qay holatdaligi ma'lum bo'ladi. Metaforani ijodkor uchun ham matn muallifi uchun ham olamning lisoniy manzarasini tasavvur qilishning asosiy vositasi sifatida ham tilshunoslik, ham adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan binar tadqiqot o'tkazish samarali natija beradi.

Adabiyotlar

1. Aristotel. Ritorika. Poetika. – M.: Labirint, 2000. – S. 173.
2. Кассирер Э. Сила метафоры // Теория метафоры: М., 1990. – С. 41-42.
3. Потебня А.А. Эстетика и поэтика. – М., 1976. – С. 341.
4. Поэтика: труды русских и советских поэтических школ – Будапешт, 1982. – С. 64-66.
5. Якобсон Р. Два типа языка и два типа афатических нарушений //
6. Теория метафоры. М.: Прогресс, 1990. - С. 110 -132.
7. Жирмунский В. М. Введение литературоведение. 2004. – С. 426-432.
8. Х. Гассет. Две великие метафоры. //Метафоры Теория. – М., 1990. – С. 72.
9. Парандовский Я. Способы номинации в современном русском языке. М., 1982.–С 241.
10. Бессарабова Н.Д. Метафора как языковое явление. Значение и смысл слова: художественная речь, публицистика. / Под ред. Д.Э. Розенталя. – М.: Изд-во МГУ, 1987. – 200с.
11. Булыгина Т.В. Особенности структурной организации языка как системы и методы ее исследования. М., 1991. –С. 223.
12. Вежбицка А. Язык, культура, познание. М., 1996. –С. 196.

UDK 891.709

“BOBURNOMA” MATNIDAGI VAQT O'LCHOV BIRLIKLARI TARJIMALARINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

S.B.Shodmonova

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti

Annotatsiya. Ushbu maqola “Boburnoma” matnidagi vaqt o'lchov birliklarining lingvokulturologik xususiyatlariga bag'ishlanadi. O'lchov birliklarining tarjimasini transliteratsiya usulida berilishi hamda tarjimalarning lingvokulturologik va pragmatik xususiyatlariga alohida e'tibor berilgan. “Boburnoma” matnidagi vaqt o'lchov birliklarining tarjimalarda aks etishdagi muammolar va ularning tarjimalarida lingvokulturologik xususiyatlarini qayta tiklanish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: o'lchov birliklari, vaqt o'lchovlari, misqol, lingvokulturologik xususiyatlar, asliyat, matematik raqamlar.

Лингвокультурные аспекты перевода единиц времени в Бабурнаме

Аннотация. Статья посвящена лингвокультурным аспектам единиц времени в Бабурнаме. В частности, особое внимание уделяется транслитерации единиц измерения, а также лингвокультурным и прагматическим аспектам переводов. Будут проанализированы вопросы, связанные с правильным включением единиц времени в «Бабурнаме» в переводы и возрождением лингвокультурных аспектов в этих переводах.

Ключевые слова: единицы измерения, единицы времени, унция, лингвокультурные аспекты, оригинальность, математические числа.

Linguocultural aspects of translating units of time in Baburnama

Abstract. This article is dedicated to the linguocultural aspects of units of time in Baburnama. Specifically, thorough attention is paid to the transliteration of units of measurement as well as the linguocultural and pragmatic aspects of translations. Issues related to the proper incorporation of units of time in "Baburnama" into translations and revival of linguocultural aspects in these translations will be analyzed.

Keywords: units of measurement, units of time, ounce, linguocultural aspects, originality, mathematical numbers.

“Boburnoma” bir tomondan fanning o’nga yaqin sohalariga oid ma’lumotlarni jam etgan teran ilmiy asar, ikkinchi tomondan, shoh va shoirning qalb daftari ekanligi bizga ma’lum. Bu asarda turli sohalar kabi o’lchov birliklariga ham katta e’tibor qaratilgan. Bunda faqat bir tomonlama ya’ni bir xalqning o’lchov birliklari emas, boshqa millat, xalqning o’lchov birliklari shu joyda istiqomat qilayotgan shaxsga tushunarli bo’lishi uchun qiyoslab tushuntirib berilgan. Sistem tilshunoslik nuqtai nazaridan vaqt birliklarinig matn hosil qilishdagi imkoniyatlariga bag’ishlangan tadqiqot M.Hakimova [7] qalamiga mansub bo’lib, unda vaqt ma’noli lug’aviy guruhlar sistem tilshunoslik nuqtai nazaridan keng va atroflicha tahlil etilgan.

Bobur nasrining o’ziga xos bir jihati uning voqea va hodisalarni umumlashtirish san’atidir. U hajman ixchamgina parchadan ham o’quvchida bir dunyo ma’no olish imkonini beradi. Tasvir jilosi, lo’ndaligi va undagi fikrlar ko’lami kishini hayratga soladi. “Boburnoma” uslubida asosan to’rt jihat yaqqol ko’zga tashlanadi.

1. Boburning atrof-muhitni idrok etishi, mavzu tanlashi va uni real va hatto naturalistik tasvirda berishi;
2. Shu mavzuni o’zining bilim doirasida ilmiy-amaliy tahlil qilib, badiiy tarzda ifodalashi;
3. O’ziga xos uslub – “har so’zni rostini” bitishi;
4. Ana shu jihatlarni yuksak badiiy saviyada o’quvchiga yetkazish xususiyatidir” [8].

Turkiy xalqlarning qamariy oy, hijriy yil hisobidagi arab yilnomasidan foydalanilganliklarini olishimiz mumkin.

Vaqt o’lchovini ifodalovchi eski oy nomlari bilan hozirda tilimizda qo’llanilayotgan baynalmilal oy nomlari orasida ma’lum darajada farq bor. Shuningdek, Gregoriyan kalendari bilan quyosh kalendari o’rtasidagi farq 11 kundan iboratdir. Gregoriyan kalendari 365 kunni, Quyosh kalendari esa 354 kunni” [9] tashkil etadi.

Qadimda vaqt o’lchovini bildirib kelgan bu kabi til vositalarining tilimizda tutgan o’rni haqida turlicha fikrlar mavjud.

“Boburnoma”da vaqt ma’nosini ifodalovchi numerativ so’zlar juda ko’p: asr, oy, yil, fasl, haftadagi kunlar, soat, minut, sekundini ifodalovchi pos, pahr, giri// gari, qismat, pul, daqiqa, namoz bilan bog’liq bo’lgan namozi shom, namozi peshin, namozi digar, bir sut pishimi ot minguncha fursat, qilich sug’urguncha fursat, tug’chi tug’ bog’laguncha fursat va shu kabilardir. Vaqt ma’nosini ifodalovchi bunday numerativ so’zlarni ma’nosiga ko’ra quyidagi guruhlariga bo’linadi:

1. Yil ifodalovchi numerativlarga asarda keltirilgan yil sanalarini keltirish mumkin. Masalan Shayboniyxon bilan Sulton Ali Mirzo voqeyasi quyidagi sanada o’z aksini topgan: Voqei sanai sitta va tisa mia 906 (1500- 1501) yil voqealari [3.137].

2. Fasl ifodalovchi numerativlarga qish, zimiston, yoz, tobiston, kuz, pashkol, bahor. Fasl so’zi uch oyni anglatib, yilning to’rtidan bir bo’lagi ma’nosini anglatadi. Hindistonda esa fasl to’rt oyni ifodalab, yilning uchdan bir bo’lagini bildiradi: Yana ul viloyatlarda to’rt fasltur. Hindistonda uch fasl bo’lur, to’rt oyi yoz dur, to’rt oyi pashkol, to’rt oy qish [3.265,358].

Turli mavzularni yoritishda qiyosiy tasvir usulini qo’llash mahorati ham «Boburnoma» badiiyatining o’ziga xos jihati hisoblanadi. Bu Boburning klassik nasr tiliga qo’shgan ulkan hissiy sifatida baholanishga loyiq. «Boburnoma» leksikasida turkiy tilning barcha qatlamlari, arxaik va zamonaviy leksika nasr tilining keng imkoniyatlarini namoyon eta olgan. Bu borada biz tilshunos Boburni, uning hind, fors, arab, turkiy tillar bilimdoni ekanini anglaymiz. Boburshunos Z.Xolmanova ayni masala xususida shunday fikrni aytadi: «Eski o’zbek tili xususiyatlari aks etgan «Boburnoma» keng ko’lamdagi leksemalar tizimini o’z ichiga olgan. Asar leksikasi XV – XVI asr o’zbek adabiy tili lug’at boyligini ifoda etadi. Shu bilan bir qatorda unda Bobur faoliyatiga bog’liq tarzda afg’oncha, hindcha, leksemalar qo’llangan» [10.3].

Movarounnahr va Xurosondagi islomiy fasl, yil, oy, kun taqvimlari atamalarga odatlangan Bobur uchun Hindistonning taqvimiy tartiblari, atamalariga ko’nikish ancha qiyin kechgan. Adib ularni qiyoslashda ko’p murakkabliklarga duch kelgan, pirovard natijada mazkur sohaning yetuk, bilimdoni darajasiga yetgan. Qiyosiy tahlillarda ichki tizim, mutanosiblik bilan birga, o’quvchi chalg’imasligi uchun, hindcha atamalarning forscha, turkcha muqobillari aniq belgilaganki, bundan ko’z o’ngimizda katta chog’ishtirma tadqiqot olib borgan shaxs namoyon bo’ladi. Shu asosda tasvirlangan fasllar taqsimoti, uning islomiy murodifiga oid qiyosiy tahlillar berilgan.

Masalan: «Yana ul viloyatlarda to'rt fasltur. Hindustonda uch fasl bo'lur: to'rt oyi yozdur, to'rt oyi pashakaal, to'rt oyi qish. Oylarning ibtidosi hiloliy oylarning istiqbolidindur. Har uch yilda bir oyni pashakaal oylarig'a ziyoda qilurlar. Yana uch yilda qish oylarig'a ziyoda qilurlar. Yana uch yilda yoz oylarig'a. Bularning kabisasi budur» [3.207].

Mazkur matnning bir jihatiga e'tibor beraylik. Boburning qiyosiy usulida matematik, astronomik tushunchalar alohida-alohida tarzda qayd etilmagan. Ular o'zaro uyg'unlashib, bir-birini to'ldirib kelmoqda. Musulmon taqvimidagi har to'rt yilda bir marta keladigan kabisa yili (fevral oyining 29 kun kelishi)ni Bobur Hindiston taqvimidagi fasllar nisbatida qiyoslab, aniq sharhlab bergan. Bunday olimona nuqtai nazarning muqoyasa usulida o'quvchiga yetkazilishi Bobur tafakkurining naqadar kengligini ko'rsatadi.

Endi ayni uslubning har uchala tarjimada qanday aks ettirilganini ko'rib o'tamiz: *In other countries there are four seasons; in Hindustan there are three; four months of summer, four of the rainy season, and four of winter. Its months begin with the new moon. Every three years they add a month to the rainy season; again, at the end of the next three years they add a single month to one of their winters; and in the course of the succeeding three years they add one month to a summer. This is their mode of intercalation* [3.Vol.II.; 237] (boshqa mamlakatlarda to'rtta fasl bor; Hindistonda uchta fasl bor; to'rt oy yoz, to'rt oy yomg'irli, to'rt oy qishdir. Uning oylari yangi oy bilan boshlanadi. Har uch yilda ular bir oyni yomg'irli faslga qo'shadi, yana keyingi uch yilning oxirida ular bir oyni qish fasliga qo'shadi; muvofiq kelishi uchun uch yilda ular bir oyni yozga qo'shadi. Bu ularning kabisa usulidir (MT) deb tarjima qiladi. Bunda tarjimon mahorati ko'rinib turibdi. So'z birikmalari, ilmiy atamalarni berishda ularga mos ekvivalent tanlash muhimdir. Tarjimon muallif tasvirlagan qiyosiy tasvirning har bir detalini tarjimada aks ettirishga harakat qilgan. Asliyat matnida: «yana uch yilda yoz oylarig'a» jumlasini, «in the course of the succeeding three years they add one month to a summer» (uch yilda ular bir oyni yozga qo'shadi) deb o'giriladi. Bu jumlagina «in the course of the succeeding» (muvofiq kelishi uchun) birikmasi qo'shiladi. Birikma asliyat pragmatik xususiyatlarini to'la aks ettiradi. Retseptorga ma'lumotni aniq yetkazish uchun xizmat qiladi.

A.Beverij tarjimasida: «Again: – whereas there are four seasons in those countries, there are three in Hindustan, namely, four months are summer; four are the rains; four are winter. The beginning of their months is from the welcome of the crescent-moons. Every three years they add a month to the year; if one had been added to the rainy season, the next is added, three years later, to the winter months, the next, in the same way, to the hot months. This is their mode of intercalation» [1.515] (Yana ana shu mamlakatlarda to'rt fasl bo'lur, Hindistonda uchta fasl bo'ladi. To'rt oy yoz, to'rt oy yomg'irli, to'rt oy qishdir. Oylarining boshlanishi yarim oy shaklidagi oyning qarshi olinishidandir. Har uch yilda bir oyni yilga qo'shadi, bir yil yomg'irli faslga, yana qo'shiladi, uch yil keyinroq qish oylariga, yana xuddi shu yo'lda yoz (issiq) oylariga qo'shiladi. Bu ularning kabisa usulidir (MT) deb tarjima qiladi. A.Beverij tarjimaning leksik-semantik jihatidan pishiq bo'lishiga e'tibor qaratgan. «Yana» so'zining ma'nolariga qarab ekvivalentlarini bergan. Tarjima jarayonida Movarounnaxr fasllari Hindiston fasllariga nisbatan farqlanishini adekvat usulda amalga oshirgan. «Oylarning ibtidosi hiloliy oylarning istiqbolidindur» jumlasini «the beginning of their months is from the welcome of the crescent-moons» (oylarning boshlanishi yarim oy shaklidagi oyning qarshi olinishidandir) deb beriladi. Bunda asliyatda keltirilgan jumla ma'no va mazmun jihatidan o'z aksini topgan. Pragmatik muvofiqlik bilan o'girilgan.

V.Tekston tarjimasida: *In our country there are four seasons, but in Hindustan there are three: four months of summer, four of monsoon, and four of winter. The months begin with the crescent moon in opposition. Every three years one month is added to the monsoon months, then three years later a month is added to the winter months, then three years later a month is added to the summer months. This is their intercalation* [4.34] (bizning mamlakatda to'rtta fasl, ammo Hindistonda uchta fasl bor. To'rt oy yoz, to'rt oy yomg'irli, to'rt oy qishdir. Yarim oy qarshilanishi bilan oylar boshlanadi. Har uch yilda bir oy yomg'irli oyga qo'shildi, keyingi uch yilda oxirgi bir oy qish oyiga qo'shiladi, keyinroq uch yilda bir oy yoz oyiga qo'shiladi. Bu ularning kabisasidir (MT). Bu tarjimon badiiy-tasviriy vositalar aniqligiga diqqat qaratgan. Bobur uslubidagidek sodda va ixcham o'giran. «Oylarning ibtidosi hiloliy oylarning istiqbolidindur» tasviri tarjimada: «the months begin with the crescent moon in opposition» deb tarjima qilinadi. Tarjimon «hiloliy oy» birikmasini, muallif ifodalangandek, «crescent moon» tarzida jonlantirgan. Umuman, V.Tekston tarjimasida qiyosiy tasvirlar asliyatning pragmatik xususiyatlariga muvofiq qayta yaratilgan.

Tarjimonlarning har biri o'z yo'li, uslubiga ko'ra tarjima qilgan. Ayniqsa, qiyosiy tasvirlarni mukammal o'rganib, qayta tiklagan. Qiyosiy tasvirlarni aks ettirishda grammatik transformatsiyaning sintaktik moslashuv turlaridan foydalangan. Bularning hammasi tarjimon mahoratiga bog'liq, albatta. Tarjimashunos olim G'.Rahimov to'g'ri ta'kidlaganidek: «Tarjimon nafaqat muayyan uslubiy vazifa ifodasi uchun qo'llangan obrazli yoki hissiy-ta'sirchan lisoniy vositani, balki amaliy jihatdan qiyinchilik tug'dirmaydi deb tasavvur qilinadigan erkin ma'nodagi u yoki bu so'z yoxud so'z birikmasini o'girishda ham har doim o'sha vosita mazmunini tarjima tilida qanday so'z yoki so'z birikmasi aniqroq va to'laroq ifoda etishi mumkinligi, mavjud variantlardan qaysi birining asliyat ruhiga ko'proq mos kelishi haqida o'ylashi va doim o'z oldiga nazarda tutilgan fikrni qay tarzda yanada

ravonroq bayon etish mumkin degan savolni qo'yishi zarur» [6.113]. Bu jihatlar har uchala tarjimonda ham aniq aks etgan. Pragmatiklik, adekvatlik, vaqt o'lchov birliklari tarjimasidagi badiiyat va aniqlik shundan dalolat beradi. Mumtoz asar yaratilgan davr uchun odatiy bo'lgan ammo hozirda tilning passiv qatlamidan o'rin olgan, asliyatning asliyatning xaqiqiy tarixiy manba ekanligini ta'minlovchi bu kabi til birliklarining tarjimada me'yorini belgilash juda nozik masala. Tarjimada ularning qanday aks ettirilganini o'rganish esa muhim ahamiyatga egadir. Bu o'rinda tarjimon bir mamlakatda yashovchi hamda yagona bir tilda so'zlashuvchi xalq tilini ham sinxronik, ham diaxronik jihatidan olib o'rganishi zuru bo'ladi. Chunki bir xalq tilida nafaol qatlamdan joy olgan til birliklari, boshqa ir xalq tilida aktiv qo'llanishda bo'lishi hisobga olinishi zurur. Bunday holatda tarjimondan tarjimaga tarixiy yondashish hamda tarixiy voqealar bayonini buzmay to'g'ri aks ettirish talab qilinadi.

Asliyatga muqobil tarjima yaratishda vaqt biro'lchovini bildiruvchi birliklar haqida to'xtalib, taniqli tarjimashunos olim A.V.Fyodorov "asliyatdagi bir ma'noli so'zga turli kontekstlarda birday mos keladigan bir ma'noli so'zning to'g'ri kelishi amaliyotda juda kam" [5.134] deya ta'kidlaydi, bunday moslik faqat ba'zi leksik birliklarga, ya'ni so'zlar, kalendar tushunchalarini anglatuvchi (oy nomlari, hafta kunlari) vaqt birliklariga tegishlidir. Yana shuni ham aytib o'tish joizki, kalendar tushunchalarini yoki vaqt o'lchovini anglatuvchi bunday leksik birliklar gregoriyan yil hisobi qo'llangan asarlar tarjimasi ustida gap borganda, ularni o'g'irish yoki transliteratsiya qilish ham aynan gregoriyan yil hisobida amalga oshirilganda bu o'zini olaydi. Ammo, sharq hayoti tasvirlangan mumtoz asarlarda hijriy shamsiy-qamariy yil hisobi qo'llangan hollarda ularni zamonaviy tilga o'g'irish tarjimonlar uchun murakkabroqdir.

Adabiyotlar

1. Beveridge A.S., *The Bābur-nāma in English (Memoirs of Babur)*, Translated from the Original Turki Text of Zahiru'ddin Muhammad Babur Padshah Ghazi by Annette, Susannah Beveridge. 2 Vols, – London, 1922; Repr, in one Volume, – London, 1969; – New Delhi, 1970; – Lahore, 1975. – P.134
2. Leyden J., W.Erskine. *Memoirs of Zehired-din Muhammed Babur, Emperor of Hindustan.*– Edinburg, 1826. – P.422
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. «Boburnoma». – Toshkent: Sharq NMAK, 2002. – B.37.
4. *The Baburnama. Memoirs of Babur, Prince and Emperor*, Translated, Edited, and, Annotated by Wheeler M., Thackston. – New York & Oxford, 1996. – P.121
5. Fedorov A.V. *Osnovy obshchey teorii perevoda (lingvisticheskiye problemy).* – M.: Vysshaya shkola, 1983. – S.134
6. Rahimov G'. *Tarjima nazariyasi va amaliyoti.* –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2016. – B.113.
7. Hakimova M. *O'zbek tilida vaqt ma'noli lug'aviy birliklar va ularning matn shakllantirish imkoniyatlari.* NDA. Farg'ona, 2004.
8. Qudratullayev H. "Boburnoma"ning adabiy-tarixiy va uslubiy tahlili, dok. diss..avtoref. –T.: -1998. – B.43
9. Xolmirzayev F. *Xotira uyg'onsa go'zaldir.* – T.: Fan, 2003. – 56 b.
10. Xolmanova Z. «Boburnoma» leksikasi. – Toshkent: Fan, 2007. – B.3.

UDK:42

Challenges in Designing ESP Courses

F.Sh.Negova

Samarkand state university

Abstract. This article presents the design process, challenge and evaluation of an English for Specific Purposes (ESP) course addressed to chemistry students at Samarkand State University. This process required a needs analysis to assess the students' academic and professional needs, wants, and lacks in order to create a course that included the four macro skills: speaking, listening, reading, and writing. This article presents the findings of the needs analysis. In addition, a set of learning strategies were considered in the design process (paraphrasing, negotiation of meaning, predicting, scanning, among others) to fit the students' reported needs. Based on the findings of the needs analysis, Chemical Course was designed to respond to students' needs, wants and lacks.

Keywords: ESP teacher, language skills, practical activities, predicting, scanning, Task based approach, evaluate their courses.

Проблемы при разработке курсов английского языка для специальных целей

Аннотация. В этой статье представлен процесс разработки, задачи и оценка курса «Английский язык для специальных целей» (ESP), адресованного студентам-химикам Самаркандского государственного университета. Этот процесс требовал анализа потребностей для оценки академических и профессиональных потребностей, желаний и недостатков студентов, чтобы создать курс, включающий четыре макро-навыков: говорение, аудирование, чтение и письмо. В этой статье представлены результаты анализа потребностей. Кроме того, в процессе проектирования был рассмотрен набор стратегий обучения (перефразирование, обсуждение смысла, прогнозирование, сканирование и другие), чтобы соответствовать заявленным потребностям студентов. Основываясь на результатах анализа потребностей, курс химии был разработан с учетом потребностей, желаний и недостатков студентов.

Ключевые слова: учитель английского языка для специальных целей, языковые навыки, практическая деятельность, прогнозирование, сканирование, целенаправленный подход, оценка своих курсов.

Muayyan maqsadlar uchun ingliz tili kurslarini rivojlantirishdagi muammolar

Annotatsiya. Ushbu maqolada Samarqand davlat universiteti kimyo fakulteti talabalariga mo'ljallangan "Maxsus maqsadlar uchun ingliz tili" (ESP) kursini loyihalash jarayoni, maqsadi va baholash mezonlari keltirilgan. Ushbu jarayon to'rtta qobiliyatlarni o'z ichiga olgan: bular so'zlash, tinglash, o'qish va yozish. Kursni yaratish uchun talabalarning akademik va kasbiy ehtiyojlarini, xohish va kamchiliklarini baholash uchun tahlil qilish talab qilindi. Ushbu maqolada ehtiyojlar tahlili natijalari keltirilgan. Bundan tashqari, loyihalash jarayonida talabalarning belgilangan ehtiyojlarini qondirish uchun bir qator o'qitish strategiyalari (parafrazlash, ma'noni muhokama qilish, bashorat qilish, skanerlash va boshqalar) ko'rib chiqildi. Ehtiyojlarni tahlil qilish natijalariga ko'ra kimyo kursi talabalarning ehtiyojlari, xohish istaklari va tilni nima maqsadda o'rganilganligi hisobga olgan holda tuzilgan.

Kalit so'zlar: maxsus maqsadlar uchun ingliz tilini o'rgatish o'qituvchisi, tilni bilish, amaliyot, bashorat qilish, skanerlash, maqsadga yo'naltirilgan yondashuv, o'z kurslarini baholash.

One of the specifications of ESP is that a course should include specialized language (especially terminology) and content. In the present study, only one teacher is a subject specialist. In the opposition most ESP teachers are not specialists in the students' professional spheres. That is why the main issue is the struggle to manage language and subject matter. As a consequence, the explorer selected texts whose content are adapted to her scientific background but in cooperation with subject specialist in order to classify the topics in a most suitable order and in connection with the students' field of research¹. In addition, the maintenance of the English course should provide the required terminology since if the topic has already been dealt with the subject specialist, this will motivate the learners and give them assurance when dealing with the English lectures. Another challenge is selection and adaptation of text. Because neither the ESP teacher nor the students are experienced in scientific English the text must not be too complex. It should not be too available either because in terms of subject matter some students might underestimate the text in terms of language (due the mixed ability group). In sum, the ESP teacher must be an interested student of the subject substance instead of being a teacher of the subject matter. A further issue for the language teacher is the pronunciation of scientific or technical terms connected to the subject matter. A usual dictionary does not provide the language teacher with the pronunciation of all of them. In the present research, the ESP course, which is based on the language skills (Listening, Speaking, Reading, and Writing), was designed in such a way as to develop all the skills. So, a well-planned maintains of the course can play a positive role in enhancing the skills of students. The data collected from Chemistry students showed that all the language skills are very important for their studies and future career. To make the learners more accomplished in speaking skills, there should be more practical tasks in the classroom since the Chemistry students are demanded to give oral presentations in order to participate in international conferences. Writing should also be practiced in the classroom by writing reports, abstracts and projects and to add proper grammar and functions keeping in view both academic and occupational setting which enable the students to write correct language. The students must also be familiar with the importance of reading skills since they should be given new topics which demand that students consult last researchers. As far as listening skills are anxious, audio- visual tools should be used continuously in class to develop a variety of functions such as accent, pronunciation and proper use of vocabulary². Last but not least, the continuous evaluation of students through assignments at the beginning and during the semester should be given as practical activities during the lectures, with a final exam at the end of the semester. The choice of

activity also relies on needs analysis factors. Some activities may be asking the learners to do things they are not yet able to do. Some activities may be too easy. Effortlessness development activities should include easy material that the learners are already familiar with. This means of course that the learners either have to be familiar of why they are doing the activity, or there is some other challenge to the activity such as an increase in speed which adds an element of difficulty to it.

Course organization is important since it provides the teacher and the students with a clear idea of what will be taught (Xenodohidis, 2006)³. Moreover, he adverted two principles underlying the concept of progression material; building and recycling. Building can follow the process of the simple to the more complex, from concrete to more open ended, while recycling means that the students deal with taught materials in a new way. Another way to consider course organization is as a cycle or as a form. In a regular approach, the teacher introduces a cycle of activities following a consistent sequence. In a form approach, the teacher works with some activities and as time passes, decides with which ones to continue (Graves, 1996, cited in Xenodohidis, 2006 ¶ 16)⁴.

The content and activities may also be progression based on the standard operational method of the connected job. The tasks performed in each duty need to be identified. Those identified tasks are then sequenced based on the operational method. The sequenced tasks are again analyzed to reveal the language functions and language expression needed for those tasks. Certain information relayed to the culture understanding and standard performance required for those tasks can also be assessed and analyzed. This approach is known as Task-Based Approach. Task based approach to language teaching is a current view which is based on the findings of linguists and psychologists. This approach is against traditional approaches such as PPP (presentation, practice, production) model of teaching (Foster, 1999, quoted in Songhori, 2007)⁵. Since the end of 1970s, there has been a movement to make learners rather than teachers the center of language learning. According to this approach to teaching, learners are more important than teachers, materials, syllabus, methods, or evaluation. As a matter of fact, syllabus, materials, teaching methods, and assessment should all be designed for learners and their needs. It is the teacher's liability to check and see whether all the elements of the learning process are working well for learners and to suit them if they are not.

In other words, learners should be the center of studies and learning. The syllabus is an affirmation of the goals of learning, the methods of learning, etc. The role of the teachers is to help learners to learn. Teachers have to follow the syllabus and supply, make, or choose materials. They may adapt, addition, and considered on those materials and also monitor the progress and needs of the students and finally evaluate students. Teaching materials include textbooks, video and audio tapes, computer software, and visual aids. They effect the content and the process of learning. The choice of deductive vs inductive learning, the role of memorization, the use of creativity and problem solving, production vs. reception, and the order in which materials are presented are all influenced by the materials.

Conclusion

In this chapter, the investigator tried to carefully plan and write as clearly as possible apprehensive courses which will serve one as a useful resource for students. Proceeding a new course is a difficult, but a very rewarding process. The researcher needs to formulate the aims and objectives first, conceptualize the content, then select and adapt teaching materials, plan the course, and be ready to evaluate it. Course development should be regarded as an 'on-going' process, one in which the teacher makes necessary changes to match students interest and needs, even when the course is in progress. Every year, teachers have various students with different needs and background. That will necessarily make it definitely and important to bring in changes and adjustments according to the groups in charge inside the Faculty of Chemistry. The goal of this chapter is to submit a framework for developing a new ESP course based on various processes that start with a comprehensive needs analysis, and ending with course assessment. Teachers should evaluate their courses to improve and encourage their effectiveness. The most important stage of course development will be discussed in the following chapter.

The aim of the work is to enrich students' vocabulary connected with chemistry and to practice their speaking skills. The level of difficulty ranges from A2 to C1 as described by Common European Framework (CEF) and development students interest to English language. The object of the research is to provide students with additional exposure to the names of the chemical elements correctly pronounced and to attract the students' attention to the target language. The scientific novelty of the research follows as to increase students' ability to read chemical reactions in English. This process required a needs analysis to assess the students' academic and professional needs, wants, and lacks in order to create a course that included the four macro skills: speaking, listening, reading, and writing. This work presents the findings of

the needs analysis. In addition, a set of learning strategies were considered in the design process (paraphrasing, negotiation of meaning, predicting, scanning, among others) to fit the students' reported needs.

References

1. Communication and community: The pragmatics of ESP. English for Specific Purposes, 15-17 pp. 1998 y.
2. Trimble. L. English for science and technology: A discourse approach. 136 pp, Cambridge: Cambridge University Press, 1985y.
3. Stevens, New Orientations in the Teaching of English. Oxford University Press, 245 pp, 1977y.
4. Language Teaching and Linguistics: Abstracts, 7-9 pp, Cambridge University Press. 1977
5. Teaching English as an international language: From practice to principle, 75 pp, Oxford: Pergamum 1980 y.
6. Graves, 1996, Xenodohidis, 2006 16 y.
7. Foster, 1999, Songhori, 32, 2007 y.

UDK: 891.709

GADOIY IJODI ALISHER NAVOIY NIGOHIDA

H. Aslanova

*Samarqand davlat universiteti
hafi@mail.ru*

Annotatsiya. Maqolada Gadoiy ijodi haqidagi ilk manba sifatida Alisher Navoiy asarlari asosida tahlil keltiriladi. Gadoiy taxallusining ma'nolari izohlaniladi.

Kalit so'zlar: taxallus, g'azal, qit'a, tuyuq, tasavvuf, portret, lirika, ijod.

Творение Гадои с точки зрения Алишера Навои

Аннотация. В статье представлен анализ, основанный на произведениях Алишера Навои в качестве первого источника творчества Гадои. Также объясняются значения прозвища Гадои.

Ключевые слова: прозвище, газель, куплет, четверостишие, мистика, портрет, лирика, творчество.

Gadoi's creation in the view of Alisher Navoi

Abstract. The article provides an analysis based on the works of Alisher Navoi as the first source on Gadoi's work. The meanings of the nickname Gadoi are explained.

Keywords: nickname, ghazal, couplet, quatrain, mysticism, portrait, lyric, creation.

Mavlono Gadoiyning hayotiga oid ma'lumotlar Alisher Navoiyning tazkiralari, asarlari tarkibidagina saqlanib qolgan. Alisher Navoiydan keyin birorta ijodkorning qaydlarida shoir haqida ma'lumotlar uchramaydi. Aytish mumkinki, Mavlono Gadoiy hayoti va adabiy merosi XX asr boshlarida o'rganila boshladi. Dastavval, taniqli turk olimi Muhammad Fuod Ko'prulu 1914-yilda «**Dokuzuncu ve onuncu asirlerdaki Çagatay sairleri**» (To'qqizinchi va o'ninchi asrlardagi Chig'atoy shoirlari) [6. *seri I, 1330/1914*] nomli maqola e'lon qilib, Mavlono Gadoiy haqida Navoiyning «Muhokamat ul-lug'atayn» asari asosida ma'lumotlar keltiradi. Bundan tashqari, Muhammad Fuat Köprülü "Islam ansiklopedesi"ga kiritgan «Çagatay adebiyati» nomli maqolasida shunday yozadi: «**Gadai or «Gada» mau. Stil alive in 1490, or 1491/1492, being at the time probably over 90 years of age. Navai-v. infra- statis that this poet only wrote in Chaghatai and that he already flourished under a. 'l-Qasim Babur-v. ~Qalandar~, mirza or S.Mucizzaddin a.'l-Qasim Babur-ob.861=1457. his fame reached its apogee when the mau. Enjoyed thad potentate's protection. A.Sir alludes to this man in the chapter devoted to poets he was acquainted with and who were still living at the time when he composed his Magalis. The choice of the pen name at the head of this article represents an indication of Sufi tendencies, fitting in well with the general mood of his principal benefactor's environment. A.'l-Qasim himself choosing «Qalandar» only to mention this little fact**» [7. 270-323-s] («Gadoiy» va «Gado» o'rtasidagi aniqlikni taxmin qilishga moyil. Men taniqli va bilimli shoirning Gado yoki Gadoiy bo'lganligiga qo'shilmayman. Gadoiy 1490 yoki 1491/1492-yillarda 90 yoshlar atrofida ehtimol hali ham tarik bo'lgan. Navoiyning bildirishicha, bu shoir Chig'atoy tilida ijod qilgan va uning ijodi Abul-Qosim Bobur zamonida gullab yashnagan. Navoiy bu insonga bag'ishlangan bobida uning mashhur bo'lgani va Navoiy «Majolis

ul-nafois» asarini ijod qilgan payti u hali ham hayot bo'lganini eslatadi. Uning bu taxallusni tanlashi bu maqolaning boshida shunday izohlanadi, ya'ni bu taxallus sufiylik tamoillarini, uning yashash prinsiplarining umumiy ko'rinishlarini ifodalaydi. Bir qarashda mening tasodifiy fikrim so'fiylik aqidalarining san'atini aniqlashga moyillik tug'diradi).

Ayni o'rinda shoirning taxallusi haqida so'z yuritilar ekan, Erkin Ahmadxo'jayevning fikriga ko'ra, **«Gadoiy taxallusi oddiy xalqdan chiqqan, mehnatkash, umuman xalq vakili ma'nosini bildiradi»** [5. 14-b] - degan fikrni ilgari surganligini ko'rishimiz mumkin. Biz bu har ikki fikrning ham asosli ekanligini e'tirof etamiz. Ko'prulu ta'kidlaganidek, «Gadoiy» so'fiya silsilasining davomchisi ekanligini biz shoirning forsiy g'azali keltirilgan Faxriy Hirotiyning «Radoyif ul-ash'or» asaridagi «Mavlono Gadoiy qaddasa sirruhu» qaydidan ham bilishimiz mumkin. Gadoiyning tasavvuf tariqat vakili ekanligidan dalolatdir. Erkin Ahmadxo'jaevning qashshoq, kambag'al ma'nosini anglatuvchi taxallus ekanligini e'tirof etishi esa, «Majolis ul-nafois»ning fors tiliga tarjimoni Hakimshoh Muhammad Qazvinining taxminiga muvofiq bo'lib, unda **«Gadoiy» taxallusi shoirning ba'zan «Yig'layu borsam eshikiga gadolig' qilg'ali»** [2. 258-b] (Ko'ngil eshigidan sadaqa, ehson so'ragani) degan fikr bilan o'z isbotini topadi. Qolaversa, Erkin Ahmadxo'jaev o'z monografiyasida Gadoiy taxallusi haqida har xil fikrlar yuzaga keltirilganligini ta'kidlab quyidagicha asoslab beradi: **«Shoirning o'ziga bunday taxallusni tanlaganligining sababi, birinchidan, uning sufizmning falsafiy oqimiga mansubligidan darak beradi. Ikkinchidan, shoirning quyi tabaqadan, oddiy xalqdan etishganligiga ishoradir. Uchinchidan, shoir Gadoiy ishq, sevgi shaydosi ham bo'lganligi sababli o'ziga yuqoridagicha taxallusni tanlagan bo'lishi mumkin»** [5. 34-b]. E.Ahmadxo'jayevning bunday fikrga kelishga yana Gadoiyning quyidagi baytlari sabab bo'lgandir:

**Agar sen husn elining xonidursen,
Jahonda dog'i mendek bir Gado yo'q»** [9. 144-b].

Yana:

**Gadoiy besh emastur, der raqibing,
Gadodurmen, vale, sultondin ortuq.** [9. 146-b].

Bu baytlarda shoirning «kambag'al», «faqir» deb o'zini ifoda etishligi, yuqoridagi fikr isbotidir. Bundan tashqari, shoir o'zini sevgi gadosi ekanligi haqida she'rlarida tarannum etadi:

**Xoni in'omingdin, ey sulton-i doru-l-mulk-i husn,
Men Gadodek soyil-i mahrum bo'lg'ay, bo'lmag'ay.** [9. 196-b]

Ayni Gadoiy haqida Italiya turkshunos olimi Alessis Bombachining 1956-yilda nashr etilgan «Storia della letteratura turca» (Turk adabiyoti tarixi) [3. 127-s] nomli kitobida Navoiydan oldin yashab ijod etgan lirik shoirlar orasida Gadoiyning faqat nomini tilga oladi xolos. Uning ma'nosi, izohi haqida hech bir fikr bildirilmagan. Gadoiy haqida chet el olimlaridan eng ko'p ma'lumotni Yanosh Ekman beradi. Uning tadqiqotlarida Gadoiy to'g'risida asosli fikrlarni uchramiz. Jumladan, «Gedai (kendi shurlerinde Geda, Neva'de Mevlano Gadai) XV asrda yashagan belli boshli Gaxatau shairlerindir. Asil ismi bilinmemektedir. Hayati hakkinda da pak az bilgimiz vardır. Nevai', Mecha'lisun-nefais'nin III meclisinde Gedai'nin Ebülkasim Babur (1452-1457) zamanında büyük bir şöhret kazamış olduğunu ve docsan yaşını gecdiği halde haniz hayatta olduğunu kaydetmektedir. Mecha'lisun-nefais'h 897/1491-92 de meydana getirilmiş olduğuna göre, şairimizin 807/1404-05 sirararında doğmuş olduğu anlaşıyor» [8. cilt X, 65-s]. (Gadoiy, keyingi she'rlarida Gado, Navoiyda Mavlono Gadoiy, - XV asrda yashagan butun boshli Chig'atoy shoirlaridandir. Asli ismi noma'lumdur. Hayoti haqida ham juda oz bilimimiz bordir. Navoiy «Majolis ul-nafois»ning III majlisida Gadoiyni Abulqosim Bobur (1452-57) zamonida buyuuk bir shuhrat qozonganini va to'qson yoshdan oshgani holda hanuz hayot ekanligini qayd etmishdir. «Majolis ul-nafois» hijriy 897/1491-92 yilda maydonga kelganiga ko'ra, shoirimizning 807/1404-05 yillarda tug'ilganligi anglashiladi).

Ayni shu o'rinda Gadoiyning yoshi haqida, qancha umr ko'rganligi haqida Alisher Navoiyning «Majolis ul-nafois» tazkirasiga yana murojaat qilamiz: «Mavlononing yoshi to'qsondin o'tubdur». «Gadoiyning uzoq umr ko'rganligi, ya'ni to'qson yoshdan ortiq hayot kechirganligi haqidagi Navoiy ma'lumotining to'g'ri ekanligini shoirning o'zi ham g'azallarida tasdiqlaydi. Quyidagi baytda juda original, chiroyli o'xshatish yo'li bilan ma'shuqa qora zulfining uzunligini Gadoiy o'zining uzoq umriga o'xshatib, «umri darozimdur» deydi. Mumtoz adabiyotda umrning uzunligi qora zulf, sochga o'xshatiladi:

**Ul qaro soching sening umri darozimdur mening,
Necha qilg'aysen kishi umrini mundaq poymol»** [1. 70-b].

Bundan tashqari turkiyalik navoiyshunos olim Ogoh Sirri Levend o'zining «Ali Shir Nevai» («Alisher Navoiy») nomli to'rt jildli asarining Alisher Navoiyning «Hayati, san'ati va kishiligi» («Hayoti, san'ati va kishiligi») ga bag'ishlangan birinchi jildidagi (Nevainin yetistiçi çaç («Navoiyni etishtirgan

chogʻ, davr») boʻlimida shoir Gadoiy nomini ham qalamga olib, uning yashagan davri haqida shunday maʼlumot beradi: «Şahruh devri şirlerinden Emiri ile, Şahruh, Ebülkasim ve Baykara zamaninde yaşamiş olan Gedayi bu orada kaydeldilebildir» [4. 26-s]. (Shohrux davri shoirlaridan Amiriy ila Shohrux, Abulqosim va Boyqaro zamonida yashagan Gadoiy bu orada qayd etilgandir).

Aytish mumkinki, Gadoiy devoni Lutfiy devoni bilan bir muqovada birlashtirilganligi uchun koʻpgina fikrlarga ham sabab boʻldi. Bu haqda E.Ahmadxoʻjayev shunday yozadi: «Gadoiyning devoni Lutfiy devoni bilan birga kitobat qilinganligi uchun biz Lutfiy devoniga Gadoiy gʻazallaridan kirib qolganmikin degan mulohaza bilan Lutfiyning devonini ham koʻzdan kechirdik. Ammo, gumonimiz isbotlanmadi» [5. 22-b]. Toʻgʻri, Mavlono Gadoiy va Mavlono Lutfiy bir adabiy muhit vakillari hamda ular ijodiy hamkorlikdagi shoirlardir. Bu haqida Gadoiy shunday yozgan:

Gar inoyat boʻlsa haqdin, dogʻi sultondin nazar,

Bu Gadodek Lutfiy kim boʻlgʻayki, Salmon boʻlimgʻay [9. 191-b].

Bundan ularning bir adabiy jarayondagi elkadosh hamfikir, bir-biriga suhbatdosh boʻlganligini anglashimiz mumkin. Gʻazalda Gadoiy oʻzini nochor ahvolini bayon etib muruvvat kutayotganligini taʼkidlab, Lutfiy va Salmon Savajiy bilan tenglasha oladigan isteʼdod sohibi ekanligini faxriya sanʼati asosida yoritadi.

Devonda «Gadoiy» taxallusida 9 ta gʻazal hamda «Gado» taxallusi bilan 197 ta gʻazal va 1 qasida hamda 1 ta mustahzod va 1 ta qitʼasi yozilgan. Ammo 28 ta gʻazal taxallussiz bitilgan. Shoirning taxallusi 205 ta gʻazalida oxirgi baytda – maqtaʼda, 4 ta sheʼri esa, oxirgi baytdan oldingi birinchi misrasida uchraydi» [5. 22-b]. Shoir devonidagi gʻazallarning joylashganligi albatta anʼanaviy, shuning bilan bir qatorda bu gʻazallarning yozilgan yillari davri biz uchun nomaʼlum. «Shoirning devonidan oʻrin olgan sermazmun, oʻynoqi, rang-barang lirik meros, shubhasiz, Gadoiyning sal kam bir asrlik umrining turli davrlarida yozilgan, yaratilgan boʻlishi kerak. Chunki, ularning yozilgan vaqti xronologiyasi nomaʼlum. Professor Hamid Sulaymonning quyidagi fikrini keltirish oʻrinlidir: «Maʼlumki, Sharq xalqlari adabiyotida lirik asarlarning yozilish tarixini sheʼr ostida koʻrsatish, ayniqsa oʻrta asr davrlarida odat boʻlgan emas. Hatto baʼzi shoirlarning oʻz qoʻli bilan yozilgan avtograf devonlaridagi sheʼrlarida ham biz zotan koʻrmaymiz. Turkiy va forsiy tilda sheʼr yozgan shoirlarimiz uzoq zamonlardan beri lirik ijodiyotda traditsiya boʻlib qolgan, gʻazal oxirida shoir taxallusini koʻrsatish bilan kifoyalanganlar, xolos»» [5. 22-b].

Xulosa qilib aytganda, «Gadoiy» taxallusining uch xil talqini uning lirikasi mazmunida oʻz aksini topgan. Ayni paytda ular shoirning yashagan davri, muhiti haqidagi manbalar hamdir. Shoirning haqiqiy ismi, turmush-tarzi haqida maʼlumotlarga ega emasmiz. Ammo shoir lirikasida Hirot shahriga oid tasvirlarga urgʻu qaratilganligidan uning yashagan joylarini taxmin qilish mumkin. Bu masalalarni atroflicha oʻrganish kelgusidagi vazifalarimizdandir.

Adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Асарлар. Ўн беш томлик. 12-том. Мажолис ул-нафоис. -Т., Ф.Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1966, 206.
2. Али Асғар Ҳикмат «Мажолиун нафойис», Мир Али Шер Навоий XVI асрдаги форс тилига қилинган таржимаси (Техрон) 1945, 318.
3. Alessio Bombaci, Storia della letteratura turca, 1956, 156.
4. Agah Sirri Levend. Ali Şir Nevai, 1-cilt. Hayati, sanati ve kişiliği, Turk tarih kurumu basimevi, Ankara, 1965, 168.
5. Аҳмадхўжаев Э. Гадоий (Ҳаёти ва ижодий мероси) -Т., ФАН 1978, 128.
6. Muhammad Fuat Köprülü. Dokuzuncu ve onuncu asırlardaki Çagatay sairleri, “Turk Yurdi”, seri I, 1330/1914;
7. Muhammad Fuat Köprülü. Çagatay edebiyati,- “İslam ansiklopedesi”, 3-cilt, 24-cüяб Istanbul, Maorif matbaasi, 1945, 366.
8. Eckmann J. “Turk dili va edebbiyati, dergisi”, Istanbul Edebiyat Fakültesi matbaasi, cilt X, I Eylül 1960.
9. Рустамов М. Гадоий девонининг луғати ва матни, Т., Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи таҳрир бўлими, 2007, 246.

UDK: 891

HIKMATLARGA KO'CHGAN MO'JIZAKOR KIMYO

A. Toshpo'latov

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada kimyogar olim, shoir Abdulla Nasimov she'riyati badiiyati atroflicha tahlil etiladi. Uning ilmiy she'rlari zamonamizning ulug' olimlaridan biri, shoiri Ibn Sino "Urjuza"lari bilan qiyoslab o'rganiladi. Ilmiy she'riyatning adabiy jarayondagi o'rni, poetikasiga oid qarashlar umumlashtiriladi. Undan tashqari A.Nasimovning turli mavzu yo'nalishlarida yozilgan ayrim she'rlariga ham munosabat bildirilgan.

Kalit so'zlar: Urjuza, ilmiy she'riyat, kimyogar, olim, elementlar, badiiyat, she'riy san'atlar, bug'un, mazmun va mohiyat, shakl birligi.

Чудесная химия, перешедшая в мудрость

Аннотация. В статье подробно анализируются стихи химика, поэта Абдуллы Насимова. Его научные стихи изучаются в сравнении с «Урджуза» одного из великих ученых нашего времени, поэта Ибн Сины. Обобщены роль научной поэзии в литературном процессе, взгляды на поэтику. Кроме того, были прокомментированы некоторые стихотворения А. Насимова, написанные на разные темы.

Ключевые слова: Урджуза, научная поэзия, химик, ученый, стихия, искусство, поэтическое искусство, стропа, содержание и сущность, единство формы.

Wonderful chemistry translating into wisdom

Abstract. The article analyzes in detail the poems of the chemist, poet Abdulla Nasimov. His scientific poems are studied in comparison with "Urjuz" by one of the great scientists of our time, the poet Ibn Sina. The role of scientific poetry in the literary process, views on poetics are generalized. In addition, some of A. Nasimov's poems written on various topics were commented on.

Keywords: Urjuza, scientific poetry, chemist, scientist, element, art, poetic art, sling, content and essence, unity of form.

Tabiiy fanlarning ijtimoiylashtirishning yagona usuli ilmiylikni soddalashtirish, yangi pedagogik texnologiyalar: so'z o'yinlari, boshqotirmalar, topishmoqlar, maqollar, poetik idrok orqali o'quvchilar e'tiborini tortish, ya'ni shu fanga qiziqish uyg'otishdan boshlanadi. Ibn Sino "Xitoba" asarida notiqning mahorati, fazilatlarini nutq bezaklarida chiroyli gapirishda emasligini aytadi. Ibn Sino fikricha, "aqliy quvvati kam, ma'rifat va ma'naviyati zaif notiqlar o'z nutqlarini turli usullar bilan bezashga harakat qiladilar. Muhimi, chiroyli gapirish emas, dalil, isbot bilan gapirishdir.

She'riyatga yarashadigan so'z san'atlari (istiora, iyhom, tajnis, talmeh) notiqlik san'atiga yarashmaydi". Ibn Sinoning yuqoridagi fikrini aytishdan maqsadi, Arastu "Poetika"sida yozganday ilmiy mavzulardagi fikrlarni she'riy yo'lda yozishni she'riyat qatoriga qo'shmaslik haqidadir.

A.Nasimovning ilmiy she'riyati ham yuqoridagi ta'riflardan xoli emas. Shoir she'riyatidagi bug'unlar va turoqlar sonining qisqaligi, ixchamligi she'rlarning xalq og'zaki ijodi namunalari kabi tuzilishga ega bo'lganidan, dostonlar ta'siri o'laroq tug'ilganidan dalolat beradi. Etti bug'unli she'rlarda voqea-hodisalar, harakat sur'ati tezlashadi. Bu degani kitobxonni faollikka chorlab, diqqat-e'tiborni izchillik bilan tortib turish degani bo'ladi. Bunday turdagi she'rlar engil o'qiladi. Ohangga solib o'qiladi. Shakl toraygani sari esa, mazmun tig'izlashadi, ya'ni ma'noning parvozigacha keng imkoniyat beriladi. A. Nasimovning she'riy yo'ldagi kimyo mo'jizalari etti bug'unli she'r tuzilishiga ega. Ularning qofiyalanish tartibi barqaror emas. Barmoq vaznining a-b-a-b, a-b-v-b, ba'zan esa a-a-v-v qofiyalanish tizimini ham uchratish mumkin. Mazkur qofiyalarlarning och qofiya, to'q qofiya kabi turlari tez-tez o'rin almashinib turadi.

Dastlabki davrlarga
Ketar bo'ldim ushbu kun.
Bir ko'z yumib ochguncha,
Almashinar kun va tun.

Ohanglari e'tibori bilan xalq dostonlaridagi qahramonlar o'y-kechinmalarini eslatib yuboradigan, to'q qofiyadan iborat poetik idrok ruhiy muvozanatdan chiqib mohiyatga kirish vazifani bajarib bermoqda.

Shu jarohat qancha vaqt,
Davom etarkan faqat.
Olma olmaligini,
Yo'qotarmi biron vaqt.

Mazkur och qofiyali band ilmiy xulosalardan oldingi shoir farazi hisoblanadi. She'rning engil o'qilishi, kitobxonning biron erda qoqilmasligi, ilmiy mushohadalarga joziba bag'ishlaydi. Ularni chalg'itmaydi.

Arab ma'rifatparvari Abdulla Qodiriyning nazari tushgan Jurji Zaydonning ko'rsatishicha: "Razaj vazni she'r vaznlarining eng avvalgisi va eng qadimgisidir. Bu vazndagi baytlar masnaviyga o'xshash qofiyadosh bo'ladi. Bu vazn o'z davrida xalqchil, odamlar orasida keng tarqalgan vazn bo'lgan. Har kim ham bu vaznda she'r ayta olgan, keyinchalik bu bahr kengayib "urjuza" deb ataladigan – qasida va dostonlar bitilishiga sabab bo'lgan. Odatda gapga usta har bir arab bu yo'l bilan she'r ayta olgan". Mazkur fikrlarni o'zbek kimyogar olimi, shoiri she'rlari bilan qiyoslaydigan bo'lsak, o'xshash holatlarga duch kelishimiz mumkin. A.Nasimov she'rlari ham xalqchil, M.Koshg'ariyning "Qish va yoz" munozaralari, mehnat qo'shiqlari tasvirlangan xalq ohanglarga mosligi, barchasi etti bug'undan iboratligi, o'ynoqiligi, harakat tezligi, shiddati yuqori ekanligi, J.Zaydon e'tiborini tortgan masnaviy kabi qofiyalanishi bilan juda o'xshash ketadi. Masalan:

Yigitlarig ishlatu,
Yig'ach yamish irg'atu,
Qulan, kiyik avlatu,
Bazram qilib avnalim. (M.Koshg'ariy)

Issiqlik-la sovuqlik,
Quruqliq-u va namlik.
Tabiatning doyasi,
Aristotel g'oyasi. (A.Nasimov)

A.Nasimovning she'rlarida she'riy san'atlar deyarli uchramaydi. Buning sababini yuqorida keltirib o'tdik. Ilmiy she'riyatni o'qimishli qiladigan bir qator omillari borki, bular shoir she'riyatini bezab tura oladi. Ularning shakl birligi, bug'unlar tartibi, turoqlar soni mukammal ma'noga, fikrga xizmat qiladigan qofiyalar tizimi "Hayot kimyodir" ilmiy she'rlarni asl nomiga munosib tutib tura oladi. Chunonchi, kimyoviy elementlarning har biriga yozilgan she'riy, nazmiy ta'rif-tavsiflar o'zining ana shunday jarangdor qofiyalari bilan badiiylik kasb etadi. A.Nasimov ilmiy she'riyati faqat nazariyaning poetik ifodasi emas, balki ma'naviy-ma'rifiy axloq tushunchasining, estetik jozibadorlikning namunasi ekanligi bilan ham ajralib turadi. Bular she'rlardagi lirik chekinishlarda ko'zga tashlanadi.

Zerikmay tur o'quvchim,	Kunlarning bir kunida,
Aytayin bitta ertak.	Havo ochiq soz bo'lgan.
U hayotdan olingan	Demperiy dam olishga,
Sen uchun juda kerak.	Dengiz bo'yiga kelgan.

Qo'lda katta bir olma,	Olmani ikki bo'lsam,
O'z-o'zicha so'ylaydi.	Dengizga otsam birin.
Atrof go'zal, tinch, sokin	Yarmini yana bo'lib
U bir reja o'ylaydi.	Otsam bilarman sirin.

To'rtidan birin otsam
Olma qancha qo'shilar.
O'n oltidan birida
Xayollari eshilar.

Shu jarayon qancha vaqt,
Davom etarkan faqat.
Olma olmaligini,
Yo'qotarmi biror vaqt.

Hushi kelib o'zicha,
Yon atrofga qarabdi.
Chegarasiz hayot yo'q
Deya yakun yasabdi.

A.Nasimov ham kimyo fanini olamjahon minbariga olib chiqishda talaba yoshlarning fanga mehr qo'yishini istab badiiy so'zning qudratidan foydalanishni maqsad qiladi. Abu Ali ibn Sino yozganidek: "Men bu urjuza – dostonga kamolat to'nini va husn saruposini kiygizdim, uni o'rganish osonroq va

mashaqqati kamroq bo'lsin deb, to'qilishini oson va vaznini engil qildim". A. Nasimov she'riyatiga qo'yilgan talab ham aynan ana shu. Kitobxon, kimyogar so'zning latofatiga, istioralar, o'xshatishlar va xakozalarga mahliyo bo'lib, asosiy tushunilishi, anglab olinishi zarur bo'lgan qoidalaridan chalg'imaslik uchun qilingan harakatlardir.

A.Nasimovning poetik san'atlarga boy, so'z o'yinlari asosiga qurilgan, kompozitsion jihatdan etuk she'rlari ham mavjud. Ular o'z farzandlari, do'stlari, shogirdlarining turli marosim: tug'ilgan kunlari, to'ylari, dissertatsiya himoyasi kunlaridagi xursandchilik kunlariga bag'ishlangan. Mazkur she'rlarda biz o'sha Qo'shrabot xalqi, qolaversa baxshilar yurti bo'lgan Qo'rg'on qishlog'ining sodda, samimiy odamlari kechinmalarini his qila olamiz. G'oyaviy jihatdan xalq qo'shiqlari, dostonlarida ilgari surilgan do'stga vafodorlik, vatanga fidoyilik, yorga sadoqat kabi sharqona tuyg'ular bilan limma-lim to'yingan she'riyat A. Nasimovning yaqinlariga, qavmi-qarindoshlariga bo'lgan cheksiz sevgi muhabbatida balqib turadi.

Jon Golsuarsi ta'kidlaganiday: "Asrimizning xatarli tomoni bizning nodon bo'lib qolishimizda emas, balki bizning o'ylash-o'ylanish qobiliyatini yo'qotib borayotganimizda. Oldimizda turli-tuman vazifalar borgan sari ko'proq ko'ndalang bo'lib bormoqda, lekin biz krassvordlarga yoki dedektiv romanlardagi jumboqlarga topgan echimlarimizdan tashqari hayot oldimizga qo'ygan savollarga javob bera olamizmi? Javob bersak ham, to'g'ri javoblarimiz borgan sari kamayib ketmoqda. Biz borgan sari osonroq va jo'nroq narsalarga moyillik bildiramiz. Ammo bilimga olib boradigan engil yo'l hamisha eng olis yo'l bo'lib chiqadi. O'zimiz mustaqil ravishda erishadigan bilimimiz har narsadan qadrliroq va mustahkamroq bo'ladi". Bu o'rinda ham A.Nasimov tutgan yo'l o'ylaganda bosh qotadigan, amalga kirishganda adashadigan yo'l emas, balki mustaqil ravishda erishadigan qadrlil va zamini mustahkam yo'ldir.

Shoirilar so'z sohiblari bo'lsa, olimlar ertamiz, kelajagimiz, nurafshon hayotimiz farishtalaridir. Ulardan biri go'zal so'zlar bilan ruhni quvontirsa, biri jamiyatimizni, tanamizni davolaydilar. A.Nasimov esa ham qalbni, ham jismi jonimizni davolaydigan tom ma'nodagi ziyoli shaxsdir. Uning kelgusi ishlariga, sog'liqlariga bardavomlik tilab qolaman.

Adabiyotlar

1. Арасты. Т. Янги асп авлоди. 2011. 351 б.
2. Болтабоев Х. Махмудов М. Адабий-эстетик тафаккур тарихи. 2-жилд. Т. MUMTOZ SO'Z. 2016. 423 б.
3. Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида. Т.Маънавият. 2010. 390 б.
4. Насимов А. Мўъжизакор кимё. Самарқанд. СамДУ. 2009. 117 б.
5. Насимов А. Ҳаёт кимёдир. Самарқанд. Зарафшон. 2019. 70 б.
6. Интернет материаллари... Хуршид Даврон кутубхонаси...

UDK: 809.1

Muhammad G'oziy ijodida salaflar uslubiga izdoshlik ko'rinishlari

N.Muxitdinova

Samarqand davlat universiteti
muxitdinovanazmiya@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola XVIII asr va XIX asr boshlarida Qo'qon adabiy muhitining taniqli vakili G'oziy lirikasida ustozlar an'alarining aks etishini o'rganishga bag'ishlangan. Asarda G'oziy she'rlaridagi ustozlarning an'analari, g'oyalari, obrazlari, uslubi va badiiy mahorat yaqinligi tahlil qilingan. Shoir she'riyatidagi g'oyaviy-badiiy xususiyatlar bir qator she'rlar misolida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: tatabbu, urf-odat, mafkura, obraz, uslub, mavzu, badiiy mahorat.

Последовательство стиля наставников в творчестве Мухаммеда Гази

Аннотация. Данная статья посвящена изучению отражения традиций наставников в лирике видного представителя литературной среды Коканда XVIII века и начале XIX века Газий. В работе анализируется близость традиции, идей, изображения, стиля и поэтического образа наставников в стихах Газий. Освещаются вопросы художественного мастерства в лирике поэтов, тематика их произведений раскрывается на примере ряда стихотворений.

Ключевые слова: татаббу, традиция, идейность, образ, стиль, тема, художественное мастерство.

The succession of the style of the mentors in the work of Muhammad Gazi

Abstract. This article is devoted to the study of the reflection of the traditions of mentors in the lyrics of Gazi, a prominent representative of the literary environment of Kokand in the 18th century and the beginning of the 19th century. The work analyzes the closeness of tradition, ideas, images, style and poetic image of the mentors in Gazi's poems. Issues of artistic skill in the poetry of poetry are highlighted, the themes of their works are revealed on the example of a number of poems.

Keywords: tatabbu, tradition, ideology, image, style, subject, an artistic skill.

Muhammad G'oziy o'z she'riyati bilan Qo'qon adabiyotida "Oltin beshik davri" deb nom olgan katta ijodiy muhitning ishtirokchilaridan biriga aylandi. XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida o'ziga xos ma'rifiy taraqqiyotni boshidan kechirgan Qo'qon adabiy muhiti Muhammad G'oziy Ho'qandiy she'riyati vositasi bilan yanada boyidi, o'ziga xoslik kasb etdi. G'oziy she'riyati faqat, shakliy benuqsonlik, ko'rkamligidangina iborat bo'lmay, o'z davri tafakkurini yangi falsafiy mushohadalar, didaktik yo'l-yo'riq va ko'rsatmalar, orifona fikrlar bilan boyitdi. Sharq mumtoz shoirlari adabiy an'alarini o'z ijodida baland salohiyat va mahorat bilan davom ettirgan shoir G'oziy adabiyotimiz tarixida o'z o'rni va mavqeiga ega ijodkor sifatida namoyon bo'ladi. U sharq klassiklari ijodiy uslublaridan ilhom olib, she'riyatning nodir namunalarini yaratar ekan, salaflari qoldirgan ijodiy an'alaning o'zining donishmandona falsafiy mushohadalari, keng dunyoqarashi, zamonasi ijtimoiy muammolariga hozirjavobligi o'ziga xos didaktik targ'ibot uslubi va, asosan, nafasat qonuniyatlari doirasida shakllangan badiiy mahorati bilan boyitdi, takomilga yetkazdi.

Qo'qon adabiy muhiti haqida tadqiqot olib borgan olimlar ushbu adabiy muhit ham an'anaviylik bag'rida kamol topganini qayd qiladilar. Umuman olganda, mumtoz she'riyat tarixida an'anaviylik ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi. Qaysi mumtoz shoirning devonini ochmasak, undagi she'rlarning salmoqli qismini nazira va tatabbular tashkil etganiga guvoh bo'lamiz. An'anaviylik bir tomondan adabiyotda yakranglik, ko'chirmakashlik, turg'unlik kabi salbiy holatlarni vujudga keltirgan bo'lsa-da, asosan badiiy tafakkurning tadrijiy rivoji, so'z san'atida vorisiylik tendensiyasining barqaror bo'lishiga mustahkam zamin yaratgan. Adabiy-estetik an'alaning puxta o'zlashtirgan iste'dodli shoirlar esa o'ziga xoslikka erishib, yangi-yangi obraz va timsollar, ma'no va mazmunlar, ifoda va bayon vositalarni yaratishga erishganlar. Shu nuqtayi nazardan olganda, har bir shoirning novatorlik darajasini belgilashdan oldin uning an'anaviylik doirasidagi faoliyatini har tomonlama ko'rib chiqish zarur bo'ladi.

Tatabbu'navislik borasida tadqiqot olib borgan B.Fayzulloyevning haqli ravishda qayd qilishicha, "XIX asrning birinchi boshida tatabbu'navislik eng rivojlangan adabiy muhit Qo'qonda edi" [Fayzulloyev B. – B.17]. Qo'qon adabiy muhitidagi tatabbu'navislikni shartli ravishda uch guruhga tasniflash mumkin: a) zamondosh va bir adabiy muhit doirasida ijod qilgan shoirlarning she'riga tatabbu' bog'lash; b) milliy adabiyot vakillarining she'rlariga tatabbu' yozish; v) qardosh xalqlar adabiyotining yirik namoyandalarning izdoshlik qilish.

G'oziyning devonida ham tatabbu' g'azallarning miqdori ancha salmoqli ekaniga guvoh bo'lish mumkin. Yuqoridagi tasnifni agar ushbu devonlarga tatbiq etsak, quyidagi manzara hosil bo'ladi:

Qo'qon adabiy muhitida ijod qilgan shoirlarning g'azallariga bog'langan tatabbu'larni to'liq qamrab olish ancha qiyin kechadi. Buning bir necha sabablari bor.

Birinchiidan, devon sohiblari yozgan g'azallari aynan qaysi shoirga izdoshlik yo'lida bitilganini qayd etishmagan. Bu hol, Alisher Navoiyning forsiy merosi jamlanmasidan iborat "Devoni Foni"ni hisobga olmaganda, deyarli barcha devonlarga xos xususiyat hisoblanadi. Sharq adabiyoti tarixida tatabbu'lar alohida to'planib, bayozlar, tazkiralalar hamda "Radoif ul-ash'or" nomi bilan shuhrat topgan jamlanmalarda e'lon qilingan. Jumladan, "Majolis un-nafois"ning tarjimoni Faxriy Hirotiy o'zining "Radoif ul-ash'or" asarida mashhur g'azallarga yozilgan tatabbu'larni bir joyda to'plashga harakat qilgan. Fazliy Namangoniyning "Majmuai shoiron" tazkirasida ham Qo'qon adabiy muhiti shoirlarining Amiriy g'azallari hamda bir-birlarining g'azallariga javob tariqasida yozgan g'azallaridan namunalar berilgan.

Ikkinchiidan, Qo'qon adabiy muhitida jami 300 dan shoir yashab ijod qilgan bo'lsa-da, ularning aksar qismi hali-hanuz tadqiqotchilarini kutib turibdi. Jumladan, tadqiqotimiz ob'ekti bo'lgan Sadoiy va G'oziyning ijodi ham davr she'riyatiga bog'liq holda tadqiq qilish masalasi kelajakda amalga oshirilgan vazifalardan hisoblanadi.

Uchinchiidan, bir davrda yashab ijod qilgan shoirlarning g'azallari vazn, qofiya, radif va obrazlar tizimi o'xshash bo'lgan taqdirda ham shoirlarning qaysi biri original asar muallifi, qaysi biri uning izdoshi ekanini aniqlash qiyin kechadi. Negaki, g'azallarning tarixiy xronologiyasi haqida bizda ma'lumot yetarli emas. Shu sababdan, G'oziy va Sadoiyning zamondosh shoirlar g'azaliga tatabbu' bog'lash masalasida biz zamon omilini hisobga olib, ulardan oldin yashab o'tgan shoirlarning ijodi bilan qiyoslashga harakat qildik.

Fazliy Namangoniyni "Majmuai shoiron" tazkirasida berilishicha, Qo'qon adabiy muhitining ilk bosqichida yashab ijod qilgan shoirlar orasida amiriy g'azallariga tatabbu bog'lash keng tarqalgan ekan. Bu hodisa keyingi davrlarda davom etib, boshqa adabiy muhit vakillari ham Amiriyning g'azallariga javob yozganliklari ma'lum. Jumladan, G'oziyning devonida bir nechta g'azal Amiriy g'azallariga javob tariqasida yozilganligi aniqlandi. Jumladan, mazkur g'azalda Amiriy g'azalining vazn, qofiya turkumi va obrazlar tizimini saqlagan holda yangi g'azal yaratishga erishgan:

Boshimg'a tushdi bir siminbadan dilbari savdosi,

Mani o'ynadek mahv ayladi husni tamannosi.

G'oziyning g'azali to'qqiz baytdan iborat. Amiriyning g'azali esa 11 baytli bo'lib, quyidagi matla bilan boshlanadi:

Meni Majnunga ma'vo bo'lmish emdi ishq sahrosi,

Boshimg'a tushti bir laylinasabning ishq savdosi

[Amiriy. Devon. –B.331]

G'oziyning tatabbu g'azalida Amiriy qo'llagan qofiyalardan faqat uchasi – savdosi, da'vosi, g'avg'osi qo'llanilgan bo'lib, qolgan baytlarda yangi qofiyadosh so'zlardan foydalangan. Bu esa, qofiya o'qtomiri atrofida yangi poetik mushohada va fikrlarning paydo bo'lishiga zamin yaratgan. Bundan tashqari, G'oziy peyzaj yaratishda mahalliy jug'rofiy muhit detallaridan ham mahorat bilan foydalanib, ajoyib so'z o'yini qiladi: Surxob (Qizilsuv) daryosining toshib, atrofni xarob qilgani bilan oshiqning qonli yosh to'kilishi haddan oshishi o'rtasida poetik munosabat yaratib, iyhom san'atining go'zal namunasini yaratgan:

Ko'zum qon yosh to'kor, ey olam ahli, bo'lmangiz g'ofil,

Bu kun angezi to'fon aylamish Surxob daryosi.

Turkiyzabon qardosh xalqlarning o'zbek adabiyoti, ayniqsa, Qo'qon adabiy muhiti namoyandalari haqida gap ketganda birinchi navbatda ulug' ozarbayjon shoiri Muhammad Fuzuliy nomi tilga olinishi tabiiy. Akademik Vohid Zohidov to'g'ri ta'kidlaganidek, bu ajoyib so'z san'atkori ayniqsa, 18–19-asrlarda yashab ijod qilgan o'zbek shoirlarga katta ta'sir o'tkazgan. Fuzuliyning shirali tili, g'azallaridagi ravon uslubi, ishq dardiga to'la otashin satrlari deyarli barcha shoirlar ijodiga, ayniqsa, G'oziyning she'riyatida chuqur iz qoldirgan. "Kima", "holima", "etmaz", "cho'x", "ver", "dushdim" va hokazolar qator o'zbek shoirlari ijodiga bevosita o'sha ustoddan kirib keladi. Fuzuliy she'rlariga muxammaslar yoziladi" [Zohidov V. – B.194].

G'oziyning turkiy g'azallari asosiy qismi Fuzuliy va Navoiy g'azallariga izdoshlik yo'lida bitilgan. Bu holat Qo'qon adabiy muhitidagi ijodkorlarning ko'pchiligida mushohada etiladi. Ayniqsa, Amiriy, Gulxaniy, Nodira she'riyatida Fuzuliy va Navoiyga izdoshlik jarayoni yaqqol ko'zga tashlanadi. Fuzuliyning uslubi G'oziyning she'riyatida katta ta'sir ko'rsatgani ham ushbu xulosani yanada quvvatlantiradi. Bu haqda A. Qayumov shunday yozadi: «G'oziy asarlarini o'rganib chiqish natijasida uning ijodi mashhur ozarbayjon shoiri Muhammad Fuzuliy she'rlarining katta ta'siri ostida rivoj topganini ko'rish mumkin. Fuzuliy she'rlaridagi to'liqlantiruvchi kuch, o'ynoqlik chuqur mazmun va dard o'tining harorati G'oziy she'rlarida ham o'z izini qoldirgan. G'oziy o'z she'rlarining mazmuni bilan ham, dunyoga atrofida muhitga munosabatini ko'rsatishda ham, shuningdek badiiy so'z tizmalarini tuzish va hatto ayrim so'z va ifodalarini ishlatishda ham Fuzuliy yo'li va uslubini qo'lladi. Fuzuliyona tarannum etishga urindi. Bu hol uning Fuzuliy g'azallariga bog'lagan muxammaslarida, ayniqsa ochiq ko'rinib turadi» [Qayumov A. – B.29].

G'oziyning Fuzuliy ijodidan ta'sirini ikki shaklda ko'rish mumkin: birinchidan, shoir Fuzuliyning ijodida ilhomlanib o'zi mustaqil g'azallar va tatabbular yozgan bo'lsa, ikkinchi holatda Fuzuliyning ayrim g'azallariga taxmislar bog'lagani bilan izohlanadi.

Akademik Aziz Qayumov to'g'ri ta'kidlaganidek, "Fuzuliyning ta'siri G'oziyning original asarlarida ham ochiq ko'rinib turibdi":

Cho'x edur javru jafodilbari bedodu fanim,

Tarki rahm ayladi go'yo buti paymonshikanim.

Kokuli fikrida jon vermisham, ey do'stlarim,

Tori sunbul bila ziyor tikinglar kafanim.

[G'oziy. №121: 19 b]

Mazkur baytlar bilan boshlanadigan g'azal Fuzuliyning quyidagi mashhur g'azali ta'sirida yozilganiga shubha yo'q:

Punbai dog'i junun ichra nihondur badanim,

Diri o'ldiqcha libosim budur, o'lsam kafanim.

Joni jonon dilamish, vermamak o'lmaz, ey dil,

Na nizo' aylayalim, ul na saningdur, na manim.

[G'oziy. №121: 19 b]

Turkiyo'y salafarga izdoshlik haqida gap ketganda, Qo'qon adabiy muhiti shoirlari eng avvalo Alisher Navoiy g'azallariga ko'p murojaat qilganini ta'kidlash joiz. Qo'qon xonlari O'rta Osiyodagi boshqa hukmdorlardan farqli o'laroq o'z shajaralarini temruylar xonadoniga bog'laganlari, shuningdek, ushbu salatant davrida Navoiyning devonlari ko'p nusxada ko'chirilgani va tarqatilgani an'anaga aylangani, Alisher Navoiyning badiiy olami ta'sirida qo'qonlik shoirlar yuzlab tazmin va tatabbular, muxammaslar bog'laganliklari, shuningdek, adabiy muhitda o'zbek tilining nufuzi fors tilidagi adabiyotdan balandroq bo'lgani mazkur omil – Navoiyga izdoshlik an'anasining kuchayishiga olib kelgan [Jo'raboev O. – B.74]. G'oziy devonida ham ushbu an'anaga izchil rioya etilganini kuzatish mumkin.

Alisher Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" devonida "mango" radifida to'rtta g'azal bor. Ularning biri quyidagi matla' bilan boshlanadi:

Shahr bir oy furqatidin baytul-ahzondur mango,
Bir guli ra'no g'amidin bog' zindondur mango.

[Navoiy Alisher. – B.35].

G'oziyning shu qofiya va radifda bir g'azali borki, obrazlar silsilasi va badiiy san'atlar tizimiga ko'ra Navoiyning yuqoridagi g'azaliga tatabbu ravishida bitilgani ma'lum bo'ladi:

Gul yuzungsiz ey pariyo', bog' zindondur mango,
Furqatingdin g'unchalar bir dasta paykondur mango.

[G'oziy. №121: 21 b]

Navoiyning g'azalida ham, G'oziyning nazirasida ham tazod san'ati yetakchilik qiladi. Navoiyning g'azalida yorning husnu malohati, bag'ritoshligi va muruvvatsizligi bila oshiqning sabru sadoqati, xokmorligi va sobitligi qarama-qarshi qo'yilgan bo'lsa, G'oziyning g'azalida oshiqning holot va kayfiyatining tashqi dunyo bilan qarama-qarshi qo'yiladi. Bu holat ayni radifda yangi ma'nolarni ifodalash, tatabbu' bog'lanayotgan g'azal mazmunini kengaytirish va rivojlantirish tatabbu'navislikning asosiy sharti ekanini G'oziy ijodi misolida ko'rish mumkin. Albatta, G'oziyning g'azali struktural va kompozision tuzilishi, badiiy san'atlar qo'llanilishi bobatida Navoiyning g'azali darajasiga ko'tarila olmagan, ammo shu g'azalning o'zi ham G'oziy ulug' ustoz darsxonasidagi saboqlarni ancha puxta o'zlashtirganidan dalolat beradi.

Qo'qon adabiy muhitida fors-tojik she'riyatining ta'siri ancha kuchli bo'lganligi sababli, bu davrda yashab ijod qilgan shoirlarning ko'pchiligi ikki tilda baravar barakali ijod qilib, mintaqada asrlar davomida yonma-yon yashab kelayotgan o'zbek va tojik xalqlarining madaniyatini yuksaltirishga munosib hissa qo'shganlar. Amiriy, Nodira, Muhyi va boshqa qator qo'qonlik shoirlar ikki tilda devon tuzganlari aytganlarimizga dalildir. Qo'qon adabiy muhitida yaratilgan forsiy merosning aksar qismini tatabbu va naziralar tashkil etishini alohida ta'kidlash lozim. Bu holat faqat Qo'qon adabiy muhitiga emas, balki o'sha davrdagi o'zbek va fors-tojik adabiy jarayoniga xos va ajralmas qismi bo'lgan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, G'oziyning devonida forsiy she'rlarning salmog'i ancha katta. Uning g'azallarida Hofiz Sheroziy, Junaydullo Hoziq, Vosifiy, Mirzo Bedil an'analari yaqqol namoyon bo'lib turadi. Misol tariqasida Zebunnisoning mashhur g'azaliga tatabbu yo'sinida yozilgan g'azalini olib ko'raylik:

Bishkanad daste, ki xam dar gardani yore nashud,
Ko'r on chashme, ki mahvi ro'i dildore nashud.

[G'oziy. №121: 27 a]

Matla'ning birinchi misrasida Zebunnisoning quyidagi g'azal matla'idagi ikkinchi satri tazmin qilingan:

Dur bod az tan sare, k-oroishi dore nashud,
Bishkanad daste, ki xam bar gardani yore nashud.

Zebunnisoning g'azalida ishq yo'lidagi fidokorlik ayollarga xos iffat va hayo pardasiga o'ralgan shaklda berilgan bo'lib, maqta' baytida ushbu g'azalning avtopsixologik-avtobiografik bo'yoqlarini quyuqlashtirib yuborilgan:

Har mato'ero xaridorest dar bozori dahr,
Pir shud Zebunniso, o'ro xaridore nashud.

Zebunniso she'rida ayol xilqatining nozikligi, xushbayon tab'i, ma'shuqaning guldek husniga munosib va mushtoq bulbulisifat oshiqning yo'qligi turli badiiy san'atlar va ifoda vositalari bilan berilgan bo'lsa, G'oziy g'azalida oshiq ko'nglining muhabbatiga munosib bo'lgan yor topolmaganini afsus va nadomat bilan bayon etgan. Zebunnisoning nadomati yorsiz bu jahondan o'tishi bo'lsa (Pir shud Zebunniso, o'ro xaridore nashud), G'oziy ishq dardining bayonnomasi bo'lgan she'rlarining qadr va e'tibor topmaganidan shikoyat qiladi:

So'xtam az berivo'qihoi she'ri xush qumosh,
K-az kasody, hech manzuri xaridore nashud.

[G'oziy. №121: 27 a]

Shoir o'ziga "G'oziy" degan taxallus tanlab, o'zining din yo'lida jaholat bilan kurashuvi va g'olib chiquvchi ekanligini e'lon qilgan. Bunday taxallus tanlash tasodifan qabul qilingan qaror emas edi. U dinga kirmagan dinsizlarga qarshigina emas, johillarga qarshi, dunyoga qattiq ko'ngil bergan g'ofillarga qarshi, jannat

ta'ma qiluvchi nodonlarga qarshi, riyokor zohidlarga qarshi g'azot e'lon qilgan. Ma'rifat nuri jaholat zulmatini engishga uning iymoni komil. O'zi ma'rifat talabida yo'lchi va ma'rifat yoyuvchi ekan, demak, u G'oziy. Ma'rifat tushunchasi dunyo va oxirat, butun borliq tushunchalaridan ko'ra kengroq. U butun borliqni yaratguchi zotga talabgorni yaqin etuvchi, oshno etuvchi vosita. Shu boisdan shoir uyg'oq qalbining rohati uchun faqat ma'rifat istaydi:

Farog'at istasang kech hosili dunyovu uqbodin,
Bir ohi sard ila ikki jahon raxtini barbod et.

Mumtoz shoirlar an'alariga taqlid etib, shoir faqirlik bilan o'z qalbini yoki ma'rifattalab solik qalbini "sing'on safol", yoxud "sing'an kosa" deb ataydi. Ammo, bu "sing'an kosa" unga Shoh Jamshidning jomi jahonnamosidan afzal, majusiy bo'lsa ham, Yor ishqida yonganidan to'plangan gulxan kuli Shoh Doroning taxti murassa'sidan afzal. U o'zi anglagan va qalbini to'ldirgan muhabbat Doroyu Jamshid davlatlaridan ham ziyoda ekanligini faxr bilan qayd etadi. Mana shu mazmundagi ba'zi baytlar:

- Muyassar bo'lsa sing'an kosau gulxan kuli G'oziy,
Havoyi taxti Doru, orzui jomi Jam qilmaz;
- Masnadim gulxan kulidur, sog'arim sing'on safol,
Oncha men topdim bu davlat topmadi Dorou Jam.

Shunday fikrlar shoirning musta'zodlarida ham bayon etilgan:

Har kimki erur podshahi mulki qanoat, hargiz anga shak yo'q,
Qaysar ila Kayxusravu Fag'fur ilan Jam oldida gadodur...

Muhabbat mavzusi G'oziy she'riyatida xuddi Huvaydo va Nodirabegim she'riyatida bo'lgani kabi juda keng va chuqur ma'noga ega bo'lgan mutlaq muhabbatni ifoda etadi. U ishq o'tida toblanaverib yetilgan oshiq. Shuning uchun uning she'riyatida til nafosati, qalb haroratidan ko'ra ko'proq ilohiy jazba, junun ko'zga tashlanadi:

Muhabbat tobidin otashgohdur paykarim G'oziy,
Falak xirmanlari o'rtab bo'lur kul bir sharorimdin.

Shu tariqa haq oshig'i qalbidagi ilohiy jazbaning tilga ko'chishi orifona she'riyatni yuzaga keltiradi. Orif uchun eng katta davlat nihoyasi bo'lmagan ishq, muttasil yonmoq. U bu mashaqqatni go'yoki hech kimga ravo ko'rmaydi, aslida esa barchadan qizg'anadi:

Ishq domig'a muqayyad hech odam bo'lmasun,
Bo'lsa bo'lsun men kibi rasvoi olam bo'lmasun.

G'oyat qattiq va intihosi noma'lum ishq dardi orifni jumla olamdan ajratib qo'yadi. Jumla olam xalqi yaratgandan ofiyat tilasa, u DARD tilaydi:

Aylag'il javru jafu G'oziyi g'amsiz xotiri,
Lahzai shod aylasun, bedard bir dam bo'lmasun.

G'oziy o'z she'riyatining mazmun – mohiyati ma'naviyati yuksak, ishq talabida ma'rifat darajasiga ko'tarilgan, dunyoviy talab –istaklarga ko'plik, riyokorlik illatlaridan qutulgan faqir, so'fiy rind shaxsning dardu alamlari ifodasidan iborat ekanligini ochiq – ravshan bayon etadi:

Men, ey G'oziy, bu noqis shayxlarga yo'qtur ixlosim,
Muhaabbat murshidim, dardu alamdur xatti irshodim.

Shunday qilib, XVIII asr va XIX asr birinchi yarmi Qo'qon adabiy muhitida orifona g'oyalar talqin etilgan she'riyat vujudga kelgan. U o'tmish mumtoz she'riyati g'oyaviy-badiiy an'alaridan bahramand bo'lgani holda, o'zining xususiy jihatlariga ham ega bo'ldi. Qo'qon adabiy muhitining asosiy xususiyatlaridan biri – unda orifona she'riyatning mavjud ekanligi bo'lib, irfoniy ruh umuman badiiy adabiyotning yetakchi g'oyaviy yo'nalishlaridan edi. Irfoniy tafakkur va ruh barcha shoirlar ijodida aniq, ravshan namoyon bo'lib turgan esa-da, siyosiy cheklashlar tufayli bu haqda so'z yuritishning imkoni yo'q edi. Bugungi adabiyotshunoslik ushbu masalaga o'zining bahosini bermog'i, munosabat bildirmog'i va davr ijodkorlari adabiy merosini yangicha ilmiy nuqtai nazardan o'rganmog'i lozim. Keyingi yigirma yil ichida bu borada ilk ilmiy tadqiqotlarga yaratildi.

Adabiyotlar

1. Навоий Алишер. Девон. 4 жилдлик. 1-ж. Гаройиб ус-сиғар/ Нашрга тайёрловчи О.Давлатов. – Т.: Тамаддун, 2011.
2. Ғозий. Девон. Инвентарь №121 Шарқшунослик институти қўлғезмалар фонди.
3. Зоҳидов В. Ўзбек адабиёти тарихидан. Тошкент, ЎзДБАН. 1961, 194 б.
4. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Моварауннахр – Ўзбекистон, 2009. – 290 б.
5. Қаюмов А. Ғозий. Тошкент: ЎзФА, 1959. – 146б.
6. Жўрабоев О. Матнинг матноси сирлари. –Т.: Тамаддун, 2017. –Б.72-74.
7. Файзуллоев Б. Ўзбек шеърятда татаббуъ тарихи ва маҳорат масалалари (XVII-XIX асрлар ва XX аср бошлари ғазалчилиги асосида): филол. ф.н.... дисс. Авт. Тошкент: ЎзРФА ТАИ, 2002. – Б.17.

UDK: 37:377.35 (575.1)

ELEKTRON TA'LIM SHAROITIDA TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISH - PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**Ch.U.Baysarieva¹, B.S.Alikulov²**¹*Samarqand Veterinariya meditsinasi instituti, ²Samarqand davlat universiteti
charosbaysariyeva@gmail.com, alikulov_begali@mail.ru*

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalar mustaqil ishlarining turlari, shakllari, funksiyalari hamda didaktik tamoyillarini o'rganish asosida aniqlangan mustaqil ta'lim samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan motivatsion omillar to'g'risidagi ma'lumotlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: talabalar mustaqil ishlari, mustaqil ta'lim funksiyalari, talabalar mustaqil ishlarining turlari va shakllari, talabalar mustaqil ta'limining motivatsion omillari, o'qituvchi shaxsi.

Организация самостоятельного образования студентов в контексте электронного образования

Аннотация. В данной статье представлена информация о мотивационных факторах, направленных на повышение эффективности самостоятельного обучения, выявленных на основе изучения видов, форм, функций и дидактических принципов самостоятельной работы студентов высшей школы.

Ключевые слова: самостоятельная работа студентов, функции самостоятельного обучения, виды и формы самостоятельной работы студентов, мотивирующие факторы самостоятельной работы студентов, личность преподавателя.

Organization of self-students in the context of electronic education as a pedagogical problem

Abstract. This article provides information on the motivational factors aimed at increasing the effectiveness of independent learning, identified on the basis of studying the types, forms, functions and didactic principles of independent work of higher school students.

Keywords: independent work of students, functions of independent learning, types and forms of independent work of students, motivating factors of independent work of students, personality of the teacher.

Jamiyatning zamonaviy rivojlanish darajasi oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlash sifatiga yangi talabalar qo'yadigan ta'lim paradigmasi ustuvor yo'nalishlarining o'zgarishi bilan tavsiflanadi. Zamonaviy mutaxassis mehnat bozorida moslashuvchan va harakatchan bo'lishi, zamonaviy ilmiy yutuqlarga muvofiq o'z kasbiy saviyasini doimiy ravishda oshirib borishga tayyor bo'lishi kerak. Shuningdek, iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirish, korxonalarning modernizatsiya qilinishi hamda innovatsion rivojlanishi mutaxassislar (bakalavrlar, magistrarlar) tayyorlashning asosiy vazifasini belgilaydi.

Oliy ta'limning asosiy vazifasi – bu o'zini o'zi rivojlantirishga qodir mutaxassisning ijodiy shaxsini shakllantirishdan iborat bo'lib, bunda mustaqil ta'lim universitet talabalari faoliyatining asosiy yo'nalishi bo'lishini taqozo etadi.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishga, respublikada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ijtimoiy va iqtisodiy sohalaridagi yangilanishlarda ushbu muassasalarning faol ishtirokini ta'minlashga to'siq bo'layotgan bir qator muammolar saqlanib qolmoqda [1].

Mustaqil ta'lim maxsus fanlarni o'rganishda alohida dolzarblikka ega bo'ladi, chunki u talabalarni ilmiy adabiyotlar bilan ishlashga, qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltiradi. Talabani o'qitish o'qituvchi tomonidan bilvosita boshqariladigan tizimli, mustaqil faoliyatni o'z ichiga oladigan dominant bo'lib qolishi, ayniqsa, zamonaviy ta'lim sharoitida oliy ta'lim tizimida mutaxassislarni ko'p bosqichli tayyorlashga o'tishga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash jarayoniga yondashuvlar, shuningdek o'qitish texnologiyasining o'zgarishi, xususan elektron ta'lim sharoitida talabalar mustaqil faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va amalga oshirishning mazmuni, shakl, metod va vositalarini hamda ularni baholash tizimini o'zgartirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Shu nuqtai nazardan elektron ta'lim sharoitida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish muammosi alohida dolzarbdir. Shu bilan birga, psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etish uchun pedagogik sharoitlarni rivojlantirish masalalari yetarlicha o'rganilmagan.

Hozirgi vaqtda respublikamizning ko'plab oliy ta'lim muassasalari kredit-modul tizimiga o'tishi ta'minlanmoqda. Bu tizimda ta'lim yo'nalishlarining o'quv rejalarida mustaqil ta'lim ajratilgan vaqt 50-60% ni tashkil etmoqda. Mutaxassislik fanlaridan ko'zda tutilgan mustaqil ta'lim soatlarining qanday shaklda bajarilishi, topshiriqlar mazmuni qanaqa kompetensiyalarga yo'naltirilganligi, ularning baholanishi qaysi mezonlarga asoslanib amalga oshirilmoqda?, - degan savol pedagogikaning asosiy muammolaridan biridir.

Ta'lim jarayonlarining asosiy me'yoriy hujjatlari hamda namunaviy o'quv dasturlarining tahlili, shuningdek oliy ta'lim muassasalarida o'tkazilgan suhbatlar va kuzatishlarimizga ko'ra mustaqil ishlarning keng tarqalgan turlari quyidagilardan iborat:

fan dasturida berilgan mavzular bo'yicha referatlar, ma'ruzalar, insholar va boshqa yozma ishlarni tayyorlash va yozish;

turli xil xarakterdagi uy vazifalarini bajarish, talabalarining mustaqilligi va tashabbuskorligini rivojlantirishga qaratilgan individual topshiriqlarni bajarish, kurs ishlari va loyihalarni bajarish;

ilmiy-nazariy konferensiyalar, olimpiadalarda qatnashishga tayyorgarlik.

Mustaqil ishlarning quyidagi shakllarini ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

- Ta'limning auditoriya sharoitida – o'qituvchining bevosita rahbarligi ostida olib boriladigan laboratoriya tadqiqotlarini olib borishda, ma'ruzada, amaliy va seminar mashg'ulotlarida;

- Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda – talaba yoki o'qituvchining tashabbusi asosida o'qituvchi bilan bevosita aloqada olib boriladigan o'quv, loyihalash, tadqiqot ishlari bo'yicha konsultatsiyalar;

- Talabaning ehtiyoji va tashabbusi asosida majburiy va ijodiy topshiriqlarni bajarish uchun kutubxonada, uyda yoki talabalar turar joylarida bajariladigan mustaqil ta'lim.

Shu bilan birga, mustaqil ta'lim quyidagi bir nechta funksiyalarni bajarishga mo'ljallangan:

- o'quv - talabalar bilimlarini tizimlashtirish va mustahkamlash, ularning dunyoqarashini kengaytirish;

- rivojlantiruvchi - kognitiv qiziqishni rag'batlantirish, diqqat, xotira, fikrlashning individual xususiyatlaridan oqilona foydalanish orqali ta'lim mazmunini o'zlashtirishning individual shakllarini takomillashtirish;

- tarbiyaviy - irodaviy o'zini-o'zi boshqarish, katta hajmdagi o'quv materialini o'zlashtirish, unga qiziqishning vaqtincha pasayishida motivatsiyani saqlab qolish [3, 4].

Mustaqil ta'lim bir nechta topshiriqlardan iborat bo'lishi mumkin, ya'ni 1-topshiriq asosan mavzuga oid nazariy savollardan iborat bo'lishi, 2-topshiriqda nazariy bilimlar asosida aniq bir vaziyatda harakat qilishi talab etiladigan amaliy vazifalar bo'lishi, 3-topshiriq bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatida uchraydigan vaziyatlarga oid muammoli vaziyatlarni aks ettirishi lozim [5].

Pedagogika va psixologiya sohasida olib borilgan tadqiqotlar natijalari hamda didaktik qonuniyatlarga ko'ra, shuni ta'kidlash lozimki, talabalarining faol mustaqil ta'lim ishlari ularda jiddiy va barqaror motivatsiya bo'lgan taqdirdagina yuzaga kelishi mumkin. Bunda talabalar mustaqil ishlarning quyidagi asosiy motivatsion omillarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Ta'lim jarayoni uchun ahamiyatlilik. Agar talaba tomonidan bajarilgan mustaqil ish natijalari ma'ruza kursida, uslubiy qo'llanmada, laboratoriya mashg'ulotlarida, nashrni tayyorlashda yoki boshqa usulda ishlatilishini bilsa, unda uning vazifaga munosabati o'zgaradi va natijada sifati sezilarli darajada oshadi.

Amaliy faoliyatdagi ahamiyati. Bo'lg'usi kasbiy faoliyatiga oid amaliy vazifalar va muammoli vaziyatlarni hal etishda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan faol foydalanish. Masalan, talabaga oliy ta'limning dastlabki yillaridan muayyan mavzu, masalan bitiruv malakaviy ishi uchun topshiriq berilsa yoki yakuniy davlat attestatsiyasining topshiriqlari mazmuni yetkazilsa, unda u ijtimoiy-gumanitar, tabiiy-ilmiy, umumkasbiy va mutaxassislik fanlari bo'yicha mustaqil topshiriqlarni o'z maqsadi va ehtiyojidan kelib chiqqan holda bajaradi.

Ijodiy jarayonga jalb qilish. Talabalar tomonidan mustaqil ravishda bajariladigan topshiriqning sifati – ijodiy jarayonning xususiyatlari – kelajakdagi natijaning jozibadorligi va natijadorligi ("o'zidagi o'zgarishlardan quvonch hissi"), ishtiyoq, loyiha tanlovi va qiziqarli vazifani bajarishga bog'liq. Bunga kichik tadqiqot ishlari, loyihalashtirish, ijodiy yoki uslubiy ishlarda ishtirok etish kabi shakllarni kiritish mumkin.

Faol o'qitish usullari. Muhim motivatsion omil - bu oliy o'quv yurtlarida ta'limning interaktiv usuli. Ta'lim jarayoniga faol ijtimoiy-psixologik o'rganish usullarini, avvalambor, rol o'ynash, taqlid qilish va tashkiliy-faoliyat o'yinlariga asoslangan o'yin mashg'ulotlarini kiritish kerak. Bunday ish jarayonida nafaqat ko'nikmalarni egallash, balki bir tomonlama shaxsiy ma'lumotdan o'rganilayotgan ob'ekt

to'g'risidagi ko'p qirrali bilimlarga o'tish yuz beradi. Faol ta'lim vositalarini joriy etish yo'lidagi birinchi qadam - bu auditoriyadagi hissiy, shaxsiy va kasbiy holatga bog'liq ish uslubidan foydalanish, muhim kasbiy vaziyatlarni muhokama qilishdan boshlanishi ahamiyatlidir.

Loyiha-tanlovlarida ishtirok etish. Talabalarining o'quv ishlaridagi mustaqilligini oshirishning motivatsion sharti - bu o'quv fanlari bo'yicha olimpiadalar va musobaqalarda ishtirok etish, tadqiqot ishlari yoki amaliy ishlar taqdimotlarini yo'lga qo'yish.

Rag'batlantiruvchi nazorat. Talabalar bilimlarining sifatini baholashning moslashuvchan tizimi (rag'batlantiruvchi ballar, reytinglar, testlar, nostandart sinov jarayonlari)dan ma'lum sharoitlarda foydalanish raqobat muhitini keltirib chiqaradi, bu o'z-o'zidan talabalarining o'zini-o'zi takomillashtirish uchun kuchli motivatsiya omilidir. Chunki o'rganishlarimizga ko'ra oliy ta'lim muassasalarida aksariyat talabalarining birlamchi maqsadi fanlardan baho olishga yo'naltirilgan bo'lib, o'qituvchining baholash uslubiga qarab muayyan fanlarni o'zlashtirishi kuzatilmoqda. Ta'kidlash lozimki, an'anaviy ta'limda baholash talabaning nazariy bilim darajasiga yo'naltirilgan bo'lib, uning kasbiy kompetensiyalari, mustaqil fikrlash va ichki imkoniyatlari e'tibordan chetda qoldirilgan.

Ma'naviy va moddiy rag'batlantirish. Talabalarni ijodkorlik, novatorlik va fikrlash qobiliyati uchun maxsus stipendiyalar va rag'batlantirishlar kabi ta'sirchan vositalar orqali mustaqil ish bilan shug'ullanishga undash mumkin. Masalan, muddatidan oldin topshirilgan yoki talabaning yuqori saviyada bajarilgan mustaqil ishlari (yuqori sifat, ingliz tilidagi annotatsiya, amaliy va kasbiy ahamiyatga egaligi) yuqori ball bilan baholanishi, shuningdek alohida e'tirof etilishi maqsadga muvofiq.

O'qituvchining shaxsi va o'qitish uslubi. O'qituvchining kasbiy mahorat va ijod namunasi hamda mashg'ulotlarni o'tkazish vositasi sifatida harakat qilishi o'quvchiga o'zining ijodiy salohiyatini ochib berishga, ichki o'sish istiqbollari aniqlashga yordam beradi. O'qituvchi nafaqat mavzuning mazmuni yoritib berishi, uni mustahkamlashi yoki ob'ektiv baholashi, balki shu bilan birgalikda talabaning o'zini namoyon etishiga, o'zini ro'yobga chiqarishiga sharoiti yaratishi hamda talabaning maqsadini va ehtiyojini hosil qilishi maqsadga muvofiqdir.

Talabalarining mustaqil ishlashi uchun topshiriqlarni ishlab chiqishda quyidagi didaktik talablarni hisobga olish kerak:

- ✓ topshiriqni bajarish vaqtining taxminiy me'yorlari, o'quv materialining mantiqiy mazmuni va tuzilishi, topshiriqning amaliy maqsadi aniqlashtirish;
- ✓ mustaqil ta'lim topshiriqlarini talaba bilish faoliyatining xususiyatlariga moslashtirish;
- ✓ mustaqil ta'lim topshiriqlarining murakkablik va muammolilik darajasining bosqichma-bosqich rivojlanishiga erishish.

Talaba mustaqil ishida unga individual pedagogik yordam ko'rsatishda o'qituvchi turli xil professional rollarni bajaradi: yordamchi, maslahatchi, moderator, koordinator, murabbiy. Bunday holda o'qituvchi mustaqil ta'lim topshiriqlar mazmuni va topshiriqni bajarish algoritmi bo'yicha ko'rsatmalar ishlab chiqishi, reja va amalga oshirish dasturini ishlab chiqishda yordam berish uchun maslahatlar tashkil etishi maqsadga muvofiq.

Mustaqil ta'lim rolini oshirish o'qituvchi faoliyatining quyidagi yo'nalishlarini taqozo qiladi:

o'quv materialini o'zlashtirishda kompetent yondashuvga asoslangan mustaqil ta'limning rolini belgilash, mustaqil o'rganish uchun kasbiy ahamiyatdagi ta'limiy elementlar hamda ularni o'zlashtirishning metodik vositalarini ishlab chiqish maqsadida o'quv rejalari va dasturlarini qayta ko'rib chiqish;

o'qitish uslublarini optimallashtirish, o'qituvchilarning ish samaradorligini oshiradigan yangi o'quv texnologiyalarini o'quv jarayoniga joriy etish, o'quvchiga qulay vaqtda o'quv materialini o'zlashtirishga imkon beradigan axborot texnologiyalarining didaktik vositalaridan faol foydalanish;

talabalar mustaqil ishini nazorat qilish tizimini takomillashtirish, ob'ektiv baholash tizimini joriy etish va avtomatlashtirilgan test sinovlarini keng joriy etish;

talabalarining o'quv va ishlab chiqarish amaliyoti, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish metodikasini takomillashtirish, chunki aynan o'quv ishlarining turlari, birinchi navbatda, ularni kasbiy vazifalarni mustaqil bajarishga tayyorlaydi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim - bu tashabbuskorlik, faollik va ijodkorlik kabi shaxsiy fazilatlarni tarbiyalash vositasiga aylanadigan bilish faoliyati turidir. Oliy ta'lim tizimida talabalar mustaqil ishlarining rolini oshirish o'quv jarayonini tashkil etishning butun tizimini tubdan qayta ko'rib chiqishni anglatadi, bu talabaning bilim olish qobiliyatini rivojlantirishga, o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatini, maqsad va ehtiyojlarini shakllantirishga yo'naltirilgan ijodiy faoliyat. Talabalarining ixtisosligi va tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda mustaqil ishlarini tashkil etish usullari va shakllari o'qituvchi tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Mustaqil ta'lim samaradorligi

talabaniing maqsad va ehtiyojlariga bog'liq bo'lib, o'rganilishi ko'zda tutilgan o'quv materialini kognitiv va kompetent yondashuv asosida mustaqil o'rganilishi quyidagi omillarga bog'liqligi aniqlandi:

- ✓ mustaqil ta'lim topshiriqlarining ta'lim jarayoni uchun nazariy va amaliy faoliyatdagi ahamiyatini anglash;
- ✓ oliy ta'limning dastlabki bosqichlaridan faol ijodiy jarayonga jalb qilish;
- ✓ faol o'qitish usullarini joriy qilish;
- ✓ loyiha-tanlovlarida ishtirok etish;
- ✓ rag'batlantiruvchi nazorat;
- ✓ ma'naviy va moddiy rag'batlantirish;
- ✓ o'qituvchining shaxsi va o'qitish uslubi.

Mazkur omillar oliy ta'lim muassasalarida talabalar mustaqil ishlari mazmunini takomillashtirish, xususan kompetent yondashuvga asoslangan mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqish uchun samaradorlik mezonlarini ishlab chiqish asos bo'ladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasi.
3. Парникова Г.М. Учебная самостоятельность студента неязыкова ВУЗа: Сущность и структура понятия // Педагогическое образование в России. – 2016. - №5. – с. 6-10.
4. Пидкасистый П.И. Организация учебно-познавательной деятельности студентов / П.И. Пидкасистый. – М.: Педагогическое общество России, 2004.
5. Urakov Sh.R. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning kompetent yondashuvga asoslangan pedagogik tizimini takomillashtirish. // Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand, 2018 y.

UDK: 37.1

MAKTAB TA'LIMINI RIVOJLANTIRISH UCHUN USTOZLARGA YUKSAK HURMAT, EHTIROM KO'RSATISH - JAMIYATIMIZDA OLIY QADRIYAT DARAJASIGA KO'TARILISHI ZARUR

X. G. Xusamboeva

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi
khusamboeva@mail.ru*

Annotatsiya. Maqolada maktab ta'limiga alohida to'xtalib, mamlakat ravnaqi, rivojlanishi va kelajagi uchun ta'lim tizimining ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Bunda birinchi navbatda ta'lim tizimining asosiy ishtirokchilari bo'lgan pedagog xodimlar maqomini oshirish bosh mezon sifatida ta'riflangan. Darhaqiqat, o'z kasbining fidoiysi bo'lgan ilmiy, bilimli, ma'rifatli muallimlar har doim ham topilavermaydi. Bugungi kun o'qituvchisining bilimi ertangi kunni belgilasa, uning mavqeyi jamiyatning nufuzini belgilaydi. Shunday ekan taraqqiyot formulasini jamiyat hayotiga tatbiq etish uchun o'qituvchilik maqomini oliy qadriyat darajasiga ko'tarish zarur.

Respublikamizda "Pedagog xodimlarning maqomi to'g'risida"gi qonun loyihasi yaratilib jamoatchilik muhokamasiga qo'yildi. Bu O'zbekiston mustaqil bo'lgan davrdagi pedagog xodimlar mavqeyini oshirishga qaratilgan eng birinchi qonun hujjatidir. Mazkur qaror loyihasida pedagog xodim maqomining huquqiy asoslari, pedagogik faoliyatning asosiy prinsiplari, pedagog xodim maqomi bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari aniq belgilangan bo'lib, pedagog xodimlarning ijtimoiy himoyasi ham qonun bilan mustahkamlanmoqda.

Mazkur maqolada olimu ulamolarning fikrlari orqali o'qituvchilik kasbining murakkab qirralari, ijobiy sifatleri, pedagog bo'lish uchun qanday fazilatlariga ega bo'lish kerakligi haqidagi ma'lumotlar keng yoritib berilgan. Maqolada pedagog xodimning maqomini oshirishga ilmiy yondashilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, ta'lim tizimi, maktab, maktab ta'limi, o'qituvchi, pedagog, pedagog xodim maqomi, muallim, pedagoglar mavqei, qonun, intellekt, pedagogik mahorat, oliy qadriyat, o'quvchi.

Для развития школьного образования высокое уважение и почтение к учителям необходимо поднять в обществе до уровня высшей ценности

Аннотация. В статье особое внимание уделяется школьному образованию, подчеркивается важность системы образования для процветания, развития и будущего страны. При этом главным критерием было определено повышение статуса педагогов, являющихся в первую очередь основными участниками системы образования. Ведь не всегда найдутся грамотные, образованные, просвещенные учителя, которые станут преданными своей профессии. Сегодня, когда знание учителя определяет завтрашний день, его положение определяет престиж общества. Поэтому для внедрения формулы прогресса в жизнь общества необходимо поднять статус педагогики до уровня высшей ценности. В нашей республике создан и вынесен на общественное обсуждение проект закона "О статусе педагогов". Это первый законодательный акт, направленный на повышение статуса педагогов в период независимости Узбекистана. В проекте постановления четко определены правовые основы статуса педагога, основные принципы педагогической деятельности, основные направления государственной политики в отношении статуса педагога, законодательно закреплена и социальная защита педагогов.

В данной статье широко освещена информация о сложных сторонах профессии учителя, положительных качествах, о том, какими качествами нужно обладать, чтобы стать педагогом. В статье представлен научный подход к повышению статуса педагога.

Ключевые слова: образование, система образования, школа, школьное образование, учитель, педагог, статус учителя, должность учителя, педагога, закон, интеллект, педагогическое мастерство, высшая ценность, ученик.

For the development school education, it is necessary to raise the high-level of respect for teachers in our society

Abstract. In this article it was focused on school education and highlights the importance of the education system for the development, prosperity and future of the country. As the first place, the main criterion is to increase the status of teachers, who are primarily key participants in the education system. Therefore, it is not always possible to find knowledgeable, educated, enlightened teachers who are devoted to their profession. Today, teachers' knowledge of the next day, define its position of influence in society. Therefore, in order to implement the formula of development in the life of society, it is necessary to raise the status of teachers to a higher level of value.

"The status of the personnel in the republic" created a public discussion of the draft law. This is the first piece of legislation aimed at raising the status of teachers in the period of independence of Uzbekistan. The draft resolution clearly defines the legal basis for the status of teachers, the basic principles of pedagogical activity, the main directions of state policy on the status of teachers, and the social protection of teachers is strengthened by law.

This article provides detailed information on the complex aspects of the teaching profession, its positive qualities, what qualities you need to be a teacher through the views of scholars. In this article, it was approached scientifically to increase status of the teachers.

Keywords: education, education system, school, school education, teacher, pedagogy, pedagogical staff status, tutor, status of teachers, law, intellect, pedagogical ability, high value, pupil.

*Ustoz, muallimsiz qolsa gar inson,
Nodonlikdan zim-zijo bo'lardi jahon.
(A. Jomiy)*

Jamiyat taraqqiyoti, milliy farovonlik hamisha yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi, zamonaviy bilimlarni chuqur egallagan yangi kadrlar, ularning yuksak malakasi bilan bog'liq bo'lib kelgan. Keksa avlod erishgan yutuqlarga, ular to'plagan tajribaga tayanib, mamlakatning ilmiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy salohiyatini yanada ko'tarish hamisha yoshlar zimmasiga tushgan. Shu boisdan ham istiqbolimizning ilk qadamlaridan boshlab, mamlakatimizda yangi zamon avlodini tarbiyalash, ular dunyoqarashini yangicha qadriyatlar asosida shakllantirish ishi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Kelajak maktabdan boshlanadi. Qaysiki davlat dunyoning rivojlangan mamlakatlari qatoriga kirs, bilingki, u yerda maktab ta'limi tizimi yuqori saviyada tashkil etilganidan darakdir. Shunday ekan, O'zbekiston taraqqiyotida ham maktab ta'limining ahamiyati juda katta. Xo'sh, ta'lim tizimining rivojiga qanday erishiladi? Birinchi navbatda, o'z kasbining haqiqiy egasi bo'lgan ilmiy, bilimli, ma'rifatli muallimlar ta'minoti zarur. Bugungi kun o'qituvchisining bilimi ertangi kunni belgilasa, uning mavqeyi

jamiyatning nufuzini belgilaydi. Demak, bunday darajaga erishmoq uchun o'qituvchi-pedagoglik maqomini oliy qadriyat darajasiga ko'tarish zurur. Fikrimcha, maktab ta'limini rivojlantirish faqatgina shu tizimni isloh qilib erishib bo'lmaydi. Maktabgacha, maktabdan tashqari, oliy ta'lim - barchasi bir-birini to'ldirgan holda ish olib borishi yaxshi yechim. Bularga bir-biridan ayro baho berib bo'lmaydi. Bundan tashqari, ta'limni yaxshilanishiga sababchi o'qituvchilar ekan, eng avvalo, ularning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash, obro'yini ko'tarish kerak. Ma'naviy rag'batlantirish qatorida moddiyatini yuksaltirish ham o'qituvchining o'z kasbiga hurmatini oshiradi. Yashash uchun qulayliklarini faqat ta'lim berish orqasidan topgan o'qituvchi kasbini rivojlantirish uchun eng avvalo, o'zi harakat qiladi, so'ng boshqalardan talab qiladi.

O'qituvchining mavqeyini ko'tarishda bir tomonlama yondashish bilan natijaga erishib bo'lmaydi. Xalq orasida milliy tarbiya o'z aksini topa olsagina "Ustoz otangday ulug'" maqoli amalda namoyon bo'ladi. Demak, ta'lim tizimi, o'qituvchi nufuzini oliy darajaga ko'tarish umumxalq harakati bilan amalga oshadi. Oiladagi dunyoqarashdan boshlanadi.

Hamma sohani birlashtirib turadigan qon tomir ham - maktab! Maktabni yuqori darajadagi muassasa sifatida tan olish kerak! O'qituvchilarni kerak bo'lsa, zamon talabiga moslab o'qitish zarur. Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi deganidek, bilimsiz, saviyasiz kadrlar jamiyatda bo'shliq hosil qiladi va bunday bo'liqlarni to'ldirish uchun yana vaqtlar kerak bo'ladi.

Ma'lumki, o'qituvchining ma'lumotlilik, madaniyatlilik, yuksak intellekt sohibi bo'lishi, kamtarligi, adolatlilik va barcha boshqa ijobiy ruhiy sifatlarini o'quvchilar andoza sifatida tasavvur qilib, o'zini va atrofidagi odamlarni baholashda muhim mezon sifatida qabul qiladi. Xuddi shuning uchun ham o'qituvchi, maktabda qanday fandan ta'lim berayotganidan qat'iy nazar, o'quvchi-yoshlar uchun yuksak insoniy ahloq normalarini o'zida aks ettirgan shaxs, namunaviylikning timsoli sifatida gavdalanmog'i lozim.

"Madaniyatli kishi bu shunday kishiki, u o'zini birovning o'rniga qo'yib, uning tashvishlarini anglab unga ichi achiydigan kimsadir. Bu achchiq va aziyatli talant", - deydi yozuvchi va san'atkor Vasiliy Shukshin. Bu nihoyatda og'ir vazifa bo'lib, kishidan o'ziga nisbatan juda katta mas'uliyatlilikni talab qiladi. Jumladan, o'qituvchi atrof kishilar bilan muloqotda, o'z ruhiy holatlariga berilmasligi, kayfiyati bilan ish tutmasligi, vazmin va salobatli, odil bo'lishi bilan boshqa soha mutaxassislaridan farq qilishi, uning faoliyatining muhim ko'rsatkichlaridan sanaladi.

Shuningdek o'qituvchi amalda ijobiy natijalarga erishishi uchun o'z tarbiyasidagi yoshlarning psixologiyasi, yosh xususiyatlari va qiziqishlarini hamda mahalliy pedagogik sharoitni yaxshi o'rganishi va unga ijodiy yondasha olishi zarur.

Ko'p hollarda, maktablarda uchraydigan xulqi og'irroq bolalarni to'g'ri yo'lga sola bilmaslik, ularning qalbiga yo'l topa olmaslik, o'qituvchining pedagogik va yosh o'smirlarning psixologik xususiyatlari to'g'risidagi bilim saviyalarining yetarli bo'lmasligining oqibatidir.

"Agar etikdo'z o'z kasbini yaxshi bilmasa, bu xavfli emas, nari borsa xalq oyoq kiyimga yolchimaydi. Bordi-yu muallim nodon bo'lsa, bu fojea, bu davlat ishlariga bolta urgan bilan barobar, chunki u kelajakda jamiyatda nodonlarning sonini ko'paytiradi," - degan edi Platon ustozlik kasbi haqida.

Maktabda yaxshi o'qituvchi sifatida tanilish, barcha o'quvchilar hurmati va obro'sini qozonish oson ish emas. Buning uchun o'qituvchi har qanday pedagogik vaziyatda ham o'z o'quvchilariga nisbatan mehribonligini va oliyjanobligini namoyon qila olishi zarur. Bu ishning eng qiyin va murakkab joyi shundaki, o'quvchining fe'li, salbiy xulq-atvori va yurish-turishi, unga nisbatan o'qituvchining oliyjanob munosabatlarida hech qanday rol o'ynamasligi lozim. Bu esa, har doim har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. O'qituvchi o'quvchilarning yanglishishlarini, xulq-atvoridagi nuqsonlarini kamroq ko'rib, uning faoliyatidagi ijobiy sifatlarining eng kichik namoyon bo'lishlarini ham, o'zining yuksak professional xususiyatlariga tayangan holda, darhol ko'rishi va bunday sifatarni shoshmasdan, sabr va chidam bilan avaylab tarbiyalamog'i, voyaga yetkazmog'i lozim - deydi metodist olim M.Mamadazimov.

Faqat shunday qilingandagina u, o'z o'quvchilari xulqining ma'naviy sog'lom tomonlarni ko'paytirishga va ularning jamoadagi ijobiy ta'sirini kuchaytirishga erishadi. Bu masalada taniqli pedagog J.J.Russo: "Tarbiyada yo'l qo'yiladigan eng katta xatolik, bu shoshqaloqlikdir", - degan edi.

O'qituvchilik kasbining qiyinligi, o'qituvchi o'quvchilardagi yomon xislatlarni, xulq-atvordagi salbiy tomonlarni ko'rganda, eslatilganidek, o'zida tabiiy tug'iladigan jahl va g'azab hislarini, barcha salbiy his-hayajonini bosishi, bolada namoyon bo'ladigan salbiy xususiyatlarda bolaning juda katta aybi yo'qligiga, bunday hol bolani o'rovchi atrof-muhit, oilasida qaror topgan boshqa bir murakkab sabablar tufayli bo'layotganiga motivlar izlab topishi, va nihoyat, o'zidagi barcha insonparvarlik xislatlarini "yordamga chaqirib", ularni namoyon qilmog'i lozim. Bu juda kuchli ruhiy kechinmali mehnat hisoblanadi.

Xuddi shuning uchun ham pedagoglik kasbini sevib tanlamagan har qanday o'qituvchi, bunday sharoit vujudga kelganda, o'z salbiy his-tuyg'ularini bosa olmay, ularga erk berib, ko'p vaqtini foydasiz – bolalarni jerkib, urishib “yo'lga solmoqchi” bo'lishdan nari o'tmaydi. “Baxtga qarshi, maktablarda, aksariyat hollarda, shu xildagi holatlarga duch kelamiz. O'qituvchining ma'ruzasi jerkish va jahldan xoli bo'lishi lozim. Dars paytida o'zini tuta bilmaslik o'qitishda katta zarar beradi”, – deb ta'lim beradi mashhur eronlik astronom Nasriddin Tusiy (XIII asr) o'zining “Talabaning tarbiyasi haqida”gi asarida.

Shu tufayli o'qituvchilikni o'ziga kasb qilib tanlagan yoshlar, mas'uliyatni chuqur anglab, jamiyat oldida yosh avlodning qalbini tarbiyalashdek yuksak majburiyat olayotganliklarini bir daqiqa ham unutmasliklari lozim. Shu bilan birga, bu kasbni tanlashga qaror qilgan kundan boshlab ular, o'zlarida xushfe'llik, temir intizom, bolalarga nisbatan mehr-muruvvatni tarbiyalashni, zaruriy bilimlarni egallashni maqsad qilishlari kerak bo'ladi.

Respublikamizda ta'lim islohoti, oxirgi yillarda o'qituvchi va murabbiylarning hayotiy sharoiti va moddiy ahvolini yaxshilash bo'yicha bir qancha tadbirlar belgiladi. Endi o'qituvchi kadrlar, pedagogik jamoalar, barcha maorif xodimlari jamiyat oldidagi oliyanob va murakkab burchlarini yuksak darajada ado etishlari uchun jon kuydirish bilan bu g'amxo'rliklarga javob berishni maqsad qilmoqliklari zarur.

Ma'lumki, yoshlarni tizimli o'qitish va tarbiyalashning katta davri maktab ostonasidan boshlanadi. Maktab pedagogik jamoasining bilimi, saviya va salohiyati, mehnatga munosabati, madaniyatligi va turli boshqa sohalar bo'yicha ma'lumotligi o'quvchilarda o'z aksini topadi. Maktab bo'sag'asidayoq, yoshlarda tabiatdagi turli jarayon va hodisalarga qiziqishlarini uyg'otish, mehnatga, elementar axloqiy normalarga munosabatlarini shakllantirish turli bilimlar bazasida amalga oshirilib boriladi. “Qayerda maktabning ishi oqsayotgan bo'lsa, bilingki, o'qituvchi aybdor, qayerda muvaffaqiyatli ketayotgan bo'lsa – buning uchun biz o'qituvchilardan qarz dormiz” – deydi taniqli pedagog A.Disterverg.

O'quv muassasasida jamoaning ahilligi, o'zaro samimiylik, hurmat o'quvchilar uchun juda muhim namuna hisoblanadi. Hamkasblar, jamoa orasida bunday iliqlik munosabatlarni shakllantirishda muassasa rahbari, uning yordamchilari – jamoat tashkilotlari boshliqlarining oliyanobligi muhim omillardan sanalanadi.

Hozirgi axborot asrida, uning turli vositalaridan (ayniqsa internetdan) keng foydalanishga “izn bermay”, o'qituvchining qo'l-oyog'ini bog'lab, qog'ozbozlik bilan bo'lib bo'sh vaqt qoldirmaslik, biz ko'zlagandek ta'lim sifatiga erisha olmasligimizga sabab bo'ladi. Rahbar xodimning o'qituvchilar bilan “faqat men aytgandek bo'lsin” qabilida muomala qilishi, axborot asrida ularni o'z ustilarida har qachongidan ham unumli ishlashlari va ijodiy faoliyatlariga to'g'anoq bo'lishi, bugungi axborot selidan erkin foydalanishlariga to'sqinlik qilishi, bir so'z bilan aytganda, ularning o'z intellektualligi ustida ishlashlariga jiddiy to'siq bo'ladi.

O'qituvchining o'z intellektualligini va pedagogik mahoratini oshirishga qaratilgan tinimsiz intilishi va bu orqali o'quvchilar hurmatini qozonayotgani, uning haqiqiy o'qituvchiligidan darak beruvchi eng muhim faktorlardan, deb bilish kerak. Shuning uchun ham maktab faoliyatining muvaffaqiyatini chin dildan istagan har bir rahbar xodim, bugun maktab o'qituvchilarining bo'sh vaqtini qattiq turib himoya qilmog'i va o'qituvchi undan qanday foydalanayotganligi bilan qiziqmog'i lozim.

Axborot asri talablariga javob bera oladigan o'qituvchi kadrlarni tayyorlash masalasida, jamiyatimiz pedagogika oliy o'quv yurtlari oldida kechiktirib bo'lmaydigan ayrim vazifalar turadi. Mazkur talablar asosida o'z faoliyatlarini qayta qurishda zarur bo'lgan pedagogika oliy o'quv yurtlarining eng birinchi vazifasi, fikrimizcha, bunday muassasalarga o'qishga qabul qilishning mavjud sistemasiga sezilarli o'zgartirishlar kiritilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda abituriyentning kirish imtihonlaridan oldin tanlagan ixtisosligi bo'yicha suhbat asosida o'tishi juda muhim. Mazkur suhbatlar, birinchi navbatda, abituriyentning hujjat topshirgan mutaxassisligiga qiziqishi va moyilligi borligi aniqlanadi. Bu masalada taniqli pedagog K.E.Ushinskiy: “Qiziqishi yo'q narsaga o'qitish, o'quvchida uquvga bo'lgan harqanday ishtiyoqni o'ldiradi. Busiz esa, u ko'p uzoqqa bora olmaydi”, – deganda juda haq edi.

Respublikamizning har bir maktabi, o'quv muassasi, eslatilganidek, jamiyatimizning ma'lumotli va madaniyatli o'qituvchi kadrlari bilan ta'minlanishiga erishish uchun tinimsiz ish olib borish kerak. Faqat shundagina, respublika ta'lim tizimining qayta qurish masalalari bo'yicha hukumatimiz qabul qilgan barcha tadbirlarni hayotga tatbiq etishda uning amaliy javobi bo'ladi.

Mashhur fransuz yozuvchisi V.Gyugo aytganidek: «Kelajak maktab o'qituvchisining qo'lidadir», – degan bashoratli ibora bugungi kunning asosiy shiori bo'lmog'i kerak.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi pedagoglar mavqeini oshirishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur bo'ladi:

- avvalo pedagogik oliy o'quv yurtiga o'qituvchilikka qobiliyati bor yoshlarni tanlab olish;

- maktabni boshqarishda munosib rahbar xodimni tanlash (masalan hamkasblari orasida obro' qozongan shaxs direktor bo'lsa, jamoa yakdillik bilan ko'zlangan maqsad sari odimlaydi);
- o'qituvchilarni o'z ustlarida ishlashga sharoit yaratish (bo'sh vaqtlarini ko'paytirish, ya'ni stavka hisobidagi o'quv soatlarini kamaytirish);
- o'qituvchilarni malaka oshirish tizimini tubdan isloh qilish;
- o'qituvchilarni tajriba almashish bo'yicha ishlarga urg'u berib, malakali ustozlar darslarini ommalashtirish;
- ota-onalarni maktabga kelmasdan ham darslarni kuzatishlariga imkoniyat yaratish;
- ommaviy axborot vositalarida ijodkor, malakali o'qituvchilarning hayot yo'llari, ish tajribalari haqidagi ko'rsatuvlar efirga ko'proq uzatish kerak;
- o'qituvchilarga qator imtiyozlar berish orqali jamiyatdagi mavqeini yanada oshirish (masalan: kommunal to'lovlarida yengillik berish, ma'lum xaridlarga chegirmalar belgilash, yilda bir marta sihatgohlarga yo'llanmalar berish, chet elga stajirovkalarga yuborish).

Xotima o'rnida. Yaqinda "Pedagog xodimlarning maqomi to'g'risida"gi qonun loyihasi jamoatchilik muhokamasiga qo'yildi. Bu O'zbekiston mustaqil bo'lgan davrdagi pedagog xodimlar mavqeini oshirishga qaratilgan eng birinchi qonun hujjatidir. Mazkur qaror loyihasida pedagog xodim maqomining huquqiy asoslari, pedagogik faoliyatning asosiy prinsiplari, pedagog xodim maqomi bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari aniq belgilangan bo'lib, pedagog xodimning ijtimoiy himoyasi ham qonun bilan mustahkamlanmoqda.

Zero, ushbu qonun jamiyat hayotiga tatbiq etilishi bilan zahmatkash xalqimizning buyuk o'tmishida bo'lgani kabi dunyo ilm ahlining allomalarini yetishtirgan avlod yana o'z maqomiga erishsa!

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиqlаш тўғрисида"ги ПФ5847-сон Фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида" 2017 йил 7 февралдаги ПФ4947-сонли Фармони.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистоннинг янги тараққиёт даврида таълим-тарбия ва илм-фан соҳаларини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида" 2020 йил 6 ноябрдаги ПФ – 6108-сонли Фармони.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-2909-сон Қарори.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон Миллий Университетида олий таълим ва илмий-тадқиқот муассасалари раҳбарлари, академиклар, олимлар, ёш тадқиқотчилар билан учрашуви (2019 йил 24 май).
6. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси 2002. 4-том.
7. Зеер Э., Заводчиков Д. Идентификация универсальных компетенций выпускников работодателем. //Высшее образование в России, 2007. №2
8. Иванов Д. Компетентности и компетентностный подход в современном образовании. М., 2007. 240 стр.
9. Шалашова М.М. Комплексная оценка компетентности будущих педагогов. //Педагогика, 2008. №7. С.54-59
10. Шевченко Д.А. Конкурентоспособность вузов. Технология создания, сопровождения и продвижения сайта вуза. Москва, 2013
11. Н. Сайидахмедов Янги педагогик технологиялар. Тошкент "Молия" 2003.
12. А.В. Никитина Кластер как одна из форм познавательной деятельности обучающихся. Молодой учёный 2016 №17
13. Л.Ю. Мирошниченко Метод кластера в технологии развития критического мышления на уроках в начальных классах. Молодой учёный 2017 №3
14. <https://cyberleninka.ru/article/n/byt-pedagogom-a-ne-prinadlezhat-k-pedagogicheskoy-professii>.

UDK: 51

PEDAGOGIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI MATEMATIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH**O. N. Imomkulova***Samarqand davlat universiteti
Imomkulova86@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada pedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" maxsus kursining mazmuniga qo'yiladigan talablar ishlab chiqilgan. Shuningdek, tadqiqotda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini matematik tayyorlashning majmuaviy modeli keltirilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf, matematika o'qitish metodikasi, maxsus kurs.

Mathematical training of primary school teachers in pedagogical higher education institutions

Abstract. The article develops the requirements for the content of the special course "Methods of teaching mathematics in primary school" for pedagogical higher education institutions. The study also presents a comprehensive model of mathematical training for future primary school teachers.

Keywords: Primary school, mathematics teaching methods, special course.

Математическая подготовка будущих преподавателей начальной школы педагогических высших учреждений

Аннотация. В статье разрабатываются требования к содержанию спецкурса «Методика обучения математике в начальной школе» для педагогических вузов. В исследовании также представлена комплексная модель математической подготовки будущих учителей начальных классов.

Ключевые слова: Начальная школа, методика обучения математике, спецкурс.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarini, ya'ni bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga to'laqonli tayyorlash, pedagogik mahorati, o'quv-tarbiya jarayonida insonparvarlik g'oyalari ustuvorligini ta'minlovchi shaxsiy sifatlari, o'quvchilarning bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash layoqati mavjud ijtimoiy talablarga mos bo'lishi zarur. Shuningdek, ular tomonidan ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikma, malakalarini rivojlantirish va ularning kasbiy kompetentligini to'xtovsiz rivojlantirib borishni ham taqozo etadi.

Mazkur talablardan kelib chiqib, pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy tayyorgarlik darajasini takomillashtirish, ularning zamonaviy pedagogik hamda tegishli sohalarga oid bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish yo'lida samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, universitetda matematika fani yo'nalishi DTS va shu asosida zamon talablariga javob beradigan o'quv dasturlari ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq qilinmoqda. O'quv dasturlarini ishlab chiqishda talabalarining kompetentligi, ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bundan tashqari, o'quv dasturlarini tayyorlashda Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur kabi rivojlangan davlatlarning tajribasidan keng foydalanilmoqda.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi matematikani o'rganish jarayonida quyidagilarni egallashi lozim:

- matematik masalalarni yechish usullarini mukammal o'zlashtirib, yechimlarini amaliyotda qo'llay olish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish;
- amaliy faoliyatda matematik tekshirishning boshlang'ich ko'rinishini ishlab chiqish (hayotiy masalalarning matematik modelini yaratish, uni tekshirish va yechishning qulay usulini tanlash, olingan natijalarni baholash, qo'llash va hokazolar) hamda matematik bilimlarni tatbiq qilish zarur bo'lgan vaziyatlarda muhim ahamiyatga ega bo'lgan intuitsiyani shakllantirish;
- mutaxassislik bilan bog'liq manbalarda uchraydigan matematik apparat tushunchalari mohiyatini mustaqil tahlil qila olish.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida Bilim sohasi 100000 – ta'lim, ta'lim sohasi 140000 - O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani, 5111700 - Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishiing 2-kursida "Boshlang'ich matematika kursi nazariyasi" fani o'qitiladi. Biz quyida ushbu fan bo'yicha ishlab chiqilgan maxsus kursni innovatsion texnologiyalar asosida mazmuniga qo'yiladigan talablar bilan tanishib o'tamiz.

Maxsus kursning asosiy maqsadi talabalarga boshlang'ich matematika kursining nazariy asoslariga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Maxsus kursning vazifasi talabalarga matematikaning dunyoqarashni shakllantirishdagi ahamiyatini va atrof borliqni o'rganishdagi o'rnini ochib berish; talabalarga boshlang'ich matematika kursining nazariy asoslarini o'rgatish, ularda boshlang'ich matematika kursini chuqurroq o'zlashtirishlari uchun zarur ko'nikma va malakalarni shakllantirish; talabalarni o'quv qo'llanmalar va boshqa ilmiy adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga o'rgatishdan iborat.

Maxsus kurs bo'yicha talabalarning bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar quyidagilar:

“Boshlang'ich matematika kursi nazariyasi” maxsus o'quv kursini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- chekli va cheksiz to'plamlarni, moslik va munosabat turlarini, xossalarni, tushunchalarni ta'riflash usulini, algebraik operatsiya, uning neytral, simmetrik yutuvchi elementlarini, nomanfiy butun son tushunchasi va sonlar ustida bajariladigan amallarning xossalarni, geometrik figuralarning xossalarni, miqdorlarning turlarini bilishi kerak;

- chekli va cheksiz to'plamlar ustida amallar bajarish, sodda kombinatorika masalalarini echa olish, boshlang'ich maktabda qo'llaniladigan algoritmlarni tuzish, boshlang'ich maktab matematika darsligida matnli masalalarni yechishda bajariladigan amallarni tanlashni asoslashni, nomanfiy butun sonlar to'plamini tuzishning aksiomatik usulini, boshlang'ich matematika kursida misollar bilan sharhlashni, fikrlar va predikatlar ustida logik amallarni bajara olish, algoritmlarni tuza olish, to'g'ri va noto'g'ri muhokamalarni farqlay olish, berilgan algebraik operatsiyaga nisbatan yarim grupp, grupp, halqa va maydon tashkil etuvchi to'plamlarni ajrata olish, nomanfiy butun sonlar ustida arifmetik amallarni yozma va og'zaki ratsional usulda bajarish, sonlar EKUBI va EKUKIni topish, bo'linish alomatlarini qo'llashni, yig'indi, ko'paytma va ayirmaning berilgan songa bo'linishini, bo'lishni bajarmay aniqlay olish, butun, ratsional, haqiqiy, kompleks sonlar ustida amallar bajarish, geometrik figuralarni tekislikda tasvirlay bilish, xossalarni bilish, yasashga va hisoblashga doir geometrik masalalarni echa olish, matnli masalalarni turli usullarda echa olish, miqdorlarni o'lchash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;

- sonli va harfiy ifodalarni farqlay olish, sonli tenglik, tenglama, sonli tengsizlik, tengsizliklarni xossalarni bilish, tenglama va tengsizliklarni yechishni bilish, miqdorlarni o'lchash, matnli masalalarni yechishda miqdorlar orasidagi bog'lanishdan foydalana olish, matematikaning nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llay bilish malakalariga ega bo'lishi kerak.

Maxsus kursning o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi xususida to'xtadib o'tamiz.

Boshlang'ich matematika kursi nazariyasi fani asosiy ixtisoslik fani hisoblanib, 1-4- semestrlarda o'qitiladi. Matematika o'qitish metodikasi fanining o'qitilishi matematika fanini o'qitish bilan bog'liq bo'lgani uchun uni o'qitishni matematikaning asosiy tushunchalari o'rganilgandan so'ng boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Matematika fani muvaffaqiyatli o'qitilishi o'rta maktab matematika kursining o'zlashtirilganligi bilan uzviy bog'lanadi. Predmetlararo bog'lanish to'g'ri amalga oshirilishi uchun buni o'quv rejai tuzilishida hisobga olish muhimdir.


Boshlang'ich matematika kursi nazariyasi fani aniq fanlardan biri bo'lib, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga matematik bilimlarini o'rgatish usullarini yoritib beradi. O'quvchilarning matematikadan muhim tushunchalarni o'zlashtirishlarini, og'zaki va yozma hisoblashga oid ko'nikma va malakalarni egallashlarini ta'minlaydi[1-3]. Bu ko'nikma va malakalar o'rta maktabda boshqa fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga zamin hozirlaydi. Matematika o'qitishning ahamiyati juda katta bo'lib, o'quvchilarning matematik madaniyatini egallashlariga yo'l ochadi. Umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan matematikadan bilim va ko'nikmalarini shakllantiradi. O'quvchilarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlaydi.

Talabalarining matematika fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, bunda axborot va pedagogik texnologiya yutuqlari va imkoniyatlaridan foydalanish ko'zda tutiladi. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar turli o'quv ko'rgazma qurollari va texnik vositalar bilan jihozlanishi kerak. Fanni o'qitishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, internet saytlari ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Matematikani o'qitishda darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, elektron materiallardan foydalanish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni qo'llash, interfaol usullarni, ta'limiy vositalarni ta'lim jarayoniga tadbiiq etish muhim ta'limiy ahamiyatga ega[2,3].

Matematika kursini loyixalashtirishda qo'yidagi asosiy konseptual yondashuvlardan foydalaniladi.

Tadqiqot doirasida biz tomonimizdan ishlab chiqilgan Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion texnologiyalar asosida matematik tayyorlaning majmuaviy modeli o'z ichiga tashkiliy, texnologik va natijaviy komponentlarni qamrab oladi (1-rasm).



1-rasm. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion texnologiyalar asosida matematik tayyorlashning majmuaviy modeli

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarining II-kurs talabalariga 1-semestrda "Boshlang'ich matematika kursi nazariyasi" fanidan an'anaviy va maxsus kurs mashg'ulotlarning mavzulari va soatlar bo'yicha taqsimlanishi modullar kesimida 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. II-kurs 1-semestr "Boshlang'ich matematika kursi nazariyasi" fanidan an'anaviy va maxsus kurs mashg'ulotlarning mavzulari va soatlar bo'yicha modullar kesimida taqsimlanishi.

№	An'anaviy mashg'ulotlar mavzulari nomi	Maxsus kurs mavzulari nomlari	Ma'ruza	Amaliy	Mus. ta'lim
I. 1-modul. Kasr sonlar.					
1	Kasr sonlarni qisqartirish va umumiy maxrajga keltirish	Kasr sonlar va ularning turlari haqida tushuncha. Kasr sonlarni qisqartirish va umumiy maxrajga keltirish	2	2	2
2	Kasr sonlar ustida arifmetik amallar. Qo'shish va ayirish amallari va ularning xossalari	Kasr sonlarni taqqoslash. Kasr sonlarni qo'shish va ayirish.	2	2	2
3	Kasrlarni o'zaro ko'paytirish va bo'lish haqida ularning xossalari	Kasrlarni o'zaro ko'paytirish Kasr sonlarni bo'lish va ularning xossalari	2	4	2
4	Nomanfiy butun sonlarning arifmetik amallar uchun chiqarilgan xossalarning kasr sonlar uchun ham o'rinaliligi	Nomanfiy butun sonlarning arifmetik amallar uchun chiqarilgan xossalarning kasr sonlar uchun ham o'rinaliligi	2	4	4
5	O'nli kasrlar. O'qilishi va yozilishi. O'nli kasrni oddiy kasrga aylantirish. Oddiy kasrni o'nli kasrga aylantirish	O'nli kasrlar. O'qilishi va yozilishi. O'nli kasrlarni taqqoslash. O'nli kasrni oddiy kasrga aylantirish. Oddiy kasrni o'nli kasrga aylantirish	2	2	4
6	O'nli kasrlar ustida amallar. Qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish	O'nli kasrlar ustida amallar. Qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish. Ayirish va bo'lish algoritmidagi maxsus hollar.	2	4	4
II. 2-modul. Haqiqiy sonlar.					
7	Haqiqiy sonlar to'plami. Musbat va manfiy sonlar to'plami. Haqiqiy sonlar to'plamida arifmetik amallar va ularning xossalari	Davriy va davriymas o'nli kasrlar. Irratsional sonlar. Haqiqiy sonlar to'plami. Musbat va manfiy sonlar to'plami. Haqiqiy sonlar to'plamida arifmetik amallar va ularning xossalari.	2	4	4
8	Taqribiy hisoblashlar. Ikki sonning o'rta arifmetigi. Taqribiy son. Sonni yaxlitlash. Taqribiy hisobdagi aniqlik	Taqribiy hisoblashlar. Ikki sonning o'rta arifmetigi. Taqribiy son. Sonni yaxlitlash. Taqribiy hisobdagi aniqlik	2	2	2
9	Taqribiy sonlar ustida arifmetik amallar. Taqribiy sonlarning absolyut va nisbiy xatolari	Taqribiy sonlar ustida arifmetik amallar. Taqribiy sonlarning absolyut va nisbiy xatolari	2	2	2
10	Nisbat va proporsiyalar. To'g'ri va teskari proporsional miqdorlar va ularning grafigi.	Nisbat va proporsiyalar. To'g'ri va teskari proporsional miqdorlar va ularning grafigi.	2	2	2
III. 3-Modul. Protsentlar.					
11	Protsent haqida tushuncha. Sonining protsenti va protsentiga ko'ra sonni topish.	Protsent haqida tushuncha. Sonining protsenti va protsentiga ko'ra sonni topish. Porotsentli nisbat. Murakkab protsentlar.	2	2	2
IV. 4-modul. Kompleks sonlar					
12	Kompleks sonlar tushunchasi. Kompleks sonlar ustida amallar. Kompleks sonlarning ko'rinishi. Kompleks sonlar to'plamlarining	Kompleks sonlar tushunchasi. Kompleks sonlar ustida amallar. Kompleks sonlarning ko'rinishlari. Kompleks sonning	4	4	4

	xossalari.	geometrik ma'nosi. Komleks sonlar to'plamlarining xossalari.			
V.	5-modul. Algebraga kirish				
13	Algebra fani va uning paydo bo'lish tarixi. Al-Xorazmiyning xizmatlari. Sonli va o'zgaruvchili ifodalar	Algebra fani va uning paydo bo'lish tarixi. Al-Xorazmiyning xizmatlari. Sonli va o'zgaruvchili ifodalar	2SH	2	2
14	Birhad va ko'phad tushunchalari va ular ustida amallar.	Birhad va ko'phad tushunchalari va ular ustida amallar. Bir o'zgaruvchili ko'phadlar.	2	2	4
VI.	6-modul. Tenglama va tengsizliklar.				
15	Tenglama va tengsizliklar. Tenglama va tengsizliklarni yechish va uni tekshirish.	Tenglama va tengsizliklar. Tenglama va tengsizliklarni yechish va uni tekshirish.	4	4	4
	Jami	Jami	34	42	44

Shunday qilib, tadqiqotda pedagogika oliy ta'lim muassasalari uchun "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" maxsus kursining mazmuniga qo'yiladigan talablar aniqlashtirildi. Shuningdek, tadqiqotda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion texnologiyalar asosida matematik tayyorlashning majmuaviy modeli ishlab chiqildi. "Boshlang'ich matematika kursi nazariyasi" fanidan maxsus kurs ma'ruza, amaliy va mustaqil ish mavzulari takomillashtirildi.

Adabiyotlar

1. Абылкасымова А. Е. Теория и методика обучения математике: дидактико-методические аспекты: учеб. пособие / А. Е. Абылкасымова. – Алматы: Мектеп, 2013. – 242 с.
2. Бикбаева Н. У. Бошланғич синфларда математика ўқитиш методикаси. Тошкент, "Ўқитувчи", 2007 йил. 208 б.
3. Жумаев М.Е, Таджиева З.Ф. Бошланғич синфларда математика ўқитиш методикаси. ОЎЮ учун дарслик. Тошкент. "Фан ва технология". 2005.

UDK: 37.1

O'QUVCHILAR KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING MAZMUNI

L.E.Bobomurodova

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada o'quvchilar kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmun-mohiyati va hozirgi kundagi muammolari hamda istiqbollari haqida fikr yuritilgan. Hozirda ilm-fan, madaniyat va boshqa sohalarda ro'y bergan kashfiyotlar, ixtirolar hamda ular yuzasidan to'plangan axborotlar, yangiliklar umumiy o'rta ta'lim mazmuniga jiddiy ta'sir ko'rsatayotganligi aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: kasbga yo'naltirish, mustaqil ta'lim, texnikaviy ko'nikmalar, mazmunan integratsiyalash, texnologik yondashuv.

Content of the organization of self-education in the development of professional training of students

Abstract. The article provides an overview of the nature and current issues and prospects of the organization of independent learning in the development of vocational training for students. Discoveries, inventions and information collected in the field of science, culture and other fields have a significant impact on the content of general secondary education.

Keywords: vocational guidance, independent learning, technical skills, content integration technological approach

Содержание организации самостоятельного образования в развитии профессиональной подготовки студентов

Аннотация. В статье даётся обзор сущности и актуальных проблем и перспектив организации самостоятельного обучения в условиях развития профессиональной подготовки учеников. Открытия, изобретения и информация, собранные в области науки, культуры и других областях, оказывают существенное влияние на содержание общего среднего образования.

Ключевые слова: профориентация, самостоятельное обучение, технические навыки, контент интеграция, технологический подход.

Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Hozirda ilm-fan, madaniyat va boshqa sohalarida ro'y bergan kashfiyotlar, ixtirolar hamda ular yuzasidan to'plangan axborotlar, yangiliklar umumiy o'rta ta'lim mazmuniga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Buning uchun o'quvchilarning turli kasblarga bo'lgan ongli munosabatini shakllantirish, kasbiy o'zligini, moyilligini, qiziqishini, kreativ qobiliyatini anglash, axloqiy va intellektual shakllanishini rivojlantirish lozim bo'ladi. Bunda o'quvchi kasblar dunyosi va kasb tanlash muammolari o'rtasida, makro hamda mikro muhit ta'sirida ma'lum bir qarorga keladi. Bu esa o'z o'rnida o'quvchilarda mustaqil bilim olish texnologiyasi va mustaqil bilim olish ehtiyojlari mazmunini kengaytirish va chuqurlashtirishni taqozo etadi.

Mustaqil bilim olish texnologiyasini yaratish bir necha alohida muammolarni hal etishni ko'zda tutadi. Ulardan eng muhimi mustaqil bilim olish maqsadini aniqlay olishdir.

O'quvchilar uchun mustaqil bilim olish, ijodiy fikr yuritish, o'z-o'zini boshqarish, anglash, baholash va nazorat qilishga keng imkoniyat yaratilgan.

Hozir zamon o'zgardi, davr o'zgardi. Biz integrasiya yo'lga qadam qo'ydik. Murakkab ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar jarayonida bexato yo'nalish ola biladigan, mustaqil fikr-munosabat bildiradigan jamiyat a'zolariga ehtiyoj paydo bo'ldi.

Shu sababli o'quvchilar kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda mustaqil ta'limni tashkil etishning yangicha yondashuvlarini ilmiy asoslash dolzarb vazifa bo'lib kelmoqda.

«Tashkil etish» tushunchasi fransuzcha organisation, lotincha organizo–«tartibga keltiraman» so'zidan kelib chiqqan. Uning mazmuni, yaxlit bir butunlik ichida o'zaro aloqalarning yuzaga kelishi hamda takomillashishiga olib keladigan jarayon yoki harakatlar jamlamasini anglatadi. «Tashkil etish» deganda birgalikda amalga oshiruvchi muayyan qoida va tamoyillar asosida, biror aniq maqsad sari harakat qiluvchi odamlarning birlashgan faoliyati tushuniladi.

Ushbu faoliyatda pedagog-o'qituvchining o'rni beqiyosdir. Pedagog o'quvchining "o'z" kasbini izlab topishida unga yordam beradi, bu izlanishlariga boshchilik qiladi, tanlamoqchi bo'lgan kasbga ijobiy munosabat uyg'otib, haqiqiy ijodga, quvonch manbaiga aylanishiga ko'maklashish kerak. O'quvchi ko'proq kimning yordamiga muhtojligiga qarab sinf rahbari, fan o'qituvchilarini tanlash imkoniyatiga egadi.

O'quvchilar kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda mustaqil ta'limni tashkil etishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan pedagogning malakasi qay darajadiligiga bog'liq. Jumladan, uni maktabda kasbga yo'naltirish ishlari umumiy asoslari to'g'risidagi bilimlarning chuqurligi, individual xarakteristikalar tuzishi, o'quvchilar, ularning ota-onalari, pedagoglar bilan individual konsultasiyalar olib borishi, kasb konsultasiyasiga oid xulosalar chiqara olishiga bog'liq.

O'quvchilar shaxsini o'rganish uning hamma jihatlarini: yo'nalishi, qobiliyati, xarakteri, temperamentini qamrab olishi zarur.

Qadimda greklar juda ajoyib iborani qo'llaganlar: "O'quvchi – to'ldirilib turilishi kerak bo'lgan idish emas, balki yoqib turilishi lozim bo'lgan mash'aldir". Bu fikrning tagida juda chuqur ma'no bor. Ta'lim jarayonini bugungi kundagi asosiy talablaridan biri erkin fikrlovchi, mustaqil tafakkurga ega bo'lgan shaxsni shakllantirishdir.

O'quvchini mustaqil ta'lim olishiga, o'z-o'zini rivojlantirishiga tayyorlash bugungi kun maktabining asosiy vazifasidir.

Ta'lim jarayonida o'quvchining mustaqil ta'lim olishini faollashtirish zarur. Mustaqil ta'limda masalaning qo'yilishi, yechish, o'z-o'zini nazorat va baholashning yo'llarini o'quvchi tomonidan tanlanishi va bajarilishi bilan xarakterlanadi.

Inson fikrlash, mulohaza yuritish, ijodiy izlanish natijasida muammolar va muammoli vaziyatlar hal qilinadi, yangilik yaratadi, ijod qiladi. Yangilik yaratishga intilgan har qanday shaxsni ijodiy farazsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

O'quvchilarda mustaqil ta'limni tashkil etish jarayonlarida orzu, maqsad va ularni ro'yobga chiqarish rejalari namoyon bo'la boshlaydi. Muayyan kasbga mayl va qiziqish tug'iladi. Orzu-istaklar rang-barangligi bilan bir-biridan keskin ajralib turadi.

O'quvchi shaxsini har tomonlama o'rganish – individual ishning zarur shartidir.

"O'quvchilarning mustaqil ta'lim olish tizimida *mustaqil ta'lim mazmuni* uning asosini tashkil

etadi. Mustaqil ta'lim mazmunini mustaqil ta'lim materiallari, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyati tashkil etadi. Bunda o'qituvchi va o'quvchi muloqoti asosiy rol o'ynaydi.

Mustaqil ta'lim olishning asosiy vositasi – **bu mustaqil ta'lim materiallaridir**. Ular uzviy bog'langan tizim bo'lib, darsliklar, o'quv-metodik qo'llanmalardan farq qiladi. Ularda teran va mazmundor uslubiy ko'rsatmalar, ta'lim oluvchining bilish faoliyatini boshqarish bloki, kasbiy tayyorgarligi jarayonida mustaqil o'qish mezonlari, uning o'z-o'zini mustaqil o'qishga yo'naltirib borishi, o'z-o'zini nazorat qilishi, o'z-o'zini namoyon etishi va shaxsiy bilish faoliyati jarayonida o'z - o'zini baholay olishi uchun psixologik - pedagogik tavsiyalar mavjud bo'ladi. Mustaqil ta'lim materiallari o'quv-uslubiy qo'llanmalari, kompyuter dasturlari, audio va video-materiallar, mavjud an'anaviy darsliklardan foydalanishga doir tavsiyalar, axborotning boshqa manbalari ko'rinishida bo'ladi”

O'quvchi o'zining kelajakdagi kasbini ongli ravishda mustaqil, to'g'ri va aniq tanlashi ko'proq uning kasblardan qanchalik xabardorligiga bog'liqdir. Shuning uchun o'quvchilar kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda o'qituvchi-pedagog kasblar haqida ma'lumotlar berishga jiddiy e'tibor bilan qarash lozim.

O'quvchilardagi kasblarning ma'lum turiga bo'lgan mayl va qiziqishini o'z vaqtida aniqlash hamda ularni olgan bilim, ko'nikma va malakalarini sevgan mashg'ulotlarida takomillashtirishlariga yordam berish, kreativ kompetentligini rivojlantirish juda muhimdir. Chunki bola sevgan kasbiga bo'lgan qiziqishidan qo'shimcha maqsadlarda xam foydalanishi mumkin.

O'quvchilarning ijodiy tayyorgarligi–uning kasbiy kompetentligining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, uzluksiz ta'lim olish asosida shakllanadi. Zero, “...uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy yetuk shaxsni shakllantirish, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga zaruriy shart - sharoit yaratadi”.

O'quvchilarni hayotga amaliy, psixologik va axloqiy tayyorlash, ularni kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish murakkab va uzoq davom etuvchi jarayondir.

O'quvchilar kasbiy tayyorgarligining daslabki bosqichi X-XI sinflarda o'rganiladigan kasblarni belgilashdan iborat bo'ladi. Ushbu masalani hal qilishda quyidagilarni hisobga olish zarurdir:

- u yoki bu kasbning ommaviyligi, mamlakatda yoki ayrim regionlarda uning qanchalik tarqalganligi, xalq xo'jaligining ana shu kasbga kelajakdagi ehtiyojini;
- o'quvchining talab qilinayotgan kasbga oid bilimlar, ko'nikma va malakalarning mazmuni va saviyasini, konkret kasbga tayyorlashning maqsadga muvofiqligi, o'quvchilardagi kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatarning maktabdagi umumiy politexnik ta'limi va kasbiy tayyorgarlik mazmuniga mosligi;
- har yilgi ishlab chiqarish amaliyotiga ajratilgan vaqtda o'quvchilar kasbni o'zlashtira oladigan, ularning hayoti va sog'ligi uchun xavfsiz, ijtimoiy-foydali bo'lishi shartdir. Shuningdek, maktabda zamonaviy o'quv-moddiy bazani yaratish, tayyor o'qituvchilar, masterlar, murabbiylar va hokozalarni ajratish imkoniyatini xam hisobga olish muhimdir.

Keyingi yillarda davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar shuni ko'rsatadiki, ularni bilim olishga bo'lgan motivasiyasini oshirish maqsadida hamda qiziqishlari va talablarini e'tiborga olgan holda 10-11-sinf o'quvchilari uchun ixtisoslashtirilgan, shu jumladan ijtimoiylashuvga, iqtidor va kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan kasbiy o'qitish imkoniyatlari kengaytirilmoqda.

Yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusdan biri, o'quvchi-qizlarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish xam bejizga emas. Ularning ahloqiy tarbiyasi kasbiy tayyorgarlik orqali hayotga bo'lgan dunyoqarashi muvaffaqiyatli shakllanadi, ma'naviy yetuklikni tarbiyalash vositalari boyitiladi. O'quvchi-qizlarimiz o'z bilimlarini mustaqil ravishda amaliyotda faol qo'llab, atrofdagi voqeyelikni o'zgartirishni o'rganadilar.

Professional bilim berish kasb tanlash ishlari tizimining komponenti sifatida shunday tashkil etilishi kerakki, o'quvchilar dars va darsdan tashqari olgan axborot materiali, mustaqil ravishda egallagan bilimi, ularni kasb tanlash bo'yicha asosli bir qarorga kelishga tayyorlaydigan bo'lsin.

O'quvchilarni kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda mustaqil ta'limdan ko'zlangan **maqsad**, ularning istaklari va o'z hoxishlari bilan egallamoqchi bo'lgan kasblaridagi qobiliyatlari yoki fiziologik imkoniyatlari orasida ma'lum ziddiyatlar uchrasa, o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan individual tarzda konsultasiyalar o'tkazilishi ko'zda tutilgan.

Shuni alohida qayd etish kerakki, kichik yoshdagi bolalarni kasbga yo'naltirish ishlariga ko'pincha yetarli e'tibor berilmaydi va bizningcha bu hol katta imkoniyatlarni boy berishdir. Kattalar mehnatiga qiziqish o'yg'otish, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish kichik yoshdagi o'quvchilarda mehnatga ijobiy munosabatni shakllantirishning eng muhim shartidir. Buning uchun o'quvchilarga o'zi yaratayotgan narsalarning foydaliligini tushuntirish, ularni tayyorlash usullarini ko'rsatishgina emas, balki o'zi

yasayotgan narsalarni, kattalar tomonidan yaratilgan moddiy boyliklarga bo'lgan mehnat tarbiyasini shakllantirishdir. Hayotda bola "o'z narsasi", "o'z modelini" avaylab saqlashini va qadrlashini, biroq hyech bir o'ylamay boshqalar yasagan, o'zinikidan ancha qimmatliroq bo'lgan narsalarni qirqish, sindirish, buzib tashlashini ko'plab uchratish mumkin. Bolalar o'zlarining narsalarini odatda asraydilar, bu narsalarga fikran va xayolan qaytadilar, chunki bunga ular kuch-mehnat sarflagan, uni yasashda kamchiliklarga yo'l qo'ygan, yana qaytadan tiklab nuqsonlarini to'ldirgan.

Shu sababdan, bolalar bog'chasida va maktabning boshlang'ich sinflarida kishilar mehnatiga qiziqish uyg'otishning uzviyligini, shuningdek, maktabning o'rta va yuqori sinflarida ijodkorlikka qiziqish kasbga yo'naltirishning shakllanishiga ta'sirini yanada takomillashtirish zarur.

Hozirgi kunda davlatimizda kasb-hunarga o'qitishni takomillashtirish va ishlab chiqarishning ko'plab jarayonlarini avtomatlashtirish tendensiyalari rivojlanib bormoqda. Davr talabidan kelib chiqib, o'quvchilarda o'qishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivasiyani shakllantirish hamda kasb tanlash, kasbiy o'sishni mustaqil rejalashtirish, zamonaviy kasblarni egallashga bo'lgan qobiliyatlarini rivojlantirish orqali yangi texnika va texnologiyalarni boshqarishni o'rgatish, ularni takomillashtirishda xam faol qatnashtira olish maqsadga muvofiqdir.

Mustaqil ta'lim tizimi rivojlangan sari ta'limiy materiallarning roli o'zgarib boradi. Mustaqil ta'lim olish jarayonida ta'lim oluvchi ta'lim mazmunini tanlash huquqiga ega.

O'quvchilar kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda mustaqil bilim olish nazariyasiga muvofiq pedagogik hamda texnik-texnologik mustaqil ishlarni ishlab chiqish qoidalari quyidagilardan iborat:

- pedagogik hamda texnik-texnologik mustaqil ishlar haqiqiy pedagogik va ishlab chiqarish vaziyatlari bilan bog'liq muammolarga ega bo'lishi kerak;

- mustaqil ishlar asosini tashkil etuvchi muammoni hal etishning turli usullar (tahlil, sintez, taqqoslash, solishtirish, umumlashtirish va boshqalar) yordamida amalga oshirish;

- mustaqil ishlarni bajarish isbotini aniqlash va o'quvchilar ongida, hodisalar va jarayonlar o'rtasida mustahkam bog'liqlikni mustahkamlash asosida tushunchalarni yuzaga keltirish imkoniyatlarini ko'zda tutishi lozim;

- muammoli vaziyatli topshiriqlarni bajarishning yaxlit ifodalangan yoki ifodasi topshiriq shartlarini tashkil etuvchi bir necha oddiy tushunchalardan subyekt tomonidan hali o'zlashtirilmagan yanada murakkabroq tushunchani keltirib chiqarish imkonini beradi;

- muammoli vaziyatli topshiriqlarni bajarish jarayonida oddiy tushunchalar yoki subyektga ma'lum bo'lmagan tushunchalar bir-biri bilan taqqoslanadi;

- tushunchalarni taqqoslashda subyekt fikrlashning turli: tahlil, sintez, solishtirish, taqqoslash, texnik obyektlar orasidagi umumiylik, tipiklik va xususiylikni topish amallarini bajaradi;

- muammoli vaziyatli topshiriqlarni bajarishda subyekt quyidagi amallarni bajaradi:

- tushunchalarning shakli va mazmunini o'zgartirmasdan qayta ishlab chiqadi;

- tushunchalar shaklini o'zgartirib, ularni qayta ishlab chiqadi;

- ilgari o'zlashtirilgan tushunchalarni rasmiy-mantiqiy fikrlash usullaridan foydalanib, qayta o'zgartiradi;

- nazariy fikrlash asosida yangi tushunchalarni shakllantiradi.

O'quv dasturining bo'limi bo'yicha o'quvchilarning mustaqil tayyorgarligi tugagach, fikr almashish maqsadida ular o'qib o'rgangan adabiyotlarda qiziqarli masalalar o'rta tashlanadi. Berilgan masala bo'yicha fikrlashuv va tortishuvda faol ishtirok etgan talabalarni o'qituvchi baholaydi.

Adabiyotlar

1. Muslimov N.A., Sharipov Sh.S., Qo'ysinov O.A. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash. Darslik. Toshkent. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat nashriyoti, 2014 y.

2. Qo'ysinov O.A., Sh.S.Sharipov. Model lichnosti sovremennogo uchitelya. Forum po razvitiyu sotrudnichestva v sfere obrazovaniya s uchastiyem rektorov kitayskix inostrannqx vьsshix uchebnyx zavedeniy. Kitay. Vnutrennaya. Mongoliya, g. Xux-xoto.2017.9.S 181-186.

3. Qo'ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari. Doktorlik dissertasiya. Toshkent – 2018.

UDK: 377.3 (575.1)

XALQ HUNARMANDCHILIGINING TARIXIY TARAQQIYOTINI O'RGANISH VA O'RGATISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**S.S.Igamov***Samarqand davlat universiteti**Igamov@mail.ru*

Annotatsiya. Maqolada bo'lg'usi texnologiya o'qituvchilarining kasbiy mahoratini takomillashtirishda uzoq o'tmish tarixiy yodgorliklaridan, milliy, moddiy, ma'naviy qadriyatlardan, mutafakkirlar merosidan, osori atiqalardan, madaniy-ma'rifiy yutuqlardan samarali foydalanish yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: tarixiy va adabiy meroslar, madaniy yodgorliklar, donishmandlar, nazariyalar va g'oyalar, kasb-hunarlar, xalq hunarmandchiligi, mehnat.

Изучение и преподавание исторического развития народных промыслов как педагогическая проблема

Аннотация. В статье описаны способы эффективного использования исторических памятников прошлого, национальных, материальных, духовных ценностей, наследия мыслителей, антикваров, культурно-образовательных достижений в повышении квалификации будущих учителей-технологов.

Ключевые слова: историческое и литературное наследие, памятники культуры, мудрецы, теории и идеи, профессии, народное ремесло, труд.

Study and teaching of the historical development of folk crafts as a pedagogical problem

Abstract. The article describes the ways of effective use of historical monuments of the past, national, material, spiritual values, heritage of thinkers, artifacts, cultural and educational achievements in improving the qualifications of future teachers-technologists.

Keywords: historical, literary heritage, cultural monuments, sages, theories and ideas, professions, folk crafts, labor.

Xalq hunarmandchiligining ma'naviy me'roslarimiz bilan hamohang rivojlanishi juda ko'p mutafakkirlarimizning, donishmandlarimizning bitik va adabiy meroslarida yuksak mahorat bilan bitildi hamda jahonning madaniyat xazinasiga abadiy hissa bo'lib qo'shildi. Turli ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarda yaratilgan hadis, pandnoma, rivoyat, hikoyat, doston, maqol, g'azal, ruboiy, masnaviy va boshqa ko'rinishlarda ta'lim-tarbiya va kasb-hunar o'rganishning afzalligi, halol mehnat bilan yashashning zarurligi to'g'risidagi fikrlar bizgacha yetib kelgan.

Bunday yozma manbalarga VI-VII asrlarda yaratilgan "Avesto", XII asrda Kaykovus tomonidan yaratilgan «Qobusnoma», Abu Nasr Forobiyning «Baxt-saodatga erishuv» asari, Al-Xorazmiy «O'g'itlar»i Abu Rayhon Beruniyning «Minerologiya» asari, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u Bilig», Mahmud Koshg'ariyning «Devonu-lug'otit turk», Ahmad Yugnakiyning «Hibat-ul haqoyiq», Pahlavon Mahmudning «Ruboiy»lari, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy tomonidan to'plangan «Hadislar», Lutfiyning «Gul va Navro'z», Alisher Navoiyning «Xamsa», «Mahbub ul-qulub»larida, Abdurazzoq Samarqandiyning «Nodir hikoyatlar»i, Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» va boshqa ko'plab adabiy, tarixiy, madaniy-ma'rifiy merosimiz namunalari hunar o'rganish baxt saodatga elitishi haqida fikrlar berilgan.

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblangan «Avesto»ning yaratilishi haqida turli bahsli holatlar mavjud bo'lsa-da, bizni uning kim, qachon qayerda yozilganligidan ko'ra, asarning mag'zi, g'oyasi, mohiyati ko'proq qiziqtiradi. «Avesto» dastlab 1200 betlik hajmda Zardusht tomonidan yozilib, 12 ming ho'kiz terisiga bitiladi (eramizdan avvalgi 548-529-yillarda qog'oz bo'lmagan), hamda butun bir dinning ma'naviy, mafkuraviy asosi bo'lib xizmat qildi, davrlar o'tishi bilan, tarjima va o'girishlar natijasida qisman takomillashtirildi ham.

«Avesto»da mehnat qilish, halol kun kechirish to'g'risida shunday satrlar ko'plab keltirilgan: «Yaxshilik va ezgulik yaratish uchun kishi mehnat qilishi, o'z qo'llari bilan moddiy noz-ne'matlar yaratishi lozim» [5; 36 b.], yana, «Mehnat qilmaydigan odam! Sen haqiqatdan ham tilanchilar qatorida, yot eshiklarga ta'zim qilib, abadul-abad bosh egib turajaksan, haqiqatdan ham sening yoningda turli xil zirootlarni olib o'tadilar». U tarbiyaviy, ta'limiy, pandnoma ko'rinishidagi yirik asardir.

«Qobusnoma» 44 bobdan iborat bo'lib, boshdan oxirigacha o'sib kelayotgan avlodga odob-axloq, bilimli bo'lish, hayotda o'z o'rnini topish, har kimga o'zining shaxsiy va ijtimoiy hayotini yo'lga qo'ya olish va turmushning boshqa qirralarini yoritib, tahlil qilib berish bilan sug'orilgan. Undagi «Hunarning afzalligi va qadri baland, oliy tabiatli bo'lish haqida» nomli 6-maqolot, «Dehqonchilik va bozor hunarlari haqida» deb nomlangan 43-maqolot yosh avlodni mehnatga va kasb-hunar o'rganishga yo'naltirish uchun nihoyatda ahamiyatlidir. Jumladan, 6-maqolotda shunday deyiladi: «Ey farzand, ogoh bo'lkim, hunarsiz kishi hamma vaqt foydasiz bo'lur va hech kimga foydasi tegmaydi. Agar kishi oliy nasab, asl bo'lsa-yu, hunari bo'lmasa, xaloyiqning izzat va hurmatidan mahrum bo'lmasa, undan battarroq bo'ladi».

Ushbu maqolotda ham, asarda ham aytilgan pand-nasihat turli rivoyatlar keltirilib, hayotiy misollar bilan quvvatlangan. «Foydasiz bo'lur, hech kimga foydasi tegmaydi» deyilganda, albatta muallif avvalo, jamiyat, xalq manfaatini, kelajak manfaatini, so'ngra esa shaxs o'zining manfaatini tutishni istaydi.

Demak, hunarni egallashdan, avvalo jamiyatga moddiy yoki ma'naviy boylik yaratiladi, hunarmandlarning o'zi esa farovon yashaydi, nopok ishlardan parhez qiladi. «Oliy nasab, asl bo'lsa-yu, deyilganda har bir kishining jumladan, shahzodalar ham o'zining o'tmishi, avlodi, quruq faxrlanishi bilan cheklanib qolmasdan ana shu avlodning yuzini yerga qaratmag'il, buni faqat hunar o'rgansang, nopok ishlarga qo'l o'rmysan, shundagina sen hunar orqali o'zingni, oilangni, atrofdagi yor-birodarlarningnigina ham emas, balkim, avlodningni ham har xil istehzodan saqlaysan degan mazmunni keltirib chiqarishga, yetkazishga harakat qildi. Demak, qissadan hissa shuki, har qanday kishi lavozimidan, bilimidan, boyligidan, avlodining nasl-nasabining kim va qanday bo'lishidan qat'iy nazar, hunar egallashi lozim, shundagina u hayotda har xil nojoiz harakatlardan holi bo'ladi.

O'rta asr Sharqining buyuk allomasi Abu Nasr Farobiy o'zining qator asarlarida ilm va ta'limning muqaddasligi, xushxloqlilik, sadoqat, insoniylik, tarbiya mehnat va kasb-hunar o'rganish to'g'risidagi falsafiy, ilmiy g'oyalarni ilgari surdi. Uning «Risola fi-t tanbih asbob as-saodat» (Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola), asarlarida o'zining yaxshi, mukammal, baxtli jamiyat haqidagi orzularini batafsil bayon qiladi. U nomi ko'rsatilgan dastlabki asarida shunday yozadi: «Fozil jamiyat va fozil shahar shunday bo'ladi, shu mamlakatning aholisidan bo'lgan har bir odam kasb-hunar bilan shug'ullanadi. Odamlar chin ma'nosi bilan ozod bo'ladi...» [7; 39 b.]. Farobiy «Baxt-saodatga erishuv haqida risola» asarida ta'lim-tarbiya, mehnat va kasb-hunar kishisining fazilatlarini to'g'risida shunday fikr yuritadi: «Ta'lim faqat so'z va o'rganish bilangiga bo'ladi. Tarbiya esa, amaliy ish, tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo'lishi, o'rganishidir. Agar ular shu kasb-hunarga berilgan bo'lsalar, kasb-hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, kasb-hunarning chinakam oshig'i bo'ladi». Demak, mutafakkir oqil jamiyat qurishning ham, barkamol shakllangan insonlarni tarbiyalashda ham, millat va xalqning ravnaqi ham kasb-hunar o'rganish va halol mehnat qilish zarurligini anglaydi va uqtiradi. Markaziy Osiyoning, sharqning buyuk allomasi, shuhrati butun olamga mashhur qomusiy mutafakkir Abu Rayhon Beruniy fan olamida, tafakkur xazinasida yirik o'ringa ega bo'lgan ilmiy meros qoldirdi. Uning «Minerologiya» (Qimmatbaho toshlarni bilish), «Hindiston», «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» kabi asarlarida tafakkurga, ilmga, falsafaga, ta'lim-tarbiyaga, mehnatga va kasb-hunarlarni egallashning ahamiyati to'g'risida fikrlari bayon qilingan.

Sharqning ulug' bilimdonlaridan biri Yusuf Xos Hojib o'zining «Qutadg'u bilig» («Saodatga eltuvchi bilim») nomli asaridagi «Oytuldi o'g'li Ugdulmishga pand berishini aytadi» nomli hikoyatida kasb-hunar o'rganish haqida shunday o'git qiladi: «O'g'il-qizga hunar va bilim o'rgatish kerak, toki bu hunarlar bilan fe'l-atvor go'zal bo'lsin» [5; 158 b.]. Demak, ota-onalarning burchlaridan biri farzandlari xoh o'g'il bo'lsin, qiz bo'lsin, avvalo ularga hunar o'rgatish bilimlaridan xabardor qilsin, kelgusida ana shularni o'rgangach, ularning fe'l-atvori, odob-axloqi ham go'zal bo'lishiga erishiladi. U yana «O'g'il-qiz tug'lsa, ularni qanday tarbiyalashni aytadi» nomli hikoyatda shunday to'xtaladi:

«O'g'il-qizga bilim ham odob o'rgat,

Ikki olam uniki, uning manfaati yetarli bo'ladi,

O'g'ilga barcha san'at-hunarlarni to'la o'rgat,

Bu san'at-hunarlar bilan u mol-dunyoyiga beradi». [5; 164 b.].

Yosh avlodni halol mehnat qilishga, turli kasb-hunarlarni egallashga o'rgatib borish xalqimizning butun taraqqiyoti tarixida, turli davrlarda ham muqaddas aqida an'anaga aylanib borgan.

Mutafakkirlar, allomalar, ahli donishlar, nazariyotchilar va amaliyotchilar, olimlar tomonidan bu sohada turlicha tadqiqot va izlanishlar, kuzatishlar olib borib, o'zlarining fikr va mulohazalarini asarlarida bayon qilganlar.

Xalqning mehnat an'alariga, mehnat bayramlariga, yoshlarni unumli mehnat faoliyatiga, jarayoniga, kishilarga hurmat, ularning turli kasb-hunarlarni egallashlariga dastlabki qadamlar hisoblanadi va mehnat tayyorgarligining muhim omilidir.

Maktab o'quvchilarining mehnat tayyorgarligi politeknik ta'lim, ularning ijtimoiy-foydali unumli mehnatini tashkil etishning zamon o'zgarishlariga uyg'unlashgan holdagi mazmuni, shaklini usul va vositalarini ishlab chiqish masalalari mustaqil davlatimiz pedagog-olimlari oldidagi, davlat ahamiyatidagi masala bo'lib qolmoqda.

Asrlar mobaynida o'zining ilg'or madaniyati, milliy qadriyatlari, o'zligining noyob belgilari, ko'rinishlari bo'lgan urf-odatlar, amaliy san'ati, xalq hunarmandchiligining boy merosi bilan xalqimiz faxrlanib, e'zozlab, ulug'lab keladi.

Kuzatishlarimiz natijasida ma'lum bo'ldiki, xalq hunarmandchiligining turli sohalarini (gilamchilik, naqqoshlik, ganchkorlik, yog'och uymakorligi, suyak va metall o'ymakorligi, kashtachilik, milliy pazandachilik asoslari, milliy qandolatchilik, egar-jabduqlar tayyorlash, so'zanalar tikish, pichoq tayyorlash, temirchilik, kandakorlik, rextagarlik, charmdo'zlik, etikdo'zlik, do'ppi va choponlar tikish, milliy imoratsozlik, sandiqlar va beshik yasash, milliy dehqonchilik asoslari va boshqalarning didaktik-uslubiy asoslari tizimlashtirilgan holda yaratilgan emas. Bu sohalarining maktablarda (umumiy o'rta, o'rta maxsus, oliy) qo'llanilishining ilmiy-pedagogik asoslari, metodik yo'llari, vositalari, mazmuni, uslublari butunligicha mujassamlantirilgan holda shakllantirilmagan. Xalq hunarmandchiligining turli sohalarini amaliyotga qo'llash, yosh avlodga o'rgatish jarayonida mehnat ta'limi, tarbiyasi va boshqalar bir butun tizim holida ishlanmasdan, xalq ta'limi tizimida qo'llanilmasdan kelmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim (maxsus, hunar) maktablarda texnologiya ta'limidan tashkil etiladigan darslar o'zining qo'yidagi bir qancha xususiyatlari bilan boshqa predmetlardan (masalan, tillar yo'nalishdagi, fizika, matematika yo'nalishdagi ijtimoiy fanlardan) tubdan farq qiladi.

Zamonaviy texnologiya darslari mazmuniga va maqsadiga ko'ra quyidagi tiplarga bo'linadi:

I-tip. Nazariy bilimlarni o'zlashtirish darslari;

II-tip. Amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, rivojlantirish darslari;

III-tip. Ishlab chiqarish, unumli mehnat darslari.

I-tip. Darslarni bevosita sinflarda, kasb tanlash xonalarida, dala shiyponlarida, mashina-traktor saroylarida nazariy mashg'ulotlar (ma'ruza, suhbat, hikoya va h.k. lar ko'rinishida) sifatida, ishlab chiqarish sayohatlari, yo'l-yo'riqlar jarayonida tashkil etiladi.

II-tipdagi darslar o'quv ustaxonalarida, maktab tajriba yer uchastkasida, texnologiya ta'limidan tashkil etiladigan to'garaklarning amaliy mashg'ulotlar o'tkazish xonalarida, ilmiy-texnikaviy, o'quv-uslubiy adabiyotlar, instruksion va texnologik xaritalar bilan ishlash kasbiy mahoratini oshirib borish, texnikaviy va texnologik, politeknik mazmundagi masalalarni yechish, turli xil materiallarga ishlov berish asboblari va uskunalar bilan ishlash jarayonida malaka va ko'nikmalarni (umummehnat, xususiy, kasbiy maxsus) hosil qilish, takomillashtirish va rivojlantirish yo'nalishida olib boriladi.

III-tipdagi darslar – maktab ustaxonalarida, otaliq korxonalari (davlat, xususiy, ijara xo'jaliklari)ning ishlab chiqarish sexlarida, o'quv ishlab chiqarish brigadalarida, korxonalarning mavsumiy ishlarida, oila, ijara, shirkat, fermer, dehqon xo'jaliklarida, kooperativlarida, yakka tartibdagi yollanma mehnatda ishtirok etish jarayonida va boshqa ko'rinishlarda tashkil etilishi mumkin.

Maktablarda tashkil etilayotgan 3-tipdagi texnologiya darslarining I-tipdagi darslarning tashkil etilishi ko'rinishlari, shakllari boshqa predmetlardan o'tkaziladigan mashg'ulotlar bilan ko'pgina o'xshashliklari bo'lsa-da, II-III-tipdagi darslar faqat mazmunangina emas, balki tubdan farq qiladi.

Texnologiya ta'limi II-III-tipdagi o'quv mashg'ulotlari faqat o'quv sinflaridagina emas, balki o'quv tajribasi uchastkalarida, ishlab chiqarish sexlarida, dala-shiypon, mashina-traktor saroylarida, chorvachilik fermalarida, oilada, davlat shaxsiy, xususiy, ijara xo'jaliklari ishlab chiqarish sexlarida ham normal tashkil etilishi bilan farq qiladi.

II-III-tipdagi darslarni tashkil etish uchun maxsus jihozlangan maydonlar, asbob-uskunalar, turli xil materiallar, stanoklar, qurilmalar zarur bo'ladi. Bu darslarni maxsus professional tayyorgarlikka ega bo'lgan ishlab chiqarish, xalq xo'jaligi, texnikaviy-texnologik jarayonlar to'g'risida maxsus ma'lumotga ega bo'lgan, qishloq xo'jalik, sanoat qurilish va mashinasozlikning biror sohalarida faol mehnat qilayotgan ilg'or ishchilar, injener-texnik xodimlar, agronomlar, rahbar xodimlar, murabbiylar, turli xil kasb egalari o'z kasblarining ustalari namunali dars o'tishlari mumkin.

Yoshlarni kelajak hayotga, mehnatga ma'lum kasb hunarga tayyorlash ishida, ularga xalq xo'jaligining tuzilishi, hozirgi zamon ishlab chiqarishi, yangi texnika, ilg'or texnologiya, avtomatika elementlari, turli materiallar va asbob-uskunalar, jihozlar, qurilmalar bilan tanishish va ishlash, ishlab chiqarish, unumli mehnat kasblari, kasb egalari hayoti va faoliyati va h.k.lar bilan tanishtirishda texnologiya darslari, sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlar muhim rol o'ynaydi.

Adabiyotlar

1. Tolipov O'.Q., SHaripov SH.S., Egamov X., Qo'ysinov O.A. Mehnat va kasb ta'limida uzviylikni ta'minlash muammolari // Uzluksiz ta'lim. – Toshkent, 2001.–№ 2. –B. 101-111.
2. S.Bulatov. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. Toshkent-1991 yil. 964 b.
3. R.Xasanov. Amaliy bezak san'ati metodikasi. Toshkent 2003 yil. 125 b.
4. M.A.Maksumova, Q.M.Abdullaeva. Xalq hunarmandchiligi. O'quv qo'llanma - T.: TDPU, 2008 y. 266 b.
5. O'zbekiston respublikasi milliy qomusi –T.: Qomuslar bosh tahririyati 2014 yil.470 b.
6. Xoja Ismoil al-Buxoriy. Al-jome' as-Sahih (Ishonarli to'plam) 2-kitob, -T: Meros,1996 y, 236 b.
7. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri-T: Meros, 1998 y. 147 b.

UDK: 37.1**OLIIY TA'LIM TIZIMI O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM JIHALARI****Z. O. Nalibayeva¹, D. R. Nazirova²**

¹Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, ²Toshkent davlat transport universiteti
nnj_0629@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar institutsional jihatdan tadqiq etilib, ularning ta'lim sifatiga ta'siri ko'rsatib o'tilgan. Jamiyat hayotida o'qituvchilar maqomi va ular mehnatini rag'batlantirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar o'rganilib, oliy ta'lim tizimida professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishga doir dolzarb masalalar keltirilgan. Shuningdek, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish borasida mutaxassis olim va tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan qarashlar, fikr-mulohazalar, xorijiy tajribalar va nazariy yondashuvlar asosida bayon etilib, kasbiy kompetensiya masalasiga doir so'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar misolida yoritilgan.

Kalit so'zlar: kamolot, ta'lim-tarbiya, kompetensiya, kasbiy kompetensiya, konsepsiya, ijobiy dinamika, kadrlar salohiyati, malakali mutaxassis, institutsional asos.

Некоторые аспекты повышения профессиональных компетенций преподавателей высшей школы

Аннотация. В статье с институциональной точки зрения рассматриваются масштабные реформы, осуществленные в системе высшего образования за последние годы, и показано их влияние на качество образования. Изучен статус учителей в обществе и меры, принимаемые для поощрения их работы, представлены актуальные вопросы повышения профессиональных компетенций учителей в системе высшего образования. При этом авторы описывают развитие профессиональных компетенций на основе взглядов, мнений, зарубежного опыта и теоретических подходов, выдвигаемых экспертами и исследователями, и иллюстрируют на примере недавних исследований в нашей стране по вопросу профессиональной компетенции.

Ключевые слова: зрелость, образование, компетентность, профессиональная компетентность, концепция, положительная динамика, человеческие ресурсы, квалифицированный специалист, институциональная база.

Some aspects of improving the professional competencies of teachers in the higher education system

Abstract. The article examines the large-scale reforms implemented in the higher education system in recent years from an institutional point of view and shows their impact on the quality of education. The status of teachers in society and the measures taken to encourage their work are studied, and topical issues of improving the professional competencies of teachers in the higher education system are presented. At the same time, the authors describe the development of professional competencies based on the views, opinions, foreign experience and theoretical approaches put forward by experts and researchers, and illustrate the example of recent research in our country on the issue of professional competence.

Keywords: maturity, education, competence, professional competence, concept, positive dynamics, human resources, qualified specialist, institutional framework.

Kirish

Insoniyat tarixida aqlli inson toifasidan → nutqli inson toifasigacha, nutqli inson toifasidan → tadbirkor inson toifasigacha, tadbirkor inson toifasidan → ma'naviyatli inson toifasigacha bo'lgan tarixiy vaqt oralig'ida insonning kamol topishini ta'minlashda fidoiylilik ko'rsatgan zotlarga ustoz-murabbiy deya munosabatda bo'lishgan va ularning mehnatiga bo'lgan munosabat ijobiy dinamikasi bo'yicha o'zgarib borayotganligini kuzatishimiz mumkin. Bugun zamon shiddat bilan o'zgarib, barcha sohalar qatori oliy ta'lim tizimi oldiga ham o'ta dolzarb va murakkab vazifalarni qo'yimoqda. Ayniqsa, 2020-yilda butun dunyoni larzaga solgan COVID – 19 pandemiyasi muammosi oliy ta'lim tizimi uchun ham sinov yili bo'ldi. Biroq shunga qaramay hukumatimiz tomonidan so'nggi yillarda boshlangan keng ko'lamli islohotlar davom ettirilib, dunyo miqyosidagi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yaratishidek mas'uliyatli vazifalar belgilanib, izchillik bilan amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, oliy ta'lim maskanlarining moddiy-texnik bazasini yangilash va uni yanada takomillashtirish, kadrlar salohiyatini mustahkamlash, darsliklar va o'quv qo'llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, o'quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish, soha xodimlarining ish haqini bosqichma-bosqich oshirib borilishi, ularning mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash kabi vazifalarni jamiyatimiz hayotida o'z ifodasini topayotganligini har bir o'zini shu mamlakat rivoji uchun mas'ul deb qarovchi sog'lom fikrlovchi shaxs tomonidan e'tirof etilmoqda.

Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev **“...millionlab farzandlarimiz qalbiga ilm-fan ziyosini singdirib, ularni el-yurtga munosib insonlar etib tarbiyalayotgan zahmatkash va olijanob ustozlarimizga har qancha tahsinlar aytsak, arziydi”**[1] – deya ta'kidlab, ustoz va murabbiylar mehnatiga va ularning yoshlarga ta'lim-tarbiya berishdek, mashaqqatli va sharaflari kasb egalari ekanligi yana bir bora e'tirof etilib, ularning fidokorona mehnatlariga nisbatan munosib baho berdilar.

Tadqiqotning maqsadi

Oliy ta'lim tizimi o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishning konseptual asoslarini tadqiq va tahlil etishdan iborat.

Tadqiqotning usuli va obyekti

Mazkur jarayonda retrospektiv va qiyosiy tahlil, faoliyat mahsulini o'rganish, kuzatuv, hujjatlarni o'rganish kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida oliy ta'lim tizimi o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishning ayrim jihatlari tashkil etadi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi

Darhaqiqat, mamlakatimizda bugungi kunda oliy ta'lim tizimi borasida ham tub islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad “zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish”[2]ga qaratilganligi bilan ham ahamiyatlidir. Shuningdek, bu borada o'nlab muhim farmon, qaror va dasturlar qabul qilindi. Jumladan, “Ta'lim to'g'risida”gi qonun qayta takomillashtirilgan holda qabul qilinishi ta'lim sohasi rivoji uchun yangi ufqlarni ochib berishi shubhasizdir. Qonunga muvofiq, ta'lim olishning masofaviy, inklyuziv shakllari joriy qilish, ta'lim tashkilotlariga xorijiy muassasalar bilan qo'shma fakultet va o'quv markazlari tashkil qilish kabi ustuvor vazifalarni amalga oshirish lozimligi ko'rsatib o'tilgan bo'lib, bu esa istiqbolida oliy ta'lim tizimini yanada yuksak darajaga ko'tarish uchun xizmat qiladi. Xususan, qonunning 11-moddasi aynan Oliy ta'limga bag'ishlangan bo'lib, unda oliy ta'lim bosqichlari, bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlari bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar berishi”[3] belgilab berilgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, “so'nggi 4 yilda mamlakatimizda 47 ta yangi oliy ta'lim muassasasi, jumladan, xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilib, oliy o'quv yurtlarining soni 125 taga yetdi va maktab bitiruvchilarini oliy ta'limga qamrab olish darajasi 2016-yilgi 9 foizdan 2020-yilda 25 foizga yetdi”[4]. Demak, yoshlarni oliy ta'limga qamrovining ko'payishi, albatta quvonarli. Biroq shuncha e'tiborga qaramasdan oliy ta'limda bir qator muammo va kamchiliklar mavjudligini qayd etish lozim. Xususan, aksariyat bitiruvchilarning bilim va malakasi mehnat bozori talablariga javob bermayotganini afsuski, ayni damdagi achchiq haqiqatdir.

Jahon tajribasida aniq fanlarni turli ixtisoslik fanlari bilan aloqadorligini ta'minlash tendensiyasining kuchayib borayotganini hisobga olib, ularning xususiyatlariga differensial yondashgan holda, muayyan turkum o'quv fanlari uchun maxsus o'quv dasturlari yaratish zarur. Ya'ni, oddiydan murakkabga o'tish tamoyiliga ko'ra, o'quv jarayoni uzluksizligini ta'minlash maqsadida, ta'lim tizimining har bir bo'g'ini uchun maxsus dasturlar yaratish lozimligini ko'rsatmoqda[5]. Shundan kelib chiqqan holda “Ta'lim to'g'risida”gi qonunning 45-moddasiga[6] muvofiq o'qituvchilarga mualliflik dasturi va o'qitish uslublarini joriy etish, zamonaviy pedagogik shakllar, o'qitish va tarbiya usullarini erkin tanlash huquqi

berildiki, bu esa o'z navbatida oliy ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilarda kreativlik va improvizatsiyani kuchaytirish bilan birga o'tilayotgan ma'ruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari sifatini oshirish uchun xizmat qiladi. Buning uchun esa professor-o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni yanada rivojlantirish lozim.

Kasbiy kompetentlik – bu uzluksiz o'zini rivojlantirish va takomillashtirish sharoitida o'z kasbiy xarakteristikasini, kasbiy-pedagogik faoliyatini o'zining individual ishlash uslubi asosida xolis baholay olishga qodir hamda kasbiy pedagogik faoliyatni egallashga yordam beruvchi shaxs integrativ sifatining uzoq kechadigan jarayoni bo'lib, kasbiy o'sish va o'zligini ko'rsata olishga intilish demakdir[7].

Tadqiqotchi Y.Terxart kasbiy pedagogik kompetensiyani “zarur kasbiy bilimlar, kasbiy malaka va kasbiy etika birligi”, deya baholaydi[8]. G.Nidermayerning fikricha, “kompetentlik” funksional ravishda konkret pedagogik vaziyatlar, shu jumladan, pedagogning ziyoliligi va uning kasbiy etikasi bilan bog'liqligini ko'rsatadi[9].

R.Samarovning fikricha, kasbiy kompetensiya konsepsiyasining tarkibiy qismi quyidagilardan iborat:

- xodimning qobiliyat va ehtiyojlarining diagnostik xulosasini;
- xodimlarni shaxsiy va kasbiy muammolarni ajrata bilish qobiliyatini;
- an'anaviy tafakkur stereotiplarini o'zgartirishini;
- o'z-o'zini baholashni ijobiylashuv darajasini;
- shaxsiy qadriyatlarining shakllanishini;
- faoliyat meyorlarini o'zlashtirishini;
- o'zni namoyon etish uchun ijtimoiy-madaniy muhitni o'rganishni;
- innovatsion xulqni tarbiyalashni[10] nazarda tutadi.

Keyingi yillarda oliy o'quv yurtlari soni ortishi va oliy ta'limning professionallashtirishi munosabati bilan klassik universitetlar gumbold modeli prinsiplarini, avtoritar pedagogika prinsip va usullarini siqib chiqara boshladi, natijada oliy ta'limning ommalashuvi sezilarli darajada ortdi, ushbu holat birinchi navbatda abiturentlarni o'rtacha tayyorgarligi pasayishiga olib keldi hamda ularni oliy o'quv yurtlarida o'qishga bo'lgan qiziqishini pasayishida namoyon bo'la boshladi. Asta-sekin oliy ta'limda majburiy topshiriqlar, andozali hisoblar, o'quv reja va ishchi dasturlar va shunga o'xshash talabalarni o'qishga majbur qilish usullari ko'rinishida avtoritar pedagogika ustunlikni oldi. Bugungi kunda ushbu holatdan chiqishning qator choralari amalga oshirilmoqda[11]. Jumladan, oliy ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq: “xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan, o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan **amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga** yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish; oliy ta'lim mazmunini **sifat jihatidan yangi bosqichga** ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan **yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini** yo'lga qo'yish”[12] kabi vazifalar belgilanib, amalga oshirib kelinmoqda.

Har qanday innovatsion jarayon falsafiy nuqtai nazardan olib qaranganda nisbiy xarakterga ega. Shu bois har qanday innovatsiya vaqti-vaqti bilan yangilanib, o'zgarib turishi tabiiy jarayondir. Shuni alohida qayd qilib o'tish joizki, har qanday joriy etilayotgan innovatsiyalar, yangiliklar har joyda va har vaqtda ham ijobiy natijalarga olib kelavermaydi. Bu borada pedagogika fanlari doktori M.M.Potashkin rahbarligidagi olib borilgan ilmiy izlanishlarida buning o'ziga xos sabablarini sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tgan:

- kiritilayotgan har qanday yangiliklar doimiy ravishda dolzarb masalalarni yechish vositasi bo'la olmasligi;

- har qanday yangiliklar, yangi fikr va g'oyalarning dastlab turli to'siqlarga uchrashi, bahs-munozaralarga sababchi bo'lishi va oxir-oqibat amaliyotda o'z samaradorligini isbotlay olgandagina mutaxassislar tomonidan tan olinishi;

- muayyan pedagogik masalalarni xalq etishga yo'naltirilgan barcha yangiliklar, yangi vositalar ta'lim tizimi qatnashchilarining shaxsiy xususiyatlariga va qiziqishlariga mos kelavermasligini ko'rsatib o'tganlar[13].

Yuqorida zikr etilgan maqsadni amalga oshirishda texnik fanlarning gumanitar fanlaridan farqli jihatlarini hisobga olish lozim. Bunda taqdimotni amalga oshirishda formulalar, diagrammalar, chizmalardan tortib grafikalar va ma'lumotlar bazalariga qadar turli darajadagi terminologik va illyustratsion materiallarga murojaat qilishga to'g'ri keladi[14]. Masalan, talabalarni matematik modellashtirishga o'rgatishning belgilangan yo'nalishi doirasida talabalarga o'rgatish o'quv modelining matematik materialini tanlash va ishlov berishning quyida ko'rsatilgan asosiy mezonlarini ajratib olishga imkoniyat beradi:

- matematik materialni ixtisoslik va uni talabaga yetkazish uchun ketadigan hajmi va vaqtini aniqlab beruvchi informatsion sig‘im mezon;
- ijodiy fikrlashga layoqatli, uyg‘unlik bilan rivojlanayotgan shaxsni shakllantirishning ijtimoiy effektivlik mezon;
- matematik bilimlar, malaka va ko‘nikmalar sistemasiga doir to‘liq tushunchalarni ta‘minlanishini faraz qiluvchi intellektual sig‘im mezon;
- matematikani o‘qitish-o‘rgatishga va shu orqali – bo‘lg‘usi kasbiga nisbatan qiziqishni oshiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi anglanuvchanlik mezon;
- texnika fanlari zarurati uchun o‘rganilayotgan materialning mohiyatini belgilaydigan ilmiy ahamiyat mezon;
- bo‘lg‘usi kasbiy faoliyatda matematik bilimlarning keng ko‘lamda qo‘llanilishi mumkinligini ko‘rsatuvchi amaliy ahamiyat mezon[15].

Xulosa

- Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalar asosida quyidagi xulosalarni ilgari surish imkonini berdi:
- o‘qituvchi yoshlarni qanday bo‘lsa, shundayligicha (iqtidorli, layoqatli, zehni bilan idrok qilishi) tabiiy qabul qilishni o‘rganishi lozim.
 - har bir ta‘lim muassasasi amalda yoshlarga differensial yondashuvni tashkil etishi va ularning imkoniyatlarini e‘tiborga olishi kerak.
 - o‘qitishni yangi texnologiyalar asosida, demokratik turlarini joriy etishi, o‘qituvchi o‘quvchining ko‘proq o‘z fikrlarini izhor qilishi uchun sharoit yaratishi, interfaol uslublarni qo‘llashi lozim.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 30 sentabrda O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimda O‘qituvchi va murabbiylar – yangi O‘zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir” mavzusidagi nutqi - www.xs.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni- <https://lex.uz>
3. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda “Ta‘lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi 2020 yil 24 sentabr - www.lex.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 30 sentabrda O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimda O‘qituvchi va murabbiylar – yangi O‘zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir” mavzusidagi nutqi - www.xs.uz
5. Kalekeyeva T.T. Ta‘limni axborotlashtirish sharoitida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini tayyorlash mazmunini takomillashtirish. / Pedag. fan. bo‘y. fal. d-ri (PhD) diss. avtoref. – T., 2019. – 14 b.
6. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda “Ta‘lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi 2020 yil 24 sentabr - www.lex.uz
7. Suleymanova N.K. Videokontent orqali bo‘lajak nemis tili o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish. Pedag. fan. bo‘y. fal. d-ri (PhD) diss. avtoref. – T., 2020. – 13 b.
8. Terhart E. Erfassung und Beurteilung der beruflichen Kompetenz von Lehrkräften. In: Laeders, Manfred; Wissinger, Jochen, Hg. Kompetenzentwicklung und Programmevaluation. Forschung zur Lehrerbildung. – Muenster, New York, München, 2007.
9. Niedermair G. (2011). Kompetenzen entwickeln, messen und bewerten / Gerhard Niedermair [Hrsg.]. – Linz: Trauner. – 602 S.
10. Samarov R.S. Barkamollik tizimida kasbiy layoqatlilik // Ta‘lim muammolari jurnali. 2013, 6-son. – B. 10-14.
11. Maxmudova D.M. Talabalarda mustaqil ijodiy faoliyatni rivojlantirish jarayonlarida muammoli masalalardan foydalanish. Pedag. fan. bo‘y. fal. d-ri (PhD) diss. avtoref. – T., 2017. – 11 b.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni- <https://lex.uz>
13. Ashurova D.N. Elektron ta‘lim tizimida dasturiy-didaktik majmua yaratish muammolari. Pedag. fan. bo‘y. fal. d-ri (PhD) diss. avtoref. – T., 2018. – 11 b.
14. Есенбекова А.Э., Дусталиева С.М. Методика преподавания специальных дисциплин для технических специальностей. // Образование: прошлое, настоящее, будущее: материалы V Междунар. науч. конф. (г. Краснодар, ноябрь 2018). - Краснодар: Новация, 2018. - С. 57-58.
15. Siddiqov Z.X. Talabalarining o‘quv ko‘nikmalarini rivojlantirishda matematik modellashtirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish. Pedag. fan. bo‘y. fal. d-ri (PhD) diss. avtoref. – T., 2018. – 15 b.

UDK: 37. 377.35 (575.1)

**ARTPEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM-TARBIYANI
MODERNIZATSIYALASHNING BADIY-ESTETIK OMILI SIFATIDA****Sh.N.Mustafayev***Samarqand davlat universiteti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada artpedagogikaning maqsadli uchta asosiy yo'nalishi, art pedagogik faoliyatning pedagogik va badiiy salohiyatni integratsiyalash, pedagogik mazmunni badiiy-obrazda taqdim etish, san'at orqali o'z-o'zini ifodalash, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining ijodiy hamkorligi, kasbiy harakatlar darsning art-pedagogik mohiyatiga mosligi kabi prinsiplari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Konseptual, modernizatsiya, sintez, komponent, plastik, kognitiv, kommunikativ, ratsional, intuitiv, art pedagogik jarayon.

**Художественная педагогика как художественно-эстетический фактор модернизации
образования в высших учебных заведениях**

Аннотация. В данной статье рассматриваются три основных направления художественной педагогики - интеграция педагогического и художественного потенциала художественно-педагогической деятельности, представление педагогического содержания в художественном образе, самовыражение через искусство; принципы творческого взаимодействия участников образовательного процесса, соответствие профессиональной деятельности художественно-педагогической сущности урока.

Ключевые слова: концептуальный, модернизация, синтез, компонент, пластический, когнитивный, коммуникативный, рациональный, интуитивный, художественно-педагогический процесс.

**Art pedagogy as art and aesthetic factor of modernization of education in higher educational
institutions**

Abstract. This scientific article examines three main areas of artistic pedagogy - the integration of the pedagogical and artistic potential of artistic and pedagogical activity, the presentation of pedagogical content in an artistic image, self-expression through art; principles of creative interaction of participants in the educational process, the correspondence of professional activities to the artistic and pedagogical essence of the lesson.

Keywords: conceptual, modernization, synthesis, component, plastic, cognitive, communicative, rational, intuitive, artistic and pedagogical process.

O'zbekistonda Oliy ta'lim tizimi modernizatsiyasi jahon tajribasining o'zini oqlagan yutuqlarini o'zida mujassam etgan holda o'ziga xos, konseptual negizda, milliy qadriyatlar, ma'naviy asoslarni tiklash, "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari", deb belgilangan milliy g'oyani ro'yobga chiqarish maqsadlari bilan hamohang amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbus, ma'naviyat va ma'rifat sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning tarbiyaviy innovatsiyalari sifatida namoyon bo'lmoqda.

Yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodlarini yuzaga chiqarish, ularni jismoniy chiniqtirish, sport sohasida qobiliyatlarini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratish, aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etish, shuningdek yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish hamda xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga ko'maklashish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Kengashining qarorida Beshta muhim tashabbusning birinchisi - yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, iste'dodini yuzaga chiqarish sifatida belgilangan [1].

Yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, iste'dodini yuzaga borasida: mamlakatimizda o'sib, voyaga yetayotgan yosh kelajak avlodni har taraflama mukammal tarbiyalash, musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'at sohasida iqtidorli yoshlarni izlab topish;

- iste'dod va mahoratlarini namoyish etishlariga ko'maklashish hamda ijodiy va badiiy to'garaklar tashkil etish;

- iqtidorli va iste'dodli yoshlar to'g'risida ma'lumotlar bazasini yaratish; - yoshlarning ma'naviy olamini boyitish;
- yoshlarga ijod va bilim cho'qqilarini egallashi uchun ko'mak berish; ularni madaniyat sohasidagi erishayotgan yutuqlarini qo'llab-quvvatlash;
- iste'dod va salohiyatlarini ro'yobga chiqarishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish;
- yoshlar tomonidan yaratilgan istiqbolli g'oya va loyihalarni hayotga tatbiq etilishiga ko'maklashish;
- ommaviy yoshlar aksiyalari, bayramlar, festivallar, ommaviy tanlovlar, forumlarni tashkil etish va o'tkazish dasturlari, loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda yaqindan ishtirok etish;
- madaniyat sohasida yuqori malakali kadrlar zahirasini tayyorlash;
- yoshlarning qiziqishlari bo'yicha hamkorlikda faoliyat yuritish imkoniyatini yaratish vazifalari belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga o'z tizimida Beshta muhim tashabbusning tegishli yo'nalishlari bo'yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mas'ul ekanligi belgilab qo'yildi [2].

Globallashuvning jadal sur'atlari va shaxsning individualligini yo'qotuvchi cheksiz axborotlar oqimiga ega bo'lgan axborot jamiyatida odamlarga har tomonlama ta'sir ko'rsatish va ularni yo'naltirish qobiliyatiga ega ta'sirlar tobora dolzarblasha bormoqda. San'atning ta'lim jarayoniga joriy qilinishi bilan hal qilish mumkin bo'lgan pedagogik vazifalar doirasi nihoyatda keng. Shu sababli bugungi kunda "shaxs - shaxs" tizimida ishlaydigan ko'plab mutaxassislar san'at imkoniyatlariga tobora ko'proq murojaat qilmoqdalar.

O'tgan asr oxirlarida Rossiya va AQSHlik mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan "Tasvir va fikr" dasturi katta qiziqish uyg'otgan edi [3-142]. U turli fan sohalari - psixologiya, pedagogika, san'at tarixi, muzey pedagogikasi, madaniyatshunoslikdagi o'zgarishlarni organik ravishda sintez qiladi. Ushbu dasturda tasviriy san'at asari o'quv jarayonini insonparvarlashtirish, talabalarning mustaqil tanqidiy fikrlashlarini rivojlantirish va talabaning o'z his-tuyg'ulariga ishonchini mustahkamlovchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Besh muhim tashabbus doirasida talaba yoshlarni badiiy faoliyatda tarbiyalash samaradorligini oshirish bu borada rivojlangan mamlakatlar tajribalarini o'rganishni taqozo qiladi. Shu nuqtai nazardan Amerika fanni rivojlantirish assotsiatsiyasi (American Association for Advancement of Science - AAAS)ning har yili o'tkazib boriladigan "Ilmiy raqs" (Science Dance Contest) tanlovi tajribasi diqqatga sazovor, deb hisoblaymiz. Bunda ishtirokchi tadqiqotchilarga o'z tadqiqot natijalarini faqat plastikada, musiqa, rangli nurlar yordamida ifodalash taklif etiladi. Xorijlik mutaxassislar san'at va ijodga boshlang'ich maktabda o'qitiladigan har bir predmetning asosiy komponenti sifatida qarashadi. Bu yondashuvni Yevropada ham kuzatish mumkin. Chunki Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtiriluvchi yangi ta'lim-tarbiya loyihasi «ARTinED» san'at vositasida o'qitish va tarbiyalash metodikasini ishlab chiqishga qaratilgan. Loyiha mualliflarining qat'iy xulosalariga ko'ra san'at komandada ishlashga o'rgatadi, kognitiv qobiliyatlarni, tanqidiy fikrlashni, kommunikativ malakalarni rivojlantirishi bilan XXI asrda insoniyatni rivojlantirishda fundamental rol o'ynaydi. Bunda gap maktabda san'at predmetlarini o'qitish haqida emas, balki maktab dasturining har bir yo'nalishiga san'at turlari ta'sirini integrasiyalash haqida bormoqda. Masalan, matematikani o'rgatishda - raqsga tushish, tarix darslarida rasm chizish, til o'rganish darslarida - musiqadan foydalanish o'zda tutiladi. Bugungi kunda ushbu loyiha Italiya, Buyuk Britaniya, Turkiya, Ispaniya, Shvesiya, Ruminiya tomonidan qo'llab-quvvatlanib, maktablarida sinovdan o'tkazilgan [4].

Bugungi tobora texnokratizasiyalashayotgan zamonda san'atga bo'lgan bunday keskin talabning sababi nimada? Psixologiya bo'yicha o'tkazilgan fundamental tadqiqotlar bergan javobga ko'ra san'at "ma'noning yo'qolishiga qarshi kurashadi. Uning vazifasi insonni narsalar dunyosida adashib qolishining oldini olishdir. San'at odamdagi insoniylikni va dunyoni bilish uchun zarur" [5]. Xuddi shu fikr faylasuf, san'atshunos Yu.Borevning asarlarida ham uchraydi: "... san'at odamdan insonni yetishtiradi" [6-291]. Gumanistik psixologiyaning asoschisi va yetakchisi A.Maslou san'at vositasida o'qitish va tarbiyalash "tuzukroq odamlarning paydo bo'lishi uchun" zarurligiga ishongan. A.Maslou fikriga ko'ra, bunday ta'lim, qolgan butun ta'lim sohasi uchun paradigma bo'lishi kerak va aynan shu ta'lim "to'g'ri ta'lim"dir [7-181].

Shunday qilib, san'atning yetakchi funksiyasi - odamni "insoniylashtirish"dir. Shuningdek, san'at odamlarning murakkab tan-ruh tabiatiga jismu-taniga har tomonlama ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ega va shu sababli ta'limning samarali vositasi bo'lib, inson uchun umri davomida o'zini o'zi rivojlantirish, o'zini o'zi tarbiyalash va o'zini o'zi o'qitish uchun kuchli rag'batlantiruvchi omil bo'lib qoladi.

Aqlga, hissiyotlarga, tajribalarga, insonning xatti-harakatlariga, uning ongli va ongsiz, rasional va intuitiv jihatlariga har tomonlama ta'sir qilish orqali san'at ko'plab pedagogik vazifalarni parallel ravishda hal qilish imkonini beradi. Bu esa artpedagogikaning nima uchun jadal rivojlanayotgani sabablari turli pedagogik muammolarni hal qilishga badiiy resurslarni jalb qilishning tabiati, qonunlari, tamoyillari, mexanizmlari va universal usullarini o'rganadigan yangi ilmiy va amaliy yo'nalish ekanligida namoyon bo'ladi. O'zida san'at, pedagogika, psixologiya salohiyatlarini birlashtirgan artpedagogikaning fanlararo, amaliyotga yo'naltirilgan tabiati zamonaviy gumanitar fanlarga xos bo'lgan bilimlarni birlashtirish tendensiyasini to'liq aks ettiradi va bu oliy ta'lim nazariyasi va amaliyotini modernizatsiyalashda samarali omil bo'lishi mumkin.

Keyingi yillarda dunyoda artpedagogikaning mohiyati, samaralari o'rganilishi barobarida ushbu atamaning ma'nosini, artpedagogikaning mazmun va funksiyalarini turli xil talqin qilish holatlari uchramoqda. Bu borada "art-terapiya pedagogikasi", "san'at psixopedagogiyasi", "estetik pedagogika" kabi iboralar ishlatilganligini aytish kifoya. Zamonaviy mualliflarning ba'zi asarlarida "art pedagogika" va "art terapiya" tushunchalari bir ma'noda qo'llanilishi kuzatiladi. Biz artpedagogika tushunchasining obyektiv mazmun-mohiyatini, predmet maydonini aniqlashtirish uchun quyidagi konseptual aniqliklar kiritilishi lozim, deb hisoblaymiz.

1. Maxsus kasbga yo'naltirilgan, musiqa, xoreografiya, rassomlik, ashula, raqs va hokazo yo'nalishlarda professional kasbiy ko'nikmalarini o'rgatish, ma'lum bir amaliy mahorat natijalariga erishib, ko'rgazma, konsert tomoshalarini ko'rsatish artpedagogik faoliyatning bevosita vazifalariga kirmaydi. Ya'ni talabalarining doira, raqs to'garaklarida ishtirok etishlari ularning hammasini professional doirachi, raqqos qilib yetishtirishni ko'zda tutmaydi.

2. Estetik tarbiya. Nafaqat san'at, balki mehnat, sport, tabiat, turli xil o'yinlar va boshqalar ham estetik tarbiya vositasi bo'la oladi. Pirovard maqsad nuqtai nazardan, estetik ta'lim artpedagogik faoliyatning vazifalariga kirmaydi.

3. Art-terapiya (musiqa, raqs bilan davolash). Pedagogika tibbiyot, psixoterapiya va psixologiyaga xos bo'lgan funksiyalarni bevosita bajara olmaydi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, artpedagogikada hal qilinishi kerak bo'lgan kasbiy vazifalarning xilma-xilligi davolash bilan bevosita bog'liq emas, biroq badiiy ijod ko'pincha bilvosita terapevtik natijalarni beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, artpedagogikaning o'ziga xos integrativ mohiyatini quyidagicha belgilash mumkin:

- art pedagogik faoliyat bu - kasbiy maqsadlarni san'at vositasida amalga oshirish uchun tartibga solingan pedagogik xatti-harakatlar yig'indisini ifodalovchi kasbiy pedagogik faoliyatning mustaqil turi;

- artpedagogik o'zaro ta'sir - "professor-o'qituvchi (o'qituvchi, ustoz) - ta'lim mazmuni - san'at turi - talaba (talaba, shogird)" maqsadli rivojlanayotgan tizimda yuzaga keladigan samimiy munosabatlar va aloqalar majmui;

- artpedagogik jarayon - pedagogik muammolarni hal qilish va pedagogik g'oyalarni amalga oshirish uchun san'at vositalaridan foydalanish;

- artpedagogik qo'llab-quvvatlash - badiiy-pedagogik faoliyatni uni muvaffaqiyatli amalga oshirish va shaxsni tarbiyalash uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadiga moslashuvchan harakatlar tizimi;

- artpedagogik faoliyat tamoyillari - o'quv jarayoni ishtirokchilari o'zaro munosabatlarining badiiy-pedagogik xususiyatini ta'minlaydigan umumiy qoidalar;

- artpedagogik dars - pedagogik hamkorlik tizimiga asoslangan, o'zida badiiy va ta'lim-tarbiya mazmunini mujassam qilgan faoliyatni tashkil qilish shakli. Bunda dars jarayoni artpedagogik faoliyat tamoyillariga bo'ysunadi;

- artpedagogik vaziyat - muayyan pedagogik vazifani san'at yordamida hal qilishga qaratilgan, o'qish vaqtining mazmunan ajralmas qismi. Artpedagogik vaziyat ma'ruza, seminar, dars materiallari tarkibiga kiritiladi, biroq, o'quv munosabatlarining umumiy tuzilishini to'liq belgilay olmaydi, o'quv jarayonining an'anaviy qoidalariga rioya qilmaydi.

San'atning xususiyatini, uning shaxsga ta'sir qilish mexanizmlarini, an'anaviy va zamonaviy o'quv amaliyotini tahlil qilish artpedagogikaning maqsadli uchta asosiy yo'nalishini ajratib olishga imkon beradi.

Ta'lim jarayoniga san'at va pedagogika imkoniyatlarining integratsiyasi hamda ta'lim mazmunini boshqa, sifat jihatidan yangicha idrok qilish, ifodalash, tushunish uchun qulay shart-sharoit yaratish. Bunda badiiy-pedagogik vositalar:

- ta'limiy axborotning teng manbai bo'lib, o'quv materiallari ichida o'ziga xos "ovoz", subyektiv holatlar, hissiy harakatning nozik nyuanslari, boshqa insonning his-tuyg'ulari, hissiy tajribasi haqida hikoya qilish;

- ta'lim mazmunining shaxsiy-subektiv tajribasi lahzalarini yaratish, shaxs uchun ahamiyatli jihatlarni aniqlash;
- o'rganiladigan o'quv materialining tarixiy va madaniy kontekstini his qilishning ma'lumot manbai bo'lish;
- turli xil assosiasiyalar, hissiyotlar, fikrlar, taasurotlar maydonini axborot bilan to'ldirish yaratish orqali ta'lim mazmunini ishtirokchilarning individual tajribasi bilan boyitish;
- munosabat, pozitsiyalarni idrok etish va baholashning an'anaviy yondoshuvlarini o'zgartirishga yordam berish;
- "Men" tushunchasining o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini ifodalashga qaratilgan qiymat-semantik boyitish manbai bo'lish.

2. Art pedagogik vositalar pedagogik hamkorlik sharoitlarini optimallashtirishga qodir, chunki ular:

- talabalarni psixofiziologik qo'llab-quvvatlash manbai bo'lish, aqliy ishlarning miqdori va sifatini oshirish, ixtiyoriy e'tiborni kuchaytirish, neyro-emosional stresslarni yengillatish, charchoqning oldini olish, bir faoliyatdan ikkinchisiga qulay o'tish va hk.;
- ma'lumotni mantiqiy-og'zaki shakldan emosional-majoziy modallikka kodlash hisobiga o'quv materialini tushunish, o'zlashtirish va yodlashni osonlashtirish;
- o'quv materialini idrok etishga motivasion, hissiy, kommunikativ tayyorlikni ta'minlash;
- o'quv jarayoni ishtirokchilarida umumiy harakatga daxldorlik, birlashib hamkorlik qilishga ijobiy hissiyotlarni shakllantirish;
- yangilik, qiziqish, paradoks, hayrat va boshqa mexanizmlar orqali talabalarda nazariy materialning murakkabligiga nisbatan "qarshilik" ni kamaytirishga yordam berish;
- ishtirokchilar uchun qulay o'quv sharoitlarini yaratish (dam olish, ijobiy kayfiyat, shaxslararo munosabatlarni yaxshilash va boshqalar);
- umumiy hayotiy jo'shqinlikni, shaxsiy ijodkorlikni, o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish.

3. Artpedagogik vositalar o'quv jarayonida diagnostik manba bo'lishi mumkin, bunda:

- talabalarining kutilayotgan faoliyatga munosabatlari xususiyatlarini, talabalar bilimining sifatini ochib berish;
- o'quv materialini tushunish dinamikasini (yashirin, nazokatli shaklda) ko'rsatish;
- ishtirokchilarning shaxsiy munosabatlarini, ularning ta'lim mazmunidagi muammolarga munosabatini aniqlash;
- o'quv-tarbiyaviy tarkibni o'zlashtirish sifatiga ta'sir qiluvchi ongsiz munosabat, qatag'on qilingan tajriba, hissiyotlar, xotiralarni aniqlash;
- o'z-o'zini bilishni amalga oshirish (o'ziga "tashqi tomondan" qarash imkoniyati tufayli);
- guruhning umumiy hissiy holatini, shaxslararo munosabatlar xususiyatlari va individual xulq-atvor strategiyalarini idrok yetishga tayyorlik darajasini aniqlash.

Har qanday maqsadli faoliyatning tartibga soluvchi tamoyillari bo'lib, ular xatti-harakatni me'yorlashtiradi va ma'lum bir doiradagi xulqni belgilab boradi. Artpedagogikada ham faoliyat o'quv jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlarini ta'minlaydigan maxsus prinsiplar asosida amalga oshiriladi. Bular: art pedagogik faoliyatning pedagogik va badiiy salohiyatni integrasiyalash, pedagogik mazmunni badiiy-obrazda taqdim etish, san'at orqali o'z-o'zini ifodalashning ilhomda namoyon bo'lishi, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining ijodiy hamkorligi, artpedagogik hamkorlikda rasional va irrasonallikning birligi, artpedagogik hamkorlikda badiiy asarni talqin qilish erkinligi, kasbiy harakatlar darsning art-pedagogik mohiyatiga mosligi kabi prinsiplari shular jumlasidandir.

Yuqorida keltirilgan fikr va xulosalar artpedagogikani oliy ta'limni insonparvarlashtirishning muhim manbai ekanligini tasdiqlab, talabalar tarbiyasida artpedagogikadan samarali foydalanishning boy imkoniyatlarni ko'rsatib beradi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2020 yil 13 martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusni amaliyotga joriy etish samaradorligini oshirish to'g'risida"gi KQ-20-1U-sonli Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2020 yil 13 martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusni amaliyotga joriy etish samaradorligini oshirish to'g'risida"gi KQ-20-1U-sonli Qaroriga 1-ilova.

3. Музей и школа: диалог в образовательном пространстве. Вып. 2. Образ и мысль: Сб. статей /Науч. ред. Л.М.Ванюшкина. СПб.: Центр региональных и международных образовательных проектов Санкт-Петербургского гос. ун-та педагогического мастерства. СПб., 1997. 142 с.

4. <http://www.artined.eu/home.html> (qayd sanasi 20.08.2020).

5. Леонтьев А. Н. Некоторые проблемы психологии искусства // Леонтьев А. Н. Избранные психологические произведения: В 2 т. Т. 2. М.: Педагогика, 1983

6. Боров Ю. Б. Эстетика. Ростов н/Д.: Феникс, 2004.

7. Маслоу А. Новые рубежи человеческой природы. М.: Смысл: Альпина нон-фикшн, 2011

UDK: 37.1

O'SMIR YOSHIDAGI BOLALAR IJTIMOYILASHUVINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

B.Xodjayorova

Samarqand davlat universitet

Annatasiya. Ushbu maqolada ijtimoiylashuv masalalarini o'rganishning falsafiy, pedagogik, sotsiologik va ijtimoiy-psixologik yo'nalishlarini ajratish asnosida ko'rib chiqilgan va sotsiologik yo'nalish individning ijtimoiylashuvini ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirishish uchun ma'lum bir ijtimoiy xususiyatlarni o'zlashtirish bilan aloqadorlikda, ijtimoiy-psixologik yo'nalish esa, ijtimoiylashuvda ontogenez davrida ijtimoiy me'yor, madaniy qadriyatlarni o'zlashtirish jarayoni bayon qilingan.

Kalit so'zlar: yosh xususiyatlari, ijtimoiylashuv, individ, ijtimoiy munosabatlar, ontogenez me'yor, psixologik mexanizm, ijtimoiy norma, qonuniyatlar, taqlid, ustanovka, identiv, determinizm, xulq-atvor, matevasiya, pedagogik bunyodkorlik.

Theoretical and methodological foundations of the socialization of adolescent children

Abstract. This article discusses the separation of philosophical, pedagogical, sociological and socio-psychological aspects of the study of socialization, and the sociological direction is related to the acquisition of certain social features to enter the system of social relations, while the socio-psychological direction is the social norm in ontogeny, the process of assimilation of cultural values is described.

Keywords: age characteristics, socialization, personality, social relations, ontogenetic norm, psychological mechanism, social norm, laws, imitation, establishment, identity, determinism, behavior, motivation, pedagogical creativity.

Теоретические и методологические основы социализации детей подросткового возраста

Аннотация. В статье рассматривается разделение философского, педагогического, социологического и социально-психологического направлений исследования социализации, причем социологическое направление связано с усвоением определенных социальных особенностей для включения в систему социальных отношений личности, социально-психологическое направление описывает процесс усвоения социальных норм, культурных ценностей в период онтогенеза в социализации.

Ключевые слова: возрастные характеристики, социализация, личность, социальные отношения, онтогенетическая норма, психологический механизм, социальная норма, законы, имитация, установление, идентичность, детерминизм, поведение, мотивация, педагогическое творчество.

Ijtimoiylashuv masalalarini o'rganishning falsafiy, pedagogik, sotsiologik va ijtimoiy-psixologik yo'nalishlarini ajratish mumkin. Sotsiologik yo'nalish individning ijtimoiylashuvini ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirishish uchun ma'lum bir ijtimoiy xususiyatlarni o'zlashtirish bilan aloqadorlikda, ijtimoiy-psixologik yo'nalish esa, ijtimoiylashuvda ontogenez davrida ijtimoiy me'yor, madaniy qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonida aks etishini ifoda etadi. Ijtimoiylashuv insonning ta'lim, madaniyat, kommunikasiya ta'siri ostida shakllanish jarayoni bo'lib insonlarning bir-birlari bilan muloqotda bo'lishlarini ifodalab, jamiyatning muvafaqqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo'lgan namunali xulq, psixologik mexanizm, ijtimoiy norma va qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonidir. Ijtimoiylashuv jarayoni o'zining xususiyatlariga, tarkibiga, qonuniyatlariga, omillariga, shart-sharoitlariga, boshqarilishiga va ijtimoiylashgan insonda namoyon bo'lishiga ko'ra o'ta murakkab jarayondir.

Yosh va individual o'zgaruvchanlik insoniyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti ta'siri ostida har xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Individning dinamik xususiyatlariga shaxsning ijtimoiy sifatlariga ta'sir etib, uning individual o'zgaruvchanligi omilini kuchaytiradi. Insonning shaxs sifatida tavsiflashning muhim lahvasi, uning dinamik xususiyatlari hisoblanib, jamiyatdagi maqomi (iqtisodiy, siyosiy, xuquqiy, mafkuraviy, ya'ni uning jamiyatda egallagan o'rni) orqali ifodalanadi. Maqom negizida doimiy o'zaro aloqalar tizimi yotadi. Rolning ijtimoiy funksiyasi muayyan maqsadlarga va qadriyatlarga yo'nalganlik shaxsni faollashtiradi. Ijtimoiy maqom, rol, qadriyatga yunalganlik shaxs xususiyatlarining asosini tashkil etadi Insonning shaxs xislatlarini rivojlantiruvchi asosiy shakl - uning jamiyatdagi hayot yo'li va ijtimoiy tarjimai holi hisoblanadi.

O'smirlarda, ularning irodaviy xususiyatlari, xulq-atvorida quyidagilarni shakllantirish lozim:
o'z so'zi va ishini egasi bo'lish;
hozirgi davrda muhim bo'lgan masalalar bilan band qilish;
huquqqa qarshi bo'lmagan, puxta o'ylab chiqilgan maqsadlarni qo'yish.

O'smirlik davrida o'smir hayoti va faoliyatida jiddiy o'zgarishlar ro'y beradi, bu esa o'z navbatida ruhiyatning qayta shakllanishiga, tengdoshlari bilan munosabatlarning yangi shakllari paydo bo'lishiga olib keladi. O'smirning ijtimoiy maqomi o'zgaradi. Unga nisbatan kattalar tomonidan yanada jiddyroq talablar qo'yila boshlaydi. O'smirlik yoshida bolada o'z-o'zini anglashga ehtiyoj paydo bo'ladi.

"Men kimman?"-savoliga javob berish uni tez-tez bezovta qiladi. Unda o'z-o'ziga qiziqish paydo bo'ladi. U yoki bu faktlarga unda shaxsiy qarash, mulohaza yuritish, o'z bahosini berish kabi xususiyatlar shakllanadi. Bu yoshda vaqtinchalik oila va maktabdan psixologik uzoqlashish holatlari bo'lib turadi. Pedagogik yordam o'z ichiga ijtimoiy-pedagogik faoliyatning ikki yo'nalishini oladi: ta'lim olishda va tarbiya olishda yordam. Ta'lim olishda yordam oilada vujudga kelayotgan muammolarni bartaraf etish va ota-onalarning pedagogik-madaniyatini shakllantirishga qaratilgan.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat quyidagi masalalar bo'yicha ota-onalarni har tomonlama o'rganishni ko'zda tutadi:

- ota-onalarning bo'lajak farzandlarini tarbiyalashlari uchun pedagogik va ijtimoiy-biologik tayyorgarligi;
- bolalarda tengdoshlariga nisbatan adekvant munosabatni shakllantirishda ota-onaning o'rni;
- bola tarbiyasida shaxsiy namuna va ota-ona ijtimoiy maqomining ahamiyati;
- oilada turli avlodlarning o'zaro munosabati;
- oilada bolalarga pedagogik va psixologik ta'sir usullari, bolalar va kattalar orasida ijobiy munosabatning shakllanganligi.

Turli soha vakillari tomonidan ko'rib chiqiladigan ijtimoiylashuv xilma-xil (madaniy, axloqiy, xuquqiy, mehnat, psixologik) ko'rinishlarni o'zida aks ettiradi. Ta'lim va tarbiya haqida gap ketganda esa, bu sohadagi ijtimoiylashuv insonning dunyoga kelgan vaqtdan boshlab ijtimoiy belgilangan qadriyatlar, yangidan shakllanuvchi tajribalarni, ya'ni tarbiyalanganlik, ta'lim olganlik, ma'lumotlilik va rivojlanganlik hamda ularning kelgusidagi butun umri mobaynida muttasil o'zgarib borishi jarayoni va yuzaga kelish natijasidir. Bu holda shaxsga ijtimoiy munosabatlarning va pedagogik tizimning subyekt sifatida, tajriba egallashda faollik va mustaqillikni namoyon qiluvchi hamda o'z-o'zini shakllantiruvchi, shu bilan birga o'z hayot yo'li uchun javobgarlikni his etuvchi subyekt sifatida qaraladi.

Quyida shaxs rivojlanishining ijtimoiylashuv bilan bog'liq holatdagi jarayonlarga turli soha vakillari tomonidan berilgan mulohazalarning ayrimlariga to'xtab o'tamiz:

-jamiyatni yaxlitlikda avloddan-avlodga o'tib borish hamda qadriyat va ustanovkalarni o'zlashtirish orqali individual ongning mahsulidir, qadriyat va ustanovkalarni o'zlashtirish barcha ijtimoiy hayotning izohli tamoyilini aks ettiruvchi "taqlid" tushunchasida o'z ifodasini topadi [G.Tard 127,s].

-ijtimoiy organizmning tashkil topishida istes'no tariqasida psixologik asos yotadi. Birgalikdagi o'zaro faoliyat umumiy qadriyatlar tarkib toptiriladigan ishonch va taqlid mexanizmi orqali sodir bo'ladi. Jamiyatning ta'siri ostida individda guruh uy ustanovkalar, identiv anglanganlik tarkib topadi [Amerikalik sosiolog F.Giddings 171,s].

- rivojlanish jarayoni insonga uning ichki sharoitlari orqali tashqi ta'sirlarning sinishi, ya'ni determinizm prinsipiga asoslanadi (S.L.Rubinshteyn);

- shaxsning rivojlanish jarayonlarini faoliyatning muhim xususiyatlari va tuzilishi nuqtai nazaridan o'rganishni o'z ichiga olgan faoliyatli yondashuv yetachilik qiladi (A. N. Leontiyev, D.B. Bogoyavlenskaya, V. D. Shadrikov va boshqalar).

-jamiyatni asosiy funksiyasi biologik ko'payish va yangi avlodni ijtimoiylashtirish yo'li bilan yangilanish bo'yicha ma'lum bir qoidalar tizimi asosida rasional tashkil topish va mavjud bo'lishdir. Jamiyat shaxs ijtimoiy ahamiyatli va nazorat qilinuvchi xulq-atvor motivasiyasining hayotiy sikli

jarayonida rivojlanishi uchun ijtimoiylashuv mexanizmlarni ishlab chiqishi lozim [Amerikalik olim T.Parsons 158,s].

- individ va jamiyatning o'zaro harakati jarayonining asosida insonning ikki xil tabiati yotadi. Bir tomondan, u individuallikni aniqlab beruvchi psixik holatlar majmuidan tashkil topsa, boshqa tomondan o'z ajdodlarining g'oyalari, his-tuyg'ulari va odatlari majmuini ommalashtiruvchi hamdir. Ana shundan kelib chiqqan holda, jamiyatda o'sib kelayotgan avlodni ijtimoiylashtirish maqsadga yo'naltirilgan tavsifga ega bo'lishi lozim [Fransuz sosiologi E.Dyurgeymning 45; 253-b.,s].

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da esa “ijtimoiylashmoq” tushunchasi “ijtimoiy tus olmoq” [215; 178-b.s] ma'nosini anglatilishi ko'rsatilgan. Ijtimoiy tus olish tushunchaning umumiy mohiyatini ochib beradi. Biroq, uni ijtimoiy-falsafiy, pedagogik va psixologik nuqtai nazardan tahlil etilganda tushuncha mazmunini keng, batafsil yoritish taqozo etiladi. Zero, “ijtimoiy tus olish” aynan natijani ifodalashga xizmat qiladi. Shaxsning ijtimoiylashuvida va aynan pedagogik talqinda natijadan avval jarayonning mohiyati, uning kechishini o'rganish, tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

R.S.Nemov esa shaxs ijtimoiylashuvining bevosita ta'lim va tarbiya ta'siri ostida ro'y beruvchi jarayon va natija ekanligiga alohida urg'u beradi: bola tomonidan psixologik-aqliy va shaxsiy rivojlanish xususiyatlariga ko'ra ijtimoiy tajribalarning o'zlashtirilishi, ya'ni ta'lim va tarbiya ta'sirida psixologik funksiyalarining takomillashuvi, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, xulq-atvor me'yor va qoidalarining o'zlashtirilishi, dunyoqarashining boyish jarayoni va natijasi[189; 598-b.s].

Darhaqiqat, shaxsning ijtimoiylashuvida ijtimoiy, psixologik va pedagogik omillarning ta'siri muhim ahamiyatga ega bo'lib, shaxs ijtimoiylashuvida uning psixologik funksiyalari bilan bir qatorda globallashuv sharoitida ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, xulq-atvor me'yor va qoidalarining o'zlashtirilishi, dunyoqarashning boyishi yetakchi o'rin tutadi.

Ijtimoiylashuv – insonning barcha yosh bosqichlaridagi tabiiy, maqsadli yo'naltirilgan hayot sharoitlari bilan o'zaro muvofiqlikda sodir bo'ladigan, madaniyatni egallashi va qayta tatbiq etishi jarayonidagi rivojlanishi va o'z-o'zini o'zgartirib borishidir. Mazkur jarayonda pedagogning eng asosiy vazifasi – insonning mustaqil fikrli, jamiyatdagi o'z o'rnini va shaxsiy orzu-intilishlari yo'nalishini anglaydigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni saqlash va mustahkamlashga qodir shaxs bo'lib yetishishiga erishishdan iboratdir. Ushbu holatda, pedagogik faoliyat esa muhim bunyodkor ijtimoiy vazifani bajaradi: bu jarayonda nafaqat yaxlitlikda shaxs shakllanadi, balki mamlakatning kelajagi aniqlanadi, uning madaniy va ishlab chiqarish salohiyati ta'minlanadi. Pedagogik maqsadlarining ko'p qirraliligini, faqat bugungi kun uchun shaxs va jamiyat ehtiyojlarini qondirishnigina emas, balki kelajak uchun yo'naltirilganligini, yosh mutaxassislarni ijtimoiy hayot va kasbiy faoliyatga moslashuvini ta'minlab berishi lozim. Ta'lim va tarbiyaning vazifasi esa insonga fikrlovchi shaxs va fuqaro sifatida jamiyatdagi o'z o'rnini va xulq-atvorini, o'z istak-maqsadlarini yo'nalishini anglaydigan mukammal shaxs bo'lishiga yo'l ko'rsatishdir.

Ma'lumki, ijtimoiylashuv shaxsning jamiyatdagi qadriyatlarni qabul qilishi va zaruriy darajada ijtimoiy, fuqaroviy va shaxsiy yetuklikka erishishi asosida jamiyatga kirib borishidir[169; 43-b.s]. Shaxsning ijtimoiylashuvi esa, inson o'zini jamiyatda shaxs sifatida anglab borishi jarayonidir. Bu tarbiya, ta'lim, o'zini-o'zi tarbiyalash jarayonida yuzaga kelib, inson qachonki, o'z maqsadlarini mustaqil aniqlay olsa va ularga erishish yo'llarini belgilay olganida, o'z qadr-qimmatini anglab yetganida, jamiyatdagi o'z o'rniga ishonch hosil qilgan taqdirda amalga oshadi. Boshqacha aytganda, shaxsning ijtimoiylashuvi – ta'lim-tarbiya ta'sirida inson psixologik funksiyalarining takomillashuvi, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, xulq-atvor me'yor va qoidalarining o'zlashtirilishi, dunyoqarashining boyish jarayoni va natijasidir.

Professor N.Egamberdiyevaning fikricha, ijtimoiylashuv va kasbiy yetuklik jarayonlari kasbiy ta'limni bir vaqtning o'zida ham shaxsning individual rivojlanishi, uning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, ham o'quvchining shaxsiy va kasbiy nuqtai nazarini shakllanishiga yo'naltirilgan bo'lishini talab qiladi. Ushbu jarayonlarning muvafaqqiyati quyidagi ikkita shartni amalga oshirishni talab etadi: o'quvchilarni faol ijtimoiy va kasbiy munosabatlarga jalb etish; birgalikdagi samarali ijtimoiy va kasbiy faoliyat jarayonida shaxsning o'z-o'zini to'la namoyon eta olishiga imkoniyat yaratish[147; 127-b.s].

Ijtimoiylashtirish axloqiy tarbiyaning tashkiliy jihati sifatida individual xususiyatlar, qadriyatlar, shuningdek, ijtimoiy sharoitlarni idrok etish va qayta yaratish hamda ongli ravishda yo'naltiriladigan tarbiya birligi sifatida namoyon bo'ladi. Bu kabi yondashuvda yoshlarning o'z-o'zini namoyon eta olishi ularni ijtimoiylashtirishning, tashabbuskorligini uyg'otishning tobora samarali vositasi, o'z-o'zini rivojlantirish usuli sifatida katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda tashkillash va o'z-o'zini tashkillash mexanizmlari o'zaro bir-birini to'ldiradi. Ijtimoiylashtirish shuningdek, axloqiy va ijtimoiy omillar bilan bog'liqlikda olib boriladi. Bu borada yosh olim Z.Saliyeva qator ilmiy izlanishlarni olib borgan va o'zining “Pedagogika oliy ta'lim muassasalari o'quvchilarining ma'naviy madaniyatini

rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish” deb nomlangan doktorlik dissertasiyasida ma’naviy madaniyat asosida bo’lajak o’qituvchilarni ijtimoiylashtirish tizimini taklif etgan. Mazkur tizim asosiy tushunchalar, tamoyillar, ma’naviy madaniyat va kasbiy sifatleri, metodlari, mezonlari kabi komponentlardan tashkil topgan[112; 97-b.s].

Olima S. Zohidova tomonidan ijtimoiylashuvning alohida yo’nalishi sifatida kasbiy ijtimoiylashtirishga doir turli yondashuvlarni tahlil etish asosida bo’lajak o’qituvchilarni ijtimoiylashtirishni yaxlit tizim sifatida talqin qilinadi va har tomonlama chuqur o’rganish lozim, degan xulosaga kelinadi. U tomonidan bo’lajak o’qituvchilarni kasbiy ijtimoiylashtirish mexanizmlari alohida ko’rsatib o’tiladi va bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining kasbiy ijtimoiylashtirishning psixologik asoslarini xususan autopsixologik kompetentlik asoslarini kreativ qobiliyatlar tashkil etishiga alohida to’xtab o’tadi.

Adabiyotlar

1. Рубинштейн, С. Л. Принцип творческой самодеятельности: // Вопросы психологии. – № 4. – 1986. – С. 101-107.
2. Леонтьев А. Н. Становление психологии деятельности // Серия: Живая классика. – М.: Смысл, 2003. – 440 с.
3. Богдаженская Д. Б., Шадриков, В. Д. Рабочая концепция одарённости /– М.: ИЧП «Издательство Магистр», 1998. – 68 с.

UDK: 791.3:796.4

MECHANISMS FOR IMPROVING PRIMARY GYMNASTICS IN INCREASING THE PHYSICAL ACTIVITY OF CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATION

G. Kh.Kholboyeva

Samarkand state university
gulhayoxolboyevna@gmail.com

Abstract. In this article, a research work on the increase in children's movement activity and physical development in preschool education institutions through rhythmic exercise based on preliminary gymnastic exercises is covered.

Keywords: Children 6-7 years old, primary gymnastics, rhythmic exercises, physical education, physical activity, physical training, physical quality.

Механизмы совершенствования повышения физической активности детей в дошкольном образовании

Аннотация. В данной статье освещается научно-исследовательская работа по повышению двигательной активности и физического развития детей в дошкольных образовательных учреждениях с помощью ритмических упражнений, основанных на предварительных гимнастических упражнениях.

Ключевые слова: дети 6-7 лет, начальная гимнастика, ритмические упражнения, педагогический опыт, двигательная активность, физические упражнения, физические качества.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalarning jismoniy faolligini oshirishda dastlabki gimnastika mashg'ulotlarini takomillashtirish mexanizmlari

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalarning harakat faolligi va jismoniy rivojlanishini dastlabki gimnastika asoslangan ritmik mashqlar vositasida takomillashtirish bo'yicha tadqiqot ishlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: 6-7 yoshli bolalar, dastlabki gimnastika, ritmik mashqlar, jismoniy tarbiya, harakat faollik, jismoniy mashg'ulot, jismoniy sifat.

Introduction. In preschool education, the development of the child's physical development and active movement, a scientific approach to the development of the content and methods of the process of physical development, physical fitness, endurance, the formation of interest in sports from childhood, It is necessary to address important issues related to independent thinking, physical education and sports and taking the first steps in sports. One of the most important and urgent requirements in this area is the promotion of active movement, prevention of inactivity, children's health, among other important issues,

such as the timely identification and timely elimination of factors that hinder the harmonious physical development of children.[3,4,8]

Purpose of the study: It consists in the development of an improved methodological program, consisting of a set of rhythmic exercises based on the initial Gymnastics, which is used in the physical education process of preschool organizations to increase the activity of children.

Objectives of the study:

- The study consists of studying the mechanisms of determining the level of development of physical activity in preschool children aged 6-7 years.

Improving the use of rhythmic exercises based on the primary Gymnastics, taking into account the age characteristics of children aged 6-7 years.

- Creation of generalized educational-methodical complexes on improvement of physical fitness, physical activity, activity of preschool children.

- Implementation of a special selection of Science in the curriculum of the direction of preschool education on improvement of the initial gymnastic exercises on the development of physical training indicators of preschool children.

Object of research. The process of physical education of children in preschool education.

The subject of the study: the process of applying a set of rhythmic exercises based on primary gymnastics to increase physical activity, physical fitness in the process of physical education in preschool children.

Research methods: literature review, questionnaire, anthropometry, somatoscopy, pedagogical test, pedagogical experiment, pedagogical observations, timing, shagometry, spirometry, pulsometry, mathematical and statistical methods. Tadqiqot natijasi va uning muhokamasi. The experimental program of gymnastics was a set of rhythmic exercises in various directions, consisting of exercises selected on the basis of analysis of scientific and methodological literature and data obtained in accordance with the age characteristics of preschool children. The sequence of exercises in the complex corresponded to the generally accepted three-part structure.[5,7]

The experimental-testing program is aimed at solving the main problems of physical education of preschool children.

In the bases of preschool education organizations, a comparative pedagogical experiment was conducted to determine and test the effectiveness of the experimental-test program methodology for improving the activity of children of preschool age with gymnastic-based exercises.[6,8]

The experiment was attended by children from pre-school educational organizations. Children aged 6-7 years consist of 120 people. (60 child experience-test group, 60 child-control group). All children underwent a preliminary medical examination and participated in training in the main group.

At the beginning of the experiment, a comparative analysis of the physical development and physical training of children of Experimental-Test and control groups was carried out. Somatoscopic control of children in experimental-test and control groups it was found that the majority of preschool-aged children in both groups have a tendency to various musculoskeletal disorders (17.5% in the control group, 16.5% in the experimental-test group).

Experience-a comparative analysis of the physical development indicators of children in the test and control groups showed that there are no significant differences between them (Table 16).

A comparative analysis of the indicators of physical training of children in the experimental-test and control groups showed that no significant differences were observed between them in the results of all motion tests, except for cases of forward bending.

On the basis of a program consisting of a complex of gymnastic-based exercises in the experimental-test groups of physical education classes of preschool children, 30-minute classes were conducted three times a week for six months.

Those in the control group during this time were engaged in a traditional physical education program for the Organization of preschool education (the duration and time of training are similar).


The motor intensity of physical education training in the experimental group was from 60-65% to 75-87%, lower in the control group and 50-68%, depending on the type of tasks and activities.

The experiment was carried out in the test group with the method of controlling the load during the training session on the methodology, as well as the method of controlling the heart rate.

The effectiveness of the proposed method was assessed by comparing the indicators of physical development and physical training, as well as data on the dynamics of incidence at the beginning and after the experiment of children of the experimental-test and control groups.

Review the results of the experiment. 1. After the experiment, the results of somatoscopic examination of children in the experimental and control groups showed that the number of children with a predisposition to diseases of the musculoskeletal system in the control group decreased from 17.5% to 14.5%, and in the experimental group from 16.5% to 10.5% (figure 20).

Before the beginning of the experiment, the children of the test and control groups did not differ significantly in the indicators of physical development and the results of physical training (tables 1).



1-picture. Analysis of children who have a predisposition to diseases of the musculoskeletal system in children in control and experimental groups at the beginning and end of the experiment.

1-table.

Preschool group (6-7) age control (according to the traditional program) and dynamics of change during pedagogical research in experimental (Experimental program) groups (n = 60).

Test	guruh	Tajrib boshi			Tajriba oxiri			Absol yut farqi	Nisbiy farqi, %	t_{cr}	P
		$\bar{X}$	σ	V, %	$\bar{X}$	σ	V, %				
Shuttle running, sm	CG	11,15	1,43	12,83	10,81	0,91	8,42	-0,34	-3,05	1,55	>0,05
	EG	11,22	1,45	12,92	10,63	0,9	8,47	-0,59	-5,26	2,68	<0,01
Jump from place to length sm.	CG	101,95	12,56	12,32	106,33	10,9	10,25	4,38	4,30	2,04	<0,05
	EG	103,27	12,73	12,33	110,61	11,16	10,09	7,34	7,11	3,36	<0,001
Twisting and writing the mass.	CG	10,12	7,41	10,41	10,32	0,84	11,33	6,23	4,37	2,14	>0,05
	EG	10,15	8,35	11,3	13,45	0,98	13,54	6,85	7,13	4,52	<0,01
Bend forward.	CG	2,59	0,51	19,69	2,73	0,46	16,85	0,14	5,41	1,58	>0,05
	EG	2,65	0,52	19,62	4,61	0,45	15,63	0,23	8,68	2,59	<0,01
At a distance of 10 m, crawl.	CG	7,61	0,98	12,88	7,29	0,93	12,76	-0,32	-4,20	1,83	<0,05
	EG	7,65	0,99	12,94	7,01	0,84	11,65	-0,44	-5,75	2,63	<0,01

During the experiment, an analysis of the action activity indicators of children of test and control groups (n = 60).


Note: TG – experience-test group; NG - control group.

After the experiment, a unilateral reliable change in physical development indicators was observed in both groups (Figure 2). Thus, the increased load did not have a negative effect on the children's organism.

The complex tools and methods used in the experimental-testing program of exercises based on gymnastic elements were suitable for the capabilities of the organism of children of a certain age (this is also confirmed by the results of pedagogical observations and pulsometry data).

A comparative analysis of the indicators that characterize the physical training of children in the control group showed that no significant changes were observed in the results of any control exercises at the beginning and after the experiment (Table 1).

This is because the classes in the traditional physical education program for a preschool institution are mainly aimed at developing certain amount of mobility skills and do not contribute to the development of physical training.



2-picture. Experience during the experiment-the dynamics of relative growth of the action activity indicators of children in the test and control groups (% , n = 60).


The results of pedagogical observations showed that rhythmic exercises in the experimental-testing program, based on the elements of gymnastics, help to form a constant interest in the process of performing physical exercises in children.

This is also confirmed by the results of a survey conducted with the children of the experimental-testing group after the experiment. After the experiment, the children began to prefer physical education classes during their stay in the pre-school educational organization, put the first or second place as a favorite activity choice.

Pulsometry data showed that when the training was conducted on an experimental basis, the load on all parts of the training was consistent with the recommendations of the "primary step" program and state requirements for the age of the children. Analysis of the dynamics of heart rate in the training of Experimental-Test and control groups, showed a more positive educational effect on the children's body compared to the training in the control group of physical exercises in the experimental-test group (Figure 3). Thus, pulsometry data confirm the effectiveness of the experimental-test method.

The study of data on the dynamics of the disease showed that at the beginning of the experiment, the control of children was 18,4% in the group, and the experiment was 17,9% in the group.

Thus, in the process of pedagogical experiment, the hypothesis put forward at the beginning of the study was fully confirmed.



3-picture. Control and experience dynamics of heart rate in physical education training in groups.

The use of the initial gymnastic-based program in the practice of physical education of preschool children, taking into account the age characteristics of preschool children, allowed to increase the effectiveness of the physical education process and positively affected the dynamics of the health and physical condition of children.

In conclusion, compared to the traditional physical education program, the experimental program included the motor intensity of training (75-87 %) and the load shiddati (the heart rate in the main part was from 87 to 187 beats per minute);

-selection of means and methods of physical education was taken into account the age characteristics of children aged 6-7 years.

-A good and statistically reliable positive change in the results of the experimental group in relation to the results shown by the children in the control group carried out pedagogical experience proves the effectiveness of experimental methods for the development of children's Mobility Activity and physical quality.

Changes in statistical reliability ($p < 0.05$ and higher) of test results were found:

- Shuttle running - from 11.22 s to 10.61 s;

-Jump from standing to length - from 103,27 CM to 110,61 sm;

-Twisting the mass from 13.11 to 26.05.

-10 meters of crawl space-from 7,65 to 7,01 seconds;

-Forward bending-increased from 2,65 CM to 4,61 sm.

The implementation of the program, which was first developed on gymnastics, helped reduce the incidence of preschool children by an average of 12,5 percent.

The use of the initial form of gymnastics is an effective means of harnessing the interest of preschool children in physical exercises (84 percent of children preferred to put physical education classes in the first or second place during their time in preschool organizations).

References

1. Xolboyeva G.X. Haydarov B.T. Tojiev X.B. Methodology of the improvement of preliminary gymnastic disciplines in increasing activity of preschool age children (case of Uzbekistan). //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. 2020-№6 ISSN:1475-7192 **Scopus**. DOI: 2009-2011, 2013-2020.B 4562-4569.
2. Gulhayo Xolboyevna, Nazarova Dilnoza, "5-7 yoshlar uchun gimnastikada jismoniy sifatlarni rivojlantirish metodlari", Journalnx - Multidisciplinary Peer review journal, 6-tom, 6-son, 74-son, 24-son, 25-son: 25-sahifa:
3. Haydarov B.T., Ibroimova G.X. Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish // SamDU ilmiy axborotnomasi, 2019 yil 2-son. ISSN 2091-5446. B.126-129.
4. Xolboyeva G.X. Maktabgacha yoshdagi bolalar harakat faolligini oshirishda dastlabki gimnastika mashg'ulotlarini takomillashtirish mexanizmlari // SamDU ilmiy axborotnomasi. 2019-yil, 6-son. 2091-5446. B.140-144.
5. Xolboyeva G.X. Methods of development of physical qualities in gymnastics for 5-7 years old". // Novateur publications JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No: 2581 – 4230 Volume 6, issue 6, june -2020 B.743-747.
6. Xolboyeva G.X. Nazarova D. Dastlabki gimnastika mashg'ulotlari asosida 5-6 yoshli bolalarning harakat faolligini oshirish mexanizmlari. // "Fan sportga" ilmiy nazariy jurnal. 2020 yil 6-son. ISSN.2181-7804. B.72-75.
7. Haydarov B.T., Xolboyeva G.X., J.J. Kazimov., Maktabgacha ta'lim jismoniy tarbiya nazariyasi. // O'quv-qo'llanma. Samarqand. SamDU nashri, 2020.-310 bet.
8. Haydarov B.T., Eshtayev A.K., Xolboyeva G.X., Maktabgacha ta'lim muassasalariga gimnastika mashg'ulotlarini tashkil etish usullari. // O'quv-uslubiy qo'llanma S. SamDU 2018. 128-bet.
9. Haydarov B.T., Ergashev J E., Xolboyeva G.X., Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning jismoniy va fiziologik xususiyatlari. // O'quv-uslubiy qo'llanma 2019 S. SamDU nashri.

UDK: 37.1

KIMYO DARSLARINING SIFAT VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNING O'RNI

X. N. Xasanova

Navoiy viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'shliqlarni bartaraf etish uchun qo'llash mumkin bo'lgan didaktik materiallardan namunalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: metodika, didaktika, pedagogika, kichik guruh, dars, o'qitish, ta'lim, tarbiya.

Роль дидактических игр в улучшении качества и эффективности занятий по химии

Аннотация. В статье приведены примеры дидактических материалов, которые могут быть использованы для устранения пробелов.

Ключевые слова: методология, дидактика, педагогика, небольшая группа, урок, обучение, образование, обучение, преподавание.

Role of didactic games on the improvement of a quality and an effect of chemistry classes

Abstract. The article provides examples of didactic materials that can be used to eradicate gaps.

Keywords: methodology, didactics, pedagogy, small group, lesson, teaching, education, training.


Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnologiyaning rivojlanishi, yosh avlodning o'zgaruvchan dunyoda raqobatbardosh bo'lishi yoshlarimizdan fanlarni mukammal bilishni taqozo etadi. Mamlakatimiz yoshlarining ma'naviyatini shakllantirish va qaror toptirishda, ularni kasbga yo'naltirishda xalq ta'limi tizimining ahamiyati salmoqlidir. Shuning uchun umumta'lim fanlari mazmuni milliy mafkura, umuminsoniy qadriyatlar va boy o'tmish merosimizga asoslangan bo'lishi, shuningdek, bozor iqtisodiyoti sharoitida yuzaga kelgan davlat va milliy ehtiyojlarni qondirishga qaratilmog'i lozim. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim jarayonini sifatli tarzda tashkil qilish va mamlakatimizning kelajakda rivojlanishning eng yuqori cho'qqilariga erishishiga xizmat qiladigan yuqori intellektual salohiyatga ega yosh avlodni tarbiyalash uchun sinf jamoasining o'rganilayotgan fanlarga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish – ta'limning o'z oldiga qo'ygan eng asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Zamonaviy o'qituvchi o'quvchilar uchun "Asosiy bilim manbai" bo'lishni to'xtatdi, endi ular ommaviy axborot vositalari va internet tarmog'i orqali biror-bir ma'lumotni izlashlari va kunning istalgan vaqtida o'zlarini qiziqitirgan savolga javob olishlari mumkin. Biroq hanuzgacha o'quvchini dars jarayoniga jalb qilishda o'qituvchining o'rni muhimligicha qolmoqda, zero mavzuning mazmunini o'rganishdan tashqari, u sinfdagi o'quvchilar orasida kommunikativ aloqa va o'zaro hamkorlikni ta'minlashi, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga qarab o'qitish usulini o'zgartira olishi va shu orqali dars jarayonini samarali boshqara olishi mumkin bo'ladi. Uzoq vaqt davomida bitiruvchilarning malakasi uchta savol bilan belgilandi:

1. Qayerda o'qidingiz?
2. Qancha vaqt davomida o'qidingiz?
3. Siz nimani o'rgandingiz?

Ammo bugungi kunda bilimga asoslangan ta'lim tushunchasi biroz eskirgan tushuncha bo'lib qoldi. Endilikda mutaxassisning aqliy va kasbiy salohiyati uning qayerda va qancha vaqt o'qiganligi bilan emas, balki ta'lim jarayoni yakunida ma'lumotlarni qanchalik o'zlashtirganligi va olgan bilimlarini qay darajada amalda qo'llay olishi bilan belgilanadi. Kreativ fikrlaydigan avlodni tarbiyalashda ma'lumotni o'rganish va talqin qilish qobiliyatini egallash yetarli emas, ularni yangi bilimlarga aylantirish va hayotda qo'llay olishlari muhimdir. Zamonaviy rivojlangan muhit bizni yangi sifatda qayta tarbiyalamoqda: insonni eng yuksak qadriyat deb tan olib, uning taqdiri, boshqalarning taqdiri, shaxsning ongini o'zgartirish, har bir olayotgan axborotini tabiat, jamiyat va o'z-o'ziga bo'lgan munosabati orqali idrok etishi olinayotgan bilimlarning ahamiyati va xotirada qolish jarayonida muhim omil sanaladi. Bularning barchasi nafaqat ta'limning mazmuni va shakllarini qayta ko'rib chiqishni, balki ushbu sohada ko'plab qadriyatlardan voz kechishni, ularni zamonga va kishilarning yangicha dunyoqarashiga moslashtirishni taqozo etmoqda.

Umumta'lim maktablarida o'qitilayotgan fanlar orasida kimyo fani anchayin murakkab sanalgan, o'quvchilar olgan bilimlarini amaliyotda va kelajak hayotlarida tadbiiq qilishlari uchun yetarlicha nazariy bilimga ega bo'lishlari zarur hisoblangan fanlar sirasiga kiradigan fandir. Kimyo darslarini sifatli tarzda tashkil qilishda har bir o'quvchining darsdagi yutuqlarini namoyish qilish, kerak bo'lganda o'quvchini maqtash orqali rag'batlantirish, biroz xafa bo'lsada, unga o'z vaqtida bilimlaridagi bo'shliqlarini bildirish va to'ldirishga imkon berish, dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi orasida qulay psixologik muhitning yaratilishini ta'minlash muhimdir. O'quvchilarni kimyo darslariga qiziqishini oshiradigan ko'plab zamonaviy o'qitish usullari bo'lib, ulardan yetarlicha xabardor bo'lgan o'qituvchining darsi muvaffaqiyatli va qiziqarli bo'ladi. O'quvchilar kimyo darslarida olgan bilimlarini kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida va kundalik hayotlarida qay darajada zarur bo'lishini anglab yetsalar, ushbu bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ishtiyoqlari yanada ortadi. Darsda o'quvchilarning ham aqliy, ham jismoniy faol bo'lishlariga yordam bera oladigan didaktik o'yinli texnologiyalardan foydalanish esa ularning o'qishga bo'lgan ishtiyoqini va motivatsiyani oshirishga yordam beradi. Kimyo darslarida belgilangan vaqtning samarali sarflash uchun mavzudan kelib chiqqan holda didaktik o'yinlardan o'tilgan va yangi mavzuni mustahkamlash, mavzuni tushuntirish qismlarida qo'llash mumkin. Aynan mavzuga mos bo'lgan, o'quvchilar yoshiga mos keladigan

o'yinlarni tanlash va qo'llash orqali ijobiy natijalarga erishish o'qituvchining mahoratiga bog'liq bo'ladi. O'quv jarayonida foydalaniladigan didaktik o'yinlar sinfda guruh a'zolari yoki individual ishtirokchilar o'rtasidagi raqobatni rivojlantirishga va bu orqali darsga bo'lgan qiziqishni oshirishga yordam beradi. Didaktik o'yinli metodni guruhlarga bo'lgan holda amalga oshirish va buning natijasida o'yin ishtirokchilari orasida yuzaga kelgan sog'lom raqobat ularda liderlik qobiliyati, muammoning yechimini topishda eng samarali usulni tanlash, yechimlar orasidan eng samaralisini tanlash imkonini beradi.



1-rasm. Didaktik o'yinlardan foydalanishning samaradorligi

Kimyo darslarida didaktik o'yinlarni qo'llashning bosqichlari sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin bo'ladi:

1. Didaktik o'yinga tayyorgarlik bosqichi;
2. Didaktik o'yinni amalga oshirish jarayoni;
3. Didaktik o'yinning natijalarini sarhisob qilish.

Quyida kimyo darslarida o'qituvchilar qo'llashlari mumkin bo'lgan bir nechta qiziqarli didaktik o'yinlardan namunalar keltiramiz:

“Bo'shliqni to'ldiring” usuli. 1-ko'rinish. Ushbu usul kimyo faniga kimyoviy jarayonni kimyoviy formulalar yordamida ifodalay olish, kimyoviy formulalarni va reaksiya tenglamalarini yoza olish, ularni tenglashtira olish ko'nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu metodni bajarish uchun turli xil tarqatmalardan foydalanish, yoki o'quvchilarga uni elektron doskada namoyish qilib berish yaxshi samara beradi.

- a) $\text{Ca} + ? = \text{CaBr}_2 + ?$;
- b) $\text{SO}_2 + ? = \text{K}_2\text{SO}_3$;
- c) $? + \text{H}_2\text{SO}_4 = \text{BaSO}_4 + ?$;
- d) $\text{NaOH} + ? = \text{Na}_2\text{SO}_4 + ?$;
- e) $\text{Al}(\text{OH})_3 = ? + ?$;
- f) $\text{Zn} + ? = \text{ZnCl}_2 + ?$

2-rasm. “Bo'shliqni toping” metodining 1-ko'rinishining fodalanihi.

2-ko'rinish. Bu metod o'quvchilar kimyo fanidan zaruriy atamalar va ularning ta'riflari orasidagi bog'liqlikni qay darajada tushunishlarini aniqlashtirish uchun foydalanish mumkin bo'ladigan metod sanaladi.

1. *Kimyoviy reaksiyani tezlashtiradigan moddalarga... deyiladi.*
2. *Kimyoviy formula-...*
3. *Ekvivalent-...*
4. *Molekula-...*
5. *Valentlik-...*

3-rasm. “Bo'shliqni to'ldiring” metodining 2-ko'rinishi.

3-ko'rinish. Bu ko'rinishda bir qancha raqamlar berilgan bo'ladi. O'quvchilar ana shu raqamlarni aynan qanday kimyoviy tushuncha bilan bog'liqligini yozishlari lozim bo'ladi.

1	⇒	(Vodorod elementining tartib raqami).
2	⇒	(Kislorodning ikki xil allotropik shakl o'zgarishi).
3	⇒	(Asoslarning turlari).
4	⇒	(Murakkab moddalarning eng muhim sinflari).

O'z faoliyati davomida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan darslarida tizimli ravishda foydalanib boradigan o'qituvchi quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladi:

- Har bir dars jarayoni uchun diqqat bilan o'ylangan darsning modelini yaratish ko'nikmasi shakllanadi;
- kimyo fanini o'qitish usullarini va jarayonda foydalanish mumkin bo'lgan vositalarni aniq biladi;
- o'z darslarida yangiliklarni qo'llay oladi, kreativ fikrga ega bo'ladi, o'quvchilarining ham kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi;
- o'ziga ishonadi va natijada o'ziga bo'lgan ishonchi mustahkam bo'lgan avlodni tarbiyalaydi.

Dunyo miqyosida ta'lim jarayonida o'z mutaxassisligi yuzasidan bo'layotgan yangiliklardan doimiy ravishda xabardor bo'lib yurish, kasbiy kompetentligini rivojlantirib borishi natijasida zamonaviy talablarga to'la mos keladigan dars jarayonini tashkillashtirishga imkon beradi.

Adabiyotlar

1. Gabrielyan O.S. Teoriya i metodika obucheniya ximii. - Moskva: (Akademiya), 2009.136 str.
2. Ismatov I. , Azamatova D. Kimyo fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar, ma'ruzalar matni.Toshkent: 2018 - 139 b.
3. Lednev V.S. Uchebnie standarti shkol Rossii.-M.:(Prometey), 1998. 379 s.
4. Novoshinskiy I.I., Novoshinskaya N.S. Uchebnik 9 klass. M.:2012.-256 b.
5. Gabrielyan O.S., Maskaev F.N., Ponomoryov S.Yu., Terepin V.I. Uchebnik 10 klass. Moskva:(Drofa), 2002 - 152 b.
6. Chemistry. Part 2. Textbook for class 11 - 2018. 172 p.

UDK: 37/022

TALABALARNI BADIY QADRIYATLARGA BO'LGAN ESTETIK EHTIYOJ OMILI SIFATIDA FAOLLASHTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

S. T. Yuldasheva

*Samarqand davlat chet tillar instituti
yuldashevasaida68@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada estetik ehtiyoj omili sifatida talabalarning badiiy qadriyatlarga qiziqishlarini faollashtirish jarayoni (estetika asoslarini "san'at, "tasviriy san'at badiiy qadriyatlarini" so'zlarini o'rganishda) ilmiy asoslangan tizimni, uning tuzilishi – mazmunli asoslangan bosqichli tizimini talab etadi va uslubi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: qadriyat, ta'lim-tarbiya, ilm-fan, estetik mezon, dunyoqarash, go'zallik, badiiy adabiyot, intellekt

Педагогические основы активизации учащихся как фактор эстетической потребности в художественных ценностях

Аннотация. В статье рассматривается процесс активизации интереса студентов к художественным ценностям как фактору эстетической потребности (при изучении основ эстетики слова «искусство, художественные ценности») необходима научная система, ее структура - значимая система и стиль.

Ключевые слова: ценность, образование, наука, эстетические критерии, мировоззрение, красота, фантастика, интеллект.

Pedagogical bases of activating students as a factor of aesthetic need for artistic values

Abstract. The article examines the process of activating students' interest in artistic values as a factor of aesthetic need (when studying the foundations of aesthetics of the word "art, artistic values"), a scientific system is needed, its structure is a significant system and style.

Keywords: value, education, science, aesthetic criteria, worldview, beauty, fantasy, intelligence.

Badiiy madaniyat shaxs kamol topishining barcha bosqichlarida falsafiy, axloqiy, estetik g'oyalarni uning qalbi va ongiga singdirishda, yuksak insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda muhim ruhiy-emotsional omil bo'lib xizmat qiladi. Respublikamizda barpo etilayotgan erkin fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlatning faoliyati barcha sohalar rivojlanishini uyg'unlashtirish, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayot yaxlitligini ta'minlashda ko'zga tashlanadi. Jamiyat bilan shaxs madaniyati, ularning o'zaro dialektik aloqadorligini qaror toptirish islohotlarni ma'naviy mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ma'naviyatga asoslangan bozor munosabatlariga o'tish sharoitida shaxsning madaniy ehtiyojlarini qondirishda yangi ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-estetik tamoyillar yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, badiiy faoliyat sohalarini moddiy-texnikaviy bazasini mustahkamlashga, zamon talablariga mos jihozlashga alohida ahamiyat berilmoqda. Zero, mustaqillik sharoitida insonning o'z qobiliyati, iqtidori, iste'dodi va umuman erkin badiiy ijodiy faoliyatini rivoj toptirish uchun etarli ob'ektiv va sub'ektiv sharoitlar yuzaga kelmoqda. Shuningdek, har bir davr shaxsni o'zining ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy va madaniy manfaatlaridan kelib chiqib, muayyan bilimlar, tamoyil va xulq-atvor qoidalarini asosida tarbiyalaydi. Bu narsa milliy taraqqiyotning o'ziga xos yo'lidan borayotgan O'zbekiston uchun o'ta muhim. Badiiy madaniyat sohasi shundayki, unda birgina estetik madaniyat emas, balki axloqiy, bilish, tashkilotchilik madaniyati elementlari ham ishtirok etadi. Bundan tashqari, badiiy madaniyat sohasida yana ijodiy mehnat, badiiy qadriyatlarni o'zlashtirish madaniyatiga xos bo'lgan jihatlar ham ifodalanadi.

Badiiy adabiyot, rang tasvir san'ati, musiqa va boshqalarda insonning nafaqat estetik, shu bilan birga gnoseologik, tashkilotchilik ehtiyojlari va qobiliyatlari ham ishtirok etadi. Xalq mulkiga aylangan ijtimoiy-badiiy hodisa sifatidagi estetik madaniyat negizini badiiy madaniyat tashkil etadi. Binobarin, badiiy madaniyat bu - estetik qadriyatlarning oliy shaklini gavdalanitiradigan badiiy qadriyatlar sohasidir. Faoliyat qonuniyatlari va o'ziga xos rivojlanish shakllariga ega bo'lishi tarafidan estetik madaniyat badiiy madaniyatdan farq qiladi. U san'at, shuningdek, estetik qarash, did va manfaatlar, nafosat tarbiyasi amaliyoti talabidan kelib chiqib, tabiiy muhit, turmush, ijtimoiy munosabatlarni o'zlashtirish jarayonida shakllanadi. Ko'rinadiki, estetik madaniyat nafaqat badiiy, shu bilan birga, mehnat faoliyati, turmush, tashqi olamga hissiy-emotsional munosabatda bo'lishni ham qamrab olishi bilan keng ma'noga egadir. Shunga muvofiq, mazmunan va hajman «estetik madaniyat» va «badiiy madaniyat» tushunchalari bir-biridan farqlanadi. Ular bir-biridan faoliyat turlari tariqasida ham tafovut qilib, jamiyat haetida turlicha rol o'ynaydi. Buni biz badiiy va estetik qadriyatlarni o'zaro taqqoslanganda ko'rishimiz mumkin.

Badiiy qadriyatlar hamma vaqt ijodiy faoliyatning konkret mahsuli-san'at asarlari yaratilishi, taqsimlanishi va o'zlashtirilishiga asoslanadi, estetik qadriyatlar esa mohiyatan umumiyroq bo'lib, tabiat narsa-hodisalari e'la rang-barang mehnat mahsulotlaridan hissiy ta'sirlanishda, ehtiyojlarni qondirishda o'ziga xoslik bilan ajralib turadi. Shunday qilib, «estetik madaniyat» va «badiiy madaniyat» tushunchalarini qiyosiy tahlil etish, bir tomondan, ularning sohalarini chegaralab olishga, ikkinchi tomondan, jamiyat ma'naviy hayotini rivojlantirishda o'ziga xos o'rnini belgilashga imkon beradi.

Muammoni hal etish maqsadida pedagogik jarayonda psixologik jihatlarni ko'rib chiqish shundan dalolat beradiki, psixologik talqin qilish talabalarning psixologik xarakteristikasi – ushbu tadqiqotda muhim hisoblangan yoshi, shu jumladan individual-tipologik xususiyatlarini ajratib ko'rsatish muhimdir.

Zamonaviy psixologik fanda shaxsni talqin qilish quyidagidan iborat: «Individning tizimli sifatleri shakllanadigan, shaxsni o'zgarishi va tashkil topishi sodir bo'ladigan ijtimoiy munosabatlar va ongli faoliyat jarayoni sub'ekti» [6].

Tadqiqot doirasidagi tahlillar natijasida shaxsning faolligi - ahamiyatli ish bajarishga qobiliyati. Masalan, ma'naviy sohada, ijodiyotda, munosabatlarda ekani aniqlandi.

Uning integral xarakteristikasi: faol hayotiy pozitsiyasi nuqtai nazari, prinsipiialligi, izchilligi (qarashlari, so'zi, ishi).

Faol shaxs deganda aniq maqsadli, motivatsiyali, maqsadga yo'nalgan qiziqishlari, ishonchi, ehtiyojlari va shu kabilar asosidagi ongi, xulqi, munosabati majmuasi tushuniladi.

V.Karimova fikricha, «...shaxs – sub'ektning individualligini ko'rsatuvchi, uning sifatleri va motivlari, intilishlari, qiziqishlari, ko'rsatmalari, ehtiyoji, didi, ideali, xarakteri, temperamenti, qobiliyatlari va shu kabilarning – ularning ijtimoiy aloqalarda ishtiroki hisoblanadi» [7].

Talabalarning badiiy qadriyatlarga qiziqishlarini faollashtirish – o‘quvchi yoshlarning shaxsini shakllantirish va rivojlantirishda markaziy vazifalardan biri hisoblanadi. Talaba yoshlarning badiiy qiziqishlari turli-tuman bo‘lishi, estetik boy dunyoqarashlari shakllanishiga asos bo‘luvchi ularning doimiy-barqaror estetik ehtiyojlari sifatida belgilanadi.

Mana shu asosda jahon va milliy badiiy qadriyatlarning ahamiyati o‘ta solmoqlidir.

Dunyoqarash – bu dunyoga yaxlit qarash, san‘at esa bu dunyo haqidagi haqiqiy mazmunli, yuksak badiiy, umumiy qamrab oluvchi tasavvurdir – dunyoni estetik o‘zlashtirishda badiiy qadriyatlar muhim ahamiyatga ega ekanligi shundan ko‘rinib turibdi. Agarda insoniyatning badiiy qadriyatlari va o‘z xalqining buyuk yaratuvchiligini idrok etib, unda estetik boy dunyoqarashi takomillashtirishsa, yuksak darajaga erishishi mumkin. Atrof-dunyo umuminsoniy va milliy estetik qadriyatlar, u yoki bu ma‘lum estetik mezonlar bo‘yicha tushuniladi va baholanadi.

Biroq asrlar davomida yashab kelayotgan, dunyo durdonalariga aylangan buyuk san‘at asarlari umuminsoniy, jamlangan-estetik, badiiy, tasviri, ifodali dunyoni aks ettirishni o‘zida gavdalandiradi. Demak, ancha estetik boy dunyoqarashni shakllantiradi. Bu dunyoda mashhur durdonaga aylangan milliy san‘at asarlariga ham taalluqlidir. San‘at durdonalari – sog‘lom estetik dunyoqarash uchun muhim asos, qulay sharoitdir. Shuning uchun gumanitar fanlar, birinchi navbatda badiiy-estetik va falsafiy-estetik sikldagi fanlar ayniqsa, talab etiladi.

Ta‘limni insonparvarlashtirish o‘quvchining shaxsini, uning ongini, dunyoqarashini keraklixa yaxlitligini ta‘minlovchi gumanitar, shu jumladan estetik fanlarni o‘qitish vazifalarini kengaytiradi: hayotiy qadriyatlarga ma‘naviy, shu jumladan badiiy qadriyatlarga munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mana shu mazmunda milliy dastur ta‘lim jarayoniga samarali tashkiliy va pedagogik shakllarni hamda optimal vositalarni ishlab chiqish va tatbiq etishni va milliy, madaniy, tarixiy an‘analariga, xalq odatlariga va umuminsoniy qadriyatlarga, milliy intellektual va ijodiy merosiga (demak, badiiy merosiga ham), dunyo qadriyatlariga, shu jumladan badiiy qadriyatlarga maksimal darajada e‘tiborni qaratishni talab etiladi. Bu esa “...o‘shib kelayotgan avlodning ma‘naviy rivojlanishiga” katta ta‘sir ko‘rsatadi.

Milliy va jahon umuminsoniy qadriyatlari uyg‘unligida o‘quvchilarga ta‘lim-tarbiya berish jarayonida bugungi kunning dolzarb masalalari qatorida muhim ahamiyat kasb etadi.

Qadriyatlar – atrof-dunyo ob‘ektlarini o‘ziga xos ijtimoiy belgilash, ularning inson va jamiyat uchun ijobiy ahamiyatini aniqlash.

Tashqi – predmetning xususiyati sifatida, jamiyat tomonidan baholangan ichki kuchi. Bu inson qiziqishlari ob‘ekti.

Agarda predmetlar san‘at asari bo‘lsa, unda estetik qadriyat go‘zallikka ega bo‘ladi, bu esa insonning hayot faoliyatida uning turli funksiyalarini oshiradi va, demak ijtimoiy qadriyatga ham ega bo‘ladi (chunki, ong va dunyoqarashiga ta‘sir ko‘rsatadi).

Dunyoning va borliqning rang-barangligini aks ettiruvchi san‘at biz uchun alohida qimmatli, asosan ijobiy ahamiyatga ega bo‘ladi.

San‘at – bu ijtimoiy ong va faoliyatning o‘ziga xos shakli bo‘lib, atrof-dunyo, borliqni badiiy obrazlarda aks ettirilishi; dunyoni estetik o‘rganish. Unga estetik munosabatni aks ettirishdir; hayotni uning butun turli-tumanliklarida o‘zlashtirish va uni badiiy o‘ziga xos shaklda – u yoki bu san‘atga xos bo‘lgan til vositalari bilan, badiiy obrazlarda aks ettirish.

Dunyo san‘atida san‘atning qadriyatlari haqida tasavvur beruvchi ko‘plab haqiqiy badiiy qadriyatlar mavjud.

Badiiy qadriyat – mana shu qadriyat mezonlari talablariga javob beruvchi san‘at asari, uning asosida go‘zallik o‘zining ko‘plab ko‘rinishlarida asosiy mezonlar belgisi hisoblanib, unda estetik va badiiy qadriyatlar ma‘lum nisbatlarda bo‘ladi.

Go‘zallik – oliy estetik qadriyatga ega bo‘lgan mukammallikdir. Quvonch uyg‘otadi, estetik huzur bag‘ishlaydi, estetik tuyg‘ularni paydo qiladi, estetik boyitadi. Ulkan idrok etish va tarbiyaviy kuchga ega. San‘at tabiat hodisalari, mehnat, faoliyat (idrok etish va ijodiy) go‘zallik ob‘ektlari bo‘lishi mumkin. Ammo san‘at yanada estetik qimmatlidir – go‘zaldir, u badiiy qimmatlidir, chunki hayotni uning butun estetik ko‘rinishlarida aks ettiradi.

Go‘zallik – ob‘ektiv ijtimoiy-insoniy qadriyat bo‘lib, u ijtimoiy, sub‘ektiv xususiyatlarga egadir.

Go‘zallik hayotda, san‘atda, uning butun estetik ko‘rinishlarida aks ettiriladi, lekin san‘atning o‘zi ham go‘zaldir, ya‘ni badiiy qimmatga ega.

Badiiy qadriyat qadriyatlar sinfi sifatida shakllanadi.

“Baholash” (badiiy-qimmatli asarni) tushunchasi bilan, san‘at asarining estetik va badiiy qimmatini aniqlash usuli bilan (badiiy-estetik qabul qilish natijasida) mos hisoblanadi.

Baholash jarayonida mazmunli shakli (tashqi va ichki) olinadi va asarning tashkil etilishi, tartibi va yaxlit tuzilishga ega ekanligi baholanadi.

Ichki tayyorlik asosida – emotsional darajada ushbu qiziqishni shakllantirish talabalarga keng doiradagi idrok etish-badiiy qiziqishlarini taqdim etish; estetik boy dunyoqarash istiqbolini ochib berish (jahon va milliy buyuk badiiy qadriyatlarini materiallarida estetik ehtiyojlarini qoniqtirish jarayonida shakllantiruvchi);

Talabalarga o'zlarining ma'naviy-estetik qiyofalarini ko'ra bilish imkoniyatlarini berish.

Talabalarning badiiy qadriyatlarga qiziqishlarini estetik ehtiyoj darajasigacha faollashtirish uchun talabalar shaxsida quyidagi sifatlar va xususiyatlarni ajratish mumkin: qiziqishlari, ma'naviy ehtiyojlari, bilimga chanqoqligi, intellektuallik darajasi, ijtimoiy, hayotiy va boshqa vaziyatlardagi masalalarni hal etishga qobiliyati, o'zining istiqbollarini «ko'ra bilishi», shakllangan dunyoqarashi, ijtimoiy etukligi va faolligi, qadriyatli – yo'nalganlik faoliyati, mezonlar, me'yorlar va baholar tizimiga intilishi, o'ziga baho berishga qodirligi.

Talabalarda badiiy hodisalarga qiziqishni faollashtirish, ularning estetik ehtiyojini shakllantirish, individual-tipologik xususiyatlarini o'rganish orqali amalga oshiriladi.

Ma'lumki, motiv talabalar shaxsini yo'nalganligiga sabab bo'ladi. O'quvchilarni badiiy qadriyatlarga qiziqishini, keyinchalik estetik ehtiyojiga yo'naltiruvchi va faollashtiruvchi motiv ko'zda tutiladi.

Motiv – ehtiyojni qoniqtirish uchun xarakatga sabab bo'luvchi anglab etilgan rag'batdir.

Motiv – istak, tilak sifatida, ehtiyojga aylanuvchi anglab etilgan qiziqish. Tashqi omillar – uqtirish, ishontirish, qo'zg'atish, ma'naviy-psixologik ko'rsatmalari – emotsional-ijobiy ko'rinishdagi, kelajakda ehtiyoj bilan bog'liq faoliyati ko'rsatmalari asosida yuzaga keladi. Motiv shaxsning rivojlanishi istiqboli bilan bog'liq talabalarning istaklari, qiziqishlari va ehtiyojlariga tayanishni talab etadi.

Motivatsiya – organizmning faolligini keltirib chiqaruvchi va uning yo'nalganligini belgilovchi qo'zg'atishdir.

Talabalarning badiiy qadriyatlarga qiziqishlarini faollashtirish – o'quvchi yoshlarning shaxsini shakllantirish va rivojlantirishda markaziy vazifalardan biri hisoblanadi. Talaba yoshlarning badiiy qiziqishlari turli-tuman bo'lishi, estetik boy dunyoqarashlari shakllanishiga asos bo'luvchi ularning doimiy-barqaror estetik ehtiyojlari sifatida belgilanadi.

Mana shu asosda jahon va milliy badiiy qadriyatlarning ahamiyati o'ta solmoqlidir. Talabalarda estetik va badiiy jihatlarni o'stirish hozirgi kunning dolzarb muommolaridan biridir. Adabiyotga, san'atga bo'lgan qiziqishlarni rivojlantirish orqali yoshlar ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashini shakllantirish, adabiyotlarga bo'lgan havas, intellektlarini oshirishga bo'lgan motivatsiyasini shakllantirishga yordam qiladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni. -T., 1997 .
2. Karimov I.A Ma'naviy yuksalish yo'lida. T., «O'zbekiston» 1998.- 78 b.
3. Aliev A. Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat.-T.: Akademiya, 2000.- 631b.
4. Аннамуратова С.К. Художественно-эстетическое воспитание школьников Узбекистана. – Т.: Фан, 1991. - 370 с.
5. Э.Фозиев. Психология. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994.
6. В.Каримова. Психология. –Тошкент: 2000.

UDK: 37/022

KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA O'QITUVCHILARNI PROFESSIONAL FAOLIYATGA TAYYORLASH TIZIMI

O. I. Yadgarova

Samarqand davlat chet tillar instituti
yadgarovaozoda514@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mutaxassislarni (o'qituvchilarni) professional faoliyatga tayyorlashda uning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish masalalari bayon qilingan. Ko'plab tadqiqotchilarning professional-kommunikativ faoliyatga tayyorlash borasidagi fikr-mulohazalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: mutaxassis, professional faoliyat, kommunikativ qobiliyat, kommunikativ kompetentlik, mulqot.

Система подготовки преподавателей к профессиональной деятельности на основе развития коммуникативной компетентности

Аннотация. В статье рассматривается развитие коммуникативной компетенции при подготовке специалистов (учителей) к профессиональной деятельности. Проанализированы мнения многих исследователей о подготовке к профессионально-коммуникативной деятельности.

Ключевые слова: специалист, профессиональная деятельность, коммуникативные способности, коммуникативная компетенция, общение.

System of preparing teachers for professional activities based on development of communicative competence

Abstract. The article examines the development of communicative competence in the preparation of specialists (teachers) for professional activities. The opinions of many researchers about the preparation for professional and communicative activities have been analyzed.

Keywords: specialist, professional activity, communication skills, communicative competence, communication.

Har qanday murakkab zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari, integratsiyalar, fan sohasidagi olamshumul yangiliklar avvalo o'qituvchi tomonidan o'zlashtirilib, so'ngra uning bilimi, saviyasi, qobiliyati va professional malakalari evaziga talabalar ongiga va tafakkuriga etkaziladi. Yildan yilga o'qituvchining kasbiy faoliyatiga nisbatan talablar kuchaymoqda. Bu hozirgi zamon talabi. Demak, o'qituvchiga nisbatan qo'llaniladigan – professional mutaxassistalabi hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmaydi, balki tobora takomillashib, boyib va zamon talablariga mos o'zgarib boraveradi. Malakali mutaxassis professional faoliyatida nafaqat maxsus bilimlar balki umumiy qolbilyatlar ham muhim sanalib, ular jumlasiga kommunikativ kompetentlik va muloqot qobiliyatini [1] kiritish mumkin. Mutaxassislarning professional faoliyatida ijtimoiy kontekst borgan sari muhim o'rin egallab bormoqda va hozirgi zamonaviy globallashuv davrida bu hodisa tabiiy hisoblanadi.

Qanchalar oddiy tuyilmasin mutaxassislarning professional faoliyatining asosini muloqot qila olish ko'nikmasi tashkil etadi. Ko'pgina tadqiqotchilar o'qituvchilar professional faoliyatini bir qancha guruhlariga bo'lib o'rganishni tavsiya etganlar. Masalan, Pedagog olim I.P.Podlasiy pedagogik faoliyatning tuzilishini quyidagi tarzda aniqlashtirgan:

1) tashkilotchilik – ta'lim oluvchilarni jipslashtirish, ularning faoliyatini rejalashtirish, jamoaviy ishga jalb etish, yakunlarini chiqarish;

2) diagnostik – o'quv materialini tanlay olish, o'quv materialini tushunarli, aniq, obrazli, ishonchli va tizimli bayon eta olish; talabalarining bilishga qiziqishlari va intellektini rivojlantirishni rag'batlash, o'quv-biluv faolligini oshirish hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va ijodkorlikka qobiliyatlilik;

3) perseptiv – ta'lim oluvchilarning ichki olamiga ta'sir ko'rsatish; ularning emotsional holatini xolis baholash, psixikasidagi o'ziga xosliklarni aniqlay olish ko'nikmasi;

4) kommunikativ – ta'lim oluvchilar va jamoa bilan pedagogik maqsadga qaratilgan munosabatni o'rnatish ko'nikmasi;

5) suggestiv (suggestiya – ishonitirish) – talabalarga emotsional ta'sir ko'rsatish;

6) tadqiqotchilikka doir – pedagogik jarayon va vaziyatlarni anglash hamda ob'ektiv baholay olish ko'nikmasi;


7) ilmiy-bilishga doir – tanlangan ixtisoslikka doir belgilangan hajmdagi ilmiy bilimlarni egallay olish qobiliyati;

8) gnostik – ob'ekt, jarayonni va o'z faoliyati natijalarini tadqiq etish hamda olingan natijalar asosida uni korrektsiyalay olish qobiliyati[2].

V.A.Krutetskiy tomonidan pedagogik faoliyatning quyidagi umumiy tuzilmasi aniqlashtirilgan:

1. Didaktik qobiliyat
2. Akademik qobiliyat
3. Perseptiv qobiliyat
4. Nutqiy qobiliyat
5. Tashkilotchilik qobiliyati
6. Obro'ga ega bo'lishlik qobiliyati
7. Kommunikativ qobiliyat
8. Prognostik qobiliyat
9. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati [3].

Tadqiqotlarimiz davomida oliy ta'lim o'qituvchisining umumiy professional faoliyatining quyidagi tuzilmasi aniqlashtirildi (1-rasmga qarang).



Olimlarning fikricha, o'qituvchi faoliyatida o'quvchilar va ularning hamkasblari bilan muloqot qurish qobiliyati alohida o'rin tutadi. Bu holda u o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida ilmiy-pedagogik muloqot vositasi, kasbiy mahoratni oshirish, o'quvchi auditoriyasida qulay psixologik iqlim yaratish sharti vazifasini bajaradi. Buning uchun o'qituvchi maxsus kommunikativ malakalarga ega bo'lishi kerak: o'quvchi shaxsini bilish; o'quv jarayonida talabalar faoliyatini hamkorlik, ijodiy izlanish shaklida tashkil etish; muloqot vaziyatini idrok etish va to'g'ri baholash; hamdardlik, rahmdillik, talaba shaxsini tushunish; o'zaro ta'sirning gumanistik usullariga asoslangan talab yuqori bo'lgan talaba shaxsiga hurmat uyg'unligi va h.k [4].

Aynan shuning uchun pedagoglar tayyorlash ta'lim jarayonining asosiy vazifasi o'qituvchini kasbiy-pedagogik tayyorgarligining ajralmas qismi bo'lgan kommunikativ kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

“Kommunikatsiya” so'zi lotincha “communico” so'zidan olingan bo'lib, “umumiy qilayapman, bog'layapman, muomala qilayapman” deganma'nolarni anglatadi. “Kommunikatsiya” so'zi bilan o'zakdosh bo'lgan “kommunikabellik” – “muomala qilishga layoqati bor” ma'nosida, “kommunikabel” – “kirishimli, dilkash” ma'nosini bildiradi[5, 167- b].

Taniqli psixolog A.N.Leontevning konsepsiyasiga tayangan holda [6, 112-113-b.], “kommunikativ faoliyat”ning, aniq strukturaviy komponentlardan iborat (2-rasmda) ekanligini ko'rish mumkin.

Kommunikativ faoliyatning predmeti boshqa insondir	Muloqotga bo'lgan ehtiyoj insonning boshqa insonlarni bilishga va ularni baholash, hamda shu orqali va ular yordamida o'z-o'zini bilish hamda o'z-o'ziga baho berishga bo'lgan intilishidan iborat
Kommunikativ motivlar–muloqotni amalga oshirishdan ko'zlangan maqsad	Kommunikativ faoliyatning harakatlari – boshqa insonga yo'llanilgan bir butun akt bo'lib, muloqot harakatlarining ikkita asosiy - tashabbusli va javobli kategoriyalariga ega
Kommunikativ faoliyatning vazifalari – maqsadga erishish uchun muloqot jarayonida amalga oshiriluvchi turli-tuman harakatlar	Kommunikativ faoliyatning vositalari bu – operatsiyalar bo'lib, ular yordamida muloqot harakatlari amalga oshiriladi operatsiyalar bo'lib, ular yordamida muloqot harakatlari amalga oshiriladi
Kommunikativ faoliyatning mahsuli – muloqot natijasida yaratiluvchi ma'naviy va moddiy xarakterga ega bo'lgan tuzilmaning hosil bo'lishi	

2-rasm. “Kommunikativ faoliyatning strukturaviy komponentlari”
(A.N. Leontev konsepsiyasi bo'yicha)

Nutq bir vaqtning o'zida qandaydir ma'lumotning manbai vazifasini bajarishi, shu bilan bir qatorda, o'z suhbatdoshiga ta'sir ko'rsatish usuli sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin. Biroq o'zaro ta'sir ko'rsatish jarayonini to'liq tavsiflash uchun faqat kommunikativ akt strukturasi bilish kamlik qiladi. Muomalada bo'lgan har ikki tomonning motivlari, ularning maqsad va vazifalarini ham sinchiklab tahlil qilish zarur. Buni amalga oshirish uchun esa kommunikativ muloqotga kiritilgan nutqdan tashqari bo'lgan belgilar sistemasiga (masalan, noverbal) murojaat qilish kerak. Bundan tashqari, tadqiqotlar kishilarning

kundalik nutq aktida “soʻzlar taxminan 7%, tovushlar va intonatsiya (ohang)lar 38% va nutqqa oid boʻlmaganoʻzaro taʼsir 53% ni tashkil etishini” koʻrsatdi. Bu esa mutaxassisning kommunikativ kompetentligida oʻz aksini topadi.

Kommunikativ faoliyat murakkab dinamik tizim sifatida oʻziga xos tuzilishga ega boʻlib, uning tarkibiga koʻplab elementlar kiradi. Ular:

- predmetli (nutqqa oid boʻlmagan kompetensiya);

- tilga oid (nutqqa oid kompetensiya);

- ijtimoiy-madaniy (ijtimoiy muloqotlar sohasidagi bilim va tajriba, muloqot psixologiyasini qamrab oluvchi);

- pragmatik (maʼlum vaziyatda muloqotning sabablari, koʻrsatmalari va maqsadlari bilan bevosita adresant (yuboruvchi) va nutq adresati (oluvchi) bilan bogʻlangan)” [7,106-b.].

Oʻqituvchining kommunikativ kompetentligi tushunchasi oʻz ichiga quyidagi harakatlar uchun zarur boʻlgan uygʻunlashgan kompetensiyalarni kiritishni talab etadi:

- shaxslararo idrok qilish va kommunikativ muloqot (perseptiv komponent) vaziyatlarini baholash;

- kommunikativ muloqot (refleksiv komponent) jarayonida oʻz-oʻzini tahlil qilish va oʻziga oʻzi baho berish;

- shaxslararo muloqot uchun mos vositalarni tanlash;

- muloqot jarayonini boshqarish va inson axloqini mos ravishda tartibga solish (axloqiy komponent).

Demak, kommunikativ kompetentlik bu:

- birinchidan, insonning kommunikatsiya sohasidagi kompetensiyalarining yigʻindisi boʻlib, ular maʼlum bir faoliyatni bajarish uchun zarur hisoblanadi;

- ikkinchidan, bu insonning boshqa insonlar bilan oʻzaro hamkorligi, shaxslararo turli vaziyatlardagi mustaqil faoliyati jarayonida orttirgan hayotiy tajribasining qismidir;

- uchinchidan, bu insonning ijtimoiy-shaxsga oid sifatleri boʻlib, ular uning olam, shuningdek, oʻz-oʻzi bilan va oʻzaro muloqotlarining butun tizimini tartibga soladi;

- toʻrtinchidan, bu turli faoliyatda shaxsning imkoniyatlarini aniqlab beruvchi va shu bilan birga, belgilangan faoliyat turiga ham mos keluvchi xususiyatdir;

- beshinchidan, bu insonning real hayotiy vaziyatlar vujudga kelganida yuqorida keltirilgan komponentlarga muvofiq holda oʻz muloqot jarayonini tashkillashtirishga tayyorligi. Keltirilgan komponentlarning majudligi maʼlum sohada kishining mahsuldor-professional faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishning majburiy shartidir.

Koʻrib chiqilgan komponentlarning barchasi jamlanganda, kommunikativ qobiliyatning mazmun-mohiyati aniq namoyon boʻladi va inson shaxsining oʻzaro bogʻliq hamda bir-birini taqozo qilgan eng murakkab sifatlarini shakllantiradi. Natijada kommunikativ qobiliyat pedagog mahoratining muhim ahamiyatli kasbiy-yoʻnaltirilgan tavsiflaridan biri sifatida namoyon boʻladi, ushbu qobiliyatning rivojlanishi esa oliy professional taʼlimda birinchi galdagi vazifa hisoblanadi. Jamiyat rivojlanishining zamonaviy bosqichlari, taʼlimdagi yangi paradigmalari – bularning barchasi kommunikativ qobiliyatni rivojlantirish muammosini yangi mazmun bilan toʻldiradi.

Xulosa oʻrnida quyidagilarni keltirish mumkin:

- pedagogik faoliyat bilan shugʻullanuvchi oʻqituvchi qobiliyat, kommunikativ qobiliyat, pedagogik qobiliyat kabi bir-biri bilan bogʻliq shaxsiy xususiyatlarni oʻz ustida doimiy ishlash orqali rivojlantirib borishi uning mahoratli kasb egasi boʻlishida zamin boʻlib xizmat qiladi;

- oʻqituvchining kommunikativ qobiliyatining oʻziga xos pedagogik shartsharoitlari, pedagogik refleksiyasi, yoʻnalishlari, mahorat mezonlari, uning kasbiy kompetensiyasini namoyon etishda, shaxsiy qobiliyatini charxlab borishida muhim omil hisoblanadi;

- oʻqituvchilarning kommunikativ qobiliyatini namoyon etishda, mahoratini oshirib borishda oʻquv jarayonini texnologik loyihalashtirish, algoritmlash, natijani oldindan tashxislash va uni innovatsion boshqarishi muhim ahamiyat kasb etadi.

- kommunikativ qobiliyatlar empatik va refleksiv qobiliyatlar bilan uygʻunlashgan integratsion kompetensiyalarning yigʻindisi sifatida talqin qilinadi. Uni maxsus trening mashgʻulotlari yordamida rivojlantirish mumkin.

Adabiyotlar

1. Зникина Л. С. Лингводидактические основания профессионально-коммуникативной компетенции // Вестник КемГУ. 2013. №2 (54).
2. Подласый В.П. Педагогика. Учебник. – М.: Высшее образование, 2006. – 540 с.

3. Крутецкий В.А., Балбасова Е.Г. Педагогические способности, их структура, диагностика, условия формирования и развития: Учебное пособие. – М.: Прометей, 1991. – 112 с.
4. Блягоз Н.Ш. Профессиональная компетентность преподавателя вуза: основные компоненты//Научно-информационный журнал НИИ комплексных проблем АГУ. Сетевое электронное научное издание “Наука: комплексные проблемы” – Майкоп, 2014. –№ 4 (ноябрь).
5. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. //Ped. fan. dok. diss. – T., 2007.- 305 b.
6. Леонтьев А.Н. Деятельностный ум (Деятельность. Знак. Личность). – М.: Смысл, 2001. – 392 с.
7. Ochilov M., Ochilova N. O'qituvchi odobi. Saylanma. – T.: O'qituvchi, 1997.- 125 b.

UDK 373.25

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR XOTIRASINI RIVOJLANTIRISHDA PSIXOLOGNING VAZIFALARI

A.A. Turg'unov*Innovatsiya vazirligi*

Annotatsiya. Maqola maktabgacha yoshdagi bolalar xotirasini rivojlantirishga bag'ishlangan. Bolalar bilimni eslab qolish va o'zlashtirish jarayonining xususiyatlari, shuningdek, bolalar xotirasining ikki turi: ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira ochib berilgan. Bolalar xotirasini rivojlantirishning samarali usullari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha yoshdagi bolalar, xotira, ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira, xotirani rivojlantirish, psixolog va ota-onaning vazifalari, psixologning roli, bilish jarayonlari, aqliy faoliyat.

Функции психолога в развитии памяти дошкольников

Аннотация. Статья посвящена развитию памяти детей дошкольного возраста. Выявлены особенности процесса запоминания и усвоения детьми знаний, а также два вида детской памяти: произвольная и непроизвольная. Рассмотрены эффективные способы развития детской памяти.

Ключевые слова: дети дошкольного возраста, память, произвольная и непроизвольная память, развитие памяти, задачи психолога и родителя, роль психолога, познавательные процессы, умственная деятельность.

Functions of a psychologist in the development of preschool children's memory

Abstract. The article is devoted to the development of memory of preschool children. The features of the process of memorization and assimilation of knowledge by children, as well as two types of children's memory: voluntary and involuntary. Effective ways of developing children's memory are considered.

Keywords: preschool children, memory, voluntary and involuntary memory, memory development, tasks of a psychologist and a parent, the role of a psychologist, cognitive processes, mental activity.

Xotiraning dastlabki, ongsizlik, ixtiyorsiz shakli bolaning amaliy harakatlari sxemalarining atrof-muhitdagi bevosita ko'rinishidir. U tartib va harakatlar ketma-ketligining xususiyatlarini ta'minlaydi. Masalan, bolada kundalik faoliyat ritmlarida namoyon bo'ladi, ovqatlanishdan oldin shartli reaksiyalarning rivojlanishida bilinadi. Bolalarda bu oldindan ongli ixtiyorsiz xotirasining ahamiyati tananing hayotning ijtimoiy belgilangan ritmlariga qo'shilishida namoyon bo'ladi. Xotiraning bu shakli bolada ko'nikma va odatlarning rivojlanishini ta'minlaydi, hayot tartibini yaratadi. U tananing tegishli xatti-harakatlarga tayyorligini va ularni yaxshi o'zlashtirgan vaziyatlar doirasida kutish imkoniyatini yaratadi.

Ongli ixtiyorsiz xotirada uch sifat turi mavjud: predmetli-amaliy, ko'rgazmali-vaziyatli, ko'rgazmali-obrazli. "Ulardan birinchisi, tananing kundalik faoliyati sikllarining elementar xronotoplari va bolaning kundalik faoliyatiga mos keladigan tizimda murakkab tartibga solish va bo'ysunish harakati bilan tavsiflanadi. Bu xronotoplar bolaning vaziyatga mos xatti-harakatni aktualashtirishga ichki tayyorligining asosi hisoblanadi. Shunday qilib, ular xatti-harakatni boshlang'ich tashkilotchilik va tizimlilikni beradi [1, 4].

Ko'rgazmali-vaziyatli xotirada bolaning ichki xatti-harakatlarining vaqt chegaralari ochilib, bolaning xatti-harakatini bir hafta yoki bir oy orasida oldindan ko'rish imkoniyatini yaratadi. Xotiraning

bu shakli harakatlarni bajarishni kechiktirish va kechiktirilgan harakatlarni tugallash imkonini beradi. Bu tipda esa ongli xotiradan oldin bolada hali amaliy harakatlarning o'zidan alohida bo'lgan ichki faoliyat rejasi mavjud bo'lmaydi. Bu uning xatti-harakatlari uni boshqaradigan vaziyatlarga qattiq ta'sir qiladi va bu holatlar o'zgarib juda "sust" bo'ladi.

Yosh bolalar xotirasi yuqori "elastiklik" bilan ajralib turadi, ya'ni faol xohishlarni oson yuzaga chiqaradi. Bu juda ajablanarli, chunki ko'plab olimlar hatto xotirani rivojlanishdan ko'ra yosh bilan zaiflashtiradi deb hisoblaydilar. Lekin bunday emas. Xotiraning rivojlanishi esda olib qolishning tasodifiy chizig'i bo'ylab boradi (uch yoshgacha bo'lgan bola asosan ixtiyorsiz eslaydi), ma'nodoshlik chizig'i bo'ylab (semantik bog'lanishlar va munosabatlarni tushunish), kuch chizig'i bo'ylab, ya'ni uzoqroq saqlab qoladi. Kichik bola hislari va harakatlarida takrorlanishdan to'xtagan narsalarni, qiziqish va ahamiyatini qnachalik tez eslab qola olsa, shunchalik tez unutadi. Biroq, bolaning xotirasi, shuningdek, kattalar xotirasi ko'plab sirlarga to'la. Misol uchun, kichik bolaning muayyan voqealar va faktlar xotirasining ajoyib kuchi ajoyib tanlovchanlik bilan sodir bo'ladi. Misol uchun, ikki yoshli bola bir necha oy davomida g'ayrioddiy muhitda ob'ektlar bilan ishlash tajribasini eslab qolishi mumkin.

Hayotning ikkinchi yoki uchinchi yilidagi bolaning xotirasi uning sensorik tajribasi, turli faoliyat turlari (kognitiv, kommunikativ, harakatli), turli faoliyat turlari (rasm chizish, qurish va boshq.) bilan boyitiladi. Atrof-muhitning hissiy ta'siri (sezgilar va idrok) haqida faoliyat bo'lmasa, tasavvurning rivojlanishi va aqliy muammolarning birinchi yechimlari bo'lmasa, xotira yaxshi bo'lmaysligini rus olimlari Z.M.Istomina, A.A.Smironov va boshq. isbotladilar [2, 3].

Psixolog ota-onalarga farzandlari xotirasining rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha quyidagi ba'zi maslahatlarni berishi mumkin.

Yosh bolalar xotirasi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Uch yoshgacha bo'lgan paytlaringizni eslashga harakat qiling. Bu, albatta, juda qiyin. Hayotning ayrim voqealarini eslash mumkin xolos. Demak, yosh bola xotirasining o'ziga xos yoshga bog'liq xususiyatlaridan biri - amneziyaning (xotiralardagi bo'shliq, o'tmishda shakllangan g'oya va tushunchalarni qayta eslay olmaslik) namoyon bo'lishidir. Bu faqat bolalar xotirasining yetishmasligi emas. Bunda inson psixikasi rivojlanishining katta ahamiyati yotadi. Ayniqsa, bu yoshdagi o'ziga xosliklar bo'yicha amneziya bola qalbida umumlashgan, asosiy shaxsiy hosilalarning rivojlanishidan iboratdir. Ular ongsiz darajada bo'lgan bolaning ichki sohasini hosil qiladi. Kuchli, umrining qolgan qismi uchun uning harakatlari, amallari ta'sir qiladi. Shunday ekan, yosh bola tarbiyasida qo'pol xatolarga yo'l qo'yib bo'lmaydi, agar u unutsa, hamma narsani ham tushunavermasa, kattalar uning tajribalarida ehtiyotkor bo'lishi kerak, kattalarning ishlarida "jiddiy" ishtirok etmasligiga va uning salbiy axloqiy tajribasizligiga ahamiyat bermaslik kerak va buni har doim yodda tutish kerak.

Bolaning xotirasi ularning individual rivojlanishidan iboratdir. Yaxshi xotira (katta hajmdagi xotira, tanib olish, ko'paytirish, eslab qolishning tasodifiylik elementlarining mavjudligi) to'liq rivojlanish ko'rsatkichidir. Shu bilan birga, bolaning xotirasi vaqtinchalik asab bog'liqlarining "to'silib turishi", asab tizimining egiluvchanligi tufayli muhim individual xususiyatlarga ega ekanligini bilish kerak. Bu xususiyatlar tug'ma yoki genetik moyillikka ega bo'lishi mumkin. Misol uchun, ba'zi bolalar ritmik harakatlarni yaxshiroq eslaydilar (barcha yosh bolalar xotiraning yetakchi turi bo'lgan harakatlarni va harakat xotirasini yaxshi eslaydilar) va boshqalari esa vizual tasvirlarni, musiqiy ritmlarni, og'zaki ma'lumotlarni. Erta yoshda xotiraning alohida turlari ko'rish, eshitish, motorik (harakatli) va boshqalar xotiralar paydo bo'la boshlaydi.

Psixolog ota-onalarga bola xotirasining individual xususiyatlari namoyon bo'lishini kuzatishni tavsiya etadi. Ular faoliyatni o'zlari tanlashlari mumkin. Shunday qilib, agar hayot davomida biror narsa yaxshi chiqsa, buni qilishni xohlaydi inson. Bola harakatning "rasmi"ni tez eslab qoladi, maroq bilan raqsga tushish, hayvonlar harakatlarini ko'chirib olish va hokazo. Eshitish xotirasining individual xususiyati, musiqiy faoliyatga qiziqishning ortishiga, ko'rish xotirasining esa bolaning tafakkurining ortishiga olib keladi.

Bolada namoyon bo'ladigan xotira turini mashq qilishga moyillikning ortishiga erishish uchun qo'shimcha sharoit yaratish maqsadga muvofiqdir. Bu muhim ahamiyatga ega. Unda faqat shu xotira turi rivojlanishidan qo'rqmaslik lozim. Bola faqat individual xususiyatga ega bo'ladi, boshqalari esa (barcha sezgi organlarning to'liq rivojlanishi bilan) normal rivojlanishga ega bo'ladi.

Agar ota-onalar bolaning xotirasini yaxshi rivojlantirishni istasalar, uning turli faoliyatlari muloqot, boshqarish, muayyan vosita bilan qurollanish, o'yin, musiqa, ko'rgazmalilik, tabiat hodisalari bilan o'zaro aloqa va boshqalar uchun sharoit yaratishlari kerak.

Bundan tashqari, ota-onalar bilan birgalikda psixolog bolaning dastlabki uch yillik xotirasini rivojlantirish uchun alohida vazifalar ajratishi kerak. Buning uchun psixolog uch yoshgacha bolalarni

psixologik rivojlantirishda onalarni rolini oshirish bo'yicha dastur asosida "Onalar maktabi"ni tashkil etishi maqsadga muvofiq.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologi ilk yosh davridagi (3 yoshgacha) bolalarda xotirani rivojlantirish uchun quyidagi vazifalar taklif etiladi:

Hayotning birinchi yili uchun:

- bolaning sezgi tajribasini boyitish va eng muhimi, sezgilar faoliyatini yaxshilash maqsadida ob'ektlar, tabiiy dunyo bilan o'zaro ta'sir erkinligini ta'minlash;

- bolaning hayoti uchun qulay, uning hissiy xotirasini rivojlantirish sharti sifatida hissiy ijobiy muhit yaratish, chunki hayotning birinchi yilidagi bolaning xotirasi uning hislarining xotirasidir.

Hayotning ikkinchi yili uchun:

- tartibli faoliyat tamoyillariga rioya qilish, doimiy esda olib qolishning sharti bo'ladigan turmushning barqaror tartibini yaratish, tashqi assosiativ taassurotlarni tushunish, esda qolganlarni tushunish darajasiga o'tish imkoniyatini yaratish;

- bola so'z va og'zaki xotirasini, mantiqiy xotirasini rivojlantirish maqsadida so'zlashish tajribasini o'rtirish;

- erkin harakatdagi (bir yilgacha o'tirgan holda) ob'ektiv harakatlar uchun qo'llarni "bo'shatish", bolaning xotirasini o'zlashtirish erkinligini ta'minlash, bunda uning faoliyati mustaqil faoliyatdan foydalanish sharti bo'lib qoladi.

Hayotning uchinchi yili uchun:

- faqatgina bilishni (aytib berishda shoshmaslik, "nimani qaerda qoldirdi, narsasini qaerga tashadi" kabi) emas, balki eslashni faollashtirish vaziyatlarini yaratish;

- o'qish, aytib berish, rasm chizish, kubik va boshqalarni qo'yishda voqealar ketma-ketligini maxsus esda olib qolish mashqlarini bajartirish;

- she'rlar, musiqiy asarlarni mashqlarni bajarish;

- bola xotirasini nafaqat sensor tajriba bilan, balki tasavvur tajribasi, ko'rgazmali va samarali obrazli tafakkur tajribasi bilan boyitish.

Agar bu vazifalarning barchasi bajarilsa, hayotning uchinchi yili oxiriga kelib, bolaning xotirasi quyidagi yutuqlarga ega bo'lish mumkin:

1. Nisbatan yuqori rivojlanishga erishiladi. Ko'rish, eshitish, harakat va boshqa turdagi sezgi xotirasining asosi sifatida faoliyat ko'rsatishi.

2. Ko'plab hissiy tasavvurlar to'planadi, bu esa bolani faol bo'lishga undaydi.

3. Hayotning ikkinchi yili o'rtalarida yoki oxirida xotiraning yangi turi, "so'z xotirasi" paydo bo'ladi.

4. Xotira jarayonlarining yodlash, eslab qolish, taniy olish, ijro qilib berish (kattalar yoki og'zaki ko'rsatmalarni tavsiyaga ko'ra yodlash va ijro qilib berish) kabi elementlariga ega bo'ladilar.

5. Taassurotlarini uzoq muddat eslab qolish imkoniyatini oshirish. Maxsus holatlar, voqealarning boshqacha eslab qolish. Uch yoshning oxiriga kelib, xotirada bolalik amneziyasi (xotiraning, eslab qolishning sustligi)dan qisman ozod bo'ladi. Bu o'zining hayot yo'lida o'zini-o'zi anglashning boshlanishi bo'ladi.

Bolalar tasavvuri elementlarining namoyon bo'lishi.

Bola xotirasining rivojlanishi faqat sensor va sezuvchi bilimlar tufayligina emas, balki xotira tasavvur tajribasi bilan ham boyib boradi.

Tasavvur, mavjud tasavvurlar asosida yangi obrazlar yaratishdan iborat psixik jarayon. Misol uchun, ikki yoshli bola avtomobilning hissiy tasviriga ega, u kubni oladi, g'ildiraklarni unga qo'yadi va mashina kabi "didiit" qiladi. Tasavvur, ijodning asosi. Agar inson bu dunyoga nafaqat iste'molchi bo'lib, balki ijodkor sifatida ham kelsa, u holda yaratuvchanlik qobiliyati bolada hayotning dastlabki yillaridanoq rivojlanishi va buning uchun zaruriy shart-sharoit yaratilishi kerak. Hayotning birinchi yoki ikkinchi yilida bolaning "tajriba"larida, unda ijodkorlik elementlari paydo bo'ladi. Tasavvurni rivojlantirish alohida ahamiyatga ega, chunki o'yin har doim bolaning mavjud g'oyalarini qayta yaratish va mavjudlarini to'ldirish elementlariga ega.

Xotira ravshanligining yo'qligi tasavvur elementlari bilan to'ldiriladi. Misol uchun, bir bolaning avtomobil (o'yinchoq) bor, uning g'ildiraklari nechta ekanligini eslay olmadi, lekin "ko'p" degan umumiy fikrga ega edi. Uch yoshli bola ko'pligini tasavvur qilgan holda "mashinasi"ga ko'p g'ildirak qo'yadi va u qandaydir ko'p g'ildirakli "bir narsa"dek bo'lib chiqadi.

Bolalarning chizgan rasmlarida, o'yin harakatlarida bolaning tasavvur obrazlarini yaratish holatlari juda aniq kuzatiladi. Masalan 2 yoshli bola biror bir ob'ektni funksiyasini ikkinchi ob'ektga "o'tkazdi", oyoq kiyim kiyadigan "qoshiqcha"ni kichik to'plarni tushiradigan "lotok"ka aylantirdi.

Psixologiyada bu bog'lanish, ko'chirish usullari keng tarqalgan.

Hayotning dastlabki uch yilligidagi bolaning tasavvurlari juda jiddiy qabul qilinishi kerak, chunki tasavvurdan boshqa hech narsa psixikaning sirli xarakterini namoyon qila olmaydi. Bu sirli holatni hozirgacha uning anatomik va fiziologik mexanizmi haqida deyarli hech narsa bilmaymiz. Sezgilar, idrok, xotira, diqqat va tafakkurning miya mexanizmlari ko'proq o'rganiladi. Lekin, inson faoliyatida, uning ijodini shakllantirishda shaxsiy rivojlanishning asosi sifatida tasavurning ahamiyati kattaligini tushunish qiyin emas. Hayotning uchinchi yili, bolalar tasavvurining xususiyatlarini aniq namoyon qilish davridir, tasavvur obrazlarining paydo bo'lishning qulayligi, ularning rang-barangligi, emosionalligi. K.D.Ushinskiy [5] bolalar tasavvurining tasvirlarini kapalak parvozi bilan taqqoslagan va bu bizningcha bu tasodif emas. Lekin, taassufki, bu obrazlarning "hayoti", barqarorligi kapalakdek qisqa umr ko'radi. Tasavvur obrazlari bolalarda oson paydo bo'lib, ham tez va oson yo'qoladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologi ota-onalarga bolalarning tasavvurlarini rivojlantirish bo'yicha quyidagi vazifalarni shakllantirish mumkin:

1. Yangi topshiriqlarda, bolani o'rab turgan ob'ektlarning yangi funksiyalarida erkin o'zgarishga va ulardan foydalanish yo'llarini ixtiro qilishga imkon berish va rag'batlantirish.

2. Chizmalarda, muayyan obrazlarda o'z obrazlarini yaratishga misol keltirgan holda yordam berish.

3. Ko'rgazmali o'yinlarga rag'batlantirish bergan holda, so'ngra syujetli-rolli o'yin elementlarini birgalikda o'ynab, misollar keltirish.

4. Bolaning erkin ijodiy faoliyati muhitini yaratish. Uni "yarat"moqchi bo'lgan narsasi uchun materiallar bilan ta'minlashga harakat qilish, qurilish konstruktorlari, kareksiz "narsalar", tabiiy materiallar (tayoqlar, shishkalar, mato bo'laklari, qog'oz, yog'och bloklar, to'liq bo'lmagan shakllar, yumaloq, oval va boshq.), har qanday materiallarni biriktirish orqali atrof-muhit ob'ektlarining yangi tasvirlarini yaratishga imkon beradi.

Tafakkur (aqliy faoliyat) jarayonlarining rivojlanishi.

"Bola o'ylaydi, bola fikrlaydi" degan so'zlar ortida nima bor deb o'ylaysiz! Psixolog ota-onalar bilan muloqotda bo'lib, bolalar tafakkurining rivojlanish qonuniyatlarini o'z tushunchalariga qulay shaklda bayon etadi. A.V.Zaporojesning [6] ikki yoshli bolalar bilan vizual va samarali fikrlashning namoyon bo'lishini o'rganish uchun tajriba o'tkazdi, unda: vazifa to'plarni to'siq parda ortidan (kichik ochiq teshik orqali) chiqarib olish edi.

Bola ularni maxsus tayoq bilan tortib olishga harakat qiladi, lekin tayoqning noto'g'ri uchi bilan bajardi (u egri qismini qo'lida ushlab, to'plarni tayoqning tekis qismi bilan o'ziga tortdi, lekin ularni ololmadi). Tarbiyachining "shoshmang, uni qanday qilib olish kerakligini o'ylab ko'ring" degan taklifiga, bola: "o'ylash emas, to'pni chiqarib olish kerak" - deb javob berdi. Bu bola uchun "o'ylash" nimani anglatishiga javob edi. U maqsad, vazifa haqidagi tushunchasiga muvofiq harakat qiladi [6, 7].

Fikrlash bu voqelikni umumlashgan, vositali (so'z yoki tajribasi orqali) aks ettirishning kognitiv psixik jarayonidir. Fikrlash har doim muammoning yechimidir. Agar ma'lum bir tarzda natijalarga erishish mumkin bo'lsa u holda o'ylashga hojat yo'q.

Fikrlash ko'p shakllarda yuzaga kelishi mumkin. Muammo nima bilan yechilganligiga qarab ko'rgazmali, samarali fikrlashni (muammoni xolisona harakat bilan hal etish), konkret, obrazli fikrlashni (muammoni hal etish o'ziga xos obrazlarga asoslanadi), abstrakt, mantiqiy fikrlashni (echim so'zlarda shakllantirilgan tushunchalarga asoslanadi)ga ajratish odat tusiga kirgan. Yosh bolalar uchun ko'rgazmali, samarali fikrlash xarakterli bo'lib, hayotning uchinchi yili oxiriga kelib bolaning qulay rivojlanishi bilan konkret, obrazli tafakkur aniq paydo bo'la boshlaydi.

1. Ko'rgazmali fikrlashning birinchi elementlari hayotning birinchi yilida kuzatiladi, chunki bola ob'ektning bir shaklini boshqasiga bog'lay olishi kerak (kichik piyolani kattaning ichiga joylashtirish), alohida qismlardan bir narsani yig'a olishi kerak.

Psixolog ota-onalarga bolaning aqlli bo'lishi uchun unga qo'llari bilan harakat qilish imkoniyatini berish kerakligini tushunishlariga yordam beradi: tekshirib ko'rish, his qilish, yirtish, buzish, qayta tuzish, ochish, yopish va hokazo.

2. Fikrlashning ikkinchi turi obrazli fikrlashdir. Bola predmetlar bilan harakat qilishni, ularni fazoda harakatlantirishni, o'xshash va farqlilarni tanlashni, bir butun qismlarni ajratishni, taqqoslashni, tahlil qilishni va faqat ob'ektlarni emas, balki ularning obrazlarini guruhlashni, shu bilan birga va o'z o'rnida taxminlarini, qarorlarini amalda tekshirishni o'rganadi. Tafakkurning bu turini rivojlantirishda nutq alohida ahamiyat kasb etadi. Muammo og'zaki loyihalash va uni hal qilish yo'llari bola tomonidan tajribaning tez to'planishiga yordam beradi va uning harakatlarida sezilarli o'zgarishlar paydo bo'ladi. Hayotning uchinchi yilida bola "men bu yerda o'tiraman", "men uraman", "olish kerak", "bu

yerda tortish kerak”, “bu yerda qurish kerak” kabi soʻzlari bilan barcha harakatlarini qanday kuzatayotganini koʻrish mumkin boʻladi. U savol bermaydi, masalan, begona xonada yuradi va “chiroq, musiqa, soat va h.k.” – deydi. Predmetlar va ular bilan harakatlarni nutqiy belgilash bolani bevosita harakatdan ozod qilish imkoniyatlariga olib keladi va uni aqliy reja aylantiradi.

Shuning uchun nutqning kiritilishi, bajarilayotgan harakatni bildiradigan soʻz bolaning aqliy faoliyatini sifat jihatdan oʻzgartiradi. U mantiqan mulohaza yuritib, toʻgʻri xulosalar chiqarishdan oldin, ilk yoshdagi bola elementar birlashtirishlarga, sezilarli idrok qilingan narsalarni sintez qilish qobiliyatini “kashf” etadi. U “toʻp” soʻzini kichik oʻlchamdagi har qanday yumaloq obʼektlarga aytishi mumkin. Bolaning funksiyasini bir obʼektdan boshqasiga oʻtkazishning namoyon boʻlishiga asoslanib (masalan, u qalam bilan chizayotgan boʻlsa, stol ustidagi biror narsa olish uchun u qalamni surish vositasi sifatida ishlatadi), biz obrazli fikrlash koʻrinishi haqida gapirishga haqlimiz. Bola bir obʼektni boshqasi bilan taqqoslab, ulardan biri yoʻqligida ular oʻrtasidagi oʻxshashlik yoki farq haqida gapiradi (masalan, tovuqni nimalagini bilandigan uch yoshli bola birinchi marta gʻozlarni koʻrganda: “tovuqlar, katta tovuqlar!” deyishadi).

3. Mantiqiy fikrlash, taqqoslanayotgan buyumlarning har birini maqsadli tahlil qilish, ularning xususiyatlarining farqlari va oʻxshashliklarini oʻrnatishni talab qiladi. Bolaning soʻzlari, savollari va bayonotlarida erta umumlashtirish, semantik tanlash, fikrlash va xulosalar operatsiyalari aniq koʻrinadi. Ular hali ham sodda va yuzaki, chunki bolalar har bir hodisa yoki obʼektlar guruhidagi muhim (asosiy) xususiyatlarni aniqlay olmaydilar va toʻgʻri xulosa chiqaradilar. Lekin ilk yoshdagi bolaning aqliy faoliyati insonning kelajakdagi aqliy faoliyatining eng muhim shartidir. Uning asosiy qiymati shundaki, u mantiqiy tafakkurning rivojlanishiga turtki boʻlib xizmat qiladigan va kelajakda mantiqiy tafakkurning toʻgʻriligini tekshiradigan amaliy intellekt, amaliy fikrlash uchun zamin hozirlaydi.

Ota-onalarga yosh bolalarning aqliy faoliyatini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish boʻyicha maslahatlar:

1. Bola hayotdagi ogʻir damlardan chiqish uchun zaruriy yoʻllarini topishi uchun unga muammoli vaziyatlarini paydo qilish (yuzaga keltirish).

2. Uning uchun hamma narsani hal qilishga shoshilmaslik. Unga qiyinchiliklardan “omon qolish” uchun imkoniyat berish, oʻzi uchun turli yechimlarni sinash imkonini berish. Faoliyatini kuzatish, u barcha tajribani sinab koʻrib, harakatdan voz kechmoqchi boʻlgandagina aralashish.

3. Doimo taqqoslash, tahlil, sintez va umumlashtirishga doir misollar koʻrsatib turish. Bolaning hayoti ana shu imkoniyatlarga toʻla.

4. Bola nutqining rivojlanishi uchun sharoit yaratish, shu orqali uning aqliy faoliyatining rivojlanishi uchun sharoit yaratish. Lekin shuni unutmasligimiz kerakki, faqat gapirish emas, balki muayyan harakatni, nutq soʻzlash bilan bogʻliq muammoli vaziyatni aniq hal qilish muhimdir.

Shunday qilib, bolaning bilish faoliyatini rivojlantirish qonuniyatlarini ota-onalar bilan muvaffaqiyatli qilish hayotning birinchi uch yil, psixolog uning rivojlanish muvaffaqiyati uchun asosiy shart-sharoitlar shakllantirishi kerak. Bola oʻz his-tuygʻulari va idrokining rivojlanishi uchun sharoit yaratilsa, aqlli boʻladi, aktiv faoliyat uning xotirasini boyitadi, atrofdagi obʼektlarning oʻzgartirishi uchun sharoit yaratiladi, uning tasavvurlari rivojlanadi va bu bilish jarayonlarining barchasi asosida bola muammoli bilim vaziyatlarida oʻzini topadi, u oʻz savollarga yechim qidirishi, yaʼni fikrlashi kerak boʻladi.

Adabiyotlar

1. В.Я.Ляудис Память как хронотопическая основа личностной самоорганизации. //Вестник МГУ, серия 14. 1991. №4.

2. З.М.Истомина, Т.М.Капунова Зависимость запоминания разных видов материала от особенностей мыслительной деятельности детей. /Сборник: “Совершенствование содержания и методов обучения детей в детском саду”. М., 1987.

3. А.А.Смирнов Проблемы психологии памяти. М., 1966. 422 с.

4. Мактабгача ёшдаги болаларни ривожлантириш: нимага эътибор қаратиш керак (<http://olympic.uz/49711> манбаага мурожаат: 01.09.2020 й.).

5. К.Д.Ушинский Воспитание человека. Избранное. // Педагогика детства. «Карапуз», 2000. с. 210.

6. А.В.Запорожец Психологическое развитие ребенка. Избр. психологические труды в 2-х томах. М., 1986.

7. Z.T.Nishonova K.G.Alimova Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostika T.: TDPU 2017, - 264 b.

8. A.A.Turgʻunov Maktabgacha taʼlim tashkiloti pedagog-psixologi faoliyatining xususiyatlari. // “Maktabgacha va boshlangʻich taʼlimning dolzarb masalalari: muammo, yechimlar va rivojlanish istiqbollari” mavzusidagi / Xalqaro konferensiya materiallari toʻplami. – Fargʻona, 2020, 48-51 b.

9. A.A.Turg'unov Maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologlari faoliyatidagi o'ziga xos xususiyatlar. "Maktab va hayot" ilmiy-metodik jurnal, –Toshkent, 2020. № 3. 8-10 b.

10. A.A.Turg'unov Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga psixologik tayyorlash. "Pedagogik mahorat" jurnali. – Buxoro, 2020. № 3. 137-141 b.

UDK: 37.1

METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF LOGICAL THINKING IN PRIMARY SCHOOLCHILDREN

O. Yu.Karakhonova

Karshi State University

Abstract. The following article deals with the non-standard problems of Mathematics of primary school students and the way of thinking, which is one of the most convenient ways to solve them, in particular, how to develop students' skills in solving certain types of problems.

Keywords: logical thinking, primary school, creative ability, non-standard issue, reflection.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi

Annotatsiya. Ishda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mantiqiy fikrlashga o'rgatishda nostandart masalalar ko'rib chiqiladi va ularni hal qilishning eng qulay usullaridan biri bo'lgan fikrlash uslubi, xususan, o'quvchilarning muayyan turdagi muammolarni hal qilish ko'nikmalarini qanday rivojlantirish qaralgan.

Kalit so'zlar: mantiqiy fikrlash, boshlang'ich sinf, ijodiy qobiliyat, nostandart masala, aks ettirish ta'siri.

Методика развития логического мышления у начальных школьников

Аннотация. В данной статье рассматриваются нестандартные задачи математики учащихся начальных классов и образ мышления, который является одним из наиболее удобных способов их решения, в частности, как развить у учащихся навыки решения определенных типов задач проблемы.

Ключевые слова: логическое мышление, начальная школа, творческие способности, нестандартная проблема, размышление.

Introduction

Special attention is paid to the analysis of the concept of "mind" as a comprehensive concept in the world, the orientation of students to logical thinking in the teaching of natural and exact sciences, the expansion of the content of competence requirements of education on the basis of criteria, characteristics. In the context of globalization and the intensification of information, the acquisition of knowledge in Mathematics in the primary grades in a critical and creative approach, the development of numeracy skills, arithmetic and problem-solving skills serves to strengthen its integration. As a result of consistent reforms in our country to create conditions for the full development and well-being of man, the realization of his interests, to bring the quality and effectiveness of education to a new level, the opportunities for developing logical thinking skills in primary education are increasing. There is also a need to expand the content of technologies to develop students' logical thinking skills in the teaching of Mathematics in the primary grades.

The Strategy of Actions for the Further Development of the Republic of Uzbekistan identifies priorities such as "further improvement of the system of continuing education, increasing access to quality educational services, support and realization of creative and intellectual potential of the younger generation" [1]. It is important to analyze the practice of developing thinking skills, to determine the criteria of logical thinking, to develop recommendations for the intellectual development of students and the acquisition of skills in accordance with their abilities and inclinations.

Analysis of the relevant literature

The issue of the primacy of thought played an important role in the logical teachings of the Greek philosopher Democritus (BC. 460-370). He focused more on the study of induction and analogy, emphasizing the need to generalize through observation, perception of individual objects to know the truth. It also explained the law of sufficient basis on an ontological basis and substantiates its pedagogical significance to the learner [2, 3].

The encyclopedic scholar and thinker Abu Rayhan Beruni emphasized that there were two stages in drawing conclusions: the possibility of compromise, and the active use of opportunities. For this, everyone should start from the end through consultation" [4, 5].

The great thinker in his works such as "India", "Monuments of ancient peoples" spoke about the need to inculcate the skills of inductive and deductive thinking of young people, pointing to the enrichment of human thinking, ways to achieve logical consistency in speech [6, 7].

According to the thinker, science is like a lamp lit in a dark house. A man of knowledge and enlightenment is like a rose in a thorn bush. Blessed is he who pursues the path of knowledge. Such people are generous, "Generous people are the fruitful tree of the garden, but it is the sweet fruit of the tree, the wavy river of the land of humanity. Perhaps it is the real pearl of the wavy river" [8,9]. He also indicated the need to create opportunities for members of society to actively participate in economic and social processes. In order for as many people as possible in society to realize and demonstrate their abilities, they need to develop the skills of logical observation, motivation, interest, aspiration, the creation of works by scientists and the theoretical substantiation of ideas.

Abu Nasr al-Farabi stated: "Governance requires the embodiment of a number of noble qualities that can express the art of leadership, and since such a talent is rare in a person, it is appropriate for the state to be ruled by a group of logical thinkers" [10,11].

According to the sage, the process from discussion to decision-making is carried out through the exchange of views of scientists, scholars and sages, as well as the methods of consultation, advice, and consultation.

In the late nineteenth and early twentieth centuries, many pedagogical theories emerged in foreign countries. Some of them were aimed at improving the education system, increasing the activity of students, the formation of logical observation skills.

During this period, a pedagogical movement called "New Schools" emerged, the founder of which was the French pedagogue E. It was Demolen. Such schools have been opened in many countries such as England, USA, France, Belgium, Switzerland. The International Association of New Schools was established in Geneva, which set out the requirements for new schools. The work in the new schools was well organized, fully equipped classrooms and laboratories were established, and "free and active" methods were used.

Schools were a practical pedagogical laboratory that sought to educate children through a general increase in their thinking ability, rather than by "filling their brains with memorized knowledge". Students were taught how to observe, find hypotheses, and test their hypotheses. Teaching in such schools was based on facts and experience, fostering children's initiative and independence.

The ideas of the German scientist Wilhelm August Lay (1862-1926), who founded the "Pedagogy of action" in the late XIX century, also had his own positive aspects and innovations. Lay attached great importance to expression, depiction in the pedagogical process, because in his opinion, in the process of such expression or depiction, students have the opportunity to show their activity, and how to act. At the end of the nineteenth century, according to the doctrine of experimental pedagogy, which was widespread in Germany, England, and the United States, the hypothesis was put forward that it was acceptable to use the "Test method" to study mental ability.

In the 40s and 50s of the twentieth century, the formation of students' skills of logical observation in the learning process through technical means (radio, cinema) was equated with pedagogical technology. Only in the mid-60s, in the 70s, the content of this concept began to be widely discussed in foreign pedagogical publications (USA, Japan, England, Italy, Hungary) and at international conferences, and the Uzbek scholar N. Saidakhmedov noted that its two directions were indicated. The first direction defined pedagogical technology as the application of "technical means of teaching".

Summarizing all the ideas, we have come to the following conclusion: logical thinking, inductive and deductive observation are one of the main categories in the teaching of all disciplines, and the existing social reality serves as a criterion for determining its relevance to human nature and learning.

The range of students' motivation in the learning process, their level of interest in science can be illustrated by a number of research papers, but in the process of teaching elementary mathematics (logical thinking, comprehension, free observation, creative thinking) use pedagogical opportunities, activating interest based on focused tasks (especially, logical thinking, perception) remain unresolved.

Analysis and results

Nowadays world of globalization and information, the intensification of information attacks requires students to be able to protect themselves from this information, to consider it critically and creatively

without directly accepting it, and to distinguish what is important and useful to them through logical thinking.

The fact is that a clear definition of the concept of logical thinking has not yet been developed, and still requires a dialectical approach to the problem.

Thinking is a process of cognitive activity of the person, characterized by direct and generalized reflection of reality. Thinking combines interdisciplinary research, complex sciences.

Logical thinking is one of the highest levels of thinking, it refers to the connection of ideas on the basis of consistency, sequence, and reflects an important aspect of a person's creative activity. In turn, the formation of these qualities in the individual allows you to form an active member of a democratic and humane society.

The formation of students' logical thinking as a whole system includes the purpose of education, teacher activities, student activities, learning outcomes, educational content, form, methods and tools.

The outcome of teacher and student activities for the development of logical thinking skills in primary school mathematics depends on the purpose of the didactic process, the content of the teaching material, the correct and rational definition and selection of teaching forms, methods and tools. required to be available. It would be useful to distinguish that the main factors influencing the development of logical thinking skills in primary school mathematics are: physiological, psychological, social, pedagogical and methodological factors.

The organizational-integrative model of physiological factors influencing the formation of students' logical thinking in primary school mathematics lessons is as follows. (Figure 1).




Figure1. Physiological factors influencing the formation of logical thinking

The organizational-integrative model of psychological factors influencing the formation of logical thinking is shown in the following figure. (Figure 2)




Figure 2. Psychological factors influencing the formation of logical thinking

The following picture shows the pedagogical factors influencing the formation of logical thinking in students in primary school mathematics lessons. (Figure 3).




Figure 3. Pedagogical factors influencing the development of logical thinking skills.

From the above considerations, it is clear that the factors influencing the formation of logical thinking have a holistic view and have a progressive character. That is, the accumulation of productive factors influencing this process, their stratification, the scope of influence allows them to be summarized as common factors. Knowing the factors that influence the formation of logical thinking in Mathematics lessons and being able to assess the degree of their impact requires the teacher to be creative, to have special competencies.

In the process of teaching primary Mathematics, it was found that the criteria for developing students' logical thinking skills are as follows:

1. Independence of thinking;
2. Speed and robustness of learning material;
3. Speed of thinking in solving non-standard tasks;
4. Deep penetration into the content of the laws of mathematical phenomena under study (the ability to distinguish important theory from unimportant theory);
5. Critical thinking.

In Mathematics, it is desirable that the purpose and content of the development of logical thinking skills in students be realized in the balance of interaction. As a result of interaction in the educational process, the continuous development of students and the fact that educational activities are based on the principles of free, human relations and democracy are guaranteed.

As a result of our observations, we recognize that the focus is on the development of the learner's personal qualities, that is, the qualities of personal importance that reflect his or her attitude toward common values. In primary school Mathematics lessons, the student is asked to:

- 1) be actively creative in the process of social adaptation or situation organization;
- 2) creativity, education, study, self-education based on the independent organization of their activities are required as the goal of pedagogical activity.

In Mathematics, the teacher's educational activity is organized on the basis of gradual, mutually equal cooperation.

Thus, the intuitive, logical, epistemological, and practical aspects of methods in teaching mathematics are considered as a whole in order for students to acquire logical thinking skills.

The use of focused tasks to develop students' logical thinking skills often requires the use of project methods, research methods, and problem-based learning methods.

It is important to develop the methodological basis of didactic methods to expand students' knowledge of Mathematics.

At certain stages, new groups of methods emerge. The importance of teaching methods in the process of modernizing the teaching of mathematics in the primary school is a methodologically recognized process, which is the basis for the development of logical thinking skills in students in Mathematics lessons.

Experience shows that the use of the following forms of work is important in the development of logical thinking skills in primary school students: imagining a given condition of mathematical problems, analyzing events and processes, organizing problem-based lessons, using qualitative issues aimed at forming imagination and figurative views; working with cases; forms of group work and organization of debates; creation of educational-technological map of the lesson; is to organize creative circles.

The advantage of interactive methods in the formation of logical thinking in students in Mathematics is that students do not only express their views on ideas, views and arguments, but also activate students' vast information potential and use their full potential in a positive task in the learning process: will always be higher than the amount of intellectual power.

The interactive teaching method has clear opportunities to create a collaborative atmosphere in the classroom. Without a ready-made recipe for a good lesson, the teaching technology based on this teaching

method teaches the teacher to work as a creative author. As a result, the student acquires the ability to develop and make their own non-standard conclusions and decisions in response to any changes in life, and production.

The use of the interactive method in practice is an increase in the implementation of communication. One of the important conditions of such a situation is the accumulation of personal experience in the field of Mathematics. In short, in order to develop students' logical thinking skills in Mathematics, it is necessary to develop their mental qualities, general mental abilities. N.S. Leites shows that in the properties of higher nervous activity is hidden some conditions of activity and self-regulation, which are one of the important internal conditions for the formation of general, mental abilities, and assessment and logical thinking skills, can be developed. The purpose of the experimental work was to improve the content, methods and pedagogical conditions for the development of students' logical thinking skills using innovative methods and quality issues. It is based on the following in the formation of logical thinking skills in students.

Motivation for logical thinking is a subjective aspect of the world of student thinking, which is determined by its initiatives and preferences, the needs of logical thinking that it realizes. Teaching on a topic cannot be based solely on curiosity, as students' interest is mainly expressed in a chaotic manner — discussion, exchange of ideas, and independent expression.

In the process of teaching mathematics in the primary school, it is necessary to use the methods of logical thinking and, on this basis, to design lessons on the basis of modern content to develop students' logical thinking skills.

As a result of providing students with tasks aimed at developing logical thinking skills, the mathematics teacher should pay special attention to their activities of identification, study, analysis, evaluation, development, generalization, popularization, creation of new ones.

Conclusion and recommendation

Based on our research on the formation of logical thinking skills in students in Mathematics lessons in primary education, we came to the following conclusions:

1. The pedagogical possibilities of using tasks aimed at developing students' logical thinking skills in order to decide the purpose of the research in research have been scientifically substantiated.
2. Motivation and interests of students were taken into account, and a system of formation of mental operations: analysis, synthesis, comparison, generalization, inference and judgment was developed and the level of their mastery was checked.
3. The characteristics of students' understanding of scientific concepts, their comparison, comparison were studied;
4. The pedagogical situation in group groups was analyzed;
5. Students' interest in science, motivation for the proposed tasks were taken into account, and a system of logical thinking was developed and the level of their mastery was checked.
6. Rational organization of lessons for the development of logical thinking skills in students, the teacher's interest in students, their active participation in the educational process, the division of teaching material into small pieces, discussion of their content, discussion, brainstorming, small group work, cubic and the use of bingo game methods, the introduction of colorful interesting quality issues, encouraging students to do laboratory work independently, the appropriate use of color assessment methods, teaching aids have led to effective results.
7. The technology of using pedagogical opportunities to use tasks aimed at developing logical thinking skills in students during the experiment was realized by teachers by performing special types of tasks, independent activities, and their effectiveness was achieved with the help of certain criteria.

In addition, the following suggestions can be made in the formation of logical thinking skills in students in the process of teaching mathematics:

-clear focus on the study of mathematics in primary school (teacher setting goals for the lesson, topic, department, stratification, definition and integration of goals; separation of lesson objectives; creative approach to improving student performance);

-selection of teaching materials for the course of primary school mathematics and the implementation of programmed education, its integration, the creation of a list of non-standard issues relevant to the content.

References

1. Decree № PF 4947 of President of the Republic of Uzbekistan dated February 7, 2017, "On Further Development Strategy of the Republic of Uzbekistan . (Development of the Republic of Uzbekistan in 2017-2021 the five priorities of the strategy).
2. Akramova G. R., Akramova S. R. Developing critical thinking on elementary class pupils is the most important factor for preparing social relationship. JOURNAL OF CRITICAL REVIEWS. ISSN- 2394-5125 VOL 7, ISSUE 17, 2020. .

3. Beruni Abu Rayhan. Objection. // Collected novels: edited by I. Muminova. Volume 6.- Tashkent: "Fan", 1983.49p.
4. Djurakulova A.Kh. The importance of non-standard issues in shaping students'abilities. // «Social sciences in Uzbekistan», T., Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, 2011, Issues 1-2.139 p.
5. Jumaev M.E. Methods of teaching Mathematics. (Textbook for Higher education.) Tashkent. "Turon-Ikbol" 2016. 426 p.
6. Jumaev M.E., Tadjieva Z.G. Methods of teaching mathematics in primary school. (Textbook for Higher education.) Tashkent. Science and technology, 2005.
7. Konstantinov N.A. The birth of pedagogical theory in Ancient Greece. Aristotle Plato. Democritus. Ed. Ped. Op. in 2 volumes.-Socrates.- M.: Politizdat, 1990.487 p.
8. Karakhonova O.Yu. Features of didactic means of forming logical thinking among primary school students // Pedagogical education and science. Scientific and methodical journal founder: Moscow, No. 2, 2017, pp. 114-117.
9. Safonova V.V., Sysoyev P.V. US Culture and Society, textbook on us Cultural Studies (Profile Level), Moscow: Evroshkola, 2005.
10. Schmidt H. D. Zum Problem des Konstrukttbegriffs in der empirischen Persönlichkeitsforschung und-diagnostik- Z Psychol 1999.- 182 p.
11. Sears R. Your ancients Resisted: A History of Child Psychology // E. N.Heterington (ed). Review of child development research. V. S. Chicago, 1975...." <http://psychlib.ru/mgppu/ODE/ODE-001.htm>.
12. Tadjieva Z.G. and others. The use of historical materials in improving the effectiveness of mathematics lessons in primary school. Tashkent. TSPU, 2008., 96.

UDK 377.5:378

ZAMONAVIY RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA ULARNI TA'LIM JARAYONIGA JORIY ETISHNING ZARURATI

A.A. Parmonov

*O'zbekiston milliy universiteti Jizzax filiali
pabdutolib@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llash, ularning imkoniyatlarini tahlil qilish asosida o'quv jarayonini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari aniqlangan. Shuningdek, oliy ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etishga ilmiy asoslangan xulosalar tuzishda mavjud bo'lgan amaliyotni o'rganish, tizimlashtirish va umumlashtirish orqali ta'lim sohasida nafaqat muhim o'rin egallashi va qanday shaklda joriy etilishi bo'yicha takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, oliy ta'lim tizimi, zamonaviy ta'lim, raqamli bilimlar, Internet tizimi, masofaviy o'qitish.

Современные цифровые технологии и необходимо приведение их в образовательный процесс

Аннотация. В статье определены приоритеты развития образовательного процесса на основе использования цифровых технологий в высшей школе, проведен анализ их возможностей. Он также предлагает предложения о том, как не только играть важную роль в образовании, но и как реализовать ее через изучение, систематизацию и обобщение существующей практики для получения научно обоснованных выводов о внедрении цифровых технологий в высшее образование.

Ключевые слова: цифровые технологии, информационные и коммуникационные технологии, система высшего образования, современное образование, цифровые знания, Интернет-система, дистанционное обучение.

Modern digital technologies and it is necessary to bring them into the educational process

Abstract. The article defines the priorities for the development of the educational process based on the use of digital technologies in higher education, and analyzes their capabilities. He also offers suggestions on how not only to play an important role in education, but also how to realize it through the study, systematization and generalization of existing practices to obtain evidence-based conclusions about the introduction of digital technologies in higher education.

Keywords: digital technologies, information and communication technologies, higher education system, modern education, digital knowledge, Internet system, distance learning.

Kirish. Bugungi davrda ta'lim tizimining dolzarb yo'nalishlaridan biri raqamli iqtisodiyot uchun kompetent kadrlarni tayyorlash maqsadida pedagogik va raqamli texnologiyalarni integratsiyalaydigan axborotlashtirish sanaladi. Hozirgi sharoitda ochiq ta'lim resurslari va ommaviy ochiq onlayn kurslarning

qulayligi axborot texnologiyalarining ta'limiy salohiyatini boyitishga xizmat qilmoqda. Yetakchi ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish sharoitida bo'lajak mutaxassislar uchun zarur kompetensiyalarni shakllantirish sohasida tadqiqotlar olib borilmoqda, o'z navbatida, pedagogik tashxisni takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beradigan metodikalarni tatbiq qilish ustuvor yo'nalishlar hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda zamonaviy raqamli texnologiyalar hayotning barcha sohalarida (transport, qurilish, sanoat, xizmat ko'rsatish, tibbiyot, ta'lim) faol qo'llanilmoqda. Yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar, jumladan yosh bolalardan tortib nafaqaxo'rlarning ham ongida raqamli texnologiyalar orqali jamiyatdagi barcha muammolarni hal qilish mumkin degan fikrni shakllantirmoqda. Bundan tashqari, ta'lim tizimida pedagoglar o'zlarining dars sifatini yanada oshirish va talabalarni fanga nisbatan qiziqishlarini oshirish maqsadida raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali samarali erishmoqdalar.

Jamiyatimizda raqamli texnologiyalardan foydalanishga asoslangan hamda joriy etilgan texnologiyalarning so'zsiz foydasi bilan axloqiy, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, robotlar va tashkilotlar xodimlari o'rtasidagi raqobatning huquqiy jihatlar bilan bog'liq masalalar tobora ko'proq e'tiborga olinmoqda.

Jumladan, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalariga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi" [1].

Raqamli texnologiyalarni ta'lim tizimiga kirib kelishini va bu orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan islohatlarning g'uruhiy asosi bo'lmish "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish" konsepsiyasi hamda «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasini keltirish mumkin. Jumladan, **O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida quyidagi masalalarga to'xtalib o'tilgan:**

- bugungi kunda respublikada 114 ta oliy ta'lim muassasasi mavjud bo'lib, ulardan 93 tasi mahalliy hamda 21 tasi xorijiy oliy ta'lim muassasasi va ularning filiallari hisoblanadi. Jumladan, so'nggi 3 yilda yangi 6 ta oliy ta'lim muassasasi, 17 ta filial va 14 ta xorijiy oliy ta'lim muassasasi filiali tashkil etildi.

- kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga 329 ta ta'lim yo'nalishi va 582 ta magistratura mutaxassisligi kiritildi.

- 2019/2020 o'quv yilida 59 ta oliy ta'lim muassasasida sirtqi ta'lim, 10 ta oliy ta'lim muassasasida kechki ta'lim shakli joriy etildi.

- Respublika oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha 410 ming, magistratura mutaxassisligi bo'yicha esa 13 ming nafarni tashkil qilib, so'nggi 3 yilda 1,7 baravarga oshdi.

- talabalarining 54,8 foizi gumanitar va pedagogik, 25,2 foizi ishlab chiqarish-texnik, 5,2 foizi ijtimoiy soha, iqtisod va huquq, 5,9 foizi qishloq va suv xo'jaligi, 4,4 foizi sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot, 4,5 foizi xizmat ko'rsatish bilim sohalariga oid ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha tahsil olmoqdalar.

- magistratura talabalarining 40,8 foizi gumanitar va pedagogik, 23,3 foizi ishlab chiqarish-texnik, 13,3 foizi ijtimoiy soha, iqtisod va huquq, 5,9 foizi qishloq va suv xo'jaligi, 13,5 foizi sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot, 3,2 foizi xizmat ko'rsatish bilim sohalariga oid ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tahsil olmoqdalar.

- 2019/2020 o'quv yili uchun qabul parametrlari 121 mingtani tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 18 foizga, 2016 yilga nisbatan esa 92 foizga oshdi.

- Respublikaning 16 ta oliy ta'lim muassasasida 2018/2019 o'quv yilidan boshlab xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash faoliyati yo'lga qo'yildi [2].

Raqamli O'zbekiston — 2030 strategiyasida quyidagi masalalarga to'xtalib o'tilgan:

- Texnologik kasblar va innovatsion faoliyat sohasida o'qishni tashkil etishga qaratilgan yuqori samarali xalqaro amaliyotni ta'lim tizimiga joriy etish;

- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan bog'liq yo'nalishda kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari sonini, axborot texnologiyalar sohasida o'rtacha darajada kompetensiyaga ega bo'lgan o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilarini oshirish;

- Axborot texnologiyalar sohasidagi tashkilotlarining o'quv jarayonlarga qatnashishini rag'batlantirish orqali umumta'lim maktablarda informatika fanini o'qitish metodlarini takomillashtirish;

- Oliy ta'lim muassasalarida tegishli sohalarida «Internet buyumlar», robototexnika, sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash va o'rganish bo'yicha laboratoriyalar, shuningdek, xorijiy korxonalarni ushbu sohaga jalb qilishni tashkil qilish;
- Qog'oz shaklidagi materiallarni raqamlashtirish formatlaridan foydalanish bo'yicha davlat yagona talabini ishlab chiqish va qo'llab-quvvatlashni ta'minlash orqali ta'limda o'quv materiallarini raqamlashtirish;
- Raqamli texnologiyalar sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish va rag'batlantirish, ularning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish;
- G'oyalar va yangi texnologiyalar yaratishni targ'ib qiluvchi respublika tanlovlari va tadbirlarini (xakatonlar, konkurslar, olimpiadalar va boshqalar) o'tkazish [3].

Yuqoridagi raqamlar va masalalardan ko'rinib turibdiki, respublikamizda oliy ta'lim tizimida tub burilish amalga oshirilmoqda. Bu esa o'z navbatida xar tomonlama yetuk va kasbiy kompetensiyaga ega malakali mutaxassislariga hamda raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayonida keng qo'llashga extiyoj sezadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani yozishda respublikamiz oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llash, ularning imkoniyatlarini tahlil qilish asosida o'quv jarayonini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash maqsadi qo'yilgan bo'lib, unda raqamli texnologiyalarning ta'lim sohasida nafaqat muhim o'rin egallashi va qanday shaklda joriy etilishi bo'yicha tahlillar amalga oshirildi. Tadqiqot usullari sifatida oliy ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etishga ilmiy asoslangan yondashuvni shakllantirishga tegishli xulosalar tuzishda normativ hujjatlarni, mavjud bo'lgan amaliyotni o'rganish, tizimlashtirish va umumlashtirishdan foydalanildi.

Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini nafaqat kasbiy va ta'lim standarti talablarini bajarish, balki raqamli texnologiyalar sharoitida ishlashga moslashgan, axborot texnologiyalari va servislari yordamida mustaqil o'zini o'zi takomillashtirishga qodir mutaxassisni shakllantirishga yo'naltirish imkonini beradi.

Ta'lim mazmuni, vositalari va texnologiyalarini tanlash bilan bog'liq oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil qilishni takomillashtirish, uning sifatini takomillashtirish masalalarini samarali hal qilish bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash va tiklash ob'ektlari, sub'ektlari va jarayonlarini ma'lum tizimlar ko'rinishida taqdim qilishni nazarda tutadiki, ularni optimizatsiyalash, yaroqliligi va sh.k. haqida qaror qabul qilish uchun tashxislash ularning asosini bakalavr modeli tashkil qiladigan tizimini tashkil qilish bilan uzviy bog'liq. Pedagogik diagnostika jarayonida integral tizim tarkibida mutaxassis modeli alohida e'tiborga molik bo'lib, u boshqa barcha tarkibiy qismlarni bog'lovchi element vazifasini bajaradi.

Ta'lim tizimi bugungi kunda raqamli texnologiyalarga singib ketayotgani shunchaki hayratlanarli yemas, chunki, bugungi kunda axborot makonida taklif etilayotgan ko'plab narsalarni jiddiy tahlil qilish va pedagogik asoslash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. So'nggi yillarda ta'limni «raqamlashtirish» muammolari, uning shakllanishiga ta'siri bo'yicha biror-bir davlat loyihasi yoki so'rovnoma asosida tadqiqotlar o'tkazilmaganligi ham muhimdir [4]. Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni o'qitish sifatini saqlab qolgan holda samarali qo'llashni quyidagi tuzulma orqali amalga oshirish mumkin (1-rasm).

Alohida shuni ta'kidlab o'tish kerakki, bugungi kunda hayotimiz har jihatdan texnika va texnologiyalar bilan bog'liq, ya'ni ertalab soat bongidan boshlab to kun rejasini tuzish va o'qish bilan yakunlashgacha bularga bevosita ishimiz tushadi. Biz ta'lim sifatini oshirish va rivojlantirish uchun texnologiyalardan manfaatli foydalanish imkoniyatini yaratishni istadik. Qachonki, planshet ta'lim olishning bir elementiga aylansa, talabalar o'qish jarayoniga katta qiziqish bilan kirishadi. Bu o'yin bilan klassik ta'limni birlashtirishga tengdir. Natijada o'qish jarayoni yaxshilanadi, o'zlashtirish, ta'lim darajasi va kadrlarni tayyorlash samaradorligi oshadi. Bilimli va ilimli yoshlar, professional kadrlar - bu jamiyatning keng miqyosda rivojlanishining kafolatidir.


Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kun auditoriyalari o'n yil, o'n besh yil avvalgilaridan juda katta farq qiladi va sinf xonalari kompyuterlar, iPad, planshetlar, smart-doskalar va boshqa turdagi ta'lim texnologiyalari bilan jihozlangan. Dunyoning boshqa joylarida bo'lgani kabi Respublikamizda ham raqamli avlodning yetti ekranli avlodi - televizor, kompyuter, planshet, tablet, fablet, smartfon va smartsoatlari paydo bo'lmoqda. Bunday zich raqamli muhitga ega bo'lish va u bilan doimiy o'zaro munosabat natijasida bugungi kun talabalarining fikrlashi va axborotlarga ishlov berish jarayonlari oldingi fikr yuritish va axborot jarayonlaridan tubdan farq qilmoqda.

Raqamli avlod ota-onalarimiz o'rgangan uslubda o'qitilishi mumkin emas va bo'lmasligi ham kerak. Bu avlodni o'qitishda eskicha texnologiyalar(qora doska va oq bo'r)dan foydalanish ham mumkin emas. Qora doskani oqiga va bo'rni markerga o'zgartirish hech narsani o'zgartirmaydi, ya'ni zamonaviy talabalarni bilim olishga va mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishish ko'nikmalarini rivojlantirishga undash usuli bo'la olmaydi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovatsion

ta'lim texnologiyalari va didaktik modellarni ommaviy va samarali qo'llash orqali ta'lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish zamon talabi hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda, ta'lim jarayonida tadqiqotga asoslangan yondashuvdan faol foydalanish lozim va bu bilan ilmiy tadqiqotda talabalarning ko'nikmalarini rivojlantirish va IT- kompetensiyaga asoslangan ijodiy qobiliyatlarini va ijodiy fikrlashlarini shakllantirish mumkin. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari – ta'lim tizimidagi barcha muammolarga yechim emas, balki raqamli avlod uchun ma'ruzalar va seminarlarni ma'lumotlarga boy va interaktiv qilib amalga oshirish vositasidir. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, o'qituvchilar talabalarning ehtiyojlariga yo'naltirilgan interfaol o'quv jarayonida asosiy rolni saqlab qoladi.

O'qituvchining mahorati va talabalar oldidagi obro'sini va uning faoliyatining samaradorligi faqatgina o'qitadigan fanining mazmunidagi bilimlar darajasi va uning pedagogik qobiliyatiga emas, balki muayyan o'quv materialini to'plash, qayta ishlash va o'qitish hamda bu bilimlarni o'qituvchining qanchalik zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash darajasiga bog'liq holda talabalar ongiga yetkazishi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, raqamli asrda ta'lim qayta ko'rib chiqilishi va ta'lim paradigmasi o'zgartirilishi shart, chunki talabalar ortiq an'anaviy uslubda o'qishni xohlamaydilar va o'qituvchilar ham bu kabi odatiy usulda o'qitishni davom ettirishlari bugungi zamonning o'zi inkor etmoqda.



1-rasm. Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llash tuzilmasi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi. "Xalq so'zi", 2020. -2 b.

2. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi 2-bobi. 1-bet.

3. Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasi 2-bob 5-qism. -1 b.

4. Шаронин Ю.В. цифровые технологии в высшем и профессиональном образовании: от лично-ориентированной Смарт-дидактики к блокчейну в селевой подготовке специалистов // Современные проблемы науки и образования. – 2019. – № 1.-94 б.

UDK: 37.1

**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA «INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI»
FANIDAN ELEKTRON DARSLIK LARNI YARATISHGA
QO'YILADIGAN TALABLAR**

U.K.Taylakov

*O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqod instituti
umidtaylakov@mail.ru*

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida "Informatika va axborot texnologiyalari" fanidan elektron darsliklarni yaratishga qo'yiladigan talablar, multimediali elektron darslikning mazmuni, dizayni va shakli uyg'unligi bo'yicha mezonlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Elektron darslik, multimedia, axborot, axborot texnologiyalari.

Требования к созданию электронных учебников по «информатике и информационным технологиям» в средней школе

Аннотация. В статье рассматриваются требования к созданию электронных учебников по «Информатике и информационным технологиям» в общеобразовательных школах, критерии совместимости содержания, дизайна и формы мультимедийных электронных учебников.

Ключевые слова: Электронный учебник, мультимедиа, информация, информационные технологии.

Requirements for the creation of electronic textbooks on "informatics and information technologies" in secondary school

Abstract. The article discusses the requirements for the creation of electronic textbooks on "Informatics and Information Technology" in secondary schools, the criteria for the compatibility of the content, design and form of multimedia electronic textbooks.

Keywords: Electronic textbook, multimedia, information, information technology.

Umumta'lim maktablari uchun fanlardan multimediali elektron darslikni yaratish jarayonida psixologik, pedagogik, texnologik, estetik va ergonomik talablar qo'yiladi. Multimediali elektron darslik ham bosma darslik, o'quv va uslubiy qo'llanma kabi an'anaviy o'quv nashrlariga qo'yilgan didaktik talablarga javob berishi kerak. Didaktik talablar ta'lim berishning spetsifik qonuniyatlariga va mos ravishda o'qitishning didaktik tamoyillariga mos kelishi kerak. Quyidagi jadvalda umumta'lim fanlari bo'yicha yaratiladigan multimediali elektron darsliklarga bo'lgan talablar keltirilgan (1-jadval):

1-jadval.

Talablar	Mazmuni
Ilmiylik	Fan, texnika va texnologiyalarni so'nggi yutuqlarni hisobga olgan xolda o'quv materialini mazmunining yetarlicha chuqurligini, ishonchligini ta'minlaydi. O'quv materialining multimediali elektron darslik yordamida o'zlashtirish jarayoni o'qitishning zamonaviy usullari bilan mos xolda qurilishi lozim. Bunday usullarga tajriba, eksperiment, solishtirish, kuzatish, abstraktlash, umumlashtirish, yaxlitlashtirish, o'xshashlik, taxlil va sintez, modellashtirish uslubi, shu bilan birga matematik modellashtirish, shuningdek tizimli tahlil usullari kiradi
Erishuvchanlik	Multimediali elektron darslik vositasida amalga oshiriladi o'quvchilar yoshi va psixologik xususiyatlariga mos holda o'quv materialini o'rganishning murakkablik va chuqurlik darajasini aniqlash zaruriyatini bildiradi. O'quv materialini haddan ziyod murakkablashtirish va ortiqcha yuklash mumkin emas, unda ta'lim oluvchi bu materialni egallashga o'zgarishsizlik qiladi

Muammoviylikni ta'minlash	Fanlarni o'qitishda qo'yiladigan asosiy talab bo'lib, ta'lim olish faoliyatining tavsifi va mavjudligi bilan shartlashtiriladi. Agar o'quvchi muammoli vaziyatga duch kelsa, uni mustaqil yechishga harakat qilsa, uning ijodiy qobiliyati va fikrlash faolligi o'sadi. Ushbu didaktik talabni bajarilish darajasi, an'anaviy darsliklar va o'quv qo'llanmalaridan ko'ra, multimediali elektron darslik yordamida sezilarli darajada yuqori bo'lishi mumkin
Ko'rgazmalilikni ta'minlash	O'quvchilar tomonidan o'rganilayotgan ob'ektlar, ularning maketlari yoki modellari, mahsulotni tayyorlashning texnologik jarayonini sezgi yordamida qabul qilish va shaxsan kuzatish imkoniyatini hisobga olish zaruriyatini bildiradi
Onglilik, mustaqillik va faollikni ta'minlash	O'quv faoliyatining yakuniy maqsad va vazifalariga erishishda o'quv axborotini jalb qilish bo'yicha o'quvchilarning mustaqil ishlashlari uchun multimediali elektron darslik va vositalari bilan ta'minlashni ko'zda tutadi, ya'ni o'quvchi uchun o'quv faoliyati yo'naltirilgan maqsad va mazmunni anglatadi. Umumta'lim fanlari bo'yicha multimediali elektron darsliklar tizimli faoliyat yondashuvi asosida yaratilishi lozim. Shu bois multimediali elektron darslikda o'quvchi faoliyatining aniq modeli kuzatilishi zarur
Tizimlilik va ketma-ketlik	O'rganiladigan fan sohasida bilimlar va ko'nikmalarning ma'lum tizimining o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi ketma-ketligini ta'minlanishini bildiradi. Bilim, ko'nikma va mahorat ta'lim tizimida mantiqiy tartibda shakllanishi va hayotda qo'llanilishda o'z o'rnini topishi
Bilimlarni o'zlashtirish mustahkamligi	O'quv materialini mustahkam o'zlashtirish uchun uni mushoxada qilish, xotirada saqlashga intilish katta ahamiyatga ega.

Bilim, ko'nikma va mahorat ta'lim tizimida mantiqiy tartibda shakllanishi va hayotda qo'llanilishda o'z o'rnini topishi uchun quyidagilar zarur:

- o'quv materialini tizimlashtirilgan va strukturlashtirilgan holda tavsiya qilish;
- o'quv materialining har bir bo'limida shakllanadigan bilim, ko'nikma va mahoratlarning rivojlanishini ham inobatga olish;
- o'rganilayotgan o'quv materialining fanlararo bog'liqligini ta'minlash;
- o'quv materialini va ta'lim beruvchi ta'sirlarining uzatilish ketma-ketligini chuqur o'ylab ko'rish;
- bilim berish jarayonini o'qitish mantiqi bilan aniqlanadigan ketma-ketlikda qurish;
- multimediali elektron darslik tavsiya qilgan axborotni, o'qitishning mazmuni va uslubi ta'lim oluvchining shaxsiy qobiliyatiga bog'liq holda tanlanishi kerak, masalan, mazmunli o'yin holatlarini yaratish, amaliy tavsifdagi topshiriqlar va eksperimentlarni, real jarayonlar va mavjudotlar modellarini tavsiya qilish yo'li bilan amaliyot bilan bog'lanishni ta'minlash.

An'anaviy bosma nashrlarga qo'yiladigan didaktik talablardan tashqari, multimediali elektron darslikka uni yaratish va foydalanishda zamonaviy axborot va telekommunikatsion texnologiyalarning ustunliklarini inobatga olish kabi quyidagi o'ziga xos didaktik talablar qo'yiladi.

Moslashuvchanlik talablari. Multimediali elektron darslik ta'lim oluvchining individual imkoniyatlariga, ya'ni o'qitish jarayonida ta'lim oluvchi bilimlari, ko'nikmalari va psixologik xususiyatlariga moslashtirilgan bo'lishi lozim.

Moslashuvchanlik talablarining uchta darajasi mavjud. Birinchi darajasi o'quvchilarning o'quv materialini o'rganishda o'zlariga qulay bo'lgan individual tempini tanlash imkoniyati bo'lib, ikkinchi darajasi ta'lim oluvchi holatining diagnostik tahlilidir. Tahlil natijalari asosida ta'lim berishning mazmuni va uslubi taklif qilinadi. Uchinchi daraja ochiqcha yondashuvga asoslanib, unda foydalanuvchilar guruhlari ko'zda tutilmaydi. Dasturni ta'lim oluvchilarning imkonini boricha ko'proq kontingenti uchun, imkon darajasida ko'proq variantlarini ishlab chiqishlari tavsiya etiladi.

O'qitishning **interfaollik talablariga** o'qitish jarayonida o'quvchi bilan multimediali elektron darslikning o'zaro hamkorligini ta'minlash ta'luqlidir. Multimediali elektron darslik interfaol muloqot va teskari aloqani ta'minlashi lozim. Teskari aloqa nazoratni amalga oshiradi, navbatdagi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha tavsiyalar beradi, ma'lumotnoma va tushuntiruvchi axborotlar bilan muloqot o'rnatish ta'minlanadi.

Bilimlarni taqdim qilishda **kompyuter vizuallashtirish imkoniyatlarini joriy qilish talablari.** Zamonaviy elektron vositalar imkoniyatlari va multimediali elektron darslikda bilimlarni namoyish qilish sifatini tahlil qilishni ko'zda tutadi.

Ta'lim oluvchining *intellektual qobiliyatini rivojlantirish talablari*. Fikrlash murakkab vaziyatlarda maqbul qarorlar qabul qila olish mahorati, axborotga ishlov berish bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirishni ko'zda tutadi.


Multimediali elektron darslikda *ta'lim berish didaktik siklining to'liqligi va uzluksizligini ta'minlash talablari*. Multimediali elektron darslik didaktik siklining barcha zvenolari axborotli va kommunikatsion texnika bilan ishlashning bitta seansi chegarasida bajarilish imkoniyatini berishi kerakligini bildiradi.

Umumta'lim fanlari bo'yicha multimediali elektron darslikka bo'lgan didaktik talablar bilan bir qatorda uslubiy talablar ham mavjud. Uslubiy talablar o'quv fanining mazmuni o'ziga xosligi va xususiyatlarini fan spesifikatsiyasini inobatga olib, uning tushunish apparatini, uning qonuniyatlarining izlanish usullari, axborotga ishlov berish zamonaviy usullarini joriy qilish imkoniyatlarini hisobga olishni nazarda tutadi.

Shunday qilib, multimediali elektron darslik yaratish bo'yicha asosiy mezonlar quyidagilardan iborat:

- foydalanuvchilarni qayd etish moduli;
- kurs adminstratori moduli;
- global va lokal tarmoqda, ya'ni serverda ishlash imkoniyatining mavjudligi;
- o'quv kursining nazariy bilimlar moduli;
- o'quv kursining amaliy bilimlar moduli;
- o'quv kursi bo'yicha test nazorati o'tkazish moduli;
- ma'lumotnoma tizimining mavjudligi;
- mualliflar haqida ma'lumotning mavjudligi;
- multimediali elektron darslik bilan ishlash haqida qo'llanmaning mavjudligi.

Multimediali elektron darslikning mazmuni, dizayni va shakli uyg'unligi bo'yicha mezonlar quyidagilardan iborat:



Umumta'lim fanlari bo'yicha multimediali elektron darsliklar quyidagi uslubiy talablar asosida yaratilishi kerak:

1. Multimediali elektron darslik o'quv materialini takdim etishning tushunchali, obrazli, komponentlarining o'zaro harakati va o'zaro bog'liqligiga tayangan holda qurilishi kerak.
2. Multimediali elektron darslik o'quv fanining ilmiy tushunchalar tizimi yuqori tartibli tuzilma ko'rinishida ta'minlashi kerak.
3. Umumta'lim fanlariaro mantiqiy o'zaro bog'liqlik hisobga olinishi kerak.
4. Multimediali elektron darslikda o'quvchi bilim darajasini bosqichma-bosqich oshirish maqsadida turli xildagi nazoratlarni amalga oshirish imkoniyati yaratilishi kerak.

Multimediali elektron darslikni yaratish va undan foydalanishga qo'yilgan didaktik talablar bilan bir qatorda, psixologik talablar ham qo'yiladi. Quyida multimediali elektron darslikka qo'yiladigan psixologik talablar keltirilgan:

1. Multimediali elektron darslikda o'quv materialini namoyish qilish nafaqat verbal (ya'ni matn ko'rinishida), balki namoyish qilish holatlariga ham mos kelishi lozim. Multimediali elektron darslik qabul qilish, fikrlash, tasavvur qilish kabi psixologik jarayonlar xususiyatlarini hisobga olgan holda qurilishi lozim.
2. Multimediali elektron darslik o'quv materiali ta'lim oluvchilarning yoshini, tayanch bilimlarni va tilni bilishini inobatga olib qurilgan bo'lishi kerak.

3. Multimediali elektron darslik obrazli va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Multimediali elektron darslik yaratishda quyidagi qo'shimcha talablar ham inobatga olinsa uning sifati oshadi:
 1. Multimediali elektron darslik materiallari yangilanish, uzluksizlik, oddiy tuzilishi lozim, ya'ni u ta'lim oluvchilarning shaxsiy faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilishi lozim.
 2. Multimediali elektron darslik yaratishda ta'lim oluvchilarning tajribasi va amaliy bilimlarini inobatga olish zarur.
 3. Multimediali elektron darslikda ishlash tugaganda tegishli amaliy natijalar olingan bo'lishi kerak.

Adabiyotlar

1. Тайлаков Н.И. Основы информатики и вычислительной техники. Учебник 9–класса. –Т.: Издательский дом «Ижод дунёси», 2002. –152 с. (ИД «Ижод дунёси». –2004, 2–изд.).
2. Матросов В.Л., Абдуразаков М.М. Современное педагогическое образование в условиях информатизации и компьютеризации общества. Махачкала: ДГПУ, 2000. –С. 50-60.
3. У.Тайлаков, On the introduction of information technology tools in the educational process of secondary schools // ACADEMICIA An International Multidisciplinary research Journal South Asian Academic Research Journals A Publication of CDL College of Education, Jagadhri (Affiliated to Kurukshetra University, Kurukshetra, India) 2020 yil 20 may 42-46 betlap
4. LEBARON, JOHN F., and COLLIER, CATHERINE. 2001. Technology in Its Place: Successful Technology Infusion in Schools. San Francisco: Jossey-Bass.
5. Алламбергенова М. Х. Информатикадан интерактив ўқув мажмуалар яратиш ва улардан таълим жараёнида фойдаланиш // Педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2012. –117 б.

UDK: 37.377

MALAKA OSHIRISH TA'LIMI JARAYONIDA O'QITUVCHI MEDIAKOMPETENTLIGINI SHAXSIY VA KASBIY RIVOJLANISHNING MUHIM OMILI

T.B.Kadirov

*O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti
tulkin_87@inbox.uz*

Annotatsiya. Ushbu maqolada dars jarayonida o'quvchilarning shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallagan turli tipdagi malakalarini samarali ravishda qo'llashga o'rgatish, o'quvchilarning o'z fikrini boshqalarga tushuntira olish, boshqalarni tinglab tushuna olish, kundalik hayotda uchraydigan muammolarni hal etishda foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirishda o'qituvchi mediakompetentligi masalalari to'g'risida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: o'qituvchi, kompetensiyaviy yondashuv, ijtimoiy hayot, kundalik hayot muammolari, axborotni izlab topish.

Компетентность учителя в медиа - важный фактор для личного и профессионального развития

Аннотация. В данной статье речь идет о вопросах медиакompetентности учителя в обучении эффективному применению в процессе урока различных типов компетенций, приобретенных учащимися в ситуациях, возникающих в их личной, профессиональной и социальной жизни, формировании у учащихся умения объяснять свое мнение другим, уметь слушать и понимать других, использовать его для решения проблем, возникающих в повседневной жизни.

Ключевые слова: учитель, компетентностный подход, социальная жизнь, проблемы повседневной жизни, поиск информации.

Teacher competence in the media is an important factor for personal and professional development

Abstract. This article deals with the issues of media competence of the teacher in teaching the effective use in the course of the lesson of various types of competencies acquired by students in situations arising in their personal, professional and social life, the formation of students' ability to explain their opinions to others, to be able to listen and understand others, to use it to solve problems that arise in everyday life.

Keywords: teacher competence-based approach, social life, problems of everyday life, search for information.

O'qitishning zamonaviy usul va vositalarini amaliyotga joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyoda globallashuv jarayonlarining ijobiy tomonlari bilan birga, uning salbiy oqibatlarini ham hayotimizga kirib kelmoqda. Bunday xatarlardan hayotimizni asrash, ma'naviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik uchun, avvalo, ezgu insoniy g'oyalar va yuksak

mahorat bilan yaratilgan asarlar orqali, bugungi kunda jahon maydonida yuz berayotgan keskin aql-zakovat va iste'dod musobaqasida bellashuvga qodir bo'ladigan yoshlarni tarbiyalashni hayotning o'zi taqozo etmoqdaki, buning uchun ta'lim muassasalarida dars berib, faoliyat yuritib kelayotgan o'qituvchiga zamon bilan hamnafas bo'lish, talab darajasida mehnat qilish, o'quvchi-yoshlarga ta'lim-tarbiya berishdek vazifa, o'qituvchi zimmasiga katta mas'uliyat yuklanadi.

O'qituvchi bugungi «axborot asri» deb nomlangan yangi davrda:

- o'z bilimlarini muntazam oshirib borish;
- axborotlarni to'plash;
- ularni tahlil qilish;
- axborotni qayta ishlash va ularni uzatish;
- muammolar va kelishmovchiliklarni hal qilish;
- mustaqil qarorlar qabul qilish;
- ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik qilish;
- ilg'or texnologiyalardan foydalana olish va ularni amaliyotga tatbiq eta olishi kabilar talab etiladi. Shuningdek, u:
- maktabda mehnat qilish layoqatiga tayyor bo'lishi;
- olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olishi;
- kundalik hayotda qo'llanuvchi texnologiyalardan xabardor bo'lishi;
- muammo xususida chuqur fikrlash va o'z bilimni oshirib borishi;
- mehnat jamoasi va mutaxassislar bilan hamkorlik qila olishi;
- zarurat bo'lganda qarorlar qabul qilishi;
- muammolarni hal etish va yangi fikrlar yaratishda texnologiyalardan foydalana olishi talab etiladi.

Axborot bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirishda:

- mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshqalar) foydalana olish;
- mediavositlardan zarur bo'lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta'minlash va foydalanishda mediamadaniyat (turli media asarlarni tahlil qilish, baholash, yaratish uchun zarur bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi)ga rioya qilish;
- ma'lumotlar bazasini yarata olish, asosiylarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish;
- kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olishni bilishi va amalda qo'llay olishi kerak bo'ladi.

Ta'limda kompetensiyaviy yondashuv orqali o'quvchilarning shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallagan turli tipdagi malakalarini samarali ravishda qo'llashga o'rgatish, ta'lim muassasasida umumta'lim fanlari bo'yicha o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari bilan birgalikda, o'z fikrini boshqalarga tushuntira olish, boshqalarni tinglab ularni tushuna olish, bahsga kirishish, kundalik hayotda muvaffaqiyatlarga erishish uchun o'quvchi ushbu axborotlarni izlab topishi, tahlil qilish, bilim, ko'nikma va malakalardan kundalik hayotlarida uchraydigan muammolarni hal etishda foydalana olishlarini shakllantirish zarur.

Bularni, albatta, har bir o'qituvchi o'zining samarador darslari orqali amalga oshiradi. Bu borada, ayniqsa, ta'lim-tarbiyani mediata'lim orqali amalga oshirsa, amaliy natija yaqqol ko'zga tashlanadi.

Mediata'lim interfaol, o'quvchiga individual ta'sir etadigan usul sifatida ta'lim jarayoniga jadal sur'atlar bilan kirib kelmoqda. Mediata'lim o'quvchini shaxsiy fikr yuritish, ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirish, axborot olish, uni qayta ishlash, sintez qilish, shaxsiy xulosalar chiqarishga o'rgatadi.

Darsxonalarga multimedia vositalaridan matbuot, televideniye, radio, kino, video va internetlar olib kirilmoqda. Bularning barchasi «mediadarslar» nomi bilan ta'lim jarayonini tashkil etishga yordam bermoqda. Shu munosabat bilan maktab ta'limiga mediadarslar kiritilmoqda. Shu o'rinda savol tug'iladi, mediadarslarning qanday metodik imkoniyatlari bor va ular qanday afzalliklarga ega?

O'quv jarayonida bir vaqtning o'zida o'qituvchi nazariy axborotlarni berish bilan materiallarni yuqori darajadagi zamonaviy texnika vositasida namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'quv ob'ektlari va voqealarini modellashtiradi, uni avtomatik ravishda test ketma-ketligida namoyish etadi, tasvirini tushiradi.

O'quv mehnat faoliyatlarini tashkil etishda kompyuter texnikalarini qo'llash, foydalanish imkoniyatini tug'diradi. Shaxsan o'zlari o'quv materialini amaliyotda sinab, bajarib borish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

- O'quvchining yakka tartibda ishlagan holda qiziqish va ijodiy ishlarini takomillashtirish imkoniyati yaratiladi.

▪ Multimedia texnikasi o'quvchilarning o'quv mazmunini o'zlashtirishlariga qiziqishini yanada oshirishga xizmat qiladi.

▪ O'quvchilarda ko'rgazma-obrazli ta'sirda fikr yuritish, motorik va verbal kommunikativ ko'nikmalarning shakllanishiga olib keladi.

▪ Axborot bilan ishlash (axborot qidirish, zarurlarini ajrata bilish, qayta ishlash, tartibga keltirish), axborotlar mazmunini tushunish, mantiqiy yaqinlarini ajratishga o'rgatadi. Shular asosida axborotni olish madaniyati shakllanib boradi.

Mediata'limning bosh maqsadi – asosiy qonunlarni tushunishga yordam berish, oddiy yo'nalishlardagi mediaaxborotlar tilini o'rganish; o'quvchining badiiy o'sishi, rivojlanishiga hissa qo'shish, mediatekstlarni malakali tahlil eta olish, o'rgatish va qabul qilish ko'nikmasini shakllantirishdan iborat.

Uning pedagogik strategiyasi mediamatnlarni badiiy tahlil qila olish, unga lug'aviy asosda baho bera olishdan iboratdir.

Mediata'lim qanday shakllanadi? («Mediata'lim deganda pedagogika nazariyasi va amaliyotida maxsus bilim sohasi sifatida qaralayotgan ommaviy kommunikatsiya vositalarini egallash uchun nazariy va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishni tushunish lozim». YUNESKO.) U muayyan haqiqatni ifodalaydimi, kimning manfaatini ko'zlaydi, uning mazmuni nimalardan iborat va o'quvchilar uni qanday qabul qiladilar?

Ta'kidlash joizki, mediata'limning markazida o'quvchi shaxsi turadi, uning qiziqish, xohish-istaklari hisobga olinishi, olingan axborotlarga tanqidiy ko'z bilan qarab, ularni tanqidiy fikrlashga o'rgatish kerak.

Xorijiy mamlakatlar olimlarining fikriga ko'ra, mediata'lim tarbiyaviy, ta'limiy ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarni o'quv-bilish jarayonida kreativ fikrlashga o'rgatadi.

Mediata'limning o'quv-bilish jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

▪ mediata'lim tarixi haqidagi bilimlar, uning tuzilish nazariyasini o'rganish va o'zlashtirish;

▪ mediamatnlarni ongli qabul qila olish, uning tilini bilish va «o'qita olish», shu haqida tasavvurlarini kengaytirish, ko'rish orqali xotirasini mustahkamlash, tanqidiy, mantiqiy, ijodiy, obrazli, muammoli fikr yuritishni o'rganish;

▪ media materiallarni kreativ fikrlash orqali amaliyotda foydalanish.

Mediata'limning eng muhim vazifalaridan biri shundaki o'sib kelayotgan yangi avlodni tobora jadallashib borayotgan axborotlar oqimida turli axborotlarni olish, tushunib yetish, uning inson psixikasiga ta'sirini bilish va undan to'g'ri, maqsadli foydalanishga olib keladi.

Mediata'lim olingan axborotlarni integratsiya qilish, shu asosida shaxsiy fikrini bildirish va qayta olishga chorlaydi. O'z fikrini erkin bildirish, shaxsiy rivojlanish, turli axborot xurujlarga qarshi fikr bildirish orqali uning ijtimoiy jamiyatdagi faolligi oshadi. Media axborotlardan faol va to'g'ri foydalanish madaniyati shakllanadi. Shu orqali berilayotgan axborot haqida fikr yuritila boshlaydi va axborot bilan ishlash kompetentligi shakllanadi.

Mediata'limda o'quvchi kreativ fikr yuritadi, ya'ni yangi tushunchalarni o'zlashtira boshlaydi. Jumladan, «fabula», «syujet», «mavzu», «konflikt», «kompozitsiya», «kadr», «plan», «montaj» kabi tushunchalarni o'quv jarayoniga aloqadorlikda tushunib, amalda qo'llab, o'zlashtirib boradi.

Shuning uchun ham mediadarslar:

▪ «Badiiy imitatsiyali» – kichik ssenariylar, minissenariy, mediamatnlar tuzish, uni interfaol usulda namoyish etish;

▪ teatrlashgan vaziyat hosil qilish (mediamatn asosida ayrim epizodlarni insseniroyka qilish, mediamatn jarayonini namoyish etish);

▪ tasviriy-imitatsiya tayyorlash (afishalar yaratish, fotoko'rgazma, ma'lum mavzuda asarlardagi rasmlarni namoyish etish) kabilarni tushunish, qo'llay olish ko'nikmasini hosil qiladi.

Yuqoridagi didaktik materiallarni tayyorlash, namoyish etish, tahlil asosida xulosa qilish, o'quvchining emotsional qabul qilish orqali nafis san'atni tushunishiga olib keladi. Bu holat o'quvchining umumintellektual rivojlanishi, bilim olishi, tarbiya topishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Mediadarslar berilayotgan axborotlarni qabul qilib olish, o'zlashtirib olish jarayonida ikki yangi komponent ishtirokini ta'minlaydi.

Birinchidan, mediadarslarda kompyuterlar universal holda qo'llanishi va ishtiroki bilan harakterlanadi.

Ikkinchidan, an'anaviy texnologiyalar vositalari yoniga dasturiy vositalar to'ldiruvchi bo'lib kiradi. U holda ayrim predmetlar, mavzularni o'qitish, o'zlashtirishga qulay muhit yaratiladi. Bunda ta'lim mazmuni, matn aniq, ravon shakllantirilgan bo'ladi. U ta'lim mazmuni tasvirlangan holda sxema, rasmlar, jadvallar, videofragmentlar, ovoqli, animatsion ta'minotlar bilan namoyish etiladi.

Yuqoridagi faoliyatni amalga oshirishda kompyuter va dasturlar bir-biri bilan uyg'unlashgan, moslashgan holda bir-birini to'ldirishi kerak; ta'lim maqsadi, mazmuni, shakli, o'qitish metodlari, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyati muvofiqlashtiriladi.

Bunday holda tashkil etilgan mediata'limning didaktik tamoyillari, imkoniyatlari kengayadi, boyib boradi. Bu esa ta'limni yangi tamoyil – individuallashtirilgan, faollashtirilgan holda tashkil etishni ta'minlaydi.

Mediadarslarning eng afzal tomoni shundaki, ta'lim jarayonida o'quvchilarning hozirgi axborot oqimlari jadallashayotgan bir vaqtda mustaqil ijod qila olish imkoniyatlari, qobiliyatlarini rivojlantirib boradi. Shu munosabat bilan mediadarslar mazmunini belgilash, tashkil etishda faqatgina predmet yoki mavzu mazmuniga qarab qolmay, balki uning ta'limiy, tarbiyaviy, umumrivojlantiruvchi jihatlarini ham hisobga olish kerak bo'ladi. Ular axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirishga yo'g'rilgan (yo'naltirilgan) bo'lmog'i, ya'ni kerakli axborotni olish qobiliyati, ularni yangi texnikalar yordamida qayta ishlash, amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilishi talab etiladi.

Mediadarslar kompyuterlashgan, multimediali proyektorlar bilan jihozlangan sinflarda o'tkaziladi. Bu darslarni tashkil etishning o'ziga xos sanitar-gigiyenik me'yorlari, uzluksiz ishlash me'yorlari mavjud. Masalan:

- 1-sinflarda – 10-12 daqiqa;
- 2-5-sinflarda – 16-18 daqiqa;
- 6-7-sinflarda – 20-24 daqiqa;
- 8-9-sinflarda 26-28 daqiqa;
- 10-11-sinflarda 30-32 daqiqagacha ishlash mumkin.

Kompyuterlashgan sinflarda o'quv faoliyatining namunali-samarali kechishi uchun u yerda qo'shimcha joylashtirilgan o'quv stollaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bu holat sanitar me'yorlarga rioya etish, o'quvchining o'quv faoliyatini boshqa joyda tashkil etish imkoniyatini yaratadi. Agar o'qituvchi ko'rgazmali tasvirlardangina foydalansa, ularni kompyuter orqali ekranga namoyish etish bilan cheklanadi. Sinfxonalarda o'quvchilar bilan ishlashni quyidagicha tashkil etishni tavsiya etish mumkin:

- topshiriq, mashqlarni bajarishda amaliy mashg'ulotlarni individual ishlash;
- umumiy o'quv loyihalarini modeli tajribasini bajarishda kichik guruhlarda ishlash;
- mediadarslarni tashkil etishda ham o'quv jarayonining barcha komponentlari o'z aksini topishi, faoliyat kompyuter va kompyutersiz almashinib turishi mumkin;
- faollashtirish (o'quv materialini takrorlash, materialni kompyuterda yoki kompyutersiz ilk bor o'zlashtirish);
- bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish, o'quv axborotlari blokining mohiyatini bilib, tushunib olish va uni mustahkamlash (kompyuterda yoki uning ishtirokisiz);
- o'quv materiallarini amalda qo'llay olish, o'quv materialini o'zlashtirilganligini nazorat qilish (kompyuter yoki kompyutersiz).

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ldiki, mediadarslarni tayyorlash, samarali o'tkazish, o'qituvchilarning kompetentlik darajasi yuqori bo'lishi uchun quyidagilar talab etiladi:

- yuqori darajadagi kasbiy mahorat kompetentligiga ega bo'lish;
- zamonaviy metodik tayyorgarlikka ega bo'lish;
- o'quvchi bilan muloqotga kirishish, malakali psixologik, pedagogik bilimlarga, ya'ni kommunikativlik kompetensiyasiga ega bo'lish;
- yuksak ma'naviy-ma'rifiy madaniyatga ega bo'lish – umummadaniy kompetensiyaga ega bo'lish;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirib olish va internetdan foydalanish – axborot bilan ishlash kompetensiyasiga ega bo'lish;
- o'quv faoliyatida innovatsiya, novatsiya, pedagogik texnologiya, interfaol usullarni o'zlashtirish;
- matematik savodxonlik, fan-texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish kompetensiyasi orqali o'quv jarayonini tashkil eta bilish va amalga oshira olish.

Bir so'z bilan aytganda, ta'lim muasassalari malakali mediapedagoglarni kutmoqda. Ta'lim muasassalarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilar qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida mediadars nazariyasi, didaktikasi, metodikasi, amaliyotini o'qib o'zlashtirishlari shu kunning talablaridan biriga aylandi.

Fikrimizcha, o'qituvchilar o'zlarining individual dasturlarida mediadars nima, uning mohiyati, mazmuni nimadan iboratligini shaxsan o'zlashtirish orqali, tayanch va xususiy kompetensiyalarga ega bo'lish orqali ta'lim muasassalarida mediata'limni yo'lga qo'yishlari, shuningdek, ta'lim taraqqiyotiga o'zlarining katta hissalarini qo'shishlari mumkin.

Shulardan kelib chiqib, respublikamiz ta'lim tizimining kadrlar salohiyatini rivojlantirish uchun mediata'lim asoslarini o'qitish maqsadida malaka oshirish ta'lim muassasalari tizimida pedagogik xodimlarni o'qitish jarayoniga kasb-hunar ta'lim dasturi bo'yicha «Mediata'lim asoslari»ni o'z ichiga olgan o'quv kurslarini kiritish tavsiya etiladi. Ushbu kurs ta'lim dasturini ishlab chiqishda ta'lim tizimi uchun pedagoglarni tayyorlash ishlari bo'yicha xalqaro tajribadan foydalanish mumkin bo'ladi.

Mediata'limning ustuvorliklaridan malaka oshirish ta'limi sohasida to'laqonli foydalanish uchun quyidagi shart-sharoitlarni inobatga olish zarur:

1. Media va axborot savodxonligi bir butun jarayon sifatida qabul qilinishi va o'z ichiga kompetensiyalar majmui (bilim va ko'nikmalar)ni olishi lozim.

2. Mediata'lim tinglovchilarni media va axborot kanallari bilan o'zaro hamkorlik qilish uchun kasbiy savodxonlikni shakllantirishga maqsadli ravishda yo'naltirishi kerak.

3. O'qituvchilar axborotni qidirish, saralash, baholash va uzatish ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozim.

4. Mediata'lim o'qituvchilar tomonidan o'quvchilar va ularning shaxsini tushunish, hamkorlik pedagogikasining hayotiy zarurati sifatida qabul qilinishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasalari tizimida pedagogik xodimlarni o'qitish jarayoniga kasb-hunar ta'lim dasturi bo'yicha «Mediata'lim asoslari» o'quv kursini kiritish va undan ta'lim sohasini yanada takomillashtirishda samarali foydalanish davr talabi ekanligini taqozo etadi. Zero, mediata'lim pedagoglarning intellektual salohiyatini oshirish bilan bir qatorda dars jarayonida o'quvchilarning bilim, ma'lumotning tez, tushunarli va yodda qolarli bo'lishini ta'minlovchi ta'lim usullari ekanligi bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Бекназарова С.С., Абдурахманов, К.П. Разработка медиаобразовательных курсов на примере дистанционной обучающей среды – медиаобразовательного портала www.mediaedu.uz. – М.: «Медиаэдукатив», 2012.

2. Луман Н. Медиа коммуникации. – М.: «Логос», 2005. –С. 280.

3. Макаров М.М. Массовая коммуникация в современном мире. – М., 2000.

4. Kadirov T.B., “Малака ошириш таълими жараёнида компьютерли таълим технологиясидан фойдаланиш” Сурхандарё ХТХҚТМОХМ - Педагогик инновациялар ва юқори самарадорликка етакловчи таълимий ғоялар республика илмий-амалий онлайн конференцияси. Термиз 2020 йил 15 май, 104-105 бетлар.

UDK: 37.1

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY TAYYORGARLIGI MONITORINGINI TIZIMLI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH

F.O.Husanov

O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti
husanovfarrux7@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifatini samarali monitoring qilishning ilmiy asoslangan mezonlarini belgilash hamda monitoring qilishning asosiy qoidalarini aniqlash haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim sifati monitoringi, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, akkreditatsiya, ISO sertifikat, tizimli va kompleks.

Совершенствование системы мониторинга профессиональной подготовки будущих учителей

Аннотация. В статье рассматривается определение научно обоснованных критериев эффективного мониторинга качества профессиональной подготовки будущих учителей и определение основных правил мониторинга.

Ключевые слова: мониторинг качества образования, профессиональная подготовка будущих учителей, аккредитация, сертификация ISO, систематическая и комплексная.

Improving the system of monitoring the professional training of future teachers

Abstract. This article discusses the definition of science-based criteria for effective monitoring of the quality of professional training of future teachers and the definition of basic rules of monitoring.

Keywords: education quality monitoring, professional training of future teachers, accreditation, ISO certification, systematic and comprehensive.

Ta'lim tizimining umumiy boshqaruvini Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi. Barcha darajadagi ta'lim boshqaruv organlarining vakolatlari „Talim to'g'risida“gi qonunga muvofiq belgilanadi va ta'limning normativ-huquqiy bazasi rivojlantiriladi. Ta'lim tizimini boshqarish sohasidagi xorijiy va mahalliy mutaxassislarning ishlarida o'quv-tarbiya jarayoni natijalarini muntazam baholash zarurligi ta'kidlanadi. Oliy ta'lim muassasasining faoliyati har yili murakkab va ko'p qirrali jarayonga aylanib, uni boshqarish yanada murakkablashadi. Ta'lim oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish ta'lim tizimini boshqarish va unga rahbarlik qilish faoliyatining saviyasiga bog'liq.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifatini nazorat qilish va monitoring qilish muammolarini ishlab chiqish bo'yicha olimlardan A.Xo'jayev, A.Kamolova, I.Vakarchuk, G.Yelnikova, F.Gerard, A.Zabulonis, E.Krasnovskiy, L.Krasnokutskaya, K.Krasnyanskaya, A.Mayorov, E.Mixaylichev va boshqalar izlanishlar olib borishgan.

OTMlarning faoliyatini baholash zarurati ichki va tashqi omillarga bog'liq. Ichki omillarga quyidagilar kiradi: mutaxassislarni tayyorlashning raqobatbardoshligini baholash; OTMni boshqarishda ichki muammolarni aniqlash zarurati; OTMni rivojlantirish strategiyasini aniqlash. Tashqi omillar quyidagilarni o'z ichiga oladi: kadrlar buyurtmachilari uchun axborotga bo'lgan ehtiyoj; mutaxassislarning (ish beruvchilarning) kadrlar buyurtmachilaridan axborotga bo'lgan ehtiyoj ta'lim statistikasini takomillashtirish zaruriyati hisoblanadi.

Islohot yo'lidagi asosiy to'siqlar quyidagilardir: ta'lim sifatini boshqarishning me'yoriy-huquqiy bazasining nomutanosibligi; OTM faoliyatini baholashning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarining asossizligi; bilim sifatini tahlil qilishning eskirgan tizimi, ko'p hollarda bitiruvchilarning fikr-mulohazasini inobatga olinmasligi, Oliy o'quv yurtida olingan mutaxassislikka muvofiq ularning faoliyatini monitoring qilish; o'quv jarayonini kerakli resurslar bilan ta'minlashning past darajasi; akkreditatsiya milliy tizimini xalqaro normalar va mezonlarga muvofiq doimiy ravishda rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash xalqaro standarti talablariga rioya qilish ko'pchilik Oliy o'quv yurtlarida yetarli darajada tashkil qilinmaganligi.

Ta'lim muassasasi faoliyatida to'laqonli samarali o'zgarishlarni amalga oshirish yuqori darajadagi ilmiy-uslubiy ta'minotsiz, shuningdek, barqaror va ijodkor ishlaydigan o'qituvchisiz mumkin emas. Shuning uchun ularning malakasini va mahoratini oshirish, ommaviy amaliyotga pedagogik - psixologik ilm-fan va ilg'or tajribalarning zamonaviy yutuqlarini joriy etish masalasi muhim omilligicha qolmoqda.

Universitet ma'muriyati shuningdek, professor-o'qituvchilar tomonidan o'quv jarayoni sifatini nazorat qilish shakllarini funktsional majburiyatlarga, ishchi o'quv rejalariga va ishchi o'quv dasturlariga muvofiq tanlaydi. Pedagoglarning o'quv ishlarini nazorat qilish Oliy ta'lim muassasasi ma'muriyati, ishchi o'quv rejaları va ishchi o'quv dasturlarining bajarilishining holati va sifatini, o'quv fanlarini o'qitishning kompleks-uslubiy ta'minoti va kasbiy-amaliy tayyorgarlikni amalga oshirishning ilmiy-uslubiy darajasi va samaradorligini, talabalar bilan individual ishlarni tashkil etish, ilg'or pedagogik va ishlab chiqarish tajribasini joriy etish va boshqalar tomonidan amalga oshiriladi.

Ammo, bizning izlanishlarimiz shuni ko'rsatdiki, OTMda olib boriladigan bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifatini monitoring qilish murakkablik, aniqlik va tizimlilik talablarga javob bermaydi. Chunki ma'lumotlarning ishonchligi va to'g'riligini ta'minlaydigan jarayonlarni ishlab chiqish va amalga oshirish aniqlik namunalarini, statistik tahlil usullarini, baholash natijalarini psixometrik tahlil qilishni va boshqalarni shakllantirish bo'yicha maxsus tayyorgarlikni talab qiladi. Hozirgi vaqtda ta'lim sifatini monitoring qilish ishlarini olib borishda, ularni amalga oshiradigan mutaxassislarning tegishli bilimlari yetishmasligi tufayli bu jihatlar ko'pincha e'tibordan chetda qolmoqda. Shu bois, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifatini monitoring qilish tizimida ishlash uchun mutaxassislarni tayyorlash asosiy muammo hisoblanadi.

Ilmiy ishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda bo'lajak mutaxassislarning uchun kasbiy tayyorgarlik sifatini baholashda ikkita yondashuv mavjud:

1. Oliy ta'lim sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish huquqi berilgan davlat organlari (vazirliklar va boshqalar) faoliyat ko'rsatadigan ta'lim tizimlari uchun. Bunday holda, monitoring tartib-taomillarini o'tkazishda ustunliklar hukumat tomonidan moliyalashtiriladigan davlat organlariga yoki tuzilmalariga beriladi.

2. Oliy ta'limni markazlashgan boshqaruvi mavjud bo'lmagan ta'lim tizimlari uchun. Bunday holda, o'z-o'zini baholash qilish jarayoni ustunlik qiladi. Universitet uchun uning faoliyatini umuman professional yoki jamoat mustaqil baholash (institutsonal akkreditatsiya) yoki o'quv dasturlari (dastur akkreditatsiyasi) baholaydi. Bunday holda, davlatda oliy ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha markazlashtirilgan boshqaruv tizimi mavjud emas, bu xalqaro standartlarga javob beradi.

Ilmiy-pedagogik manbalar va me'yoriy hujjatlarni tahlil qilish ta'lim muassasalarini akkreditatsiya qilish dunyo va Yevropa ta'limi sifatini baholash amaliyotida alohida o'rin tutadi degan xulosaga kelish imkonini berdi. Akkreditatsiya - muvofiqlikni tasdiqlash organiga rasmiy hujjat shaklida berilgan va muvofiqlikni baholash bo'yicha aniq vazifalarni bajarish vakolatini rasmiy tan olish uchun xizmat qiladigan uchinchi, mustaqil tomon tomonidan muvofiqlikni tasdiqlashni anglatadi. Ta'lim muassasalarini attestatsiya va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida" gi qonunlari hamda "Davlat ta'lim muassasalari hamda nodavlat ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida nizom" va "O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish mezonlari bo'yicha Yo'riqnoma"ga asosan tashkil etiladi. Ta'lim muassasasini akkreditatsiyalash Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan attestatsiyaga asosan amalga oshiriladi. Akkreditatsiyaning mohiyati, qoida tariqasida, ikki tomonlama yo'nalishga ega: ta'lim dasturlari (dasturiy ta'minot, ixtisoslashtirilgan akkreditatsiya) va OTMlar (institutsonal akkreditatsiya). Har xil ta'lim tizimlarida har ikkala akkreditatsiya turi o'rtasidagi munosabatlar bir xil emas. Kerakli muvozanatni izlash davom etmoqda, chunki oddiy institutsional baholash OTM faoliyatining barcha asosiy tarkibiy qismlarini qamrab olmaydi va dasturiy baholash ko'plab OTMlar uchun qo'shimcha ma'muriy yukga aylanadi.

Akkreditatsiya orqali oliy ta'lim sifatini ta'minlashning asosiy uslubiy tarkibiy qismlarining yaqinlashuvi yuz berdi:

- 1) idoralar va organlarning mustaqilligini;
- 2) o'z-o'zini tekshirish (o'zini o'zi baholash);
- 3) yakuniy hisobot;
- 4) statistik ma'lumotlar;
- 5) samaradorlik ko'rsatkichlari;
- 6) ish beruvchilarni, bitiruvchilarni, talabalarni jalb qilish;
- 7) tashqi ekspertlarning hisobotlari;
- 8) ichki baholash jarayonlari.

Mamlakatimizda birinchilardan bo'lib Toshkent davlat stomatologiya institutiga xalqaro ISO sertifikatini topshirildi. Universitetda bo'lajak mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligi sifatini samarali monitoring qilish ISO 9000 xalqaro standarti talablari va mezonlariga javob beradigan ta'lim sifatini boshqarish tizimini joriy etishni ta'minlaydi. Bunga universitetni rivojlantirishning aniq istiqbollari, strategik reja missiyasining asosligi, joriy ish rejaları kiradi; qabul qilingan qarorlarning o'ziga xosligi, ularning ta'lim muassasasini rivojlantirish strategiyasi bilan bog'liqligi, boshqaruv qarorlarining bajarilishini ta'minlashning aniq tizimining mavjudligi; universitetda menejmentning menejment nazariyasi va amaliyotining zamonaviy tendentsiyalariga muvofiqligi; universitet boshqaruv tuzilmasi uning ish strategiyasi va vazifalariga muvofiqligi; boshqaruvning demokratik asoslarini rivojlantirish, universitet tarkibiy tuzilmalarining mustaqilligini oshirish; oliy o'quv yurtida ta'lim sifatini boshqarishni doimiy ravishda takomillashtirish.

Ba'zi universitetlarda sifat menejmenti tizimi amalga oshirilgandan va ISO sertifikatini olganidan so'ng yakunlangan ta'lim sifatini nazorat qilishning ichki tizimini shakllantirish jarayoni ko'rib chiqilishi zamonaviy universitetlarning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, ISO 9000 standarti universitetning ichki sifatini ta'minlash vositasi emas. Bu faqat universitetda sifat menejmenti tizimining mavjudligini tasdiqlaydi. Universitetlarning katta qismi kuzatuv tizimini faqat talabalarining o'quv faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish bilan qisqartiradi, ayrim universitetlar esa faqat o'qituvchilar ishini tahlil qilish bilan cheklanadi.

Shunday qilib, eng yaxshi milliy va xalqaro tajribalar asosida ta'lim xizmatlari sifatini oshirish uchun oliy o'quv yurtlari o'zini o'zi baholash tizimini joriy qilishi, ta'lim sifatini boshqarish dasturini ishlab chiqishi kerak; ta'lim sifatini ichki audit tizimini joriy etish; turli xil malaka oshirish va qayta tayyorlash dasturlari bo'yicha ta'lim xizmatlari darajasini baholashning sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarini asoslash talab etiladi. OTMda ishga joylashtirish, mutaxassislar bilim va malakalari sifati hamda ularga talabni o'rganish, ularning kasbiy o'sishi (karyerasi)ni kuzatib borish, OTM bitiruvchilarining doimiy o'qishi va malaka oshirish tizimi mavjud bo'lishi kerak. Bu tizim yordamida olinadigan ma'lumotlar ta'lim dasturlarini yanada takomillashtirish uchun qo'llanishi lozim.

Pedagogik-psixologik tadqiqotlarni nazariy tahlil qilishimiz, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifatini nazorat qilishning nazariy va uslubiy yondashuvlarini tahlil qilishimiz bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifatini samarali monitoring qilishning asosiy qoidalarini aniqlashga imkon berdi:

- OTMLar bo'lajak o'qituvchilar tayyorlash sifatini monitoring qilish uchun xorij tajribalarini o'rganishi kerak.
- Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifatini boshqarish sub'ektlarining boshqaruv faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirish.
- Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik sifatini monitoring qilish bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayoni va natijalarini qamrab olishi kerak.
- Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik sifatini monitoring qilish samarali, xolis, mustaqil va oshkora bo'lishi kerak.
- Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash sifatini monitoring qilish, birinchi navbatda, shaxsiy yo'naltirilgan va tizimli yondashuvlarga asoslangan keng qamrovli yondashuv asosida amalga oshirilishi kerak.
- Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorgarlik sifatini monitoring qilish kasbiy tayyorgarlikning barcha bosqichlarida tizimli va kompleks tarzda amalga oshirilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimi uchun bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifatini samarali monitoring qilishning ilmiy asoslangan mezonlarini aniqlash masalasi dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-apreldagi „Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiyadan o'tkazish sohasidagi ishlarni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida“gi 349-sonli qarori. www.lex.uz
2. Xo'jayev A. „Oliy ta'lim sifatini baholash va monitoringini yuritishga innovatsion yondashuv“ „Xalq Ta'limi“ ilmiy-metodik jurnali. 2018. № 3
3. Горб В. Г. „Педагогический мониторинг образовательного процесса как фактор повышения его уровня и результатов“ / В. Г. Горб // Стандарты и мониторинг в образовании. – 2000. № 5.
4. F.Husanov, "Improvement of methods of monitoring the educational process of students in the direction of mathematics future teachers of mathematics", JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, ISAE-2020, ISSN : 2581-4230, Page No. 443-447.

УДК: 378.014.15

AVTONOM TA'LIM MUASSASALARI TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH UCHUN KATALIZATORLAR SIFATIDA

T. I. Ismoilov

Namangan davlat universiteti,
temur_86@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada, ta'lim qonunchiligida ta'limni modernizatsiya qilish imkonini beradigan yangi iqtisodiy yechimlar haqida fikr yuritilgan. Yangi ta'lim birliklari - avtonom ta'lim muassasalari tashkil etilmoqda. Shuningdek maqolada avtonom ta'lim muassasalarining afzalliklari, budjet va budjetdan tashqari moliyalashning imkoniyatlari xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim muassasasi, jadal rivojlanish, investitsion jozibadorlik, moliyalashtirish mexanizmi, ta'lim xizmatlari bozori.

Autonomous educational institutions as catalysts for the development of education

Abstract. The article discusses new economic solutions to modernize education in education legislation. New educational units are being created - autonomous educational institutions. The article also discusses the advantages of autonomous educational institutions and the possibility of budgetary and extrabudgetary funding.

Keywords: educational institution, advanced development, investment attractiveness, financing mechanism, educational services market.

Автономные образовательные учреждения как катализаторы развития образования

Аннотация. В статье рассматриваются новые экономические решения, позволяющие модернизировать образование в законодательстве об образовании. Создаются новые образовательные единицы - автономные образовательные учреждения. В статье также рассматриваются преимущества автономных образовательных учреждений и возможность бюджетного и внебюджетного финансирования.

Ключевые слова: образовательное учреждение, опережающее развитие, инвестиционная привлекательность, механизм финансирования, рынок образовательных услуг.

At a time of economic instability, the country should resolve its long-standing social and economic problems not by saving on education, but on the basis of its advanced development, considered as an investment in the future of the country.

In this regard, it is necessary to ensure an outstripping growth in education costs, a significant increase in salaries for teaching staff, and increased incentives for the quality and effectiveness of teaching work.

It is necessary to ensure equal access to full-fledged quality education in accordance with interests and inclinations everywhere, regardless of the material wealth of the family, place of residence, nationality and state of health. This task can be solved by increasing the investment attractiveness of general education for investing the funds of enterprises, organizations and citizens, modernizing the existing organizational and economic mechanisms in education, which will increase the amount of extra-budgetary funds in education, as well as radically improve the use of these funds by sending them directly to the educational institution [1].

In accordance with the current legislation, the first steps have been taken to transition to new mechanisms for financing the industry, to result-oriented budgeting. The transition to the normative financing of the costs of educational institutions has been made, that is, from financing the maintenance of the existing network of institutions to financing the task set for the institutions. Conditions are created for the effective positioning of the educational institution in the market of educational services as an independent economic entity.

All the measures taken are aimed at strengthening and developing the autonomy and economic independence of educational institutions.

The differences between autonomous and budgetary educational institutions are serious and that is why the law establishes the possibility of a reverse transition from an autonomous institution to a budgetary one.

Previously, educational institutions were divided (depending on the owner of their property) into private, state, and municipal ones. Now there is a new division: state and municipal institutions can be either budgetary or autonomous. At the same time, the basics of the status of public and private institutions are similar. An autonomous institution differs significantly from both private and budgetary institutions.

What are the main differences between budgetary and autonomous institutions, and what are the consequences of changing the type of institution?

The property of both the budget and the autonomous institution is assigned to it on the right of operational management. At the same time, a budget institution may not alienate or otherwise dispose of the property assigned to it by the owner or acquired by this institution at the expense of the funds allocated to it by the owner for the acquisition of such property. If the property was acquired at the expense of funds received from authorized income-generating activities, it is placed at its own disposal [2].

An autonomous institution without the consent of the founder does not have the right to dispose of only:

- * immovable property assigned to it by the founder or acquired by an autonomous institution at the expense of the funds allocated to it by the founder for the acquisition of this property;

- * especially valuable movable property assigned to it by the founder or acquired by an autonomous institution at the expense of funds allocated to it by the founder for the acquisition of this property.

The autonomous institution has the right to dispose of the remaining property independently (with the following exception, introduced to prevent the hidden privatization of property: the consent of the founder is always required in order to contribute property to the authorized (pooled) capital of other legal entities or otherwise transfer property to other legal entities as their founder or participant). So, the "rest" includes:

- * any property, including real estate, that was acquired at the expense of income from permitted business and other income-generating activities;

- * property assigned to it by the founder or acquired by an autonomous institution at the expense of funds allocated to it by the founder for the acquisition of this property, if this property is not immovable or particularly valuable.

The budget institution separately takes into account the funds received from the permitted income-generating activities and the property acquired at their expense. Autonomous institution shall take into account separately immovable property vested in Autonomous institution acquired or an Autonomous institution at the expense of the funds allocated to it by the founder for the acquisition of the property, and also in the Autonomous institutions of valuable personal property [3].

Both budget-funded and autonomous educational institutions will recognize the implementation of relevant educational programs as their main activity.

The funding mechanism for a budget institution has developed: the founder finances the activities of the institution from the budget based on the established standards for one student (with the exception of small schools, whose expenses are funded regardless of the number of students) in accordance with the budget of income and expenses approved by him. The institution receives the funds allocated to it in accordance with the procedure established by the budget law, that is, through regular allocations received in the personal account of the institution opened in the Treasury.

The greatest concern of the opponents of the Law called exactly what the founders would not finance the activities of Autonomous institutions, and the need to make themselves, that is, education will be a commercial, pay for parents and pay for education can all, therefore, violated the constitutional rights of citizens. It should be understood that the founder sets the tasks for the autonomous institution in accordance with the main activities provided for in the charter. The autonomous institution carries out, in accordance with the tasks of the founder and the obligations to the insurer for compulsory social insurance, activities related to the performance of works, the provision of services, partially for a fee or free of charge.

The founder of the financial provision for the job taking into account maintenance costs of real estate and especially valuable movable property assigned to an Autonomous institution, founded, or those who have purchased an Autonomous institution at the expense of the funds allocated to it by the founder for the acquisition of such property, expenses for taxes, as the object of taxation, which recognizes a corresponding property. Including land plots, as well as financial support for the development of autonomous institutions within the framework of programs approved in accordance with the established procedure. In the case of leasing, with the consent of the founder, immovable property or particularly valuable movable property assigned to an autonomous institution by the founder or acquired by an autonomous institution at the expense of funds allocated to it by the founder for the acquisition of such property, the financial support for the maintenance of such property by the founder is not carried out.

Financial support is provided in the form of subventions and subsidies from the relevant budget of the budget system of the Russian Federation and other sources not prohibited by federal laws.

The conditions and procedure for the formation of the founder's task and the procedure for financial support for the implementation of this task are determined by:

- 1) The Government of the Russian Federation in respect of autonomous institutions established on the basis of property that is in federal ownership;
- 2) the local administration in respect of autonomous institutions established on the basis of property owned by the municipality.

Thus, the emphasis on financing will change. It will be financed not so much the activities of the institution, how the performance of state and municipal jobs (however, the maintenance costs required to support the equipment) that will provide an opportunity to consider the quality of facility services with funding will allow for more effective budgetary costs due to the competition between individual institutions [4].

Therefore, the state and municipalities are not going to abandon the financing of education-here should be a new order, new mechanisms, standards. The amount of financial support for the implementation of the task assigned by the founder to a state or municipal institution (budget or autonomous) cannot depend on the type of such institution. The Budget Code establishes the same requirements for financing institutions that provide State or municipal services, whether they are budgetary or autonomous institutions. Consequently, reducing the amount of funding for tasks to autonomous institutions in comparison with budget institutions will be illegal.

Difficult financing for some time is possible in the absence of a clear order, inconsistency in the actions of various state and municipal authorities, failure to accept the necessary documents, etc.

These problems are not inevitable, but they are possible, since the probability that the issues of financing autonomous institutions will be resolved promptly and fully, and all the details will be taken into account, is still small.

In addition, there are concerns that State and municipal authorities that distribute tasks among institutions will be able to more freely manage financial resources, increasing the tasks to one and reducing the other institution, which will allow for corruption and subjective improvement of the situation of some institutions at the expense of others.

In order to avoid this situation, it is necessary to clearly establish how the volume of tasks for each institution will be determined, and what objective criteria should be sufficient to reduce the volume of existing tasks. Otherwise, unscrupulous officials will really get their hands on a tool for manipulating

educational institutions. It should be remembered that the possibility of corruption when using financing orders is considerably higher than the estimated financing.

An autonomous institution remains a non-profit organization in its classical sense, and therefore its ability to conduct business and other income-generating activities is limited in the same way as the capabilities of a budget institution.

An autonomous institution may carry out other activities only to the extent that it serves the purposes for which it was established, provided that such activities are specified in its charter. In addition, the norms of the Civil Code of the Russian Federation, the Federal Laws "On Non-Profit Organizations", "On Education", which determine what activities a non-commercial organization can engage in, and which are unacceptable, also apply to an autonomous institution [5].

Property owner Autonomous institutions are not entitled to receive any income from the exercise of Autonomous Agency activities and the use of assigned an Autonomous institution of property. Consequently, the autonomous institution has the opportunity to independently and fully use these revenues for its own purposes.

Therefore, they are no longer subject to the budget requirements of the legislation on the order of the expenditure of funds in a separate order, the need to spend them strictly estimates of income and expenditure, a complex and lengthy procedure, allocation of estimated funding on the order of the expenditure of funds by placing a state or municipal order of the authorized body (organization of the auction, the bidder, carrying out quotations), etc. the Treasury has no control over the data means.

Thus, the budget legislation practically does not restrict autonomous institutions in the disposal of extra-budgetary revenues. However, we note that this applies mainly to extra-budgetary income. The obligation to use budget subsidies and subventions in accordance with their intended purpose remains. Financial control over the use of budget funds is also maintained.

An autonomous institution has the right to open accounts in credit institutions in accordance with the established procedure. And this is its big plus, since budget institutions can only have personal accounts in the Treasury.

However, the benefits of a simplified procedure for disposing of funds in accounts with credit institutions are only available if these funds are significant. If we are talking only about the money collected by parents for security or for the purchase of a new video projector, then the risks of opening an account with a credit institution may outweigh all the benefits of being able to spend it quickly.

The budget institution is responsible for its debts only with the available funds. Thus, the assets of the budget institution are reliably protected from possible recovery. If there is not enough money on personal accounts in the treasury, then the owner of the property will be held vicariously liable, and the activities of the budget institution will continue to be financed according to the estimates.

The autonomous institution is responsible for its obligations with the property assigned to it. This means that, at first glance, creditors will be able to foreclose on a larger amount of the institution's assets. However, the loss of certain types of property due to debts can affect the very possibility of the existence of an institution - for example, it is impossible to operate a school without premises, educational equipment, or furniture. Therefore, the legislator protected autonomous institutions from such situations by stipulating that the debts of an autonomous institution cannot be levied on immovable property and especially valuable movable property assigned to it by the founder or acquired by the autonomous institution at the expense of the funds allocated to it by the founder for the acquisition of this property.

This scheme looks quite attractive for an educational institution. However, it should be remembered that the owner of the property of the autonomous institution is not responsible for the obligations of the autonomous institution. This, if the institution has no property except as described above, the duty of "hangs" because there is no one, and while the debtor continues to operate and possess the necessary property, and bankruptcy procedure is not carried out.

If the debts of a budget institution can be recovered at the expense of the treasury by bringing the founder - owner to subsidiary liability, then the debts of an autonomous institution may be unsecured. And this can lead to unpleasant consequences for an autonomous institution: they may simply refuse to enter into contracts with them, or they may require 100 % prepayment, or liability insurance, settlements through a covered (deposited) letter of credit, collateral, guarantors, bank guarantee, etc. In certain areas, the solution of the issue of liability that is problematic for counterparties can complicate and cause an increase in the cost of the activities of an autonomous institution [6].

Thus, those who are not ready to take on such risks are safer to remain a budget institution. Those who risk changing the type of institution to an autonomous one should take into account possible risks in all their activities.

On the other hand, an employee of an autonomous institution will feel protected only if it is a successful, developing, stable institution. In this case, the workers have a chance for higher wages. Unlike a budget institution, which has some guarantees of obtaining a minimum wage, employees of an autonomous institution will be closer in their position to employees of commercial organizations, in which wages depend on the success of the organization. It can be assumed that if an autonomous institution works successfully, then the situation of employees will be much better than it was in a budget organization, but if the activities of the institution led to failure, then there will be difficulties with paying even a guaranteed part of the salary.

An autonomous institution can be created by establishing it or by changing the type of an existing state or municipal institution. Thus, the institution can decide for itself whether it is profitable for it to become autonomous, and either initiate this process (apply to the state or municipal body under which it is located), or refuse to consent to the change of type (and in the case of a forced change — appeal the actions of the founder in court).

Presumably, it is impossible to transfer to autonomous institutions of educational institutions for orphans, general boarding schools, special closed and open educational institutions for children and adolescents with mental disabilities, special correctional educational institutions for pupils with developmental disabilities, educational institutions for children in need of psychological, pedagogical, medical and social assistance, small rural schools.

The status of an autonomous institution allows for more free disposal of certain types of property and is therefore beneficial and convenient for those educational institutions that conduct large-scale income-generating activities and receive substantial income from them. Those institutions that have not found the opportunity to receive additional income, it is more convenient to remain budgetary. An institution that receives significant extra-budgetary revenues, especially if it is important for it to be able to manage them quickly, can independently come up with a proposal to create an autonomous institution by changing the type of an existing state or municipal institution [7].

The education system should be focused not only on tasks from the state, but also on the ever-increasing public educational demand, on the specific interests of families, local communities, and businesses.

Modernization of education is a political and national task, it should not and cannot be implemented as a departmental project. The interests of society and the state in the field of education do not always coincide with the sectoral interests of the education system itself, and therefore the determination of the directions of modernization and development cannot be confined within the framework of the educational community and the educational department.

All Russian citizens, the family and the parent community, federal and regional institutions of state power, local self-government bodies, the professional and pedagogical community, scientific, cultural, commercial and public institutions should become active subjects of educational policy.

When financing a state or municipal order for the provision of educational services to the population, competition between different educational institutions is likely, especially in large cities. Budget funds will be concentrated in the most effective modern institutions that implement innovative technologies, which may lead to the restructuring of the network of educational institutions and the elimination of its weakest elements.

In the conditions of demographic decline, the number of students will be reduced by almost one third, which creates a situational reserve for intra-system maneuvering of resources in order to rationalize the network of general education institutions, support innovative schools and other "points of growth" in education.

Time will tell what real changes will occur. But perhaps the financial independence of autonomous educational institutions can catalyze the process of investing in education.

References

1. Abankina T. V., Ph. D. in Economics, Director of the Center for Applied Economic Research of the State University of Higher School of Economics / Management of budgetary and extra-budgetary revenues of budgetary and autonomous institutions. 285 p.
2. Management in organizations of professional education / Collective of authors. - M.: KnoRus, 2016. - 93 p.
3. Natalia Shisharina Innovative management in modern education / Natalia Shisharina. - Moscow: Palmarium Academic Publishing, 2018. -215 p.
4. Simonova, A. A. Innovationally oriented preparation for pedagogical management in continuous professional education / A. A. Simonova. - M.: INFRA-M, 2016. - 134 p.

5. Zhukovsky, I. V. Management in the methodological service of education / I. V. Zhukovsky. - M.: Publishing house of the Russian University of Friendship of Peoples, 2018. - 116 p.
6. Goreva, O. M., Osipova, L. B. Management of the education system in terms of improving the quality of education / O. M. Goryaeva, L. B. Osipova // Modern problems of science and education. - 2019. - № 1, 153 p.
7. Vasilenko, N. V. Education management: an institutional approach: monograph. St. Petersburg: GO IPK SPO, 2017., 21 p.

УДК: 37

ТЕХНОЛОГИЯ РАЗРАБОТКА И ИСПОЛЬЗОВАНИЯ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ ВИРТУАЛЬНЫХ ЛАБОРАТОРИЙ В ВЕБ-ПРИЛОЖЕНИЯХ

У.М.Лутфиллаев

Самаркандского государственного института иностранных языков

Аннотация. В данной статье исследуются методическая система подготовки будущих учителей к организации непрерывному самостоятельному обучению студентов на основе использования Web-приложений в профессиональной деятельности педагога. В связи с этим предлагается разработки виртуальных ресурсов на основе компьютерных имитационных моделей для предметам системы образования. Учитывая необходимость приобретения определенных знаний и навыков в виртуальных ресурсах в Веб-приложениях на основе компьютерных имитационных моделей предлагается разработка виртуальные лаборатории по предмету «Зоология беспозвоночных» для студентов биологического факультета высшего образования.

Ключевые слова: Web-ресурс, Web-приложения, Интернет, мультимедийные средства, Зоология беспозвоночных, имитация, компьютерная модель.

Web-ilovalarda virtual laboratoriyalarning ta'lim jarayonida rivojlanish va foydalanish texnologiyasi

Аннотация. Ushbu maqolada o'qituvchilarni kasbiy faoliyatida veb-ilovalardan foydalanish asosida talabalarning uzluksiz mustaqil ta'limini tashkil etishga tayyorlashning uslubiy tizimi tadqiq etilgan. Shu munosabat bilan, ta'lim tizimining sub'ektlari uchun kompyuter imitatsion modellari asosida virtual resurslarni ishlab chiqish taklif etiladi. Kompyuter imitatsion modellari asosida veb-ilovalarda virtual resurslar bo'yicha ma'lum bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish zarurligini hisobga olib, oliy ta'lim biologiya fakulteti talabalari uchun "Umurtqasizlar zoologiyasi" fanidan virtual laboratoriyalar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish taklif etilgan.

Калит so'zlar: Web-resurs, Web-ilovalar, Internet, multimedia, umurtqasizlar zoologiyasi, taqlid, kompyuter modeli.

Technology of development and use in the educational process of virtual laboratories in web applications

Abstract. This article examines the methodological system of preparing future teachers for the organization of continuous independent learning of students based on the use of Web applications in the teacher's professional activity. In this regard, it is proposed to develop virtual resources based on computer simulation models for subjects of the education system. Taking into account the need to acquire certain knowledge and skills in virtual resources in Web applications based on computer simulation models, it is proposed to develop virtual laboratories on the subject "Zoology of invertebrates" for students of the biological faculty of higher education

Keywords: Web resource, Web applications, Internet, multimedia, Invertebrate zoology, imitation, computer model.

Стремительное развитие информационно-коммуникационных технологий в образовании происходит вследствие непрерывного пополнения и обновления, учебно-электронно-образовательных ресурсов и возможностью использования Интернет, Web-приложений для доступа к виртуальным ресурсам в процессе педагогической деятельности. Информационно-коммуникационные технологии предоставляют следующие дидактические возможности:

- возможность поиска необходимого виртуального Web-ресурса;
- возможность создания виртуальных Web-ресурсов;
- возможность организации самостоятельного обучения виртуального образовательного Web-ресурса.

Под виртуальных Web-ресурсов понимается электронный ресурс в виде компьютерного имитационного моделирования того или иного предмета системы образования.

Поэтому педагогическая деятельность в условиях использования информационно-коммуникационных технологий на основе виртуальных Web-ресурсов обрывает инновационными

формами и методами обучения, формируются новые требования к компетенциям педагога и пользователя.

Все сказанное позволяет сделать вывод о том, что информационно виртуальные Web-ресурсы основанная на компьютерного имитационного моделирования, является одним из перспективных направлений для получения качественного образования и дальнейшего его повышения в условиях самообразования. Возможность повышения квалификации в условиях виртуальных Web-ресурсов позволяет решать задачу поддержания необходимого уровня готовности к успешному выполнению профессиональной деятельности не только в сфере образования.

Особое внимание необходимо уделить **созданию средств** виртуальных Web-ресурсов, позволяющих самостоятельно повышать квалификацию. В результате анализа дидактического потенциала и возможности их использования в процессе организации новых форм и методов обучения можно выделить следующие функциональные возможности образовательного Web-ресурса для самостоятельного повышения квалификации учителя:

- использование виртуальных Web-ресурсов в условиях самообразования (электронные библиотеки, базы данных, базы знаний, мультимедийные средства, видео, аудио и т.д.);
- возможность самостоятельного обучения студентов;
- возможность получения виртуальных ресурсов на различных Web-, включающих в себя видео, звук, графику и мультимедиа;
- участие в различных разработках компьютерных имитационных моделей по предметам образования;
- совместные исследовательские по компьютерным имитационным моделям.

Методическая система подготовки будущих учителей к организации непрерывному самостоятельному обучению студентов на основе использования Web-приложений в профессиональной деятельности педагога будет эффективна, тогда когда будет использовано виртуальные ресурсы разработанной на основе компьютерных имитационных моделей по каждому предмету системы образования.

Учитывая необходимость приобретения определенных знаний и навыков в виртуальных ресурсах в Веб-приложениях на основе компьютерных имитационных моделей мы предлагаем следующие виртуальные лаборатории по предмету «Зоология беспозвоночных» для студентов биологического факультета высшего образования:

Имитация к лабораторной работе «Строение ленточных червей на примере *Taeniarchynchus saginatus* и *Echinococcus granulosus*»

Тип Plathlminthes. Класс Cestoda. Отряд Cyclophyllidea. Представитель - *Taeniarchynchus saginatus*. Представитель - *Taenia solium*.




Рис.1. Компьютерная модель - внешнего строения бычьего солитера

Предусматривается имитация целого солитера в кишечнике человека, зафиксированного головкой к стенке кишечника.

Предусматривается выделение: сколекса, шейного отдела, молодых проглоттид, проглоттид с развитыми половыми органами и зрелыми проглоттидами.

Предусматривается имитация движения в кишечнике человека червя, т.е. свёртывания и вытягивания тела.




Рис. 2 Компьютерная модель - строения покровов ленточных червей

Предусматривается имитация всасывания пищи покровами глистов, выделяя: ворсинки, микроворсинки, кольцевые мышцы, продольные мышцы, митохондрии, тёмные клетки, светлые клетки.




Рис.3. Компьютерная модель – оплодотворения ленточных червей

Предусматривается имитация процесса оплодотворения и образования яйца, т.е. яйца из яичников должны поступить в оотип и соответственно спермии также должны поступать в оотип из семяприемника, где и происходит их слияние. Оплодотворенное яйцо окружается желточными клетками и вокруг них образуется скорлупа. И так оплодотворенное яйцо переводится в матку. Матка продолжает вбирать в себя оплодотворённые яйца и соответственно начинает разветвляться и практически полностью заполняет всю внутреннюю часть проглотида. При этом редуцируются: парный яичник, семенники и желточник. Должна остаться только лишь клоака и влагалище.

В продолжении имитации, эта проглотида, т.е. зрелая проглотида должна оторваться от стробилы и вместе с навозом попасть на субстрат.




Рис.4. Компьютерная модель - развития эмбриона

Предусматривается деление оплодотворенного яйца и образование личинки – онкосферы с 6-тью крючьями.

Дробление у цестод полное и неравномерное. Во время митотического деления оплодотворённой яйцеклетки образуется несколько макромеров и большое число микромеров. Макромеры идут на образование клеточной оболочки бластомеры (экстроэмбриональная бластодерма).

Микромеры образуют сферическую клеточную массу - гастролу. Из клеток гастролу в конце –концов формируется эмбрион – онкосфера.




Рис.5. Компьютерная модель - постэмбрионального развития

Предусматривается имитация попадания яйца с онкосферой в желудок травоядного, в частности в желудок коровы. В желудке, оболочка яйца растворяется и личинка или онкосфера пройдя с пищей в кишечник, при помощи крючков внедряется в стенку кишки и проникает в кровеносные сосуды. С током крови онкосферы разносятся по телу и попадают в различные ткани и органы. Здесь онкосферы превращаются во вторую личиночную, пузырчатую стадию – финну – цистицерк. Развитие финны из онкосферы продолжается от 2,5 до 4 месяцев. Финна представляет собой размером с не большую горошинку, в которой головка (сколекс), имеющая четыре присоски, ввернута внутрь.




Рис.6. Компьютерная модель - заражения человека финной или цистицерком

Предусматривается имитация поедания человеком мяса с финной или цистицерком. В кишечнике человека финна выворачивается прикрепляется к стенке желудка и начинает расти, т.е. образуются проглоттиды.




Рис.7. Компьютерная модель - зрелых члеников солитёров

Предусматривается имитация зрелых члеников свиного солитёра, бычьего солитера и широкого лентеца при этом выделяя: матку забитую яйцами, семяпровод и влагалище.




Рис.8. Компьютерная модель - эхинококка

Предусматривается имитация эхинококка с выделением: хоботока с крючьями и присосками, проглотид с гермафродитным половым аппаратом и матку с яйцами в зрелой проглотиде.




Рис.9. Компьютерная модель - цикла развития эхинококка

Предусматривается имитация половозрелой особи в кишечнике собаки. Последний членик стробилы эхинококка отрывается, в нём находится около 500-800 очень мелких яиц, которые выносятся во внешнюю среду. Во время выхода из анального отверстия собаки, стробила может лопнуть или разорваться и соответственно яйца рассыпаются, часть которых может попасть на шерсть хозяина, а другая часть может попасть на траву пастбища и соответственно эхинококком могут быть заражены: человек, крупный рогатый скот, мелкий рогатый скот и непарнокопытные животные. В желудке человека или животных из яиц выходит онкосферы, которые пробуравливают стенки кишечника и попадают сначала в мелкие, затем в крупные кровеносные сосуды. Током крови онкосфера разносится по всему телу. Наиболее заметной является локализация в печени, лёгких и почке.

Предусматривается имитация образования финны в печени барана, которая разрастается из маленького пузырька с одной головкой в пузырь размером с яблоко, многослойный и с многими головками. Далее предусматривается имитация печени с пузырьком эхинококка, которую съедает собака, и как в желудке этого животного формируется маленький глист, т.е. пузырь выворачивается с головкой. Образовавшийся глист прикрепляется к стенке кишечника и начинает развиваться.

Имитация к лабораторной работе «Строение и жизнедеятельность круглых червей на примере *Ascaris lumbricoides* и *Enterobius vermicularis*»

Тип Nematelminthes. Класс Nematoda. Подкласс Secernenta. Представители *Ascaris lumbricoides* и *Enterobius vermicularis*.

Человеческая аскарида и детская острица являются важным объектом при изучении паразитических червей, так как это связано непосредственно со здоровьем человека. По своей организации это типичные круглые черви.

Виртуальная лабораторная разработка в основном состоит из двух частей. В первой части имитируется строение и цикл развития человеческой аскариды. Вторая часть посвящена детской острице.

Соответственно этому в первой части виртуальной лабораторной разработке имитируется общее строение человеческой аскариды с выделением: переднего отдела туловища с около - ротовыми губами; срединной части и наконец хвостовой, с их особенностями внешней морфологии.



Рис.10. Компьютерная модель - внешнего строения аскариды

Кроме имитации внешнего строения, также было разработано анатомическое строение этого червя с выделением пищеварительной, выделительной и половой систем. Моделировали спаривание и откладку яиц аскариды, а также пути заражения человека, с последующим развитием этого глиста в его организме, т.е. весь процесс от яйца до имаго.

Компьютерная модель морфо-анатомического строения человеческой аскариды имеет важное значение при обучении студентов, как дополнительное средство для углубления знаний, получаемых в ходе занятий.

В материалах виртуальной лаборатории, особое внимание уделяется процессу проникновения личинки из кишечника в кровеносное русло человека, с последующим внедрением в альвеолы легких, а также вторичным попаданием в кишечник человека.

В целом по этой части виртуальной лаборатории, обучаемые приобретают понятия о сложном цикле развития паразита; об их жизненных параметрах в связи с паразитическим образом жизни; и об возможных путях заражения аскаридами человека.

Вторая часть компьютерной разработки, по данной лабораторной тематике посвящена строению и жизненному циклу детской острицы. Так же как и в предыдущей имитации раскрываются морфо-анатомические особенности строения этого паразита и пути заражения детей этими червями.

Таким образом, становится ясно, что в процессе вузовской подготовки учителя становится все более актуальной проблема подготовки учителя к разработке и использованию Web-технологий для самостоятельного повышения квалификации в условиях самообразования, с одной стороны и появляется возможность самостоятельной подготовки студентов с другой стороны.

Литература

1. Е.Н.Гусева, И.Ю.Ефимова, Т.Н.Варфоломеев "Методика формирования навыков имитационного моделирования у ИТ-специалистов" Открытое образование Т. 23. № 1. 2019. DOI: <http://dx.doi.org/10.21686/1818-4243-2019-1-4-13>

2. Д.В.Митрофанов "Педагогические возможности информационных технологий в формировании интеллектуальной культуры студентов. ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ ГАУДЕАМУС, Т. 17, № 1, 2018. doi: 10.20310/1810-231X-2018-17-1-25-36

3. М.Х.Лутфиллаев. Разработки методической системы виртуальных ресурсов на основе компьютерных имитационных моделей Ж, "Казахский журнал новости науки" научно-технический журнал 2015 №1. 9-19 С.

4. В.С.Сморозин, А.В.Клименко "Имитационное моделирование и средства оптимизации сложных технических систем". ISSN 1028-9763. Математичні машини і системи, 2014, № 4

UDK: 37.1

TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT ASOSLARIDAN FOYDALANISH

O. J. Suyunov

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Suyunov57@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada oliy o'quv yurtlarida o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiris uchun innovatsion texnologiyalar va pedagogik mahorat asoslaridan unumli foydalanish yo'llari hamda muammoli ta'lim asosida darslarni tashkil etish zarurati ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: bilim, vaziyat, vaziyatli tahlil, kasb, muammoli vaziyat, ta'lim olish, ta'lim berish, o'qitish, evristik o'qitish, modulli o'qitish, intellekt, o'qitish turlari.

Использование основ инновационных технологий и педагогического мастерства в организации образовательного процесса

Аннотация. В статье изложены пути эффективного использования основ педагогического мастерства для повышения эффективности учебно-воспитательного процесса в высших учебных заведениях, а также обоснована необходимость организации занятий на основе проблемного образования.

Ключевые слова: Знание, ситуация, ситуационный анализ, профессия, проблемная ситуация, образование, обучение, эвристическое обучение, модульное обучение, интеллект, виды обучения .

Using the basics of innovational technologies and pedagogical skills in organizing the educational process

Abstract. The article discusses ways to effectively use the basics of innovational technologies and pedagogical skills and the need to organize lessons based on problem-based learning to increase the effectiveness of the educational process in higher education.

Keywords: Knowledge, situation, situational analysis, profession, problem situation, learning, teaching, heuristic learning, modular learning, intelligence, types of teaching.

Zamonaviy, ilg'or o'qituvchilarning ta'lim-tarbiya sohasida erishgan umumpedagogik tajribalari - qobiliyat va mahoratlari ta'lim jarayonini qanchalik ustalik bilan tashkil etishida baholanadi.

Bugungi kunda har qanday davlatning barqaror taraqqiyoti asosini innovatsion faoliyat tashkil etadi. "Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejizga emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kimyutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak"[1].

Dalillar shuni ko'rsatadiki, qiziqish va ishtiyoq bilan dars olib borgan ma'ruzachilar talabalarni ta'lim olish borasida rag'batlantirishda katta yutuqlarga erishishgan. Bu kabi izlanishlar samarali ta'lim beruvchi ma'ruzachilarni faqatgina ma'lumot beruvchi emas, balki talabalarga haqiqiy ilm berishini qayd etadi. Samarali va ajoyib tashkil etilgan ma'ruza Power Point taqdimoti nusxasini olib yurgandan ko'ra afzalaroq ekanini va ma'ruza o'rnini bosa olmasligini alohida aytib o'tish lozim [2]. Respublikamiz mustaqillikka erishgach, uning oldiga juda qisqa muddatda yangicha fikrlovchi, respublika ravnaqi, taraqqiyoti uchun ongli ravishda kurashuvchi yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlash vazifasi ko'ndalang qo'yildi. Yetuk mutaxassis va yangicha fikrlovchi shaxslarni shakllantirish uchun chuqur bilimning o'zigina kifoya qilmasligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bizga ta'lim muassasasini bitirganlar emas, ta'lim muassasasi tarbiyasini ko'rganlar kerak". Bu bilan Prezident bilimlar yig'indisini egallashga emas, balki ularni egallab, turli kasb-hunarlar siri, mahoratini o'zlashtirishga xizmat etuvchi bilimlarni o'rganish lozimligini ko'rsatib berdi.

Oliy o'quv yurtlarida o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishning muhim sharti mazkur jarayonga rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida foydalanib kelinayotgan innovatsiyalarni mamlakatimiz ta'lim muassasalarining o'quv jarayoniga tatbiq etish va ta'lim jarayonini tashkil etishda pedagogik mahorat asoslaridan unumli foydalanishga bogliq boladi.

Har bir insonda u yoki bu kasbga qobiliyat mavjud bo'ladi. Ba'zi taniqli ruhshunoslarning fikricha (F.Gonobolin, N.Kuzmina), pedagoglik kasbi uchun quyidagi 6 xil qobiliyatlar muhim hisoblanadi:

1. O'rta tusha bilish.
2. Tashkilotchilik.
3. O'zini idora eta bilish.
4. Mo'ljallay olish, chamalay bilish.
5. Kuchlilik, zehnlilik.
6. Faoliyatga ijodiy yondashish.

Bularning barchasi tarbiyaviy maqsad mavjud bo'lgan, insonparvarlik nuqtai-nazaridan turib yondashilgan taqdiridagina pedagogik qobiliyat tarkibiga kirishi mumkin.

Professor N.Azizxo'jayeva ta'lim jarayonini tashkil etishda pedagogik mahorat asoslaridan unumli foydalanish uchun muammoli vaziyatlardan foydalanishni tavsiya etadi. Muammoli vaziyat o'quvchi-talabalarga ma'lumotlar, bilimlar bilan yangi dalillar, hodisalar, vaziyatlar orasidagi dialektik qarshiliklar bo'lib, ularni tushunib olish uchun ilgari olgan bilimlarining yetishmasligidir. Bu qarama-qarshiliklar tushunmovchiliklar ijodiy bilimlarni o'zlashtirish uchun harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi [3]. O'quvchi-talabalar amalda bajargan topshiriq natijalari bilan o'zlarining nazariy jihatdan tushunib yetishlari o'rtasida bilimlarining yetishmasligi ham muammoli vaziyatlar yuzaga kelishiga olib keladi [4]. Muammoli vaziyatlarni vujudga keltirishda pedagogik muloqot muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik muloqot deganda, odatda, o'qituvchining o'quvchi bilan dars mobaynida va darsdan tashqari bo'ladigan aniq pedagogik funksiyalarga ega va qulay psixologik muhitni yaratish, shuning bilan birga, boshqa xildagi psixologik optimal ilmiy faoliyat va pedagog bilan o'quvchilar uchun o'rtadagi munosabatlar uchun yonaltirilgan professional muloqot shakli tushuniladi [A.A.Leontev].

Pedagogik mahorat nazariyasi va metodikasining ishlab chiqilmaganligi shunga olib keladiki, pedagoglarning har biri o'z-o'zicha, paypaslab ijodiy izlanish olib boradi: o'quvchilar bilan, pedagogik jamoa bilan qanday qilib yaqindan til topishish mumkin? Qanday qilib qisqa muddat ishida o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarning haqqoniy manzarasiga erishmoq mumkin? degan savollarga javob izlaydi. Bu savollarga beriladigan javoblar har bir mohir pedagogning faoliyati ochun zarur bo'lgan umumiy pedagogik malakalarni shakllantirish bilan bog'liq bo'lib, mazkur muammoni hal qilish pedagogdan odatdan tashqari kuch-g'ayrat, qat'iyat, tirishqoqlik, ijodiylikni, o'z faoliyatini to'g'ri baholay bilish, shuningdek, o'quvchilar, tarbiyalanuvchilarga nisbatan insonparvarona munosabatda bo'la olishni talab etadi. Ibn Sino "Tadbiri manzil" asarida o'quvchi uchun o'qituvchi tanlayotganda uning to'g'ri so'z, halol, toza-ozoda va o'quvchilarni sevuvchi kishi bo'lishiga e'tibor berish lozimligini ta'kidlaganida o'qituvchining insonparvarlik sifatini nazarda tutgan edi.

Hozirgi sharoitda har qanday tarmoqqa mansub zamonaviy tashkilotlar innovatsiyalardan tizimli foydalanmagan holda, faoliyat yurita olmaydi. Biroq, innovatsiyalarning amalga oshirilishi bir qator qiyinchiliklarga bog'liq:

Birinchidan, zamonaviy xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hamma vaqt ham innovatsion strategiya va turli innovatsiyalarning mazmuni va mohiyati haqida ob'ektiv tasavvurga ega emas.

Ikkinchidan, iqtisodiyotning aksariyat tarmoqlari (ta'lim, tibbiyot, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat va qayta ishlovchi sanoat) konservatizm bilan farq qiladi va ularda band bo'lgan xodimlar ichida innovatsiyalarga bo'lgan motivatsiyalangan ehtiyojning mavjud emasligi kuzatiladi.

Uchinchidan, innovatsiyalarni amalga oshirish uchun yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda zarur bo'lgan innovatsion takomillashtirishni amalga oshirishga qodir bo'lgan malakali kadrlar zarur [5].

O'zbekiston iqtisodiyoti mulkchilik shakllarining xilma-xiligi, iqtisodiyot barcha sektorlarining tijoratlashuvi bilan shartlangan sifat jixatdan yangi tavsiflarga ega bo'ldi. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda nafaqat ob'ektiv sabablarga ko'ra, balki ko'pincha mahalliy ishlab chiquvchilarning bozorga yangi mahsulotni chiqarishga tayyor emasligi tufayli foydalanilmay turgan, tijoratlashtirish uchun istiqbolli hisoblangan ko'p sonli tadqiqotlar va ishlanmalar natijalari mavjud. Albatta, yangi mahsulotni yaratish va bozorga chiqarish, texnologiyalarni samarali tijoratlashtirish sohasida ishlovchi mutaxassislar soni hamda ularni tayyorlash sifati zamon talablariga mos kelmaydi. Xatto menejment soxasi bo'yicha ma'lumotga ega bo'lgan ko'plab mutaxassislar ham intellektual mulkni boshqarish, texnologiyalarni tijoratlashtirish sohasidagi tizimli bilimlarni o'zlashtirmagan, yangi yuksak texnologiyali mahsulotni bozorga chiqarishning o'ziga xos jihatlari, yangi texnologiyalarni kompaniyaning umumiy faoliyatiga integratsiyalash, texnologik audit, innovatsion loyihalarni boshqarish haqidagi tasavvurlari cheklangan.

Innovatsion menejerlarni o'qitishda foydalaniladigan shakllarni shartli ravishda uchta guruhga ajratish mumkin: an'anaviy; innovatsion; mustaqil o'qib o'rganish [1-rasm].




1-rasm. Innovatsion faoliyatni boshqarish sohasidagi mutahassislarni o'qitishning shakl va usullari

Rivojlangan Yevropa va AQSH mamlakatlarida personalni o'qitish va rivojlantirishning eng tabiiy usuli ishlab chiqarish kompaniyalarida keng qo'llaniladi. Murabbiylikning bu xili Buddying [inglizcha *buddy* – do'st] ma'nosini anglatadi. **Buddying** - bu, birinchi galda, ko'mak; yordam demakdir. Ushbu usul bir-biriga ob'ektiv va teskari bog'liklikni taqdim etishga, ham shaxsiy, ham korporativ maqsadlar va vazifalarni bajarishda, shuningdek yangi ko'nikmalarni o'zlashtirishda bir-birini qo'llab-quvvatlashga asoslangan.

Buddyingning mohiyati shundan tobora ortib borishi tahsil oluvchilarga qisqa vaqt ichida katta hajmdagi bilimlarni berish, materialni amaliyotda mustahkamlagan holda uni o'zlashtirishning yuqori darajasini ta'minlash imkonini beruvchi innovatsion shakllarni talab qiladi. Umumiy tendensiya faol o'qitish shakllaridan foydalanish va tinglovchilarda jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'proq e'tibor qaratilishidan iborat.

Innovatsion faol o'qitish shakllaridan yana biri bu **Secondment** usulidir. **Secondment** - personalni ma'lum vaqtga zarur ko'nikmalarni egallash uchun boshqa tuzilmaga «xizmat safariga yuborish». Bunda secondment stajirovka yoki xizmat safarlari bilan hech qanday umumiylikka ega emas. Uning mohiyati shundan iboratki, xodim shu kompaniyaning boshqa tarkibiy bo'linmasiga yoki boshqa kompaniyaga vaqtinchalik

yuboriladi. Secondment qisqa muddatli (100 soatga yaqin ish vaqti) ham, uzoqroq muddatli (bir yilgacha) ham bo'lishi mumkin. Secondmentni qo'llashning barcha taraflar, ya'ni xodim, bajaruvchi va qabul qiluvchi tomon uchun ijobiy natijalari mavjud [2-rasm].



2-rasm. Secondmentni qo'llashning ijobiy natijalari

Hozirgi davr talabiga ko'ra **masofadan turib ta'lim olish** – o'qituvchi va o'quvchilarning vaqt va makonga ko'ra bo'lingan muloqoti bilan farq qiluvchi ta'lim shakli muhim ahamiyat kasb etadi. Oqishga raxbarlik o'qituvchilarga jo'natiladigan yo'riqnoma tusidagi materiallar va ma'ruzalar yordamida yoki o'qituvchilar va o'quvchilarning davriy yuzma-yuz muloqotlari orqali amalga oshiriladi.

O'qitishning an'anaviy shakllaridan farqli o'laroq masofadan turib ta'lim olishda yangi element - kompyuter paydo bo'ladi. Masofadan turib ta'lim olishda foydalaniladigan axborot vositalari va texnologiyalar o'quvchilarning ijtimoiy va kasbiy muhitida qabul qilingan vositalar va texnologiyalarga mos kelishi kerak. Ushbu vositalar va texnologiyalarni shartli ravishda ikkita guruxga bo'lish mumkin:

1. Axborot uzatish uchun foydalaniladigan tizim va vositalar (telefon, televizion tizimlarning ko'p sonli turlari, lokal va global tarmoqqa ulangan kompyuter tizimlari).

2. Axborotni o'zgartirish va boshqarishni ta'minlovchi tizimlar va vositalar. Bu, odatda, maxsus dasturiy ta'minotdan foydalanuvchi periferiyali qurilmalar (skanerlar, printerlar, videoprojektorlar va h.k.) rivojlangan infratuzilmasiga ega bo'lgan avtonom yoki tarmoq kompyuter tizimlari [5].

Masofadan turib ta'lim olishda foydalanilishi mumkin bo'lgan barcha axborot vositalari ichida Internet markaziy o'rin tutadi. Bu turli formatdagi (matn, grafik tasvir, ovoz, video) ma'lumotlarni uzatishning yuqori tezligi va ishonchliligi bilan, shuningdek, Internet eng sodda web - darsliklar, murakkab interfaol tizimlar, kompyuter modellari, virtual o'quv muhitlari ko'rinishida berilishi mumkin bo'lgan o'quv materiallaridan jamoaviy bo'lib foydalanish imkoniyatini taqdim etadi.

Innovatsion faoliyatni boshqarish bo'yicha mutaxassis tayyorlashni tinglovchilarni ishlab chiqarishdan ajralmagan xolda amalga oshirish, ularni ilg'or amaliyotga asoslangan o'quv qo'llanmalari, shu jumladan testlar hamda ta'limning har bir muayyan shakli uchun moslashtirilgan muayyan vaziyatlar taxlili keltirilgan elektron ko'rinishdagi o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlash maqsadga muvofiq hisoblanadi [6].

Boshqarish ob'ektlari sifatida innovatsiyalarning o'ziga xosligi menejerning ushbu soxadagi kasbiy faoliyatining alohida xususiyatini belgilab beradi. Innovatsion menejerning mehnati ijodiy xususiyatga ega bo'lib, har taraflama bilimlarni talab qiladi va shaxsning taxliliy faoliyatga moyilligini nazarda tutadi. Texnik, texnologik, tashkiliy, tijorat tavsifdagi intellektual faoliyatning yangi natijalarini aniqlash, ushbu natijalarni qabul qilingan biznes strategiyasiga ta'siri nuqtai nazaridan tahlil qilish zarurligi, ularni huquqiy himoya qilishning optimal shakllarini tanlash, innovatsion biznesning qiymatini oshirish uchun huquqiy mexanizmidan foydalanish - bularning barchasi innovatsion faoliyatning ajralmas tarkibiy qismlaridir.

Biz tomonimizdan ko'rib chiqilgan seminar tiplari talabalarni muammoli o'qitishga tayyorlash uchun zarur bo'lgan va bir qancha pedagogik vazifalarni bajarishga qaratilgan mashg'ulotlar tizimidan iborat bo'ldi. Talabalarda o'qishga bo'lgan qiziqishni uyg'otish va shakllantirish ta'lim olishga bo'lgan motivatsiyani kuchaytirishi ehtimoldan holi emas. Ma'ruzalarning boshlang'ich qismi eng muhim masala hisoblanib, talabalarni ishonitiruvchi va ushbu ma'ruzani eshitishlari kerakligini ifodalaydi.

Muammoli savolga javob topishni qidirishni tashkil etish o'zida muntazam qo'yilgan qadamlar modulini birlashtirdi. Ular quyidagilar:

- muammoli savolni qo'yish;

- qo'yilgan savollarga javob topish va asoslash bo'yicha talabalarning fikrlashga urinishlarini tashkil etish;
- javoblarning tanqidiy tahlilini tashkil etish, ularning kuchli va kuchsiz jihatlarini aniqlash;
- kelishilgan mavqe (pozitsiya)ni ishlab chiqish – eng to'g'ri javobni konstruksiyalash maqsadida javoblarni o'zaro qiyos qilishni tashkil etish);
- keyingi muammoli savolni qo'yishga o'tish.

Muammoli ta'lim jarayonida pedagog boshchiligidagi muammoli vaziyat yuzaga keltirilib, mazkur muammo o'quvchi-talabalarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta'lim jarayonini tashkil etish nazarda tutiladi.

Xulosa qilib aytganda, jaxonda munosib o'ringa ega bo'lish uchun mamlakatimiz oldiga yaqin vaqt ichida o'z ishlanmalariga tayangan xolda rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish vazifasi qo'yilgan. Ushbu vazifani hal etishda zamonaviy kadrlar - bozor sharoitida ishlash uchun tayyor, sifatli ta'lim olgan, jaxonda keskinlashib borayotgan rakobatbardosh innovatsion menejerlar, maslahatchilar, ekspertlar zarur. Ushbu mutaxassislarning muvaffaqiyatli ishlashi O'zbekistonning yuqori sur'atlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining garovidir. Buning uchun esa, oliy o'quv yurtlarida o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishning muhim sharti mazkur jarayonga rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida foydalanib kelinayotgan innovatsiyalarni mamlakatimiz ta'lim muassasalarining o'quv jarayoniga tadbiq etish va ta'lim jarayonini tashkil etishda pedagogik mahorat asoslaridan unumli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'limda muammoli o'qitish texnologiyasidan foydalanish esa ta'lim jarayonini amalga oshirishda universal vosita hisoblanadi. Bu texnologiya talabalar vaziyatli masalani izlash faoliyatiga, muammoni ifodalash va yechishga tayyorlangandagina samarali bo'ladi. Demak, muammoli o'qitish bu o'qitishning pedagogik texnologiyasi bo'lib, o'zining mazmuni va tuzilmasi bo'yicha o'qituvchi va talabaning ijodiy jarayonlarini sintezlaydi. Muammoli o'qitishda pedagogik faoliyatning xususiyatlari o'quv axborotlari mazmunini muammoli vazifalar va muammoli vaziyatlarga ko'chirish orqali maqsadlarni oydinlashtirish jarayonidan iborat bo'ladi.

Shunday qilib, ta'lim jarayonini tashkil etishda pedagogik mahorat asoslaridan hamda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanish o'quvchi-talabalar bilim tizimlari va aqliy, amaliy faoliyatlarida samarali o'zlashtirishga yordam beradi. O'zlashtirgan yangi bilimlari esa kelajakda ta'lim muammolarini yecha bilish, mustaqil izlanishga o'rgatish, ijodiy tajribaga ega bo'lish va uni rivojlantirish, ta'lim jarayonining vazifalarini tahlil qilish, muammoli ta'limni aniqlash imkoniyatlarini ochib beradi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr. // www.uza.uz
2. A handbook for teaching and learning in higher education: enhancing academic practice / (edited by) Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall.–3rd ed. p. cm. pp: 61.
3. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T., 2012.
4. J.Yo'ldoshev, S.Xasanov "Pedagogik texnologiya" – T.: TMI, 2014 yil.
5. Борисов Б.С. Сироткина Н.В. Обучение инновациям. // Ин Вест Регион.- 2017.- №1.- С. 26-27.
6. Основы деятельности тьюторов в системе дистанционного образования: специализированный учебный курс/ С.А. Щенников, А.Г.Теслинов, А.Г.Чернявская и др. - 2-е изд., испр. - М.: Дрофа, 2016. - 591 с.

UDK: 377.1

MULOQOT KOMPETENSIYASINING MOHIYATI

A.A.Xasanov

*Samarqand davlat universiteti
hasanov.0276@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada chet el olimlarining muloqot kompetensiyasi haqidagi qarashlari haqida gap boradi. Ularning fikriga ko'ra, muloqot kompetensiyasi kasbiy va ijtimoiy hayotda muhim bo'lganlaridan biri hisoblanadi va u bir tomondan, shaxsning ijtimoiylashuviga ko'maklashadi va fuqarolarning shaxsiy ehtiyojlariga javob beradi, boshqa tomondan, jamiyatning professional kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Kompetensiya – bilim, malaka va tajribaning bajariladigan vazifalar va hal etiladigan muammolarning haqiqiy murakkablik darajasiga muvofiqligi o'lchovidir. Qat'iy kasbiy bilim, malakalardan tashqari tashabbus, hamkorlik, guruhda ishlash qobiliyati, muloqot qobiliyatlari, o'qish, baholash, mantiqiy fikrlar malakasi va boshqalarni o'z ichiga kiritadi.

Kalit so'zlar: muloqot kompetensiyasi, jamiyat, o'qituvchi, tushuncha, bilim, ko'nikma, malaka, tajriba, kompetentlik, til vositasi, nutqiy xulq, mohiyat, suhbat, omil, atama, faoliyat, kasbiy bilim.

Природа коммуникационной компетентности

Аннотация. В статье рассматриваются взгляды зарубежных ученых на коммуникативную компетенцию. По их мнению, коммуникативная компетентность является одной из важнейших в профессиональной и общественной жизни, и, с одной стороны, способствует социализации личности и отвечает личным потребностям граждан, с другой стороны, отвечает потребностям общества для профессиональных сотрудников. Компетентность - это мера соответствия знаний, навыков и опыта фактическому уровню сложности задач и задач, которые необходимо выполнить. Сильные профессиональные знания включают в себя, помимо навыков, инициативу, сотрудничество, умение работать в команде, коммуникативные навыки, чтение, оценку, навыки логического мышления и многое другое.

Ключевые слова: коммуникативная компетенция, общество, учитель, концепция, знания, умение, компетенция, опыт, компетенция, языковой инструмент, речевое поведение, сущность, беседа, фактор, термин, деятельность, профессиональные знания.

The nature of communication competence

Abstract. The article examines the views of foreign scientists on communicative competence. In their opinion, communicative competence is one of the most important in professional and social life, and, on the one hand, contributes to the socialization of the individual and meets the personal needs of citizens, on the other hand, it meets the needs of society for professional employees. Competence is a measure of the relevance of knowledge, skills and experience to the actual level of complexity of the tasks and tasks to be performed. Strong professional knowledge includes, in addition to skills, initiative, collaboration, teamwork, communication skills, reading, assessment, logical thinking skills, and more.

Keywords: communicative competence, society, teacher, concept, knowledge, skill, competence, experience, competence, language instrument, speech behavior, essence, conversation, factor, term, activity, professional knowledge.

Davlat ta'lim standartlarining tarkibiy komponentlari – mutaxassisning kompetensiyasi hisoblanadi. Yevropa Ittifoqi ixtiyoriy mutaxassisga, jumladan o'qituvchi uchun zarur bo'lgan asosiy kompetensiyalarni ajratadi. O'qituvchilarni tayyorlash mazmunida yosh mutaxassislarining asosiy kompetensiyalarini shakllantirishga umumevropa talablari alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan: «ishda va ijtimoiy hayotda muhim bo'lgan og'zaki va yozma muloqotni egallashni belgilovchi kompetensiyalar»ning yuqori darajasiga ega bo'lish zarur.

Ta'limning zamonaviy paradigmasi - «butun hayot davomida o'qish» (YUNESKO) – uzluksiz pedagogik ta'lim tizimi oldiga, kasbiy pedagogik kompetensiyalarning keng doirasiga ega bo'lgan o'qituvchini shakllantirishda ifodalanuvchi yangi vazifalarni qo'yadi. Mazkur vazifalar yechimiga so'nggi vaqtlarda g'arb va milliy pedagogikada keng qo'llanilayotgan «kompetensiya» tushunchasi orqali yondashib, pedagogik OTMlarda o'qitishning maqsadi muayyan kompetensiyalarni (o'quv, umummadaniy, predmetli-kasbiy, psixologik-pedagogik va h.k.) shakllantirishdan iborat deb hisoblansa, unda bu qatorni muloqot kompetensiyasi bilan to'ldirish lozim deb hisoblaymiz.

Jamiyatni munosabatlarning yangi tizimiga, ta'lim tuzilmalarini insonparvarlashtirish, didaktik jarayon ishtirokchilarining subyekt-subyektli munosabatlariga yo'naltirish tufayli muloqot kompetensiyasi muammosi dolzarb hisoblanadi va umumiy qiziqish uyg'otadi, gumanitar bilim turli vakillarining (faylasuflar, filologlar, lingvistlar, sosiolingvistlar, ijtimoiy psixologlar, pedagoglar) e'tiborini qaratadi.

Muloqot kompetensiyasining mohiyati va uning tashkil etuvchilarini belgilab, tadqiqot mantiqi quyidagi masalalarning yechimini nazarda tutadi:

- muloqot kompetensiyaning yuqori darajasiga ega bo'lish uchun talabaga qanday bilimlar obyektiv zarur hisoblanadi?

- obyektiv zarur ko'nikma va malakalar qaysilar?

- muloqotda (kommunikatsiya) muloqot kompetensiyasining yuqori darajasiga ega talabaning vaziyati va uning asosida yotuvchi kommunikativ yo'nalganlik nimani ifodalashi kerak?

- qaysi asosiy individual-psixik xususiyatlar bo'lajak pedagogning muloqot kompetensiyasini belgilaydi? Talabaning muloqot kompetensiyasining asosiy tashkil etuvchilari o'zaro qanday bog'liq?

Ilmiy adabiyotlarda ikkita yaqin, ammo mazmuni bo'yicha farqlanuvchi ikki tushunchalar ajratiladi: kompetensiya va kompetentlik. Ikkala tushunchalar ham kasbiy tayyorgarlikka bevosita aloqador hisoblanadi [13].

Zamonaviy tadqiqotchilarning nazariy ishlarining tahlili (B.S.Abdullayeva, Axmedova N.M, D.M. Novikov, S.I. Ojegov, E.F. Zeyer, F. Merye, L. D' Eno, F. Danver, V.Gumboldt, R. Kempbell, R. Uels, N.Xomskiy, D. Xayms, Dj. Gumpers, L.A. Petrovskaya, Ye.M. Vereshagin, V.G. Kostomarov, M.N. Vyatyutnev, A.R. Arutyunov, D.I. Izarenkov, N.B. Ishxanyan) barcha mualliflar muloqot kompetentligini shaxsning professionalligini tavsiflovchi sifati kabi tahlil qilishlarini ta'kidlash imkonini beradi. Ular o'qituvchining kasbiy kompetentligini uning kompetensiyalari, ya'ni u bilim va tajribaga ega bo'lgan vakolatlar doirasi nuqtai nazaridan qarash lozimligini ta'kidlaydilar.

D.M. Novikov «kompetentlik» va «kompetensiya» tushunchalarini o'zaro to'ldiruvchi sifatida qaraydi. Uning ta'kidlashicha: «kompetentlik» atamasi kasbiy tayyorgarlik darajasi tavsifiga nisbatan yaqindan qo'llana boshlandi. Masalan, kompetensiyaga ega bo'lmagan, kompetent inson, uni to'liq va ijtimoiy ahamiyatli jihatlaridan uni amalga oshira olmaydi. Bundan ta'lim oluvchining kompetentligi OTMlarda ta'lim jarayonining asosiy sifatli ko'rsatkichi hisoblanishi, unga erishish esa ta'lim oluvchilarning kompetensiyani egallashlari orqali sodir bo'lishi, bu esa pedagogik maqsadni tashkil etishi kelib chiqadi [16].

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda keng qo'llaniladigan «kompetentlik» tushunchasi «kompetent» sifati bilan bog'liq.

S.I. Ojegovning lug'atida «kompetent» atamasi «biror-bir sohada biluvchi, xabardor, obro'li mutaxassis», ya'ni biror-bir kompetensiyalarga ega bo'lgan sifatida ta'riflanadi.

Shu tariqa, keltirilgan ta'riflardan «kompetentlik» atamasini quyidagicha ta'riflash mumkin deb hisoblaymiz: kompetentlik ishchining professionalligi bilan belgilanuvchi, shaxsning kasbiy shakllangan sifati kabi tushuniladi va «kasbiy-savodli mulohaza, baholar, fikrlarni ifodalashga imkon beruvchi bilim va malakalarga egalik» va «o'sib kelayotgan avlodning shaxsini shakllantirishga yo'naltirilgan, qo'yilgan vazifalarni samarali yechishga imkon beruvchi, pedagog shaxsining sifati» kabi talqin etiladi.

E.F. Zeyer tomonidan ajratiladigan, pedagogning kasbiy shakllanishi bosqichlarida, kompetensiya kompetentlikni kelgusi shakllantirish va rivojlantirish uchun asos (baza) sifatida qaraladi [10].

Tadqiqot ishimizda «kompetensiya» va «muloqot kompetensiyasi» tushunchalarini qo'llaymiz, shu sababli mazkur tushunchalarning lingvodidaktikada va psixologik-pedagogik adabiyotlardagi ahamiyatiga murojaat etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xorijiy va milliy manbalar tahlili mazkur tushunchaning kelib chiqishini batafsil o'rganish imkonini berdi.

Kompetensiya (lotinchadan *competere* – biror nimaga qobiliyatli bo'lish) hunar, kasb, mavqye, kasbiy yoki ijtimoiy mezonlar bilan bog'liq.

Fransuz olimlari, kompetensiya – bu individga murakkab faoliyat turini amalga oshirishiga imkon beruvchi potensial amallar (emosionad, bilishga oid, psixomotor) majmui deb hisoblaydilar. U o'z ichiga o'zaro bevosita bog'langan «bilimlar», «malakalar», «bo'lish malakasi» (*savoir-etre*, individning ichki o'zgaruvchilari majmuini ifodalovchi atama: munosabatlar, qadriyatlar, his-tuyg'ular, emosiyalar, motivasiya, shaxs sifatleri, xulq uslubi, Men-konsepsiya).

Kognitiv atamashunoslikka asosan kompetensiya o'zida deklarativ, amaliy va xulq xususiyatlari to'g'risidagi bilimlarni aks ettiradi.

F. Meryening ta'rifiga ko'ra, kompetensiya - bu “mavjud tushuncha yoki intizomiy maydondagi bir yoki ikki qobiliyatlarni amalga oshiruvchi identifikatsiyalangan bilimdir”. Bu haqiqiy vaziyatlarda kompetensiya samarali hatti-harakatlarda ifodalanishini nazarda tutadi.

L. D' Eno quyidagi ta'rifni beradi: kompetensiya - bu «rol, funksiya yoki faoliyatni mos ravishda amalga oshirishga imkon beruvchi bilim, ko'nikma, bo'lish malakasi (*savoir-etre*) majmui. Mos ravishda, ya'ni vaziyatlarni mashq qilish istalgan yoki optimal natijaga olib keladi» [15].

F. Danverning pedagogik lug'atida kompetensiya ma'lum fanni yoki ma'lum malakalarni chuqur bilish sifatida ifodalanadi [7].

Fransuz olimlari kompetensiyani o'qituvchilarga kasbiy ta'limning borishini shakllantirishga imkon beruvchi bo'lajak o'qituvchiga zaruriy sifatida ta'riflaydilar va strukturalashtiradilar. Kompetensiyalar 5 ta sohalarining strukturasi ajratilgan:

1. Sinf hayoti bilan bog'liq kompetensiyalar.
2. O'quvchilarga munosabat va ularning xususiyatlari bilan bog'liq kompetensiyalar.
3. O'qitiladigan fanlar bilan bog'liq kompetensiyalar.
4. Jamiyatga nisbatan talab etiladigan kompetensiyalar.
5. Shaxsga xos bo'lgan kompetensiyalar.

Muloqot kompetensiyasi kasbiy va ijtimoiy hayotda muhim bo'lganlaridan biri hisoblanib, 4 va 5 guruhlar oralig'ida yotadi. U bir tomondan, shaxsning ijtimoiylashuviga ko'maklashadi va fuqarolarning

shaxsiy ehtiyojlariga javob beradi, boshqa tomondan, jamiyatning professional kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qondiradi.

Kompetensiya – bilim, malaka va tajribaning bajariladigan vazifalar va hal etiladigan muammolarning haqiqiy murakkablik darajasiga muvofiqligi o'lchovidir. Qat'iy kasbiy bilim, malakalardan tashqari tashabbus, hamkorlik, guruhda ishlash qobiliyati, muloqot qobiliyatlari, o'qish, baholash, mantiqiy fikrlar malakasi va boshqalarni o'z ichiga kiritadi. Kompetensiya tushunchasiga bilim va malakalarni yangi vaziyatga "ko'chirish" qobiliyati yoki innovasiyalarga qobiliyat kabi elementlar kiritiladi [2].

«Muloqot kompetensiyasi» tushunchasida ifodalangan masalalarning murakkabligi va ko'p qirraliligi sotsiologik va psixologik-pedagogik tadqiqotlardagi mavjud ta'riflarning xilma-xilligini tushuntiradi.

Psixologiyada muloqot kompetensiyasi mazmunga ega bo'lgan ma'lumotni egallash, qayta ishlash va ifodalash potensial qobiliyati sifatida ta'riflanadi.

«Muloqot» tushunchasi «kommunikabel» tushunchasi bilan tenglashtiriladi va «kommunikasiyaga, aloqalarni o'rnatishga qobiliyatli, moyil, ularni o'rnatuvchi» sifatida tavsiflanadi.

«Kompetensiya» atamasi V.Gumboldtga havola bilan N.Xomskiy tomonidan kiritilgan va dastlab ona tilida belgilangan, avvalo tilga doir faoliyatni bajarish uchun zarur qobiliyatni anglatgan. Sosiolingvistlarning nutqiy jarayonning bunday talqini to'ldirilgan [6].

R. Kempbell va R. Uels, ifodalangan yoki tushunarli fikrlarning mazmunga mosligi, uning grammatik to'g'riligidan ko'ra ko'proq muhimligini ta'kidlaydilar [4].

N.Xomskiy tomonidan tor talqin etilgan «lingvistik kompetensiyaga» zid ravishda ular tomonidan «muloqot kompetensiyasi ijtimoiy bog'liq vaziyatlarda tildan to'g'ri foydalanish qobiliyati» sifatidagi tushuncha taklif etilgan [5].

Amerika yo'nalishining asoschisi D. Xayms, tilni egallash nafaqat grammatika va leksikani, balki ularni qo'llashning ijtimoiy shart-sharoitlarini ham bilishni nazarda tutishini ta'kidlagan. U muloqot kompetensiyasi atamasidan, jamiyatning ijtimoiy va madaniy me'yorlarini hisobga olib, nutqiy xulqni og'zaki va yozma shaklda idrok etish va dasturlari qurish maqsadida insonning xotirasida mavjud bo'lgan, uning til vositalarining muloqot majmuidan foydalanish qobiliyati, ya'ni nutqiy faoliyatning ishtirokchisi bo'lish qobiliyatini ifodalash uchun qo'llagan.

D. Xaymsga ko'ra, muloqot kompetensiyasi qayerda, qachon, nima sababdan, qanday aytishlarini boshqarish malakasidir ("it is a competence, when to speak, when not, and as what to talk about with whom, when, where, in what manner"). Xaymsga asosan, muloqot kompetensiyasi, kognitiv, psixologik, ijtimoiy, madaniy omillarni birlashtiradi.

D.Xayms g'oyalarini ijodiy anglab, S.Savinon muloqot kompetensiyasini «muloqotning haqiqiy sharoitida, ya'ni lingvistik kompetensiya bir va undan ortiq suhbatdosh tomonidan keng ma'lumotlarni (lingvistik, paralingvistik xususiyatdagi) qabul qilishga moslashishi kerak bo'lgan axborotni dinamik almashuvda ishlash qobiliyati» sifatida ta'riflagan [9].

Dj. Gumpers muloqot kompetensiyasining yangi ta'rifini ifodalaydi: «Bu o'ziga suhbatdoshining diqqatini qaratish, tushunarli bo'lish va suhbatni olib borish uchun muayyan muloqot me'yorlarini bilish va rioya qilish» [8].

Shu tariqa, g'arb didaktikasida muloqot kompetensiyasi ostida ta'lim oluvchining ma'lum muloqot vaziyatlarda maqsadga muvofiq muloqot qilish qobiliyati va uning xulqning ijtimoiy-madaniy me'yorlarini va mulohazalarning muloqot maqsadga muvofiqligini hisobga olib nutqiy muloqotni tashkil etish malakasi tushuniladi.

Muloqot kompetensiyasiga bag'ishlangan xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda, hanuzgacha mazkur tushunchaning yagona ta'rifi mavjud emas, uning mohiyatini belgilashda umumiylik mavjud emas.

L.A. Petrovskaya, ijtimoiy-psixologik tadqiqot doirasida nazariy va metodik asoslarni ishlab chiqib, «muloqotda kompetentlik» tushunchasini kiritib, uni tilga oid material bilan erkin ishlash, o'rganilayotgan tilda muloqot qilish malakasi sifatida ta'riflagan. Mazkur atamadan foydalanishda, shunga qaramay, mohiyatiga ko'ra uni «muloqot kompetensiyasi» muammosini tushunishga yaqinlashtirgan [17].

Ye.M. Vereshagin va V.G. Kostomarov muloqot kompetensiyasini ijtimoiy, milliy-madaniy qoidalar, o'rganilayotgan tildagi nutqning shakli va mazmunini belgilovchi baholar va qadriyatlar majmui sifatida tushunadilar [3].

M.N. Vyatyutnev muloqot kompetensiyasi ostida insonning muloqotdagi sharoitda ishlash qobiliyatiga ko'ra nutqiy xulq dasturlarini tanlash va amalga oshirish qobiliyati; ishtirokchilarda mavzu, vazifalarga asosan suhbatdan avval, shuningdek suhbat vaqtida moslashish jarayonida yuzaga keladigan

vaziyatlarni muloqot ustanovkalariga ko'ra tasniflash malakasi; mamlakatshunoslik xususiyatidagi bilimlarni tushunadi.

V.G. Kostomarov, O.D. Mitrofanovanning fikriga ko'ra, muloqot kompetensiyasi «...bagonalarning va o'zining nutqiy xulqi dasturini o'tish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar » sifatida ifodalanadi [14].

A.R. Arutyunov muloqot kompetensiyasini «muloqot vazifalarini til vositalari bilan yechish taktikasi» deb tushunadi [1].

D.I. Izarenkov «muloqot kompetensiyasi - bu insonning tabiiy kommunikatsiya yoki maxsus tashkil etilgan o'qitish jarayonida egallangan, bir yoki barcha nutqiy faoliyatda muloqotga qobiliyati...» deb hisoblaydi [11].

N.B. Ishxanyan fikriga ko'ra, muloqot kompetensiyasi «muloqotning, kommunikantlar munosabatlari va muloqot ustanovkalar o'zgaruvchi vaziyatlarini hisobga olib, chet tili nutqiy muloqoti dasturlarini tanlash va amalga oshirish malakasi»ni ifodalaydi [12].

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, yuqoridagi olimlarning fikrlaridan kelib chiqib «Muloqot kompetensiyasi» atamasining tahlili asosida mazkur tushunchaga milliy yondashuvlarning asosiy umumiy prinsiplarini ajratish mumkin:

- tilni ta'lim oluvchi egallashi kerak bo'lgan bilim sifatida, u mos vaziyatda qo'llashni o'rganishi kerak bo'lgan malaka sifatida qarash lozim;

- ixtiyoriy fikr nafaqat grammatik to'g'ri ifodalanishi, balki vaziyatga mos bo'lishi kerak.

Shu tariqa, muloqot kompetensiyasi mohiyatiga xorijiy va milliy tadqiqotlardagi yondashuvlarning xilma-xilligida umumiy holat ayon bo'ladi:

- muloqot kompetensiyasi muloqotni tavsiflash uchun asosiy tushuncha sifatida qaraladi;

- muloqot kompetensiyasi til vositalarini muloqotning vazifalari va shartlari bilan bog'liq malakalari, xulqning ijtimoiy me'yorlarini va mulohazaning muloqot maqsadiga muvofiqligini inobatga olib, nutqiy muloqotni tashkil etish malakasining mavjudligini nazarda tutadi.

Adabiyotlar

1. Арутюнов, А.Р. Коммуникативный интенсивный учебный курс русского языка как иностранного для заданного контингента учащихся: Метод, пособие / А.Р. Арутюнов. - М.: Рус. яз., 1989. - С. 23.

2. Ахмедова Н.М. Научные основы построения концепции непрерывной лингвометодической подготовки преподавателя иностранного языка на основе интегративного подхода. *Uzluksiz ta'lim ilmiy-uslubiy jurnal. №1 T.: 2018, b.105-111.*

3. Верещагин, Е.М. Лингвострановедческая теория слова / Е.М. Верещагин, В.Г. Костомаров. - М, 1985. - 320 с.

4. Campbell, R. The Study of Language Acquisition I R. Campbell, R. Wales II New Horizons in Linguistics I J. Lyons (ed). - Harmondsworth: Penguin Book, 1970.-P. 242-260.

5. Chomsky, N. Aspects of the Theory of Syntax I N. Chomsky. - Cambridge, Mass.; The M.T.T. Press, 1967. - 937 p.

6. Гумбольд, В. фон. Язык и философия культуры / В. фон Гумбольд. -М.: Прогресс, 1985. -451 с.

7. Danvers, F. 700 mots-clefs pour l'education I F. Danvers. - Lille: Presses Universitaires de Lille, 1992. - 321 p.

8. Gumperz, J. Communicative Comptence Revisited I J. Gumperz II Meaning, Form and Use in Context: Linguistic Applications. - Cambridge Univ. Press, 1984.-P. 278-289.

9. Hymes, D. On Communicative Competence I D. Hymes II Pride, J.B. Sociolinguistics I J.B. Pride; J. Holmes (eds). - Harmondsworth: Penguin Books, 1972.-P. 269-293.

10. Зеер, Э.Ф. Личностно-ориентированные технологии профессионального развития специалиста: Науч.-метод, пособие / Э.Ф. Зеер, О.Н. Шахматова. - Екатеринбург: Изд-во Урал. гос. проф.-пед. ун-та, 1999. - 245 с.

11.Изаренков, Д.И. Базисные составляющие коммуникативной компетенции и их формирование на продвинутом этапе обучения студентов-нефилологов / Д.И. Изаренков // Русский язык за рубежом. - М., 1990. - С. 255

12.Ишханян, Н.Б. Пути формирования лингвосоциокультурной компетенции в интенсивном курсе обучения иностранному языку: Дис. ... канд. пед. наук / Н.Б. Ишханян. - М., 1996. - 201 с.

13. Khasanov, A.A. Development of language skills of professional communication in the progress of teaching foreign languages. - Materialy XVI Mezinardni vedecko – praktika conference. DNY VEDE.

27.04.2020 й. Praha. Publishing House "Education and Science". 67-73

14. Костомаров, В.Г. Методическое руководство для преподавателей русского языка иностранцам / В.Г. Костомаров, О.Д. Митрофанова. - М.: Рус. яз., 1984. -С. 19-20.

15. Meirieu, Ph. Vers une formation par la resolution des problemes professionnels I Ph. Meirieu II Les Carriers Pedagogiques. - 1988. - № 269. - P. 75-81.

16. Новиков, Д.М. Интеграция базового профессионального образования / Д.М. Новиков // Педагогика. - 1996. - № 3. - С. 6-8.

17. Петровская, Л.А. Компетентность в общении: социально-психологический тренинг / Л.А. Петровская. - М.: Изд-во Моск. гос. ун-та, 1989. -216 с.

UDK: 377.1

О'QITUVCHINING KASBIY KRYEATIVLIGI VA UNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

M.T.Jumaniyozova

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

mukhayo7205@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada kreativlik tushunchasi, o'qituvchining kasbiy kreativligini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar, psixologik-pedagogik manbalar tahlili, kasbiy kreativlikning mezonlari, ijodiy rivojlanayotgan ta'lim makonini yaratish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: kreativlik, ta'lim mazmuni, o'quv jarayoni, ta'lim natijalarini baholash, muammolarni yechish tajribasini shakllanishi.

Научно-теоретические основы профессионального творчества преподавателя и его развитие

Аннотация. В статье рассматриваются понятие творчества, исследование развития профессионального творчества учителей, анализ психолого-педагогических источников, критерии профессионального творчества, создание творчески развивающего образовательного пространства.

Ключевые слова: творчество, содержание обучения, процесс обучения, оценка результатов обучения, формирование опыта решения проблем.

Scientific and theoretical fundamentals of teacher professional creativity and its development

Abstract. The article discusses the concept of creativity, the study of the development of professional creativity of teachers, the analysis of psychological and pedagogical sources, the criteria for professional creativity, the creation of a creatively developing educational space.

Keywords: creativity, learning content, learning process, assessment of learning outcomes, formation of experience in solving problems.

So'nggi yillarda pedagogika sohasidagi izlanishlar va ilmiy tadqiqotlar kreativ fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish, kasbiy kreativlikni baholash masalalari bilan bevosita bog'liq bo'lib qolmoqda. Ushbu muammoning dolzarbligi zamonaviy ta'lim tizimida sodir bo'lgan o'zgarishlar bilan belgilanadi hamda ta'lim jarayoni ishtirokchilarida yangiliklar (innovatsiyalar)ga nisbatan ochiqlik, nostandart vaziyatlarda yechim topa olish va voqelikka ijodiy munosabat kabi shaxsiy xususiyatlarga talablar ortib borishi bilan izohlanadi. Bu esa ta'lim tizimi oldiga shaxsni har tomonlama rivojlantirish, ijodiy intilishlarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim oluvchini boshqa muhitga moslashishiga yordam berish vazifasini quymoqda. Dinamik ravishda o'zgarib turadigan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarga tez moslashib, jamiyat rivojiga hissa qo'shadigan kreyativ shaxsni tarbiyalash pedagogika fanining amaliy muammosi sifatida belgilanmoqda. Pedagogik faoliyatda kreativ qobiliyatlarni, o'qituvchining va ta'lim oluvchining ijodiy kompetensiyalarini qanday shakllantirish to'g'risida savol o'rta tashlanmoqda.

Kasbiy kompetensiya sifatida kreativlik (ijodkorlik) o'qituvchi kasbiy faoliyatining turli bosqichlarida uning ijodiy yutuqlarini aks ettiradi va yangi kasbiy mahsulotlar hamda yuqori natijalarga erishish qobiliyati sifatida tushuniladi.

Pedagogika va psixologiya sohasida o'qituvchining individual kasbiy kreativligini fundamental asoslari yaratilgan. Jumladan: pedagogik ijodkorlikni o'rganish (Yu.P.Azarov, S.M.Bernshteyn, S.G.Vershovskiy, L.S.Vigotskiy, A.V.Drozhdov, N.P. Dubinin, M.S.Kagan, N.V.Kuzmina, A.P.Leontev, L.M.Luzina, Ya.A.Ponomarev, S.L.Rubinshteyn, V.I.Sherbina va b), pedagogik ijodkorlikning ko'rinishlari (V.V.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.D.Nikandrov, M.M.Potashnik va b), bo'lajak o'qituvchilarning

kasbiy ijodiy faoliyatini rivojlantirish masalalari (V.I.Andreyev, V.V.Afanasev, Ye.N.Glubokova, V.M.Danilchenko, N.V.Kuzmina, V.A.Levin, N.Yu.Postalyuk, E.D.Telegina va b.), o'qituvchining individul ijodkorligini o'rganish masalalari (N.F.Vishnyakova, N.Ye.Majar, V.A.Slastenin, V.L. Xudiyakov va b.), ijodkorlikka o'rgatish, ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish masalalari (Dj. Gilford, Dj. Gilmer, K. Rodjers, E.Torrens va b) ilmiy asosda o'rganib chiqilgan va tahlil qilib berilgan.

Pedagogik, psixologik manbalarning tahliliga ko'ra, kreativlik- bu keng ma'nodagi tushuncha bo'lib, fanning faqat bitta sohasiga tegishli emas. Jumladan, falsafiy talqinda "insonning yangi moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratish faoliyati. Unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, butun bilimi, tajribasi, iste'dodi namoyon bo'ladi. Ijod dastlab inson tasavvurida tug'iladi, keyin ijodga taallukli masalalar yuzasidan izlanishlar olib boriladi, boshqalar bajargan ishlar tanqidiy ko'rib chiqiladi, taxlil etiladi, kuzatishlar, tajribalar o'tkaziladi, mantiqiy xulosalar chiqariladi, gipotezalar qilinadi, bular tajribada sinab ko'riladi, noto'g'ri bo'lsa yangilanadi va h.k. Izlanishlar natijasi turli shakllarda (badiiy asar, matematik formula va b.) yuzaga chiqadi" deb izohlanadi.

Psixologiyada ijodkorlik asosan ikki jihatdan: yangi narsalarni yaratishning psixologik jarayoni va ushbu jarayonda shaxsni ishtirok etishini ta'minlaydigan shaxsiy xususiyatlar to'plami sifatida o'rganiladi. Binobarin, agar ijodiy jarayonning borishini baholash qiyin bo'lsa, unda bu xususiyatga ega bo'lishni ta'minlaydigan shaxsiy xususiyatlar (qobiliyatlar, motivlar, bilimlar, ko'nikmalar) mavjudligiga e'tibor qaratiladi.

Pedagogik tadqiqotlarda esa o'qituvchi va ta'lim oluvchining ijodkorligi asosiy masala sifatida ko'rib chiqiladi.

Ma'lumki o'qituvchining kasbiy pedagogik faoliyati murakkab va ko'pqirrali jarayon hisoblanadi. O'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish o'qituvchidan ijodkorlikni talab etadi. Buning asosida esa o'qituvchining kasbiy kreativligi yotadi. Bir guruh pedagog olimlarning ta'kidlashicha intellektual qobiliyatlar, bilim, shaxsiy fazilatlar, motivatsiya, atrof-muhit, fikrlash turlari o'qituvchi kasbiy kreativligining asosini tashkil etadi. Kreativlik uchun uchta intellektual qobiliyat mavjud bo'lishi kerak:

1) muammolarni yangi nigoh (rakurs)da ko'rish va odatdagi fikrlash tarzidan qochish uchun sintetik qobiliyat;

2) g'oyalar samaradorligini baholashning analitik qobiliyati;

3) g'oyaning qadr-qimmatiga boshqalarni ishonirishning amaliy-kontekstli qobiliyati.

D.B.Bogoyavlenskaya, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina va boshqalarning tadqiqotlarida shaxsiy fazilatlarining ijodiy jarayon uchun muhimligi ilmiy asoslab berilgan. Bunday fazilatlariga kasbiy faoliyatni rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni yengib o'tishda ichki motivatsiya, oqilona tavakkal qilish, noaniqlikka toqat qilish va o'ziga bo'lgan ishonchni saqlashga tayyorlik kiradi. Ichki motivatsiya yechilayotgan muammoga yo'naltirilgan kreativlik uchun juda muhimdir. Kreativlik ijodiy g'oyalarni rag'batlantiradigan muhitni talab qiladi. O'qituvchi ijodkorlik uchun barcha kerakli ichki manbalarga ega bo'lsa ham qo'llab-quvvatlovchi muhit bo'lmasa kasbiy kreativlik namoyon bo'lmasligi mumkin.

Kasbiy kreativlikni rivojlantirish uchun o'qituvchi o'zida mavjud fikrlash turlarini (usullarini) bilishi va rivojlantirishi kerak. Hozirgi vaqtda fikrlashning quyidagi turlari farqlanadi:

1) mantiqiy (oqilona, umumlashtiruvchi, inson ongiga tayanish);

2) lateral (nostandart);

3) evristik (noaniq, muammoli vaziyatlarni hal qilishga imkon beradigan, to'satdan tushunish bilan belgilanadigan fikrlar);

4) konvergent (mantiqiy, ketma-ket, bir tomonlama) va divergent (bir vaqtning o'zida turli yo'nalishlarda yondashuv, muammoni hal qilishning turli xil usullari);

5) axborot (ma'lumot tafakkurning asosidir)li.

A.V.Brushlinskiy tafakkur va ijodkorlik o'rtasidagi bog'liqlikni quyidagicha aniqlagan: «Tafakkur va ijod bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Ularning orasidagi o'zaro bog'liqliklar tabiiydir, chunki har qanday odamning tafakkuri doimo (hech bo'lmaganda minimal) ijodiy, samarali, mustaqil bo'ladi» [3]. Shunday qilib, har bir shaxsning tafakkuri individualdir. Muayyan darajada ijodkor bo'lish, bu to'g'ridan-to'g'ri ijod bilan bog'liq.

Ushbu muammo bo'yicha ko'plab yondashuvlar, qoidalar va xulosalar mavjud. Jumladan: V.I. Andreyev kreativlikni inson faoliyatining turi deb belgilaydi va uning bir qator xususiyatlarini qayd etadi:

- qarama-qarshilik, muammoli vaziyat yoki ijodiy vazifaning mavjudligi;

- ijtimoiy, shaxsiy ahamiyatlilik, progressivlik;

-kreativ faoliyat uchun ob'ektiv (ijtimoiy, moddiy) shart-sharoitlarning mavjudligi;

-kreativ fikrlash uchun sub'ektiv zarurlarning mavjudligi (shaxsiy fazilatlar, bilim, ko'nikmalar, ayniqsa ijobiy motivatsiya);

- jarayon yoki natijaning yangiligi va o'ziga xosligi [1].

V.A. Kan-Kalik esa o'qituvchining kreativligini "o'zgaruvchan sharoitlarda son-sanoqsiz ta'lim-tarbiya vazifalarini doimiy ravishda hal qilishga yo'naltirilgan faoliyat sifatida qaraydi, bu vaqtda o'qituvchi muloqotda optimal, ma'lum bir individuallik uchun standartlashtirilgan pedagogikani ishlab chiqmaydi, balki pedagogik ta'sir ob'ekti-sub'ekti xususiyatlari vositachiligidan kelib chiqib yechimlar qabul qiladi», - deb ta'kidlaydi[7].

Hozirgi kunda V.I. Andreyev tomonidan taklif qilingan ijodiy shaxs tipologiyasi katta qiziqish uyg'otmoqda, chunki bu tipologiya o'qituvchilarga ham taalluqli bo'lishi mumkin:

1) Nazariyotchi-mantiqchilar - kreativ shaxsning bu turi keng mantiqiy xulosalar qilish, ma'lumotlarni tasniflash va guruhlashtirish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Ushbu turdagi odamlar o'zlarining ijodiy ishlarini aniq rejalashtiradilar, ilgari ma'lum bo'lgan ilmiy tadqiqot usullaridan keng foydalanadilar. Bu guruhga kiruvchi insonlar onglik va bilimlilik darajasi bilan ajralib turadi. Oldindan ma'lum bo'lgan nazariy tushunchalarni yanada rivojlantiradilar. Ular boshlagan har bir yangilikni mantiqiy yakuniga yetkazishadi, dastlabki manbalarga havolalar sifatida o'zlarining asoslarini yaratadilar.

2) Nazariyotchi-intuitivistlar. Ular yangi, o'ziga xos g'oyalarni shakllantirish qobiliyati yuqori darajada rivojlanganligi bilan ajralib turadi, ushbu turdagi ijodiy qobiliyat odamlari yirik ixtirochilar, yangi ilmiy tushunchalar, maktablar va tendensiyalarni yaratuvchilardir.

3) Amaliyotchi (eksperimentator)lar. Ular har doim o'zining yangi original farazlarini tajriba asosida sinab ko'rishga intiladi. Bunday shrxslar asbob-uskunalar bilan ishlashni yaxshi ko'radilar va biladilar, ular doimo amaliy masalalarda katta qiziqish va qobiliyatga ega;

4) Tashkilotchi ijodkorlar-kreativ shaxsning bir turi sifatida, boshqalarni uyushtirish qobiliyatiga, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun jamoani rivojlantirishning yuqori darajasiga ega. Bunday odamlar rahbarligida asl ilmiy maktablar va ijodiy jamoalar yaratiladi. Ushbu turdagi odamlar o'zining yuqori energiyasi, jamoatchiligi, boshqalarni o'z irodasiga bo'ysundirish va ularni katta ijodiy muammolarni hal qilishga yo'naltirish qobiliyati bilan ajralib turadi;

5) Tashabbuskorlar. Tashabbuskorlik, ayniqsa yangi ijodiy muammolarni hal qilishning dastlabki bosqichlarida o'zining g'ayratiligi bilan ajralib turadi. Ammo, qoida tariqasida, tashabbuskor tezda soviydi yoki boshqa ijodiy muammolarni hal qilishga o'tadi[1].

Kreativlik markazda talaba bo'lgan o'qituvchining pedagogik faoliyatidagi jarayon sifatida taqdim etiladi. Shu bilan birga, pedagogik ijodkorlik ilmiy-nazariy va pedagogik bilimlar asosida faoliyatning o'ziga xosligini muntazam ravishda qayta ko'rib chiqish, ijod qilish kabi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadigan o'qituvchining transformatsion faoliyatidir. Bu faoliyat mustaqil ijodiy pozitsiyani rivojlantirishga hissa qo'shadigan pedagogik voqelikda kasbiy vazifalarni hal qilishning noyob va samarali usullarini o'z ichiga oladi.

O'qituvchi pedagogik ishi mazmuni va tashkil etilishining samaradorligini belgilangan maqsadga erishishdagi mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib, faoliyatga ijodiy munosabati darajasini aniqlash orqali to'g'ri baholash mumkin. Chunki pedagogik faoliyatning ijodiy tabiati uning eng muhim ob'ektiv xususiyatidir. Shu sababli turli xil pedagogik vaziyatlar, ularning noaniqligi va ulardan kelib chiqadigan muammolarni tahlil qilish, hal qilishda o'zgaruvchan yondashuvlar talab qilinadi.

Kreativlik - mavjud tajribani qayta tashkil etish, bilim, ko'nikma, va mahsulotlarning yangi kombinatsiyalarini shakllantirish asosida ilgari mavjud bo'lmagan yangi mahsulotni ishlab chiqaradigan faoliyat. O'qituvchi faoliyatida u turli darajalar bilan tavsiflanadi.

V.A.Slastenin o'qituvchi faoliyatining asosiy tarkibiy qismlarini aniqlaydi va uning ijodiy qismiga e'tiborni qaratadi, unda intellektual xususiyatlar hukmronlik qiladi:

- pedagogik muammolarni qidirishda hushyorlik;
- pedagogik jarayonni idrok etishning yaxlitligi (boshqa o'qituvchilarning ijodiy faoliyati tajribasini umumlashtirish qobiliyati, odatdagi kasbiy faoliyatda yangiliklarni ko'rish qobiliyati);
- fikrlashning tanqidiyligi, moslashuvchanligi, o'ziga xosligi (har xil pedagogik konsepsiyalarni, yangiliklarni, pedagogik faoliyat usullarini tahlil qilish, taqqoslash qobiliyati; harakat usullari, boshqalarning nuqtai-nazarini tushunish, isbotlash va asoslash qobiliyati; shaxsiy fikrlar o'zgargan sharoitlarga mos kelmasa odatda ulardan voz kechish qobiliyati, pedagogik faoliyatni amalga oshirishda qarama-qarshiliklar va muammolarni ko'rish qobiliyati);
- g'oyalarni yaratish qulayligi (o'qitishning yangi usullari, yangi mazmun, yangi ta'lim texnologiyalari va boshqalarni yaratish qobiliyati);
- bitta muammoni hal qilishning bir necha usullarini ko'rish qobiliyati;

• xotiraning tayyorligi (pedagogik faoliyat natijasini oldindan bilish qobiliyati, assotsiativ bog'lanish qobiliyati, shu asosda pedagogik muammolarni intuitiv yechish imkoniyati namoyon bo'ladi) [13].

Kreativlik (ijodkorlik) –insonning ijodiy qobiliyati darajasi. Dastlab kreativlik aqlning vazifasi sifatida qaraldi va intellektning rivojlanish darajasi bilan aniqlandi. Keyinchalik esa kreativlik juda yuqori intellektga bog'liqligi asoslab berildi. Hozirgi vaqtda kreativlikni o'rganishda markaziy yo'nalish u bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy fazilatlarni aniqlashga qaratilgan.

Kreativlikni o'rganishning muhim bosqichi J. Gildford (1967) ning ishi bo'lib, u konvergent (mantiqiy, bir tomonlama) va divergent (bir vaqtning o'zida turli yo'nalishlarda fikrlash, mantiqdan chetga chiqish) tafakkurini ajratgan. Kreativlikni aniqlash uchun ishlab chiqilgan testlardagi vazifalarning aksariyati turli xil qobiliyatlarni aniqlashga qaratilgan: ular ma'lum miqdordagi javoblarni o'z ichiga olmaydi; javoblarning to'g'riligi emas, balki topshiriqqa muvofiqligi baholanadi; ahamiyatsiz va kutilmagan yechimlarni izlash rag'batlantiriladi [4].

J. Gildford ijodkorlikni tavsiflovchi intellektual qobiliyatlar orasida ravonlik (ma'lum bir vaqt birligida paydo bo'ladigan g'oyalar soni), egiluvchanlik (bir fikrdan ikkinchisiga o'tish qobiliyati), fikrlashning o'ziga xosligi (umumiy qabul qilinganlardan farq qiladigan g'oyalarni ishlab chiqarish qobiliyati), qiziqish (boshqalarni qiziqitmaydigan muammolarga nisbatan sezgirlikni oshirish), ahamiyatsizlik (stimullardan reaksiyalarning mantiqiy mustaqilligi) asosiy qobiliyatlar sifatida ajratib ko'rsatiladi.

Keyinchalik J.Gildford kreativlikning oltita o'lchovini eslatib o'tadi:

- 1) muammolarni aniqlash va qo'yish qobiliyati;
- 2) ko'p sonli g'oyalarni yaratish qobiliyati;
- 3) moslashuvchanlik - har xil g'oyalarni ishlab chiqarish qobiliyati;
- 4) o'ziga xoslik;
- 5) tafsilotlarni qo'shish orqali ob'ektni takomillashtirish qobiliyati;
- 6) muammolarni hal qilish qobiliyati, ya'ni tahlil qilish va sintez qilish qobiliyati [4].

Dastlab, J. Gildford kreativlik tarkibiga divergent fikrlashdan tashqari, konvertatsiya qilish qobiliyati, yechimning aniqligi va boshqa intellektual parametrlarni kiritgan. U aql va kreativlik o'rtasidagi ijobiy munosabatni e'lon qiladi. Ko'plab tajribalar davomida yuqori intellektual sub'ektlar muammolarni hal qilishda ijodiy xulq-atvorni namoyon etmasligi mumkin, ammo intellekti past ijodkorlar yo'q, degan xulosaga keladi.

Shaxsning kreativligi g'ayrioddiy g'oyalarni shakllantirish, an'anaviy tafakkur usullaridan chetga chiqish, muammoli vaziyatlarni tezda yechish qobiliyati bilan ajralib turadi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilik tarkibiga kiradi. Intellektual qobiliyatlar orasida u alohida tur sifatida ajratib ko'rsatiladi. A. Maslouning fikriga ko'ra, bu har kimga xos bo'lgan, ammo atrof-muhit ta'siri ostida shaxs faoliyatida pasayib boradigan alohida yo'nalishdir[10].

Kreativlikni jarayon deb hisoblash uning tuzilishini (qobiliyat sifatida) aniqlashga, bu jarayonni rag'batlantiradigan sharoitlarni belgilashga, shuningdek ijodiy yutuqlarni baholashga imkon beradi.

E.P. Torrens kreativlikni muammolarga, mavjud bilimlarning yetishmovchiligiga yoki mos kelmasligiga nisbatan sezgirlikning paydo bo'lish jarayoni deb ta'riflagan. Muammolarni aniqlash, ularning yechimlarini izlash, farazlarni taklif qilish, gipotezalarning sinovlari, o'zgarishlari va qayta sinovlari, qaror natijalarini shakllantirish kreativlikning mohiyatini tashkil etishini belgilab bergan. Muallif kreativlikni baholash uchun fikrlashning turli xil testlari, so'rovnomalar va ish faoliyatini tahlil qilish usullaridan foydalaniladi. Shaxs kreativligini o'rganish uchun kreativ shaxsning hayotiy tajribasi va individual xususiyatlarini tahlil qilib, kreativlik omillari: ravonlik, ravshanlik, fikrlashning moslashuvchanligi, muammolarga sezgirlik, o'ziga xoslik, topqirlik, ularni yechishda konstruktivlik va boshqalarni o'rganib chiqqan. E.P.Torrenc tomonidan ishlab chiqilgan kreativlikni aniqlash testlarida turli xil faoliyat sohalari: og'zaki, vizual, ovoqli, vosita murakkabligini aks ettiruvchi ijodiy jarayonlarning modellari ishlatilgan. Sinovlar kreativlikni ravonligi, egiluvchanligi, o'ziga xosligi va g'oyalarni takomillashtirish jihatidan o'lchanadi[14].

Kreativlik va aql-zakovat nisbati haqida qiziqarli tadqiqotni Ye.L.Grigorenko olib boradi. U murakkab psixik muammoni yechishda shaxs tomonidan ishlab chiqiladigan gipotezalar soni E.P.Torrenc usuli bo'yicha kreativlik bilan o'zaro bog'liqligini va hal qilishning to'g'riligi Veksler shkalasida umumiy aql darajasi bilan ijobiy bog'liqligini aniqlay oldi[5].

Ushbu ma'lumotlarga asoslanib, V.N.Drujinin kreativlik va aql-idrok ortogonal omillar, ya'ni bir-biridan mustaqil degan xulosaga keladi. Ayni paytda, ular operatsion jihatdan qarama-qarshi: aql-idrok namoyon bo'lishini ma'qullaydigan holatlar o'z xususiyatlariga ko'ra kreativlik namoyon bo'ladigan

holatlarga qarama-qarshidir deb xulosa beradi. Boshqacha qilib aytganda, kreativlik va umumiy aql muammoni hal qilish jarayonida ishtirok etadi, ammo ular jarayonning turli bosqichlarida har xil rol o'ynaydi[6].

Kreativlik bo'yicha tadqiqotlar bir necha o'n yillar davomida faol ravishda olib borilgan bulib, to'plangan tajribalarda kreativlikning 60 dan ortiq ta'riflari tavsiflangan. Shu sababli ba'zi tadqiqotchilar "kreativlik nima ekanligini anglash jarayonining o'zi kreativ harakatni talab qiladi" deb ta'kidlashadi.

Ushbu sohadagi tadqiqotlar natijalarini va kreativlik to'g'risidagi asosiy yondashuvlarni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

- Kreativlik bu yangi yondashuvlar va yangi mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojga javob berish qobiliyatidir.

- Yangi mahsulotni yaratish ko'p jihatdan insonning shaxsiyatiga va uning ichki motivatsiyasi kuchiga bog'liq.

- Kreativlik bu jarayon, mahsulot va shaxsning o'ziga xos xususiyatlari ularning izchilligi, asosiligi, topshiriqqa muvofiqqligi bilan belgilanadi.

- Kreativ mahsulotlar tabiatan juda xilma-xil bo'lishi mumkin: matematikadagi yangi yechim, kimyoviy jarayonni kashf etish, musiqa, rasm yoki she'r yaratish, yangi falsafiy yoki diniy tizim, huquqshunoslik uchun yangilik, yangi ijtimoiy muammolarni hal qilish va boshqalar.

- kreativlik hayot davomida o'rganilgan bilimlar, ko'nikmalar, malakalar, aqliy harakatlar va strategiyalarning ma'lum bir to'plami sifatida tavsiflanadi.

So'nggi yillardagi pedagogik tadqiqotlarni o'rganish asosida biz kreativlik o'qituvchi kasbiy faoliyatini asosiy mezon degan xulosaga kelishimiz kerak. O'qituvchining kasbiy kreativligi muammosini tahlil qilish orqali quyidagi xulosalarga kelish mumkin

- o'qituvchi o'z-o'zini tarbiyalashi, o'z-o'zini rivojlantirishi, o'zini takomillashtirishi asosida o'zining kreativ qobiliyatlarini rivojlantiradi;

- ijodiy rivojlanayotgan ta'lim makonini yaratish o'qituvchining kreativ kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish konsepsiyasining asosiy g'oyasi hisoblanadi;

- pedagogik ta'lim tizimida o'qituvchining kreativligini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha alohida metodikalar ishlab chiqilishi, bu metodikalarda mintaqaviy-milliy komponentni, shu jumladan pedagogik jarayon bosqichlari mazmunini, o'quv-ijodiy faoliyatning yangi usullari va shakllarini hisobga olish lozim.

O'qituvchining kreativ qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish uchun umumiy pedagogik sharoitlar (tizimli yondashuv, kadrlarni tayyorlash jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, ijodiy rivojlanayotgan ta'lim makonini yaratish), metodik shart-sharoitlar (kompetensiyaga asoslangan yondashuv, qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarni innovatsion o'qitish va tarbiyalash, ijodiy rivojlanish va o'zini rivojlantirish texnologiyalari bilan qurollantirish, o'qituvchining o'z ijodiy laboratoriyasini yaratishi, ilmiy-tadqiqot sohasidagi hamkorlikni kuchaytirish) va o'ziga xos sharoitlar (shaxsiy rivojlanish yondashuvi, intellektual va ma'naviy, ijtimoiy va individual, me'yoriy va ijodiy rivojlanish) yaratilishi lozim.

Har bir o'qituvchi pedagogik faoliyati davomida o'rta hisobda 3-5 marta malaka oshirish kursidan o'tadi. Shuni hisobga olib, kasbiy kreativlikni rivojlantirish metodikalari va dasturlari aynan malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimida yaratilishi va o'quv jarayonida ta'lim mazmuniga kiritilishi lozim. O'qituvchining kasbiy kreativligi hashamat emas, balki zamonaviy ta'limning talabidir, usiz o'qituvchi maktabgacha ta'limdan tortib oliy ta'limgacha bo'lgan har qanday ta'lim bosqichining raqobatbardosh, muvaffaqiyatli bitiruvchisini shakllantirish uchun shart-sharoitlarni ta'minlay olmaydi.

Adabiyotlar

1. Андреев В.И. Педагогика: учебный курс для творческого саморазвития./ В.И.Андреев.-3-е изд.-Казань: Центр инновационных технологи, 2012, -608 стр.

2. Башина Т. Ф. Креативность как основа инновационной педагогической деятельности /Башина Т.Ф. Текст: непосредственный// Молодой ученый. — 2013. — №4 (51). — С. 521-525. — URL <https://moluch.ru/archive/51/6639/> (дата обращения: 26.12.2019).

3. Брушлинский, А. В. Субъект: мышление, учение, воображение / А.В. Брушлинский. — М.: Институт практической психологии; Воронеж: Модэк, 1996. 392 стр.

4. Гилдфорд Дж. Три стороны интеллекта. Лекция, прочитанная в Стенфордском университете 13 апреля 1959 г. На русском языке опубликована в сборнике переводов «Психология мышления», под редакцией А.М.Матюшкина. – М.: Прогресс, 1965. – 534 с. (с. 433-456)

5. Григоренко Е.Л. Влияние индивидуальных особенностей когнитивного развития на овладение навыками чтения и письма младшими школьниками: дис. д-ра психол. наук: 19.00.07 / Григоренко Елена Леонидовна. – М., 2012. – 299 с.
6. Дружинин В. Н. Психология общих способностей. 3-е изд. — СПб.: Питер, 2007. — 368 с.:
7. Кан-Калик В. А., Никандров Н. Д. Педагогическое творчество. — Москва: Педагогика, 1990. — 144 с.
8. Колесникова В.И. Педагогическое творчество и уровни его проявления. – Вопросы воспитания: теория и практика. Вып.15.Сборник научных трудов. – Пятигорск: ПГЛУ, 2006. – С. 48-64.
9. Креативность как ключевая компетентность педагога. Монография / Под ред. проф. М.М. Кашапова, доц. Т.Г. Киселевой, доц. Т.В. Огородовой. Ярославль: ИПК «Индиго», 2013. – 392 с.
10. Маслоу А. Мотивация и личность. А. Маслоу – СПб.: Питер, 2008.- 352 с.
11. Романцов М.Г., Рыбалкин А.С. Креативность и педагогический процесс // Современные проблемы науки и образования. – 2006. – № 1.; URL: <http://www.ssinese-education.ru/ru/article/view?id=100> (дата обращения: 24.12.2019).
12. Садым К.Б. Особенности педагогического мастерства в высшей школе // Международный журнал экспериментального образования. – 2013. – № 4. – С. 253-254; URL: <http://www.expeducation.ru/ru/archive/view?id=4786> (дата обращения: 24.12.2019).
13. Сластенин В. А., Подымова Л. С. Педагогика: инновационная деятельность. — М.: Магистр, 1997. — 224с.
14. Торренс Э.П. Теоретические основы психологической диагностики креативности [Текст] / Э.П.Торренс - М., 1998. - 120с.
15. Холодная М.А. Психология интеллекта: Парадоксы исследования [Текст] / М.А. Холодная - 2-ое изд., перераб. и доп. - СПб.: Питер, 2009. - 272с.

UDK:37.012:323.2.

**Yosh avlod ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda oila, mahalla va ta'lim muassasasi
uzluksizligini ta'minlashning ijtimoiy pedagogik masalalari**

O'Q. O'tanov

*Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini osirish hududiy markazi
utanovutkir79@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada oila – mahalla – ta'lim uzviyligi asosida yoshlarni oilaga, ijtimoiy hayotga tayyorlashda turli salbiy oqibatlarining oldini olishda o'zaro hamkorlik faoliyatlari, ular o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalari bayon etilgan. Bundan tashqari oila, mahalla, ta'lim muassasasi hamkorligida amal qilinishi lozim bo'lgan tamoyillar va hal etilishi lozim bo'lgan dolzarb muammolar o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: oila, mahalla, ta'lim muassasalari, uzviylik, «Mahalla» xayriya jamg'armasi, o'z-o'zini boshqarish, «Obod mahalla», g'oyaviy immunitet, «ommaviy madaniyat», salbiy oqibatlar, sog'lom turmush, oilaviy hayot, ma'naviy-axloqiy fazilatlar, ijtimoiy faollik, «axborot madaniyati», internet, kompyuter o'yinlari, tobelik.

**Социально-педагогические вопросы обеспечения непрерывности взаимосвязисемьи, махалли
и образовательных учреждений в формировании духовных и моральных качеств молодого
поколения**

Аннотация. В данной статье описывается деятельность на основе взаимосвязи семьи-махалли-образования по предотвращению различных негативных последствий при подготовке молодёжи к семье, социальной жизни в взаимовыгодном сотрудничестве между ними. Кроме того, нашли свои отражения принципы и актуальные проблемы, необходимые в сотрудничестве с семьей, махаллой, образовательным учреждением.

Ключевые слова: семья, махалля, учебные заведения, взаимосвязь, "Махалла", благотворительность, самоуправление, «Обод махалла», идеологический иммунитет, «массовая культура», неблагоприятные последствия, здоровый образ жизни, семейная жизнь, духовная жизнь, здоровая жизнь, социальная активность, "информационная культура", интернет, компьютерные игры, зависимость.

Socio-pedagogical issues of ensuring the continuity of the family, community and educational institution in the formation of the spiritual and moral qualities of the younger generation

Abstract. The article describes the activities of cooperation in the prevention of various negative consequences in the preparation of young people for family and social life on the basis of family-neighborhood-education membership, mutually beneficial cooperation between them. In addition, the principles that should be followed in cooperation with the family, community, educational institution and current issues that need to be addressed are reflected.

Keywords: family, neighborhood, educational institutions, membership, "Mahalla" charity fund, self-government, "Prosperous neighborhood", ideological immunity, "mass culture", negative consequences, healthy life, family life, spiritual and moral qualities, social activism, "information culture", internet, computer games, addiction.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazgan videoselektor yig'ilishida Prezidentimiz "Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir" deb ta'kidladi. Muhtaram Prezidentimiz "Agar kimdir, ma'naviyat masalasi – bu faqat Ma'naviyat markazi yoki tegishli vazirlik va idoralarning ishi, deb o'ylasa xato qiladi. Bularning barchasi oldimizda turgan eng asosiy, eng muhim vazifalardan biridir" deb ta'kidladi [1].

Demak, ma'naviyat masalasi barchaning ishi. Tarbiyada tanaffus bo'lmaydi, deydi xalqimiz. Lekin ma'naviy-ma'rifiy ishlardagi uzviylik hozircha mukammal emas. Bu borada bog'cha, maktab, oliy ta'lim, mahalla har biri alohida ish olib borayapti. Shu bois ma'naviy-ma'rifiy ishlarning yagona tizimini yaratish, xususan, yosh avlodning bolaligidanoq bilimli va fazilatli etib tarbiyalash, buning uchun maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab, oliy ta'lim, mahalla hamkorligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasida ham "Ma'naviy tarbiyani shakllantirishda oila, mahalla va ta'lim muassasalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmini yo'lga qo'yish" kerakligi belgilab berilgan. Konsepsiyada belgilangan maqsad va vazifalar O'zbekistonda yuz berayotgan o'zgarishlar "Oila-mahalla-ta'lim" yo'nalishida yosh avlod tarbiyasida oila, ota-ona, mahalla, ta'lim asosiy vazifalarini mazmunan yangilab hayotga tatbiq etishni taqozo qiladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonlari ijtimoiy institutlar, aniqroq aytadigan bo'lsak, hozirda fuqarolik jamiyati institutlari tarkibini tashkil etuvchi birlamchi bo'g'in – oila – mahalla – ta'lim uzviyligini tashkil etadi. Ushbu ijtimoiy institutlar hamkorligining samaradorligiga erishish masalasi har birimizning oldimizda turgan dolzarb vazifa hisoblanadi.

Oila shaxsning ma'naviy shakllanishiga bevosita ta'sir etadigan kishilik jamiyatining ma'naviy ildizidir. Oiladagi ma'naviy sharoit, ijtimoiy institutlar ta'lim muhit bosqichlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Chunki barkamol avlod tarbiyasiga, ma'naviy shakllanishiga ta'sir etuvchi kichik muhitlardan biri oila - kishilar hayotining eng muhim qismi, jamiyatning kichik hujayrasi, ta'lim-madaniy organizmidir.

Qadimdan jamiyat tarakqiyotining sifati va salmog'i oilalardagi holat bilan belgilangan.

Ta'lim muhitiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy institutlardan biri kishilarning tarixan shakllanishi uchun asosiy omillardan bo'lib xizmat qiluvchi, jamiyatimizning ishonchli qanoti va boshqaruv tizimining muhim institutlardan biri – mahalladir.

Mustaqillik yillarida mahallalarning qadim-qadimdan ezgulik beshigi, tarbiya o'chog'i, asl milliy qadriyat sifatida nufuzini tiklash va ulug'lash borasida ko'pdan-ko'p ishlar qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida ham "Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi. O'zini o'zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi" [2] deb, belgilab qo'yilgan.

O'zbekistonni azaldan ma'naviyat, ilm-fan ravnaq topgan yurt sifatida e'tirof etilgan. Ana shunday yuksak madaniyat vorislari bo'lgan O'zbekiston yoshlari XXI asr boshiga kelib, dinni niqob qilib olgan turli yovuz g'oyalar tajovuzlariga duch keldilar. O'zlarining axloqsizlik, ekstremistik g'oyalarini yoyib, xalqimizni ma'nan buzishga, g'oyaviy zaiflashtirishga, jamiyatda mintaqaviy mojarolar keltirib chiqarishga, yoshlarimizning an'anaviy diniy e'tiqodlarini buzib, ularni soxta sektalarga torish harakatlari davom etmoqda. Mazkur holat, mafkuraviy tahdidlarning maqsadini dalillar asosida fosh etish va o'smirlarni g'oyaviy-siyosiy himoya qilish har bir ziyoli, o'qituvchi, ma'naviyat va ma'rifat xodimi,

mahalla fuqarolari yig'inining diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchisining dolzarb kasbiy burchiga aylandi.

Mahalla – ona maskan. Oila ko'z ochib ko'rgan dargoh bo'lsa, mahalla Vatan ichidagi Vatandir. Vatan – eng oliy qadriyatdir. U eng avvalo sog'lom ijtimoiy muhit, chunki kuchli ta'sirga ega bo'lgan jamoatchilik fikri mahalla ahlining xulq-atvori, o'zaro munosabatlarni adolat va ma'naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi. Shu ma'noda mahalla, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda, haqiqiy demokratiya darsxonasidir. U ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, an'analar va yoshlarni kasb-korga yo'naltiruvchi, ishsizlarni mehnat bilan ta'minlovchi va eng asosiysi tarbiya, himoya maskani hamdir.

Mahallalarda oilani mustahkamlash va ajrimlarning oldini olish maqsadida, aholi orasida, ayniqsa, yoshlar orasida malakali mutaxassislar, tajribali pedagog-psixologlari jalb etilishi yo'li bilan "Obod mahallam", "Vatan ichra Vatan", "Mahallam onam mening", "Ko'rkam mahallam", "Qaynona ham ona" va "Bir bolaga etti qo'shni ota-ona" mavzularida ta'lim-tarbiya va ahloq-odob ilmida davra suhbatlari o'tkazilib boriladi.

Mahallada yaratilgan ta'lim-psixologik muhit farzand tarbiyasining sayqallanishi, uning shaxs sifatida kamol topishida asosiy o'rin egallaydi, o'smirlar obro'li mahalla oqsoqollari va qariyalaridan hayiqib turadilar, ularning salobati, hayot tajribasidan ibrat olib, o'g'itlari ta'sirida o'zlarini nojo'ya xatti-harakatlar ta'siridan tiyadilar. Shunday ekan, O'zbekiston «Mahalla» xayriya jamg'armasi tomonidan maxsus ishlab chiqilgan tavsiyanomalar mahalla talaba-qizlari tarbiyasi va mahalla faoliyati yo'nalishlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan jarayondir. Bu jarayonning o'z oldiga qo'ygan bosh maqsadi, mahallada kamol topayotgan barcha yoshlarning komil inson bo'lib shakllanishida sog'lom ta'lim va ruhiy muhit yaratib berishdan iboratdir.

Barkamol avlodni shakllantirish jarayonida ta'lim tizimining o'rni beqiyos bo'lib, ta'lim tizimidagi islohotlar natijasida ta'limining ustuvorligiga, ta'lim muassasalarini optimallashtirishga erishildi. Mamlakatimizning nufuzli mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojlari asosida yangi zamonaviy yo'nalishlar bo'yicha kadrlar tayyorlash ishlari boshlangani ham e'tiborga sazovordir.

Respublikamiz ta'limning asosiy maqsadi demokratik erkin davlat qurayotganimiz, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish yo'lidan izchil borayotganimiz bilan bevosita bog'liq. Chunki davlatning buyuk kelajagi o'z fuqarolarining ma'lumotlilikiga, madaniyatiga, bunyodkorligiga tayanadi. Shu bois ham ta'lim mustaqilligimizni his eta biladigan, o'zligini anglab etgan insonlarni tarbiyalashga, mamlakatimizning aql-zakovat va ilm borasidagi salohiyatini rivojlantirishga, oila, jamiyat, davlat oldidagi mas'uliyatni angelaydigan, har jihatdan barkamol shaxs, ya'ni axloqiy pok, jismoniy baquvvat, Vatan tuyg'usi bilan yashaydigan fidoyi inson, izlanuvchan, tashabbuskor, sog'lom avlodni shakllantirishga qaratilgan. Demak, faqat ma'lumot olish, savod o'rganish bilan chegaralanib qolmaydigan, o'rganganlarini hayotga tatbiq eta oladigan shaxslargina yangi jamiyatni qurish, unda yashash, ishlashni biladigan yoshlar tarbiyasi asosiy masaladir. Bularga esa uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirishning prinsiplari asos qilib olindi.


Oila, mahalla, ta'lim muassasasi hamkorligida quyidagi tamoyillarga amal qilinganda samaradorlik yanada yuqori bo'ladi:

- ta'lim va tarbiya sohasida hamkorlik jarayoni ishtirokchilari harakatlarining ish birligi;
- tarbiyalanuvchiga hurmat va talabning uyg'unligi;
- hamkorlik jarayoni sub'ektlarini teng huquqliligi va yuksak mas'uliyati;
- faoliyat jarayonida millat va davlat manfaatlari ustuvorligi;
- hamkorlikning ilmiy asoslanganligi.

O'zaro hamkorlik ishlarini boshqarish uchun joylarda o'z tarkibiga mahallalar faollari, obro'li ota-onalardan, o'quv-tarbiya muassasalarining tajribali xodimlaridan, mahalla hududida joylashgan turli tashkilotlarning xodimlaridan iborat muvofiqlashtiruvchi jamoatchilik kengashlari tuzilishi lozim. Jamoatchilik kengashi o'z zimmasiga olgan vazifalardan kelib chiqib, o'z tarkibida turli yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatadigan kichik tashabbuskor guruhlarini shakllantirishi mumkin. Jamoatchilik kengashi ma'lum bir muddatga mo'ljallangan ish dasturini tuzish va uni mahalla yig'inida tasdiqlab olib, amalga oshirishi zarur bo'ladi. Qayd etilgan tadbirlar davra suhbatlaridan, biron bir mavzuga yoki muammoga qaratilgan kengash va majlislardan, anjumanlardan, oqsoqollar kengashlaridan mahalla yig'inlaridan, mahalla ahlini birlashtiruvchi, ularni sog'lom turmush tarziga etaklovchi ko'rik-tanlovlar, musobaqalar, bellashuvlar, uchrashuvlar va turli sanalarga bag'ishlangan anjuman va tantanalardan iborat bo'lishi mumkin.

O'tkaziladigan tadbirlar ham tomonlama puxta, shuning bilan qatnashchilarning yoshlariga mos pedagogik va psixologik mujassamlashgan, mantiqan teran, qiziqarli va ko'rgazmali, ta'sirchan, ommabop, amaliy jihatdan qisqa va lo'nda, estetik jihatdan keng ko'lamlil bo'lishi lozim.

Hamkorlikda olib borilayotgan ishlar mahalla hududidagi barcha yoshdagi va toifadagi fuqarolarni qamrab olishi va ularning qiziqish va intilishlariga mos bo'lishi lozim. Hamkorlik tadbirlarining mavzulari «Sog'lom avlod uchun», «Ota-onangga rahmat», «Odobinga balli», «Sog' tanda – sog'lom aql», «Qizlar ibosi», «Bir yigitga qirq hunar oz», «O'g'lim – posbonim», «Hayot – ustoz, xalq – muallim», «O'zbekiston – Vatanim manim!», «Milliy burch va mas'uliyat», «Oila saboqlari», «Oila tinch – mahalla tinch», «Mustaqil hayot bo'sag'asida», «Oila baxti – Vatan baxti», «Sportchi oila» kabi tadbirlardan iborat bo'lishi mumkin.



1-rasm. Oila, mahalla, ta'lim muassasalari hamkorligini amalga oshirish modeli

Respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki davrlardanoq, har tomonlama uyg'un rivojlangan barkamol shaxsni shakllantirish milliy tarbiyamizning bosh maqsadi sifatida belgilab olindi. Mazkur maqsadga erishishning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash maqsadida "Oila-mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligi" tizimi yo'lga qo'yildi. O'tgan davr mobaynida mazkur sohada amalga oshirilgan ishlar samarasi o'laroq, dunyo hamjamiyati tomonidan O'zbekiston an'anaviylik va zamonaviylikni o'zida uyg'unlashtira olgan, o'ziga xos milliy tarbiya tizimi yo'lga qo'yilgan insonparvar davlat sifatida tan olindi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq, aniqrog'i 1993-yilda ishlab chiqilgan "Oila, mahalla, maktab hamkorligi konsepsiyasi" tarbiya jarayoni ishtirokchilari sa'y-harakatlarini birlashtirish, talaba-qizlarni istiqbol g'oyalarga sadoqatli, ma'naviy barkamol, vatanparvar etib tarbiyalashda keng jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirish borasida ma'lum dasturulamal bo'ldi.

Mazkur konsepsiyada oila, mahalla va ta'lim muassasasining o'zaro hamkorlik jarayonidagi vazifalari aniq belgilab berilgan. Mazkur vazifalar bugungi kungacha bosqichma-bosqich amalga oshirilib, o'zining samarali natijalarini berdi. Biroq bugungi kunda dunyoda va mamlakatimizda sodir bo'layotgan o'zgarishlar,

integratsiya va globallashuv jarayonlarining kuchayib borishi ijtimoiy institutlarning o'zaro hamkorligini mustahkamlashni talab etmoqda.

Amaliy tajriba hozirgi vaqtda oila, mahalla, ta'lim muassasasi hamkorligida hal etilishi lozim bo'lgan quyidagi dolzarb muammolarni kun tartibiga qo'ymoqda:

1) yoshlarda g'oyaviy immunitetni yana-da oshirish, ularni "ommaviy madaniyat"ning salbiy oqibatlaridan himoya qilish;

2) yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish;

3) yoshlarda oilaviy hayotga nisbatan qadriyatli munosabatni qaror toptirish;

4) yoshlarda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirish;

5) yoshlarni kasb-hunar yo'naltirishga doir chora-tadbirlar tizimini rivojlantirish;

6) yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ijtimoiy hayotga muvafaqqiyatli tayyorlash;

7) yoshlarda tolerant xulq-atvor ko'nikmalarini, yaxlitlikda tolerantlik madaniyatini shakllantirish;

8) yoshlarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish orqali "axborot madaniyati"ni tarkib toptirish;

9) yoshlarning Internet va kompyuter o'yinlariga tobelikdan himoyalash.

Mazkur muammolarni hal etishga doir oila, mahalla, talim muassasalari hamkorligi quyidagi modelga asoslangan holda amalga oshirilishi lozim (1-rasm).

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2021 yil 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazgan videoselektor yig'ilishida nutqi. Hurriyat gazetasi. 2021 yil 20 yanvar.

2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2009.-73 b.

3. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi. 31 dekabr 2019.-37.

4. Qosimova O. Talaba-qizlarning milliy ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish texnologiyasi: Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori. ... diss. – Samarqand., 2020. – 141 b.

UDK: 37.1

MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA "TARBIYA" FANI O'QITUVCHILARINING IJTIMOY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Z.T.Nazarova

Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazi

Annotatsiya. Ushbu maqolada "Tarbiya" fani o'qituvchilarining ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish yo'llari, "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ning maqsad va vazifalari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Konsepsiya, tarbiya, kompetensiya, kompetentlik, pedagogik mahorat, kvalifikatsiya, ijodkorlik.

Развитие социальных компетенций преподавателей предмета «воспитание» в процессе профессионализации

Аннотация. В данной статье представлена информация о способах развития социальных компетенций преподавателей предмета «Тарбия». Также, в статье говорится о целях и задачах «Концепции непрерывного духовного образования».

Ключевые слова: концепция, образование, компетентность, компетентность, педагогические навыки, квалификация, творчество.

Development of social competencies of teachers of the subject "upbringing" in the process of professionalization

Abstract. This article provides information on the ways of developing social competences of teachers of the subject "Tarbiya". Also, the article discusses the goals and objectives of the "Concept of continuous spiritual education."

Keywords: concept, education, competence, competence, pedagogical skills, qualifications, creativity.

Barchamizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'zlarining qator ma'ruzalarida yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor berib, yoshlarda o'z-o'ziga bo'lgan ishonch, Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, huquqiy madaniyat, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, irodalilik va innovatsion fikrlash kabi muhim fazilatlarni ilk bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish lozimligini ta'kidlab kelmoqdalar. Jumladan, 2019-yil 23-avgust kuni o'tkazilgan videoselektor majlisida "Maktab ta'limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylanishlari zarur" mavzusida so'zlagan nutqi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Yozirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 31-dekabrda 1059-son qarori, va "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 6-iyuldagi 422-sonli qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida Tarbiya fani o'qituvchilar malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularni kasbiy kompetentligini oshirishni nazarda tutadi.

Ayniqsa, Prezidentimizning 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2021 yilni "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" deb nom berishi yuqoridagi fikrimizning yaqqol dalilidir. Respublikamizda amalga oshirilayotgan barcha ta'limiy islohotlar yagona maqsadi barkamol shaxs, malakali rahbar va mutaxassisni tarbiyalash hamda tayyorlashga yo'naltirilgan bo'lib, mazkur maqsadni to'laqonli amalga oshirilishi uzluksiz ta'lim tizimini qayta shakllantirish, uning mazmunini ijtimoiy talablarga muvofiq ravishda yangilash asosida ta'minlanadi. Ta'lim tizimida umimiy o'rta ta'lim sohasi menejrlari va o'qituvchilar jamoasining rahbarlik, pedagogik mahorati va malakasini oshirish, pedagogik faoliyati samaradorligini tahlil qilish muammolari ta'limning sifat mezonlarini belgilashga imkon beradi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "Jamiyatimizda eng e'zozli inson o'qituvchilar, muallimlar bo'lishi kerak" [1] deb e'tirof etdilar. Haqiqatdan ham o'qituvchi va murabbiylarga qilingan ehtirom mamlakat rivoji va farovonligining rivojlanishiga hamda taraqqiyotning yuqori darajada yuksalishi tarixda o'z isbotini topgan. Masalan, Singapur sobiq bosh vaziri Lu Kuan Yu ta'lim-tarbiya sifati haqida shunday degan edi: "Muallimni eng quyi tabaqadan Singapurdagi eng yuqori martabaga ko'tardim. Davlatdagi "mo'jiza" larni qilgan insonlar muallimlardir". Bu fikrga e'tiborni qaratsak qanchalik ibratli fikr. O'z navbatida Prezidentimiz: "O'qituvchini hurmat qilmaganni men ham hurmat qilmayman. O'qituvchi jamiyatdagi eng obro'li kasb egasi bo'lishi shart" deb barchaga murojaat qildilar. O'z-o'zidan savol tug'iladi, mana shunday e'tirof va e'tiborga loyiq bo'lish uchun pedagog –xodimlarimizning pedagogik kompetentlik darajasi qay darajada bo'lishi kerak? Keling, biz buni "Tarbiya" fani o'qituvchilari misolida o'rganib, ularning ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirish bo'yicha ma'lumotlarga to'xtalib o'tamiz.

Prezidentimizning "Farzandlarimizning iste'dod va qobiliyati, ezgu intilishlarini to'liq ro'yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda munosib o'rin egallashlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish bundan buyon ham bosh maqsadimiz bo'lib qoladi... Shu maqsadda biz "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" doirasida umumta'lim maktablarida birinchi marta "Tarbiya" fanini joriy etmoqdamiz" [2], deb ta'kidlashi xalq ta'limi xodimlari, ayniqsa "Tarbiya" fani o'qituvchilari oldiga ulkan vazifalarni qo'ydi.

Konsepsiyaning maqsadi - yosh avlodda mustaqil hayot uchun zarur ijtimoiy ko'nikma va fazilatlarni yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirish asosida yuksak fazilatli, barkamol avlodni

voyaga yetkazishdan iborat. Mazkur konsepsiya 8 ta bob va ma'naviy tarbiyaning uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan 61 ta maqsadli va manzilli tadbirlar rejasidan iborat bo'lib, uning amalga oshirilishi 4 bosqichdan iborat:

- birinchi bosqich: oilalarda (homila davri, bola tug'ilgandan 3 yoshgacha bo'lgan davr);
- ikkinchi bosqich: maktabgacha ta'lim 3–6 (7) yoshgacha bo'lgan davr;
- uchinchi bosqich: umumiy o'rta ta'lim (7 (6)-10 yoshgacha boshlang'ich sinf, 11–17 (18) yosh);
- to'rtinchi bosqich: ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan, shuningdek,

o'rta maxsus kasb-hunar va OTM tizimidagi yoshlar [3].

Konsepsiyasining asosi milliy tarbiyamiz, Unsur Ul Maoliy Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Abu Nasr Farobiy, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat kabi ulug' mutafakkirlarimizning ma'naviy-ilmiy merosiga asoslangan. Ayni vaqtda dunyoning rivojlangan davlatlari tajribasida sinovdan o'tgan zamonaviy tarbiya texnologiyalaridan foydalanish Konsepsiyaning zamon bilan hamnafasligiga xizmat qiladi. «Milliy g'oya», «Odobnoma», «Din tarixi» va «Vatan tuyg'usi» fanlari uyg'unligiga asoslangan «Tarbiya» fanining o'qitilish maqsadi nimalarga qaratilgan? «Tarbiya» fani negizida Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich rivojlantirib boriladi. Voyaga yetgan o'g'il-qizlarimiz mustaqil hayotga ana shu fazilatlar bilan kirib boradilar. Bu fazilatlar ularning o'zlarini ham, xalqimizni ham baxtli, farovon qiladi.

Xo'sh, aslida tarbiya nima? Tarbiya- har qanday sharoitda ham nurli cho'qqilarga yetishish yo'lini ko'rsatishi bilan birga kishi zihnini, fikrini qilich kabi o'tkir qiladi va har bir shaxsga ma'naviy ozuqa berib, madaniyat, ma'rifat dunyosiga olib kiradi. Yomon odamlardan, yomon ishlardan qaytaradi. Yaxshi xulq va odobli bo'lishga xizmat qiladi. Natijada kishilar har yerda aziz va hurmatli bo'ladilar. Shuning uchun ham xalq orasida tarbiya orqali oliy fazilatlar, ulug'likka va orzu-istaklarga erishgan buyuk kishilar qadrlanadi. Tarbiya yaxshi-yomonni tanish, halol-haromning farqiga borish, do'stlik va qarindosh-urug'ning fazilatlarini anglash, qonun-qoidalarini tushunish, haq-huquqlarini bilish kabi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan sifatlarni ham kamol toptiradi. Bizda bola tarbiyani oilada ota-onadan, maktabda ustoz-murabbiydan oladi. Shu o'rinda tarbiya borasida "Tarbiya" fani o'qituvchilarning o'rini alohida ta'kidlash zarur. Bo'lajak tarbiyachi qanday fazilatlar ega bo'lishi kerak?

O'qituvchi tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda istiqbolli rejalarni ishlab chiqishi va unda har bir tadbirning mazmuni, muddatlari, mas'ul ijrochilar va mo'ljallanayotgan tadbirlarning samaradorlik darajasiga ahamiyat berishi muhim o'rin tutadi. Shu munosabat bilan bo'lajak o'qituvchi o'quv-tarbiya jarayonlarini tahlil qilish, turli uslublarni qo'llash, ongli ravishda faol fikr yuritish, bilimni safarbar qilish, o'zi bajaradigan barcha ish jarayonlarini mustaqil ravishda amalga oshirish kabi tajriba va pedagogik mahoratga ega bo'lishi lozim. "Tarbiya" fani o'qituvchilarning asosiy vazifalari ta'lim orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik va ijodkorlikni oshirish va shu asosida tarbiya mazmunini takomillashtirishdan iboratdir. "Tarbiya" fani o'qituvchi o'zining faoliyatida malakali va tajribali, chuqur bilim ega bo'lishi, davlat va chet tillarni, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va o'qitishning innovatsion uslublarini bilishi, klaster metodi asosida boshqa tashkilotlar, yirik kompaniya va birlashmalar bilan aloqada bo'lishi asosida ta'lim mazmunini takomillashtirishi zarur. Shuningdek, u milliy va jahon adabiyoti, musiqa, kino, haykaltaroshlik, amaliy san'at va boshqa ijodiy yo'nalishlardagi bilimlarga ega bo'lishi ham foydadan holi bo'lmaydi. Bundan tashqari, u ta'lim jarayonida axborot yangiliklarini joriy etish, zamonaviy talablarni hisobga olgan holda va tasdiqlangan me'yorlardan kelib chiqib, yangi o'quv-laboratoriya, ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ham faol bo'lmog'i darkor. Tarbiya jarayonini boshqarishning eng samarali usullaridan biri o'qituvchi o'z nuqtayi nazarini ko'rgazmali shaklda, rang-barang, kutilmagan, hayotdan olingan voqealar va misollar bilan taqdim etishidir. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda "Tarbiya" fani o'qituvchisining ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda quyidagi shaxsiy talablar muhim ahamiyat kasb etadi:

- o'z fanini chuqur bilishi va uning metodikasini yetarli darajada o'zlashtirishi;
- keng ilmiy duyoqarashi va teran e'tiqod sohibi bo'lishi;
- ijtimoiy ehtiyoj va axloqiy zaruriyatni chuqur tushunishi;
- ijtimoiy ehtiyoj va axloqiy zaruriyatni chuqur tushunishi;
- ijtimoiy va fuqarolik burchini chuqur anglashi;
- ijtimoiy-siyosiy faol bo'lishi;
- o'z kasbi va bolalarni sevishi;
- ruhiy pedagogik ziyrak bo'lishi va yangilikka intilishi;
- o'z xalqi tarixi, milliy qadriyatlarini va urf-odatlarini chuqur o'rganishi va ularni targ'ibot qilishi;

- pedagogik kuzatuvchanlik, tashkilotchilik, talabchanlik, qat'iylik, vazminlik, haqqoniylik, o'zini tuta bilish kabi xislatlar sohibi bo'lishi;

- o'z kasbiga to'la layoqatli va pedagogik takt (odob) egasi bo'lmog'i lozim.

Alohida ta'kidlash joizki, "Tarbiya" fanining Kvalifikatsiyasi (potensial faoliyatda bilim va ko'nikmaning namoyon bo'lish) yuqori kasbiy mahoratni egallashi bevosita uzluksiz ta'lim tizimi orqali amalga oshiriladi. Uzluksiz ta'lim tizimida asosiy o'rin egallagan malaka oshirish tizimi o'qituvchining ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish imkonini beradi. Malaka oshirish tizimining bosh maqsadi:

-pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qo'yiladigan davlat talablariga mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollardan, ta'lim muassasalarining ehtiyojlaridan, yangi pedagogik texnologiyalarni va o'qitishning noan'anaviy shakllarini rivojlantirishdan, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish sohasidagi jahon tajribasi yutuqlari va an'analardan kelib chiqib, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish davomidagi izchil islohotlardan, internetning global tarmog'idan foydalangan holda pedagoglarning tanqidiy va ijodiy tafakkurini rag'batlantirishdan, mustaqil ma'lumot olishiga yo'naltirilgan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan unumli foydalanishning samarali va natijali yo'llarini boyitishdan, shuningdek, o'qitishning interaktiv metodlari bo'yicha kasbiy bilimlar, malaka va ko'nikmalarni muntazam ravishda yangilab borishdan iboratdir [4]. Hozirgi kunda ustoz-pedagoglar mavqeyini mustahkamlash va ularni rag'batlantirish maqsadida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyevning xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi nutqi. 2019 yil 23 avgust;

2. Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi 2020 yil 31 avgust;

3. <https://sof.uz/uz/post/ozbekistonda-uzluksiz-manaviy-tarbiya-konsepsiyasi-tasdiqlandi>;

4. <https://lex.uz/docs/>

UDK: 494

JAMIYATDA SOG'LOM MUHIT YARATISHDA RAHBAR KADRLARNING O'RNI: ILMIY MUAMMO VA AMALIY TAVSIYALAR

A.X.Qodirov

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi Akademiyasi tinglovchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada siyosiy fanlarda davlat boshqaruvida kadrlar tizimining shakllanishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti, hokimiyat, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga doir masalalar tahlil etilgan. Unda siyosiy elita va siyosiy yetakchilik bilan bog'liq ilmiy-nazariy kontsepsiya va qarashlar, G'arb va Sharqqa xos maktablar mavjud bo'lganligi, bu ta'limotlar O'zbekistonning davlat boshqaruv tizimida rahbar va boshqaruv kadrlari shakllanishi hamda rivojlanishi bilan bog'liq muammolarni o'rganishda muhim nazariy va amaliy asos sifatida xizmat qilishi kabi masalalar tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: davlat boshqaruvi, tarkibiy tuzilmalar, vazirlik, hokimiyat, korxona, tashkilot, yosh, innovatsion fikrlaydigan, tashabbuskor, vatanga sodiq yangi avlod kadrlar.

Роль лидерства в создании здоровой среды в обществе: научные проблемы и практические рекомендации

Аннотация. В статье анализируется формирование и развитие кадровой системы в государственном управлении по политическим наукам, вопросам общественного развития, власти, социально-политических процессов. Он содержит научно-теоретические концепции и взгляды на политическую элиту и политическое лидерство, наличие западной и восточной школ, которые служат важной теоретической и практической базой для изучения проблем формирования и развития лидерства и менеджмента в Узбекистане.

Ключевые слова: государственное управление, структурные подразделения, министерства, органы власти, предприятия, организации, молодые, инновационные, инициативные, патриотические кадры нового поколения.

The role of leadership in creating a healthy environment in society: scientific problems and practical recommendations

Abstract. The article analyzes the formation and development of the personnel system in public administration in political sciences, issues of social development, power, socio-political processes. It concepts and views on the political elite and political leadership, the presence of Western and Eastern schools, which serve as an important theoretical and practical basis for studying the problems of formation and development of leadership and management in Uzbekistan.

Keywords: public administration, structural divisions, ministries, authorities, enterprises, organizations, young, innovative, proactive, patriotic cadres of a new generation.

Mavzuning dolzarbligi. Davlat boshqaruvida, uning tarkibiy tuzilmalari (vazirlik, hokimiyat, korxona, tashkilot va h.k.)da yosh, innovatsion fikrlaydigan, tashabbuskor, vatanga sodiq yangi avlod kadrlarini tarbiyalash va ulardan samarali foydalanish tizimini yaratish yangilanayotgan O'zbekiston mamlakatining eng muhim vazifalarining biri hisoblanadi. Chunki, davlat mustaqilligi, jamiyat taraqqiyoti shu mamlakatda yashaydigan, xalq xo'jaligining turli jabhalarida faoliyat yuritayotgan mutaxassis kadrlarning kasbiy bilim va malakalariga bevosita bog'liq.

Davlat organlari tizimida ham, xalq xo'jaligining turli korxona va tashkilotlarida ham davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati - bu tuzilmalarga rahbarlik qilayotgan kadrlarning kasbiy bilimi, tajribasi, fikrlash doirasidan tashqari jamoa (insonlar) bilan ishlash, ularni yagona maqsad sari etaklash kabi xislatlariga ham bog'liq. Jamoadagi sog'lom muhit ish unumdorligiga, qo'yilgan masalalarni o'z vaqtida bajarilishida birlamchi omil (rol)ni o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Islohotlarning taqdiri, ularning samarasi, hayotimizga ta'siri, avvalambor, kadrlarning malakasiga, ularning o'z ishini qay darajada o'zlashtirib olganligi, yurtparvarligiga va fidoiyligiga bog'liqdir" [2; 38].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev davlat rahbari lavozimiga kirishgan birinchi kunlardan boshlab kadrlar salohiyatiga, ularni xalq bilan ishlay olish qobiliyatiga alohida e'tibor qaratdi. Yangicha fikrlaydigan, innovatsion bilim va tafakkurga ega bo'lgan, xorijiy mamlakatlarda ta'lim olgan yosh, iqtidorli kadrlarni davlat boshqaruvi organlariga, korxona va tashkilotlarga, ta'lim muassasalariga rahbar etib tayinlash masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tardi. Chunki, shiddat bilan o'zgarib borayotgan zamon, davr talabi boshqaruv kadrlarining jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rni va roliga mutloq boshqacha talablarni qo'ydi. Ayniqsa, bugungi kunda dunyoda yuz berayotgan iqtisodiy-ijtimoiy, ekologik, diniy va etnik muammolar qatoriga koronavirus pandemiyasining kirib kelishi nafaqat insonlar sog'lig'ini saqlash, shuningdek, ularni pandemiya sharoitida ishlashi, oilasini boqish muammolari ham davlat, jamiyat oldida yana bir muammo sifatida ko'ndalang qo'yildi.

Ana shu sharoitda rahbar kadrlarning o'rni, roli birinchi o'ringa chiqdi. Davlat boshqaruv organlari, tashkilot va korxonalarni rahbar kadrlarning yangi avlodi bilan ta'minlashda bir qator muammolar yig'ilib qolganligi yaqqol ko'rinib qoldi, jumladan:

-Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar va demokratik jamiyat qurish talablariga javob beradigan rahbar hamda boshqaruv kadrlar etishmasligini va bu jarayon tizimli yo'lga qo'yilmaganligi;

-sobiq ittifoq davridagi «partiya maktabi»ning rahbar va boshqaruv kadrlarini tayyorlash tizimidan voz kechilib, mamlakatimizda markazlashgan va eng muhimi kommunistik g'oyalardan xoli bo'lgan, o'zimizga xos milliy, demokratik rivojlanish tamoyillari va talablariga javob beradigan, rahbar va boshqaruv kadrlarni tayyorlashning yangi tizimining yaratilmaganligi;

-mamlakatning bozor iqtisodiyotiga o'tishi, ko'p tarmoqli iqtisodiyotni shakllantirish, bozor infrastrukturasi qaror toptirish, iqtisodiyotda yuz berayotgan o'zgarishlar talabiga javob beradigan yangi rahbar va boshqaruv kadrlarni tarbiyalab voyaga etkazish va o'z o'rniga qo'yish metodologiyasining ishlab chiqilmaganligi;

-respublikada boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik shaklidan demokratik usullariga o'tishda ijtimoiy munosabatlarning barcha ko'rinishlarini bozor munosabatlariga muvofiqlashtirida rahbar va boshqaruv kadrlarning tutgan o'rni hamda mavqeini o'rganish va baholashning ijtimoiy-iqtisodiy mezonlarining yaratilmaganligi;

-milliy g'oyani davlat va jamiyat qurilishining barcha bo'g'inlarida ishlayotgan rahbar kadrlarning qalbi hamda ongiga singdirish, ularning mehnat va hayotiy faoliyatining dasturilamaliga aylantirish zarurati va h.k.[3; 2008].

Mavzuning o'rganilganlik darajasi- ilmiy muammo sifatida

Siyosiy fanlarda davlat boshqaruvida kadrlar tizimining shakllanishi va rivojlanishi jamiyat

taraqqiyoti, hokimiyat, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga doir masalalar bilan uzviy bog'liq holda o'rganib kelingan. Unda siyosiy elita va siyosiy etakchilik bilan bog'liq ilmiy-nazariy kontsepsiya va qarashlar, G'arb va Sharqqa xos maktablar mavjud bo'lganligini ta'kidlash lozim. Bu ta'limotlar O'zbekistonning davlat boshqaruv tizimida rahbar va boshqaruv kadrlari shakllanishi hamda rivojlanishi bilan bog'liq muammolarni o'rganishda muhim nazariy va amaliy asos sifatida xizmat qiladi.

Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan buyuk allomalar Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Amir Temur, Sharofiddin Ali Yazdiy, Nizomulmuluk, Xondamir, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Alisher Navoiy, Narshaxiy, Samandar Termiziy asarlarida milliy davlatchiligimiz tarixida kadrlar masalasi "hokim", "shahar hokimi", "rahbar", "rahbarlik" tushunchalari orqali siyosiy-falsafiy jihatdan tahlil etilgan.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning asarlarida yangi avlod kadrlari, xususan, yuqori boshqaruv bo'g'inidan tortib ishlab chiqarish korxona va tashkilotlari, ta'lim muassasalari(maktabgacha ta'lim, umumta'lim, oliy ta'lim) rahbar kadrlarini tarbiyalashni xorijiy tajribalar asosida yo'lga qo'yish, bu jarayonning iqtisodiy-huquqiy va metodologik asoslari bayon etilgan.

Davlatimiz rahbarining 2016-2021-yillarda olib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy davlat siyosatida kadrlar muammosi, uni hal etish birinchi o'ringa chiqarildi. Bu borada yangi g'oyalar ilgari surildi, muhim qonun va qarorlar qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2017-2021-yillarda mo'ljallangan "Harakatlar Strategiyasida" belgilab berilgan vazifalarni ijrosini ta'minlash har bir rahbarning ustuvor vazifalari hisoblanadi. "Harakatlar Strategiyasida" belgilab berilgan vazifalarni to'laqonli, vijdonan bajarishi uchun har bir mehnat jamoasida avvalambor sog'lom muhit, ishchanlik kayfiyati va eng asosiysi adolatli boshqarish orqali erishish mumkin bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasining hududiy filiallarini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3901-son va 2019-yil 27-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida boshqaruv kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4365-sonli qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-sentyabrdagi "Boshqaruv kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 745-sonli qarori shular jumlasidandir.

Bugungi kunda davlat hokimiyati va boshqaruvi sohasidagi islohotlar faqat yangi boshqaruv tuzilmalarini yaratishga, zamonaviy texnologiyalarni boshqaruv jarayoniga joriy etishga qaratilib qolmasdan rahbar kadrlarni jamoa bilan ishlash samaradorligi, jamoada ishchan ijodkorlik sog'lom muhitni, sog'lom raqobatni ta'minlashga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Bu esa kasbiy bilim va malakasi yuqori, innovatsion tafakkur ega, muammoli vaziyatlarda har tomonlama to'g'ri, puxta o'ylangan qarorlar qabul qilish va albatta uni amalga oshiraoladigan yangi avlod rahbarlarini tayyorlash va tarbiyalash vazifalarini kun tartibiga qo'yimoqda.

Biz bunga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5843-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida 2019-yil 3-oktyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorini keltirishimiz mumkin. Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi davlat organlari va tashkilotlarida inson resurslarini rivojlantirish hamda xodimlarni boshqarish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan davlat fuqarolik xizmati ishlari bo'yicha vakolatli davlat organi hisoblanadi. Mazkur Qarorni qabul qilinishi Yangi O'zbekistonda-yangicha rahbar kadrlarni tanlash, ularni joy-joyiga qo'yish eng muhimi kadrlar siyosatida shaffoflikni ta'minlashga qaratildi.

Hozirgi zamon rahbari, avvalambor, muvaffaqiyat sari intiluvchi, javobgarlikni o'z zimmasiga olishga qodir, tashkilotchi va irodasi mustahkam shaxs bo'lmog'i kerak. Shuningdek, rahbardan o'z zimmasidagi vazifalarni samarali bajarilishi, qo'l ostidagilarni ham shunga safarbar etishi, jamoani qiynayotgan jiddiy muammolarni chuqur o'rganib, maqbul echimini topishi, muammoli vaziyatlarni donolik bilan bartaraf etishi, o'z ishiga tanqidiy qarash qobiliyatiga ega bo'lishi talab etiladi.

Insonlarni bir jamoa maqsadi yo'lida samarali mehnatga jalb qilish, qolaversa, rahbar – ishchi xodim o'rtasidagi o'zaro ishonchli munosabatlarni shakllantirish, har bir shaxsning o'ziga xos ruhiy, ijtimoiy xususiyatlari atroflicha o'rganish, yuqori darajadagi samarali personalni boshqarishga erishish, o'ta dolzarb masala hisoblanadi. Chunki insonlar bilan ishlash, inson faoliyatining eng murakkab va ko'pqirrali

shakllaridan biridir. Mehnat jamoalarida samarali boshqarishni tashkil etish uchun, ishchilarning o'z qobiliyatlarini namoyon qilishga, astoydil mehnat qilishga va ishlab chiqarish resurslarini unumli foydalanishga undovchi motiv va rag'batlar tizimi zarur. Ushbu tizimni esa shaxslar psixologiyasi va jamoani rivojlanishining ijtimoiy-psixologik qonuniyatlarini hisobga olmasdan yaratishning iloji yo'q.

Jamoadagi sog'lom muhitni yaratish va bu jarayonda rahbar kadr va ishchi – xodim munosabatlari, ishchi xodimlarni, shuningdek, ishlab chiqarishni boshqarish va rejalashtirishda turli usul va mexanizmlardan foydalanish, samarali boshqaruv faoliyatini shakllantirish masalalarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqot va izlanishlarni xorijiy olimlar qatorida o'zbek olimlari ham jadal olib borishmoqda. Q. Abduraxmonov, Sh. Xolmo'minov, E. Nabiyeu, A. Hayitovlar ishlarini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Ishchi-xodimlarni boshqarish va korxona boshqaruv faoliyatini takomillashtirishda ijtimoiy-psixologik jihatlarining o'rnini tadqiq etish, mehnat jamoalarida sog'lom muhitni shakllantirishning bir qator jihatlari ishlab chiqilgan bo'lsada, biroq bularni etarli deb bo'lmaydi. Jumladan, iqtisodiyotni isloh qilish sharoitida korxona boshqaruvida xodimlarning alohida xususiyatlarini hisobga olish, xususan sog'lom mehnat muhitini shakllantirish, bunda ijtimoiy-psixologik usullardan foydalanish, shu yo'l bilan boshqaruv faoliyatini takomillashtirish masalalari oxirigacha ishlab chiqilmagan. Shu munosabat bilan mazkur maqola aynan shu muammolarni o'rganishga qaratilganligi bilan ham dolzarb hisoblanadi.

Mamlakatimizda kadrlar siyosati muammolari bo'yicha tadqiqotlar siyosatshunos va huquqshunos olimlar: A. Begmatov, R. Jumayev, T. Jo'raev, U. Idirov, N. Komilov, Q. Nazarov, S. Otamurodov, Sh. Paxrutdinov, B. To'ychiyev, A. Xolbekov, O. Husanov, I. Ergashev, M. Quronovlarning ilmiy izlanishlarida davlat siyosati hamda demokratiyalashish jarayonlari, ma'naviyat, milliy g'oya, huquq muammolarining kadrlar siyosatiga bevosita yoki bilvosita bog'liq jihatlari o'rganilgan.

Ushbu sohada izlanishlar va kadrlar siyosatini o'rganish bilan bog'liq ilmiy-ommabop asarlar ham tadqiqotimiz nuqtai nazaridan muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotlarda sobiq ittifoq davridagi kadrlar siyosatini tanqidiy baholash va uning salbiy jihatlarini aniqlash, mustabid tuzum sharoitida respublikada kadrlar masalasi bir tomonlama, partiyaviylik tamoyili asosida hal etilgani, mahalliy kadrlarga ishonchsizlik bilan qarash tufayli ularga xolisona va jiddiy e'tibor berilmagani tahlil etilgan.

Mustaqillik tufayli davlat kadrlar siyosatining yangi metodologiyasini yaratish, yangicha tamoyillar, qarashlar, umumbashariy va milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda tahlil etish imkoniyati vujudga keldi. Bu esa barcha sohalar kabi kadrlar siyosatiga doir umuminsoniy ilmiy yutuqlarni o'rganish va ularni mamlakatimiz milliy taraqqiyoti xususiyatlariga moslab qo'llashni taqozo etadi. Shu ma'noda, kadrlar siyosati masalasi bo'yicha turli davr va mamlakatlarda ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar – P. De Bryun, G. A. Shreder, F. Teylor, L. Zinger, R. Xoftstedter, S. Parkinson va boshqalar erishgan ijobiy natijalar ham muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Alohida qayd etish kerakki, Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasida tayyorlanib, G'afur G'ulom nomidagi nashriyotda "Rahbarshunoslik va boshqaruv" ruknida chop etilgan "Davlat qurilishi va boshqaruvi", "Milliy g'oya va rahbar mas'uliyati", "Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarish" qo'llanmalarida mamlakatimiz olimlarining davlat boshqaruvida rahbar kadrlar tizimining shakllanishi borasidagi islohotlar muammolarini boshqa masalalar tarkibida ko'rib chiqishda dastlabki urinish yuzaga keldi. Bundan tashqari, to'rt jildlik "Huquqiy davlat – mustaqillik, millat, iqtisodiyot, mafkura, siyosat" [4;]. monografiyasining bo'limlaridan biri "Davlat kadrlar siyosati va uni xalqning intellektual imkoniyatlaridan kelib chiqib ro'yobga chiqarish"ga bag'ishlanganini alohida ta'kidlash lozim. Unda kadrlar siyosatini shakllantirish, davlat mustaqilligini mustahkamlash va milliy tiklanishda alohida o'rin tutishi asoslangan, kadrlar siyosatining muhim yo'nalishlari ko'rsatib berilgan.

Shuningdek, mustaqillik davrida muammoning siyosatshunoslik va siyosat falsafasi nuqtai nazaridan ilmiy tahlil etish borasida ham talaygina tadqiqotlar amalga oshirildi. Masalan, siyosatshunoslik va huquqshunoslik sohasida yoqlangan doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari, chunonchi, T. Alimardonov, J. Bahromov, M. Boydadaev, R. Jumaev, B. Iminov, U. Idirov, I. Karimov, A. Xolbekov, O. Husanov, I. Ergashev va boshqalarning ilmiy izlanishlari shular jumlasidandir.

Ammo ushbu izlanishlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, mustaqil O'zbekistonning davlat boshqaruvida, xususan, korxona va tashkilotlarda sog'lom muhit yaratishda rahbarning roli mavzusi shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy bilimlari bilan bir qatorda uning jamoada ishlash, kishilarni boshqarishda ularning ijtimoiy kelib chiqishi, iqtisodiy ahvoli va psixologik zamonaviy milliy kadrlar tizimining shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liq muammolar alohida tadqiqot mavzui sifatida o'rganilmagan.

Jamiyatda, korxona va tashkilotlarda sog'lom muhitni shakllantirish borasida bugungi kunda bir qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda va ushbu qilinayotgan ishlar o'zining samarasini ko'rsatmoqda.

Birinchidan, jamiyatda sog'lom muhit yaratish borasida bugungi kunda kasaba uyushmalari viloyat kengashi tomonidan qator ijobiy ishar amalga oshirilib, aholining ko'plab ijtimoiy muammolarini hal qilib kelinmoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan berilgan topshiriqqa asosan, hududlardagi muammolarni bartaraf etish bo'yicha yaratilgan yangi tizim ya'ni "Mahallabay" ishlash tizimi orqali, mahallalardagi, xonadonlardagi ishsiz, kam ta'minlangan xotin-qizlar ro'yxatlari shakllantirilib, "Ayollar va Yoshlar daftari"ga kiritilmoqda.

Ushbu "Temir daftarlar"ga kiritilgan oilalarning muammolarini tizimli ravishda hal qilish maqsadida kasaba uyushmalari viloyat kengashi tomonidan Tikuvchilik mashinalari berish orqali ularning bandligi ta'minlanmoqda, uy-joylari ta'mirga muhtoj bo'lgan oilalarning uy-joylarini ta'mirlash uchun mablag' ajratilmoqda hamda ehtiyojmand, fuqarolarning salomatliklarini tiklash maqsadida sanatoriylarga imtiyozli yo'llanmalar ajratilib kelinmoqda.

Ushbu qilinayotgan ishlardan ko'zlangan asosiy maqsad Xalqimizni rozi qilish, jamiyatda sog'lom muhitni shakllantirish uchun xizmat qilib kelmoqda.

Yuqorida birgina kasaba uyushmalari tomonidan qilinayotgan ishlarga to'xtaldik, vaholanki, bugungi kunda mahalliy davlat hokimiyati organlari, sektorlar rahbarlari va mutasaddi tashkilotlar tomonidan ushbu yaratilgan yangi tizim bo'yicha "Mahallabay" ishlash orqali, ishsiz fuqarolarning bandligini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagini bildirgan fuqarolarga imtiyozli kreditlar ajratish, kasb-hunarga o'qitish markazlarida 5 turdagi mutaxassisliklar bo'yicha 360 soatlik o'quv dasturlari asosida kasb-hunarlariga o'qitilib, ularga sertifikat berilib, mutaxassisliklari bo'yicha ishga joylashtirilib kelinmoqda.

Albatta ushbu amalga oshirilayotgan ishlardan ko'zlangan maqsad aholimizni rozi qilish, ularni ertangi kunda emas bugun farovon hayotda yashashlariga ko'mak berish orqali jamiyatda sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirishdan iborat.

Mehnat jamoalarida sog'lom muhitni yaratishdagi tavsiyalar

Yuqorida jamiyatda sog'lom muhit yaratish haqida qisqacha to'xtalib o'tdik. Endi korxona, tashkilot yoki muassasalarda, mehnat jamoalarida sog'lom muhitni yaratish bo'yicha quyidagilarga e'tibor qaratib o'tamiz.

Har bir mehnat jamoasida sog'lom muhitni yaratish birinchi navbatda rahbar kadrlarga va rahbar kadrlar tomonidan tanlab olingan ishchi xodimlarga bog'liq.

Rahbar mehnat jamoasida sog'lom va munosib ish sharoitni yaratish orqali ish samaradorlikni oshirishni maqsad qilgan ekan, avvalambor rahbarning o'zi, bugungi rahbarga qo'yiladigan talablarga mos kelishi kerak.

Ya'ni, rahbar ma'naviyatli, tezkor va to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lishi, etakchilik va liderlik qobiliyatiga ega bo'lishi, jamoada to'g'ri ishlashni bilishi, qaror qabul qilishda xodimlarning fikrini inobatga olishi hamda qo'l ostidagi xodimlarni motivatsiya qilishini bilsagina jamoada sog'lom va samarali ish jarayonini tashkil qilishga erishadi.

Bundan tashqari, rahbar jamoani shakllantirishda, kadrlarni adolatlik tanlashga e'tibor berishi lozim. Ya'ni bugungi kunda Eng muhim samaradorlik ko'rsatgichlari (KPI) orqali, tanlov asosida ishga qabul en samarali usul hisoblanadi va bu o'z natijasini beradi.

Ayrim hollarda, rahbar yangidan tashkilot yoki korxonaga rahbar lavozimiga kirishgan bo'lsa, ayrim xodimlari uzoq yillardan beri ushbu tashkilotlarda ishlayotgan bo'lsa, ushbu xodimlar bilan yangidan ishga qabul qilingan xodimlar o'rtasida ishga bo'lgan munosabat, ularning dunyo qarashi va fikrlashi o'rtasidagi farq ayrim hollarda o'zaro nizoni keltirib chiqarishiga sabab bo'ladi.

Mazkur holatlarda, yoki shunga o'xshash vaziyatlarda rahbar vaziyatni to'liq qo'lga olishi va nizoni bartaraf etishi uchun yuqorida sanab o'tilgan mezonlardan tashqari hayotiy tajriba ham muhim oiml bo'lib sanaladi.

Ya'ni, korxonada eskidan ishlab kelayotgan xodim va yangi ishga kelgina yosh mutaxassislarni o'rtasida ish taqsimoti, ularning kunlik, haftalik ish rejasi amalga oshiriyotgan ishlari va erishilgan natijalarini tahlil qila olishi va to'g'ri xulosa chiqara olishi talab etiladi.

Mehnat jamosida shunga o'xshash nizoli vaziyatlarni oldini olish maqsadida, rahbar barcha xodimlar to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi, xodimlarni jamoa bo'lib ishlashni o'ragitishi, barcha xodimlar o'rtasida muloqot madaniyati, ishlash madaniyati, tashkilot madaniyat va urf odatlarini shakllantirishi va ularga to'g'ri tushuntirib berishi lozim.

Shuningdek, har qanday tashkilot yutuqlarni qo'lga kiritishi uchun rahbar maqsadni aniq belgilashi, unga erishish yo'llari va vositalarini to'g'ri tanlashi, jamoani o'z atrofida jipslashtirib, qo'yilgan vazifalarni bajarishga safarbar eta olishi kerak. Ya'ni, ishni o'z vaqtida bajaradigan, gapni o'rniga qo'yib

aytadigan bo'lishi lozim. Afsuski, hozirgi kunda ilmga qiziqmaydigan, muvaffaqiyatni faqat pul, moddiy boylikda deb tushunadigan shaxslar hamon uchrab turadi. Pul bunday odamlarni to'lig'icha o'ziga bo'ysundirib oladi va kasbiy, ma'naviy o'sish uchun unga imkoniyat qoldirmaydi.

Aslida, buyuk nemis shoiri Iogann Volfgang Gyote aytganidek, turli-tuman tarbiyaviy hikoyatlar, hikmatli so'zlarni jamlash tengsiz davlatdir. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasida «Eng katta boylik – bu ilm, eng katta meros – yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bilimsizlik» deb haq gapni aytgan.

Qolaversa, bugungi kunda jamiyatimizda rahbar kadrlar faoliyatida kuzatiladigan eng katta va murakkab muammolardan biri – bu o'z tashkiloti va tarmog'i uchun kadr tanlay olish va ularni boshqarish layoqatining etishmasligidir. Bu borada afsuski, rahbarlarda HR (inson resurslarini rivojlantirish) borasidagi bilimlarning pastligi saqlanib qolmoqda. Inson huquqlariga zid ravishda, shuningdek, inson resurslari mamlakatning milliy boyligiga aylanishi sharoitida tashkilotga kelgan yangi rahbar tomonidan oldindan ishlaydigan xodimlarga nisbatan «butunlay tozalash» operatsiyasiga moyillikning mavjudligi va bu jamiyatda katta noroziliklarga sabab bo'lishini esa ming afsuski, ko'plab rahbar anglab etmagan va bunday nomaqbul ishlarni amalga oshirmoqdalar. Xodimlarga past nazar bilan qarash, gohida o'zining tor mezonlari yordamida ularni saralash, o'zining yakkahokimligiga tayanib, xohlagan kadrlarini ishlatib va qolganlarini bo'shab ketishga majbur qilish, «notanish» xodimlardan xavfsirash, ularni dushman sifatida qarash ruhiyatidan ozod qilish masalasi sohadagi eng dolzarb vazifalardan bo'lmog'i shart! Ayniqsa, xodimlarning nohaq bo'shatilishi, ularga doimiy ruhiy bosim o'tkazilishidan himoya qiladigan huquqiy mexanizm yoki tizimni yaratish eng ustuvor vazifa sifatida tezda echimini topishi lozim. Demak zamonaviy rahbarlar yuqoridagi keltirilgan salbiy holatlarni keltirib chiqarmasligi uchun, yuqori kompetent va axborot madaniyati shakllangan bo'lishi lozim. Chunki, zamonaviy rahbar kadrlar zamon bilan xamnafas bo'lishi, tavarak atrofdagi siyosiy jarayonlarni tizimli tahlil qila olishi lozim. Bu muammolarni hal qilish uchun rahbar kadrlarda avvalo, ish jarayonini tashkil qilish, nostandart qarorlar qabul qilish, turli an'anaviy uslublardan voz kechib, kreativ ishlash mexanizmlarini, ko'nikmalarini amaliy shakllantirish masalalariga e'tibor qaratish kerak.

XULOSA

Bugungi davr davlat xizmatchilari oldiga yangicha talablar qo'ymoqda. Mamlakatimizni zamonaviy bosqichda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalarni ro'yobga chiqarish uchun boshqaruv usullarini qayta ko'rib chiqish, faoliyat samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilayapti. Shu bois, O'zbekiston jamiyatining qaysi bo'g'inidan qat'iy nazar sog'lom muhitni yaratishda birinchi darajali rahbar mas'uldir. Buning uchun, biz sodiq, mas'uliyatli, xalq manfaati va tinchligini, farovonligini o'ylaydigan, uning g'amini eydigan, ishning ko'zini biladigan, zamonaviy fikrlash va ishlash qobiliyatiga ega, munosib rahbarlarni topish, tarbiyalash, mas'ul lavozimlarga tayinlash, faoliyatini doimiy monitoring qilish singari vazifalarni davlat siyosatining strategik vazifasi sifatida belgilab olsakki, oldinga qo'yilgan maqsadlarimizga erishamiz. Chunki, zamonning o'zi, bizni taraqqiyot yo'lida yo'qotilgan vaqt o'rnini to'ldirishga, xalqimizning dardu-tashvishlarini bartaraf qilishga, ertangi kunning munosib avlodlarini tayyorlashga va ular oldida mas'uliyatni yanada chuqur his qilishga undamoqda.

Adabiyotlar

1. П.Де Брюйн «Управление по результатам в государственном секторе» М-ИКСИ-2005; Г.А.Шредер Интервью из газеты «Зюддойче цайтунг» 17.02-2005; Ф.Тейлор «Принципы научного менеджмента» СПб-Санкт-Петербург-2001; Л.Зингер «Техногия профессионального успеха» М-Библиос-2001; Р.Хофтстедтер «Социал дарвинизм в американской мысли» М-Библиотека Алия-2000; С.Паркинсон, М.Рустомджи «Искусство управления» М.: Форм пресс. 2001.
2. Каримов И.А. Юксак малакали мутахассислар – тараккиёт омили // Бунёдкорлик йўлидан. 4-жилд. -Т.: Ўзбекистон, 1995.
3. Куранбоев Қ. Давлат бошқарув кадрлар тизими: шаклланиш ва ривожланиш муаммолари (сиёсий-ижтимоий жиҳатлари). Сиёсий фанлар доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. –Т. 2008.
4. Хукукий давлат — мустақиллик, миллат, иқтисодиёт, мафкура, сиёсат. - Т.: “Адолат”, 1994.

MUALLIFLAR DIQQATIGA!

Hurmatli mualliflar, maqola muallif tomonidan qog'ozda chop etilgan va elektron shaklida taqdim qilinishi shart. **Maqolada quyidagi bandlar:** UDK, ishning nomi (o'zbek, rus va ingliz tillarida), maqola hammualliflarining ro'yxati (to'liq familiyasi, ismi, otasining ismi – o'zbek, rus va ingliz tillarida), muallif haqida ma'lumotlar: ish joyi, lavozimi, pochta va elektron pochta manzili; maqola annotatsiyasi (300 belgigacha, o'zbek, rus va ingliz tillarida), kalit so'zlar (5-7, o'zbek, rus va ingliz tillarida) bo'lishi lozim.

MAQOLALARGA QO'YILADIGAN TALABLAR!

Maqolalarning nashr etilishi uchun shartlar nashr etilishi mo'ljallangan maqolalar dolzarb mavzuga bag'ishlangan, ilmiy yangilikka ega, muammoning qo'yilishi, muallif tomonidan olingan asosiy ilmiy natijalar, xulosalar kabi bandlardan iborat bo'lishi lozim; ilmiy maqolaning mavzusi informativ bo'lib, mumkin qadar qisqa so'zlar bilan ifodalangan bo'lishi kerak va unda umumiy qabul qilingan qisqartirishlardan foydalanish mumkin; "Ilmiy axborotnoma" jurnali mustaqil (ichki) taqrizlashni amalga oshiradi.

**MAQOLALARNI YOZISH VA RASMIYLASHTIRISHDA
QUYIDAGI QOIDALARGA RIOYA QILISH LOZIM:**

Maqolalarning tarkibiy qismlariga: kirish (qisqacha), tadqiqot maqsadi, tadqiqotning usuli va obyekti, tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi, xulosalar yoki xotima, bibliografik ro'yxat. Maqola kompyuterda Microsoft Office Word dasturida yagona fayl ko'rinishida terilgan bo'lishi zarur. Maqolaning hajmi jadvallar, sxemalar, rasmlar va adabiyotlar ro'yxati bilan birgalikda doktorantlar uchun 0,25 b.t. dan kam bo'lmasligi kerak. Sahifaning yuqori va pastki tomonidan, chap va o'ng tomonlaridan - 2,5 sm; oriyentatsiyasi - kitob shaklida. Shrift - Times New Roman, o'lchami - 12 kegl, qatorlar orasi intervali - 1,0; bo'g'in ko'chirish - avtomatik. Grafiklar va diagrammalar qurishda Microsoft Office Excel dasturidan foydalanish lozim. Matndagi bibliografik havolalar (ssilka) kvadrat qavsda ro'yxatda keltirilgan tartibda qayd qilish lozim. Maqolada foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltirilishi lozim. Bibliografik ro'yxat alfavit tartibida - GOST R 7.0.5 2008 talablariga mos tuziladi.

- Ikki oyda bir marta chiqadi.
- "Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi"dan ko'chirib bosish faqat tahririyatning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.
- Mualliflar maqolalardagi fakt va raqamlarning haqqoniyligiga shaxsan mas'ul.

MAQOLAGA QUYIDAGILAR ILOVA QILINADI:

- Yo'llanma xati;
- Ekspert xulosasi.

E- mail: axborotnoma@samdu.uz

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC REPORTS

Mas'ul kotib
Texnik muharrir

X. Sh. Tashpulatov
A. I. Inatov

Muharrirlar:

I.Sulaymonov
E.Arziqulov
O.Yusupova

- f.f.d., dotsent
- f.-m.f.n., dotsent
- fil.f.n., dotsent

Mas'ul muharrirlar:

D. M. Aronbayev
A. Sh. Yarmuxamedov
X. S. Xaydarov

- k.f.n., dotsent
- f.-m.f.n.
- f.-m.f.n., dotsent

Muassis: Samarqand davlat universiteti
Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet hiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 239-14-07, Faks: (0 366) 239-13-87
e-mail: axborotnoma@samdu.uz

SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi.
Bosishga 30.04.2021 yilda ruxsat etildi. Qog'oz o'lchami A-4. Nashriyot hisob tabog'i 10,00.
Buyurtma raqami 457. Adadi 30 nusxa.

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
SamDU bosmaxonasida chop etildi.